

A.A.Abduxalilov, E.X.Zaitov

# IJTIMOIIY SIYOSAT

20





O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI  
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

**A.A.Abduxalilov, E.X.Zaitov**

# **IJTIMOIV SIYOSAT**

*O'quv qo'llanma*

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi  
tomonidan 5520100- Ijtimoiy ish (faoliyatning turli sohalari bo'yicha)  
yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etiladi*

«ZEBO PRINT»  
Toshkent-2021

UO'K: 316.334.3(075.8)

KBK: 60.56ya73

A 15

**Abduxalilov A.A., Zaitov E.X.**

**Ijtimoiy siyosat** [Matn]: o'quv qo'llanma / A.A. Abduxalilov, E.X. Zaitov.

-Toshkent: «ZEBO PRINT», 2021. - 388 b.

O'quv qo'llanmada ijtimoiy siyosatning ijtimoiy siyosatning obyektini va predmetini, ijtimoiy siyosatning nazariy asoslari, aholi daromadlarini oshirishda oylik ish haqining o'rni, ijtimoiy xizmatlar, aholini ijtimoiy muhofaza qilish davlat ijtimoiy siyosatining asosiy yo'nalishi sifatida, ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning jahon tajribasi, ijtimoiy sheriklik tizimi: xokimiyat tuzilmalari bilan aloqalarini o'rnatish, O'zbekiston ijtimoiy siyosatining strategiyasi va ustivor yo'nalishlari, ijtimoiy sug'urta: huquq, moliya va iqtisodiyot, demografik siyosat, pensiya tizimining mohiyati va uni isloh qilish, aholi bandligi, ishsizlik: ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini, asosiy ko'rinishlari, qisqartirish yo'llari, kambag'allik muammolari va ularni hal qilish yo'llari, davlatning oilaga qaratilgan siyosati, ijtimoiy siyosat va ijtimoiy xavfsizlikning mazmuni va ustivor yo'nalishlari bayon etilgan.

O'quv qo'llanma oliy o'quv yurtlarining ijtimoiy ish (*faoliyatning turli sohalari bo'yicha*) yo'nalishida o'qiydigan bakalavr, magistrantlarga, ushbu fanni o'qitadigan professor-o'qituvchilar, ijtimoiy siyosat sohasida ilmiy tadqiqotlar olib boradigan doktorant, mustaqil tadqiqotchilar, ijtimoiy siyosatni mustaqil o'rganuvchilar uchun mo'ljallangan.

5520100 – Ijtimoiy ish (*faoliyatning turli sohalari bo'yicha*) yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etiladi.

**Taqrizchilar:**

**Sh.M.Sodiqova** – O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi "Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrasi professori, sotsiologiya fanlari doktori;

**N.M.Latipova** - O'zMU "Ijtimoiy ish" kafedrasi professori, sotsiologiya fanlari doktori

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 31-maydagi 237-sonli buyrug'iga asosan o'quv qo'llanma sifatida nashr etishga ruxsat etilgan.

ISBN 978-9943-7921-5-9

## KIRISH

Ushbu kitobda ijtimoiy siyosatning asosiy tamoyillari va mohiyati ochib berilgan. O'quv qo'llanma orqali talabalar ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni tahlil qilish, boshqa ijtimoiy munosabatlar bilan aloqadorligini kuzatish ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

O'quv qo'llanma davlat ta'lim standartlariga to'liq javob beradi hamda ijtimoiy ish fani bo'yicha bakalavriatning iqtisodiyot, siyosatshunoslik, sotsiologiya kabi ta'lim yo'nalishlarida tahsil oluvchi talabalar, hamda mamlakatimizda shiddat bilan kechayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga qiziqish bildirayotgan keng kitobxonlar ommasi uchun mo'ljallangan.

XXI asrda Mustaqil O'zbekiston o'z rivojlanishining yangi va muhim pallasiga kirdi. Pandemiya tufayli yuzaga kelgan murakkab iqtisodiy vaziyatga qaramasdan, bugungi kunda O'zbekistonda ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida kechayotgan jadal rivojlanishni ko'rishimiz mumkin. Bu xususda so'z yuritganda ayniqsa, so'nggi yillarda ijtimoiy siyosatga doir masalalarning markaziy o'rin tutishini alohida e'tirof etish joiz. Bu o'rinda "2017-2021 yillarga mo'ljallangan O'zbekistonni yanada rivojlantirish Harakatlar strategiyasi"ni yaqqol misol qilishimiz mumkin.

Shuni aytish joizki, strategiyaning to'rtinchi ustuvor yo'nalishi ijtimoiy sohani rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, unda sog'liqni saqlash, aholini uy-joy bilan ta'minlash, aholining ehtiyojmand qatlamini ijtimoiy himoya qilish, davlatning yoshlarga doir siyosatini takomillashtirish kabi ijtimoiy siyosatning muhim sohalarini isloh qilish mexanizmlari keng yoritilgan.

Mazkur sohalarni isloh etishda ijtimoiy ish sohasi mutaxassislarining xizmati beqiyosdir. Binobarin, ijtimoiy ishning nazariy va amaliy jihatlarini chuqur o'zlashtirgan soha mutaxassislari aholining ehtiyojmand qatlamiga samarali yordam ko'rsatish kabi xayrli ishni amalga ohrishga bel bog'laganlar.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, ijtimoiy siyosat jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sohalardagi jarayonlar bilan bevosita bog'liq.

Joriy yilning ikkinchi choragidan boshlab butunjahon miqyosida bashariyat boshiga tushgan Pandemiya ofati tufayli yuzaga kelgan iqtisodiy tanglik kabi murakkab vaziyat ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni

innovatsion usullar orqali tahlil qilishni va bo'layotgan jarayonlarga ilmiy asoslangan bashorat qilishni taqozo etmoqda.

Inson hayoti uchun g'oyat tahlikali bo'lgan shunday bir davrda rivojlangan mamlakatlarning ilg'or tajribasi shuni ko'rsatadiki, mavjud ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni chuqur va tizimli tahlil qilish ko'nikmasiga ega bo'lgan mutaxassislar islohotlar jarayonida davlat va jamiyat tomonidan qo'yilgan vazifalarni samarali bajarish imkonini beradi.

Ijtimoiy siyosat fanining nazariy va amaliy jihatlarini chuqur o'zlashtirgan mutaxassislar bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy xizmatlarni takomillashtirish, bu borada mavjud bo'lgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar monitoringini olib borish, rivojlangan davlatlar tomonidan qo'llangan tajribalaridan kelib chiqqan holda, yangi huquqiy normalarni taklif qilish imkoniyatiga egadirlar.

Shulardan kelib chiqqan holda, bugungi kunda O'zbekistonda ijtimoiy-siyosiy sohaga doir qator darsliklar, o'quv va uslubiy qo'llanmalar nashr ettirildi va dissertatsiyalar himoya qilindi. Jumladan, mamlakatimizning yetakchi oliygohlaridan biri bo'lgan Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti "Ijtimoiy ish" kafedrasida professor-o'qituvchilari tomonidan yaratilgan ushbu adabiyot ham shular sirasiga kiradi.

Mazkur o'quv qo'llanmani tayyorlashda A.V.Vaxobov<sup>1</sup>, G.X.Yusupova, X.Jabborov, X.X.Qosimova<sup>2</sup>, Q.X.Abduraxmonov, X.X.Abduraxmonov<sup>3</sup>, K.E.Xidiraliyev<sup>4</sup>, T.M.Ziyayev<sup>5</sup> kabi mamlakatimiz yetuk olimlarining darslik va qo'llanmalari hamda tadqiqotlaridan keng foydalanildi.

Shuningdek, Y.I.Xolostova, G.I.Klimantova<sup>6</sup> kabi MDH davlatlari olimlari tomonidan yaratilgan adabiyotlardan ham keng foydalanildi.

Darhaqiqat, o'quv qo'llanmada ijtimoiy siyosat faniga tegishli bo'lgan konseptual nazariy masalalar ham yoritilgan bo'lib, ijtimoiy siyosat fanining davlat ta'lim standartiga, namunaviy va ishchi dasturga

<sup>1</sup> "Ijtimoiy siyosat". O'quv qo'llanma i.f.d. prof. A.V.Vaxobovning umumiy tahriri ostida. – Toshkent: "MUMTOZ SO'Z", 2019. 312 bet.

<sup>2</sup> Сисёсаг назарияси. Дарслик / Г.Х. Юсупова, Х.Ж.Жабборов, Х.Х.Қосимова.– Т.: "Университет", - 2003.

<sup>3</sup> Abdurahmonov Q.X., Abduramonov X.X. "Aholini ijtimoiy muhofaza qilish" O'quv qo'llanma. –Т.: Tafakkur bo'stoni, 2010.

<sup>4</sup> Xidiraliyev K.E. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari. - Guliston.-:2019.

<sup>5</sup> Зияев Т.М. Ишчи кучи ва бандлик назарияси: Ўқув қўлланма. –Т.: ТДИУ, 2009.

<sup>6</sup> Социальная политика : учебник для бакалавров / под ред. – С. 69 Е. И. Холостовой, Г. И. Климантовой. — М. : Издательство Юрайт, 2013.

muvofiq tayyorlangan.

Yuqorida e'tirof etilganidek, ushbu o'quv qo'llanmada ijtimoiy siyosat faniga tegishli nazariy usulologik masalalarga ham alohida e'tibor qaratilgan.

Kitobda mualliflar tomonidan asosiy elementlar bo'lgan bandlik, pensiya ta'minoti, aholini sug'urtalash, oila va demografik siyosat, ijtimoiy xavfsizlik kabi yo'nalishlar batafsil o'rganib chiqilgan. O'quv qo'llanmaning har bir bobining so'ngida, ijtimoiy siyosat fanini o'zlashtirish uchun nazorat savollari va testlar berilgan.

Ushbu fanni o'zlashtirish natijasida talabalar ijtimoiy siyosatning darajalari, asosiy yo'nalishlari, boshqa sohalar bilan aloqadorligi, hamda ijtimoiy tizimlar rivojlanishining qonuniyatlari haqida bilimga ega bo'lishi kerak. Shu bilan bir qatorda ular ijtimoiy jarayonlarni tahlil qila bilishi, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy qonunlarni aniqlay bilishi, ijtimoiy siyosat sohasidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlardan unumli foydalana olish ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.

Mualliflar ushbu qo'llanmaning mazmuni, tarkibi va o'quv materiallarini uzatishning uslubiy jihatlari yuzasidan talabalardan o'z fikr va mulohazalarini bildirishini so'rab qoladi.

## **I-bob. IJTIMOIIY SIYOSATNING OBYEKTI VA PREDMETI**

**1.1. Ijtimoiy siyosatning obyektini va predmetini, rivojlanish bosqichlari**

**1.2. Ijtimoiy siyosatni olib borish usullari**

**1.3. Ijtimoiy ehtiyojlar, ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy muammolar tushunchasi**

**1.4. Ijtimoiy adolat. Samaradorlik va tanlov**

### **1.1. Ijtimoiy siyosatning obyektini va predmetini, rivojlanish bosqichlari**

Ijtimoiy siyosat fani ijtimoiy fanlardan farqli o'laroq, aholining turmush tarzini yaxshilashga, farovonligini oshirishga qaratilgan ijtimoiy munosabatlar tizimini o'rganadi. "Ijtimoiy siyosat" atamasi faqat ilmiy tadqiqotlarni olib borish maqsadida qo'llanilibgina qolmasdan, davlatning ijtimoiy dasturlari majmuasini ham o'zida ifodalaydi. Ijtimoiy siyosat – aholi farovonligini oshirishga qaratilgan qarorlarni ilmiy asoslarini o'rganishga qaratilgan fandır.<sup>7</sup>

Ijtimoiy siyosat iborasining xilma-xil talqinlari mavjud. Ba'zi bir manbalarda ijtimoiy siyosat bu – aholining turli guruhlarining manfaatlarini amalga oshirishga qaratilgan davlat siyosati hisoblanadi. Ijtimoiy siyosat bu aholini ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan xilma-xil subyektlar faoliyatidir. Ijtimoiy siyosat deganda muayyan davlat hokimiyatining ijtimoiy soha bo'yicha o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalarini amalga oshirish bilan bog'liq siyosati tushuniladi. Yuqoridagi ta'riflardan kelib chiqqan holda, shuni aytish joizki, ijtimoiy siyosat aholining turmush darajasini oshirishga qaratilgan bo'lib, unga:

- daromad siyosati;
  - ijtimoiy ta'minot va mehnat bozorlarini shakllantirish;
  - aholi bandligini ta'minlash siyosati;
  - demografik siyosat;
  - kambag'allikni oldini olishga qaratilgan siyosat;
  - ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlash siyosati;
  - aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sifatini yaxshilash siyosati
- kabilar kiradi.

<sup>7</sup> Alcock P., May M. and Wright Sh. "Social Policy". 2012. John Wiley & Sons Ltd. P. 5-6.

Ijtimoiy siyosatning obyekti – ijtimoiy sohadir. Ijtimoiy soha iqtisodiy tizimning alohida tarkibiy qismi hisoblanadi. Ijtimoiy sohaning mohiyatini yoritishda turli yondashuvlar mavjud. Xalq xo‘jaligi tarkibi nuqtayi nazaridan ijtimoiy soha aholining belgilangan turmush darajasi va tarzini bevosita ta‘minlovchi tarmoq, korxonalar va tashkilotlar yig‘indisi sifatida tushuniladi. Shunday tarmoq, korxonalar va tashkilotlar sirasiga asosan ijtimoiy xizmat ko‘rsatish sohalari – ta‘lim muassasalari, sog‘liqni saqlash, transport tashkilotlari, ijtimoiy ta‘minlash organlari, madaniyat, sport va boshqa muassasalar kiradi<sup>8</sup>.

Ijtimoiy soha tushunchasini aniqlashda taxminan shu kabi yondashuv ko‘plab o‘quv va ilmiy adabiyotlarda qayd etiladi. Ijtimoiy sohani aniqlashdagi tarkibiy yondashuv mamlakat xalq xo‘jaligi tizimidagi shu sohaning tashkilot va idoralarning o‘rnini o‘rganish, ularning yillar kesimidagi o‘sish sur‘atini kuzatish, ijtimoiy sohaga oid davlat budjeti xarajatlarining o‘zgarishini o‘rganishga imkon beradi. Shuni ta‘kidlash joizki, ijtimoiy sohaning bunday tushunchasida mexanik va sof statistik yondashuv ustundir. Ijtimoiy siyosat kategoriyasi sifatida ijtimoiy sohaning to‘liq mohiyati yoritilmagan.

Mazkur o‘quv qo‘llanmada, mualliflar fikricha, ijtimoiy soha, o‘z ichiga ijtimoiy madaniy, iqtisodiy, siyosiy sohalarni qamrab oladi. Chunki mazkur sohalarda ijtimoiy sohaga bevosida o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi.

**Ijtimoiy mahsulot** ijtimoiy soha xodimlari tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlarni (ta‘lim, madaniyat, jamoatchilik oziq-ovqat, ijtimoiy ta‘minot, kommunal va transport xizmatini ko‘rsatish, aloqa va boshqalar) ifodalaydi. Rasmiy statistikada ijtimoiy mahsulotning qiymati belgilangan vaqt (chorak, yil) davomida sotilgan xizmatlar summasi vositasida aniqlanadi. Bu ko‘rsatkich kamchilikka ega, ya‘ni faqatgina to‘lov xizmatlarini hisobga oladi. O‘qituvchilar, shifokorlar va davlat muassasalarining boshqa xodimlari mehnati bilan yaratilgan ijtimoiy mahsulotning qiymati hisobga olinmay qolmoqda. Bunday kamchilikning asosiy sababi – ijtimoiy mahsulotning aynan shu qismini hisobga olish uslubiyatining ishlanmaganligidir. Ijtimoiy mahsulotni ishlab chiqarish va sotishda uni yaratganlar va iste‘mol qilganlar o‘rtasida belgilangan o‘zaro munosabatlar vujudga keladi, davlat,

---

<sup>8</sup> Современный экономический словарь. М., 1997г. – С. 318.

tashkilotlar, ijtimoiy sohaning barcha muassasalari iqtisodiy siyosatining ijtimoiy yo'naltirilganligi aniqlanadi.

1.1.-jadval.

IJTIMOIY SOHA	FAOLIYAT TURLARI
<p>Bolalar maktabgacha tarbiyalash muassasalari Sog'liqni saqlash muassasalari</p>	<p>Bolalarni tarbiyalash va sog'liqni saqlash bo'yicha xizmatlar ko'rsatadi Mamlakat qonunchiligida belgilangan tartibda (to'lov asosida bepul, imtiyozli) aholiga tibbiy xizmat ko'rsatadi</p>
<p>Maktab, maorif, ilmiy muassasalar va texnologiyalar yaratadigan tashkilotlar</p>	<p>Qonunchilikka asoslangan ta'lim berish xizmatlari ko'rsatish, Innovatsiya faoliyatini amalga oshiradi, aholi va iqtisodiyot tarmoqlarini ilmiy xizmatini ta'minlaydi</p>
<p>Madaniyat, sport, turizm va ommaviy axborot vositalari muassasalari</p>	<p>Aholining ma'naviy va jismoniy ehtiyojlarini qondiradi</p>
<p>Ijtimoiy himoyalash muassasalari</p>	<p>Aholining yordamiga muhtoj qatlamiga sotsial yordam ko'rsatadi va qo'llab-quvvatlaydi, mehnatga layoqatli fuqarolarning mehnat bandligini ta'minlaydi</p>
<p>Ijtimoiy yo'naltirilgan jamoatchilik tashkilotlari</p>	<p>Mehnat muhofazasi va sharoitlarini ta'minlash, xavf-xatarning oldini olish bilan shug'ullanadi</p>

Ijtimoiy siyosat fanining predmeti – ijtimoiy guruhlarni jamiyatda tutgan o'rni borasidagi o'zaro harakatlari jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy amaliyot shakllari qonuniyatlarini o'rganishdan iborat<sup>9</sup>.

Ijtimoiy siyosat – davlat, jamoat tashkilotlari va xayriya fondlarining aholi ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan va ijtimoiy soha orqali amalga oshiriladigan faoliyatidir.

Ijtimoiy siyosat aholining barcha qatlamlarini o'z ichiga qamrab oladi. Bunda asosiy e'tibor aholining ehtiyojmand qismi (keksalar,

<sup>9</sup> "Ijtimoiy siyosat". O'quv qo'llanma i.f.d. prof. A.V.Vaxabovning umumiy tahriri ostida. – Toshkent: "MUMTOZ SO'Z", 2019. – B. 7.

yolg'iz onalar, yetim bolalar, talabalar, nogironligi bor shaxslar hamda kam ish haqi olib ishlovchi kategoriyalar)ni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar tizimidan iborat.

Umuman, ijtimoiy siyosat davlatning ijtimoiy rivojlanish, aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy himoya qilish sohasida muvofiqlashtirilgan siyosiy, iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlari tizimidan iborat.

Ijtimoiy siyosatning maqsadi – kishilar ijtimoiy ehtiyojlari va manfaatlarini qondirish, yordamga muhtoj bo'lgan ayrim fuqarolar va ijtimoiy guruhlarni qo'llab-quvvatlash, himoyalash, to'g'ri yo'naltirish va mehnat qobiliyatini qayta tiklash uchun sharoitlar yaratishdan iborat. Bunga samarali me'yoriy-qadriyatlar tizimini yaratish; fuqarolarga ijtimoiy me'yorlarni amalda ta'sir ettirish, ularning xulq-atvorini ijtimoiy tartibga solish vositasi sifatida uning ta'sirini yuqori darajaga ko'tarish, ijtimoiy tug'ilajak ehtiyojlar bilan, manfaatlar bilan ularni qanoatlantirish imkoniyatlari – aniqligi, obyektivligi, me'yoriy ko'rsatmalarga zid bo'lmasligi va shu kabilar orasidagi o'xshashlik tushuniladi.

Ijtimoiy siyosat ikki xil – yaqin davrga va uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan bo'lishi mumkin. Yaqin yillar uchun mo'ljallangan ijtimoiy siyosat aholi turmush tarzining yanada og'irlashuviga yo'l qo'ymaslik, bandlik siyosatini samarali olib borish va ishsizlikning jadal oshishini cheklash; aholi turli qatlamlari va guruhlarining moddiy holatini va turmush sharoitlarini tadrijiy ravishda yaxshilash uchun zarur imkoniyatlarni yaratishni nazarda tutadi.

Uzoq muddatli ijtimoiy siyosatga samarali rag'batlantirish vositalarini ishlab chiqish va amalga oshirilishini ta'minlash yo'li bilan fuqarolar tashabbuskorligi va tadbirkorligini rivojlantirish uchun sharoitlar yaratishni kiritish mumkin. Ijtimoiy siyosat volyuntarik aralashuvlarsiz o'tkazilgandagina shaxs rivojining, va umuman, jamiyat barqarorligining kuchli vositasi bo'lishi mumkin.

Ijtimoiy siyosatning vazifalari quyidagilardan iborat:

– shaxsning mehnat qilish, bilim olish huquqlarini amalga oshirishni iqtisodiy va huquqiy jihatdan kafolatlash;

– aholining barcha qatlamlarini, birinchi navbatda eng kam himoya qilingan qatlamlarining ijtimoiy himoyalash mexanizmini yaratish;

– ommaviy ishsizlikka yo'l qo'ymaslik, ish joyini yo'qotgan taqdirda ishsizlarga qayta o'qish va qayta tayyorlash imkoniyatini berib

ularning mehnat bozorida raqobatbardoshligini ta'minlash; ijtimoiy sug'urta tizimini yaratish; ijtimoiy jihatdan nochor aholi qatlamlari turmush darajasining keskin pasayishiga yo'l qo'ymaslik;

– fuqarolar daromadlarining barqaror o'sishi va kompensatsion to'lovlarni ishonchli amal qiluvchi mexanizmini yaratmay turib, aholini majburiy xarajatlari va to'lovlarini ortishiga olib keluvchi qarorlarni qabul qilmaslik;

– aholining ehtiyojlarini o'rganish;

– ijtimoiy subyektlar tomonidan qabul qilingan qarorlarning legitimligini (qonuniyligini) oshirish;

– ijtimoiy siyosiy holatni bashorat qilish;

– davlatning ijtimoiy rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish;

– ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan qarorlarni qabul qilishda aholining turli xil guruhlarini jalb qilish.

Ijtimoiy siyosat tarkibiy jihatdan quyidagilarni qamrab oladi:

– ijtimoiy himoya tizimi (mehnat qobiliyatini yo'qotib o'zi ishlab topa olmaydigan yoki qaramog'ida bolalari, boqimandalarga ega bo'lgan shaxslarga nafaqa berish);

– ijtimoiy sug'urta (pensiya chiqish va ishsizlik bilan bog'liq bo'lgan ish haqini yo'qotishlarni vaqtinchalik qoplash);

– ijtimoiy xizmatlar (inson kapitalini investitsiyalash, ya'ni shaxsning takror ishlab chiqarish, ma'naviy salohiyatini tiklash va kengaytirishga qaratilgan investitsiyalarni amalga oshirish);

– jamiyatda vujudga kelishi mumkin bo'lgan ixtiloflarning oldini olish;

– demografik siyosatni amalga oshirish;

– aholining ijtimoiy xavfsizligini ta'minlash;

– mehnat bozori va bandlikni ta'minlash (mehnat bozorida ishchi kuchiga talab va taklif orasidagi o'zaro mutanosiblikni ta'minlash, yangi ish o'rinlarini joriy etish, ishchi kuchini tayyorlash va qayta tayyorlash va boshqalar).

Ijtimoiy siyosatining darajalari:

– umummilliy daraja – mazkur daraja davlat tomonidan amalga oshiriladi. Unda asosan davlat tomonidan qarorlar qabul qilinadi;

– mahalliy daraja – markaziy davlat organlari aparati tomonidan qabul qilingan qarorlarni mahalliy sharoitdan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

– korporativ daraja – korxonalarda ishchilarni himoya qilishga qaratilgan faoliyati hisoblanadi. Bunga korxonada tomonidan tavsiya etilgan turli xildagi ijtimoiy paketlar kiradi.

Davlat ijtimoiy siyosatining muhim tamoyillari quyidagilardan iborat:

– ijtimoiy adolat;

– ijtimoiy javobgarlik;

– ijtimoiy hamkorlik;

– ijtimoiy kafolatlar;

– har bir shaxsni zarur ijtimoiy ne'mat va xizmatlarni olishdagi teng imkoniyatlari;

– davlat tomonidan asosiy moddiy ne'matlar va xizmatlarni (minimal ish haqi, pensiyalar, minimal iste'mol budjeti) minimal ijtimoiy standartlar darajasida olishni kafolatlash.

Ijtimoiy siyosat o'tish davrida aktiv va passiv shaklda amalga oshirilishi mumkin. Aktiv ijtimoiy siyosat – mamlakatda ishlab chiqarishni rag'batlantirish mexanizmi orqali amalga oshirilib, aholi aksariyat qismining daromadlarini oshirish imkoniyatini ta'minlaydi va mustaqil yashash uchun tegishli sharoitlar yaratadi.

Passiv ijtimoiy siyosatda davlat fuqarolarning ayrim kategoriyalariga nisbatan chora-tadbirlarni (yordam, qo'llab-quvvatlash, rivojlantirish) amalga oshiradi. Unga xos xususiyatlar: selektiv, samarasiz, vaqtinchalik. Passiv ijtimoiy siyosatni amalga oshirish dastaklari quyidagilardan iborat:

– iqtisodiy dastaklar – baholar, tariflar, ish haqi, stipendiyalar, nafaqalar va barcha ijtimoiy to'lovlarni to'lash;

– ma'muriy dastaklar – ruxsat berish va man etishga qaratilgan chora-tadbirlar (kvota va litsenziyalar berish, man etish va boshqalar);

– huquqiy yoki qonuniy dastaklar – amal qilayotgan qonuniy va meyoriy aktlar tarkibini tartibga solish orqali;

– g'oyaviy dastaklar – ma'naviy etik tushuncha va jamiyat normalarini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar ("yaxshi" va "yomon", "axloqiy" va "noaxloqiy" va boshqalar);

– davlatning kompleks maqsadli ijtimoiy dasturlari (keksalarni e'zozlash, sog'lom bola va boshqalar).

## 1.2. Ijtimoiy siyosatni olib borish usullari

Ijtimoiy siyosatni tahlil etish jarayonida ma'lumotlarni to'plash, tarkibiy ketma-ketlik asosida tartibga solish, miqdoriy tahlil, sifat tahlili, aralash tahlil, ko'p ukladli, ierarxik usullardan uzviy ketma-ketlikda foydalanish orqali yuqori samaraga erishish mumkin bo'ladi<sup>10</sup>.

Ma'lumotlarni to'plash anketa so'rovnomalari o'tkazish, intervyu olish yoki kuzatish yo'li orqali amalga oshiriladi. Bunda birlamchi ma'lumotlar yig'iladi. Ushbu ma'lumotlarni yig'ishni har bir mamlakatda muntazam tarzda o'tkazish lozim. Chunki, jamiyatda vujudga kelayotgan ijtimoiy muammolarni uzviy tarzda kuzatish va ularni hal etish chora-tadbirlarini amalga oshirish natijalari to'g'risida ma'lumotlar bazasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yig'ilgan ma'lumotlarni tarkibiy ketma-ketlik asosida tartibga solish ma'lumotlarni tizimli tarzda o'rganish imkonini beradi. Bunda ma'lumotlarning dolzarbligi yoki rivojlanish darajasi yoki muammolarning soni bo'yicha guruhlash asosida yaxlit tizimlashtiriladi.

Tizimlashtirilgan ma'lumotlar miqdoriy va sifat jihatidan tahlil etiladi. Miqdoriy tahlilda yig'ilgan ma'lumotlarning son jihatidan tahlili amalga oshirilsa, ma'lumotlarni sifat jihatidan tahlil qilish esa ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda qo'llanilgan chora-tadbirlarni samaradorligi ko'rsatkichida ifodalanadi. Ushbu ikki usulni bir vaqtning o'zida qo'llanilishi aralash usul hisoblanadi. Ko'p ukladli usullar ikki yoki undan ortiq usullarni birdaniga qo'llashni bildiradi. Umuman olganda, har bir ijtimoiy tadqiqotlar amaliyotda bir necha usullarni qo'llash orqali amalga oshirilmoqda. Bu esa o'z navbatida yuqori samara beradi.

Ierarxik usul – ijtimoiy tadqiqotlarning tuzilishi, ya'ni tarkibi, o'zgarishlarning o'zaro uzviy ketma-ketligi, rivojlanish bosqichlarini o'zida mujassamlashtiradi. Mazkur usul odatda tibbiyot sohasida ko'p qo'llaniladi. Jumladan, kasallikning vujudga kelish sabablari, uning rivojlanishi yoki unga qarshi vositalarning qo'llanilishi natijasida kishida namoyon bo'ladigan ijobiy o'zgarishlarni uzviy tarzda qayd etib borish ierarxik usulni ifodalaydi. Tibbiyot sohasida mazkur usulning qo'llanilishi meta-tahlil yoki kvazi-eksperimentlarni o'tkazish jarayonidagi "Oltin standart" hisoblanadi.

---

<sup>10</sup> "Social Policy". – P. 12-17.

### 1.3. Ijtimoiy ehtiyojlar, ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy muammolar tushunchasi

Ijtimoiy ta'minot jamiyatning ayrim qatlamlari yoki kishilarning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish va turli ijtimoiy muammolarni hal etishda qo'llaniladigan ijtimoiy mexanizmlar majmuasini anglatadi. Ijtimoiy siyosatda ijtimoiy ta'minot aholi farovonligini ta'minlashni anglatadi. Ijtimoiy ta'minot ijtimoiy siyosatdan farqli o'laroq, oila, ijtimoiy guruhlar yoki ayrim aholi qatlamlarida mavjud ijtimoiy muammolarni hal etishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimini anglatadi. Jamiyatning ijtimoiy tarkibida oila, ijtimoiy guruhlar, nodavlat tashkilotlar va o'zaro aloqador assotsiatsiyalar mavjud bo'lib, ular mamlakatda ijtimoiy ta'minotni amalga oshirilishida muhim rol o'ynaydi.

Ijtimoiy ehtiyojlar ijtimoiy ta'minot institutlari tomonidan o'rganiladigan va belgilanadigan tovar va xizmatlar tarkibi hisoblanadi. Ijtimoiy ehtiyojni belgilashda uni xohish-istak tushunchasidan farqlash zarur bo'ladi. Xohish-istak kishiga yashashi uchun hayotiy zarur bo'lmagan boshqa tovar yoki xizmatlarni ham o'z ichiga oladi. Ijtimoiy ehtiyojlar esa ayrim jamiyat guruhlarining yashashi uchun zarur bo'lgan hayotiy ehtiyoj tovar va xizmatlar tarkibini o'z ichiga oladi. Ijtimoiy ehtiyojlarni belgilash talabdan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Ya'ni bunda ijtimoiy talabni ajratib olish zarurati vujudga keladi. Ijtimoiy talab kasallik bilan og'rigan kishilar yoki turli kam ta'minlangan aholi qatlamlarining hayotiy zaruriy tovar va xizmatlarga bo'lgan talabni o'zida ifodalaydi<sup>11</sup>.

Ijtimoiy ehtiyojlar jamiyatning ijtimoiy farovonlik darajasidan kelib chiqqan holda belgilanishi zarur. Ijtimoiy ehtiyojlar ijtimoiy ta'minot orqali qondiriladi. Bunda bir oila uchun zarur barcha tovar va xizmatlar tarkibidan eng muhimlarini yetarli darajada, qolgan ikkilamchi tovar va xizmatlar (Jumladan, Internet, kiyim-kechak, televizor va boshqalar) esa mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik darajasidan kelib chiqqan holda, minimal tarzda belgilanishi yoki umuman belgilanmasligi mumkin. Umuman olganda, ijtimoiy ehtiyojlarni belgilashda asosiy (birlamchi) va ikkilamchi tovar va xizmatlar tarkibini ajratib olish zarurati tug'iladi.

---

<sup>11</sup> "Social Policy". – P. 21-22.

Ijtimoiy ta'minot muassasalari ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish va ijtimoiy muammolarni hal etish jarayonida qatnashishlari zarur bo'ladi. S.R. Mills fikriga ko'ra, bir kishining ishsiz bo'lishi uning ish joyiga bo'lgan ehtiyojini bildiradi<sup>12</sup>. Jamiyatda ishsizlar sonini ortib borishi bevosita mamlakatda ijtimoiy muammolarni vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Ijtimoiy muammolar individual ijtimoiy ehtiyojlardan farqlanadi. Jamiyatda kambag'allik muammosining vujudga kelishi ijtimoiy ehtiyojlar bilan bog'liq bo'lishidan qat'iy nazar, ijtimoiy muammo hisoblanadi. Ijtimoiy muammo mamlakat miqyosida vujudga keladi va makro darajadaga xususiyatga ega bo'ladi. Ijtimoiy muammolar xalq hayoti uchun xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan vaziyatlarni o'zida aks ettiradi. Jumladan, OIV/OITS kabi kasalliklar tarqalishi yoki insondan-insonga yuqishi inson hayoti uchun xavli hisoblanganligi sababli, ijtimoiy muammolar sirasiga kiradi. Bu esa ijtimoiy ta'minot muassasalari tomonidan ushbu kasallikni oldini olish va kasallangan kishilarni tegishli dori-darmonlar bilan ta'minlashni taqazo etadi.

#### 1.4. Ijtimoiy adolat. Samaradorlik va tanlov

Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda jamiyatning turli aholi ijtimoiy guruhlarining bir xil baholanishi ijtimoiy tenglikni anglatadi. Amaliyotda ushbu vaziyat ijtimoiy xizmatlardan foydalanish huquqlari, ijtimoiy qarorlarni qabul qilish jarayonida qatnashish huquqi, ijtimoiy ta'minot muassasalari tomonidan beriladigan ijtimoiy transfertlarni (nogironlik nafaqasi, stipendiya, ishsizlik nafaqasi, pensiya va boshqalar) olish kabi huquqlarga egalik qilishda namoyon bo'ladi.

Shuni aytib o'tish kerakki daromad tengligi Jinni indeksi tamonadan o'lchanadi.

Ijtimoiy tenglikni jamiyatda amal qilishida ma'lum bir me'yorlarni o'rnatish zarur bo'ladi. Neoklassik nazariyaga asosan kishilar o'z manfaatlarini yuqori qo'ygan holda ijtimoiy nafaqa olish imkoni bo'lgan vaziyatda mehnat qilishdan bosh tortishlari va ishsizlik nafaqasi kabi boshqa turdagi nafaqalar olishlari mumkin.<sup>13</sup> Bu esa o'z navbatida ijtimoiy ta'minot tizimida va jamiyatda ijtimoiy muammolarni kelib

---

<sup>12</sup> "Social Policy". – P. 22.

<sup>13</sup> "Social Policy". – P. 26-27.

chiqishiga sabab bo'ladi. Bu esa o'z navbatida aholi mintaliteti va madaniyatiga bog'liq holdir.

Huquq – bu mohiyatan yuridik tushuncha bo'lib, individual davolarni legitimligini anglatadi. Ijtimoiy siyosatda mazkur tushuncha ijtimoiy transfert olish va ijtimoiy xizmatlardan foydalanish davlat tomonidan qonuniy kafolatlanganligi bilan birgalikda fuqarolarga mazkur huquqlar berilganligida o'z aksini topadi. Ijtimoiy huquqlarning quyidagi turlari mavjud<sup>14</sup>:

– mehnat (sug'urta) staji mobaynida ijtimoiy sug'urta fondlariga to'langan badallar hisobidan ijtimoiy nafaqa olish huquqi. Ushbu usul amaliyotda yuqori samaradorlikka ega bo'lgan usullardan hisoblanadi;

– turli ijtimoiy aholi guruhlarini qo'llab-quvvatlash. Ushbu huquq yosh bola, nogiron, turli og'ir kasalliklar bilan og'rigan kishilar va qarilar parvarishi bilan bandlarga nisbatan qo'llaniladi. Ushbu xizmatdan foydalanish ko'p hollarda yosh va jins bilan bog'liq bo'ladi. Bundan tashqari, ta'lim olish, tibbiyot xizmatlaridan foydalanish kabi xizmatlar ham mazkur guruhga kiradi.

Ijtimoiy adolat har bir kishining jamiyatdagi o'zining statusidan kelib chiqqan holda tegishli tarzda farovonlik darajasiga egalik qilishida namoyon bo'ladi. Ijtimoiy adolat tenglik va huquq doirasida amalga oshirilishi zarur. Bu esa har bir shaxsning tegishli ijtimoiy xizmatlardan foydalanishi mumkinligi yoki ijtimoiy ta'minot dan foydalanish huquqini qo'lga kiritishida namoyon bo'ladi. Tenglik, huquq va ijtimoiy adolat ijtimoiy siyosatning asosini tashkil qiladi<sup>15</sup>.

Iqtisodiy tahlil jarayonini amalga oshirishda cheklangan resurslar omilini e'tiborga olish muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham hech kim istaganlarining barchasiga egalik qila olmaydi. Defitsit (resurslar cheklanganligi) omili bilan to'qnash kelinganida kishilar tanlovni amalga oshirishga majbur bo'ladilar. Bunda kishining xohish-istagidan kelib chiqqan holda, u egalik qilishni istagan narsalari o'rtasida tanlovni amalga oshiradi. Mazkur jarayon inson mablag'i, vaqti va shunga o'xshash boshqa omillarni e'tiborga olgan holda, tovar yoki xizmatlar tarkibidan qaysi birini ko'proq yoki kamroq iste'mol qilishini tanlaydi. Iqtisodchilar tanlov jarayonini amalga oshirishda

<sup>14</sup> "Social Policy". – P. 27-29.

<sup>15</sup> "Social Policy". – P. 30-31.

tanlangan tovar yoki xizmatning insonga foydalilik koeffitsienti (qaytimi) tanlovni rag‘batlantirishini ta’kidlaydilar<sup>16</sup>.

Iqtisodiyotda samaradorlik muhim ahamiyat kasb etadigan kategoriya sifatida qaraladi. Mamlakatda qancha miqdorda tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish kerak bo‘ladi, degan savolga javob topishda ularning jamiyatga qay darajada foydaliligini, jumladan, uning samarasini e’tiborga olish zarur bo‘ladi. Jamiyat tomonidan ishlab chiqarishga ajratilgan resurslar hajmi va uning (tayyor mahsulot, tovar va xizmatlar) qiymati (narxi) qoniqarli deya baholansa, iqtisodchilar ushbu holatni ishlab chiqarishning samarali darajasi deb belgilaydilar. Ushbu tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishga resurslarni yo‘naltirish samarali hisoblanadi.

Samaradorlikni hisoblashda iste’mol afzalligini inobatga olish zarur. Jumladan, qorni och odamning birinchi ovqatlanish jarayonini oladigan bo‘lsak. Bunda uning birinchi qoshiqdan oladigan afzalligi yuqori darajada bo‘ladi. Keyingi qoshiqlarda esa kishining qorni to‘ygani sari uning afzalligi mutanosib ravishda kamayib boradi. Ushbu tahlil jarayonini mamlakat miqyosida amalga oshirilganida, ma’lum bir tovar yoki xizmatning istemolchi uchun qay darajada afzalligini hisoblash kerak bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda, mazkur jarayon iqtisodchi olim Engel tomonidan “Chekli naflilikni kamayib borishi” qonunida o‘z ifodasini topgan<sup>17</sup>.

Tanlov iqtisodchilar tomonidan hal etuvchi omil sifatida qaraladigan mexanizm hisoblanadi. Tanlovni amalga oshirish orqali insonlar tovar yoki xizmatga baho beradilar. Tovar yoki xizmatga berilgan baho orqali ularni qay darajada ishlab chiqarilishi aniqlab olinadi. Tanlov ko‘p hollarda raqobat bilan bog‘liq bo‘ladi: raqobat iste’molchilarning tanlovni amalga oshirishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatuvchi omil hisoblanadi. Oila keng yoki tor darajada jamiyatdagi resurslarni avlodlar, jumladan erkaklar va ayollar orasidagi taqsimot tizimida muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Nazorat savollari:**

1. Ijtimoiy siyosat iborasining qanday ta’riflarini bilasiz?
2. Ijtimoiy siyosatning obyektini tushuntirib bering.
3. Ijtimoiy siyosat fanining predmetini tushuntirib bering.

<sup>16</sup> “Social Policy”. – P. 45.

<sup>17</sup> “Social Policy”. – P. 41-46.

4. Ijtimoiy soha deganda nimani tushunasiz?
5. Ijtimoiy siyosatning maqsadini tushuntirib bering.
6. Ijtimoiy siyosatning vazifalarini aniqlang.
7. Ijtimoiy siyosatning tarkibiy jihatlarini tushuntirib bering.
8. Davlat ijtimoiy siyosatining muhim tamoyillarini sanab o'ring.
9. Ijtimoiy siyosatining darajalarini aniqlang.
10. Ijtimoiy siyosatni olib borish usullarini tushuntirib bering.
11. Ijtimoiy ehtiyojlar, ijtimoiy ta'minot tushunchalarini sharhlab bering.
12. Ijtimoiy adolat tushunchasini sharhlab bering.

### Testlar:

#### 1. Ijtimoiy siyosat fani...?

- a) aholining turmush farovonligini oshirishga qaratilgan ijtimoiy munosabatlar tizimini o'rganadi;
- b) ijtimoiy munosabatlar yig'indisini o'rganadi;
- c) davlat siyosatini o'z ichiga olib, kishilar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganadi;
- d) aholining ijtimoiy, fuqarolik munosabatlarini tartibga solinishini o'rganadi.

#### 2. Ijtimoiy siyosat fanining obyekti nima?


- a) ijtimoiy ish;
- b) ijtimoiy faoliyat;
- c) ijtimoiy soha;
- d) ijtimoiy munosabatlar.

#### 3. Xalq xo'jaligi tarkibi nuqtayi nazaridan ijtimoiy soha qanday tushuniladi?

- a) aholining belgilangan turmush darajasi va tarzini bevosita ta'minlovchi tarmoq, korxonalar va tashkilotlar yig'indisi;
- b) ijtimoiy ta'minot va mehnat bozorlarini shakllantirish;
- c) aholi bandligini ta'minlash siyosati;
- d) aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sifatini yaxshilash.

#### 4. Ijtimoiy mahsulot deganda nima tushuniladi?

- a) ijtimoiy soha xodimlari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarni (ta'lim, madaniyat, jamoatchilik, oziq-ovqat, ijtimoiy ta'minot, kommunal va transport xizmatini ko'rsatish, aloqa va boshqalar);
- b) ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy, siyosiy sohalarni;



c) ijtimoiy muhofaza bilan bog'liq munosabatlarni;

d) ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy yordamni.

**5. Ijtimoiy siyosat fanining predmeti ...?**

a) ijtimoiy guruhlarini jamiyatda tutgan o'rni borasidagi o'zaro harakatlari jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy amaliyot shakllari qonuniyatlarini o'rganishdan iborat;

b) davlat, jamoat tashkilotlari va xayriya fondlarining aholi ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan va ijtimoiy soha orqali amalga oshiriladigan faoliyatidir;

c) aholining yordamga muhtoj qismiga sotsial yordamni ko'rsatadi va qo'llab-quvvatlaydi, mehnatga layoqatli fuqarolarning mehnat bandligini ta'minlashdan iborat;

d) mehnat muhofazasi va sharoitlarini ta'minlash, xavf-xatarning oldini olish bilan shug'ullanishini qamrab oladi.

**6. Ijtimoiy siyosat qanday ko'rinishda bo'lishi mumkin?**

a) 5 yilga mo'ljallangan;

b) uzoq muddatli;

c) tor va keng qamrovli;

d) yaqin va uzoq muddatli.

**7. Ijtimoiy siyosatning darajalarini ko'rsating.**

a) mahalliy, milliy, zamonaviy;

b) milliy, mintaqaviy, muddatli;

c) umummilliy, mahalliy, korporativ;

d) shaxslararo, guruhlararo, millatlararo.

**8. Ijtimoiy siyosatning shakllari qanday?**

a) umumiy va maxsus;

b) bir darajali va ko'p darajali;

c) oddiy va murakkab;

d) aktiv va passiv.

**9. Ijtimoiy siyosatni olib borishda ma'lumotlarni to'plash uchun qanday ishlar amalga oshiriladi?**

a) anketa so'rovnomalari o'tkazish, intervyular olish yoki kuzatishlar olib borish yo'li bilan amalga oshiriladi;

b) jamiyatda vujudga kelayotgan ijtimoiy muammolarni aniqlash va ularni hal etish chora-tadbirlarini amalga oshirish;

c) yig'ilgan ma'lumotlarni tarkibiy ketma-ketlik asosida tartibga solish;

d) tizimlashtirilgan ma'lumotlar miqdoriy va sifat jihatidan tahlil etiladi.

#### **10. Ierarxik usul bu?**

a) ijtimoiy tadqiqotlarning tuzilishi, ya'ni tarkibi, o'zgarishlarning o'zaro uzviy ketma-ketligi, rivojlanish bosqichlarini o'zida mujassamlashtiradi;

b) ko'p ukladli usullar ikki yoki undan ortiq usullarni birdaniga qo'llashni bildiradi;

c) yig'ilgan ma'lumotlarning son jihatidan tahlili amalga oshirilib, ma'lumotlarni sifat jihatidan tahlil qilish esa ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda qo'llanilgan chora-tadbirlarni samaradorligi ko'rsatkichida ifodalanadi;

d) ma'lumotlarning dolzarbligi yoki rivojlanish darajasi yoki muammolarning soni bo'yicha guruhlash asosida yaxlit tizimlashtiriladi.

#### **11. Ijtimoiy ta'minot tushunchasiga ta'rif berilgan qatorni ko'rsating.**

a) davlatning ijtimoiy rivojlanish, aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy

himoya qilish sohasida muvofiqlashtirilgan siyosiy, iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlari tizimidir;

b) ijtimoiy tadqiqotlarning tuzilishi, ya'ni tarkibi, o'zgarishlarning o'zaro uzviy ketma-ketligi, rivojlanish bosqichlarini o'zida mujassamlashtiradi;

c) jamiyatning ayrim qatlamlari yoki kishilarning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish va turli ijtimoiy muammolarni hal etishda qo'llaniladigan ijtimoiy mexanizmlar majmuasini anglatadi;

d) kishilar ijtimoiy ehtiyojlari va manfaatlarini qondirish, ayrim fuqarolar va ijtimoiy guruhlarni qo'llab-quvvatlash, himoyalash, to'g'ri yo'naltirish va mehnat qobiliyatini qayta tiklash uchun sharoitlar yaratishdan iborat.

#### **12. Ijtimoiy ehtiyojlar deganda nima tushuniladi?**

a) ijtimoiy ta'minot institutlari tomonidan o'rganiladigan va belgilanadigan tovar va xizmatlar tarkibi hisoblanadi;

b) aholining ehtiyojmand qismini (keksalar, yolg'iz onalar, yetim bolalar, talabalar, nogironligi bor shaxslar hamda kam ish haqi olib ishlovchilar kategoriyalari) qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi;

c) birlamchi zarur bo'ladigan mahsulotlar;

d) kishi ehtiyojlarini qondirishda zarur bo'ladigan tovar va xizmatlar yig'indisi.

### **13. Neoklassik nazariya nimani ilgari suradi?**

a) kishilar o'z manfaatlarini yuqori qo'ygan holda ijtimoiy nafaqa olish imkoni bo'lgan vaziyatda mehnat qilishdan bosh tortishlari va ishsizlik nafaqasi kabi

boshqa turdagi nafaqalar olishlari mumkin;

b) qo'zg'olonlarning eng kattasi qorin uchun bo'lgan qo'zg'olonligi ta'kidlanadi;

c) ijtimoiy adolat har bir kishining jamiyatdagi o'zining statusidan kelib chiqqan holda, tegishli tarzda farovonlik darajasiga egalik qilishida namoyon bo'ladi;

d) iqtisodiy tahlil jarayonini amalga oshirishda cheklangan resurslar omilini e'tiborga olish muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham hech kim istaganlarining bariga egalik qila olmaydi.

## II-bob. IJTIMOIIY SIYOSATNING NAZARIY ASOSLARI

### 2.1. Qadimgi dunyoning ijtimoiy siyosiy fikri

### 2.2. O‘rta asrlar va uyg‘onish davridagi ijtimoiy siyosiy g‘oyalar

### 2.3. Yangi va eng yangi zamondagi ijtimoiy siyosiy ta’limotlar

#### 2.1. Qadimgi dunyoning ijtimoiy siyosiy fikri

Ijtimoiy siyosiy fanlar boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar singari uzoq, boy va sermazmun tarixga ega. U ham o‘ziga xos vujudga kelish va rivojlanish bosqichlarini bosib o‘tgan. Dastlabki ijtimoiy-siyosiy va huquqiy fikrlar barcha xalqlarda – qadimgi Sharqda ham, qadimgi G‘arbda ham diniy afsona, rivoyatlar negizida shakllangan. Ularga ko‘ra, Yerdagi tartiblar umumbashariy, koinot tartiblarining uzviy qismi va kelib chiqishi jihatidan - ilohiydir. Ana shunday tushunish uzoq davrlar mobaynida avvaliga Sharqda, keyinchalik G‘arbda ham insonlar, ular o‘rtasidagi munosabatlar azaldan belgilanganligiga asoslanib, barqaror dunyoqarashni shakllantirdi. Bu dunyoqarash davlat va siyosatga doir g‘oyalarda ham o‘z ifodasini topdi.

Qadimgi dunyo ma’naviy madaniyatining eng yirik tarixiy yodgorliklaridan biri – “Avesto” (m.a. VI asr) dir. U Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlaridagi nafaqat diniy tasavvurlarni, balki ijtimoiy-siyosiy qarashlarni bilishning ham muhim manbayidir. Avestoda dunyodagi yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi kurash diniy shaklda aks ettiriladi. Unda yovuzlikni bartaraf etish, tinch-totuvlikni ta’minlashning yo‘llari va vositalarini asoslashga alohida e’tibor qaratiladi. Bu yo‘llar va vositalar yaxshi niyat, yaxshi so‘z va yaxshi amal tamoyilida o‘z ifodasini topadi.

Avestoda johillik, zo‘ravonlik, tuxmat kabi salbiy illatlar qoralanadi. Unda sofdillik, sadoqatlilik, rostgo‘ylik, insonparvarlik, tashabbuskorlik, mehnatsevarlik, hamjihatlilik kabi ijobiy fazilatlar targ‘ib qilinadi<sup>18</sup>.

Avestoning tarixiy yodgorlik sifatida ahamiyati beqiyosdir. Bu yodgorliksiz Sharq va G‘arb ijtimoiy-siyosiy fikrining rivojlanishini

<sup>18</sup> Сиёсат назарияси. Дарслик / Г.Х. Юсупова, Х.Ж.Жабборов, Х.Х.Қосимова.– Т.: “Университет”, 2003. – Б. 28.

tasavvur qilish qiyin. U Demokrit, Aflotun, Arastu va boshqa buyuk allomalarining faoliyatiga, xristian va islom ta'limotlarining kelib chiqishiga ulkan ta'sir ko'rsatdi.

Ijtimoiy-siyosiy fikr asta-sekin afsona va rivoyatlar qobig'idan chiqib, inson, jamiyat, davlat kabi masalalarni falsafiy-axloqiy talqin qilishga intildi. Bu esa antik davr allomalarining asarlarida o'z ifodasini topdi. Konfutsiy (e.a. 551-479 yillar) ta'limoti falsafiy, siyosiy va huquqiy fikr tarixida muhim rol o'ynagan. Konfutsiy davlatning patriarxal-paternalistik tamoyilini rivojlantirgan. Uning ta'kidlashicha, davlat – katta oiladir. Imperator hokimiyati go'yo oila boshlig'i – otaning hokimiyatidek adolatli va qo'l ostidigilariga nisbatan mehr-shafqatga asoslangan. Hukmdor va fuqarolar munosabati - oila a'zolarining munosabatini eslatadi: kichiklar kattalar qaramog'ida va ularga itoat etadi. Konfutsiy odamlarni ijtimoiy kelib chiqishiga ko'ra to'rt qatlamga ajratadi: aslzodalar (harqanday bilimga tug'ilishdan ega); bilimlarga o'qish-o'rganish jarayonida ega bo'lganlar; bilimlarni qiyinchilik bilan o'zlashtiruvchilar; bilim olishga intilmaydiganlar. Shu tariqa odamlar o'rtasida tengsizlik mavjudligi va odamlar (quyi tabaqalar, kichiklar) oliy nasab aslzoda, kattalarga bo'ysunishlari zarurligi belgilab beriladi. Hokimiyat oqsuyaklar qo'lida to'planishi lozimligi asoslanadi. Konfutsiy hokimiyatning adolat va mehr-shafqatga asoslanishi, fuqarolar esa isyonlardan o'zlarini tiyishlarini uqtiradi. Boqarish - hammani joy-joyiga qo'yish demakdir. Davlat hokimiyati xalq ishonchisiz mavjud bo'la olmaydi, ammo hukmdorlar hammaga o'rnak bo'lislari lozim. Konfutsiy qarashlari uning izdoshlari va shogirdlari tomonidan “Lunyuy” – “Suhbatlar va mulohazalar” deya nomlangan asarda bayon etilgan.

Konfutsiy qarashlarining tanqidi bilan m.a. VI-V asrlarda yashab ijod etgan faylasuf Lao-szo chiqadi va daosizm oqimiga asos soladi. “Dao” ta'limoti bevosita faoliyatning tabiiy huquqini anglatib, uning asosida kuch ishlatmaslik, davlatni yo'q qilish va jabr-zulmga qarshilik, ibtidoiy jamoa tarzidagi hayotga qaytishga chaqiriq yotadi. “Dao”dan chetlashish – haqiqatdan chetlashishdir.

Antik davr ijtimoiy-siyosiy fikri Sharq g'oyalarini o'ziga singdirib, keyinchalik rivojlangan G'arb davlatchiligidagi barcha dunyoqarash va mafkuralarning kurtaklarini undirgan zamin bo'ldi. Demokratiya antik davrlarda to'liq namoyon bo'lib, asta-sekin insoniyat ijtimoiy-siyosiy

qadriyatleri xazinasidan joy oldi. Ana shu ajoyib davr namoyondalarining ko'zga ko'ringan vakillari bilan tanishib chiqamiz.

Jamiyat to'g'risidagi Aflotun (e.a. 427 - 347 yillar) fikrlarining qiymati shundaki, u hokimiyat, xususan, davlat hokimiyati masalalari sohasida ilgari surgan ayrim qarashlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Aflotun yaratgan ideal aslzodalar davlatida boshqaruv faylasuflar, mudofaa va xavfsizlik – askarlar, moddiy ta'minot esa – dehqonlar, hunarmand va savdogarlarga berilgan. (Qonunlar). Mohiyatan u Misr tabaqaviy tuzumini eslatadi. Aflotun davlat boshqaruvining uch turini ko'rsatadi:

- monarxiya - bir kishi hokimiyati qonuniy va, noqonuniy (tiraniya)~ bo'lishi mumkin;

- demokratiya - hammaning hokimiyati, u ham qonuniy va ham noqonuniy bo'lishi mumkin;

- Zodagoniya - ozchilik hokimiyati, barkamollik yoki zo'rlik asosiga qurilgan bo'lishi mumkin. Aflotun o'zining "Protagor" dialogida davlat boshqaruvi san'atiga ham o'qish-o'rganish zarurligini ta'kidlaydi. Faqat bilimdon odamlargina boshqarishi mumkin. Odamlar shuningdek adolatga ham o'rganishlari lozim. Adolat nima? Adolat o'z ishini malakali, sidqidildan bajarishdir.

"Davlat" dialogi, "Qonunlar"da Aflotun davlatning kelib chiqishini ijtimoiy ehtiyojga bog'laydi: "Davlat,- mening fikrimcha, har birimiz o'zimizni qondira olmay qolganimiz holda, juda ko'p ehtiyojlarga ega ekanligimizdan kelib chiqadi. Har bir inson o'zining biror-bir ehtiyojini qondirishi uchun yo unisini, yo bunisini jalb etadi. Ko'p narsaga muhtojlik sezgan odamlar birgalikda yashash va bir-birlariga yordam berish uchun birlashadilar, ana shunday uyushma bizlarda davlat nomini oladi"<sup>19</sup>. Bunday davlatda mehnat taqsimoti mavjud: insonlardan biri dehqon, biri - quruvchi, yana biri – to'quvchi, boshqasi esa - etikdo'z. Shunday qilib, davlat bilan jamiyat tushunchalari bu yerda bir ma'noni anglatayotganini ko'ramiz. Aflotunning fikriga ko'ra, demokratik tuzumning eng katta kamchiligi - unda boshqaruvning muvofiq emasligidir. U: "Demokratiya shunday tuzumki, uning doirasida istagan ishingizni qilishingiz mumkin", deb hisoblaydi.

Arastu (m.a. 384 - 322, yillar), boshqaruvga ko'ra davlatlarni quyidagicha turkumladi:

<sup>19</sup> Сиёсат назарияси. Дарслик / Г.Х. Юсупова, Х.Ж.Жабборов, Х.Х.Қосимова.– Т.: "Университет", 2003. –Б.30.

- monarxiya, aksi - tiraniya;
- zodagoniya, aksi - oligarxiya;
- politiya, aksi - demokratiya.

Arastu insonni siyosiy mavjudot sifatida baholar ekan: “Inson o‘z tabiatiga ko‘ra siyosiy mavjudotdir”, deydi. Arastuning “Siyosat” asarida hozirgi zamon siyosiy fanida keng ishlab chiqilayotgan nazariyalarning kurtaklarini ko‘ramiz. Jumladan, Arastuning quyidagi savoliga diqqat qiling: “Tadqiqotlarimizning pirovard nuqtasi quyidagi savolni muhokama etish: Qaysi hokimiyat afzalroq, barkamol insonlar hokimiyatimi yoki barkamol qonunlar hokimiyatimi?” Ushbu savolga XVII asr arbobi Sh.L.Monteskye “barkamol qonunlar hokimiyati” deb javob beradi va jamiyatda qonun oldida hamma insonlarning tengligi, qonunlarning o‘zi esa - butun jamiyat manfaatidan kelib chiqib yaratilishi lozimligi tamoyilini ilgari suradi. Ushbu savol o‘z amaliy yechimini qariyb yigirma to‘rt asr o‘tgach, hozirgi zamonaviy demokratiyalar timsolida topmoqda. Yana Arastuning o‘ziga murojaat etamiz: “...har bir davlat tuzilishining asosini uch qism tashkil etadi: birinchisi -qonun muhokama etuvchi organ - hokimiyat ishlarini ko‘rib chiqadi; ikkinchisi lavozimlar, uchinchisi - sud organlari”. Aslida “hokimiyatlarning bo‘linishi to‘g‘risidagi bu so‘zlar o‘zini demokratik deb atayotgan har bir zamonaviy davlat Konstitutsiyasida albatta uchraydi. Arastu demokratiyani mukammal tuzumlar sirasiga kiritmagan. Unga xos bo‘lgan bir qator kamchiliklar va ziddiyatlarni aytib o‘tgan. Jumladan: “...demokratiya – kambag‘al-yo‘qsillar manfaatini ifodalaydi. Umum manfaatni esa nazarda tutmaydi”. Ana shu fikrlar keyinchalik XIX asr boshida A. Tokvil tomonidan, asrimizda esa bir qator ko‘zga ko‘ringan demokratik tamoyillarda rivojlantirildi.

## **2.2. O‘rta asrlar va Uyg‘onish davridagi ijtimoiy siyosiy g‘oyalar**

Qadimgi dunyoda vujudga kelgan ijtimoiy siyosiy fikr o‘zgar-masdan, bir joyda to‘xtab qolgani yo‘q. Insoniyatning tarixiy davri, uning talab va ehtiyojlari o‘zgarishi va o‘sishi bilan, u ham o‘zgarib va rivojlanib bordi. Qadimgi dunyoning siyosiy g‘oyalari, ular qanchalik muhim bo‘lmasin, o‘rta asrlarga kelib zamon talab – ehtiyojlarini qondira olmadi. Bu g‘oyalar siyosiy kuchlarni safarbar etib, ijtimoiy adolat va ijtimoiy tartibni ta‘minlay olmadi. Parokandalik, tarafkashlik,

nizolar, urush-janjallar - davlatning falsafiy-axloqiy modellarini qadrsizlantirdi.

Oʻrta asrlarda davlatning yangi, diniy-axloqiy turdagi modellarini asoslab beradigan gʻoyalarga katta ehtiyoj sezildi. Bunday gʻoyalar Oʻrta asrlar Gʻarb va Sharq mutafakkirlarining asarlarida oʻz ifodasini topdi.

Oʻrta asrlar Gʻarb ijtimoiy-siyosiy fikrining yorqin namoyandalaridan biri - Avreliy Avgustin (354 - 430) dir. U oʻzining “Iloh shahri” asarida “iloh shahri” ni “insonlar shahri”ga qarama-qarshi qoʻyadi. Negaki, insonlar bir-birining ustidan hukmronlik qilish, biri-ikkinchisini itoat ettirish, hukmronlikka intilish ishtiyoqida davlat, uning tashkilotlari, jazo organlarini oʻylab topganlar. Odamlarni “oʻzlaricha”, yaʼni shayton domidagilar va xudoga intilib yashayotganlarga boʻladi. Butun dunyoda cherkov hukmronligini targʻib etadi. Hozirgi vaqtda uning qarashlari protestantizm) va katolitsizmga keng qoʻllaniladi.

Oʻrta asrlar Gʻarb siyosiy fikrining vakillaridan yana biri – Foma Akvinskiy (1225 - 1274) dir. Uning qarashlari asosan “hukmdorlarning boshqaruvi haqida” nomli asarida bayon qilingan. U mazkur asarda cherkov hokimiyatining dunyoviy hokimiyatdan ustunligini, kishilarning ilohiy va abadiy huquqqa, boʻysunishlari zarurligini asoslashga intiladi.

Sharqda, xususan Markaziy Osiyoda, ijtimoiy-siyosiy fikr taraqqiyoti nihoyatda teran ildizlarga ega. Xasan Ato Abushiyning “Turkiy qavmlar tarixi” asarida dalolat berilishicha: “Turkiy qavmlar barcha qavmlardan oʻlmasada, ammo, juda koʻplarindin oldin bu (hukumat va hokimlar) luzumni his etmishdirlar..., yaʼni eski turkiylarning oʻzlari juda koʻp xalqlarni muhabbat va itoat ettira olgʻon tadbirli, siyosiy quvvatli hokimlar jumlasidandirlar”. Markaziy Osiyo hududlarida ajdodlarimiz toʻrt buyuk imperiya, yuzdan ortiq yirik markazlashgan davlatlar tajribalarini toʻplaganlar ham by fikrni tasdiqlaydi. Sharq mutafakkirlarining deyarli barchasi siyosat bobida teran fikr yuritganlar. Ular oʻz qarashlarida koʻproq siyosatning ijtimoiy, axloqiy va maʼnaviy qirralarini yoritganlar. Siyosat – inson uchun munosib moddiy va maʼnaviy sharoitlarni yaratish kontekstida olib qaralgan.

Abu Nasr Forobiy (870 - 950) “Fozil shahar aholisining qarashlari” asarida davlatning kelib chiqishini odamlarning oʻz ehtiyojlarini

qondirishga bo'lgan istagiga bog'laydi. Davlatni fazilatli, ma'rifatli "hukmdor boshqarishi lozim" ligini aytadi. Asarda davlatning zo'ravonlik va beboshlik asosiga qurilishi qoralanadi. O'rta asrlarda Forobiy birinchilardan bo'lib jamiyat va ijtimoiy-siyosiy hayot tarkibini jiddiy o'rganish masalasini qo'ydi. Ijtimoiy hayotni o'rganish sohasida Forobiy bir qator masalalarni belgilab berdi. Ulardan asosiylari quyidagilar:

- ijtimoiy hayot tushunchasi, fan predmeti va vazifalarini belgilash;
- ijtimoiy uyushmalarning kelib chiqishi, tarkibi, tuzilishi, turlari va bu masalaga oid noto'g'ri qarashlarni tanqid qilish;
- shahar-davlat xususiyatlari, vazifalari va boshqaruv shakllari;
- jamiyatda inson o'rni va burchlari, mehnat faoliyati, ma'naviyat va tarbiya masalalari;
- davlat uyushmasining pirovard maqsadi, baxtga erishish yo'llari va vositalari. Ijtimoiy hayot muammolarini o'rganuvchi fanlarga u ilm-al-madaniya (shahar jamoasi to'g'risidagi fan), fiqh (huquqshunoslik) va kalomni kiritgan. Kalomni Forobiy barcha bilimlarning asosi sifatida emas, balki boshqa fanlar qatorida tilga oladi. Farobiy ilm-al-madaniyaga katta e'tibor beradi.

Davlat to'g'risidagi ta'limotida Forobiy uning ichki va tashqi vazifalarini aniqlab beradi. Tashqi vazifaga shahar-davlat fuqarolarini dushmanlardan saqlash, ya'ni mustahkam mudofaani tashkil etish kiradi. Johil shahar - davlatlarga boshqa shaharlar bilan doimiy urushlar va nizolar xos bo'lgan holda, fozil shahar aholisi o'z fuqarolarini himoya qilish maqsadida faqat mudofaa urushlarini olib boradi. Davlatning ichki vazifasi uning o'z fuqarolariga haqiqiy baxt beruvchi zaruriy tadbirlardan iborat. Ular quyidagilar: adolat o'rnatish, maorifni rivojlantirish, bilimlarni xalq o'rtasida tarqatish, ma'naviy va dunyoviy bilimlarni berish, yaxshilik va komil xulqlarni, odat va axloqiy qoidalarni targ'ib qilish.

Forobiyning boshqaruv shakllariga qarashi uning bevosita rahbarlarga qo'yadigan g'alablaridan kelib chiqadi. Forobiy asosan podsholik tuzumi to'g'risida fikr yuritadi va ideal davlatning boshlig'iga bir qator talablar qo'yadi: donishmandlik, qonunlar va boshqaruv qoidalarini bilish, ularni ijodiy qo'llay olish, harbiy san'atni yaxshi bilish, adolatli bo'lish, haqiqatni sevish va hokazo. Ammo, u shuncha xislatning bir insonda bo'lishiga shubha bildirib, bunday hukmdorlarning eng munosib fuqarolar ichidan saylanishini taklif etadi.

Forobiyda xalq hokimiyati va demokratiya to'g'risidagi fikrlar ham bor, ammo ular rivojlantirilmagan.

Buyuk Sharq mutafakkiri Abu Ali Ibn Sino (980 - 1037). Uning fikricha, inson jamiyatdan tashqarida yashay olmaydi. U aholisi, hukmdorlar, ishlab chiqaruvchilar va qo'shından iborat davlatda yashaydi. Ibn Sino aholini moddiy ahvoli va boyligi nuqtayi nazaridan tabaqalarga bo'ladi. U hamma narsada me'yor bo'lishi tarafdoridir. Uning fikricha, agar hamma shoh va hukmdor bo'lsa ham, hamma kambag'al va nochor bo'lsa ham - jamiyat falokatga yuz tutgan bo'lar edi. Shuningdek, boylik jihatidan teng bo'lsa ham odamlar mehnat qilishdan va boshqalarga yordam berishdan to'xtagan bo'lar edi. Demak, eng ma'quli -odamlarning mulkiy va ijtimoiy har - xilligidir. Ibn Sino bu fikrlarni o'zining "Risolai tadbiri manzil" asarida bayon etgan. Ibn Sino qonunlar barchaga barobar bo'lgan jamiyatda adolatsizlik bo'lmaydi, deb hisoblaydi. Uning fikricha, har qanday adolatsizlik jazosiz qolmasligi kerak. Agar hukmdor adolatsiz bo'lsa, unga qarshi isyon oqlangan va jamoa tomonidan qo'llab-quvvatlangan bo'ladi.

Sharqdagi Uyg'onish davrining buyuk siymolaridan biri - Yusuf Xos Xojib (XI asr) ham davlat va siyosat masalalariga katta e'tibor qaratgan. Uni butun olamga tanitgan asar "Qutadg'u bilig" ("Saodatga boshlovchi bilim") dir. Bu asar nafaqat o'zbek adabiyotining, balki shu bilan birga ijtimoiy siyosat fanining ham muhim manbalaridan biridir. U davlat va uni idora qilishning qonun-qoidalari, usullari, turli ijtimoiy guruh va tabaqalarning mavqeyi va munosabatlari, axloq va odoblarini ifoda etuvchi o'ziga xos nizomnomadir.

Asardagi davlatni idora etishning yo'l-yo'riqlari haqidagi g'oya alohida diqqatga sazovordir. Bu yo'l-yo'riqlar donishmandlik, adolat-parvarlik, ko'ngil muloyimligi, til, so'z yumshoqligi, ehtiyotkorlik, takabburlikdan, yovuzlik va yaramas illatlardan yiroqlik, har ishda me'yorga rioya qilish, kattalar hurmatini va kichiklar izzatini o'rninga qo'yish va boshqalardir.

O'rta asrlar ijtimoiy-siyosiy fikrining eng yirik manbalaridan biri - Nizomulmulkning (1018 - 1092) "Siyosatnoma" yoki "Siyarulmuluk" ("Podshohlar turmushi") asaridir. Bu asar o'zining mazmun-mohiyatiga ko'ra saljuqiylarning siyosiy dasturi hisoblanadi. Nizomulmulk asarida shohlar tarixi va hayotiy tajribasini umumlashtiradi, davlatni boshqarish qonun-qoidalarini, tartiboti va usullarini asoslab beradi. U asarda shoh

va hokimlarni adlu insof va diyonatga, murosayu-madora va muruvvatga, davlatni oqilona boshqarib, qat'iy qoida va tartib o'rnatishga, amaldorlarni vijdonli, halol, pok, iymonli, adolatli va diyonatli bo'lishga, mamlakatning obodonligi, uning ahli farovonligi, tinchligi va totuvligini ta'minlash uchun harakat qilish va mehnat qilishga da'vat etadi<sup>20</sup>.

O'rta asrlar ijtimoiy-siyosiy fikrining vujudga kelishi va rivojlanishida Amir Temurning (1336 - 1405) o'rni benihoya kattadir. U kuch va g'ayratini ijtimoiy siyosiy hayot masalalarini o'rganishga va ularning yechimini topishga, vasiyat va tuzuklarni ishlab chiqish va meros qoldirishga sarfladi. Bunga "Temur tuzuklari" guvohlik beradi. "Temur tuzuklari" - jahon ijtimoiy siyosiy fanining eng yirik va noyob manbalaridan biri hisoblanadi. Unda davlatni idora qilishning asosiy qonun-qoidalari, yo'l-yo'riqlari asoslab beriladi. Bunday qonun-qoidalarni teran ifoda etgan manba jahon ijtimoiy siyosiy fikri tarixida kamdan-kam topiladi. Mazkur manbada ilgari surilgan g'oyalar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Ulardan nazariy va amaliy ishda foydalanish qo'l keladi. XV asr buyuk mutafakkiri Alisher Navoiy (1441-1501) ijodida bir qator muhim fikrlarni uchratamiz. U xalqqa nisbatan adolatsizlik va yovuzlikni qoralaydi, odamzotni hayotda adolatni qaror toptirishga, uni asrab-avaylashga chorlaydi. Navoiy markazlashgan kuchli podsholik hokimiyatini yoqlab chiqadi. Negaki, kuchsiz shoh poraxo'r qozilar, zo'ravon va ta'magir amaldorlarga yo'l ochib beradi, Kuchli shoh hokimiyatida faqat munosib, barkamol shaxslar o'rin oladi. Zulm uchun zolimning o'zi javob beradi, negaki, ko'mir tashigannning qo'li qoradir. Insonlar ma'naviy kamolotga intilishlari lozim. Buning asosiy shartlari esa, Navoiy fikricha, halol mehnatdadir. Uyg'onish davri, uning g'oyalari insoniyat tarixidagi tub burilish pallasidir. Inson qadr-qimmati, uning huquqlarini himoya qilish, inson uchun munosib hayot tarzini yaratish g'oyalari aynan G'arb mamlakatlarida, ularning davlatchilik va ijtimoiy siyosat sohasidagi amaliy izlanishlari davomida vaqt chig'irig'idan o'tib, real voqelikka aylanadi. Ushbu davrning etuk siyosatchisi va yirik olimlaridan biri albatta Nikollo Bernardo Makiavelli (1469 - 1527) dir. U "Hukmdor", "Florensiya tarixi" asarlarida siyosatni ilk bor mustaqil fan sifatida

---

<sup>20</sup> Спёсат назарияси. Дарслик / Г.Х. Юсупова, Х.Ж.Жабборов, Х.Х.Қосимова.– Т.: "Университет", 2003. – Б. 33-34.

asoslaydi, jamiyat ilohiy emas, balki tabiiy qonunlar negizida rivojlanishini ta'kidlaydi. Makiavelli tarixiy taraqqiyot zaminida moddiy manfaat va kuch, omma va hukmron tabaqalar qarama-qarshiligi yotadi, deb hisoblaydi. U kuchli milliy davlat tarafdori bo'lgan. Siyosiy kurashda, hokimiyatga intilishlarda buyuk maqsadga erishish yo'lida har qanday vositalardan foydalanish zarur, deb hisoblagan. Makiavelli odamlar faoliyati sabablarini boylikka xirs qo'yishda ko'rgan: "Odamlar yo'qotgan mablag'ini otasining o'limidan ko'ra ko'proq eslab yuradi". Ijtimoiy taraqqiyotning ma'lum qonuniyatlarga bo'ysunishini angladi va uni fortuna (tasodif, omad, taqdir) deb atadi. Inson uni bilishi va o'z manfaatiga yo'naltirishi mumkin. N.Makiavelli Leonardo da Vinchi zamondoshi, Mikelandjeloning do'sti, Florensiya Respublikasining davlat arbobi, tarixchi, shoir, yozuvchidir. U XV asr oxiri, XVI acp boshlarida uzluksiz urushlardan jabr ko'rgan, kuchli markazlashgan davlatga ehtiyoj sezayotgan Italiya manfaatlarining ifodachisi bo'ldi. 1512 yilda Florensiya Respublikasi tugatilib, N.Makiavelli surgun qilinadi. Quvg'inda u "Tit Liviyning birinchi o'nta kitobi to'g'risida qaydlar", "Hukmdor" (Lorenzo Medichiga bagishlanadi), "Florensiya qo'lyozmalari" asarlarini yozadi. Makiavelli mazkur asarlarda boshqaruv shakllaridan hech birini afzal ko'rmaydi. Avval "yangi op" yakka hokimligi o'rnatilib, u Italiyani birlashtirishi, isloh qilishi va yuksaltirishi, so'ng uning o'rmini respublika, boshqaruvining "aralash" shakli (demokratiya, Zodagoniya, monarxiya elementlarini birlashtiradi) egallaydi, deb hisoblagan. Shu tariqa Makiavelli davlatchilikning monarxiyadan respublikaga tomon rivojlanishini oldindan aytib bergan.

Fransuz mutafakkiri Jan Bodenning qarashlari (1530 - 1596) kishida muayyan qiziqish uyg'otadi. Xususan, u davlat manfaatlari din manfaatlaridan ustunligini ta'kidlaydi. Jamiyatda vijdon erkinligi qaror topib, biror din quvg'inda bo'lmasligi, davlat asosini oila tashkil etishi kabi g'oyalarni targ'ib etgan. Davlat - oilalar muammolarini hal qiluvchi, xususiy mulkka asoslangan ijtimoiy mulkni saqlovchi ittifoqdir. Mulkiy tengsizlik tabiiy va zaruriydir. Davlat ijtimoiy masalalar ustidan huquqiy hokimiyatga ega. Uning hokimiyati hal qiluvchidir. Monarx - hukmdor huquqning, suverenitetning yagona, mutlaq manbayidir. Davlatning turi iqlim sharoitlariga bog'liq. Mo'tadil iqlimga aql-idrokka asoslangan davlat mos keladi, negaki, bu yerdagi xalqlar adolatni his etadi, mehnatsevardir. Janub xalqlari mehnatga

loqaydlik bilan qaraydilar, shuning uchun ular diniy hokimiyat va diniy davlatga ehtiyoj sezadilar. Shimolda dangasa, urushqoq xalqlar yashaydilar, shuning uchun ularning davlatlari, qattiq intizomga asoslangan va nihoyatda markazlashgan bo'ladi.

### 2.3. Yangi va eng yangi davrlardagi ijtimoiy siyosiy ta'limotlar

Yangi davr yangi siyosiy ta'limotlarni ilgari surdi. Bu ta'limotlar O'rta asrlar doirasidan chetga chiqib, insoniyatning yangi talab va ehtiyojlarini o'zida aks ettirdi. Davlat va hokimiyatning ilohiy xarakteriga ishonishga tayanuvchi siyosatni sxolastik tushunish davr talablariga javob bermay qo'ydi. Inson va jamiyatni rivolantirish, uning imkoniyatlarini yanada oshirish ehtiyojlari siyosatga jiddiy jihatdan yangicha qarashlarni, uni oqilona-tanqidiy tushunishni talab qildi. Ushbu siyosatni oqilona-tanqidiy tushunish yangi davr allomalarining asarlarida o'z ifodasini topdi.

Yangi davr ijtimoiy-siyosiy fikrining yorqin namoyondalaridan biri, ingliz faylasufi Tomas Gobbsdir (1588-1679). U fuqaro haqidagi ta'limotning falsafiy elementlari, "Leviafan" asarlarining muallifidir. Ijtimoiy bitim g'oyasini targ'ib qilgan Gobbs boshqaruv usullarida cheklanmagan monarxiya tarafdori bo'lgan. U kishilik jamiyatining ikki holatini ajratadi: tabiiy (hammaning hammaga qarshi urushi) - unda kuchga ega bo'lganlar huquqqa ham egalik qiladilar va fuqarolik (bitimiga ko'ra ayrim huquqlarini ixtiyoriy ravishda boshqalarga berish). Davlat o'zida jamlangan yagona iroda vositasida tinchlikni saqlashi, tabiiy qonunlar bajarilishini ta'minlashi, tartibni saqlashi, hunarmandchilikni rivojlantirishi, shuningdek, insonlarni diniy, ma'naviy, axloqiy qarashlariga ham ta'sir etishi kerak bo'ladi. Yangi davr siyosiy fikrining vujudga kelishi va rivojlanishida ingliz faylasufi va siyosat arbobi Jon Lokk (1632-1704) ning xizmati benihoya kattadir. U E'tiqod chidamliligi haqida, "Davlat boshqaruvi haqida" va boshqa asarlarida davlat faoliyatini yangicha tushunish, uning shartnoma asosida fuqarolar hayotiga aralashishini cheklash, insonning tabiiy va begonalashmaydigan huquq va erkinliklarining amalga oshirilishini ta'minlash g'oyasini ilgari surdi. Bu g'oya davr talablariga javob sifatida paydo bo'lib, keyinchalik butun dunyoda e'tirof etilib, liberalizm degan nomni oldi. Sharl Lui Monteskye (1689 - 1755) "Fors xatlari", "Rumliklar buyukligi va inqirozi sabablari to'g'risida",

“Qonunlar ruhi to‘g‘risida” kabi qator asarlar muallifidir. U mo‘tadil konstitutsion monarxiya va hokimiyatlar bo‘linishi tamoyilini ilgari surgan. Uning fikricha, davlat va huquq - tarixiy taraqqiyot mahsuli. Tabiiy qonunlar jamiyat vujudga kelishidan avval mavjud bo‘lgan. Qonunlar davlatning to‘riga (respublika, monarxiya, mustabid) bog‘liq, boshqaruvni esa ijtimoiy-iqtisodiy, geografik va iqlimiy kabi omillar belgilaydi. Monteskye fuqarolar erkinligining kafolatini hokimiyatlar bo‘linishida deb hisoblaydi: Agar qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar bir shaxsda yoki bir tashkilotda mujassamlashsa, erkinlik bo‘lmaydi. Negaki, by monarx yoki senat zolim qonunlar yaratib, ularni zulm qilish uchun qo‘llashi mumkinligi xavfi mavjud bo‘ladi. Erkinlik sud hokimiyati, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan ajratilmaganda ham bo‘lmaydi. Agar biror-bir shaxs yoki biror tashkilot shu uchchala hokimiyatni yakka o‘zida to‘plasa, hamma narsa halok bo‘lar edi. U hokimiyatni suiste‘mol qilish imkoniyati bo‘lmasligi uchun shunday tartib o‘rnatilishi kerakki, unda turli hokimiyatlar o‘zaro bir-birini tutib turishlari mumkin bo‘lsin. Jan Jak Russo (1712-1778) - fransuz faylasufi, sotsiologi, ma‘rifatparvaridir. U “Odamlar o‘rtasida tengsizlik kelib chiqishi va asoslari to‘g‘risida mulohazalar”, “Ijtimoiy bitim”, “Emil, yoki tarbiya to‘g‘risida” asarlari muallifidir. Russo burjua demokratiyasi, fuqarolarning haq-huquqlari, ozodlik, erkinlik va tenglik g‘oyalarini targ‘ib qiladi. Tengsizlik sababi - xususiy mulkdir. Gobbsdan farqli o‘laroq, Russo “tabiiy holatida” insonlar do‘st va hamohang yashaganlar, deb hisoblaydi. Ijtimoiy tengsizlikka erkinlik va huquqlar tengligini qarshi qo‘yadi. Xalq irodasining suverenligi va bo‘linmasligini targ‘ib qilgan. Iroda (ehtiyoj, talab-istaklar)ni aniqlash uchun doimiy amal qiluvchi plebissit (umumxalq so‘rovi) kiritishni, xususiy mulkni fuqarolar o‘rtasida taqsimlashni taklif etadi.

Amerika ma‘rifatparvarlari - T.Jefferson (1743-1826), T.Peyn (1737-1809), A. Gamilton (1754-1804) va J.Medison (1751-1836)larning ijtimoiy-siyosiy qarashlari jahon ijtimoiy-siyosiy fikri tarixida yorqin sahifani ochadi. Bu qarashlar Amerika xalqining mustaqillik, erkinlik va demokratiya uchun olib borgan kurashi bilan chambarchas bog‘liqdir. Amerika ma‘rifatparvarlari tomonidan asoslab berilgan – kuchli demokratik federativ respublika qurilishi tamoyillari, shaxsning fuqarolik huquqlari va erkinliklari, hokimiyatning vakillik shakli haqidagi g‘oyalar muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Aynan shu g‘oyalar “Mustaqillik deklaratsiyasi” (1776) va Amerika Qo‘shma

Shtatlari Konstitutsiyasi (1787)ning asosi qilib olindi. Aynan shu g'oyalar amerika xalqi siyosiy ongi va siyosiy madaniyatining rivojlanishiga hamda AQSH davlatchiligining qaror topishiga ulkan ta'sir ko'rsatdi. "XIX asr oxiri XX asr boshlarida G'arbiy Yevropada ijtimoiy-siyosat, davlat va huquqni ularning barcha ijtimoiy aloqalari nuqtayi nazaridan o'rganuvchi sotsiologik yondashuv keng rivojlandi. Ko'plab siyosiy ta'limotlar vujudga keldi. Jumladan, italiyalik faylasuflar G.Moska (1856-1941) va V.Pareto (1848-1923) elitalar nazariyasini ishlab chiqdilar. Ularning fikricha, siyosatda "ikki qarama-qarshi sinf kurashi sohasi" mavjud bo'lib, ulardan biri – hokimlik qiluvchi ozchilik (elita) va itoatdagi ko'pchilikdir. Bu nazariyaning ahamiyati shundaki, siyosat subyektlarining hokimiyatga ta'sirini oddiy, bir xil, deb tushunishdan siyosiy jarayondagi raqobat, qatlamlarga bo'linish, turli guruhlar ta'sirining turlichaligini anglashga o'tildi. G'arb siyosiy fanida texnokratiya ta'limotlari keng tarqaldi. Jumladan, ilmiy boshqariladigan jamiyat (G.Saymon) "postdustrial jamiyat" (D.Bell), "Texnotron jamiyat" (Z.Bzejinskiy) nazariyalari hozirgi taraqqiyot va dunyoning umuminsoniy muammolarini (ekologik, energetik, oziq-ovqat, urush, demografik) yechishning yagona yo'li, deb tavsiya etiladi. G'arb siyosiy fanining asoschilaridan biri - Maks Veber (1864-1920)dir. U siyosiy qarashlariga ko'ra liberalizm tarafdoridir. Veber legitim hokimiyat turlari to'g'risidagi ta'limotni ishlab chiqdi. Unga ko'ra hokimlik - muayyan buyruqqa itoat ettira olish imkoniyatini anglatadi, va demak, buyruq berganning buyruqqa bo'ysunishlarini, hamda itoat etayotganlarning buyruq qonuniy va adolatli ekanligiga ishonch hosil qilishi uchun o'zaro kutishlarini bildiradi. M.Veber itoat sabablaridan uchta asosida hukmronlik (hokimiyat)ning uchta sof turini ajratib ko'rsatadi:

Hukmronlikning birinchi turi – ochiq, "qonuniy" hukmronlikdir. Uning sirasiga hozirgi G'arb davlatlari kiradi. Ularda, M.Veber fikricha, shaxslarga emas, balki qonunlarga bo'ysuniladi. Boshqaruv apparati maxsus o'rgatilgan amaldorlardan iborat. Ular oldiga qo'yiladigan talab – rasmiy qonun asosida, shaxslarga qaramay faoliyat ko'rsatish. Boshqacha qilib aytganda, qonuniy hukmronlik (hokimiyat) o'z nomi bilan rasmiy qonunlarga asoslanadi.

Legitim hokimiyatning ikkinchi turini M.Veber an'anaviy deb ataydi. U mavjud siyosiy tartib va hokimiyatning nafaqat qonuniyligi, balki muqaddasligiga bo'lgan ishonchga ham asoslanadi. Bunday

hukmronlikning eng sof ko'rinishi, Veber fikricha, patriarxal hukmronlikdir. M.Veber uni tuzilishiga ko'ra oilaga o'xshatadi. Bu o'xshashlik hokimiyatning ushbu turining mustahkamligi va barqarorligini ta'minlaydi. Bu yerda lavozimga tayinlashda intizom yoki o'z sohasidan yaxshi xabardorlikdan ko'ra, shaxsiy sadoqat muhim xislat hisoblanadi. Imtiyozlar ham erkin taqsimlanadi.

Hukmronlikning uchinchi turi – xarizmatik hokimiyatdir. M.Veber qarashlarida xarizma (yunoncha – ilohiy qobiliyat) tushunchasi muhim o'rin tutadi. Xarizma- individni boshqa odamlardan ajratib turuvchi, Alloh in'om etgan ajoyib qobiliyatdir. M.Veber xarizmatik sifatlarga sehrgarlikni, bashorat qila olish qobiliyati, ruh va so'zning misli ko'rilmagan kuchini kiritgan. Xarizmaga qahramonlar, buyuk lashkarboshilar, sehrgarlar, bashoratchilar, buyuk rassomlar, siyosat-chilar egadirlar. Hukmronlikning xarizmatik turi an'anaviy hukmronlikning tamoman to'liq aksidir. An'anaviy hokimiyat an'ana, odatga bog'langan bo'lsa, xarizmatik hokimiyat, aksincha, shu paytgacha tan olinmagan narsalar, g'ayritabiiylikka asoslanadi. M.Veber xarizmani an'anaviy jamiyatlarning o'sish-o'zgarishdan mahrum bo'lgan tarkibiga o'zgarishlar kiritishga qodir, buyuk inqilobiy kuch, deb qaraydi. An'anaviy va xarizmatik hokimiyat o'rtasida ma'lum umumiylik ham mavjud: unisi ham, bunisi ham hukmdor va tobe shaxslar o'rtasidagi shaxsiy munosabatlarga asoslangan. Bu o'rinda har ikkalasi ham birinchi tur hokimiyatga shaxssiz bo'lgani uchun qarama-qarshi turadi. Xarizmatik yetakchiga shaxsiy sadoqat manbayi asosida an'ana yoki uning hokimiyatga rasmiy huquqini tan olish emas, balki uning ilohiy qobiliyatiga ishonch yotadi. Shuning uchun legitimlikning xarizmatik tamoyili avtoritar bo'ladi, ya'ni shaxsning kuchiga asoslangan bo'ladi. G'arbiy Yevropa siyosiy fikri rivojiga yana bir qator olimlarning qo'shgan hissasi sezilarli bo'lgan. Fransuz sotsiologi E.Dyurkgeym (1858 - 1917) siyosiy fandagi tarkibiy funksionalizm usulologiyasi asoschisi hisoblanadi. Ruhshunoslik ta'sirida siyosiy fanlarda vujudga kelgan yangi usulologik oqim - bixeviorizmning ko'zga ko'ringan vakili - amerikalik olim G.Lassuell (1902-1978)dir. Hozirgi davr siyosiy fani shuningdek freydizmning kuchli ta'sirini his etadi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida O'rta Osiyoda milliy siyosiy fikr Ahmad Donish (1827-1897), Cherdak (1827- 1900), Furqat (1858-1909), Muqumiy (1850-1903), Zavqiy (1853-1921) singari ma'rifatparvarlar tomonidan rivojlantirildi. Ular o'z asarlarida Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklarining

amal qilish tajribasini oqilona-tanqidiy tahlil qildilar. Ma'rifatparvarlar o'lkadagi mavjud milliy siyosiy tartibotlarning tabiatini anglash va tushuntirishga intildilar. Ular mazkur tartibotlarning qoloq, qaram, tarqoq tizim ekanligini, xalq boshiga kulfatlar keltirganligini hamda mamlakatni vayronalikka olib kelganligini ko'rsatib berdilar. Ma'rifatparvarlar o'z asarlarida o'lkadagi mavjud siyosiy tartibotlarni shunchaki tanqid qilish bilangina cheklanib qolmadilar. Ular ushbu siyosiy tartibotlarning qoloqligi, qaramligi sabablarini tinimsiz izladilar. Ma'rifatparvarlarning fikricha, mamlakat qoloqligi, xalqning qashshoqlikda kun ko'rishining sababi - amirlar, xonlar, beklar va hokimlarning nodonligi va johilligi, xalq taqdiriga beparvoligi, ilm-fan va ma'rifatning yo'qligidir. Shu boisdan ham ular mamlakatdagi nodonlik va johillikka, zulmu zo'raonlikka asoslangan siyosiy tartibotni tugatish va ilmu fan va fozillikka, ziyo va ma'rifatga asoslangan siyosiy tartibotni o'rnatish g'oyasini ilgari surdilar.

XX asr boshlarida O'zbekistonda siyosiy fikrning rivoji jadidlar (M.Bexbudiy, A.Fitrat, A.Qodiriy, Cho'lpon, Munavvar Qori va boshqalar) ning faoliyati bilan bog'liqdir. Ularning asarlarida o'sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy hayotning dolzarb muammolari chuqur o'rganiladi va umumlashtiriladi. Xususan, o'lkadagi idora usuli, mustamlakachilik, adolatsizlik oqibatlarini keskin tanqid qilinadi, uning mustaqil yo'li, Yevropacha idora usuli va uni mamlakatda tatbiq qilish haqida jiddiy fikr-mulohazalar bildiriladi. A.Fitrat va M.Bexbudiy Buxoroning idora, ta'lim-tarbiya usulini qattiq tanqid ostiga oladi va uni yangilash yo'llarini tinimsiz izlaydi. Jadidchilarning bir guruhi maorif va ma'rifatni ko'tarish orqali xalq ahvolini yaxshilashga intilsa, ikkinchi guruhi esa davlat tuzilishini isloh qilish, uni yangi asosda qayta ko'rish orqaligina xalq va yurt ahvolini o'nglash mumkin, degan siyosiy yo'ldan yurishga intiladi<sup>21</sup>. Bunday fikr va mulohazalar o'sha davr ijtimoiy siyosiy fikrida muhim yangilik edi.

Umuman, XX asr boshlarida O'zbekistonda ijtimoiy-siyosiy fikrning rivojlanishini jadidlarning asarlarisiz, ehtirosli maqolalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ularning ijtimoiy siyosiy fikr taraqqiyotiga qo'shgan hissalarini birmuncha salmoqlidir. O'zbekistonda ijtimoiy-siyosiy fikrning rivojlanishi sobiq sho'ro tuzumi davrida qattiq zarbaga

---

<sup>21</sup> Сисёат назарияси. Дарелик / Г.Х. Юсупова, Х.Ж.Жабборов, Х.Х.Қосимова.– Т.: “Университет”, 2003. – Б. 40-41.

uchradi. Ijtimoiy-siyosiy fanga burjua fani deb tamg'a bosilishi uning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. O'zbekistonning mustaqil rivojlanish yo'liga kirishi bilan ijtimoiy siyosiy fanga munosabat tubdan o'zgardi. Bu fan jamiyat fanlari tizimida o'z o'rnini topdi.

### **Nazorat savollari:**

1. Avestoda keltirilgan ijtimoiy-siyosiy fikrlarni tushuntirib bering.
2. Antik davr allomalarining ijtimoiy-siyosiy fikrlari nimalardan iborat?
3. Avreliy Avgustin va Foma Akvinskiylarning ijtimoiy-siyosiy fikrlarini tahlil qilib bering.
4. Xasan Ato Abushiyning "Turkiy qavmlar tarixi" asarida keltirilgan ijtimoiy-siyosiy fikrlarini tushuntirib bering.
5. Abu Nasr Forobiy va Abu Ali Ibn Sinoning ijtimoiy-siyosiy qarashlarini tahlil qiling.
6. Yusuf Xos Xojib va Nizomulmulkning ijtimoiy-siyosiy qarashlari xususiyatlarini ta'riflab bering.
7. Amir Temur va Alisher Navoiyning ijtimoiy-siyosiy qarashlari o'rtasidagi farqlarni aniqlang.
8. G.Moska va V. Paretoning elitalar nazariyasini tushuntirib bering.
9. XIX asr oxiri XX asr boshlarida G'arbiy Yevropa mutafakkirlarining ijtimoiy-siyosiy fikrlarini tahlil qilib bering.
10. Jadidlar asarlarida qanday umuminsoniy va milliy g'oyalar o'rin olgan?

### **Testlar:**

1. Dastlabki ijtimoiy-siyosiy – huquqiy fikrlar qaysi tarixiy manbada o'z aksini topgan?
  - a) Bexistun yozuvlari;
  - b) Avesto;
  - c) Injil;
  - d) Konfutsiy ta'limoti.
2. Konfutsiy ta'limotida qanday konseptsiya rivojlantirilgan?
  - a) yovuzlik va yaxshilik;
  - b) yaxshilik va yomonlik;
  - c) patriarxal-paternalistik;
  - d) ijtimoiy munosabatlar.-

**3. Konfutsiy odamlarni ijtimoiy kelib chiqishiga ko'ra nechta qatlamga ajratadi?**

- a) 3ta;
- b) 4 ta;
- c) 5 ta;
- d) 2 ta.

**4. Daotsizm ta'limoti nimani ilgari suradi?**

a) yaxshilik doimiy olqishga sazovor bo'lgan xislat hisoblanib, yaxshilik qilgan kishilarning qo'lidan yomonlik kelmasligi ilgari suriladi;

- b) kishilar o'rtasidagi tengsizlikni qoralaydi;
- c) yovuzlikka qarshi kurash, yaxshilikni qo'llab-quvvatlash yotadi;
- d) kuch ishlatmaslik, davlatni yo'q qilish va jabr-zulmga qarshilik, ibtidoiy jamoa tarzidagi hayotga qaytishga chaqiriq yotadi.

**5. Aflotun davlat boshqaruvini qanday turlarga ajratadi?**

- a) monarxiya, demokratiya, Zodagoniya;
- b) monarxiya, avtonom, Zodagoniya;
- c) Zodagoniya, avtoritar, avtonom;
- d) Zodagoniya, monarxiya, parlamentar.

**6. Arastu insonni qanday baholaydi?**

- a) biologik mavjudot;
- b) siyosiy mavjudot;
- c) doimiy ehtiyojlari qondirilishi lozim bo'lgan mavjudot;
- d) ijtimoiy mavjudot.

**7. Abu Nasr Farobiyning fikriga ko'ra, davlat boshqaruviga qaysi kishilar toifasi munosib?**

- a) kamtarin, qattiqqo'l;
- b) adolatpesha, haqiqatgo'y;
- c) fozil, ma'rifatli;
- d) kamtarin, saxovatpesha.

**8. Buyuk Sharq mutafakkiri Abu Ali Ibn Sinoning qaysi asarida hukmdorning xislatlari va aholining tabaqalanishi yoritilgan?**

- a) "Turkiy qavmlar tarixi";
- b) "Hukmdorlarning boshqaruvi haqida";
- c) "Iloh shahri";
- d) "Risolayi tadbiri manzil".

**9. “Odamlar yo‘qotgan mablag‘ni otasining o‘limidan ko‘ra ko‘proq eslab yuradi”, degan fikr qaysi olimning qalamiga mansub?**

- a) Nikollo Bernardo Makiavelli;
- b) Jan Boden;
- c) Jon Lokk;
- d) Tomas Gobbs.

**10. “Agar qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar bir shaxsda yoki bir tashkilotda mujassamlashsa, erkinlik bo‘lmaydi”, degan g‘oya’ni kim ilgari suradi?**

- a) Sharl Lui Monteskye;
- b) Jan Jak Russo;
- c) Jon Lokk;
- d) Maks Veber.

**11. Jan Jak Russoning fikriga ko‘ra, tengsizlikning asosiy sababi nimada?**

- a) xususiy mulk;
- b) ijtimoiy kelib chiqishi;
- c) jamiyatdagi tutgan o‘rni;
- d) iqtisodiy ahvoli.

**12. G.Moska va V.Paretolar qaysi nazariyani ishlab chiqqanlar?**

- a) hokimiyat nazariyasi;
- b) tengsizlik nazariyasi;
- c) an’anaviylik nazariyasi;
- d) elitalar nazariyasi.

**13. Maks Veber ishlab chiqqan ta’limotni ko‘rsating.**

- a) legitim hokimiyat turlari to‘g‘risida;
- b) tengsizlik asosidagi hokimiyat turlari to‘g‘risida;
- c) adolatli hokimiyat to‘g‘risida;
- d) ikki qarama-qarshi sinf to‘g‘risida.

**14. Siyosiy fandagi tarkibiy funksionalizm usulologiyasi asoschisi kim?**

- a) Maks Veber;
- b) E.Dyurkgeym;
- c) Jan Jak Russo;
- d) G. Lassuell.

**15. O'rta Osiyodagi ma'rifatparvarlarning fikricha, mamlakatning qoloqligi sababi nimada deb hisoblaydilar?**

- a) hokimiyat boshqaruvida adolatsizlik mavjudligida;
- b) amirlar, xonlar, beklarning nodonligi, beparvoligi va ilm-ma'rifatning yo'qligida;
- c) aholining doimiy tengsizlikka uchrashida;
- d) mamlakatda qonunlarning amal qilmasligida.

### **III-bob. AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHDA OYLIK ISH HAQINING O'RNI**

**3.1. Mehnat va oylik ish haqining ijtimoiy iqtisodiy mohiyati va uning turlari**

**3.2. Mehnatga oylik ish haqini tayinlashning tizimlari va mezonlari**

**3.3. O'zbekistonda aholi daromadini oshirishga qaratilgan ijtimoiy siyosat**

#### **3.1. Mehnat va oylik ish haqining ijtimoiy iqtisodiy mohiyati va uning turlari**

Mehnat – insonning maqsadga muvofiq ijtimoiy foydali faoliyati eng avvalo tabiat predmetlarini o'zgartirib, ehtiyojga moslashtirishni bildiradi. Mehnat kishilik jamiyati hayotining asosiy sharti, chunki, u tufayli insoniyatning yashashi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlar yaratiladi.

Insonning faoliyati tufayli mehnat predmetlari mahsulotga aylanadi. Mehnat odamni hayvondan farqlantiradigan eng muhim omildir. Mehnat tufayli inson tabiatdagi narsalarni o'zgartiribgina qolmay, balki o'zi ham kamol topadi, uning aqliy va jismoniy qobiliyatlari o'sadi. Mehnat jarayonida inson tabiat kuchlarini o'z maqsadiga bo'ysundiradi. Mehnatni asoslashga oid turli nuqtayi nazarlar turlicha tushuniladi va ifodalanadi.

Mehnatni asoslashga oid turli nuqtayi nazarlar turlicha tushuniladi va ifodalanadi. Ammo shunday nuqtayi nazarlar ham borki, ular har doim, hamma uchun tushunarli va ko'pchilikka yaqin, chunki ular keng tarqalgan va hammabop fikrlar asosiga qurilgan. Chunonchi:

- ish men uchun – eng asosiysi; mablag' ishlab topish eng yaxshi maqsad;
- ish men uchun – hammasidan muhim; faqat mehnat, faoliyat, mansab yashashning ma'nosini bildiradi;
- men ishga bor kuchimni sarf qilishni istayman;
- ish – bu, muhim, lekin boshqa narsalarga, qadriyatlarga qarshi bo'lmisligi lozim, ya'ni hayotni to'ldirishi zarur;

• ish – bu, bajarilishi lozim bo‘lgan, lekin haddan oshirib yuborish mumkin bo‘lmagan faoliyatdir;

• ishga jiddiy, lekin oddiy munosabatda bo‘lish zarur;

ish – bu, ko‘ngilsiz zarurat; agar yashash uchun mablag‘im yetarli bo‘lganida edi, umuman ishlamagan bo‘lar edim (agar u atrofdegilar tomonidan muhokama qilinmasa edi)<sup>22</sup>.

Jamiyat taraqqiy etishi bilan mehnat taqsimoti yuzaga keladi va borgan sari chuqurlashib boradi, mehnatning yangi turlari yuzaga keladi, ular mustaqil vazifaga ega bo‘ladi. Mehnatdagi ixtisoslashuv tufayli tabiat sirlari chuqur o‘rganiladi, tabiiy narsalar to‘laroq ishlatiladi, hatto, ularniig xossalari o‘zgartiriladi. Mehnat taqsimotining darajasi jamiyatdagi ishlab chiqaruvchi kuchlarning qay darajgia ekanligini ifodalaydi. Mehnat turlari yuzaga kelishi bilan mehnat faoliyati natijalarini ayirboshlash, har xil mehnatni bir-biriga moslashtirish ehtiyoji tug‘iladi. Bu esa mehnatga ijtimoiy tus beradi, chunki mahsulotlar va xizmatlar ko‘pchilik mehnatining natijasiga aylanadi. Shunday sharoitlarni boshqarish tizimi yuzaga keladi va u maxsus vazifa kasb etadi. Mehnat natijasi (mahsulot) tovarga aylanganida, ya‘ni pul vositasi bilan ayirboshlanganida, mehnatning qiymat yaratishdagi roli jihatidan aniq va mavhum mehnat kabi turlarga bo‘linishi yuz beradi. Mehnat o‘zining mazmuni va xarakteri jihatidan aqliy, jismoniy, malakaviy (murakkab) va malakasiz (oddiy) mehnatga bo‘linadi.

Aqliy mehnat – insonning tafakkur faoliyati. Bunga muhandis, shifokor, agronom, o‘qituvchi, olim va boshqa kasb sohiblarining mehnati misol bo‘ladi. Jismoniy mehnat – insonning jismoniy faoliyati. Bunga ishchi, dehqon, kosiblar mehnati misol bo‘ladi. Malakaviy mehnat - maxsus tayyorgarlikni talab etadi. Malakasiz mehnat - maxsus tayyorgarlikni va qobiliyatni talab etmaydi, ular sirasiga yuk tashuvchi, farrosh, qorovul kabilar mehnati kiradi.

Mehnat faoliyati har qanday faollik qatorida bir necha qimmatli nuqtayi nazarlar bilan tavsiflanadi. Bu nuqtayi nazarlar aniq bir maqsadlarni ko‘zda tutadi va mehnatni rag‘batlantirishning tuzilmasini tashkil qiladi. Bu tuzilma nuqtayi nazaridan rag‘batlantirishni nodifferensial va differensial samarali turlarga ajratishi mumkin.

---

<sup>22</sup> Холмуродов С.Э., Шююсупова Н.Т. Иқтисодий социология - (Ўқув қўлланма) – Т.: ТДИУ, 2003 – Б. 87.

Nodifferensial rag‘batlantirish deganda, birgina rag‘batlantirish bilan, Jumladan, mehnat haqi bilan maqsadga erishish ko‘zda tutiladi, mehnat faoliyatining barcha ko‘rsatkichlari birgina rag‘batlantirish orqali normal holatga kelishi mumkin.

Differensial samarali rag‘batlantirishda maqsadlar mustaqil bo‘ladi, hech narsaga bog‘liq bo‘lmaydi, birgina rag‘batlantirishning o‘zi mehnatning ko‘pgina jabhalariga ta‘sir qiladi, lekin yakuniy natijalar turlicha bo‘ladi; bir yoki bir necha maqsadlar alohida rag‘batlantirishni ko‘zda tutadi: rag‘batlantirishning bir maqsadi ikkinchisiga qarshi chiqadi.

Differensial samarali rag‘batlantirish quyidagi muammoli holatlarda yuzaga keladi:

1. Rag‘batlantirishda miqdoriy natijalar sifat natijalariga qattiq ta‘sir ko‘rsatadi.

2. Birgina oylik maosh miqdoriy natijalarni rag‘batlantiradi, lekin sifat natijalarini rag‘batlantirmaydi, xodim esa o‘z imkoniyatlaridan ma‘lum miqdorda foydalanib bo‘ladi.

3. Miqdor va sifat natijalariga amal qilish iqtisodiy real bo‘lmagan holatlarga olib kelishi mumkin, bu esa, o‘z navbatida, belgilangan ishni va majburiyatlarni muddatida yakunlashga ta‘sir qiladi.

4. Moddiy qo‘llab-quvvatlash yoki tartib-intizom sanksiyalarini qo‘llash, kun tartibi yoki mas‘uliyatga e‘tibor qilish har doim ham mehnatni rag‘batlantiravermaydi.

5. Kadrlar yetishmasligi va ularning yetarliligi sharoitida birgina oylik maosh mehnat faoliyatiga turlicha ta‘sir o‘tkazishi mumkin (kadrlar o‘z mavqelaridan foydalanib, uni suiste‘mol qilish holatlari uchraydi).

Mehnat doirasida nodifferensial va differensial samarali rag‘batlantirishning yuzaga kelishi quyidagi omillarga bog‘liq bo‘ladi:

- mehnatga haq to‘lashning miqdori (katta oylik maosh yordamida maqsadga erishish mumkin);

- mehnatni tashkil qilish va uning mazmuni (aynan ana shular mehnat faolligining turli jihatlari, o‘zaro bog‘liqligini aniqlaydi);

- har bir xodimning shaxs sifatida o‘ziga xosligi (uning rag‘batlantirishning hajmi haqida fikri, mehnat faolligining turli jihatlari qobiliyati)<sup>23</sup>.

<sup>23</sup> Холмуродов С.Э., Шоюсупова Н.Т. Иқтисодий социология - (Ўқув қўлланма) – Т.: ТДИУ, 2003 – Б. 142.

Ish haqi – bu ko‘pchilik aholining asosiy daromadi. Rivojlangan mamlakatlarda jami daromadlarning 60-70 foizini ish haqi tashkil etadi. Ish haqi – yollanib ishlovchilarning ishlab topgan daromadi, tirikchilik vositalarini mahsulot va xizmatlarni xarid etish va pul jamg‘armasini hosil etish uchun ishlatiladi.

Ish haqi uch qismdan tashkil topgan:

- asosiy ish haqi;
- mukofat tarzidagi ish haqi, ya’ni bonus;
- belgilangan ish vaqtdan ortiqcha ishlaganlik uchun beriladigan pul.

Ishlovchining qo‘lga tegishiga qarab umumiy ish haqi va sof ish haqi bo‘ladi umumiy ish haqini yalpi, ishlovchi hisobiga yozilgan ish haqi desa bo‘ladi. Sof ish haqi yalpi ish haqidan turli xildagi to‘lovlar, soliqlar, badal puli va h.k chegirib tashlanganidan so‘ng qoladigan ish haqi, ya’ni ishlovchining hamyoniga kelib tushadigan ish haqidir.

Ish haqining miqdori o‘zgaruvchidir. Bu o‘zgarish asosan uch omil ta’sirida yuz beradi.

1. Ish kuchiga bo‘lgan talab va uning taklifi. Mehnatga talab oshganda ish haqi ko‘payadi, mehnat taklifi oshganda esa ish haqi kamayadi. Mehnat bozoridagi talab va taklif tenglashgan taqdirda ish haqi bir me’yorda saqlanadi.

2. Mehnat unumdorligi. Ish bilan bandlik sharoitida ish haqi mehnat unumdorligi oshsa ko‘payadi, u pasaysa, aksincha, kamayadi.

3. Bozor ishlay bilish. Ish haqi umuman ishlaganlik uchun emas, balki bozor talabiga mos ravishda bajarilgan mehnat uchun beriladi. Tovarlar bozorbop bo‘lib, yaxshi sotilsa, ish haqi ko‘payadi, ular bozorda o‘tmay qolsa, ish haqi kamayadi yoki uni to‘lash imkoni bo‘lmaydi.

Ish haqining asosiy vazifasi ishlab chiqarishning bevosita qatnashchisi bo‘lgan xodim hamda uning oila a’zolarining hayot va mehnat faoliyati sharoitlarini ta’minlashidan iborat. Qiymatning mehnat nazariyasi ish kuchini alohida, o‘ziga xos tovar deb hisoblaydi. Shu sababli, bu nazariya ish haqini tovar bo‘lgan ish kuchi qiymatining o‘zgargan shakli, ya’ni uning puldagi ifodasi deb hisoblaydi va uni ish kuchini takror ishlab chiqarishi uchun zarur bo‘lgan tirikchilik vositalari qiymati tarzida ta’riflaydi. Ish haqiga ish kuchi qiymatining puldagi ifodasi sifatida qarash aniq mehnat bozorida ish haqi darajasiga talab va taklif omillarining ta’sirini hisobga olmaydi. Iqtisodiy rivojlangan

mamlakatlar mehnat bozorida real ish haqining o'rtacha darajasi yashash uchun zarur tirikchilik vositalari minimumiga nisbatan ancha yuqori darajada turadi.

Ish haqining mohiyati uning ijtimoiy ishlab chiqarish bosqichlari bo'lgan mahsulot ishlab chiqarish, uni taqsimlash, ayriboshlash va iste'mol qilishda bajaradigan funksiyalari (vazifalari)da namoyon bo'ladi.

1. Takror ishlab chiqarish funksiyasi. U xodimlarni, shuningdek, ularning oila a'zolarini ish kuchini takror ishlab chiqarish uchun, avlodlarni qayta ko'paytirish uchun zarur bo'ladigan hayotiy ne'matlar bilan ta'minlashdan iborat. Unda ehtiyojlarning ortib borishidan iborat iqtisodiy qonun o'z ifodasini topadi. Mazkur funksiya ish haqining davlat tomonidan tartibga solinishi xususiyatlari, ish haqining ish kuchini takror ishlab chiqarishni ta'minlaydigan miqdorini qonuniy darajada belgilash bilan uzviy bog'liqdir.

2. Rag'batlantirish funksiyasi. Uning mohiyati xodimning ish haqi uning mehnatga qo'shgan hissasiga, korxonaning ishlab chiqarish xo'jalik faoliyati natijalariga bog'liqligini belgilashdan iborat bo'lib, bunda xodimni o'z mehnati natijalarini doimiy ravishda yaxshilab borishga qiziqtirishi lozim.

3. O'Ichov-taqsimlash funksiyasi. Bu funksiya iste'mol fondlarini yollanma xodim bilan ishlab chiqarish vositalari egasi o'rtasida taqsimlash vaqtida jonli mehnat o'Ichovini aks ettirish uchun mo'ljallangan. Ish haqi vositasida ishlab chiqarish jarayoni har bir ishtirokchisining mehnat hissasiga muvofiq uning iste'mol fondidagi alohida ulushi aniqlanadi.

4. Joylashtirish funksiyasi. Mazkur funksiyaning hozirgi vaqtdagi ahamiyati jiddiy ravishda oshib bormoqda. Uning mohiyati mehnat resurslarini mintaqalar, iqtisodiyot tarmoqlari va korxonalar bo'yicha qulay ravishda joylashtirishdan iboratdir.

5. Aholining to'lovga qobil talabini shakllantirish funksiyasi. Bu funksiyaning vazifasi to'lovga qobiliyatli talabni muvofiqlashtirishdir. Bunday talab deganda, xaridorlarning pul mablag'lari bilan ta'minlangan ehtiyojlarining namoyon bo'lish shakli tushuniladi, shuningdek, iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish ham nazarda tutiladi.

Yuqorida aytib o'tilgan funksiyalarni amalga oshirish uchun quyidagi eng muhim tamoyillarga rioya qilinishi zarur:

1. Ishlab chiqarish va mehnat samaradorligi ortib borgani sari real ish haqining ortib borishi. Bu tamoyil ehtiyojlarning ortishi obyektiv iqtisodiy qonunning amal qilishi bilan bog'liq bo'lib, mazkur qonunga muvofiq ehtiyojlarning yanada to'laroq qondirilishi faqat o'z mehnati uchun ko'proq miqdorda moddiy ne'matlar va xizmatlarga ega bo'lish imkoniyatlari kengaygan sharoitdagina real bo'ladi. Biroq bunday imkoniyat ishlab chiqarish faoliyati natijalari bilan, mehnat samaradorligi bilan bog'lanishi lozim. Bunday bog'lanishning yo'qligi esa, bir tomondan, ishlab topilmagan pulning berilishiga, demak, inflatsiyaga, olingan nominal ish haqining ta'min etilishiga va real ish haqining pasayishiga, ikkinchi tomondan esa, pasaytirilgan, mehnat hissasining samaradorligiga mos kelmaydigan nominal ish haqining to'lanishiga olib kelishi mumkin. Natijada xodimlarning ortib borayotgan ehtiyojlarini qondirish imkoniyati va ish haqining ko'payish imkoniyati mavjud bo'lmaydi.

2. Mehnat unumdorligi o'sishining o'rtacha ish haqining o'sish sur'atlaridan ilgarilovchi sur'atlarini ta'minlash. Bu tamoyilning mohiyati – ishlab chiqarishni rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish asosida mehnat daromadlarini maksimal darajaga yetkazishdan iborat. Bu tamoyilga rioya qilinishi jamg'arish jarayonining, kengaytirilgan ishlab chiqarishning uzluksizligini taqozo etadi va korxonalar rivojlanishi hamda ravnaq topishining zarur sharti hisoblanadi.

3. Xodimning mehnat hissasiga, mehnat mazmuni va sharoitlariga, korxonalar joylashgan mintaqaga, uning qaysi tarmoqqa mansubligiga qarab ish haqini tabaqalashtirish. Mazkur tamoyil xodimning o'z mehnat malakasidan, mahsulotning yuqori sifatli bo'lishini ta'minlashdan moddiy manfaatdorligini kuchaytirish zarurligiga asoslangan. Bunda ish kuchini takror ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan moddiy ne'matlar miqdoridagi, mehnatning turli sharoitlaridagi, jo'g'rofiy va iqlim sharoitlaridagi tafovutlar hisobga olinishi lozim.

4. Teng mehnatga teng ish haqi. Bozor sharoitida bu tamoyilning maqsadi – ishlovchining jinsi, yoshi, millati va hokazolarga qarab uning mehnatiga haq to'lashda kamsitishga yo'l qo'ymaslikdir.

5. Mehnatga haq to'lashni davlat tomonidan tartibga solish.

6. Mehnat bozorining ta'sirini hisobga olish. Mehnat bozori – bu, shunday bir sohaki, u yerda pirovard natijada mehnatning har xil turlariga baho berish tarkib topadi. Har bir xodimning mehnatiga to'lanadigan ish haqi uning mehnat bozoridagi mavqeyiga chambarchas

bog'liq bo'lib, mazkur bozordagi vaziyatni, bundan tashqari, bandlik imkoniyatini ham belgilab beradi.

7. Mehnatga haq to'lash shakllari va tizimlarining oddiyligi, mantiqiyliigi va qulayligi, mehnatga haq to'lash tizimlarining mohiyati haqida keng xabardor bo'lishni ta'minlaydi. Xodimda ish haqi to'g'risida tushunarli va batafsil axborot mavjud bo'lgandagina u sidqidildan berilib mehnat qiladi. Xodimlar qanday holatda ish haqining miqdori, ya'ni o'z moddiy farovonliklari darajasi oshishini aniq tasavvur qilishlari lozim.

Ish haqi – mehnatga pul shaklida to'lanadigan haq; qiymatning o'zgargan shakli, ish kuchi (taqdim etilgan mehnat xizmati)ning bahosi. Ish kuchi qiymati va narxi bevosita ish haqida ifodalanadi. Ish haqi darajasi mehnat bozorida kelishiladi. Xodim mehnat bozorida mehnatni emas, o'z ish kuchini sotadi. Ish haqi mehnatning pul shaklidagi bahosi bo'lib, uni ishga yollovchilar (korxonona, muassasa, tadbirkor) mehnat qiluvchilarga ma'lum vaqt mobaynida ma'lum miqdordagi va muayyan sifatli ishni bajarganliklari uchun to'laydilar. Yollanma xodim uchun ish haqi asosiy daromadi manbayi hisoblanadi.

Ish haqi – yollanma xodim daromadining asosiy manbayi, unga tegishli ish qobiliyatiga bo'lgan mulkchilik huquqini iqtisodiy jihatdan ro'yobga chiqarish shakli. Shu bilan birga ish beruvchi uchun yollanma xodimlar mehnatiga to'lanadigan haq ishlab chiqarish xarajatlarining unsurlaridan biri. Ish beruvchi mehnat resurslaridan, ishlab chiqarish omillaridan biri sifatida foydalanish uchun uni xarid qiladi.

Ish haqi tushunchasi bundan tashqari, ish haqini maoshdan ajratish kerak. Ish haqi - bu xodimning shtat jadvaliga muvofiq belgilanadigan va ish haqining asosiy qismini tashkil etadigan summasi bo'lib, ish beruvchining har qanday nafaqa va imtiyozlar, jumladan, shaxsiy daromad solig'i; tajriba uchun imtiyoz; tuman koeffitsienti; hisob-kitob davri uchun bonuslar; kasb bayramiga yoki boshqa sabablarga ko'ra qo'shimcha bonuslar; ish beruvchi o'z vaqtida kassirga o'tkazmaydigan mablag'larni saqlab qolish yoki korxonaga yetkazilgan moddiy zararni qoplashi shart; ijtimoiy imtiyozlar.

Vaqtinchalik ish haqi - ishlagan ish soatlarining ish haqi. Qoida tariqasida, bunday tizim ishlab chiqarish haqida gap bo'lmasa, mehnat faoliyati natijalarini biron bir miqdoriy ekvivalentda, Jumladan, menedjerga kelganda, aniqlash mumkin bo'lmagan hollarda qo'llaniladi. Vaqt asosida shakllangan ish haqi miqdori quyidagicha:

tarif stavkasi, aslida ishlagan vaqti. Ya'ni, agar xodimga 3 million so'm miqdorida ish haqi berilgan bo'lsa va haftada ish soatlari soni 40 soatni tashkil etsa, u bir necha hafta davomida bir oy davomida 40 soat ishlagan bo'lsada, ammo uning ish haqi 20 foizga kamayadi. Vaqtinchalik to'lov uchun ta'rif stavkalari ish vaqtini hisoblash bo'linmasi tomonidan belgilanadi. Oylik vaqt ish haqi shakllari quyidagicha bo'lishi mumkin:

- oddiy vaqtga asoslangan - ushbu shaklga muvofiq, xodimga toifaga (xizmat muddati, lavozimi) tayinlangan soatlik ish haqi, amalda ishlagan soatlar soniga ko'payadi (kerak bo'lganda ortiqcha ish haqi miqdorini hisobga olgan holda);

- vaqt bonusi - bu to'lov turi bilan daromad yuqorida ko'rsatilgan tarzda hisoblab chiqiladi, lekin unga qo'shilgan tarif bu tarifning ma'lum foizini tashkil etadigan mukofot hisoblanadi.

Ish haqi quyidagi tarzda to'lanadi: to'g'ridan-to'g'ri narx - bu holatda ish haqi ishlab chiqarilgan tovarlar yoki bajarilgan xizmatlar soniga qarab qat'iy belgilangan narx-navo asosida to'lanadi; paragraf-progressiv - bu shaklda to'lash tartibi yuqoridagi kabi, lekin agar xodim korxonada belgilangan stavkadan oshib ketgan bo'lsa, to'lov miqdori ko'tariladi; bonus deganda xodimlar uchun ish haqi shaklidagi mukofotlar nazarda tutiladi. Va faqat, Jumladan, belgilangan me'yorni ortiqcha to'ldirish uchun emas, balki muayyan bir sifatga erishish uchun: ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, chiqindisiz ishlab chiqarish, nikohsiz ishlab chiqarish va h.k.

Yaratilgan yalpi ichki mahsulotning muayyan bir qismi, ya'ni ishchi va xizmatchilarga, ya'ni ishchi kuchiga tegishli qismi uning ishlab chiqaruvchilari o'rtasida mehnatning miqdori, sifati va unumdorligiga qarab taqsimlanadi, bu iqtisodiy adabiyotlar va hujjatlarda ish haqi deb yuritiladi. Ish haqi hozirgi davrda barcha mamlakatlar iqtisodiyotida muhim o'rin tutadi. Shuning uchun ham iqtisodchi olimlar ish haqining mazmuniga katta e'tibor qaratadilar. Ish haqining mazmunini aniqlashda turli iqtisodchilar turli tomondan yondashib, unga har xil ta'rif beradilar. Jumladan, D.Rikardo va T.Maltuslarning "Yashash uchun vosita minimum" tamoyilida ish haqini yashash uchun zarur vositalarning fiziologik minimumi bilan bir xil deb hisoblanadi. Lekin bunday qarash to'g'ri emas. Bu minimum ishchi kuchi shakllanadigan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy shart-sharoitlar tug'dirgan ehtiyojlarni ham o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, ishchi kuchi narxining quyi chegarasini

yashash uchun zarur vositalar miqdorining minimumi bilan aniqlash, ishga yollovchilarning ish haqini mazkur quyi chegaradan pasaytirishga intilishiga olib kelishi mumkin. Iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarning xo'jalik amaliyotidagi ish haqining darajasini kuzatish shuni ko'rsatadiki, ishchi kuchi bozorida real ish haqining o'rtacha darajasi yashash uchun zarur jismoniy vositalar minimumiga nisbatan ancha yuqori darajada o'rnatilgan. Qiymatning mehnat nazariyasi (ingliz klassik siyosiy iqtisod maktabi, marksistik yo'nalishidagi iqtisodchilar) ishchi kuchini alohida, o'ziga xos tovar deb hisoblaydi. Shu sababli bu nazariya ish haqiga tovar bo'lgan ishchi kuchi qiymatining o'zgargan shakli, ya'ni puldagi ifodasi sifatida qaraydi va uni ishchi kuchini takror ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan tirikchilik vositalari qiymati sifatida aniqlaydi. Mazkur g'oya tarafdorlari ishchi kuchi qiymatiga bir qator omillar, avvalo tabiiy shart-sharoitlar, aholining madaniy rivojlanishi, ularning malakasi va ishchi oilasini saqlash hamda ularning tabiiy takror ishlab chiqarish sharoitlari ta'sir qilishini ko'rsatadi. Shu bilan birga bu g'oyada hayotiy ehtiyojlar hamda ularning qondirilish usullari mamlakatning ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishida erishilgan darajaga bog'liqligi ta'kidlanadi.

Bu fikrlar hozirgi davrda ham ko'pgina ko'zga ko'ringan iqtisodchi olimlar tomonidan ma'qullanib kelinmoqda. Jumladan, A.F.Shishkin, Ye.F.Borisovlar o'zlarining "Iqtisodiyot nazariyasi" darsliklarida ish haqini ishchi kuchi tovar qiymatining puldagi ifodasi deya ta'riflaydilar.

Bu mualliflar o'z fikrlarini asoslashda ko'pgina olimlar mehnat jarayoni bilan ishchi kuchining farqiga bormaganligini, shu sababli bozorda mehnat sotiladi deb fikr yuritishini tanqid qilib, bozorda mehnat emas, balki ishchi kuchi tovar sifatida sotilishini, bu jarayon yuzaki qaralganda mehnatga haq to'lashga o'xshab ko'rinishini isbotlashga harakat qilganlar. Lekin ish haqiga "ishchi kuchi qiymatining puldagi ifodasi" sifatida qarash, aniq ishchi kuchi bozorida ish haqi darajasiga uning unumdorligi, mehnat intensivligi, talab va taklif kabi omillarning ta'sirini yetarli darajada hisobga olmaydi. Hozirgi zamon iqtisodiyot nazariyasida ayrim mualliflar (jumladan, "Ekonomiks" darsliklarida, V.D.Kamayev rahbarligida nashr etilgan "Iqtisodiyot nazariyasi" darsligi va boshqalarda) ish haqini mehnat narxi sifatida, ayrimlari esa mehnat bozoridagi talab va taklifning muvozanat narxi sifatida talqin etadilar. Bunda ular asosan bozorda mehnat sotiladi

degan bizning nazdimizda noto'g'ri hisoblangan tushunchaga asoslanadilar. Mehnat ishchi kuchining funktsiya qilishi, uning ma'lum maqsadga qaratilgan faoliyat jarayoni bo'lib, uning na qiymati, na narxi yo'qligi, bu jarayonni bozorga olib chiqib sotib bo'lmasligi fanda ham, real hayotda ham, iqtisodiy amaliyotda ham barchaga ayon bo'lgan va allaqachon isbotlangan masaladir. Shuning uchun buni isbotlashga harakat qilmasak ham bo'ladi. Lekin bu g'oyaning negizida bir ijobiy tomon borki, uni albatta hisobga olish zarur. Bu ham bo'lsa ular mehnatni ishchining malakasi, intensivligi va natijasi bilan bog'lashga harakat qilganlar. Ish haqining mazmuni to'g'risidagi turli nazariyalarni (turli mamlakatlardagi va o'z mamlakatimizdagi amaliyotni) umumlashtirib, quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin. Ish haqi to'g'risidagi nazariyalarda unga bir tomonlama yondashish xususiyati mavjud bo'lib, uning murakkab va ko'p qirrali iqtisodiy jarayon ekanligi ma'lum darajada e'tibordan chetda qolgan. Lekin bu nazariyalarning har birida ish haqining u yoki bu tomoniga to'g'ri baho berilgan bo'lib, ularda foydalanish mumkin bo'lgan ijobiy mazmun mavjuddir.

1. Ish haqining umumiy darajasi har doim har bir mamlakatda iqtisodiyotning erishgan darajasiga, ya'ni umumiy mehnat unumdorligi, milliy mahsulot hajmi, uning aholi jon boshiga to'g'ri keladigan miqdoriga bog'liq bo'ladi. Chunki shu mahsulotlarning bir qismi mehnatning miqdori va sifatiga qarab taqsimlanadi. Shuning uchun ham u turli mamlakatlarda turli miqdorlarda bo'ladi.

2. Ish haqining miqdori ishchi kuchini takror ishlab chiqarishga, ishchining o'zini, oila a'zolarini boqishga yetadigan darajada bo'lishi lozim.

3. Ish haqining miqdori va darajasi ishchi kuchining malakasi, uning mehnati unumdorligi bilan bog'liq bo'ladi.

4. Ish haqining darajasi har bir firma yoki korxonada ishlab chiqarishning erishgan darajasi bilan, ya'ni ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulot hajmi va bir ishchiga to'g'ri kelgan miqdori bilan bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham u mehnat miqdori, malakasi bir xil bo'lsa-da, turli korxonalarda turlicha miqdorda bo'lishi mumkin.

Ushbu xulosalardan keyin ish haqining mazmuniga ta'rif berib aytish mumkinki, ish haqi – ishchi va xizmatchilarning mehnatining miqdori, sifati va unumdorligiga qarab milliy mahsulotdan oladigan ulushining puldagi ifodasidir. Ish haqi ishlab chiqarish jarayonida

yaratilgan zaruriy mahsulot bilan chambarchas bog‘liqdir. Chunki ish haqi uning asosiy qismini tashkil etadi. Ish haqining asosiy vazifasi ishchi va xizmatchilarning turmush va mehnat sharoitini yaxshilash, boshqacha qilib aytganda, mehnat me‘yori bilan iste‘mol me‘yori o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta‘minlashdan iboratdir. Albatta ishchi kuchini takror hosil qilishda ish haqidan tashqari, foiz, renta, foyda, dividend, turli imtiyozlar va nafaqalarning ham roli bor. Ish haqining mazmunini to‘laroq tushunish uchun nominal va real ish haqi tushunchalarini bilish zarurdir. Ishchi uchun qanday shaklda va qancha miqdorda ish haqi olishi emas, balki unga qancha miqdorda tovarlar va xizmatlar sotib olishi mumkinligi muhim. Shu sababli nominal va real ish haqi farqlanadi. Nominal ish haqi – bu ma‘lum vaqt davomida olingan pul summasi yoki pul shaklidagi ish haqi. Misol uchun, mexanika zavodi ishchisi yanvar oyida 200 ming so‘m, fevral oyida 190 ming so‘m, mart oyida 220 ming so‘m ish haqi oldi. Bular nominal ish haqi hisoblanadi. Real ish haqi – bu nominal ish haqi summasining qanchalik tovarlar va xizmatlar miqdorini sotib olishga yetadigan quvvatidir. Boshqacha aytganda, real ish haqi – bu nominal ish haqining “xarid etish” qobiliyatidir. O‘z-o‘zidan aniqki, real ish haqi nominal ish haqi miqdoriga va xarid qilinadigan tovarlar (va xizmatlar) narxiga bog‘liq. Shunday ekan, real ish haqi boshqa sharoitlar bir xil bo‘lganda, nominal ish haqiga to‘g‘ri mutanosibdir va iste‘mol buyumlari va xizmatlar narxining darajasiga teskari mutanosibdir. Bizning misolimizda ishchining nominal ish haqi yanvar oyiga nisbatan fevral oyida 95 foizni, mart oyida 110 foizni tashkil etgan edi. Real ish haqi darajasining o‘zgarishini aniqlash uchun esa iste‘mol buyumlari va xizmatlarning narx darajasi to‘g‘risida ma‘lumot zarur bo‘ladi. Aytaylik, narx darajasi yanvar oyiga nisbatan fevralda 1,08, martda esa 1,2 baravar oshgan bo‘lsin. U holda ishchining real ish haqi fevralda 176 ming so‘mni, mart oyida esa 183 ming so‘mni tashkil etadi. Ya‘ni, ishchining real ish haqi yanvar oyiga nisbatan fevral oyida 88 foiz, mart oyida 91,5 foiz darajasida bo‘ladi. Real ish haqining darajasiga tovarlar va xizmatlar narxidan tashqari belgilangan soliqlar miqdori va boshqa turli sharoitlar ham ta‘sir qiladi. Jumladan, soliq turlari va miqdori qancha ko‘p bo‘lsa, real ish haqi shuncha pasayadi, yoki aksincha. Nominal ish haqi ishchining ishlab topgan pul daromadi darajasini, real ish haqi esa uning iste‘moli va farovonlik darajasini tavsiflaydi. Ish haqi

aholi daromadlarining asosiy tarkibiy qismlaridan birini tashkil qilib, u istiqbolda ham o'zining yetakchi rolini saqlab qoladi.

Ish haqini tartibga solishning davlat tizimi 3 asosiy yo'nalishda amalga oshiriladi:

- davlat tomonidan ish haqi minimumi (eng kam ish haqi miqdori) belgilanadi. Inflatsiya jarayonida eng kam ish haqini indeksatsiyalash hukumatning maxsus qarorlariga muvofiq amalga oshiriladi;

- korxonalarda ishlovchi xodimlarning barcha toifalari uchun o'rtacha ish haqining ortib borishi muayyan darajada cheklanadi. Davlat bu usuldan tanglik holatlarida inflatsiya sur'atlarini pasaytirishda foydalanadi;

- ish haqining o'rtacha ortib borishiga qarab ortib boruvchi soliq stavkalari belgilanadi. Bu eng yuqori ish haqi darajasining o'sishiga ta'sir ko'rsatish va uni iqtisodiy usullar bilan cheklash imkonini beradi.

Yollanma xodimlar ish haqini davlat tomonidan tartibga solish aholining eng kam ta'minlangan qatlamlari – yoshlar, malakasiz xodimlar, mehnat qobiliyati cheklanganlar va boshqalarni ijtimoiy himoya qilishda, inflatsiya, real ish haqining pasayishini cheklashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Eng kam ish haqi O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksiga muvofiq belgilangan haftasiga 40 soat, olti kunlik ish haftasida har kuni 7 soat, besh kunlik ish haftasida esa 8 soat ish vaqti me'yoridan kelib chiqqan holda, har bir soat, kun, hafta yoki oy uchun belgilanishi mumkin.

Eng kam ish haqini belgilashda quyidagilar hisobga olinadi:

- mehnatkashlar va ularning oila a'zolari ehtiyojlari;
- mamlakatdagi ish haqining umumiy darajasi;
- tirikchilik qiymati va undagi o'zgarishlar;
- ijtimoiy ta'minot boyicha nafaqalar;
- boshqa ijtimoiy guruhlar turmush darajasining nisbati;
- iqtisodiy omillar, shu jumladan, iqtisodiy rivojlanish ahvoli, mehnat unumdorligi darajasi, ish bilan bandlikni ta'minlash.

Mehnat haqi hisobining muammoli jihatlaridan yana biri – bu Respublikamizning korxonalar va tashkilotlarida o'rtacha ish haqi darjasini oshirish va uni asta-sekin rivojlangan davlatlar darajasiga yetkazish orqali ijtimoiy jihatdan farovon hayotni yo'lga qo'yish masalasidir. Dunyo amaliyotida mehnat haqining minimal darajasini belgilashda ikki xil yondashuvga tayaniladi:

- ish haqining oylik, kunlik va soatlik normalariga nisbatan meyoriyini belgilash orqali hisoblanadigan minimal ish haqi;

- mamlakat bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining darajasidan kelib chiqib belgilanadigan mehnat haqi.

Birinchi usulda ishchi va uning oilasining fiziologik talablari bo'yicha hayotiy zarurat hisoblangan elementlarning, ya'ni oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy, ta'lim, tibbiy xizmat, alohida tur xizmatlarni minimal normalardagi qiymati asos sifatida olinadi. Ushbu usul ko'proq dunyodagi rivojlanayotgan va rivojlanish sur'atlari past bo'lgan davlatlar amaliyoti uchun ko'proq xos bo'lgan usul hisoblanadi. Ikkinchi usul bo'yicha minimal ish haqi mamlakat bo'yicha o'rtacha ish haqiga nisbatan belgilanadi. Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan uning taklif etilgan meyoriy darajasi 50 foiz, Yevropa ittifoqi davlatlari uchun 60 foiz qilib belgilangan. Shuningdek, Yevropa Kengashining ijtimoiy huquqlar bo'yicha Qo'mitasi tomonidan ushbu ko'rsatkichning eng quyi darajasini 50 foizdan tushirmaslik shartlari belgilangan.

### **3.2. Mehnatga oylik ish haqini tayinlashning tizimlari va mezonlari**

Rivojlangan mamlakatlarda ishlab chiqarish va boshqa sohalarda ish haqining xilma-xil tizimlari qo'llaniladi. Bu tizimlarning hammasi mehnatga haq to'lashning keng tarqalgan asosiy ikki turi ishbay va vaqtbay haq to'lashga asoslanadi. Ishbay haq to'lash shakli yaqin o'tmishda ham ko'pgina korxonalarda keng qo'llanib kelingan, u vaqtda mashina-qo'l mehnati va qo'l mehnati ustunroq bo'ladi. Xuddi shu davrda mehnatni normallashtirish keng joriy qilinib, normalarning ancha zo'r berishini talab qiladigan mashhur Teylor tizimi vujudga kelgandi. Biroq, sanoatda ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash va ayniqsa, avtomatlashtirishning rivojlanib borishiga ko'ra ish haqini tashkil etishning ishbay shakli asta-sekin o'rnini vaqtbay shaklga bo'shatib bera boshladi. Hozirgi vaqtda mehnatga haq to'lashning vaqtbay shakli va uning tarkibiga kiruvchi vaqtbay-mukofotli shaklining salmog'i AQSHda qariyb 70foiz, Buyuk Britaniyada taxminan 60foiz, Fransiyada 80foizni tashkil etadi.

Ishchilar mehnatiga haq to'lashning xorijdagi asosiy tizimlarini tarixiy izchillikda quyidagi guruhlarga kiritish mumkin. Ana shunday tizimlarning birinchisi mehnatga haq to'lashning ishbay tizimi bo'lib,

uni mashhur muhandis-tashkilotchi F.Teylor asrimiz boshlarida ishlab chiqqan. Bu tizimga ko'ra, haq to'lashning oddiy ishbay shaklidan farqli o'laroq, texnikaviy jihatdan asoslangan ishlab chiqarish normalarini uddalagan ishchilar mehnatiga oshirilgan tarif stavkalari asosida haq to'langan. Bu normalar bajarilmagan taqdirda, tarif stavkasi birmuncha kamaytirilgan. Ko'rinib turibdiki, Teylor tizimi ishchilarda mehnat unumdorligini oshirishdan jiddiy moddiy manfaatdorlikni vujudga keltiradi, shu bilan birga, mazkur tizim mahsulot ishlab chiqarishning ancha keskin va jiddiy normalariga asoslangan bo'lib, ularni faqat malakali va tinimsiz ishlaydigan ishchilargina uzluksiz mehnat jarayoni sharoitida oshirib bajarilishi mumkin.

Teylor tizimi va uning o'zgartirilgan shakllari nafaqat AQSHda, balki bir qator iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda ham keng qo'llaniladi. Bu tizim asosida amerikalik olimlardan - K.Bart va D.Merriklar mehnatni normalashtirishning murakkab tizimini va unga mos keladigan rag'batlantirish tizimini ishlab chiqdilar. Ishbay-mukofotli bo'lgan va ko'p jihatdan Teylor tizimiga o'xshash bo'lgan Bart-Merrikning mukofotlash tizimida nazarda tutilishicha, kam va o'rtacha malakaga ega bo'lgan ishchilar normalarni 60-80foiz atrofida bajaradi. Normalarning 83-100foiz oralig'ida bajarilishi moddiy rag'batlantirishga arziydigan yutuq hisoblanadi. Normalarning 100foiz dan oshirib bajarilishi hisob-kitob stavkasini 20foiz oshirish bilan rag'batlantiriladi, tegishli ravishda ishbay ish narxlari ham qayta ko'rib chiqiladi va ish haqi ham sezilarli ravishda ortadi. Bart-Merrik tizimida yana bir o'ziga xos qat'iy shart mavjud bo'lib, unda normani 60foiz bajarish quyi chegara hisoblanadi, bundan chetga chiqish ishchini yetarli malakaga ega bo'lmagan yoki muayyan mehnat vazifasini bajarishga layoqatsiz sifatida ishdan bo'shatishga olib keladi. Bu shart shartnoma-kontrakt tuzish chog'ida ishchiga ma'lum qilinadi.

Teylor va Bart-Merrik tizimining umumiy xususiyatlarini o'zida mujassam etgan Gant tizimi AQSHda keng tarqalgan tizim hisoblanadi. U mehnat vaqtbay va ishbay haq to'lash shakllarining qo'shilishdan iborat bo'lib, unda mehnatga haq to'lash tizimi shartlari nazarda tutiladi:

-mahsulot ishlab chiqarishning texnikaga asoslangan tig'iz normasi 100foiz gacha bajarilganda, mehnatga haq to'lash vaqtbay asosida, soatlik tarif stavkalari bo'yicha ishbay hisob-kitob stavkalariga nisbatan 10-15foiz kamaytirilgan holda amalga oshiriladi;

-mahsulot ishlab chiqarish normalari 100 va undan yuqori foiz bajarilganda mehnatga mahsulot birligi va ish birligi uchun belgilangan narxlar asosida ishbay haq to‘lanib, bu narxlar to‘liq ishbay hisob-kitob stavkalari asosida hisoblanadi (ya’ni vaqtbay haq to‘lashga nisbatan 10-15foiz yuqori stavkalar bo‘yicha);

-alohida aniq va mas’uliyatli ishlarni bajarganlik uchun hisob-kitob stavkalari 40foiz gacha oshirilishi mumkin.

Amerikadagi haq to‘lashning asosiy tizimlari o‘zining barcha o‘zgarishlari bilan Yevropaning bir qator rivojlangan davlatlarida ham tatbiq etilgan. Buyuk Britaniyada qo‘llaniladigan Atkinson va Ellingxemning haq to‘lash tizimlarida Gant tizimi qoidalari o‘zlashtirilgan bo‘lib, faqat mehnatga haq to‘lash mezonlari va shartlari turlichadir. “Atkinson tizimi bo‘yicha mehnatga vaqtbay haq to‘lashda texnikaviy asoslangan tig‘iz normalarning 75foiz gacha bajarilishi nazarda tutiladi. Normani 100foiz qilib bajargan ishchi 105foiz ishbay haq, 138foiz vaqtbay stavka oladi. So‘ngra belgilangan norma oshirib bajarilganda rag‘batlantirishning boshqa shkalasi tatbiq etiladi. Normani oshirib bajarishning har bir foizi uchun hisob-kitob tarif stavkalarini 5foizgacha oshirishni nazarda tutadi. Jumladan, normalar 110foiz (10x5); 115foiz bajarilganda-75foiz (15x5), 120foiz bajarilganda - ikki baravar ko‘paytiriladi. Ellingxem tizimi ko‘p jihatdan Atkinson tizimiga o‘xshaydi, lekin undan to‘lovlari, ustama haqlari va ayrim rag‘batlantirish shartlari bilan farq qiladi. Bu tizimga muvofiq, mehnatga vaqtbay haq to‘lash ishlab chiqarish normalari 80foiz gacha bajarilganda amalga oshiriladi. Ishchi belgilangan normani 100foiz qilib bajarganda, mehnatga haq to‘lash ishbay ishlovchining to‘liq stavkasi bo‘yicha amalga oshiriladi va bundan tashqari bu stavkaning 80foiz miqdorida ustama haq to‘lanadi. Ellingxem tizimida belgilangan normalar 100foiz dan oshirib bajarilgan taqdirda, mehnatga haq to‘lashning ikkinchi, ortib boruvchi shkalasi amal qiladi, uning shartlariga muvofiq, ishbay ishlovchilarning hisob-kitob stavkalari oshirib bajarilgan normaning har bir foizi uchun taxminan 2,5foiz oshiriladi. Jumladan, norma 10foiz oshirib bajarilganda stavka hisob-kitob stavkasidan 35foiz yuqori (10-10x25) bo‘ladi, agar norma 20foiz oshirib ado etilsa, stavka 60foiz (10-20x2,5) ga ko‘paytiriladi. Biroq, shu narsani yana bir bor ta’kidlash joizki, Atkinson tizimida ham, Ellingxem tizimida ham, Teylordan keyingi barcha haq to‘lash tizimlarida bo‘lganidek, nihoyatda tig‘iz (jiddiy) normalar tatbiq etiladi,

zero ularni faqat yetarli malakaga ega bo'lgan xodimlarga bajara oladi, oshirib bajarishni esa ulkan tajribaga ega bo'lgan ayrim ishchilarga uddalay oladi.

Fransiyada 20-yillardan e'tiboran Bedo tizimi keng tarqala boshlandi. Bu tizim mexanizatsiyalashgan va avtomatlashgan ishlab chiqarishda band bo'lgan ishchilarning mehnatga haq to'lashni normalash va tashkil etish uchun mo'ljallangan edi. Mazkur tizimning mohiyati shundaki, unda mehnatni normalashning alohida usuli tatbiq qilinib, mehnat sarflari Bedo-birliklar deb ataluvchi maxsus birliklarida o'z ifodasini topadi. Bedo-birlik deganda shunday o'z ishini yaxshi o'zlashtirib olgan malakali ishchi uni bir daqiqa ichida bajarishi lozim bo'lgan ish tushuniladi. Unumdorlik normasi bir soatda 60 bedo-birlikka, sakkiz soatlik smenada esa 480 bedo-birlikka tengdir. Bedo tizimida mehnatga haq to'lash aralash tarzda bo'ladi: normalarni bedo birliklarda 100foiz gacha bajarganda-vaqtbay haq to'lash, normalarni 100foiz dan oshirib bajarganda esa ishbay haq to'lash joriy etiladi. Tarif stavkalari ishlarga tahliliy baho berish asosida belgilanadi.

Yaponiya firmalarida xodim mehnatiga haq to'lash darajasi uning mehnatga iqtisodiy rag'bat natijalari bilan bog'lanmay, balki bevosita, uning hayotiy ehtiyojlarini qondirish orqali amalga oshiriladi. Ish haqining miqdori, "ish kuchini qayta tiklashning hayotiy sikli" tamoyili asosida aniqlanadi, bunda xodim hayotining turli davrlaridagi ehtiyojlari darajasiga asoslanadi. "Umrbod ish haqi" ning mohiyati shundan iboratki, yapon firmasida faqat mehnatning o'zi emas, balki xodimning butun ijodiy imkoniyatlari rag'batlantiriladi. Oylik ish haqi yiliga ikki marta to'lanadigan mukofotlar bilan to'ldiriladi. U belgilangan ish vaqti uchun beriladigan tarif ish haqidan va ishdan tashqari bajarilgan ish uchun beriladigan qo'shimcha haqlardan iboratdir. Yapon korxonalarida tarif stavkalarining uchta asosiy turi: shaxsiy, mehnat va umumlashgan stavkalari tatbiq etiladi.

Shaxsiy stavka xodimning yoshi va boshqa shu kabi shaxsiy sifatlaridan kelib chiqib nomlangan, yosh va staj tarif setkasiga stavkani aniqlash mezonlari sifatida kiritiladi. Bu stavka yosh va stajga haq to'lash summasini o'z ichiga oladi. Bunday tarif setkasi xodimlar ma'lumotining uch darajasiga: to'liqsiz, o'rta va oliy ma'lumotga nisbatan ishlab chiqiladi, ya'ni bu shaxsiy stavkani aniqlashning yana bir mezon bo'ladi. Shunday qilib, shaxsiy stavka asosida uch mezon: tajriba, yosh va ma'lumot yotadi. Mehnat tarif stavkasi xodimlarning

malaka darajasini va ular mehnatining natijalarni hisobga oladi. Mehnat tarif stavkalariga xizmat vazifalarini bajarganlik, malaka, xizmat vazifalarini birga qo‘shib bajarganlik va hokazolar uchun stavkalar kiradi. Ishchilar va xizmatchilarning mehnat hissasi bevosita rahbarlar qo‘yadigan baholar asosida har yilgi attestatsiyalarni o‘tkazish usuli orqali aniqlanadi. Ish natijalari uch balli tizim bo‘yicha baholanadi. Bu bahoga muvofiq, xodim tarif stavkasi vertikal bo‘yicha bir, ikki yoki uch qator oldinga o‘tkazilishi mumkin. Baho qo‘yishda normalarning bajarilish darajasi, mehnatning sifat ko‘rsatkichlari, vazifalarga bo‘lgan munosabat, hamkasblar bilan ishlay olish, ular bilan o‘zaro munosabatlarning umumiy xarakteri hisobga olinadi. Umumlashgan stavka shaxsiy stavka va mehnat tarif stavkalarining birga qo‘shilishidan yuzaga keladi. Hozirgi vaqtda yapon kompaniyalarida 70foiz ortiqroq hollarda umumlashgan tarif stavkalaridan foydalanadi. Yapon firmalarida turli-tuman tarif stavkalari, jumladan mahsulot uchun, malaka uchun stavkalar, transport, oilaviy ustama haqlar va hokazolardan foydalaniladi. Yapon xodimlariga mukofotlar (bonus), odatda, yiliga ikki marta, yilning iyun va dekabr oylarida firma faoliyatining yarim yillikdagi yakunlari chiqarilganda to‘lanadi. Bonuslar ulushi o‘rta hisobda yapon xodimi yillik ish haqining deyarli chorak qismini tashkil etadi.

### **3.3. O‘zbekistonda aholi daromadini oshirishga qaratilgan ijtimoiy siyosat**

Aholi daromadlari – barcha aholiga tegishli pul va natural (mahsulot shaklida) tushumlar hamda ko‘rsatilgan bepul xizmatlar summasi, aholining milliy daromaddagi hissasi. Aholining jami turdagi daromadlari manbasi – ish haqi, pensiya, stipendiya, nafaqalar, mukofot, foyda, dividend, zayom va lotereya yutug‘i, bank to‘lagan foiz puli, ko‘chmas mulkdan kelgan renta to‘lovi va ijara puli, sug‘urta qoplamalari va boshqalardan iborat. Bozor sharoitida aholi daromadlarining eng katta qismi pul shakliga ega. Qishloq aholisi o‘zining tomorqa xo‘jaligidan ham mahsulot olib daromad ko‘radi va u natural daromadga kiradi. Shuningdek, aholining yordamga muhtoj qatlamlariga bepul mahsulot beriladi va xizmatlar ko‘rsatiladi (bepul

ovqatlanish, kiyim-kechak, doridarmon, transport va kommunal xizmat va hokazo); bular natural daromadlar hisoblanadi.

Aholi daromadlari nominal va real daromadlarga bo'linadi. Nominal daromad aholning muayyan pul summasi shaklida olgan daromad bo'lib, inflatsiya ta'sirida uning qobiliyati pasayishi mumkin. Real daromad – pul shaklidagi daromadga amalda qanday miqdorda iste'mol buyumlari va xizmatlar xarid etish mumkinligini ko'rsatadi. Aholi jon boshiga hisoblangan real daromad aholi turmush darajasining umumlashgan va yaxlit ko'rsatkichi hisoblanadi. Iqtisodiyotda aholi yalpi pul daromadlaridan barcha majburiy va ixtiyoriy to'lovlar (soliqlar, qarz puli, badallar) chegirib tashlangandan so'ng uning qo'liga tegadigan daromad ham muhim ahamiyatga ega. Aholi qo'liga tegadigan daromad miqdoriga soliqlar kuchli ta'sir etadi. Rivojlangan mamlakatlarda ish haqi daromadning  $\frac{2}{3}$  qismini tashkil etadi. Agar mamlakatda xususiy mulk ustuvor bo'lib, renta, aholi pul jamg'armasi ko'p bo'lsa, bank to'laydigan foiz puli salmoqli bo'ladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholi daromadlari tarkib jihatidan mehnatdan, tadbirkorlikdan, mulkdan olingan daromadlar va transfert (ehtiyojmand qatlamlarga budjetdan beriladigan nafaqa va yordam puli) kabi daromadlardan shakllanadi. Transfertlar nobozor daromadi, qolganlari bozor daromadi hisoblanadi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida O'zbekistondagi aholi daromadlarida bozor tizimiga xos yangi daromad turlari (tadbirkorlik, mulk daromadi kabilar)ning ko'payib borishi kuzatiladi

A.Smit aholi daromadlarining ortishi mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmining o'sishi bilan bir paytda sodir bo'ladi, deb hisoblagan. Bu sharoitda bozor munosabatlari mexanizmi amal qila boshlaydi va har bir ishtirokchi o'z iqtisodiy manfaatlardan kelib chiqadi.

Mehnat bilan band aholi daromadlarining asosiy qismi tadbirkorlik faoliyatidan olinishi bilan birga, ularning mehnat haqlari ham oshirilib borilmoqda. "Barchamizga ma'lumki, aholi ish haqi va daromadlarining o'sish sur'ati eng muhim o'rsat ichlardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda, "Biz har uch yilda ish haqini 2-2,5 barobar oshirishni o'z oldimizga muhim strategik vazifa qilib qo'yganmiz. Shu tariqa, aholining xarid qobiliyatini hisobga olgan holda, biz yaqin yillar ichida xalq farovonligi va daromadlarini ta'minlash bo'yicha yuksak marralarga erishayotgan

mamlakatlar darajasiga ko‘tarilishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘yganmiz”<sup>24</sup>.

2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasida ijtimoiy sohani rivojlantirish muhim bo‘lim (vazifa) hisoblanadi.

Aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirish bo‘yicha belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun:

- aholining real pul daromadlarini va xarid qobiliyatini oshirish, kam ta‘minlangan oilalar sonini va aholining daromadlari bo‘yicha farqlanish darajasini yanada kamaytirish;

- budget muassasalari xodimlarining ish haqi, pensiya, stipendiya va ijtimoiy nafaqalar hajmini inflatsiya sur‘atlaridan yuqori miqdorda bosqichma-bosqich oshirish;

- yangi ish o‘rinlari yaratish hamda aholining, eng avvalo, o‘rta maxsus va oliy o‘quv muassasalari bitiruvchilari bandligini ta‘minlash, mehnat bozori infratuzilmasining mutanosib rivojlanishini ta‘minlash, ishsizlik darajasini kamaytirish;

- mehnatga layoqatli aholining mehnat va tadbirkorlik faolligini to‘liq amalga uchun sharoitlar yaratish, ishchi kuchi sifatini yuksaltirish, ishga joylashtirishga muhtoj shaxslarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini kengaytirish<sup>25</sup>.

O‘zbekiston aholi daromadlarini oshirishga qaratilgan siyosat. Aholi daromadlari darajasini oshirishda aholining ish bilan bandligi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ish bilan bandlikni takomillashtirish bo‘yicha dasturlarning moliyaviy ta‘minoti muammosi o‘z yechimini topishi kerak. Aholining turmush sharoitini oshirish, bilim olish imkoniyatini kengaytirish, salomatligini mustahkamlash, ishchi kuchi sifatida ijtimoiy foydali mehnatda ishtirok etish salohiyatini yuksaltirish davlatimiz ijtimoiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Ish bilan bandlikni ta‘minlash ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning boshqa jihatlari bilan qo‘shib qaralganda, u jamiyat rivojlanishining asosiy mezonlaridan biri bo‘lib, bu mezonlar mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini, aholining daromadlari va turmush darajasini oshirish

<sup>24</sup>[https://www.vodiymedia.uz/content/112/aolining\\_moddiy\\_farovonligini\\_oshirishga\\_aratilgan\\_izhtimoiy\\_siyosat\\_ustuvor\\_vazifamiz.html](https://www.vodiymedia.uz/content/112/aolining_moddiy_farovonligini_oshirishga_aratilgan_izhtimoiy_siyosat_ustuvor_vazifamiz.html)

<sup>25</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар Стратегияси тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда.

yo‘llarini belgilab beradi. Mintaqalarda umumiy ishsizlar soni keyingi yillarda ma’lum miqdorda kamayib borgan. Lekin mintaqalarning ayrim viloyatlarida, jumladan, Surxondaryo viloyati va Qoraqalpog‘iston Respublikasida ishsizlar soni o‘sgan. Bu esa ushbu hududlarda ishsizlikni kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar sust darajada olib borilgan.

2017 yil 14 yanvar kuni Vazirlar Mahkamasining mamlakatimizni 2016 yildagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlarini har tomonlama tahlil qilish hamda respublika hukumatining 2017 yil uchun iqtisodiy va ijtimoiy dasturi eng muhim yo‘nalishlari va ustuvor vazifalarini belgilashga bag‘ishlangan kengaytirilgan majlisi bo‘lib o‘tdi. Majlisda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ma’ruza qildi. Ma’ruzada O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov boshchiligida ishlab chiqilgan taraqqiyotning “o‘zbek modeli”ni va mamlakatni o‘rta muddatli istiqbolda yanada isloh qilish, tarkibiy o‘zgartirish va modernizatsiya qilish Dasturini izchil amalga oshirishni davom ettirish 2016 yilda iqtisodiy o‘shishning barqaror va yuqori sur‘atlarini saqlab qolishni va makroiqtisodiy muvozanatni, aholining hayot darajasi va sifati oshishini ta‘minlaganligi qayd etib o‘tildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining aholi daromadlarini yanada oshirishga qaratilgan “O‘zbekiston Respublikasining “2020 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining davlat budjeti to‘g‘risida”gi qonuni ijrosini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarorni imzoladi. Unga ko‘ra, 2020 yil 1 fevraldan budjet muassasalari va tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar, nafaqalar hamda kam ta‘minlangan oilalarga beriladigan moddiy yordam miqdori 1,07 barobarga oshirildi.

Xususan:

- mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori – oyiga 679 330 so‘m;
- pensiyani hisoblashning bazaviy miqdori – oyiga 238 610 so‘m;
- eng kam yoshga doir pensiyalar – oyiga 466 680 so‘m;
- bolalikdan nogironlarga beriladigan nafaqa –oyiga 466 680 so‘m;
- zarur ish stajiga ega bo‘lmagan keksa yoshdagi va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga beriladigan nafaqa – oyiga 286 390 so‘mni tashkil qildi.

Bunda soliqlar, yig‘imlar, jarimalar, davlat bojlari va ko‘rsatilayotgan davlat xizmatlari, tadbirkorlik faoliyatining muayyan turi

bilan shug'ullanish uchun patent (litsenziya) to'lovlari hamda qonun hujjatlarida belgilangan boshqa to'lovlar miqdorini aniqlashda qo'llaniladigan bazaviy hisoblash miqdori – 223 000 so'm o'zgarishsiz qoldirildi<sup>26</sup>.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev farmoni bilan 2020 yil 1 sentabrdan boshlab yoshga doir pensiyalar, bolalikdan nogironligi bo'lgan shaxslarga, zarur ish stajiga ega bo'lmagan keksa yoshdagi va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga beriladigan nafaqalar miqdori 1,1 baravar oshiriladi.

Farmonga muvofiq, 2020 yil 1 sentabrdan boshlab O'zbekiston hududida:

- pensiyani hisoblashning bazaviy miqdori – oyiga 262 470 so'm;
- eng kam yoshga doir pensiyalar – oyiga 513 350 so'm;
- bolalikdan nogironligi bo'lgan shaxslarga beriladigan nafaqa – oyiga 513 350 so'm;
- zarur ish stajiga ega bo'lmagan keksa yoshdagi va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga beriladigan nafaqa – oyiga 315 030 so'm etib belgilandi<sup>27</sup>.

Mamlakatda kichik biznes rivoji uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar va qo'llab-quvvatlash mexanizmlari samarali ishlayotganligi tufayli, aholining ishbilarmonlik qobiliyati ortishi, yoshlarda tadbirkorlik tashabbusining ortishi kuzatilmoqda. Bu jihatlar o'z navbatida, istiqbolli taklif va tasabbuslarni o'z vaqtida rag'batlantirishga katta yo'l ochib bermoqda. Natijada, ish bilan band aholining aksariyat qismi aynan kichik biznes sohasida ish yuritmoqda, tarmoqning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi esa ortib bormoqda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojiga keng yo'l ochib berganligi aholi bandligining oshishi va daromadlari o'sishida muhim omil bo'lish bilan birga, iqtisodiyotni izchil rivojlantiruvchi, jamiyat barqarorligini ta'minlovchi kafolat vositalaridan biriga aylandi. Bu makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga, iqtisodiyot rivojlanishiga, aholining hayot darajasi va sifati izchil o'sishiga zamin yaratmoqda. Daromadlar ortib borishi esa, o'z navbatida, oilalarning moddiy ahvolini sifat jihatdan o'zgartirmoqda, bu eng muhim ustuvor ahamiyatga ega. Bunda sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, zamonaviy

<sup>26</sup> <http://uza.uz/ru/documents/o-merakh-po-obespecheniyu-ispolneniya-zakona-respubliki-uzbe-31-12-2019>

<sup>27</sup> <https://darvo.uz/k/2020/07/30/ozbekistonda-1-sentabrdan-pensiyalar-10-foizga-oshiriladi/>

texnologiyalar bilan ta'minlash jahon bozoriga raqobatbardosh mahsulotlar chiqarish imkonini bermoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, mamlakatimizda olib borilgan keng ko'lamli ishlarning negizida siyosatning puxta o'ylanganligi, davlat boshqaruvchisining odilona va oqilona ijtimoiy siyosat olib borishidan dalolat beradi.

### **Nazorat savollari:**

1. Mehnatni asoslashga oid turli nuqtayi nazarlarni ochib bering.
2. Aqliy mehnat xususiyatlarini yoritib bering.
3. Mehnatni tuzilma nuqtayi nazaridan rag'batlantirishning samarali turlarini ajratib bering.
4. Ish haqi tushunchasini tushuntiring.
5. Ish haqining mazmuni to'g'risidagi turli nazariyalarni tushuntirib bering.
6. Yaponiya firmalarida xodim mehnatiga haq to'lash tizimini yoritib bering.
7. O'zbekistonda aholi daromadini oshirishga qaratilgan siyosatni tahlil qiling.
8. Aholi daromadlari nominal va real daromadlari tushunchalarini farqlab bering.

### **Testlar:**

#### **1. Mehnat nima?**

- a) insonning maqsadli harakati va insonning tafakkur faoliyatini anglatadi;
- b) jamiyat taraqqiy etishi bilan mehnat taqsimoti yuzaga keladi va borgan sari chuqurlashib boradi, mehnatning yangi turlari yuzaga keladi, ular mustaqil vazifaga ega bo'ladi;
- c) insonning maqsadga muvofiq ijtimoiy foydali faoliyati eng avvalo tabiat predmetlarini o'zgartirib, ehtiyojga moslashtirishni bildiradi;
- d) insonning shaxsiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan xatti-harakati hisoblanadi.

#### **2. Nodifferensial rag'batlantirish deganda nimani tushunasiz?**

- a) birgina stimul (rag'batlantirish) bilan, mehnat haqi bilan maqsadga erishish ko'zda tutiladi;
- b) maqsadlar mustaqil bo'ladi, hech narsaga bog'liq bo'lmaydi;

- c) mehnatni tashkil qilish va uning mazmuni;
- d) oylik maosh sifat natijalarini rag'batlantirmaydi, xodim esa o'z imkoniyatlaridan ma'lum miqdorda foydalanib bo'lishi.

### **3. Differensial samarali rag'batlantirishning tavsifi qanday?**

- a) oylik maosh sifat natijalarini rag'batlantirmaydi, xodim esa o'z imkoniyatlaridan ma'lum miqdorda foydalanib bo'ladi;
- b) ish haqi umuman ishlaganlik uchun emas, balki bozor talabiga mos ravishda bajarilgan mehnat uchun beriladi;
- c) maqsadlar mustaqil bo'ladi, hech narsaga bog'liq bo'lmaydi, birgina stimurning (rag'batlantirishning) o'zi mehnatning ko'pgina jihatlari ta'sir qiladi, lekin yakuniy natijalar turlicha bo'ladi;
- d) birgina stimullar (rag'batlantirish) bilan, Jumladan, mehnat haqi bilan maqsadga erishish ko'zda tutiladi.

### **4. Ish haqi bu...?**

- a) yollanib ishlovchilarning ishlab topgan daromadi, tirikchilik vositalarini mahsulot va xizmatlarni xarid etish va pul jamg'armasini hosil etish uchun ishlatiladi;
- b) har qanday mehnatning yakuniy mukofoti;
- c) yashash uchun zarur vositalarning fiziologik minimum bilan bir xil deb hisoblangan pul miqdori sanaladi;
- d) umumiy mehnat unumdorligi, milliy mahsulot hajmi, uning aholi jon boshiga to'g'ri keladigan miqdori hisoblanadi.

### **5. Ishlovchining qo'lga tegishiga qarab ish haqi necha xil bo'ladi?**

- a) umumiy va sof;
- b) birlamchi va ikkilamchi;
- c) umumiy va qo'shimcha;
- d) birlamchi va qo'shimcha.

### **6. Ish haqining asosiy vazifasi nimadan iborat?**

- a) kishilarning mehnati evaziga ularning ehtiyojlarini ta'minlashdan iborat;
- b) xodim hamda uning oila a'zolarining hayot va mehnat faoliyati sharoitlarini ta'minlashdan iborat;
- c) ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdan iborat;
- d) kishilarga jamiyatga keltirgan foydasiga qarab, ularga munosib sharoitni yaratishdan iborat.

### **7. Mehnatga haq to'lashning keng tarqalgan asosiy turlari qanday?**

- a) vaqtinchalik va paxta ish haqi;
- b) asosiy va qo‘shimcha;
- c) vaqtbay va ishbay;
- d) asosiy va mukofot tarzidagi ish haqi.

**8. Yaponiya firmalarida xodim mehnatiga haq to‘lash darajasi nimaga bog‘liq?**

- a) xodimning oila a‘zolarining soni bilan bog‘lanadi;
- b) xodimning yashash sharoitiga bog‘lanadi;
- c) xodimning sog‘lig‘iga bog‘liq;
- d) xodimning hayotiy ehtiyojlarini qondirishga bog‘lanadi.

**9. Birinchi mehnatga haq to‘lashning ishbay tizimini kim ishlab chiqqan?**

- a) F.Teylor;
- b) D.Merrik;
- c) K.Bart;
- d) V.Kamayev.

**10. Aholi daromadlari ko‘rsatilgan qatorni belgilang**

a) barcha aholining oylik ish haqlari, daromadlari va mukofot pullari;

b) barcha aholiga tegishli pul va natural (mahsulot shaklida) tushumlar hamda ko‘rsatilgan bepul xizmatlar summasi, aholining milliy daromaddagi hissasi;

c) ish haqi, pensiya, stipendiya, nafaqalar, mukofot, foyda, dividend, zayom va lotereya yutug‘i, bank to‘lagan foiz puli;

d) aholiga tegishli bo‘lgan barcha sug‘urta qoplamalari.

**11. Aholining jami turdagi daromadlari manbayi...**

a) ish haqi, pensiya, stipendiya, nafaqalar, mukofot, foyda, dividend, zayom va lotereya yutug‘i;

b) bank to‘lagan foiz puli, ko‘chmas mulkdan kelgan renta to‘lovi va ijara puli;

c) ijara puli, sug‘urta qoplamalari;

d) barcha javoblar to‘g‘ri.

**12. Aholi daromadlari turlarini aniqlang.**

a) nominal va real;

b) umumiy va sof;

c) birlamchi va ikkilamchi;

d) umumiy va maxsus.

**13. Real daromad qanday xususiyatga ega?**

a) aholining yordamga muhtoj qatlamlariga bepul mahsulot beriladi va xizmatlar ko'rsatiladi;

b) pul shaklidagi daromadga amalda qanday miqdorda iste'mol buyumlari va xizmatlar xarid etish mumkinligini ko'rsatadi;

c) aholining tomorqa qismidan foydalanishi va daromad olishini ko'rsatadi;

d) aholiga muayyan pul summasi shaklida daromad ajratiladi.

**14. "...aholi daromadlarining ortishi mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmining o'sishi bilan bir paytda sodir bo'ladi". Ushbu fikr kimning qalamiga mansub?**

a) F.Taylor;

b) D.Merrik;

c) K.Bart;

d) A.Smit.

## IV-bob. IJTIMOIOY XIZMATLAR

**4.1. Aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatishning mohiyati va tamoyillari**

**4.2. Ijtimoiy xizmat ko'rsatish turlari va ularning tasnifi**

**4.3. Ijtimoiy xizmat ko'rsatuvchi xodimlar va ularning vazifalari**

**4.4. Aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatishni takomillashtirish yo'llari**

### **4.1. Aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatishning mohiyati va tamoyillari**

Aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatish – bu ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy-maishiy, ijtimoiy-tibbiy yordam ko'rsatish, ijtimoiy moslashtirishni o'tkazish, og'ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan fuqarolarni tiklash va qayta tiklash bo'yicha ijtimoiy xizmat faoliyatidir. Ijtimoiy xizmatning asosiy maqsadi turmush sharoitlarini inson yashashi uchun me'yoriy, yetarli bo'lishini ta'minlash, kasbiy faoliyat, kishilarga, ijtimoiy guruhlarga, shaxsiy va ijtimoiy qiyinchiliklarni qo'llab-quvvatlash, himoyalash va qayta moslashtirish vositasida bartaraf etishga ko'maklashish hisoblanadi. Bular ijtimoiy siyosat vositasida erishiladi, u jamiyatda ijtimoiy munosabatlar tizimini yaratishni ko'zda tutadi, ishlab chiqarish va iqtisodiyotning tobora oshib borayotgan samaraliligini turli ijtimoiy guruhlarining obyektiv mavjud mana-faatlarini tartibga solish va samaralilashtirishga asoslanadi.

Quyidagilar ijtimoiy xizmatlarning asosiy vazifasi hisoblanadi:

- ijtimoiy va shaxsiy muammolarni, vaziyatlarni tashxislash;
- ijtimoiy oldini olish;
- ijtimoiy rehabilitatsiya;
- ijtimoiy terapiya;
- ijtimoiy yordam ko'rsatish;
- ijtimoiy maslahat;
- ijtimoiy loyihalash;
- ijtimoiy ekspertiza;
- ijtimoiy nazorat;
- ijtimoiy g'amxo'rlik.

“Ijtimoiy xizmat” atamasi bozor iqtisodiyoti bilan jips bog‘liq, chunki uning samaradorligiga erishish ijtimoiy qatlamlarning yuzaga kelishi bilan birga kechadi. Agar ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tarmog‘i tuzilmagan bo‘lsa, unda ijtimoiy sohada muammolar keskinlashadi, ijtimoiy keskinlik yuzaga keladi. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda o‘nlab yillar mobaynida kishilarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash institutlari yaratilgan va ancha muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatmoqda.

Ularda “ijtimoiy xodim” kasbi keng tarqalgan kasblardan sanaladi, ijtimoiy tuzilmalar esa ham davlatga qarashli, ham xususiydir. Ijtimoiy xizmatga bo‘lgan fuqarolarning huquqi davlat tizimidagi ijtimoiy xizmatda davlat tomonidan kafolatlanadi. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmaganlar ham muayyan mamlakat fuqarolari bilan bir xilda huquqdan foydalana oladi. Ijtimoiy xizmat fuqarolarning uning qarovchisi, homiysi, boshqa qonuniy vakilining davlat hokimiyati va mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish idoralari, jamoatchilik birlashmalariga murojaati asosida amalga oshiriladi. Quyidagilar aholiga ijtimoiy xizmat ko‘rsatishning asosiy tamoyillari hisoblanadi:

- manzillilik;
- adolat (inson qobiliyatlarini amalga oshirish uchun sharoitni ta’minlash);
- mumkinlilik;
- ixtiyoriylik;
- insonparvarlik (insonni oliy qadriyat deb tan olish);
- og‘ir hayotiy vaziyatda qolgan balog‘atga yetmaganlarga ijtimoiy xizmat ko‘rsatishning ustuvorligi;
- oshkora emaslik;
- oldini olishga yo‘naltirilganlik;
- altruizm (o‘zganing manfaatini o‘zining manfaatidan ancha yuqori deb tan olish);
- vakolatlilik (ijtimoiy xizmatlar nazariyasi va amaliyotini chuqur bilish);
- individual yondashish (har bir ijtimoiy muammoda muayyan shaxs manfaatlarini ko‘ra bilish layoqati);
- vositachilik (ijtimoiy xizmatlarni davlat ijtimoiy siyosatining ifodasi sifatida tushunish);
- jalb etish (mijozning e’tiborini tortish layoqati);

– ishonch (mijoz bilan o‘zaro ishonchli munosabatlarni o‘rnatish layoqati).

Ijtimoiy xizmatlarni integral tavsifga ko‘ra, unda iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy, ma‘muriy, psixologik, ijtimoiy-ruhiy, tibbiy-ijtimoiy, pedagogik usullardan foydalaniladi<sup>28</sup>.

Aholiga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish quyidagi tarzda amalga oshiriladi:

– moddiy yordam ko‘rsatish (pul mablag‘i, oziq-ovqat mahsulotlari, sanitariya va gigiena vositalari, bolalarni parvarishlash uchun vositalar, kiyim, poyabzal va b.);

– kundalik zarur narsalar, yoqilg‘i, maxsus transport vositalari, nogironligi bo‘lgan shahslar, doimiy yoki vaqtincha statsionar dan tashqarida xizmat ko‘rsatishga muhtoj shaxslarni qayta tiklashning texnikaviy vositalari;

– o‘ziga-o‘zi xizmat ko‘rsatish qobiliyatini qisman yoki to‘liq yo‘qotgan va doimiy qarovga muhtoj fuqarolarga statsionar muassasalarda maxsus xizmat ko‘rsatish, ularning yoshi va sog‘lig‘iga ko‘ra, hayot faoliyati sharoitlarini yaratish, tibbiy, ruhiy, ijtimoiy tavsifdagi tadbirlarni o‘tkazish, ovqatlantirish, parvarishlash, shuningdek, imkoniga yarasha mehnat faoliyatini, dam olishi va bo‘sh vaqtini tashkillashtirish;

– yetim bolalarga, ota-onasining qarovsiz qolganlarga, boqimsiz balog‘atga yetmagan va og‘ir hayotiy vaziyatga tushib qolganlarga ixtisoslashgan muassasalarda vaqtincha boshpana berish;

– ijtimoiy-maishiy va hayot faoliyatini ta‘minlash uchun ijtimoiy-tibbiy masalalar va ijtimoiy-huquqiy himoya bo‘yicha maslahat berish;

– nogironligi bor shaxslarga, balog‘atga yetmagan huquqbuzarlarga kasbiy, ijtimoiy, ruhiy qayta tiklanishda yordam ko‘rsatish.

Aholiga ijtimoiy xizmat bepul va pullik ko‘rsatiladi. Keksa yoshdaligi, kasalligi, nogironligi, qarindoshlari yo‘qligi tufayli o‘ziga-o‘zi xizmat ko‘rsatishga noqobil fuqarolarga, agar shunday fuqarolarning daromadi yashash minimumidan past bo‘lsa; qiyin hayot vaziyatiga tushgan shaxslarga; ishsizlik, tabiiy ofat, halokatdan jabr ko‘rganlarga; qiyin hayot vaziyatiga tushib qolgan balog‘atga yetmagan bolalarga bepul ijtimoiy xizmat ko‘rsatiladi. Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish muassasalarining faoliyati qonunchilik hujjatlari asosida belgilanadi va

<sup>28</sup> Abdurahmonov Q.X., Abduramonov X.X. “Aholini ijtimoiy muhofaza qilish” O‘quv qo‘llanma. –T.: Tafakkur bo‘stoni, 2010. – B.139.

tartibga solinadi. Bugungi kunda jamiyatda kuzatilayotgan ijtimoiy hodisalardan kelib chiqib, muhtoj aholining ijtimoiy himoyasiga ustuvor e'tibor berish, ko'rsatilayotgan ijtimoiy xizmat sifat va saviyasini ko'tarish, bu yo'nalishda yangi uslub va mexanizmlar joriy etish maqsadida yangi ijtimoiy texnologiyalar qo'llanilmoqda.

Ularga:

- “tez ijtimoiy xizmat”ni tashkillashtirish;
- kunduzgi ijtimoiy xizmat ko'rsatish markazlarini yaratish;
- harakat vositalari, xizmat ko'rsatish ijara punktlarini ochish.

Ijtimoiy xizmat ko'rsatish tadbirlariga yangi ijtimoiy texnologiyalarni joriy qilishning asosiy maqsadi muhtoj aholining huquqlarini himoya qilish, ularga xavfsiz shart-sharoitlarni yaratish, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish orqali muhtoj aholining o'z-o'zini boshqarishda mustaqilligini saqlash, ularning hayot kechirish sifatini oshirish, o'zaro yordam guruhlarini tashkil qilish, nogironligi bo'lgan bolani tarbiyalayotgan ota-onalarga yordam berish, ota-onalar klublarini tashkil qilish, idora va tashkilotlarning turli xil darajalarda ijtimoiy hamkorligini kuchaytirishdir. Umuman olganda, ijtimoiy texnologiyalarning ijrosi uch bosqichdan iborat bolgan quyidagi choralarni o'z ichiga oladi:

- har bir ijtimoiy xizmatga muhtoj aholining holatiga individual yondashish;
- muhtoj aholining holatiga obyektiv baho berish;
- ularga sifatli ijtimoiy xizmat ko'rsatish.

Ijtimoiy ta'minot organlarining aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatish borasidagi faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biri – idora va muassasalar, jamoat tashkilotlari, homiyar bilan ijtimoiy g'amkorlik qilish hisoblanadi. Bu yo'nalishda izchillik bilan faoliyat ko'rsatishning maqsadi, birinchidan, turli xil idoralar va muassasalar, jamoat tashkilotlarining ijtimoiy sohadagi faolligini oshirish, ikkinchidan, bu chora-tadbirlarni muvofiqlashtirib borish, uchinchidan, ijtimoiy sohaga yo'naltirilayotgan budjet mablag'lariga qo'shimcha tarzda mablag'larni jalb qilish va bu orqali muhtoj aholiga ko'rsatilayotgan ijtimoiy himoya hamda ijtimoiy xizmat ko'rsatish choralarining ta'sirchanligini oshirishdir.

## 4.2. Ijtimoiy xizmat ko'rsatish turlari va ularning tasnifi

Ijtimoiy xizmatlar mulkchilik shaklidan qat'iy nazar ijtimoiy xizmatlar ko'rsatuvchi muassasa va tashkilotlarning, shu jumladan, yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan holda aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatish bo'yicha tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi fuqarolarning faoliyatidir. Og'ir hayotiy vaziyatlarga tushib qolgan va shu bilan bog'liq holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatiluvchi fuqarolar ijtimoiy xizmat ko'rsatish to'g'risidagi qonunga muvofiq ijtimoiy xizmatlarning mijozi sifatida ko'riladi.

Og'ir hayotiy vaziyat – bu fuqaroning oddiy hayotiy faoliyatini izdan chiqaruvchi (nogironligi, yoshi keksayib qolishi munosabati bilan o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish qobiliyatining yo'qotilishi, kasalligi, yetimligi, qarovsizligi, kam ta'minlanganligi, ishsizligi, muqim yashash joyining mavjud emasligi, oiladagi qattiqqo'l munosabat va janjallar, yolg'izligi va h.k.lar) vaziyatlar va ularni o'zi mustaqil tarzda hal qila olmasligi holatidir.

Ijtimoiy xizmatning asosiy turlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- moddiy yordam;
- uyda ijtimoiy xizmat ko'rsatish;
- statsionar muassasalarda ijtimoiy xizmat ko'rsatish;
- vaqtinchalik boshpana berish;
- ijtimoiy xizmat ko'rsatish muassasalarida kunduzgi xizmat ko'rsatishni tashkillashtirish;
- maslahat yordami;
- rehabilitatsion xizmatlar.

Ijtimoiy xizmatlar tomonidan ijtimoiy xizmat ko'rsatish nafaqat bepul, balki pullik shakllarda ham amalga oshiriladi. Davlatning ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish tizimida bepul ijtimoiy xizmat ko'rsatish borasidagi qonunlarida belgilangan asoslar bo'yicha amalga oshiriladi. Bepul ijtimoiy xizmat ko'rsatish tartibi davlat hukumati organlari tomonidan belgilanadi.

Shuningdek ijtimoiy xizmat ko'rsatish sohalarga bog'liq nuqtayi nazardan tasniflashimiz mumkin:

- ijtimoiy tibbiy xizmat ko'rsatish;
- ijtimoiy mayishiy xizmat ko'rsatish;
- ijtimoiy pedagogik xizmat ko'rsatish;
- ijtimoiy psixologik xizmat ko'rsatish;

– ijtimoiy huquqiy xizmat ko‘rsatish turlari kiradi.

Mulkchilik shaklidan qat’iy nazar, ijtimoiy xizmat ko‘rsatish muassasalari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

– aholiga ijtimoiy xizmat ko‘rsatishning kompleks markazlari;  
– oila va bolalarga ijtimoiy yordam ko‘rsatishning hududiy markazlari;

– ijtimoiy xizmat ko‘rsatish markazlari;

– balog‘atga yetmagan bolalar uchun ijtimoiy-reabilitatsion markazlar;

– ota-onalarining vasiyligisiz qolgan bolalarga yordam ko‘rsatish markazlari;

– bolalar va o‘smirlar uchun ijtimoiy yetimxonalar;

– aholiga psixologik-pedagogik yordam ko‘rsatish markazlari;

– telefon orqali chaqirtiruv bo‘yicha tezkor psixologik yordam markazlari;

– uyda ijtimoiy yordam ko‘rsatish markazlari;

– kechasi qolish mumkin bo‘lgan uylar;

– yolg‘iz keksalar uchun maxsus uylar;

– ijtimoiy xizmat ko‘rsatishning statsionar muassasalari (nogironligi borlar va keksalar uchun internat-uylar, psixonevrologik internatlar, aqli ojiz bolalar uchun bolalar internat-uylari, jismoniy nuqsonlari bor bolalar uchun bolalar internat-uylari);

– gerontologik markazlar;

– ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatuvchi boshqa tashkilot va muassasalar. O‘zbekiston Respublikasida aholiga ijtimoiy xizmat ko‘rsatishning dolzarb yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, nogironligi bo‘lganlar va keksa yoshdagi fuqarolarga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish hisoblanadi, u nogironligi bo‘lganlar va keksa yoshdagi fuqarolarning ijtimoiy xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojini qondirish bo‘yicha faoliyatini o‘zida namoyon etadi. Nogironligi bo‘lgan va keksa yoshdagi fuqarolarga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish sohasidagi faoliyat quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

– inson huquqlariga rioya qilish;

– ijtimoiy xizmat ko‘rsatish sohasida davlat kafolatini berish;

– nogironligi bo‘lgan va keksa yoshdagi fuqarolar uchun ijtimoiy xizmatlarning barchaga barobarligi va berilishida teng imkoniyatlarni yaratish;

– ijtimoiy xizmatlarni barcha turlarining izchilligini ta‘minlash;

– ijtimoiy xizmat ko‘rsatishni nogironligi bo‘lganlar va keksa yoshdagi fuqarolarning individual ehtiyojlariga yo‘naltirish;

– ushbu toifadagi fuqarolarni ijtimoiy ko‘nikma hosil qilishi bo‘yicha chora-tadbirlariga ustuvorlik berish;

– davlat hukumat organlari va muassasalarining, shu jumladan, ijtimoiy xizmat ko‘rsatish sohasida nogironligi bo‘lganlar va keksa yoshdagi fuqarolarning huquqlarini ta‘minlash uchun mansabdor shaxslarning javobgarligini ta‘minlash. Davlat nogironligi bo‘lganlar va keksa yoshdagi fuqarolarga ularning jinsi, irqi, millati, tili, kelib chiqishi, moddiy va mansabdorlik holati, yashash joyi, dinga munosabati, qarashlari, ijtimoiy uyushmalarga taalluqliligi va boshqa holatlardan qat‘iy nazar, ijtimoiy xizmatlarni olishi imkoniyatlarini kafolatlaydi. Nogironligi bo‘lgan va keksa yoshdagi fuqarolarga davlatning kafolatlangan ijtimoiy xizmatlari ro‘yxatiga kiritilgan asosiy hayotiy zarur ijtimoiy xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojlarini yetarli darajada ta‘minlanishi uchun kerak bo‘lgan imkoniyatini ta‘minlanadi. Ijtimoiy xizmat olish huquqiga o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish imkoniyatlarining cheklanishi va (yoki) harakatlanishining cheklanishi oqibatida o‘zining asosiy hayotiy ehtiyojlarini mustaqil tarzda qondira olish imkoniyatini to‘liq yoki qisman yo‘qotilishi bilan bog‘liq bo‘lgan, doimiy ravishda yoki vaqtinchalik boshqa shaxslarning ko‘magiga muhtoj bo‘lgan nogironligi bo‘lganlar (shu jumladan, nogironligi bo‘lgan bolalar) va keksa yoshdagi fuqarolar (55 yoshdan katta bo‘lgan ayollar, 60 yoshdan katta bo‘lgan erkaklar) ega. Nogironligi bo‘lgan va keksa yoshdagi fuqarolarga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari qaroriga muvofiq ularning qaramog‘ida bo‘lgan muassasalarda yoki boshqa mulkchilik shaklidagi ijtimoiy xizmat ko‘rsatish muassasalari bilan aholini ijtimoiy himoya qilish organlari o‘rtasida tuzilgan shartnomalar bo‘yicha amalga oshiriladi.

Nogironligi bo‘lgan va keksa yoshdagi fuqarolar ijtimoiy xizmatlarni olayotgan vaqtida quyidagi huquqlarga egadirlar:

– ijtimoiy xizmat ko‘rsatish muassasalari xodimlari tomonidan ularga nisbatan hurmat va insoniy munosabat;

– O‘zbekiston Respublikasi subyektlarining aholini ijtimoiy himoya qilish organlari tomonidan belgilangan tartibda muassasa va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish shaklini tanlash;

– o‘zlarining huquqlari, majburiyatlari va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish shartlari haqida ma‘lumot olishga;

- ijtimoiy xizmatga rozilik berish;
- ijtimoiy xizmatdan voz kechish;
- ijtimoiy xizmatni ko'rsatayotgan vaqtida ijtimoiy xizmat ko'rsatish muassasasining xodimiga ma'lum bo'lib qolgan shaxsiy tavsifdagi ma'lumotlarni maxfiyligi;
- o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, shu jumladan, sud tartibida ham.

Ijtimoiy xizmat nogironligi bo'lgan va keksa yoshdagi fuqarolarning ijtimoiy xizmatlarni olishdagi ixtiyoriy roziligi sharti bilan amalga oshiriladi. 14 yoshga to'lmagan shaxslarga va qonunda belgilangan tartibda huquqiy muomalaga layoqatsiz deb tan olingan shaxslarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish uchun rozilik ularning qonuniy vakillari tomonidan beriladi. Nogironligi bo'lgan va keksa yoshdagi fuqarolarni ijtimoiy xizmat ko'rsatishning statsionar muassasasiga joylashtirish ularning shaxsan yozgan arizalari asosida amalga oshiriladi va ularning imzosi bilan tasdiqlanadi, 14 yoshga yetmagan shaxslarga va qonunda belgilangan tartibda huquqiy muomalaga layoqatsiz deb tan olingan shaxslarni joylashtirish esa ularning qonuniy vakillarining yozma arizasi asosida amalga oshiriladi.

Nogironligi bo'lgan va keksa yoshdagi fuqarolarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish quyidagi shakllarda amalga oshirilishi mumkin:

- uyda ijtimoiy xizmat ko'rsatish (xususan, ijtimoiy-tibbiy xizmat ko'rsatish bilan birga);
- ijtimoiy xizmat ko'rsatish muassasalarining bo'limlarida kunduzgi (tungi) yarimstatsionar ijtimoiy xizmat ko'rsatish;
- ijtimoiy xizmat ko'rsatish muassasalarida statsionar ijtimoiy xizmat ko'rsatish (internat-uylarda, pansionatlarda va nomlanishidan qat'iy nazar, ijtimoiy xizmat ko'rsatishning boshqa muassasalarida);
- tezkor ijtimoiy xizmat;
- ijtimoiy-maslahat yordami.

Uyda ijtimoiy xizmat ko'rsatish ijtimoiy xizmat ko'rsatishning asosiy shakllaridan biri hisoblanib, u nogironligi bo'lgan va keksa yoshdagi fuqarolarni ijtimoiy maqomini ushlab turish maqsadida odatiy ijtimoiy muhitda maksimal darajada uzoqroq bo'lishini ta'minlashga, shu jumladan, ularning qonuniy manfaatlari va huquqlarini himoya qilishga yo'naltirilgan.

Davlat tomonidan kafolatlangan ijtimoiy xizmatlarning ro'yxatida belgilangan uyda ijtimoiy xizmat ko'rsatish turlariga quyidagilar kiradi:

- ovqatlanishni tashkillashtirish, shu jumladan, oziq-ovqatni uyga yetkazib berish;
- dori-darmonlar, oziq-ovqatlar va eng zarur sanoat tovarlarini sotib olishda yordamlashish;
- tibbiy yordamni olishda ko‘maklashish, shu jumladan, tibbiyot muassasalariga kuzatib borish;
- gigiyena talablariga muvofiq yashash sharoitlarini ushlab turish;
- yuridik yordam va boshqa huquqiy xizmatlarni tashkillashtirishda ko‘maklashish;
- diniy xizmatlarni tashkillashtirishda ko‘maklashish;
- uydagi boshqa ijtimoiy xizmatlar<sup>29</sup>.

Makraziy isitish tizimi va (yoki) suv ta‘minot i bo‘lmagan turar joylarda istiqomat qiluvchi nogironligi bo‘lgan va keksa yoshdagi fuqarolarga xizmat ko‘rsatishda uydagi ijtimoiy xizmatlar qatoriga davlat tomonidan kafolatlangan ijtimoiy xizmat ko‘rsatish ro‘yxatida keltirilganidek yonilg‘i va (yoki) suv bilan ta‘minlashga ko‘maklashish ham kiritiladi. Davlat tomonidan kafolatlangan ijtimoiy xizmat ko‘rsatish ro‘yxatida keltirilgan uyda ijtimoiy xizmatdan tashqari nogironligi bo‘lgan va keksa yoshdagi fuqarolarga to‘liq yoki qisman to‘lash shartlari bo‘yicha qo‘shimcha xizmatlar berilishi mumkin.

Uyda ijtimoiy-tibbiy xizmat ko‘rsatish quyi bosqichlardagi psixik kasalliklardan (remissiya bosqichida), sildan (faol shaklidan tashqari), og‘ir kasalliklardan (shu jumladan, onkologik kasalliklar) aziyat chekadigan nogironligi bo‘lganlarga va keksa yoshdagi fuqarolarga nisbatan amalga oshiriladi, bundan bakteriya yoki virus tashuvchi hisoblanadigan nogironligi bo‘lganlar va keksa yoshdagi fuqarolar mustasno yoki ularda sog‘liqni saqlashning maxsus muassasalarida davolanishi talab etiluvchi surunkali alkogolizm, infeksiyon karantin kasalliklari, silning faol shakllari, og‘ir psixik kasalliklar, teri-tanosil va boshqa kasalliklar kuzatilsa, ularga uyda ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatilishi rad etilishi mumkin.

Yarimstasionar ijtimoiy xizmat ko‘rsatish nogironligi bo‘lganlar va keksa yoshdagi fuqarolarga ijtimoiy-maishiy, tibbiy va madaniy xizmat ko‘rsatishni, ularni ovqatlanishi, dam olishini, qo‘lidan keladigan mehnat faoliyatida ishtirok etishini ta‘minlash va faol hayot tarzi uchun qo‘llab-quvvatlashni tashkillashtirishni o‘z ichiga qamrab oladi.

<sup>29</sup> Abdurahmonov Q.X., Abduramonov X.X. “Aholini ijtimoiy muhofaza qilish” O‘quv qo‘llanma. – T.: Tafakkur bo‘stoni, 2010. – B.144.

Yarimstatsionar ijtimoiy xizmat ko'rsatish muassasalariga unga muhtoj bo'lgan, o'ziga-o'zi xizmat ko'rsata olish va faol harakatlanish qobiliyatini saqlab qolgan, ushbu muassasalar tarkibiga kiritilishida hech qanday tibbiy qarshiliklar bo'lmagan, nogironligi bo'lganlar va keksa yoshdagi fuqarolar qabul qilinadi.

Yarimstatsionar ijtimoiy xizmat ko'rsatish muassasasiga qabul qilish bo'yicha qaror ijtimoiy xizmat ko'rsatish muassasa rahbari tomonidan nogironligi bo'lganlar va keksa yoshdagi fuqarolarning shaxsan yozgan arizalari va ularning sog'ligi holati haqida sog'liqni saqlash muassasasining ma'lumoti asosida qabul qilinadi. Yarimstatsionar ijtimoiy xizmat ko'rsatish munitsipal ijtimoiy xizmat ko'rsatish markazlari tomonidan yaratilgan yoki aholini ijtimoiy himoya qilish organlari tasarrufidagi kunduzgi (tungi) qabul qilish bo'limlari tomonidan amalga oshiriladi.

Statsionar ijtimoiy xizmat ko'rsatish qisman yoki to'liq o'ziga-o'zi xizmat ko'rsatish imkoniyatini yo'qotgan va sog'ligi holati bo'yicha boshqalarning kuzatuv va doimiy qaramog'iga muhtoj bo'lgan nogironligi bo'lganlar va keksa yoshdagi fuqarolarga turli yo'nalishlardagi ijtimoiy-maishiy yordamni ko'rsatishga yo'naltirilgan. Statsionar ijtimoiy xizmat ko'rsatish o'z ichiga nogironligi bo'lganlar va keksa yoshdagi fuqarolarga ularning yoshi va sog'ligi holatiga xos hayot faoliyati sharoitlarini yaratish, tibbiy, ijtimoiy va davolash-mehnat qilish tavsifidagi rehabilitatsion chora-tadbirlarni amalga oshirish, parvarishlash va tibbiy yordamni ta'minlash, ularning dam olishi va bo'sh vaqtlarini maroqli o'tkazilishini tashkillashtirish bo'yicha chora-tadbirlarini qamrab oladi.

Nogironligi bo'lgan va keksa yoshdagi fuqarolarga statsionar ijtimoiy xizmat ko'rsatish ularning yoshiga, sog'ligi holatiga va ijtimoiy maqomiga muvofiq ixtisoslashgan ijtimoiy xizmat ko'rsatishning statsionar muassasalari (bo'limlari) tomonidan amalga oshiriladi. Ijtimoiy xizmat ko'rsatishning statsionar muassasalarida yashayotgan nogironligi bo'lganlar va keksa yoshdagi fuqarolar quyidagi huquqlarga egadirlar:

- ularga sanitar-gigiyenik talablarga javob beradigan yashash sharoitlarini ta'minlanishi;
- ijtimoiy xizmat ko'rsatish muassasalari tomonidan ko'rsatiladigan parvarishlash, birlamchi tibbiy-sanitar va stomatologik yordam olish;
- ijtimoiy-tibbiy rehabilitatsiya va ijtimoiy ko'nikma hosil qilish;

– tibbiy xulosa va mehnat tavsiyanomalariga muvofiq sogʻligi holatini, qiziqishlarini, istaklarini inobatga olgan holda, davolash-mehnat jarayonida ixtiyoriy ishtirok etish;

– nogironlik guruhining oʻzgarishi yoki uning oʻrnatilishi uchun tibbiy koʻrsatmalar boʻyicha oʻtkaziladigan tibbiy-ijtimoiy ekspertiza oʻtkazilishi;

– ularni oldiga advokat, notarius, qonuniy vakillar, ijtimoiy uyushmalar vakillari va dindorlar, shu jumladan, qarindoshlari va boshqa shaxslar tomonidan erkin tashrif buyurishi;

– amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda bepul advokat yordamini olish;

– diniy marosimlarni oʻtkazish uchun ularga xona berish, buning uchun boshqa turli diniy konfessiyalardagi dindorlar manfaatlarini inobatga olgan holda, ichki tartib-qoidalarga qarama-qarshi boʻlmagan mos ravishdagi sharoitlarni yaratish;

– ijtimoiy xizmat koʻrsatishning statsionar muassasasiga kelib tushgan vaqtdan boshlab 6 oy davomida davlat, munitsipal va ijtimoiy uy-joy fondlaridan ijara yoki yollash shartnomasi boʻyicha olingan turar joylarini saqlab qolish, agar ushbu turar joylarda ularning oila aʼzolari yashash uchun qolgan vaziyatlarda esa ularning ushbu muassasada boʻlishining barcha muddatida saqlab turish. Nogironligi boʻlganlar va keksa yoshdagi fuqarolarni koʻrsatilgan vaqtni oʻtishidan soʻng ijtimoiy xizmat koʻrsatishning statsionar muassasalarida xizmatlaridan voz kechsa, ularni joylashtirilishi bilan bogʻliq holda ushbu muassasalarda boʻshab qolgan turar joyga birlamchi navbatda turar joy bilan taʼminlanish huquqiga egadirlar, agar ularga avvalgi egallagan turar joyini qaytarib berishning imkoni boʻlmasa.

– nogironligi boʻlganlar va keksa yoshdagi fuqarolarni fuqarolar huquqini himoya qilish boʻyicha ijtimoiy komissiyalarda ishtirok etishi, shu jumladan, ijtimoiy xizmat koʻrsatish muassasalarida tashkil etilganlarida ham. Ijtimoiy xizmat koʻrsatishning statsionar muassasalarida yashovchi nogironligi boʻlgan bolalar ularning jismoniy imkoniyatlari va aqliy imkoniyatlariga muvofiq holda, taʼlim va kasbiy taʼlim olish huquqlariga egadirlar. Ushbu huquqlar amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda ijtimoiy xizmat koʻrsatishning statsionar muassasalarida maxsus taʼlim muassasalarini va mehnatga oʻqitish boʻyicha ustaxonalarni tashkillashtirish orqali taʼminlanadi. Jismoniy noqisligi boʻlgan nogiron bolalarga moʻljallangan ijtimoiy xizmat

ko'rsatishning statsionar muassasalariga ruhiy kasalliklari bo'lgan bolalarni joylashtirilishiga yo'l qo'yilmaydi. Davlatning ijtimoiy xizmat ko'rsatishning statsionar muassasalarida yashovchi va maxsus tibbiy yordamga muhtoj bo'lgan nogironligi bo'lgan va keksa yoshdagi fuqarolar davlat sog'liqni saqlash muassasalariga davolanish va tekshirish uchun yuboriladi. Ijtimoiy xizmat ko'rsatishning statsionar muassasalarida yashovchi nogironligi bo'lganlar va keksa yoshdagi fuqarolar jazolardan ozod bo'lish huquqiga egadirlar. Nogironligi bo'lganlar va keksa yoshdagi fuqarolarni jazolash maqsadida, yoki ushbu ko'rsatilgan muassasalar xodimlariga qulaylik yaratish maqsadida dori vositalaridan, jismoniy ushlab turish vositalaridan foydalanishga, shu jumladan, nogironligi bo'lgan va keksa yoshdagi fuqarolarni yolg'izlatib qo'yishga yo'l qo'yilmaydi. Ko'rsatilgan me'yorlarni buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilikda belgilangan tartibda intizomiy, ma'muriy va jinoiy javobgarlikka tortiladilar. Ijtimoiy xizmat ko'rsatishning statsionar muassasalarida yashovchi nogironligi bo'lgan va keksa yoshdagi fuqarolar mehnat shartnomasi asosida ularning sog'lig'i imkon beradigan ishlarga olinishi mumkin. Mehnat shartnomasi asosida ishlaydigan nogironligi bo'lganlar va keksa yoshdagi fuqarolarga davomiyligi 30 kalendar kunidan iborat to'lanadigan yillik mehnat ta'tili beriladi. Ijtimoiy xizmat ko'rsatishning statsionar muassasalarida yashovchi nogironligi bo'lganlar va keksa yoshdagi fuqarolar tibbiy tavsiyalarga muvofiq holda davolash-mehnat qilish faoliyatida ishtirok etishlari mumkin. Ijtimoiy xizmat ko'rsatishning statsionar muassasalarida yashovchi nogironligi bo'lganlar va keksa yoshdagi fuqarolarni davolash-mehnat qilish faoliyatiga majburlashga yo'l qo'yilmaydi. Ijtimoiy xizmat ko'rsatishning statsionar muassasalaridagi nogironligi bo'lganlar va keksa yoshdagi fuqarolar ushbu ko'rsatilgan muassasalar xizmatlaridan voz kechish huquqiga ega, bundan qarindoshlari tomonidan yoki ularning qonuniy vakillari tomonidan qo'llab-quvvatlashi va parvarishlashidan mahrum bo'lgan fuqarolar va o'zlarining hayotiy ehtiyojlarini mustaqil holda qondira olmaydigan (o'ziga-o'zi xizmat ko'rsatish va (yoki) faol harakatlanish imkoniyatiga ega bo'lmagan) yoki qonunda belgilangan tartibda layoqatsiz deb topilgan fuqarolar mustasno. Juda xavfli retsdivistlar va boshqa shaxslarni ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod qilingan, amaldagi qonunchilikka muvofiq ma'muriy nazorat o'rnatilgan shaxslar qatorida bo'lgan o'ziga-o'zi xizmat ko'rsatish imkoniyatini to'liq yoki

qisman yo'qotgan va doimiy ravishda boshqa shaxsning parvarishiga muhtoj bo'lgan nogironligi bo'lganlar va keksa yoshdagi fuqarolar, shu jumladan, ijtimoiy tartibni buzganligi uchun muqaddam sudlangan yoki bir necha bor ma'muriy javobgarlikka tortilgan, daydilik va tilanchilik bilan shug'ullanuvchi, ichki ishlar organlari muassasalari tomonidan yuboriluvchi nogironligi bo'lgan shaxslar va keksa yoshdagi fuqarolar tibbiy qarama-qarshiliklar bo'lmagan holida va ularning shaxsiy istagi bo'yicha hokimiyat organlari qarori asosida ijtimoiy xizmat ko'rsatishning maxsus statsionar muassasalariga joylashtiriladi. Ijtimoiy xizmat ko'rsatishning statsionar muassasalarida yashovchi va ijtimoiy xizmat ko'rsatish muassasalarida yashash tartibi to'g'risidagi Nizomni doimiy ravishda buzadigan nogironligi bo'lgan shaxslar va keksa yoshdagi fuqarolar, ularning istagi bo'yicha va ko'rsatilgan muassasalar ma'muriyatining taqdimnomasi asosida sud qaroriga muvofiq ijtimoiy xizmat ko'rsatishning maxsus statsionar muassasalariga o'tkazilishi mumkin.

Tezkor ijtimoiy xizmat ko'rsatish ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga juda muhtoj bo'lgan, nogironligi bo'lganlar va keksa yoshdagi fuqarolarga bir martalik tavsifdagi tezkor yordam berish maqsadlarida amaga oshiriladi.

Tezkor ijtimoiy xizmat ko'rsatish quyidagi ijtimoiy xizmatlarni o'z ichiga oladi:

- o'ta muhtoj bo'lganlarni bepul issiq ovqat yoki oziq-ovqat mahsulotlari yig'indisi bilan bir martalik ta'minlash;

- kiyim-kechak, poyafzal va boshqa eng muhim buyumlar bilan ta'minlash;

- bir martalik moddiy yordam berish;

- vaqtinchalik uy-joy olishiga ko'maklashish;

- xizmat ko'rsatilayotgan shaxslar huquqlarini himoya qilish maqsadida yuridik yordamni tashkillashtirish;

- psixologlar va dindorlarni tezkor tibbiy-psixologik yordam ko'rsatishga chaqirilishini va ushbu maqsadlar uchun qo'shimcha telefon raqamlarini ajratilishini tashkillashtirish;

- boshqa tezkor ijtimoiy xizmatlar.

Nogironligi bo'lgan va keksa yoshdagi fuqarolarga ko'rsatiladigan ijtimoiy maslahat yordami ularni jamiyatda ko'nikib ketishlarini, ijtimoiy zo'riqlashlarni susaytirish, oilada ijobiy munosabatlarni yaratish, shu jumladan, oila, jamiyat va davlatning o'zaro ta'sirini ta'minlashga yo'naltirilgan.

Nogironligi bo'lganlar va keksa yoshdagi fuqarolarga ko'rsatiladigan ijtimoiy maslahat yordami ularni psixologik qo'llab-quvvatlash, shaxsiy muammolarining hal etilishida harakatlarini faollashtirishga yo'naltirilgan bo'lib, quyidagilarni nazarda tutadi:

- ijtimoiy-maslahat yordamiga muhtoj bo'lgan shaxslarni aniqlash;
- turli shakldagi ijtimoiy-psixologik chetga chiqishlarni profilaktika qilish;

– nogironligi bo'lgan va keksa yoshdagi fuqarolar yashaydigan oilalar bilan ishlash, ularning bo'sh vaqtini maroqli o'tishini tashkillashtirish;

– nogironligi bo'lgan shaxslarni kasbga yo'naltirish, ularga ta'lim berish va ishga joylashishida maslahat berish orqali yordam ko'rsatish;

– nogironligi bo'lgan va keksa yoshdagi fuqarolar muammolarini hal qilish uchun ijtimoiy uyushmalar va davlat muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirishni ta'minlash;

– ijtimoiy xizmat ko'rsatish organlari vakolati doirasida huquqiy yordam ko'rsatish;

– nogironligi bo'lgan va keksa yoshdagi fuqarolar uchun ijobiy ijtimoiy sog'lom muhitni yaratish va ular o'rtasida o'zaro samimiy munosabatlarni shakllantirish bo'yicha boshqa chora-tadbirlarni amalga oshirish.

18 yoshgacha bo'lgan bolalar va o'smirlar qiyin hayotiy vaziyatlarga tushib qolishi mumkin, bunda ularga ijtimoiy xizmat ko'rsatish kerak bo'ladi. Bunday vaziyatlar qatoriga nogironlik, yetimlik, nazoratsizlik, qarovsizlik, oiladagi nosog'lom muhit ta'siridagi qattiqqo'l munosabatlar va h.k.lar kiradi. Aniq vaziyatga bog'liq holda, bolalar va o'smirlarga ijtimoiy yordam va xizmatni turli ijtimoiy xizmatlar va tashkilotlar ko'rsatadilar.

Yetim bolalar va ota-onalar qarovsiz qolib ketgan bolalarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish. Yetim-bolalar ikkala ota-onasi yoki ulardan biri o'lib ketgan 18 yoshgacha bo'lgan shaxslardir; ota-onalar qarovsiz qolib ketgan bolalar – bu ota-onasining mavjud emasligi yoki ularning ota-onalik huquqlaridan mahrum qilinganligi, ota-onalik huquqlarining cheklanganligi, ota-onalarining bedarak yo'q bo'lib ketgan deb tan olinishi, ota-onalikka layoqatsizligi (qisman layoqatlilik), davolanish muassalarida ekanligi, ularni o'lgan deb e'lon qilinganligi, ozodlikdan mahrum etish muassasalarida jazo muddatini o'tayotganligi, jinoyatni sodir etishda ayblanayotgan va gumon qilinayotganlarni qamoqda

ushlab turish muassasalarida ekanligi bilan bog‘liq holdagi qarovsiz qolgan bolalarni tarbiyalash yoki ularning huquq va manfaatlarini himoya qilishdan ota-onalarining bo‘yin tovlashi, ota-onalar tomonidan bolalarni tarbiyalash, davolash muassasalari, aholini ijtimoiy muhofaza qilish muassasalari va boshqa shunga o‘xshash muassasalardan olib ketishini rad etish va boshqa hollarda esa qonun tomonidan belgilangan tartibda bolani ota-onasining qarovsiz qolib ketgan deb tan olinishi bilan bog‘liq holdagi qarovsiz qolgan 18 yoshgacha bo‘lgan bolalardir.

Yetim bolalar va ota-onalar qarovsiz qolib ketgan bolalar uchun quyidagi turdagi ta‘lim muassasalari yaratilgan:

– bolalar uyi (go‘daklar (0 yoshdan 3 yoshgacha), maktabgacha, maktab yoshidagi bolalar uchun va aralash);

– yetim-bolalar va ota-onalar qarovsiz qolib ketgan bolalar uchun bolalar uy-maktabi, maktab-internati;

– rivojlanishdan qolib ketgan yetim-bolalar va ota-onalar qarovsiz qolib ketgan bolalar uchun maxsus (korreksion) bolalar uyi;

– rivojlanishdan qolib ketgan yetim-bolalar va ota-onalar qarovsiz qolib ketgan bolalar uchun maxsus (korreksion) maktab-internat.

Ushbu muassasalarning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

– uy sharoitlariga yaqinlashtirilgan, shaxsni aqliy, emotsional va jismoniy rivojlanishiga ko‘mak beruvchi ijobiy sharoitlarni yaratish;

– tarbiyalanuvchilarni ijtimoiy ko‘nikma hosil qilishi va tibbiy-psixologik-pedagogik rehabilitatsiyasini va ijtimoiy himoyasini ta‘minlash;

– ta‘lim dasturlarini o‘zlashtirish, davlat va jamiyat, shaxs manfaatlarini uchun tarbiyalash va ta‘lim berish;

– tarbiyalanuvchilarning sog‘ligini saqlash va mustahkamlanishini ta‘minlash.

Nogironligi bo‘lgan bolalarga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish. Organizm funksiyalarining buzilish darajasi va hayot faoliyatini cheklanishiga bog‘liq holda nogironligi bo‘lganlar deb tan olingan shaxslarga nogironlik guruhi o‘rnatiladi, 18 yoshgacha bo‘lgan shaxslarga esa nogironligi bo‘lgan bola toifasi o‘rnatiladi.

Ta‘lim muassasalari aholini ijtimoiy himoya qilish organlari va sog‘liqni saqlash organlari bilan birgalikda nogironligi bo‘lgan bolalarga maktabgacha, maktabdan tashqari tarbiya va ta‘lim berilishini, nogironni rehabilitatsiya qilishning individual dasturiga muvofiq holda

nogironligi bo'lganlarga umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus-kasbiy ta'lim va oliy kasbiy ta'lim berilishini ta'minlaydilar.

Maktab yoshigacha bo'lgan nogironligi bo'lgan bolalarga zaruriy reabilitatsion chora-tadbirlar ko'rsatiladi va umumiy turdagi maktabgacha bolalar muassasalarida ularni yashashi uchun sharoitlar yaratiladi. Sog'lig'i umumiy turdagi maktabgacha bolalar muassasalarida yashashiga yo'l qo'ymaydigan nogironligi bo'lgan bolalar uchun maxsus maktabgacha muassasalar yaratiladi. Umumiy yoki maxsus maktabgacha va umumta'lim muassasalarida nogiron bolani tarbiyalash va ta'lim berishning imkoni bo'lmasa, ta'limni boshqarish organlari va ta'lim muassasalari nogiron bolaning ota-onasining ruxsati bilan to'liq umumta'lim yoki individual dastur asosida ularni uyida o'qitilishini ta'minlaydi.

Nogironligi bo'lgan bolani uyda o'qitilishini tashkillashtirish uchun davolash-profilaktika muassasasining xulosasi asos bo'lib xizmat qiladi. Umumta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi ta'lim muassasasi nogiron-bolaga uyda ta'lim berishni odatda yashash joyiga eng yaqin bo'lgan muassasa amalga oshiradi.

Uyda ta'lim olayotgan nogironligi bo'lgan bolaga ta'lim muassasasi quyidagilarni ta'minlaydi:

- o'qitish davri davomida ta'lim muassasasi kutubxonasida mavjud bo'lgan bepul darsliklar, o'quv, ma'lumotnoma va boshqa adabiyotlarning berilishini;

- pedagog xodimlar tarkibidan mutaxassislar bilan ta'minlaydi, umumta'lim dasturlarini o'zlashtirish uchun kerakli uslubiy va maslahat yordamini beradi;

- oraliq va yakuniy attestatsiyani amalga oshiradi;

- yakuniy attestatsiyadan o'tganlarga mos ravishdagi ta'lim haqida davlat namunasidagi hujjatni beradi.

Davlat akkreditatsiyasiga ega va umumta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi nodavlat ta'lim muassasasida nogiron-bolani tarbiyalanishi va o'qitilishiga faqatgina unda tarbiyalash va o'qitish uchun maxsus ta'lim sharoitlarining mavjudligi, xususan nogironligi bo'lganlarni reabilitatsiya qilishning individual dasturini inobatga olgan holda, ishlab chiqilgan maxsus ta'lim dasturlarini, korreksion usullarini, texnik vositalarini, hayotiy faoliyat muhitini, maxsus tayyogarlikka ega pedagoglarning mavjudligi, shu jumladan, ularsiz nogiron bolalarni umumta'lim dasturlarini o'zlashtirishi mumkin bo'lmagan (qiyin

bo'lgan) tibbiy xizmat ko'rsatish, ijtimoiy va boshqa sharoitlar bo'lgani holatidagina yo'l qo'yiladi.

Ijtimoiy reabilitatsiyaga muhtoj, balog'atga yetmaganlarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish. Ijtimoiy reabilitatsiyaga muhtoj, bolag'atga yetmaganlar safiga nazoratsiz, qarovsiz bo'lgan yoki ijtimoiy xavfli vaziyatga tushib qolgan 3 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan balog'atga yetmagan bolalar kiradi. Nazoratsiz bola – bu ota onalari yoki boshqa qonuniy vakillari yoki mansabdor shaxslar tomonidan uni boqish va (yoki) o'qitish, tarbiyalash bo'yicha majburiyatlarni bajarilmasligi yoki yetarli darajada bajarilmasligi oqibatida xulq-atvori nazoratga olinmagan balog'atga yetmagan shaxsdir; qarovsiz bola – bu turar joyga va (yoki) borar joyga ega bo'lmagan nazoratsiz bola; ijtimoiy xavfli vaziyatga tushib qolgan balog'atga yetmagan bola – bu nazoratsizligi yoki qarovsizligi oqibatida uning hayoti yoki sog'ligi uchun uni boqish va tarbiyalash talablariga javob bermaydigan holatga tushib qolgan yoki tartibbuzarlik yoxud jamiyatga qarshi hattiharakatlarni oshirib yurgan shaxsdir. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish boshqarmasi organlari o'z vakolatlari doirasida quyidagilarni amalga oshiradi:

– balog'atga yetmagan bolalarni nazoratsizligini profilaktika qilish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi, nazoratsiz va qarovsiz balog'atga yetmagan bolalarga nisbatan, balog'atga yetmagan bolani tarbiyalash, boqish bo'yicha va (yoki) ularning xulq-atvoriga salbiy ta'sir o'tkazayotgan yoki ular bilan shafqatsizlarcha munosabatda bo'layotgan, o'z majburiyatlarini bajarmayotgan ularning ota-onalari yoki boshqa qonuniy vakillariga nisbatan individual profilaktika ishlarini tashkillashtiradi;

– ijtimoiy reabilitatsiya muhtoj balog'atga yetmagan bolalar uchun tashkil etilgan maxsus muassasalar faoliyatini, balog'atga yetmagan bolalar va ularning oilalariga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatayotgan boshqa muassasalar va xizmatlar faoliyatini nazorat qiladi, shu jumladan, aytib o'tilgan muassasalar tarmog'ini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

– balog'atga yetmagan bolalar va ularning oilalariga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatayotgan muassasalar va xizmatlar faoliyatiga ijtimoiy reabilitatsiya qilishning zamonaviy texnologiyalari va usullarini kiritadi.

Ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish muassasalari tarkibiga kiruvchi bolalar va oilaga ijtimoiy yordam ko'rsatishning hududiy markazlari, aholiga psixologik, pedagogik yordam ko'rsatish markazlari, tezkor psixologik yordam ko'rsatish markazlari va boshqa ijtimoiy xizmat ko'rsatish muassasalari, ushbu muassasalarning nizomlariga muvofiq quyidagilarni amalga oshiradilar:

– balog'atga yetmagan bolalar, ularning ota-onalari yoki boshqa qonuniy vakillari iltimoslari yoki balog'atga yetmagan bolalar huquqbuzarligini va nazoratsizligini profilaktika qilish tizimi muassasalari va organlarining mansabdor shaxslari tashabbusi asosida ijtimoiy xavfli vaziyatda yoki boshqa og'ir hayotiy vaziyatda qolib ketgan balog'atga yetmagan bolalarga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatadilar;

– ijtimoiy xavfli vaziyatda qolib ketgan balog'atga yetmagan bolalarni, shu jumladan, ijtimoiy xizmat ko'rsatilishiga muhtoj bo'lgan balog'atga yetmagan a'zolari bo'lgan oilalarni aniqlaydi, ushbu shaxslarni ijtimoiy rehabilitatsiya qilishni amalga oshiradi, ijtimoiy rehabilitatsiyaning individual dasturlariga muvofiq ularga zaruriy yordamni ko'rsatadi;

– o'z vakolatlari doirasida ijtimoiy xizmat ko'rsatish muassasalaridagi nazoratsiz balog'atga yetmagan bolalarni individual profilaktika qilish ishlarida ishtirok etadilar, shu jumladan, davlatning yordamiga muhtoj bo'lgan balog'atga yetmagan bolalarning dam olishini va sog'lomlashtirilishini tashkillashtirishda yordam beradi.

Ijtimoiy rehabilitatsiyaga muhtoj bo'lgan balog'atga yetmagan bolalar uchun maxsus muassasalar yaratiladi va faoliyat yuritadi, ular sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

– og'ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan balog'atga yetmagan bolalarni ijtimoiy rehabilitatsiya qilish va nazoratsizligini profilaktika qilishni amalga oshiruvchi balog'atga yetmagan bolalar uchun ijtimoiy-rehabilitatsiya markazlari. Balog'atga yetmagan bolalar uchun ijtimoiy-rehabilitatsiya markazlari o'z tarkibiga quyidagi tuzilmaviy bo'limlarni olishi mumkin: qabul qilish bo'limi; o'z oilalaridan qochib ketgan balog'atga yetmagan bolalarni tashish bo'limi, ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish bo'limi; ijtimoiy diagnostika bo'limi; statsionar bo'lim; ijtimoiy mehmonxona; uzoq muddat qolib ketuvchilar guruhi; kunduzi bo'luvchilar va ijtimoiy patronaj guruhleri; oilaviy tarbiyalash guruhi; bolalar va oilaga yordam ko'rsatish bo'limi va boshqa balog'atga

yetmagan bolalar uchun ijtimoiy rehabilitatsiya markazlarining nizomidagi maqsadlarga javob beruvchi tuzilmaviy bo'limlar;

– og'ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan va davlatning tezkor ijtimoiy yordamiga muhtoj bo'lgan balog'atga yetmagan bolalarni ijtimoiy rehabilitatsiya qilish va vaqtinchalik yashab turishini ta'minlovchi bolalar uchun ijtimoiy mehribonlik uylari. Bolalar uchun ijtimoiy mehribonlik uylari o'z tarkibiga quyidagi tuzilmaviy bo'limlarni olishi mumkin: qabul qilish bo'limi; ijtimoiy diagnostika bo'limi; ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish bo'limi; o'z tarkibiga ijtimoiy mehmonxona va oilaviy tarbiyalash guruhini oluvchi ijtimoiy rehabilitatsiya qilish bo'limi; ijtimoiy patronaj guruhi va bolalar uchun ijtimoiy mehribonlik uylarining maqsad va vazifalariga javob beruvchi boshqa bo'limlar;

– ota-onalar qarovisiz qolib ketgan bolalar uchun yordam markazlari ota-onalar yoki boshqa qonuniy vakillarining qarovisiz qolib ketgan balog'atga yetmagan bolalarni vaqtinchalik ushlab turish va ularga keyinchalik joylashtirilishida ko'mak berish uchun mo'ljallangan. Ota-onalar qarovisiz qolib ketgan bolalar uchun yordam markazlari quyidagi tuzilmaviy bo'limlarni yaratishlari mumkin: qabul qilish bo'limi; ijtimoiy diagnostika bo'limi; ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish bo'limi; o'z tarkibiga statsionar bo'limni oluvchi ijtimoiy rehabilitatsiya qilish bo'limi; uzoq muddat qolib ketuvchilar guruhi; oilaviy tarbiyalash guruhi; balog'atga yetmagan bolalarni tashish bo'limi va boshqa ota-onalar qarovisiz qolib ketgan bolalar uchun yordam markazlarining maqsadlari va vazifalariga javob beruvchi bo'limlar. Muassasalarning ijtimoiy mehmonxonasi og'ir hayotiy vaziyatlarda qolib ketgan 15 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan balog'atga yetmagan bolalar uchun mo'ljallangan. Balog'atga yetmagan bolalar ijtimoiy mehmonxonada balog'atga yetmagan bolalar va muassasa ma'muriyati o'rtasida tuzilgan rasmiy shartnoma asosida yashaydi, unda amaldagi qonunchilik me'yorlarini inobatga olgan holda tomonlarning o'zaro majburiyatlari va huquqlari belgilab berilgan. Ijtimoiy mehmonxona faoliyatini va ishlash uslubini muassasa rahbari tomonidan tasdiqlanadigan ijtimoiy mehmonxona to'g'risida Nizom asosida tashkillashtirish tavsiya etiladi. Ijtimoiy rehabilitatsiya qilishga muhtoj bo'lgan balog'atga yetmagan bolalar uchun maxsus muassasalarga 3 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan balog'atga yetmagan bolalar belgilangan tartibda kechayu-kunduz qabul qilinadi:

– ota-onalarining yoki boshqa qonuniy vakillarining qaromogʻisiz qolgan bolalar;

– ijtimoiy xavfli vaziyatlarda qolgan oilalarda yashovchi bolalar;

– tashlab ketilgan va adashib qolgan bolalar;

– oilasidan oʻz xohishicha ketib qolgan bolalar, ota-onalar qaramogʻisiz qolgan bolalar va yetim-bolalar uchun taʼlim muassasalaridan yoki boshqa bolalar muassasalaridan oʻz xohishicha ketib qolgan bolalar, maxsus yopiq turdagi taʼlim-tarbiya muassasalaridan oʻz xohishicha ketib qolgan bolalar bundan mustasno;

– yashash joyi va boradigan joyi va (yoki) yashashga moddiy mablagʻi boʻlmagan bolalar;

– boshqa qiyin hayotiy vaziyatlarga tushib qolgan, ijtimoiy yordam va reabilitatsiya qilinishga muhtoj bolalar.

Ijtimoiy reabilitatsiya qilinishga muhtoj, balogʻatga yetmagan bolalar uchun maxsus muassasalarga bolalarni joylashtirish uchun asos boʻlib quyidagilar hisoblanadi:

– balogʻatga yetmagan bolaning shaxsan murojaati;

– 10 yoshga yetgan balogʻatga yetmagan bolaning fikrini inobatga olgan holda balogʻatga yetmagan bolaning ota-onalarining yoki uning boshqa qonuniy vakillarining arizasi, balogʻatga yetmagan bola fikrining inobatga olinishi, uning manfaatlariga qarama-qarshi boʻlgan vaziyatlar bundan mustasnodir;

– aholini ijtimoiy himoya qilish boshqarmasi organining yoʻllanmasi yoki balogʻatga yetmagan bolalarni hququbuzarligi va qarosizligini profilaktika qilish tizimi muassasalari yoki mansabdor shaxsning ushbu organ bilan kelishilgan yoʻllanmasi;

– balogʻatga yetmagan bolaning ota-onalari yoki uning boshqa qonuniy vakillari ushlangan, maʼmuriy hisbda ushlab turilgan, qamoqqa olingan, qamoqqa mahkum etilgan, ozodligi cheklangan, ozodlikdan mahrum etilgan vaziyatlarda dastlabki tergovni amalga oshiruvchining, tergovchining, prokuror yoki sudyaning xulosasi;

– ichki ishlarining tuman, shahar boʻlinmalari (boshqarmalari), boshqa munitsipal taʼlim berishning ichki ishlar boʻlimi (boshqarmasi), yopiq turdagi maʼmuriy-hududiy hududlarning ichki ishlar boʻlinmalari (boshqarmalari), transportdagi ichki ishlar boʻlinmalari (boshqarmalari) operativ navbatchilarining balogʻatga yetmagan bolalarni ijtimoiy reabilitatsiyaga muhtoj balogʻatga yetmagan bolalar uchun maxsus muassasalariga joylashtirish toʻgʻrisidagi hujjati.

### 4.3. Ijtimoiy xizmat ko'rsatuvchi xodimlar va ularning vazifalari

Aholiga ijtimoiy xizmat bevosita ijtimoiy xodimlar orqali amalga oshiriladi. Ijtimoiy xodim keksalar, mehnatga yaroqsiz fuqarolarga qarovchi mutaxassis hisoblanadi. G'arbiy Yevropaning rivojlangan mamlakatlarida ijtimoiy mutaxassislar XIX asr o'rtalaridan oliy va o'rta maxsus ta'lim o'quv yurtlarida, diniy muassasalarda tayyorlana boshlagan.

Odatda, ijtimoiy xizmatlar hamma uchun mumkin bo'lgan ish hamda bu xodimlardan kasbiy malakasini talab etmaydigan ijtimoiy foydali mehnat hisoblanadi. Ijtimoiy xizmatlarning farqli jihatlari quyidagilardan iborat:

- ishsizlar uchun maxsus mo'ljallangan vaqtinchalik ish o'rinlarini yaratadi;

- zarur hollarda bunday ish o'rinlari miqdorini kam sarf qilgan holda sezilarli oshirish mumkin;

- xodimlar ommaviy tarzda ishdan bo'shatilgan hollarda ish miqdori va hajmini tez oshirish mumkin;

- to'liq bo'lmagan ish kunini va moslashuvchan jadvalli ishlarni tashkil qilish mumkin;

- bunday ish o'rinlari mintaqa uchun iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatdan foydali hisoblanadi;

- o'qishni tugatgan va o'ziga doimiy ish topa olmagan yoshlar uchun ishga joylashish imkonini beradi.

Ijtimoiy xodim bo'lib ishlash istagini bildirgan fuqarolar bilan muddatli mehnat shartnomasi tuziladi, bunday bitim tuzishga ustuvor huquqdan ishsizlik bo'yicha moddiy yordam olmaydigan ishsiz fuqarolar foydalanadi. Ijtimoiy xodimning lavozim majburiyatiga yolg'iz keksalar va xizmat ko'rsatish hududida yashovchi fuqarolarni aniqlash kiradi. Ijtimoiy xodimlar ular uyiga tushliklarni, oziq-ovqat mahsulotlari, dori-darmonlarni, sanoat mollari va boshqa tovarlarni yetkazib beradi, xonani yig'ishtirish, yuvishga, yuviladigan ro'zg'or buyumlari, usti-boshlarini kirxonalarga, kimyoviy tozalashga topshirishga ko'maklashadi, uy-ro'zg'or anjomlarini ta'mirlashda, maishiy xizmat va boshqa xizmatlarga haq to'lashda ko'maklashadi. Shuningdek, ular shifokorga borgungacha xizmatlarni (harorat o'lchashni, gorchitsa qo'yishni, istitgich tayyorlashni, uyga shifokor chaqirishni) amalga oshiradi, turar-joyini ta'mirlash, hovli-bog'larga

ishlov berish, yoqilg'i bilan ta'minlash va shu kabi boshqa yumushlarni tashkillashtiradi. Shu bilan bir qatorda, ijtimoiy xodim yordam ko'rsatish, qo'llab-quvvatlash, tashkilotchilik vazifasini ham bajarishi mumkin, u sanitariya-gigiyena talablarini uy sharoitida keksa va mehnatga yaroqsizlarga tatbiq etishni, keksa yoshdagi shaxslar bilan ishlash xususiyatlarini o'zlashtirgan bo'lishi kerak.

Ijtimoiy xodimning vazifalari:

- dorixonaga borib kelish;
- ovqat pishirish;
- parvarish qilish;
- uy tozalash;
- kirlarni va idish-tovoqlarni yuvish;
- bozor-o'char qilish;
- avvalgi ishxonasi bilan aloqada bo'lish.

Ijtimoiy xizmatlar mavjud bo'lgan mamlakatlarda ijtimoiy xodimlar tasarrufidagi vositalar majmuyi quyidagilardan iborat:

– pul yordam tizimi, bu mehnatga qobiliyatsiz kishilar, muhojirlar va qochoqlarga doimiy, vaqtinchalik, bir yo'la va maqsadli moddiy yordamlarni o'z ichiga oladi;

- natura ko'rinishidagi yordam tizimi;
- tibbiy xizmat tarzidagi yordam tizimi;
- ijtimoiy muassasalarni tashkillashtirish;
- psixologik maslahatlar va mashqlar;
- o'qitish va qayta tayyorlash kurslari (asosan muhojirlar uchun).

Bu vositalardan samarali foydalanish tegishli tashkiliy tuzilma bo'lgandagina mumkin<sup>30</sup>.

Ta'kidlash lozimki, ijtimoiy xodim xizmatlarni loyihalashtirish jarayonida bevosita ijtimoiy ishlar bilan shug'ullanuvchi, xizmat bo'linmalari: "ijtimoiy homiyar" lavozim jadvali, ruhiy yordam xizmati xodimi, ishga joylashtirish xodimi; ijtimoiy yordamga muhtojlar haqida ma'lumot to'plash xizmati va shunday yordam samarasini baholash; umumiy qarorlar qabul qilish, mutaxassislar moddiy resurslarini taqsimlash vazifasini bajaruvchi boshqarish xizmati kabi modellardan foydalanishi mumkin.

Aholiga xizmat ko'rsatishda ijtimoiy xodimning odobi muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'kidlash joizki, ijtimoiy xodimning odobi odob

<sup>30</sup> Abdurahmonov Q.X., Abduramonov X.X. "Aholini ijtimoiy muhofaza qilish" O'quv qo'llanma. – T.: Tafakkur bo'stoni, 2010. – B.157.

me'yorlari majmuyi hisoblanib, ijtimoiy xodimlar va ular faoliyatini tartibga soluvchi jamiyat tomonidan tuziladi.

Bu me'yorlar olti turdagi guruhga ajraladi:

1. Ijtimoiy xodim xulqi va qiyofasi (xulqning oliy namunalariga, ijtimoiy xodimga munosib bo'lganlariga amal qilish; o'z kasbiy malakasini takomillashtirish; ijtimoiy xodim kasbiy majburiyatlarini to'g'ridan-to'g'ri o'z majburiyatlari sifatida qarash; o'z xulq-atvorini kasbiy vijdonlilikning yuqori namunalari bilan qiyoslash; ilmiy tadqiqotlar olib borishda tegishli shartnomalarga amal qilish);

2. O'z mijozlariga bo'lgan munosabati (mijozlarga munosabat bo'yicha mas'uliyatga o'zining to'g'ridan-to'g'ri mas'uliyati sifatida qarash; ularda yuqori darajada mustaqillikning yuzaga chiqishiga ko'maklashish; mijozlardan olingan ma'lumotlarni tarqatmaslik; ko'rsatilayotgan yordam va mijozlar imkoniyatidan kelib chiqib, gonorar belgilash);

3. Hamkasblariga bo'lgan munosabati (o'z hamkasblariga hurmat va ishonch bilan munosabatda bo'lish; ularning mijozlari bilan kasbiy to'la safarbar holda ish olib borish);

4. Hamkorlik qiladigan tashkilotlariga munosabati (tegishli tashkilotlar oldidagi majburiyatlariga sodiq bo'lish);

5. O'z kasbiga bo'lgan munosabati (o'z kasbi ijtimoiy ahamiyatini tushunishga ko'maklashish; o'z ijtimoiy yordamini aholi keng qatlamiga yetib boradigan tarzida bo'lishiga erishish; o'z kasbiy faoliyatida bilimlardan faol foydalanish);

6. Jamiyatga bo'lgan munosabati (umumiy farovonlik oshishiga hissa qo'shish). Shunday qilib, ijtimoiy xodim mehnatga qobiliyatsiz aholi qatlamiga xizmat ko'rsatuvchi mutaxassis bo'lib, ularning ko'rsatayotgan ijtimoiy xizmatining sifat va saviyasini oshirish muhtoj aholi ijtimoiy himoyasining samaradorligini ko'tarishga yordam beradi.

Ijtimoiy ishdagi kasbiy salohiyatlilikning o'nta asosiy sohalari:

### **1. Muloqot malakalari**

- mijozlar, bolalar, hamkasb va boshqa mutaxassislar bilan shaxslararo muloqotga kirishish malakalari;

- verbal va noverbal muloqot.

### **2. Baholash va rejalashtirish malakalari**

- to'liq baholash uchun ma'lumotlarni to'plash va tahlil etish;

- mijoz vaziyatini baholash asosida aniq reja va kelishuvlarni ishlab chiqish;

- erishilgan natijalarni doimiy tarzda baholash va tahlil etib boorish.

### **3. Aralashuv malakalari**

- mijoz bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlash;
- hamkasb va boshqa mutaxassislar bilan hamkorlik qilish;
- zaruratga qarab tahlil qilish va rejani o‘zgartirish.

### **4. Ishchi yozuv qaydlarini olib borish malakalari**

- ish bo‘yicha yozuvlarni qayd etib borish;
- hisobot va xatlarni yoza bilish.

### **5. O‘z tashkiloti manfaatlarini tushuna bilish va taqdim eta olish**

- tashkilot siyosati, ish tartibi, maqsad va vazifalarini bilish va tushunish;
- tashkilotni taqdim eta bilish.

### **6. Hamkasb va boshqa mutaxassislar bilan ishlay olish qobiliyati**

- samarali ishchi munosabatlarni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish;
- g‘oya va ma‘lumotlarni birga baham ko‘ra bilish qobiliyati.

### **7. O‘zini boshqarish malakalari**

- o‘z ishi va vaqtini tashkillashtira olish;
- o‘zining oqiz va kuchli tomonlarini bilish.

### **8. Rahbar kuzatuvi ostida ishlay olish qobiliyati**

- amaliy jihatlari (Jumladan, tayyorlov, aniqlilik);
- o‘qishga tayyorlilik.

### **9. Kasbiy qadriyat va munosabatlar**

- ijtimoiy ish etikasini bilish va tushunish
- doimiy ravishda o‘z bilimlari saviyasini oshirishga intilish

### **10. Egallangan nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llay bilish qobiliyati**

- ijtimoiy ish nazariyasini bilish va tushunish;
- amaliy faoliyat uchun mos nazariyani tanlay bilish va uni qo‘llay olish qobiliyati<sup>31</sup>.

<sup>31</sup> Ганиева М.Х., Латипова Н.М., Алексеева В.С. Социальное обеспечение и социальная защита детей и молодежи. Учебное пособие. Ташкент: IJODPRINT, 2017. – С.155-166.

#### 4.4. Aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatishni takomillashtirish yo'llari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy sohada sezilarli o'zgarishlar yuz bermoqda. Bu o'zgarishlar hududiy ijtimoiy majmualarni samarali boshqarish va ularni moliyalash bilan bog'liq bo'lib, ushbu masalalarni hal etish nafaqat zamonaviy ijtimoiy islohotlarning samarasini, balki hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dinamikasini ham belgilaydi.

Ijtimoiy sohaning yangi, bozorga xos institutlarining faoliyati muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular qatoriga aholiga keng qamrovli ijtimoiy-iqtisodiy, tibbiy-ijtimoiy, psixologik-pedagogik, huquqiy, ijtimoiy-maishiy va boshqa xil xizmatlar ko'rsatuvchi ijtimoiy xizmat tizimi kiradi. Bunday xizmatlarga murakkab turmush sharoitiga tushib qolgan insonlar – ko'p bolali, to'liqsiz, yosh oilalar, balog'at yoshiga to'lmagan ota-onalardan tashkil topgan oilalar, nogironligi bo'lganlar, yetim yoki ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar, tarbiyasi og'ir va qarovsiz qolgan bolalar, yolg'iz keksalar va ishsizlar ayniqsa muhtojlik sezadi.

Bugungi kunda zamonaviy ijtimoiy infratuzilmaning ko'pgina muammolariga moliyalashtirishning yetarli emasligi va aholining past turmush darajasi sabab bo'lmoqda. Ko'pchilik mamlakatlar aholisining aksariyat qismi kambag'al bo'lib, xizmat ko'rsatish sohasidan bozor narxlarida foydalanish uchun iqtisodiy imkoniyatga ega emas. Mehnatga yaroqsizligi, ishsizligi yoki boshqa bir sabablarga ko'ra o'zining zarur hayotiy ehtiyojlarini, shuningdek, mehnatga layoqatsiz oila a'zolarining ehtiyojlarini qondirish uchun kerakli mablag'i bo'lmagan fuqarolarga aholini ijtimoiy muhofaza qilish dasturlari doirasida, qonunchilikda belgilangan noxush holatlar yuzaga kelganda moddiy va tabiiy shaklda badal to'lash, boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish orqali yordam ko'rsatiladi.

Samarali ijtimoiy xizmatlar tizimi ijtimoiy nochorlik darajasini sezilarli darajada pasaytiradi, noxush hodisalarning oldini olishga yo'naltirilgan profilaktik tadbirlarni amalga oshiradi va shu orqali jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga ko'maklashadi. Biroq, hukumat ixtiyoridagi resurslarning tanqisligi, ulardan oqilona foydalanmaslik fuqarolarning konstitutsion ijtimoiy kafolatlarini to'la amalga oshirishga to'sqinlik qilmoqda. Aytish joizki, yuqorida e'tirof etilgan muammolarning barchasi ijtimoiy xizmatlar tizimini isloh qilishni talab etadi.

Fikrimizcha, ijtimoiy xizmatlar tizimini isloh etishni quyidagi asosiy ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda amalga oshirish lozim:

- jamiyatning mehnat salohiyatini rivojlantirish va undan oqilona foydalanish;

- ijtimoiy nochor aholi qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, manzilli ijtimoiy yordamni yanada takomillashtirish, ijtimoiy nafaqa va imtiyozlar tizimini pullik to'lovlar bilan almashtirish;

- aholining samarali bandligini ta'minlash orqali kambag'allikni kamaytirish, nafaqa tizimining barqarorligini kuchaytirish, ijtimoiy yordamni jonlantirish;

- ijtimoiy barqarorlik omili sifatida qo'shimcha nodavlat ijtimoiy sug'urtalashni shakllantirish; budjet muassasalarini moliyalashning yangi usullarini tatbiq etish, ularning xo'jalik erkinligini kengaytirish va fuqarolarga ko'rsatilayotgan ijtimoiy xizmatlarning sifati va turini oshirish uchun sharoit yaratish;

- ijtimoiy xizmatlarni moliyalash va taklif etish, ularning sifatini nazorat etish masalalarida fuqarolik jamiyati tuzilmalari bilan hamkorlik o'rnatish.

Fuqarolarning xizmatlar taklif etuvchilarni tanlash imkoniyatini kengaytirish va nodavlat sektorni faol jalb etish asosida bunday xizmatlarni taklif etish shakllarini diversifikatsiya qilish ijtimoiy xizmatlar tizimini isloh etish sohasining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu, xususan, bepul yoki mablag' ajratish orqali ko'rsatilayotgan ijtimoiy foydalanuvchi fuqarolarning tanlash erkinligini kengaytirishni, shu jumladan,

- ularga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish litsenziyasiga ega bo'lgan istalgan tashkilotdan kelishilgan ro'yxat asosida belgilangan miqdorda bepul yoki mablag' ajratish orqali ko'rsatilayotgan xizmatlardan foydalanish huquqini beruvchi maxsus ijtimoiy hisoblar yuritishni;

- hajm va sifatidan kelib chiqqan holda, davlat tomonidan moliyalashning dasturiy-maqсадli va tanlov mexanizmlari asosida ijtimoiy xizmatlarni moliyalash jarayoniga o'tishni;

- ijtimoiy xizmatlar taklif etuvchi davlat va nodavlat tashkilotlar uchun ijtimoiy buyurtma mexanizmi orqali davlat tomonidan moliyalashdan teng foydalanishni ta'minlashni;

- davlat tomonidan moliyalashni xususiy xayriya resurslari bilan birlashtirish;

- budget va budgetdan tashqari mablag'larni taqsimlashda ochiqlikni ta'minlashni;

- ijtimoiy xizmatlarning o'zini qoplash imkoniyatini rivojlantirishni; ixtisoslashgan notijorat tashkilotlarni ekspert, maslahat va muvofiqlashtirish yo'nalishidagi turli jamoat-davlat kengashlarini ishlab chiqish va ekspertiza qilishga jalb etishni;

- qaysi tashkilot tomonidan (davlat, nodavlat notijorat, tijorat) bajarilishidan qat'iy nazar, ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish sifatini baholash tizimini ishlab chiqishni;

- budget mablag'larini sarflash samaradorligini mustaqil baholash institutlarini rivojlantirish va ixtisoslashgan notijorat tashkilotlarni ijtimoiy davlat dasturlarini va budgetning tegishli bo'limlarini ishlab chiqish va ekspertiza qilishga jalb etishni;

- ijtimoiy xizmatlar sohasida litsenziyalashni tartibga solish, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish talablarini jahon tajribasi va O'zbekistondagi ijtimoiy xizmatlar rivojlanish darajasiga moslashtirishni;

- ijtimoiy faoliyatga ruxsat beruvchi litsenziya olish talablarini to'ldirgan holda, nodavlat notijorat tashkilotlarning ijtimoiy va ta'lim xizmatlari borasidagi tajriba va amaliyotini hisobga olishni;

- ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishga ham davlat, ham nodavlat tashkilotlarini jalb etish uchun imkoniyat yaratishni;

- davlat tomonidan moliyalash bilan bir qatorda xususiy xayriya mablag'laridan foydalanishni;

- ijtimoiy reglamentlar va ijtimoiy dasturlarni bajarish sifatini baholash tizimi asosida turli ijtimoiy xizmatlar ko'rsatuvchi davlat, munisipal, xususiy va boshqa muassasalar faoliyatiga umumiy talablarni ishlab chiqishni nazarda tutadi.

Yuqoridagilardan shunday xulosaga kelish mumkinki, aholiga ko'rsatilayotgan ijtimoiy xizmatlar sifatini nazorat qilishning yagona ta'sirchan mexanizmi – bu litsenziyalashdir. Jismoniy shaxslar qachonki fuqarolarning xavfsizligi, farovonligi va salomatligini himoya qilish uchun zarur bilim va imkoniyatga ega bo'lganida, yuridik shaxslar esa aniq xizmatlar ko'rsatish bo'yicha faoliyati qonunchilikda belgilangan minimal davlat standartlarga to'la javob berganida litsenziya oladi. Fikrimizcha, ijtimoiy xizmatlar bilan bog'liq faoliyat turlarini litsenziyalashga bo'lgan yondashuv mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, barcha ijtimoiy xizmatlar uchun yagona bo'lmog'i lozim. Bu ularning o'z mijozlari oldida bir xilda mas'uliyatli bo'lishini ta'minlaydi va

ularning faoliyatini nazorat qilish imkonini beradi. Ijtimoiy faoliyat uchun litsenziya olish talablarini ishlab chiqishda nodavlat tashkilotlarning ish tajribasini va amaliyotini inobatga olish maqsadga muvofiq. Bunday yondashuvni aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatishga yaqin, faoliyati litsenziyalanishi shart bo'lgan tibbiyot va ta'lim sohalarida qo'llash mumkin.

Ta'kidlash joizki, standartlash ham litsenziyalashga uzviy bog'liq jarayon bo'lib, litsenziya ma'lum bir ijtimoiy xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi tashkilot faoliyati belgilangan davlat standartlariga javob berishining kafolatidir. Boshqacha qilib aytganda, litsenziyalash belgilangan standartlar bajarilishini nazorat etish funksiyasini bajaradi. Mazkur standartlarga rioya etilmagan hollarda, tegishli ijtimoiy xizmatdan mahrum etilishi mumkin. Bizningcha, respublikada minimal davlat ijtimoiy standartlarini kiritish quyidagi vazifalarni hal etishga yo'naltirilishi lozim:

- mamlakat fuqarolari bepul ijtimoiy xizmatlardan foydalana olishini ta'minlash;

- ijtimoiy barqarorlik va jamiyatning turg'un rivojlanishini ta'minlash maqsadida insonning ijtimoiy xizmatlarga bo'lgan eng zarur talab va ehtiyojini larini qondirish;

- ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish va ularning ta'minlanishi ustidan nazoratni kuchaytirish;

- kafolatlangan davlat ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishni rejalashtirish va tashkil etish, minimal davlat ijtimoiy standartlar asosida ijtimoiy xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi muassasa va tashkilotlar faoliyatini baholash va nazorat qilish.

Minimal davlat ijtimoiy standartlari mahalliy va hududiy budjetlarning ularni ta'minlash uchun zarur minimal talablarini belgilash, zarur bo'lsa budjet (soliqlar, aksizlar va boshqalar) tizimining darajalari bo'yicha daromadlarni qayta taqsimlash va mustahkamlash imkonini yaratadi. Buning natijasida munisipal tashkilotlar va mamlakat subyektlarining asosiy qismini o'zini-o'zi moliyalash tizimiga o'tkazish imkoniyati paydo bo'ladi, bunda ularning o'z soliq bazasini kengaytirish va iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirishdan manfaatdorligi oshadi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish, litsenziyalash, standartlash kabi mexanizmlarini amaliyotga tatbiq etish nafaqat aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatish tizimini isloh etish, balki

ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning ko'pgina muammolarini yechish imkonini ham beradi.

### Nazorat savollar:

1. Aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatish deganda nimani tushunasiz?
2. Aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatishning qanday tamoyillari mavjud?
3. Ijtimoiy xizmatning qanday turlarini bilasiz?
4. Keksalar va bolalar uylari deganda nimani tushunasiz?
5. O'zbekistonda ijtimoiy xizmat ko'rsatishning qanday turlari rivojlangan?
6. Ijtimoiy xodimning asosiy vazifalarini aytib bering.
7. Ijtimoiy xodimning odob majburiyatlarini tushuntirib bering.
8. Aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatishni yanada takomillashtirishning qanday yo'nalishlarini bilasiz?

### Testlar:

**1. Ijtimoiy xizmatlarni integral tavsifiga ko'ra, qanday usullardan foydalaniladi?**

- a) iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy, ma'muriy, psixologik, ijtimoiy-ruhiy, tibbiy-ijtimoiy, pedagogik;
- b) ijtimoiy, psixologik, tibbiy, rehabilitatsiya;
- c) ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik, ijtimoiy-tibbiy;
- d) ijtimoiy, rehabilitatsiya, ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik.

**2. Ijtimoiy texnologiyalarning ijrosi qanday bosqichlarni o'z ichiga oladi?**

- a) aholining holatiga individual yondashish, obyektiv baho berish, sifatli ijtimoiy xizmat ko'rsatish;
- b) ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik, ijtimoiy-tibbiy yordam ko'rsatish;
- c) ijtimoiy ta'minotga muhtoj aholiga sifatli yordam ko'rsatish va oshkoralikka yo'l qo'ymaslik;
- d) ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish, holatni baholash, yakuniy xulosa chiqarish.

**3. Og'ir hayotiy vaziyat bu...?**

- a) nogironligi, yoshi keksayib qolishi munosabati;

- b) fuqaroning oddiy hayotiy faoliyatini izdan chiqaruvchi va mustaqil tarzda hal qila olmasligi holatidir;
- c) muqim yashash joyining mavjud emasligi holati;
- d) iqtisodiy ahvolning keskin yomonlashuvi.

**4. Bepul ijtimoiy xizmat ko'rsatish tartibi kim tomonidan belgilanadi?**

- a) qonun chiqaruvchi organ tomonidan;
- b) ijtimoiy-huquqiy organlar tomonidan;
- c) davlat hukmat organlari tomonidan;
- d) maxsus komissiya tomonidan.

**5. Nogironligi bo'lgan va keksa yoshdagi fuqarolarning ijtimoiy xizmatlarni olish qanday amalga oshiriladi?**

- a) davlat ro'yxati asosida;
- b) ijtimoiy ahvoli qoniqarsiz deb topilsa;
- c) muhtojlik darajasiga ko'ra;
- d) ularning roziligi bilan.

**6. Uyda ijtimoiy xizmat ko'rsatish kimlarga ko'rsatiladi?**

- a) keksa yoshdagi va yolg'iz fuqarolarga;
- b) nogironligi bo'lgan va keksa yoshdagi fuqarolarga;
- c) yolg'iz pensionerlarga;
- d) 16 yoshgacha nogironligi bor farzandi bo'lgan oilalarga.

**7. Yarimstatsionar ijtimoiy xizmat ko'rsatish deganda nima tushuniladi?**

a) psixik kasalliklardan (remissiya bosqichida), sildan (faol shaklidan tashqari), og'ir kasalliklardan (shu jumladan, onkologik kasalliklar) aziyat chekadigan nogironlar va keksa yoshdagi fuqarolarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish;

b) davlat tomonidan kafolatlangan ijtimoiy xizmatlarning ro'yxatida belgilangan uyda ijtimoiy xizmat ko'rsatish;

c) nogironligi bo'lgan kishilarni kasalxona va dam olish maskanlarida davolanishlarini tashkil etish;

d) nogironlar va keksa yoshdagi fuqarolarga ijtimoiy-maishiy, tibbiy va madaniy xizmat ko'rsatishni, ularni ovqatlanishi, dam olishini, qo'lidan keladigan mehnat faoliyatida ishtirok etishini ta'minlash va faol hayot tarzi uchun qo'llab-quvvatlashni tashkillashtirish.

**8. Tezkor ijtimoiy xizmat ko'rsatish qanday tartibda amalga oshiriladi?**

a) ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga juda muhtoj bo‘lgan, nogironlar va keksa yoshdagi fuqarolarga bir marotabalik tavsifdagi tezkor yordam ko‘rsatiladi;

b) ijtimoiy yordam bir yilda bir marotaba amalga oshiriladi;

c) ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash ijtimoiy ta‘minot muassasalariga navbatga turish orqali amalga oshiriladi;

d) ijtimoiy yordam sug‘urta polisiga asosan amalga oshiriladi.

**9. Nogironlar va keksa yoshdagi fuqarolarga ko‘rsatiladigan ijtimoiy maslahat nimani nazarda tutadi?**

a) ijtimoiy-maishiy, tibbiy va madaniy xizmat ko‘rsatish;

b) xodimning yashash sharoitiga bog‘lanadi;

c) psixologik qo‘llab-quvvatlash, shaxsiy muammolarini yechilishida harakatlarini faollashtirish;

d) vaqtinchalik uy-joy olishiga ko‘maklashish.

**10. Nogironligi bo‘lgan bolani uyda o‘qitilishini tashkillashtirish uchun qanday hujjat asosiy rol o‘ynaydi?**

a) pensiya jamg‘armasining ma‘lumotnomasi;

b) reabilitatsiya markazining tavsiyanomasi;

c) hududiy poliklinikasining kasallik varaqasidan ko‘chirmasi;

d) davolash profilaktika muassasasining xulosasi.

**11. Ijtimoiy reabilitatsiyaga muhtoj bolalar qatoriga kimlar kiradi?**

a) barcha bolalar toifasi;

b) nazoratsiz, qarovsiz bo‘lgan yoki ijtimoiy xavfli vaziyatga tushib qolgan 3 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan balog‘atga yetmagan bolalar;

c) boquvchisini yo‘qotgan, balog‘atga yetmagan bolalar;

d) barcha nogironligi bor bolalar.

**12. Nazoratsiz bola...?**

a) ota-onalari yoki boshqa qonuniy vakillari yoki mansabdor shaxslar tomonidan uni boqish va (yoki) o‘qitish, tarbiyalash bo‘yicha majburiyatlarni bajarilmasligi yoki yetarli darajada bajarilmasligi oqibatida xulq-atvori nazoratga olinmagan balog‘atga yetmagan shaxs;

b) ota-onasi tomonidan bola huquqlarining buzilishi oqibatlariga uchragan shaxs;

c) ota-onasi har ikkisinining yoxud birini vafot etganligi sababli nazoratsiz shaxs;

d) ota-onaning kuch ishlatishi oqibatida uydan chiqib ketishi ko‘p kuzatilgan shaxs.

### **13. Qarovsiz bola bu...?**

- a) turar joyga va (yoki) borar joyga ega bo'lmagan nazoratsiz bola;
- b) ota-onasi tomonidan bola huquqlarining buzilishi oqibatlariga uchragan shaxs;
- c) ota-onasi har ikkisining yoxud birining vafot etganligi sababli nazoratsiz qolgan shaxs;
- d) ota-onaning kuch ishlatishi oqibatida uydan chiqib ketishi ko'p kuzatilgan shaxs.

### **14. Og'ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan balog'atga yetmagan bolalarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish va nazoratsizligini profilaktika qilishni amalga oshiruvchi qanday muassasa faoliyat yuritadi?**

- a) ijtimoiy mehmonxonalar;
- b) bolalar uchun ijtimoiy mehribonlik uylari;
- c) balog'atga yetmagan bolalar uchun ijtimoiy-reabilitatsiya markazlari;
- d) ota-onalar qarovsiz qolib ketgan bolalar uchun yordam markazlari.

### **15. Aholiga ko'rsatilayotgan ijtimoiy xizmatlar sifatini nazorat qilishning yagona ta'sirchan mexanizmi qanday?**

- a) litsenziyalash;
- b) tanlash imkoniyatini kengaytirish;
- c) nodavlat sektorni faol jalb etish;
- d) jamoat-davlat kengashlarini ishlab chiqish.

## V-bob. AHOLINI IJTIMOY MUHOFAZA QILISH DAVLAT IJTIMOY SIYOSATINING ASOSIY YO‘NALISHI SIFATIDA

- 5.1. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tushunchasining mohiyati
- 5.2. Davlat tushunchasi va uning xususiyatlari
- 5.3. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish mexanizmi va yo‘nalishlari
- 5.4. Aholini ijtimoiy muhofaza qilishda davlatning roli va o‘rni

### 5.1. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tushunchasining mohiyati

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish taraqqiy etgan barcha mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi zaruriy unsur hisoblanadi. “Ijtimoiy muhofaza” atamasi dastlab 1935 yilda AQSHning “Ijtimoiy xavfsizlik bo‘yicha Qonun” deb nomlangan huquqiy hujjatida qo‘llanilgan<sup>32</sup>. Mazkur qonunga ko‘ra, mamlakatning har bir fuqarosini ishsizlik yoki daromadni yo‘qotish, shuningdek, uning keskin kamayib ketishi (kasallik tufayli, farzand tug‘ilishi natijasida, ishlab chiqarish jarohati oqibatida, nogironlik sababli) bois iqtisodiy va ijtimoiy ne‘matlardan mahrum bo‘lishdan himoya qiluvchi chora-tadbirlar tizimi ijtimoiy himoya deb e‘tirof etilgan. Bundan keyin ushbu atama 1938 yili Yangi Zelandiyaning qonuniy hujjatida qo‘llanilgan va turli mamlakat aholi qatlamlarining bu sohadagi jiddiy muammo va orzu-umidlari mazmunini oddiy va tushunarli ifodalab, tezda Xalqaro Mehnat Tashkilotida o‘zining munosib o‘rnini topdi.

Olingan nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalar soha mutaxassislariga aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimini to‘g‘ri tashkil qilish imkonini beradi.

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitidagi eng muhim masalalardan biridir. “Aholini ijtimoiy muhofaza qilish” tushunchasi hozirgi davrda jamiyatda pishib yetilgan ijtimoiy muammolarni o‘zida aks ettiruvchi kategoriya sifatida namoyon bo‘ladi.

Endi avval “ijtimoiy” so‘zining ma‘nosini aniqlashtirib olsak. “Ijtimoiy” so‘zi arabcha “jam” so‘zidan olingan bo‘lib, “ko‘pchilik”, “to‘planish” degan ma‘nolarni anglatadi. Shunday ekan, “ijtimoiy

<sup>32</sup> С.Туйчиева А.Ш. Норбеков. Ижтимоий сиёсат – Ўқув қўлланма – Ташкент, 2010. – В. 6.

muhofaza” tushunchasi “ko‘pchilikni muhofaza qilish” ma’nosini anglatadi<sup>33</sup>.

Bozor islohotlarini amalga oshirayotgan mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy adabiyotlarida, ayniqsa, iqtisodchi olimlar mulohazalarida “ijtimoiy himoya” atamasining turlicha talqinini uchratish mumkin. Jumlaadan, ayrim mualliflar ijtimoiy himoya deganda, “xodimlarga shaxsiy mehnat ulushi, iqtisodiy erkinligi va tadbirkorligi hisobiga o‘z farovonligini oshirishga keng imkoniyatlar taqdim etuvchi qonuniy, iqtisodiy, ijtimoiy va psixologik kafolatlar tizimini” tushunadilar<sup>34</sup>. Boshqa qator iqtisodchi olimlar fikriga ko‘ra, “bozor iqtisodiyotida ijtimoiy himoya jamiyatning xo‘jalik va ijtimoiy hayotini tashkil etishning tabiiy komponenti sifatida namoyon bo‘ladi, uning tashkiliy-huquqiy shakllari esa mehnat jarayonining va ishchi kuchi qayta ishlab chiqarishning beto‘xtovligini ta’minlashga xizmat qiladi”<sup>35</sup>.

Yuqorida bayon qilingan qarashlarga quyidagi talqinni hamohang deyish mumkin: “umumiy holda ijtimoiy himoya ostida jamiyat tomonidan shaxsning asosiy huquqlari, shu jumladan, iqtisodiy huquqlari – mol-mulka, mehnatga, daromad olishga va ijtimoiy xizmatlarga kafolatlanganligi tushuniladi. Torroq ma’noda ijtimoiy himoya – bu inflatsiya va tovar taqchilligi sharoitida aholi, ayniqsa, uning muhtoj qatlamlari uchun kun kechirishga imkon beruvchi kafolatlardir”<sup>36</sup>. Mazkur fikrning ijobiy xususiyati shundan iboratki, bunday talqin “ijtimoiy himoya” ma’nosini ham tor, ham keng doirada ifodalab bergan.

Iqtisodiyotga oid adabiyotlarda boshqa mazmundagi, ya’ni “ijtimoiy himoya – bu mehnatga layoqatsiz fuqarolarga: o‘z shaxsiy mehnat hissasi, iqtisodiy mustaqilligi va tadbirkorligi hisobiga o‘z farovonligini oshirishga keng sharoitlarni yaratuvchi, mehnatga layoqatsizlar va aholining ijtimoiy zaif qismiga ijtimoiy iste’mol fondlaridan foydalanishda imtiyoz, pensiya, nafaqa va stipendiya sifatidagi bevosita

<sup>33</sup> Abdurahmonov Q.X., Abduramonov X.X. “Aholini ijtimoiy muhofaza qilish” O‘quv qo‘llanma. –T.: Tafakkur bo‘stoni, 2010. –B. 17.

<sup>34</sup> Аверин А.Н. Государственная система социальной защиты населения. – М: РАГС, 2007. – С.14.

<sup>35</sup> Римащевская Н.М. Социальная защита населения. – М.: РИЦ ИСЭП РАН, 2005. – С. 5.

<sup>36</sup> Шевелева О.Б., Михайлов В.В. Направления системного совершенствования социальной защиты населения в регионе. – Кемерово: КузГТУ, 2004. – С.19.

moddiy yordamni ta'minlovchi qonuniy, ijtimoiy, iqtisodiy kafolatlar tizimidir"<sup>37</sup>, degan ta'rif ham berilgan.

Shunday qilib, "ijtimoiy himoya" tushunchasi tor ma'noda talqin etilganida, inson hayotidagi huquq va kafolatlarni ta'minlashga qaratilgan davlat siyosatini anglatadi. Ayni vaqtda, ijtimoiy himoya tamoyiliga kengroq talqin nuqtayi nazaridan yondashganda, bu borada davlat siyosati bilangina cheklanib qolmaslik lozim.

Aholining ijtimoiy himoyalanganlik darajasi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti va jamg'arilgan milliy boylik hajmi, shuningdek, himoyani ta'minlovchi mexanizm bilan belgilanadi. Bu kabi talqinda aholini ijtimoiy himoya qilishning barcha asosiy jabhalari qamrab olinadi.

"Aholini ijtimoiy muhofaza qilish" atamasining iqtisodiy mazmunini aniqlash ikki yo'nalishda olib boriladi. Keng ma'noda – iqtisodiy nazariya nuqtayi nazaridan, tor ma'noda esa – aniq iqtisodiy fan yo'nalishi doirasida. Iqtisodiy nazariya nuqtayi nazaridan ushbu hodisaning eng asosiy, eng e'tiborga molik jihatlari ta'riflanadi.

Ikkinchi tomondan, aholini ijtimoiy himoya qilishga aniq iqtisodiy fan nuqtayi nazaridan ta'rif berilishi uni barcha qonunchilik va ijroiya qarorlari bilan bog'liq holdagi inson huquqlariga rioya etilishining iqtisodiy, huquqiy va ijtimoiy kafolatlarini ta'minlovchi tizim sifatida baholanishini taqozo etadi.

Mehnatga layoqatli aholi uchun – bu mehnat qilish huquqi, o'z faoliyati samarasi o'laroq, hayot kechirishning munosib darajasini, mehnat va dam olish sharoitlarini ta'minlab beruvchi daromad olish huquqidir.

Mazkur tushunchaning bunday ta'rifida xodimlarning ijtimoiy kafolatlari va haq-huquqlariga urg'u beriladi, shuningdek, mehnatga layoqatli va mehnatga layoqatsiz aholining ijtimoiy himoyasi borasidagi aniq farq belgilanadi.

Tizimli nuqtayi nazardan olib qaralganda, aholining ijtimoiy himoyasi – bu qonun yo'li bilan mustahkamlangan huquq va ijtimoiy kafolatlarni ta'minlovchi tizimlar majmuasidan tashkil topgan ijtimoiy munosabatlarning yaxlit yig'indisidir. Bunday ijtimoiy himoya xodimlarga o'z mehnat hissasi evaziga, iqtisodiy mustaqillik va tadbirkorlik hisobiga shaxsiy turmush darajasini yuksaltirishga teng

<sup>37</sup> Кукушина В.С. Социальная защита населения: опыт организационно-административной работы. – Москва, 2007. – С. 4-5.

sharoitlar yaratadi, mehnatga layoqatsizlarga va ijtimoiy zaif aholiga esa – nafaqa, stipendiya, soliq miqdorini kamaytirish sifatidagi bevosita moddiy yordam shaklidagi muayyan imtiyoz va ko‘mak taqdim etadi. Mazkur ta‘rif doirasida aholining ijtimoiy himoyasini davlat tomonidan aholiga kun kechirish va faoliyat ko‘rsatishni hamda turmush, shuningdek, iste‘mol darajasini ta‘minlovchi bevosita maqsadli kafolatlar tizimi sifatida tasvirlash mumkin.

“Aholini ijtimoiy muhofaza qilish” tushunchasining iqtisodiy mazmunini aniqlashda Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) va Xalqaro Mehnat Byurosi (XMB) mutaxassislarining alohida nuqtayi nazarini mavjudligini alohida ta‘kidlash joiz. O‘z tajribasida ular ijtimoiy himoya masalasini hal qilishda ikki asosiy yo‘ldan boradilar. “Keng ma‘nodagi, ya‘ni inson hayoti va faoliyatining deyarli barcha sohalarini qamrab oluvchi (ijtimoiy himoya predmeti), va tor ma‘nodagi, ya‘ni ijtimoiy sug‘urta va ijtimoiy yordamni (ijtimoiy himoya mexanizmi sifatidagi) nazarda tutuvchi XMT tomonidan asoslab berilgan xususiyatlarni inobatga oladigan bo‘lsak, ijtimoiy himoya tarkibini aniqlashda bu anchagina keng ko‘lam kasb etadi”. XMT mutaxassislari tor doiradagi ijtimoiy himoya sirasiga ijtimoiy sug‘urta va ijtimoiy yordam choralarini kiritadilar. Ayni damda ijtimoiy himoyaning bu ikki turi o‘rtasida jiddiy farq kuzatilmaydi.

Ijtimoiy-iqtisodiy adabiyotlar tahlili “ijtimoiy himoya” kategoriyasini “xavf-xatar omillari” kabi ta‘riflar bilan to‘ldirishga moyillikni mavjudligini ko‘rsatadi. Shu nuqtayi nazardan yondashganda, “xodimlarning ijtimoiy himoyasi – bu mehnat hissasi, iqtisodiy mustaqillik va tadbirkorlik evaziga shaxsiy va ijtimoiy farovonlikni ta‘minlovchi, ijtimoiy xavf-xatar omillarini yumshatuvchi ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy kafolatlar tizimidir”<sup>38</sup>. Ta‘kidlash joizki, ijtimoiy himoya ijtimoiy xavf-xatarni keltirib chiqaradigan sabablarni aniqlash, ularga ta‘sir o‘tkazish imkoniyatlarini baholash, iqtisodiy rivojlantirishning mazkur bosqichida o‘rinli bo‘lgan xavf-xatar darajasidagi ijtimoiy kafolatlar tizimini shakllantirish va tatbiq etishga xizmat qiladi.

Amaldagi qonunchilikda “ijtimoiy himoya” tushunchasi nisbatan tor ma‘noda ishlatilib, u turmush darajasi sohasida insonning huquq va kafolatlarini ta‘minlashga yo‘naltirilgan siyosatni anglatadi.

<sup>38</sup> Дулясова М.В., Ханнанова Т.Р. Социальная защита работника: жизнь, здоровья, деловая репутация. – М.: Экономика, 2008. – С. 17.

Shu bilan birga, xalqaro amaliyotga murojaat etadigan bo'lsak, aholini ijtimoiy himoyalash tamoyili mehnat staji, sug'urta badallari miqdoridan qat'iy nazar, murakkab hayotiy vaziyatga tushib qolgan har qanday fuqaroga davlat tomonidan (yoki uning nazorati ostida) ta'minlanadigan minimal kafolatlarning qonunchilik yo'li bilan mustahkamlab qo'yilgan bo'ladi. Demak, aholining ijtimoiy himoyasi – bu davlat tomonidan munosib turmushni, ya'ni jamiyat rivojining zamonaviy bosqichidagi standartlarga mos moddiy ta'minot ni va insonning erkin rivojlanishini ta'minlash maqsadida davlat tomonidan kafolatlanadigan va amalga oshiriladigan huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va tashkiliy tavsifdagi chora-tadbirlar majmuasidir.

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish aholining ehtiyojmand qatlamlariga pensiya, nafaqa, imtiyozlar, xizmatlar va nomuntazam beriladigan moddiy yordam orqali beriladi.

Ijtimoiy muhofaza obyektlariga quyidagi guruhlar kiradi:

– pensionerlar. Aholining bu guruhi pul ta'minoti huquqiga ega fuqarolar bo'lib, ularning bu huquqi tegishli qonunchilik hujjatlari asosida amalga oshiriladi. Muayyan pensiya yoshiga yetgan fuqarolar pensionerlar hisoblanadi (erkaklar 60 yosh, ayollar 55 yosh, ayollarga nisbatan ayrim hollar bundan istisno); nogironlikning tegishli guruhi belgilangan shaxslar. Oila boquvchisini qaramog'idagi mehnatga layoqatsiz oila a'zolari, shuningdek, boquvchisidan ajragan bolalarga qarash bilan mashg'ul shaxslar (14 yoshgacha bo'lgan bolalarga) uzoq vaqt muayyan kasbiy faoliyatni bajarib kelgan xodimlarning ayrim toifasi; ichki ishlar idoralarida harbiy xizmatni o'taganlar, ularning oilalari. Shu bilan birga, aholining ushbu toifasiga korxonalar, muassasa, tashkilotda ishlayotgan pensiya oluvchi fuqarolar ham kiradi. Ishlayotgan pensionerlarga keksalik bo'yicha pensiya 100 foiz miqdorida to'lanadi;

– nogironligi bo'lganlar. Aholining bu toifasiga jismoniy yoki aqliy nuqsonlari borligi, turmush faoliyati cheklanganligi munosabati bilan ijtimoiy yordam va himoyaga muhtoj bo'lgan shaxslar kiradi. Bunga uning hayot faoliyatini cheklashga olib kelgan va ijtimoiy himoyaga muhtoj qilib qo'ygan jarohat yoki nuqsonlar, kasalliklar sabab bo'ladi. Organizm funksiyasining buzilish darajasiga bog'liq holda va hayot faoliyati cheklanganligiga ko'ra birinchi, ikkinchi va uchinchi guruh nogironligi belgilanadi. Nogironligi bo'lgan bolalar jismoniy yoki aqliy, sezgi nuqsonlari borligi tufayli turmush faoliyati cheklanganligi

munosabati bilan 18 yoshgacha bo'lgan ijtimoiy yordam va himoyaga muhtoj shaxslardir. 16 yoshgacha bo'lgan bolalarni tibbiy-maslahat komissiyalari tomonidan nogiron deb topish, 16 yoshdan 18 yoshgacha esa – tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi;

– kam ta'minlangan oilalar. Bular daromadi yashash minimumidan yuqori bo'lmagan oilalardir. Kam ta'minlanganlik (kambag'allik) chegarasi mutaxassislar tomonidan me'yoriy iste'mol savatchasidan kelib chiqib belgilanadi. Hozirgi kunda yangi ijtimoiy-iqtisodiy tizimga o'tish munosabati bilan bu chegarani belgilash ancha murakkab masala. Kam ta'minlangan oilalarga ko'p bolali, boquvchisini yo'qotgan, nafaqaxo'r oilalar kiradi;

– ishsizlar. Aholining bu toifasiga ishi va pul topish uchun biror yumushi bo'lmagan mehnatga layoqatli fuqarolar kiradi. Bundaylar aholi bandligi xizmatida ro'yxatdan o'zi uchun mos ish izlash maqsadida turgan bo'lishi va topilganda ishlab keta olishi lozim. Bunda bandlik xizmati yo'nalishi bo'yicha jamoatchilik ishlarini bajarganlik uchun to'langan haq, shuningdek, ishdan ketayotgandagi va korxonadan, muassasadan, tashkilotdan ularning tugatilishi, qayta tashkil etilishi, ishchilar sonining yoki ish o'rinlarining qisqartirilishi bilan bog'liq sabablar tufayli bo'shagan fuqarolar ishsizlar deb tan olinadi. Qachonki qaror bandlik xizmati tomonidan fuqaroning turar-joyi bo'yicha bandlik xizmatiga pasport, mehnat daftarchasi yoki ularning o'rmini bosuvchi hujjatlar, shuningdek, kasbiy malakasini tasdiqlovchi, so'nggi ish joyidan ikki oy mobaynida olgan o'rtacha maoshi haqida ma'lumotnoma, birinchi marta ish izlayotgan hamda kasbga ega bo'lmaganlar pasport yoki ma'lumoti to'g'risidagi hujjatni o'n bir kundan kechikmay taqdim etsalar, bunday holda fuqarolar ishsiz deb tan olinadi<sup>39</sup>.

Yuqorida e'tirof etilgan aholi guruhlari kabi, aholining ijtimoiy muhofaza obyektlari sirasiga:

– homilador ayollar va bola parvarishi bilan bandligi tufayli ishlamayotgan ayollar;

– kasalligi tufayli vaqtincha ishlamayotgan fuqarolar;

– o'quvchi yoshlar;

---

<sup>39</sup> Abdurahmonov Q.X., Abduramonov X.X. "Aholini ijtimoiy muhofaza qilish" O'quv qo'llanma. –T.: Tafakkur bo'stoni, 2010. – B. 20.

– mehnatga layoqasiz kishilarga qarash bilan band bo‘lgan ishlamayotgan

mehnatga layoqatli fuqarolar kiradi.

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tamoyillari muhtoj fuqarolarga ijtimoiy yordam ko‘rsatilishi chog‘ida xalqaro huquq va umuminsoniy me‘yorlariga, shuningdek, milliy qadriyatlarga qat‘iy amal qiladi. Ijtimoiy yordam ko‘rsatish chog‘ida quyidagi tamoyillarga tayaniladi:

– ijtimoiy yordam ko‘rsatishda insonparvarlik qoidalariga amal qilish;

– ijtimoiy adolat;

– ijtimoiy yordam ko‘rsatishni muntazam takomillashtirib borish;

– ijtimoiy yordamning umumiyliigi va hech kimni kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik;

– yordamdan foydalanishning ixtiyoriyiligi;

– ko‘rsatiladigan yordamning turmush kechirish minimumidan kam bo‘lmasligi;

– ijtimoiy yordam ko‘rsatuvchi organlarning o‘z faoliyatlarini oshkoralik va qonuniylik asosida amalga oshirishi;

– ijtimoiy yordam ko‘rsatish maqsadida xususiy va homiylik mablag‘larining keng jalb etilishi;

– ijtimoiy yordam ko‘rsatishga fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlarini keng jalb etish.

Aholiga ijtimoiy yordam ko‘rsatishda tenglik tamoyiliga alohida e‘tibor berilishi lozim. Ya‘ni, ijtimoiy yordam ko‘rsatish chog‘ida fuqaroning jinsi, irqi, millati, tili, dini, e‘tiqodi, yashash joyi, shuningdek, boshqa holatlari e‘tiborga olingan holda, huquqlarining har qanday cheklanishi yoki qonunda bevosita nazarda tutilmagan hollarda afzalliklar berilishi ta‘qiqlanadi. Fuqaro o‘z huquqlari kamsitilgani yuzasidan tegishli davlat idoralariga yoki bevosita sudga belgilangan muddat va tartiblarda murojaat qilishga haqli.

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish davlat ijtimoiy siyosatining asosiy yo‘nalishi va muhim tarkibiy qismi sifatida yuqoridan quyiga tomon yagona tamoyillar asosida tashkil etiladi hamda boshqariladi.

## 5.2. Davlat tushunchasi va uning xususiyatlari

An'anaviy jamiyatlar uchun "davlat" va "jamiyat" asosan mos tushunchalar bo'lsa-da, zamonaviy jamiyatlar, albatta shartli ravishda, davlat va fuqarolik jamiyati kabi qismlarga bo'lib o'rganiladi. Lekin har ikkala holda ham davlatning tabiatini aniqlashda uning umumiyliги yoki universallik xususiyati ta'kidlanadi.

Davlat – umumiy qadriyat. Insonlar bugungi kunda davlat shaklidan boshqa tarzda o'zlarining hamkorlikdagi hayotlarini tashkil eta olmaydilar. Odamlar nazdida davlat nafaqat ularni birlashtirish uchun, balki alohida xalq (millat, jamoa) ning ma'naviy qadriyatlarini saqlash uchun ham zarurdir.

Davlat ega bo'lgan muhim belgi – suverenitetdir. Davlat suvereniteti to'g'risida so'z yuritilganida, jamiyatdagi barcha boshqa jamoa, guruh, tashkilotlar unga nisbatan quyi, tobe vaziyatni egallashi anglashiladi. Muayyan hududda davlat hokimiyatidan ustun hokimiyat yo'q. U barcha hokimiyatlar ustidan suverendir, boshqa barcha hokimiyatlar undan o'z legitimligini oladilar. Shuning uchun davlat suverenitetiquyidagi asosiy tamoyillarga tayanadi:

- hududining birligi va bo'linmasligi;
- hudud chegaralarining dahlsizligi;
- ichki ishlarga aralashmaslik.

Suverenitet ichki va tashqi bo'lishi mumkin. Ichki suverenitet – milliy hududda yashovchi va ushbu davlatning fuqarosi bo'lgan (yoki fuqarosi bo'lmagan) barcha odamlar ustidan hukmronlik qilish huquqi va vakolati. Tashqi suverenitet – mamlakat hududining yaxlitligi va tashqi kuchlarning davlat ichki ishlariga aralashmasligini ta'minlashni anglatadi<sup>40</sup>.

Zamonaviy nazariyalarda davlat suvereniteti cheksizligi g'oyasi o'zgarib, u ijtimoiy tashkilotlar va uyushmalar tomonidan cheklanishi tamoyili kiritildi. Eng ko'p o'zgarishlarga bu tushuncha federativ tuzilishga ega davlatlarda uchraydi.

Davlatning umumiyliги va universalligini ta'minlovchi yana bir muhim xususiyati – qonundir. Ma'lum ma'noda qonun suverenitet ifodasidir. Faqat davlatgina butun jamiyat uchun majburiy qonunlarni

<sup>40</sup> Сисёат назарияси. Дарслик / Г.Х. Юсупова, Х.Ж.Жабборов, Х.Х.Қосимова.– Т.: "Университет", 2003.– Б. 129-130.

ishlab chiqish huquqiga ega. Hokimiyat qonunda va qonun orqali muhim o'zgarishlarga uchraydi: u o'zboshimchalik va zulmdan – hamma uchun majburiy qoidaga aylanadi.

Qonun davlatdan ustun turadi, uning faoliyatini me'yorga soladi. Ammo har doim ham shunday bo'lgan emas. Qadimgi davrlarda qonun siyosiy hokimiyatni ifodalari edi (legislarni eslang), keyinroq qonun hech kim o'zgartira olmaydigan an'anaga aylandi. Bir qator muhim g'oyalari bilan davlatchilik taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan olim Monteskye: "inson jamiyat qabul qilgan qarorlarni bajarishi lozim" degan aqidani, "inson ham, jamiyat ham qonunlarni bajarishlari lozim", degan aqidaga o'zgartirdi.

Shu tariqa birinchi bor, inson qo'liga uni jamiyat, davlat zo'ra-vonligidan himoya etuvchi qurol – qonun berildi.

Qonun – jamiyat hayotini tartibga soluvchi, barqarorlashtiruvchi vositaga aylanadi.

Davlatning yana bir belgisi – uning ommaviy hokimiyatga, ya'ni muayyan ma'muriy-boshqaruv apparati va huquqiy-tartibot organlariga tayanishdir.

Davlat – kuch, zo'ra-vonlik ishlatishning legitim huquqiga ega yagona siyosiy tashkilotdir. Buning uchun u maxsus vositalar (qurol, qamoqxonalar kabi) va maxsus organlar (armiya, militsiya, xavfsizlik xizmati, sud, prokuratura)ga ega.

Davlat – fuqorolik institutiga tayanadi. Bu uning yana bir belgisi bo'lib, u fuqarolik xatti-harakatlarini ularning ijtimoiy, diniy, malakaviy yoki boshqa sifatlaridan qat'iy nazar, umumiy o'lchov bilan baholaydi.

Davlat fuqarolar bilan ish ko'radi, ular manfaatlari, huquqi va erkinliklarini amalga oshirishi uchun sharoit yaratadi.

Davlat o'z tabiati va belgilaridan kelib chiqib, jamiyat oldida turgan masalalarni hal qilish borasida muayyan yo'nalishlarda faoliyat ko'rsatadi. Uning bu faoliyati boshqa siyosiy institutlarining faoliyatidan ajralib turadi. Xususan, davlat ichki va tashqi funksiyalarini bajaradi.

### **Davlatning ichki funksiyalariga quyidagilar kiradi:**

**1.Siyosiy funksiya** siyosiy barqarorlikni ta'minlash, siyosiy rivojlanish istiqbollarini ishlab chiqishda namoyon bo'ladi. Ko'plab empirik tadqiqotlarning ko'rsatishicha, jamiyat singari murakkab tizimlarda siyosiy deyarli barcha jarayonlar va holatlar mohiyatini tashkil etadi, barcha odamlar manfaatlariga ta'sir ko'rsatadi. Hozirgi dunyoning murakkab, ixtilofli muammolarini faqat texnologik

yangiliklar yoki iqtisodiy vositalar yordamida hal qilish mumkin emas. Zamonaviy jamiyatlarning murakkab ichki tuzilishi va manfaatlarining nihoyatda xilma-xilligi sharoitida aynan siyosat sohasida institutsionallashtirilgan kelishuvlar mavjudligini taqozo etadi. Siyosat, birinchi navbatda, davlat siyosati, zamon talablariga muvofiq ravishda zarur yondoshuvlarni ishlab chiqadi, turli ijtimoiy-iqtisodiy strategiyalardan barcha ijtimoiy sinflar va guruhlarning manfaatlarini eng maqbul tarzda muvofiqlashtiruvchi va ularni umummilliy manfaatlariga bo'ysundiruvchi strategiyani tanlaydi. Davlat oliy birlashtiruvchi kuch sifatida jamiyatda mavjud siyosiy muloqotning timsoli bo'lib chiqadi hamda barqarorlik va tartibning rivojlanish kafoloti vazifasini bajaradi;

Davlat – jamiyat miqyosida manfaatlarni amalga oshirish, ularni muvofiqlashtirish, ixtiloflarning oldini olish yoki ularni bartaraf etish uchun mo'ljallangan maxsus tashkilotlar, muassasalar, devon va ular faoliyatini amalga oshirish va nazorat qilish mexanizmlariga ega. Aslida ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi tashkilot sifatida vujudga kelgan davlatning siyosiy funksiyalari ortib borayotganligini va u tobora siyosiy tashkilotga aylanib borayotganligini amerikalik sotsiolog T.Parsons XX asrning 70 – yillaridayoq qayd etib o'tgan.

**2. Davlatning iqtisodiy funksiyasi** iqtisodiy jarayonlarni soliq va kredit siyosati, iqtisodiy o'sish sharoitlarini yaratish yoki jazo choralarini qo'llash vositasida tartibga solishida namoyon bo'ladi. Davlatning iqtisodga aralashuvi me'yoriy va pozitiv tahlil qilinadi. Me'yoriy yondoshuv mamlakatda amal qilayotgan siyosiy tartib bilan belgilanadi va hukumat fuqarolarning farovonligini oshirish uchun nima qilishi kerakligini belgilab beradi. Pozitiv yondoshuv hukumatlarning amaliy xatti-harakatlarini tahlil qiladi.

XX asrda ko'p mamlakatlarda davlatiqtisodiy funksiyasining kengayishi kuzatildi. Sanoati rivojlangan mamlakatlarda davlatning yalpi ichki mahsulotdagi umumiy ulushi o'rta hisobda 1913 yildagi 12foiz dan 1995 yilda 45, ga o'sdi. Ammo XXI asr boshlarida ko'plab davlatlar siyosatida yana "ortga qaytish" ro'y berganligi, davlatlar o'zlarining iqtisodga aralashuvlarini cheklashga harakat qilayotganligi yorqin namoyon bo'ldi.

**3. Ijtimoiy funktsiya:** odamlarning mehnat qilish, turar joy, sog'liqni saqlash kabi extiyojlarining davlat tomonidan qondirilishi; keksalar, nogironlar, ishsizlar, yoshlar uchun ijtimoiy kafolatlar

tizimining mavjudligi; hayot, mulk va sog'liqni sug'urta qilish bilan bog'liq vazifalar.

Barchamizga ma'lumki, liberal G'arb davlatlari bu vazifani keng ko'lamda faqat XX asrning o'rtalariga kelib bajara boshladi. Ammo, ijtimoiy himoya tamoyili davlat haqidagi eng qadimgi tamoyillarda (jumladan, paternalistik tamoyillarda) mavjud bo'lib kelgan. U asrlar davomida davlatning asosiy vazifalaridan biri bo'lgan. Shu bilan birga, g'arb mamlakatlarida an'anaviy ijtimoiy institutlar (oila, mahalla) mazmun-mohiyatidagi o'zgarishlar G'arb davlatchiligi bilan Sharq davlatchiligida mavjud muammolarning bir-biriga o'xshamasligini keltirib chiqaradi.

**4. Huquqiy funksiya:** huquq-tartibotni ta'minlash, huquqiy me'yorlarni joriy etish, jamiyatni ichki va tashqi xavfdan himoya qilish (ekstremizm, terrorizm).

Ushbu funksiya har qanday davlatning, ayniqsa, Sharq davlatining eng muhim jihatini tashkil etadi. Azaldan davlatda huquq – adolat tayanchi, mezoni va kafolati sifatida qaraladi. Hukumatga iqtisodiy va boshqa xatolarini surunkasiga kechirib kelgan fuqarolar, davlatga huquq, tartib, adolat, fuqarolarni shaxsiy va mulkiy xavfsizligiga jiddiy xavf tug'dirgan vaziyatlarni kechirmaydi.

**5. Madaniy-tarbiyaviy funksiya** aholining ma'naviy, ma'rifiy, madaniy o'sishini ta'minlash, ular uchun ijod qilish imkoniyatlarini yaratishda namoyon bo'ladi.

**6. Ekologik funksiya** – davlat o'z zimmasiga tabiatni asrash, o'z fuqarolari uchun munosib, sog'lom yashash muhitini ta'minlash majburiyatini oladi. Faqat davlatgina vujudga kelgan ekologik muammolarni nazorat qilish, bartaraf etish vazifasini bajara oladi. Bugungi kunda jahonda vujudga kelgan ekologik muvozanatni saqlab qolish umumjahon hamjamiyatining vazifasi ekanligini barchamiz yaxshi bilamiz.

Davlatning tashqi funksiyasi – mamlakatni tashqi xavfdan himoya qilish, boshqa davlatlar bilan o'zaro foydali ko'p tomonlama munosabatlarni o'rnatish va rivojlantirishdan iborat.

Davlat qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud, armiya va huquqni muhofaza qiluvchi organlardan tashkil topgan. Davlatlarni turkumlashning yana bir nechta usuli mavjud: Oliy hokimiyatni tashkil etish usuli bo'yicha davlatlar monarxiya va respublikaga bo'linadi. O'z navbatida, monarxiyalar bo'linishi quyidagicha: a) absolut monarxiya -

siyosiy hokimiyat to'raligicha bir shaxs – monarx qo'lida to'plangan bo'ladi (Saudiya Arabistoni, Qatar, Ummon); b) konstitutsion monarxiya: monarx hokimiyati Konstitutsiya bilan cheklangan, qonun chiqarish vazifasi parlamentga; ijro etish vazifasi – hukumatga berilgan (G'arbiy Yevropa monarxiyalari).

Respublikalarning ham parlamentar, prezidentlik va aralash shakllari mavjud. Parlamentar respublikalarda saylovlarda g'olib chiqqan partiya vakillaridan hukumat tuziladi va u parlament oldida mas'ul hisoblanadi. Bunday respublikalar hozirgi davrda Italiya, Germaniya, Hindiston, Avstriya, Shveysariya, Turkiya v.b. kabi qator mamlakatlarda mavjud. Parlament respublikasida parlament – davlatda markaziy o'rinni egallaydi. Tabaqaviy vakillik organi sifatida u Angliyada XIII asrda paydo bo'lgan bo'lsa-da, davlat hokimiyatining mustaqil, qonunchilik va vakillik tashkiloti sifatida, zamonaviy mohiyatida XVII – XIX asrlarda shakllanib bo'lgan va hozirgi kunda parlament demokratik siyosiy tizimlarning ajralmas tarkibiy va funksional elementidir.

Parlamentlar bir yoki ikki palatali bo'ladi. Ikki palatali parlamentning quyi palatasi va bir palatali parlament to'g'ridan-to'g'ri saylovlar natijasida shakllanadi. Yuqori palatalar esa turlicha tashkil topishi mumkin: AQSHda, Italiyada to'g'ridan-to'g'ri saylovlar natijasida; GFR, Hindiston, Rossiyada – bevosita saylovlar yo'li bilan; Buyuk Britaniya, Kanadada yuqori palataning a'zolari vorislik yoki tayinlash natijasida o'z o'rinlarini egallaydilar (hozirgi kunda Buyuk Britaniyada ana shu qoidani qayta ko'rib chiqish masalasi hal etilmoqda).

Parlament a'zolarining mustaqilligi masalasi alohida ahamiyatga ega. Parlament a'zolari xalq tomonidan to'g'ridan-to'g'ri saylanishining o'zi ularning mustaqilligini ta'minlaydi.

Prezidentlik respublikalarida odatda prezident ayni vaqtda hukumat boshlig'i vazifasini ham bajaradi. Qonun chiqaruvchi organ parlament – alohida saylovlar natijasida, prezident – alohida saylovlar natijasida shakllanib, ular bir-birlaridan mustaqildir. Tarixan boshqaruvning bu shakli AQSH Konstitutsiyasi asosida 1787 yilda kiritilgan.

Prezidentlik instituti. Respublikamizda prezidentlik institutining kiritilishi va unda prezidentlik respublikasi boshqaruvining qaror topishi prezidentlik institutiga, turli siyosiy tizimlarda uning amal qilish xususiyatlariga e'tiborni kuchaytirdi. Shuni ta'kidlash lozimki,

prezident (lot. – “oldida o‘tiruvchi” ) lavozimi tarixda birinchi bor AQSHda davlat va hukumat boshlig‘i lavozimlarini bir shaxsda mujassamlashtirish natijasida vujudga keldi. Aynan xuddi shu yerda davlat boshlig‘ini umumiy saylovlar orqali saylash an‘anasi kiritildi. Hozirgi kunda prezident – ko‘pgina siyosiy tizimlarning ajralmas qismi. Ammo har bir davlat o‘z prezidentining siyosiy hayotdagi o‘rnini o‘zi belgilaydi. Prezidentning siyosiy tizimdagi o‘rni odatda Konstitutsiyada belgilab beriladi. Konstitutsiya Prezidentning maqomini belgilash bilan birga, odatda, unga xos ma‘naviy-siyosiy va fuqarolik majburiyatlarini qayd etib o‘tadi. Odatda davlat rahbari Konstitutsiya va qonunlarga so‘zsiz rioya etishi talab etiladi. Ayrim davlatlarning Konstitutsiyalari prezidentga jamiyatdagi turli kuchlarni birlashtiruvchi hakam vazifasini topshiradi.

Ko‘pgina mamlakatlar o‘z konstitutsion me‘yorlarida prezident ayrim guruhlarning emas, balki butun jamiyat manfaatlaridan kelib chiqib faoliyat ko‘rsatishi lozimligini belgilab qo‘ygan.

Prezidentlikka saylashning ikki yo‘li mavjud: to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita saylovlar. O‘z navbatida to‘g‘ridan-to‘g‘ri prezidentlik saylovlari umumiy saylovlar yoki referendumlar ko‘rinishida kechishi mumkin. Bilvosita prezidentlik saylovlari uch xil ko‘rinishga ega:

- 1) prezidentni parlament saylaydi;
- 2) parlament va shtat, viloyat, turli siyosiy kuchlar vakillari saylaydi;
- 3) saylovchilar kollegiyasi (hay‘ati) saylaydi.

Odatda, prezidentlikka nomzodlarning aksariyati yoki partiya yetakchilari, yoki partiyalar ilgari surgan nomzodlardir. Chunki aynan partiyalar saylovchilar bilan ishlash texnologiyalarini mukammal o‘zlashtirganliklari sababli g‘alaba qozonishning ham eng ko‘p imkoniyatlariga egalar. Lekin demokratik davlatlarda mustaqil nomzodlar ham saylovda faol ishtirok etishlari mumkin.

Ko‘p mamlakatlarning Konstitutsiyalarida prezidentlik muddati alohida ko‘rib chiqiladi. Odatda bu muddat 4 yoki 5 yilni tashkil etadi. Prezidentni 1 yilga saylash (Shveysariya) yoki umrbod saylash (jumladan, Afrika, Osiyo mamlakatlari) tajribasi ham uchraydi.

Prezidentlikka nomzod shaxs uchun konstitutsion va me‘yoriy qoidalar mavjud. Deyarli barcha mamlakatlarning Konstitutsiyalariga prezidentlikka nomzod shaxs o‘z mamlakatining fuqarosi bo‘lishi lozimligini talab etuvchi, turg‘unlik senzi tushunchasi kiritilgan.

Jumladan, AQSH prezidenti mamlakatda 14 yildan kam bo‘lmagan muddat yashagan bo‘lishi kerak. Meksikada bu muddat 1 yil qilib belgilangan. Bizda esa prezidentlikka nomzod shaxs mamlakat hududida kamida 10 yil yashagan bo‘lishi talab etiladi.

Ko‘pchilik mamlakatlarda prezidentlikka nomzodlar harbiy xizmatga aloqador bo‘lmasligi talab etiladi. Nomzodlarning yoshiga qo‘yiladigan talablar minimal yosh chegarasini belgilash bilan cheklanadi. Odatda bu 35 yosh. Maksimal yosh belgilanmaydi.

Prezidentlik saylovlarida g‘olib chiqqan nomzodning o‘z lavozimiga o‘tishining ikki yo‘li mavjud. Prezident umummilliy saylovlar orqali saylanganida 1 oydan (O‘zbekiston) 3 oygacha (AQSH) o‘tgan muddatda avvalgi rahbariyat ishining yakunlanishi va yangi prezidentning lavozimni qabul qilishi bilan bog‘liq bo‘lgan o‘tish davri mavjud. Bu davrda yangi saylangan prezident davlat va hukumat boshlig‘i vakolatlariga ega bo‘lmagan holda, yangi hukumatni tuzishga oid tashkiliy masalalarni hal qiladi.

Prezidentlik respublikalarida partiyalar va prezident o‘rtasidagi munosabat o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Prezidentlikning turli modellarida u turlicha namoyon bo‘ladi. Osiyo-Afrika modellarida prezident ayni vaqtda hukmron partiya rahbari hamdir. Amerika modelida prezident o‘z partiyasida ancha mustaqil bo‘lsa, O‘zbekistonda prezident partiyalar, ittifoqlar, harakatlardan yuqori turadi va butun jamiyat manfaatini ifodalaydi.

Prezidentning davlat apparatini boshqarishdagi o‘rni, roli va vakolatlari davlat hokimiyati tizimi bilan belgilanadi.

Aralash turdagi respublikalarda kuchli prezident hokimiyati parlamentning hukumatni kuchli nazorat qila olishi bilan to‘ldiriladi. Ya‘ni, hukumat ham prezidentga, ham parlamentga bo‘ysunadi. Bunday respublikalar Avstriya, Irlandiya, Portugaliya, Polsha, Finlandiya, Fransiya, Bolgariyada amal qiladi. Aralash turdagi respublikalar barqaror belgilarga ega emas va saylov natijalariga ko‘ra, u prezidentlik yoki parlament respublikasi shakliga oson o‘ta oladi.

Davlatlarning ma‘muriy-hududiy tashkil topishiga ko‘ra bo‘linishi. Siyosat nazariyasida ma‘muriy-hududiy bo‘linish haqida gap ketganda, davlat hokimiyati-ning munosabat tamoyillari va mexanizmlari nazarda tutiladi. Amalda bu tamoyillar unitarizm, federalizm, konfederatsiyalarda o‘z aksini topadi.

Aksariyat davlatlar unitar tashkilot sifatida vujudga kelgan. Ularda umummilliy va mahalliy boshqaruv darajalari mavjud. Unitar davlat demokratik yoki avtoritar, monarxiya yoki respublika bo'lishidan qat'iy nazar, hokimiyat va sudning yagona tizimi, yagona huquqiy va konstitutsion me'yorlar bilan belgilanadi. Barcha boshqaruv tashkilotlari, pastdan yuqorigacha markaziy hokimiyatga bo'ysunadi va ma'muriy bo'limlar hisoblanadi. Bir qator unitar davlatlarda ba'zi hududlar ma'muriy mustaqillikka egadirlar (XXR, Buyuk Britaniya, Italiya).

Unitar davlatlar rivojlanishida keyingi yillarda ko'zga tashlanayotgan muhim belgilar, birinchidan, mahalliy hokimiyatlar imtiyozlarining ko'payishi bo'lsa, (Italiya, Fransiya, Buyuk Britaniya); ikkinchidan, ba'zi ko'p millatli, lekin unitar davlatlarning federatsiyaga o'sib o'tishidir. Jumladan, unitar Ispaniya 1978 yilgi Konstitutsiyasi qabul qilinganidan so'ng federatsiyaga qarab rivojlanmoqda: Basklar mamlakati, Kataloniya, Galitsiya, Andalussiyalar avtonomiyaga ega bo'ldi. Belgiya 30 yil (1962 – 1993) ichida federatsiyaga aylandi.

Federatsiya – bir nechta yoki ko'p davlatlardan tarkib topgan davlatlar ittifoqidir. Federatsiya ijtimoiy hayotning iqtisodiy va siyosiy birligini ta'minlagani holda, boshqa sohalarda nisbatan mustaqillikni anglatadi. Federativ tuzilish eng ko'p munozaralarga sabab bo'lgan va hali tugal ishlab chiqilmagan nazariyadir. Undagi markaziy va eng murakkab masala – suverenitet masalasidir. U hozirgi vaqtda. Meksika, Nigeriya, AQSH, Germaniya, Rossiya kabi davlatlar federatsiyalar hisoblanadi.

Konfederatsiya – mustqil davlatlar ittifoqi bo'lib, har biri deyarli to'la ko'lamda o'zining asosiy, belgilovchi huquqlarini va hokimiyatni saqlab qoladi. Shuning uchun markaziy hokimiyat konfederatsiya a'zolaridan u yoki bu Jumladani hal qilish uchun izn so'raydi va ular markaziy hokimiyatga qanday ko'lamda vakolatlar berishni hal qiladi. AQSH mustaqil deb e'lon qilinganidan (1776) to konstitutsiya qabul qilingunga qadar (1787), aniqrog'i u amal qila boshlaguncha (1789) konfederatsiya edi. 1815–1867 yillardagi Germaniya Ittifoqi – konfederatsiya edi. Shveysariya konfederatsiyasi 1291 yilda Shved, Uri, Unterval d qonunlarining ittifoqi sifatida vujudga keldi va XIX asr o'rtalarigacha shunday bo'lgan, hozir esa ko'proq federatsiya belgilariga ega.

Ma'muriy apparat (devon) – davlat institutlarini vertikal va gorizontal bo'yicha bir butun qilib birlashtiruvchi asosdir. Davlat ma'muriy apparati hukumat bilan birgalikda turli vazirliklar, idoralar, maxsus qo'mita va komissiyalarning ulkan va qudratli tizimidir. Davlat ma'muriy apparati – shaxssiz hokimiyatning mutlaqo yangi turi – zamonaviy byurokratik davlatni keltirib chiqardi.

Byurokatiya – zamonaviy siyosiy tizimlarning ajralmas qismiga aylandi, qiyida uning M.Veberning fikriga ko'ra belgilari keltiriladi:

1) o'zaro itoat va mas'uliyat ierarxiyasi; 2) shaxssizlik, ya'ni faoliyatning aniq belgilangan me'yorlar va qoidalarga asosan olib borilishi; 3) doimiylik – xizmatda ko'tarilish va imtiyozlarga ega bo'lish kafolati asosida faoliyatning uzluksizligi; 4) yuqori malakaviy bilim va tajribaga ega bo'lish<sup>41</sup>.

Oliy hokimiyatdan farqli o'laroq, devon saylovlar va o'zgarishlar natijalariga bog'liq emas. Amaldorlar o'z ishlarini hukumat inqirozlari, parlament tarqatib yuborilishi, muddatidan avvalgi saylov b.h. holatlarda ham davom ettiraveradi. Byurokatiya bilan bog'liq ijobiy tomonlar (samaradorlik, professionalizm, intizom, tezkorlik) va salbiy tomonlar (davlat ma'muriy apparatining doimo o'sishga intilishi (Pareto qoidasiga ko'ra, 20foiz xodimlar 80foiz foydali ishni bajaradi); amalda qarorlar ishlab chiqish vakolatiga ega noiblar emas, ularning yordamchilari qo'liga o'tib ketgani; uyushgan qatlam sifatida byurokatiya davlat qarorlari bajarilishiga halal bera olishi, ularni buzib talqin eta olishi, o'z manfaatiga moslashtira ola bilishi) muayyan va turli davlatlar faoliyatida ular doimo hisobga olib kelinadi.

### **5.3. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish mexanizmi va yo'nalishlari**

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimi – bu moddiy yordam ko'rsatish maqsadida aholining turli ijtimoiy-demografik va kasb guruhlari, shuningdek, davlat uchun alohida xizmat ko'rsatgan fuqarolarga taqdim etiladigan ijtimoiy pensiya, nafaqa, kompensatsiya, subsidiya (pul ko'rinishida beriladigan yordam) va imtiyozlar tizimidir.

Ijtimoiy nafaqalar – bu beg'araz tarzda vaqtinchalik yoki doimiy ravishda aniq shaxs yoki shaxslar guruhiga ma'lum miqdorda pul

---

<sup>41</sup> Abdurahmonov Q.X., Abduramonov X.X. "Aholini ijtimoiy muhofaza qilish" O'quv qo'llanma. – T.: Tafakkur bo'stoni, 2010. – B. 138.

shaklida beriladigan to'lovdir. Imtiyoz bir shaxs yoki shaxslar guruhiga vaqtinchalik yoki doimiy tarzda ma'lum pul yoki natura shaklida taqdim etiladi. Kompensatsiya aniq shaxs yoki shaxslar guruhiga qonunchilikda qayd etilgan maqsadlarga sarflagan xarajatlarini to'liq yoki qisman qoplashdir. Subsidiya esa fuqarolarga taqdim etiladigan moddiy qulaylik va sharoitlar uchun (to'liq yoki qisman) ma'lum maqsaddagi to'lovlardir.

Ijtimoiy yordam ham ijtimoiy, ham kasbiy ko'rsatkichlarga ko'ra taqdim etiladi. Hozirgi davrda ijtimoiy ko'rsatkichlarga ko'ra, urush qatnashchilari, nogironlarning turli toifalari, ko'p bolali oilalar, yolg'iz keksalar, yosh oilalar, kam ta'minlangan, boquvchisini yo'qotgan oilalar, surunkali kasalliklarga chalingan fuqarolarga yordam ko'rsatiladi. Kasb ko'rsatkichlariga ko'ra imtiyozlar huquqi og'ir jismoniy va sanitar-gigienik me'yorlarga javob bermaydigan hamda shunga o'xshash mehnat sharoitida band bo'lgan fuqarolarga taqdim etiladi.

Ijtimoiy nafaqa, kompensatsiya, subsidiya va imtiyozlar qo'llanilish yo'nalishlariga ko'ra quyidagicha tasniflanadi:

– turar-joy maishiy xizmat: turar-joy kommunal xizmatlari, telefon o'rnatish va undan foydalanish, qurilish, uy-joy sotib olish va ta'mirlash, yoqilg'i bilan ta'minlash va boshqalar uchun imtiyozlar;

– transport xizmatlari: shahar, shahar atrofi va shaharlararo transportda yurish, transport vositalari bilan ta'minlash bo'yicha imtiyozlar hamda benzin sarfining kompensatsiyalanishi va boshqalar;

– tibbiy xizmat: tibbiy asbob, dorilar bilan bepul ta'minlash, sihatgoh-kurort xizmati;

– bolalarni ta'minlash: ovqatlanishini (nonushta, tushlik) tashkil etish, maktab va sport kiyimi bilan ta'minlash, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun tarbiya muassasalari, yozgi ta'til oromgohlari va boshqalarga pul to'lashdagi imtiyozlar;

– davlat ijtimoiy xizmati tizimida keksalar, nogironlar, kasallik tufayli mehnatga layoqatsizlar, shuningdek, qiyin ahvolda qolgan fuqarolar va voyaga yetmaganlarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish.

Aholiga ijtimoiy yordamni taqdim etish quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

– pul to'lovlari (ijtimoiy pensiya, nafaqa, kompensatsiya, subsidiya va boshqalar);

– natural yordam (oziq-ovqat mahsulotlari, zarur sanoat tovarlari, yoqilg‘i va boshqalar);

– imtiyozlar (turar-joy, kommunal, transport va boshqa xizmatlarida)<sup>42</sup>.

Aytish joizki, aholini ijtimoiy muhofaza qilishning samarali tizimini faqatgina uning turlari hamda ko‘p subyektli tashkiliy-huquqiy shakllarini uyg‘unlashtirish, undagi ishchi, ish beruvchi va fuqarolar (fuqarolik jamiyatidagi o‘zini-o‘zi boshqarish tuzilmalarini tashkil etgan), shuningdek, davlat hokimiyati organlarining faol va mas‘uliyatli ishtiroklari asosida shakllantirish mumkin. Ijtimoiy muhofazaning shaxsiy o‘zini-o‘zi himoyalash, ijtimoiy xayriya tadbirlari, ijtimoiy hamjihatlik, davlat ijtimoiy ta‘minoti va yordami, ijtimoiy himoyaning firma tizimlari kabi shakllari mavjud. Bu shakllar tashkillashtirish tamoyillari, to‘lov va xizmat turlari, moliyaviy manbalari hamda huquqiy ta‘minoti bo‘yicha farqlanadi.

Tabiiyki, aksariyat fuqarolarga ijtimoiy to‘lovlar va imtiyozlar ularning moddiy holatlarini yaxshilash maqsadida taqdim etiladi. Amaldagi aholiga ijtimoiy yordam ko‘rsatish tizimi turli ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy omillar ta‘sirida shakllanib kelgan.

Oldingi yillardagi kam miqdordagi oylik maoshi turli ijtimoiy to‘lov va imtiyozlar ko‘rinishidagi qo‘shimcha kompensatsiyalar kiritilishini taqozo etardi va ular aholiga ijtimoiy iste‘mol jamg‘armalari hisobidan asosan bir xil tarzda to‘lanishi nazarda tutilgan.

Moliya tanqisligi sharoitlarida ijtimoiy yordam kam miqdorda ajratilishi va vaqtda yetkazilib berilmasligi bilan sharhlanadi. Hozirgi vaqtda yordam oluvchilarning daromad miqdori faqat turar-joy subsidiyasi, bolalar uchun har oy beriladigan pul va kam ta‘minlangan fuqarolarga ijtimoiy yordam ko‘rsatilishi belgilanayotganida e‘tiborga olinmoqda. Qonunga ko‘ra, kam ta‘minlanganlarga yordam ularning arizasi asosida o‘sha vaqtdanoq yoki uch oygacha muddatdan kam bo‘lmagan davrda berilishi lozim. Arizada oila tarkibi, daromadi va mulki haqidagi ma‘lumotlar yashash minimumi ko‘rsatkichlari yig‘indisi va oila a‘zolarining umumiy daromadlari o‘rtasidagi farqdan kelib chiqib, mazkur farq doirasida belgilanadi. Yordam puli to‘lovlari shaklida (ijtimoiy nafaqa, subsidiya, kompensatsiya) hamda natural shaklda (yoqilg‘i, oziq-ovqat, kiyim, poyabzal, tibbiy vositalar) bo‘ladi.

---

<sup>42</sup> Abdurahmonov Q.X., Abduramonov X.X. “Aholini ijtimoiy muhofaza qilish” O‘quv qo‘llanma. – T.: Tafakkur bo‘stoni, 2010. – B. 22.

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimining asosini umumiy ijtimoiy transfertlar, mahsulot va tovarlarga bo'lgan subsidiya va xizmatlar, shuningdek, toifalarga doir imtiyozlar tashkil etsa-da, u eng kam ta'minlangan aholi qatlamlariga resurslar ajratilishini ta'minlay olmayotgani kuzatilgan, buning sababi esa – aniq manzillilikning yo'qligidir.

Manzillilik tamoyiliga ko'ra, ijtimoiy to'lov va imtiyozlar ijtimoiy siyosat nuqtayi nazaridan ularga muhtoj aholi guruhiga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Hozirgi davrda ijtimoiy siyosatning asosiy maqsadi nochorlikka qarshi kurashish ekani bois, manzil guruhi – bu kam ta'minlangan aholi tabaqalaridir.

Shu o'rinda aholini manzilli ijtimoiy muhofaza qilish tizimining mohiyatini tushunib o'sak. Aholini manzilli ijtimoiy muhofaza qilish – bu aholining, asosan, muhtoj va kambag'al qatlamlarini ijtimoiy va moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tizimdir.

Baho berish usullariga ko'ra, nochorlik mutlaq va nisbiy nochorlik kabi turlarga ajratiladi. Kambag'allikning umum e'tirof etilgan tamoyili sifatida jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha daromad hamda yashash minimumi o'rtasidagi mutanosiblik olinadi. O'rtacha jon boshiga to'g'ri keladigan daromad yashash minimumidan kam bo'lgan oila kam ta'minlangan hisoblanadi va davlat ijtimoiy yordamini olishga haqli.

Kambag'allikni baholashga bo'lgan nisbiy yondoshuv nochorlik chegarasini ma'lum iste'mol darajasida belgilashni nazarda tutadi. Nisbiy yondoshuvda subyektiv baholash usuli ham qo'llaniladi, unga ko'ra, o'zining avvaligi yoki daromadi ko'proq bo'lgan boshqa guruhlar holati bilan taqqoslash olib boriladi. Yashash davomiyligiga ko'ra, kambag'allikda nochorlikning turg'unlik va vaqtinchalik shakllari mavjud.

Vaqtinchalik kambag'allik unda faqat ma'lum davrlar davomida bo'lib, uning natijasida turmush darajasi hamda moddiy holatini yaxshilanishi sodir bo'lmaydi. Uzoq kambag'allik ko'pincha hayot tarzidagi og'ir o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lib, kambag'allikning anchagacha saqlanib qolishi, hatto keyingi avlodlarga o'tishi mumkinligini ham anglatadi.

Mamlakatda kambag'allik darajasining asosiy ko'rsatkichlari sifatida yashash minimumidan past darajada yashovchi aholi soni va salmog'i olinadi.

Jahon tajribasining ko'rsatishicha, tub ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar davrlarida, odatda turmush darajasining pasayishi va kambag'allikning tarqalishi yuz beradi. Dunyoning qator mamlakatlarida kambag'allarning yangi toifalari mavjud. Bular ishchan, biroq o'zi va oilasi uchun jamiyatda qabul qilingan normal farovonlik darajasini ta'minlay olmaydigan ishchilar. Xususan, hozirgi davrda korxonalar va tashkilotlarda ishlovchilarning taxminan 40,0 foizida oylik maoshi miqdori yashash minimumidan kam. Budjet sohasida ishlovchilarning aksariyati ham kam ta'minlangan. Bu guruh sirasiga noto'liq band bo'lganidan ishlashga majbur bo'lganlar hamda muntazam ravishda maosh to'lamaydigan korxonalar ishchilari va ishsizlar ham kiradi.

Va nihoyat, bugungi kunda kambag'allik guruhiga kirmagan, biroq unga tushish ehtimoli katta bo'lgan aholi guruhining shakllanishi kengaymoqda. Bu ishsiz qolish xavfi baland bo'lgan, shuningdek, ba'zan uchrab turadigan qo'shimcha ishlar yoki qarindoshlari yordami tufayli kambag'allikka tushib qolmayotgan shaxslar.

Mehnatga layoqatli aholi kambag'alligini bartaraf etish tamoyili tamoyili eng avvalo faol uslublardan foydalanish, jumladan, daromadlarini oylik maoshini oshirish, uni muntazam to'lab borish, aholi bandligi dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun sharoitlar yaratishga qaratilgan.

Shuningdek, iqtisodiy faol aholi kambag'alligini bartaraf etish uchun bandlikning faol siyosatini olib borish, ishsizlikni bartaraf etish, mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lmagan aholi guruhini ish bilan ta'minlash, korxonalardan bo'shatib yuborilgan ishchilarning qayta o'qishi, ular va boshqa fuqarolarga kasbiy yo'nalishini o'zgartirishga imkoniyatlar yaratish lozimdir. Kambag'allik ko'lamini qisqartirishning zarur shartlaridan biri – bu mazkur toifadagi aholiga yordam pulini to'lash sharoitlari va tartibini aniqlashtirishdir.

Aholining ijtimoiy jihatdan sust bo'lgan obyektiv sabablarga ko'ra, o'zini-o'zi ta'minlay olmaydigan qatlamlariga aniq yordam kerak, ya'ni bu borada ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning manzilli tizimini yaratish zarur. Qo'yilgan Jumladani muvaffaqiyatli hal etish uchun ijtimoiy yordam puli, kompensatsiya va imtiyozlarni bosqichma-bosqich tarzda aholiga manzilli ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimiga o'tkazish lozim.

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ma'lum bir iqtisodiy mexanizm orqali amalga oshiriladi. Bu

mexanizm qiyin iqtisodiy ahvolga tushib qolgan aholi qatlamini normal turmush darajasi bilan ta'minlashni nazarda tutadi. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish mexanizmi – bu me'yoriy hujjatlar asosida aholini ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlashni tashkil etishda qo'llaniladigan usullar majmuidir.

Aholini ijtimoiy muhofaza qilishni tizim ko'rinishida tasavvur etish o'rganilayotgan obyektning ko'p qismli, bir-biri bilan o'zaro aloqadorlikda ekanligini ko'rish imkonini beradi.

Ijtimoiy muhofaza qilish jarayonida tutgan o'rniga qarab individ (har bir mustaqil tirik organizm)ning ikki xil tabiatligini, bir tomondan, uni himoya objekti, ikkinchi tomondan esa himoya subyekti sifatida ko'ramiz. Agar individ himoyani passiv qabul qiluvchi sifatida ishtirok esa, unga himoyaning objekti sifatida qaraymiz, agar individ faol ishtirokchisi bo'lsa, jumladan: bozorning salbiy ta'sirlaridan himoyalani uchun inson tomonidan muayyan harakatlar qilinsa, u to'laqonli ravishda ijtimoiy himoya subyekti hisoblanadi.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimi to'rtta mustaqil turga bo'linadi.

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimi:

1. Ijtimoiy xizmat ko'rsatish.
2. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash
3. Ijtimoiy ta'minot
4. Ijtimoiy sug'urta.

Aholining samarali ijtimoiy himoyasi davlatning tartibga solish funksiyasi bilan bevosita bog'liq. Davlatning tartibga solish funksiyasi deganda, jamiyatning har bir fuqarosi uchun o'z qobiliyatlarini rivojlantirish va namoyon etish (mehnat, tadbirkorlik, shaxs sifatidagi qobiliyati) uchun zarur bo'lgan minimal sharoitlarni yaratish, bu kabi qobiliyat yo'qotilganda esa munosib turmush darajasini ta'minlab beruvchi davlat tomonidan amalga oshiriluvchi iqtisodiy munosabatlar tizimi tushuniladi.

Aholining manzilli ijtimoiy muhofaza qilish tizimiga o'tish ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya va imtiyozlar tizimini isloh qilishni taqozo etadi. Undan ko'zlangan asosiy maqsad quyidagilardan iborat:

– jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha daromadi yashash minimumidan past bo'lgan kam ta'minlangan oilalarni manzilli tarzda qo'llab-quvvatlash;

– mablag'lardan samarali foydalanishga kam ta'minlanganlar hisobiga mablag'larni qayta taqsimlash yo'li bilan erishish;

– ijtimoiy to'lov va imtiyozlar tizimini rivojlanib borayotgan bozor munosabatlariga moslashtirish;

– jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash.

Yuqorida qayd etilgan maqsadlardan kelib chiqib, ijtimoiy yordam puli, kompensatsiya va imtiyozlar tizimi islohoti quyidagi tamoyillarga asoslanishi lozim:

– imtiyozlar aholining muayyan ijtimoiy guruhiga rasmiy ravishda mansubligiga ko'ra to'lanishini nazarda tutgan an'anaviy yondoshuvdan asta-sekin voz kechish;

– ijtimoiy nafaqa va imtiyozlarni berishda manzililikni kuchaytirish, bunda jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha daromad miqdori va o'rnatilgan yashash minimumi o'rtasidagi mutanosiblik e'tiborga olinishi zarur;

– kambag'al fuqarolarning arizalari asosida ularga imtiyozlar taqdim etish.

Kam ta'minlangan fuqarolarning ayrim toifalari uchun arizaga muvofiq yordam ko'rsatish usulini kambag'allarni aholini ijtimoiy himoyalash muassasalari tomonidan topib aniqlash va ularga muvofiq tarzda ijtimoiy yordam ko'rsatish usuli bilan almashtirish; aks holda o'zini idora qila olmaydigan pensiya yoshidagi keksalar va nogironligi bo'lganlar, shuningdek, qiynalgan oilalardagi bolalar va aholining boshqa ayrim qatlamlari ijtimoiy yordamsiz qolishi mumkin. Bunda kambag'allik holatini muntazam tasdiqlab turuvchi axborot hamda ijtimoiy yordamning kafolati zarur bo'ladi. Umuman olganda, har bir davlat va har bir jamiyat o'zining ijtimoiy muhofaza qilish tizimini ishlab chiqadi. Bu jarayon jamiyatdagi milliy qadriyatlar, iqtisodiy ahvoli, ijtimoiy-siyosiy vaziyat bilan bog'liq. Muhimi, undagi ijtimoiy muhofaza qilish tizimi ilmiy asoslangan bo'lishi zarur.

#### **5.4. Aholini ijtimoiy muhofaza qilishda davlatning o'rni**

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish – davlatning aholiga normal hayot faoliyati uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlaydigan bevosita maqsadli kafolatlar tizimi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy siyosati o'ziga xos rivojlanish strategiyasi asosida olib borilmoqda.

2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasida ijtimoiy sohani rivojlantirish muhim bo‘limi hisoblanadi. Bunda shuningdek, aholi bandligini oshirish, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish va fuqarolarning salomatligini himoya qilish hamda yoshlar davlat siyosati. Shu munosabat bilan 2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasida ijtimoiy soha rivojlanishining asosiy yo‘nalishi sifatida ko‘zda tutilgan. Bu o‘z navbatida aholi bandligini oshirishini, shuningdek soliqni saqlash va yoshlarga oid davlat siyosatini olib borishning ijtimoiy tizimini takomillashtirishni nazarda tutadi<sup>43</sup>.

Ta‘lim jarayonlarni oqilona tashkil etishga qaratilgan tub islohotlar amalga oshirila boshlandi. Mamlakatimizda 11 yillik majburiy ta‘lim tizimini joriy etishga kirishildi. Oliy ta‘lim muassasalariga qabul kvotasi salkam 20 foizga ko‘paytirildi.

Aholi bandligini ta‘minlash hamda qo‘shimcha daromad manbayini yaratish maqsadida, tijorat banklari tomonidan fuqarolarning shaxsiy yordamchi xo‘jaliklarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish, qoramol, qo‘y, quyon boqish va go‘sht yetishtirish, parrandachilik va asalarichilikni rivojlantirish, ixcham issiqxonalar tashkil etish, shuningdek, urug‘ va ko‘chatlar uchun mikroreditlar ajratish hajmini yanada oshirish maqsadida banklar va hududlar bo‘yicha joriy yilning 25 may holatiga ko‘ra, 281 458 ta holatda mazkur maqsadlar uchun 1,9 trillion so‘m miqdorida kredit mablag‘lari ajratilib, 285 400 ta ish o‘rinlari yaratildi.

Tijorat banklari tomonidan 2017 yilning 25 may holatiga ko‘ra xizmat ko‘rsatish va servis sohasini rivojlantirishga 1,2 trillion so‘m kredit mablag‘lari ajratildi.

Tijorat banklari tomonidan 25 may holatiga ko‘ra, ayollarni tadbirkorlik faoliyatiga faol jalb qilish maqsadida 844 milliard so‘m miqdorida kredit mablag‘lari ajratildi.

Amalga oshirilgan tadbirlar natijasida cheklangan narxlarda sotilishi belgilangan ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan dori vositalari va tibbiy buyumlar ro‘yxati kiritilgan 116 turdagi mahalliy dori vositalari narxlari

---

<sup>43</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар Стратегияси тўғриси” ги Ф-4947-сон Фармони // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 йил 13 февраль. 6-сон, 70-модда.

2017 yildagi sotuv 2016 yildagiga nisbatan 8-44 foiz, import yo'li bilan keltiriladigan dori vositalari narxлари esa 8-99 foizga arzonlashdi<sup>44</sup>.

Davlat va uning tuzilmalari yanada ko'proq masalalarning hal etilishini ta'minlaydi. Birinchidan, fuqarolarning mehnat qilish huquqini kafolatlaydi, bunga ish joyiga zarur resurslarga ega bo'lish va mehnatga yarasha haq to'lash kafolati ham kiritiladi. Ikkinchidan, aholini ijtimoiy muhofaza qilish keksalik, mehnat qobiliyatini yoki boquvchisini yo'qotishdan sug'urta tizimi (pensiya ta'minoti, shu jumladan, xususiy pensiya ta'minoti), kam ta'minlangan oilalarga ijtimoiy to'lovlar (bolalarga nafaqa), vaqtincha ishlamayotganlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash (ishsizlik bo'yicha nafaqa), aholining ayrim toifalariga ularning moddiy ta'minoti va xizmatlarini hisobga olib, imtiyoz va afzalliklar berish (patronaj xizmatlar shaklidagi ijtimoiy yordam, oziq-ovqat, yoqilg'i berish va boshqalar), onalikni muhofaza qilish (tug'ishdan oldingi va tug'ishdan keyingi ta'tillar berish), sog'liqni sug'urta qildirish (tibbiy sug'urta, vaqtincha mehnat qobiliyatini yo'qotganlar uchun) ham davlat zimmasidagi vazifalar sirasiga kiradi.

O'zbekistonda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning markazida ijtimoiy siyosat masalasi turadi. Bu siyosatning zarurati mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar natijasida aholi boshiga tushishi muqarrar mushkulliklarni yengillashtirish bilan bog'liqdir. Bundan tashqari, har qanday jamiyatda doimo shunday shaxslar toifasi mavjudki, ular obyektiv sabablarga ko'ra (yoshi, sog'ligining yomonligi, mamlakatdagi ishsizlik darajasi va boshqalar) ishlab chiqarishda ishtirok eta olishmaydi. Shuning uchun ularga g'amxo'rlik qilishni davlat o'z zimmasiga oladi, ya'ni yaratilgan milliy daromadning bir qismini ular foydasiga qayta taqsimlaydi.

Davlat institutining ijtimoiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

- ijtimoiy rivojlantirish tamoyili va strategiyasini ishlab chiqish;
- daromadlarni taqsimlash va qayta taqsimlash;
- aholi daromadlarini oshirish;
- aholi bandligiga ko'maklashish;
- hududlarda ijobiy ijtimoiy infratuzilmani shakllantirish;

<sup>44</sup> Харакатлар стратегияси асосида жадал тараққиёт ва янгиланиш сари./ Нашрга тайёрловчилар: М.Бекмуродов, Қ.Куронбоев, Л.Тангриев. – Тошкент: Ғофур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017.Б – 73.

– aholining ijtimoiy himoyasiga doir me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish;

– transfert to'lovlar asosida ehtiyojmand aholiga yordam ko'rsatish.

Mustaqillikka erishilganidan so'ng, o'tgan yillar mobaynida respublikada aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimi o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan.

Ma'lumki, kambag'allik va aholi o'rtasida kuchli iqtisodiy tengsizlikning oldini olish maqsadida, daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash bo'yicha davlat chora-tadbirlari tizimi yaratildi va u ijtimoiy siyosat deya yuritildi. Keng ma'noda, ijtimoiy siyosat deganda, shaxs hayot faoliyatining shunday sharoitlarini yaratish va tutib turish bo'yicha ko'rilgan barcha chora-tadbirlar tushuniladi va u shaxsning rivojlanishiga yordam beradi hamda uning ijodiy imkoniyatlarini to'liq namoyon qilishini rag'batlantiradi. Bu dastur o'tkazilayotgan barcha islohotlarning pirovard maqsadi – inson hayoti va faoliyati uchun munosib shart-sharoit yaratish bilan chambarchas bog'langan.

Bozor iqtisodiyotiga o'tishning ilk bosqichlaridagi ijtimoiy muhofaza tadbirlari butun aholiga nisbatan qo'llanildi, bu esa mamlakatda barqarorlikni saqlashning muhim omili bo'ldi. Muntazam ravishda ko'rib chiqilayotgan turli miqdordagi ish haqi, pensiya, stipendiya va har xil nafaqa, tovon puli ko'rinishidagi bevosita pul to'lovlari keng qo'llanildi, imtiyozlar hamda turli qo'shimcha to'lovlar tizimi aholini ijtimoiy muhofazalash darajasini birmuncha oshirdi. Eng kam miqdordagi mehnat haqi va pensiyalarning soliqqa tortilmasligi belgilab qo'yildi. Korxonalarining o'z xodimlariga ijtimoiy yordam ko'rsatish borasidagi xarajatlari qisman budjet mablag'lari hisobidan to'ldirildi. Ommaviy ravishda talab qilinadigan ko'pgina tovar va xizmatlar turlarining narxлари o'rtasidagi tafovutning o'zni qoplandi.

Murakkab iqtisodiy ahvol yuzaga kelganiga qaramay, O'zbekistonda aholi uchun eng muhim ijtimoiy vazifalarni hal etish maqsadida zarur mablag'lar izlab topildi. Islohotlarning dastlabki bosqichida ijtimoiy muhofazaga ajratilgan davlat xarajatlari respublika budjetining uchdan bir qismini tashkil etdi. O'sha davrda ishlab chiqilgan ijtimoiy siyosat o'z oldida turgan vazifalarni amalga oshirdi va ayni paytda bozor iqtisodiyotiga xos bo'lgan zaruratni – ijtimoiy yordam choralari va vositalarini o'zgarib turgan sharoitga muvofiq tarzda doimo moslash zaruratini yuzaga keltirdi.

Barcha aholiga mo'ljallangan ijtimoiy siyosat yordamga ehtiyojning ko'proq va kamroq darajasi kabi juda muhim omilga nisbatan sezgirlikni qo'ldan boy berdi. Shunday bo'lib chiqdiki, kam ta'minlangan fuqarolar ham, to'la ta'minlangan fuqarolar ham bir xilda madad olardi. Boz ustiga, dotatsiya joriy etilgan asosiy tovar va xizmat turlari haqiqatan ham iste'mol etilishiga nisbatan ulardan ayni shunday yordamga kamroq muhtoj bo'lgan kishilar ko'proq foydalanib qoldilar. Binobarin, muhtoj kishilar uchun kam samara bergan behuda sarf-xarajat mablag'larning sochilib yuborilishiga sabab bo'ldi. Shuni aytish joizki, faqat respublika budjeti orqali 30 xil turli yo'nalishlar bo'yicha yordam ko'rsatilgan. Ijtimoiy muhofaza qilish vositalarini qayta yo'naltirish zarurati, yalpi ijtimoiy madad berish yo'lidan borgan holda, chindan ham madadga muhtoj kishilarga yordam ko'rsatishning tabaqalashgan, manzilli tizimiga o'tish zarurati tug'ildi.

Vakolatli va ijroiya hokimiyat mahalliy organlari o'zlariga qarashli hududda aholining birinchi navbatdagi ehtiyojlariga binoan ijtimoiy yordam tadbirlariga aniqlik kirita boradi. Ularning asosiy tashvishlaridan biri – ijtimoiy ishlab chiqarish ko'makchi tuzilmalarini rivojlantirishdan, ya'ni gaz, suv quvurlarini, elektr va telefon tarmoqlarini o'tkazishdan iborat. Faqat shunday sharoitdagina ish o'rinlarini vujudga keltirish, yangi ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish, xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish, binobarin, ijtimoiy muammolarning keng majmuini hal etish maqsadida eng chekka qishloqlarga zarur sarmoyani jalb etish mumkin. Hokimiyat va o'zini-o'zi boshqarish organlari aholining nochor toifalari uchun umumdavlat yordam dasturlari amalga oshirilishini ta'minlab, mintaqa imkoniyatlarini hisobga olgan holda, ushbu qatlamlarga madad berish yuzasidan qo'shimcha choralar ko'rish huquqini olgan. Shu tariqa O'zbekistonda aholini ijtimoiy muhofaza qilishning noyob va betakror manzilli tizimi amal qilmoqdaki, u xalq an'analari va axloqiy qoidalariga asoslangan hamda bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitiga moslangan.

Ijtimoiy muhofaza qilishni amalga oshirish, ijtimoiy muhofaza mexanizmini takomillashtirishda sifat jihatidan yangi bosqich zarurligi obyektiv jihatdan yetildi. Shu munosabat bilan, endi umumiy ijtimoiy muhofaza tizimidan ishonchli ijtimoiy kafolatlar va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimiga izchil o'tish maqsadga muvofiq bo'lib qoldi. Bir iqtisodiy tizimdan ikkinchi tizimga o'tish oson ish emas va u jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy murakkabliklarga olib kelishi mumkin.

Ijtimoiy siyosatning asosiy yo'nalishlari quyidagilar hisoblanadi:

– fuqarolarning iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligi, kasb va mehnat sohasini erkin tanlash bo'yicha kafolatlangan konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlash. Mehnatga layoqatli aholining o'z mehnat faoliyati shaklini erkin tanlash huquqidan foydalana borib, o'zini va o'z oilasini moddiy jihatdan zarur darajada ta'minlashi, oilasining farovonligi uchun, sog'lom avlodni kamol toptirish uchun javobgar bo'lishi kerak;

– ijtimoiy muhofaza aniq va maqsadli yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Aholining turli qatlamlariga alohida-alohida yondashish – yangi ijtimoiy muhofaza tizimining o'ziga xos xususiyati bo'lib qolmog'i lozim;

– aholini ijtimoiy muhofaza qilish chora-tadbirlari tizimida real mehnat bozorini shakllantirish, mehnatga layoqatli har bir kishiga o'z mehnati bilan oilasining turmush darajasini yaxshilash imkonini beradigan sharoit yaratish asosiy o'rinlardan birini egallaydi.

Jamiyat taraqqiyoti mamlakat iqtisodiy salohiyatining qanchalik yuksakligi bilan emas, balki bu salohiyat har bir kishining har tomonlama rivojlanishi uchun yo'naltirilganligi bilan baholanadi. Xalqaro aloqalarda O'zbekiston malakali ishchi kuchiga, ulkan tabiiy resurslarga ega bo'lgan siyosiy jihatdan barqaror davlat sifatida qaralmoqda, bu esa to'g'ridan-to'g'ri xorijiy sarmoyalarni jalb etish uchun juda qulay imkoniyatlarni vujudga keltiradi.

Ijtimoiy islohotlarni o'tkazishning taktik jihatlari quyidagilarni nazarda tutadi:

– bozor mexanizmlarini joriy etishdan oldin aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va muhofaza qilish bo'yicha qat'iy chora-tadbirlar ko'rish;

– ijtimoiy soha ahvolini davlat tomonidan nazorat qilish va qo'llab-quvvatlash;

– bozor iqtisodiyotiga kirib borgan sari yuzaga keladigan vaziyat va yangi imkoniyatlarni hisobga olgan holda, aholini ijtimoiy muhofaza qilish ustuvorliklari va mexanizmlarining o'zgarishi.

Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni o'tkazish, ko'rilyotgan chora-tadbirlarning o'zaro bir-biriga bog'liqligi va ta'sirini ta'minlash natijasida:

– kishilarning turmush darajasi keskin pasayib ketishining oldini olishga, respublikada osoyishtalik va barqarorlikni saqlashga muvaffaq bo‘lindi;

– aholini manzilli ijtimoiy muhofaza qilishning qat’iy tizimi yaratildi;

– aholi bozor iqtisodiyoti sharoitlariga ko‘niktirildi;

– iqtisodiy faollik oshdi, tadbirkorlik rivojlanmoqda, aholining ish bilan bandlik tizimi bozor tizimiga yaqinlashmoqda;

– inson manfaatlarini yanada kengroq ro‘yobga chiqarishni ta‘minlash uchun yangi sharoit va imkoniyatlar yaratildi;

– mutlaq yangicha yondashuvlar asosida zamonaviy talablarga javob beradigan kadrlar tayyorlash mexanizimi ishlab chiqildi.

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish jarayonida shakllanadigan iqtisodiy munosabatlar mamlakatning umumiy moliyaviy-iqtisodiy holatiga muvofiq takomillasha boradi. Ijtimoiy muhofazaning mablag‘ bilan ta‘minlanganligi mamlakatda joriy etilayotgan davlat dasturlari va ijtimoiy siyosatning samaradorligiga bog‘liq. Yangi ijtimoiy muhofaza tizimining eng muhim xususiyati aholining turli qatlamlariga qat’iy tabaqalashtirilgan tarzda yondashish xususiyati bilan ajralib turadi. Aholini ijtimoiy muhofaza qilishni yaxshilash, uning samarasini ko‘tarish quyidagi muhim vazifalarni hal etishga bog‘liq:

– ishlab chiqarishni barqarorlashtirish;

– davlat mablag‘lari bilan bir qatorda mehnat jamoalari, jamoat, xayriya tashkilotlari va jamg‘armalarning mablag‘larini keng jalb etish.

Shu bilan birga, aholiga ijtimoiy yordam ko‘rsatishda mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining huquqlari quyidagilarga asoslangan holda birmuncha kengaytirilishi lozim:

– insonlarning kuchi va qobiliyatlari to‘la-to‘kis faollashuvini ta‘minlashga qodir bo‘lgan kuchli mexanizmni vujudga keltirish (har bir kishining iqtisodiy erkinligini shakllantirish);

– aholining daromadlariga va turmush darajasida asossiz katta farqlarga yo‘l qo‘ymaslik. Jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlaydigan qatlamlarni shakllantirish;

– qashshoqlikka qarshi kurash. Aholining eng muhtoj qatlamini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishini kuchaytirish.

Shunday qilib, ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti yo‘lini vujudga keltirish aholini ijtimoiy muhofaza qilishning shunga mos keladigan yaxlit tizimini barpo etishni talab qiladi. Bu tizim

fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlashning iqtisodiy va ijtimoiy kafolatlarini o'z ichiga oladi.

### Nazorat savollari:

1. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tushunchasini izohlab bering.
2. Ijtimoiy muhofaza obyektlariga taalluqli guruhlarini ajrating.
3. Ijtimoiy yordam ko'rsatishda qanday tamoyillarga tayaniladi?
4. Davlat tushunchasi va uning xususiyatlarini tushuntirib bering.
5. Davlatning ichki funksiyalarini sanab bering.
6. Respublikaning qanday shakllarini bilasiz?
7. Ijtimoiy nafaqa, kompensatsiya, subsidiya va imtiyozlar qo'llanilish yo'nalishlariga ko'ra qanday tasniflanadi?
8. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimi turlarini yoritib bering.
9. Davlat institutining ijtimoiy funksiyalarini bilasizmi?
10. Ijtimoiy islohotlarni o'tkazishning taktik jihatlari nimalarni nazarda tutadi?

### Testlar:

**1. "Ijtimoiy muhofaza" atamasi dastlab qachon va qaysi hujjatda qo'llanilgan?**

- a) 1934 yil "Ijtimoiy muhofaza bo'yicha Qonun" huquqiy hujjatida;
- b) 1935 yil "Ijtimoiy xavfsizlik bo'yicha Qonun" huquqiy hujjatida;
- c) 1936 yil "Ijtimoiy siyosat bo'yicha Qonun" huquqiy hujjatida;
- d) 1937 yil "Ijtimoiy ta'minot bo'yicha Qonun" huquqiy hujjatida.

**2. "Ijtimoiy" so'zining ma'nosi nimani anglatadi?**

- a) arabcha "jam" so'zidan olingan bo'lib, "aholi", "xalq";
- b) forschada "jam" so'zidan olingan bo'lib, "hamma", "bari";
- c) lotincha "jam" so'zidan olingan bo'lib, "yordam", "madad";
- d) arabcha "jam" so'zidan olingan bo'lib, "ko'pchilik", "to'planish".

**3. Davlat suvereniteti qanday asosiy tamoyillarga tayanadi?**

- a) hududining birligi va bo'linmasligi, hudud chegaralarining daxlsizligi, ichki ishlarga aralashmaslik;
- b) davlat suverenitetining cheksizligi, nisbiyligi;
- c) davlat suvereniteti davlatning mustaqil, hech kimga tobe' emasligini nazarda tutadi;
- d) davlat suvereniteti daxlsiz, birlashtiruvchi xususiyatga ega.

**4. Suverenitet tarkibi qanday bo'ladi?**

- a) ichki va tashqi;
- b) mustaqil va tobe;

- c) cheksiz va aniq;
- d) umumiy va cheksiz.

**5. Respublikaning parlamentar shakli qanday bo‘ladi?**

- a) siyosiy tizimdagi o‘rni odatda Konstitutsiyada belgilab beriladi;
- b) saylovlarda g‘olib chiqqan partiya vakillaridan hukumat tuziladi va u parlament oldida mas’ul hisoblanadi;
- c) davlat apparatini boshqarishdagi o‘rni, roli va vakolatlari davlat hokimiyati tizimi bilan belgilanadi;
- d) jamiyatdagi turli kuchlarni birlashtiruvchi hakam vazifasini topshiradi.

**6. Prezidentlik instituti tushunchasi ilk bor qachon va qaysi davlatda kiritilgan?**

- a) Germaniyada, 1889 yilda;
- b) Italiyada, 1835 yilda;
- c) Rossiyada, 1715 yilda;
- d) AQSHda, 1787 yilda.

**7. Prezident so‘zining ma‘nosi nima?**

- a) lotin tilidan olingan bo‘lib, “oldida o‘tiruvchi” ma‘nosini anglatadi;
- b) arabchadan olingan bo‘lib, “taxt boshqaruvchisi” ma‘nosini anglatadi;
- c) ingliz tilidan olingan bo‘lib, “boshqaruvchi” ma‘nosini anglatadi;
- d) italiyanchadan olingan bo‘lib, “hukmdor” ma‘nosini anglatadi.

**8. Federatsiya bu...?**

- a) bir nechta yoki ko‘p davlatlardan tarkib topgan davlatlar ittifoqidir;
- b) barcha boshqaruv tashkilotlari, pastdan yuqorigacha markaziy hokimiyatga bo‘ysunadi va ma‘muriy bo‘limlar hisoblanadi;
- c) mustaqil davlatlar ittifoqqi bo‘lib, har biri deyarli to‘la ko‘lamda o‘zining asosiy, belgilovchi huquqlarini va hokimiyatni saqlab qoladi;
- d) bitta mustaqil davlat shakli.

**9. Konfederatsiya bu...?**

- a) bir nechta yoki ko‘p davlatlardan tarkib topgan davlatlar ittifoqidir;
- b) barcha boshqaruv tashkilotlari, quyidan yuqorigacha markaziy hokimiyatga bo‘ysunadi va ma‘muriy bo‘limlar hisoblanadi;
- c) mustaqil davlatlar ittifoqqi bo‘lib, har biri deyarli to‘la ko‘lamda o‘zining asosiy, belgilovchi huquqlarini va hokimiyatni saqlab qoladi;
- d) bitta mustaqil davlat shakli.

**10. Ijtimoiy nafaqa nima?**

- a) doimiy ravishda beriladigan moddiy yordam puli;
- b) bir marta beriladigan moddiy yordam puli;

c) beg'araz tarzda vaqtinchalik yoki doimiy ravishda aniq shaxs yoki shaxslar guruhiga ma'lum miqdorda pul shaklida beriladigan to'lovdir;

d) yetarli ish stajiga ega bo'lmaganda, beriladigan bir martalik to'lov puli.

**11. Ijtimoiy siyosatda manzillilik tamoyili deganda nimani tushunasiz?**

a) ijtimoiy to'lov va imtiyozlar ijtimoiy siyosat nuqtayi nazaridan ularga muhtoj aholi guruhiga yo'naltirilganligi;

b) ijtimoiy yordamni ko'rsatilgan manzil bo'yicha yetkazib berish;

c) ijtimoiy yordam belgilangan ro'yxat bo'yicha taqsimlanganligi;

d) ijtimoiy yordam har chorak bo'yicha ijtimoiy himoyaga muhtoj aholiga ko'rsatilganligi.

**12. Mamlakatda kambag'allik darajasining asosiy ko'rsat-kichlari qanday aniqlanadi?**

a) aholining hayot tarzidagi og'ir o'zgarishlar hisobga olinadi;

b) aholining yashash davomiyligi va sifati olinadi;

c) yashash minimumi chizig'i olinadi;

d) yashash minimumidan past darajada yashovchi aholi soni va salmog'i olinadi.

**13. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimi turlarini ko'rsating.**

a) ijtimoiy himoya, ijtimoiy siyosat, ijtimoiy yordam, pensiya;

b) pensiya, ijtimoiy-tibbiy yordam, psixologik ko'mak;

c) ijtimoiy xizmat ko'rsatish, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy ta'minot, ijtimoiy sug'urta;

d) ijtimoiy nafaqa, pensiya, ijtimoiy sug'urta, ijtimoiy himoya.

**14. Aholining samarali ijtimoiy himoyasida davlatning tartibga solish funksiyasi deganda nima tushuniladi?**

a) jamiyatning har bir fuqarosi uchun o'z qobiliyatlarini rivojlantirish va namoyon etish uchun zarur bo'lgan minimal sharoitlarni yaratish;

b) ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya va imtiyozlar tizimini isloh qilish;

c) ijtimoiy to'lov va imtiyozlar tizimini rivojlanib borayotgan bozor munosabatlariga moslashtirish;

d) jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash.

## VI-bob. IJTIMOY SIYOSATNI AMALGA OSHIRISHNING JAHON TAJRIBASI

**6.1. Ijtimoiy siyosat tarkibi va rivojlanish modellarining metodologik masalalari**

**6.2. Yevropa Ittifoqi davlatlari ijtimoiy siyosatining xususiyatlari**

**6.3. AQSH liberal ijtimoiy siyosatining mazmuni va amalga oshirish yoʻnalishlari**

**6.4. Sharqiy Osiyo mamlakatlari ijtimoiy siyosatining xususiyatlari**

### **6.1. Ijtimoiy siyosat tarkibi va rivojlanish modellarining metodologik masalalari**

Ijtimoiy siyosatni amalga oshirish amaliyotini qiyosiy tahlilga bagʻishlangan bir qator qarashlar mavjud. Qiyosiy izlanishning oʻziga xos xususiyati shundaki, bir jamiyatning “ijtimoiy muammolari” boshqa bir jamiyatda oʻzgacha talqin etiladi. Ushbu savollarga va ijtimoiy taʼminot dasturlari borasida bir-biriga zid boʻlgan bir qator maqsad va yoʻnalishlarni koʻrish mumkin. Bunda davlat, nodavlat va aralash uslublarni koʻrish mumkin. Albatta, moliyalashtirish nuqtayi nazaridan nisbatan toʻgʻri va egri, milliy va mahalliy soliqlar, majburiy va ixtiyoriy sugʻurta koʻrinishida boʻlishi mumkin. Ijtimoiy siyosatning ikki turdagi “Farovonlik modeli”ga yana bir uchinchi ideal turdagi modelni qoʻshish mumkin<sup>45</sup>:

1. Farovonlik modeli (AQSH modelini misol qilsa boʻladi), bunda keng qamrovli nodavlat, ijtimoiy- bozor, jamiyat ehtiyojlari va xizmatlar taʼminot iga asoslangan;

2. Institutsional qayta taqsimlash modeli (Shved modeli) bunda koʻproq universal, huquqlar asosida davlat tomonidan berilayotgan imtiyozlar industrial jamiyatning normal funksiyalari sifatida qaraladi;

3. Sanoat modeli (Gʻarbiy Germaniya) ijtimoiy taʼminot ga davlatning qoʻshimcha iqtisodiy vazifalaridan biri sifatida qaraladi.

Daniyalik tahlilchi Esping-Andersen davlatning farovonligini quyidagi bir-biriga bogʻliq uch darajada koʻrib chiqishni taklif etdi:

<sup>45</sup> “Social Policy”, – P. 422.

– dekommodifikatsiya darajasi, bunda davlat mehnat bozoriga bog‘liq bo‘lmagan holda insonlarning ijtimoiy ta‘minlangan turmush kechirishlarini ta‘minlaydi;

– taqsimlangan daraja, ijtimoiy davlat ijtimoiy sinflarga ajratiladi hamda ijtimoiy integratsiya va tenglikka intiladi;

– xususiy-davlat ko‘rinishida, bunda davlat bozor va oilaning farovonlikni ta‘minlashdagi nisbiy o‘rnini belgilaydi<sup>46</sup>.

Shu yo‘nalishda Esping-Andersen uchta muhim nafaqa (pensiya, kasallik nafaqasi, ishsizlik nafaqasi) ko‘rsatkichlaridan foydalandi. Uning tahlillari “farovonlik modeli” ning uch ideal turlarini kashf etdi.

– ijtimoiy-demokratik molel, (Skandinaviya mamlakatlariga xos) bunda mehnat tashkilotlari va kichik fermerlar birlashadilar, davlat to‘la bandlikni ta‘minlaydi, universal nafaqalarni qayta taqsimlaydi, va o‘rta sinf vakillarining talablari qondiriladi;

– konservativ-korporativ model, ustun darajada kontinental Yevropa mamlakatlariga xos bo‘lib, davlat o‘rta sinf vakillariga tayangan holda ijtimoiy siyosatni yuritadi;

– liberal ijtimoiy ta‘minot model, ingliz tilida so‘zlashadigan mamlakatlarga xos, sinflararo ittifoqlarning bo‘lmasligiga qaramasdan, davlat umumfarovonlikka, kambag‘al qatlamni o‘z himoyasiga oladi.

Esping-Andersenning tahlillaricha, rivojlangan mamlakatlarning ijtimoiy ta‘minot tizimi quyidagi uch darajada bo‘lishi mumkin:

- Umumfarovonlik davlat modeli;
- Norasmiy xavfsizlik modeli;
- Ta‘minlanmaganlik modeli.

Tahlillarning ko‘rsatilishicha, uch modelida ikki xil yondashuv mavjud, jumladan, birinchi model sobiq SSSR mamlakatlari va Janubiy Amerika davlatlariga xos bo‘lib, bunda davlat o‘zining xarajatlari va dasturlaridan qat‘iy nazar, umumfarovonlikni ta‘minlaydi. Bu davlatlar mafkuraviy jihatdan umumfarovonlikni ta‘minlashga harakat qiladi. Davlatlar o‘z mafkurasida fuqarolarning barcha manfaatlarni faqat mazkur davlat ta‘minlay oladi degan iddao bilan chiqadi. Aynan ushbu davlatlar mafkuralarida reduksionistik komponent yuqori bo‘ladi.

“Norasmiy xavfsizlik” modelida (Xitoy, Sharqiy Osiyo mamlakatlari, Janubiy va Markaziy Amerika davlatlari, Eron, Turkiya) tashqi va ichki kuchlar ta‘siriga qaramasdan mamlakatlar ijobiy ko‘rsatkichlarga erishdilar.

<sup>46</sup> “Social Policy”. – P. 423.

Milliy qarashlar va omillar asosida umumfarovonlikni boshqa mintaqalarda o'xshashlik va farqlar bo'yicha 7 xil maktabga ajratish mumkin<sup>47</sup>.

1. G'arb jamiyatlarida ijtimoiy siyosatning tarkibida iqtisodiy omillarning o'рни.

2. Milliy va umuman'anaviy holatlarni ijtimoiy-tarkibiy ta'siri.

3. Siyosiy omillarni ijtimoiy madaniy holatlarga ta'siri, bunda, demokratiya, ishchi sinflarning mobilligini oshirish va jamiyatni birlashtirish.

4. Institutsional ta'sirning kuchayishi, umumfarovonlikdan ma'muriy tizimga qarab borish tushuniladi.

5. Ekzogen transmilliy ta'sirlar ostida, neoliberal maqsadlar, bunda, rivojlangan mamlakatlar ijtimoiy siyosatidagi umumfarovonlik barqarorligini ta'minlanishi mumkin.

Shu xususda haqqoniy ma'lumotlar yo'qligi, inqirozni umumfarovonlikka ta'siri, bu kabi mummolar muhimdir.

Rivojlangan davlatlarning ijtimoiy ta'minot modellarini qiyosiy tahlil qilinsa, quyidagi turlarga bo'linadi:

**Beveridj modeli.** Bugungi kunda eng taniqli modellardan biri Beviridj hisoblanadi.

Beveridj modeli XIX asrning o'rtalarida ingliz iqtisodchisi Beveridj tomonidan ishlab chiqilgan. Mazkur modelga ko'ra, har bir fuqaroning minimal darajadagi ijtimoiy ta'minot va himoya qilinishi huquqlari kafolatlanadi. O'z navbatida, ijtimoiy himoya fuqarolarning sog'lig'ini yo'qotganligi, daromadi kamayganligi sababli olib boriladi. Mazkur modelni tanlagan davlatlarda kasallikka bo'lgan minimal sug'urtalash kafolatlari mavjud, nafaqa esa mehnat stajidan qat'iy nazar, har bir fuqaroga minimal darajada tayinlanadi.

Ijtimoiy ta'minot tizimi mazkur modelni joriy qilgan davlatlarda soliq va budjet tizimi tomonidan moliyalashtiriladi. Ushbu model asosan millatning birdamligi tamoyiliga tayanadi.

**Bismark modeli.** Hozirgi kunda mashhur bo'lgan yana bir ijtimoiy ta'minot modellaridan biri – bu Bismark modeli hisoblanadi. Mazkur model bevosita XIX asr oxirlarida Germaniyada yashab o'tgan nemis siyosiy arbobi Otto fon Bismarkning islohotlari bilan bog'liqdir.

Ushbu modelga ko'ra, aholining ijtimoiy himoyasi bevosita uning professional faoliyati bilan bog'liq. Aholining sug'urtalanishi, ularning

<sup>47</sup> "Social Policy". – P. 423.

o'zlari tomonidan jamg'arib borilgan mablag'lar asosida moliyalashtiriladi. Bu modelda ijtimoiy to'lovlar davlatning budjeti bilan bog'liq emas<sup>48</sup>.

Shuni ham ta'kidlash joizki, amaliyotda, ushbu modellarni bugungi kunda uchratish imkoni yo'q.

**Korporativ model.** Bugungi kunda ijtimoiy ta'minot jarayonida rivojlanayotgan davlatlarda qo'llanilayotgan model ijtimoiy ta'minotning korporativ modeli sanaladi. Ushbu model asosan Yaponiyada qo'llaniladi. Unga ko'ra, yirik korporatsiyalar o'z xodimlarini samarali mehnat qilishlarini rag'batlantiradilar. Xodimlarning taqdiri va ijtimoiy ahvoriga u ishlab kelayotgan korxonaga javobgar hisoblanadi. Korporatsiyalar o'z xodimlariga turli xil ijtimoiy paketlarni taklif qiladilar. Ushbu ijtimoiy paketlar tibbiy sug'urta, pensiya ta'minoti, manzilli ijtimoiy yordam kabilardan iboratdir.

**Ijtimoiy himoya modeli.** Ijtimoiy ta'minotning yana bir modeli - ijtimoiy model hisoblanadi. Unga ko'ra, kambag'al inson uchun boylar to'laydi, kasal inson uchun sog'lom inson to'lashi ko'zda tutiladi. Mazkur ta'minotni amalga oshiradigan asosiy institut davlat hisoblanadi<sup>49</sup>.

Bugungi kunda ushbu model ko'pgina mamlakatlarda qisman amalga oshiriladi. Jumladan, buni biz, Fransiyada joriy etilgan differensial soliq tizimida ko'rishimiz mumkin.

**Patrenalistik model.** Avtoritar, totalitar tizimlarda asosan ijtimoiy ta'minotning patrenalistik modeli amalga oshiriladi. Unda asosan ijtimoiy ta'minot davlat budjeti orqali moliyalashtiriladi hamda unda tenglik tamoyiliga katta e'tibor qaratiladi.

**Konservativ model.** Yevropa Ittifoqi davlatlarida Ikkinchi jahon urushidan so'ng, ijtimoiy ta'minotning xilma-xil modellari shakllandi. Ulardan keng qo'llaniladigan modellardan biri ijtimoiy ta'minotning konservativ modeli sanaladi. Unda asosiy e'tibor sug'urta siyosati va bozor iqtisodiyotini rivojlantirishga qaratiladi. Ushbu modelning mohiyatiga ko'ra, har bir insonning mehnat faoliyati uning ijtimoiy ta'minoti kelajagini belgilab beradi.

Konservativ modelni joriy etgan davlatlarda ishsiz bo'lgan va hech qanday sug'urta tizimiga ega bo'lmagan fuqarolarda murakkab vaziyatga tushib qolish xavfi katta bo'ladi. Chunki sog'liq asosida olib

<sup>48</sup> <http://www.spravochnik.ru>

<sup>49</sup> <http://www.spravochnik.ru>

boriladigan moliyalashtirish minimal darajada bo‘ladi. Shundan kelib chiqqan holda, ishsiz bo‘lgan va hech qanday sug‘urtaga ega bo‘lmagan fuqarolar asosan xayriya va homiylik ko‘rsatadigan tashkilotlar faoliyatiga suyanadilar. Ushbu modelni qabul qilgan davlatlarda taqsimotning asosiy institutlari xususiy va davlat sug‘urta jamg‘armalari hisoblanadi.

Konservativ model asosan Germaniya, Fransiya, Avstriya, Belgiya kabi Yevropa Ittifoqining rivojlangan mamlakatlarida qo‘llaniladi<sup>50</sup>.

**Sotsial-demokratik model.** Yana bir Yevropa mamlakatlarida keng qo‘llaniladigan modellardan biri sotsial-demokratik (ba‘zi holatlarda uni Skandinav modeli deb ham atashadi) modeldir. Mazkur modelning asosiy tamoyili universallik hisoblanadi. Unga ko‘ra, har bir fuqaro ijtimoiy himoya va ta‘minot olish huquqiga ega. O‘z navbatida ijtimoiy ta‘minot jarayonlari davlat budjeti tomonidan moliyalashtiriladi. Davlat budjeti aholi daromadlari soliqlari asosida shakllantiriladi. Universallik tamoyili bilan birga sotsial-demokratik model quyidagi tamoyillar asosida amalga oshiriladi:

-har bir fuqaro bir xil qadriyatga ega;

-ijtimoiy muhofaza ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi;

-ijtimoiy himoya hayotning barcha sohalarini qamrab olib, uzluksiz bo‘lishi kerak;

- ijtimoiy ta‘minot aholining barcha guruhlariga teng ijtimoiy sharoit yaratishi lozim.

Yuqorida qayd etilganidek, ushbu modelning ikkinchi nomi Skandinav modeli deb hisoblanadi. Chunki ushbu model asosan Skandinaviya, Shvetsiya, Daniya, Finlandiya, Norvegiya kabi Skandinaviya mamlakatlarida joriy etilgan.

**Liberal model.** Yana bir ijtimoiy ta‘minot jarayonida keng qo‘llaniladigan modellardan biri liberal model hisoblanadi. Mazkur model insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni tashkillashtiruvchi asosiy institut bozor hisoblanadi. Ushbu modelda ijtimoiy himoya jamiyat hayotida katta ahamiyatga ega emas. Negaki, aholining ko‘p qismi ijtimoiy himoyaga tayanmagan holda o‘z hayot faoliyatini olib borishlari mumkin. Bunlan kelib chiqqan holda, davlat aholining ijtimoiy ta‘minoti yuzasidan cheklangan javobgarlikka ega. O‘z navbatida, jamiyatda ijtimoiy ta‘minot norasmiy va ixtiyoriy qo‘llab-quvvatlash asosida amalga oshiriladi. Mazkur model Buyuk Britaniya,

---

<sup>50</sup><http://www.spravochnik.ru>

AQSH, Irlandiya kabi davlatlarda qo‘llaniladi.

**Katolik model.** Ijtimoiy ta‘minotning yana bir modeli – katolik modeli hisoblanadi. U asosan o‘zaro yordam tamoyiliga asoslanadi. Unga ko‘ra, insonning barcha muammolarini uning yaqinlari hal qilishga yordam berishlari lozim. Insonlarning eng yaqini boshqa inson hisoblanadi. Ushbu modelga ko‘ra, agar inson o‘z muammolarini o‘zi hal eta olmasa, u o‘z qarindosh-urug‘lariga, shundan so‘ng, mahalla, cherkovga, agar ular ham yordam ko‘rsata olmasalar, inson sug‘urtalash institutlarining xizmatlariga murojaat qilishi mumkin. Agar unda ham uning ijtimoiy muammolari yechilmasa, inson davlat institutlariga murojaat qilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Katolik modeliga ko‘ra, davlat ijtimoiy yordamning oxirgi instansiyasi hisoblanadi<sup>51</sup>.

Shuni ta‘kidlash joizki, bugungi kunda katolik modeli Vatikandan tashqari boshqa davlatlarda deyarli qo‘llanilmaydi.

**Islom modeli.** Shuningdek, ijtimoiy ta‘minotning Islom modelida ham yaqin insonlar asosan o‘z yaqinlariga tayanishadi. Umuman olganda, bugungi kunda rivojlangan Yevropa davlatlarida, AQSHda konservativ, liberal, sotsial-demokratik modellarni qo‘llanilishini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi.

Shu bilan birga qayd etish joizki, ijtimoiy ta‘minotning sof modeli deyarli hech qaysi davlatlarda uchramaydi.

## 6.2. Yevropa Ittifoqi davlatlari ijtimoiy siyosatining xususiyatlari

Yevropa Ittifoqidagi ijtimoiy siyosatning keng qamrovli olib borilishi uning kelib chiqishiga borib taqaladi. Yevropa Ittifoqining ijtimoiy siyosati birmuncha keng qamrovli va sahovatli hisoblanadi. Amerika ijtimoiy siyosatiga taqqoslaganda yoki ijtimoiy himoyaning keng qamrovli va saxhovatpeshaligi ham tasdiqlashi mumkin.

Yevropa Ittifoqiga 2004 yilda 10 davlatning va 2007 yil yana ikki davlatning qo‘shilishi Ittifoq hududlarning kengayishi va ijtimoiy ta‘minot ning kamayishiga olib keldi. Davlatlar ijtimoiy xarajatlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi bo‘yicha qiyosiy tahlil etilsa, iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan davlatlar ijtimoiy xarajatlar bo‘yicha birmuncha yuqori pog‘onada joylashadi. Keyingi yigirma yillik ko‘rsatkichlar natijasiga qaralsa, Yevropa qit‘asidagi davlatlar, AQSH, Kanada, Yangi

<sup>51</sup> <http://www.spravochnik.ru>

Zelandiya va Yaponiya mamlakatlari o'rtasida keskin farqlar mavjudligi kuzatiladi.

2004 yilgacha bo'lgan muddatdagi Yevropa Ittifoqi davlatlarida ijtimoiy maqsadlarga yo'naltirilgan yalpi xarajatlari Yevropa Ittifoqiga kirmagan mamlakatlarga nisbatan yuqori darajada ekanligi kuzatilgan edi. Tahlillarning ko'rsatishicha, Yevropa Ittifoqining 15 davlati YAIMning 20 foizini ijtimoiy himoyaga sarfladi, va o'sha davrga qadar hech bir davlat bunday ko'rsatkichga ega emas edi. Yevropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlarning boshqa mamlakatlardan farqli o'laroq, ijtimoiy ta'minot uchun ko'p mablag' ajratishini qanday baholash mumkin? IHTT davlatlari turli xatarlar (ishsizlik, kasallik va h.k.)ga duch kelganida daromadlar darajasi va oilaviy yo'qotishlar bo'yicha hisob-kitoblar olib boradi. 2005 yilda Yevropa Ittifoqining ko'plab davlatlarida daromadlarning 90 foizi tekshiruvlarsiz taqsimlanishi ta'minlangan edi. IHTT mamlakatlarida davlat va xususiy ijtimoiy himoyasida keskin farqlar mavjud. Garchi xususiy davlat pensiyalari miqdori ancha ko'p foizlarni tashkil etsa-da, ularni doimiylikini ta'minlash talab qilinadi.

Yevropa Ittifoqi (YEI) mamlakatlarining integratsiyalashuvi mintaqada aholini ijtimoiy himoya qilish amaliyotida umumiy normalarini ishlab chiqilishi va qabul qilinishi uchun zamin yaratadi. Mintaqa miqyosida iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan integratsiyalashuv jarayoni amalga oshirildi, YEI mintaqasida "Yevropa fuqarosi", "Ijtimoiy davlatlar tarmog'i" tushunchalari vujudga keldi. Bunga sabab, ijtimoiy normalarning umumittifoq malakatlari bo'ylab qabul qilinishi bo'ldi.

YEI mamlakatlarida aholini ijtimoiy himoya qilish mamlakatlarining ijtimoiy siyosatida yetakchi o'ringa ko'tarildi. Maqsad – YEIga a'zo bo'lgan mamlakatlarda aholining turmush farovonligini barqaror o'sib borish tendensiyasiga erishish va ijtimoiy jihatdan muhtojlikni qisqartirish bo'ldi. J.Monye va R.Shuman kabi iqtisodchi olimlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda YEI mamlakatlarida iqtisodiy qayta qurish va aholini ijtimoiy himoya qilish amaliyoti chuqur o'rganilgan bo'lib, unga ko'ra, mintaqada aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining vazifalari etib quyidagilar ko'rsatilgan<sup>52</sup>:

<sup>52</sup> Экономика Европейского союза: учебник/коллектив авторов; под.ред. Р.К.Щенина, – М.: КНОРУС, 2012. – С. 254-268.

• YEI mamlakatlari aholisining 2/3 qismi oʻrta farovonlik darajasida yashashini taʼminlash;

• Davlat va xususiy sektor oʻrtasida ijtimoiy sheriklikni kuchaytirish;

• Aholini ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan YEI yoki mamlakatlarning davlat dasturlari amalga oshirilishida hukumatlar oʻrtasida oʻzaro moddiy yoki ijtimoiy xizmat koʻrsatish shaklida hamkorlikni yoʻlga qoʻyish;

• Fuqarolarni huquqiy va moliyaviy savodxonligini oshirish;

• Ijtimoiy jihatdan muhtoj aholi qatlamlarini turmush sharoitlarini mintaqa boʻyicha belgilangan yashash minimumidan oshirish va oʻrta darajadagi turmush farovonligiga yetkazish;

• Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda ijtimoiy adolatlilikka qatʼiy rioya qilish va jamiyatning barcha aʼzolariga ularning ijtimoiy mavqeidan kelib chiqqan holda ijtimoiy yordam koʻrsatish;

• Ijtimoiy xizmatlarning qamrovi va sifati.

YEI mintaqasida aholining ijtimoiy jihatdan muhtojligini kamaytirish, aholi daromadlarini shakllantirish va bandligini ragʻbatlantirish asosida jamiyatda oʻrta qatlamning ulushini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi, ularning samaradorligini nazorat qilish maqsadida, Yevropa Ittifoqi bandlik, ijtimoiy siyosat, sogʻliqni saqlash va isteʼmol masalalari boʻyicha vazirlar kengashi (EPSCO) tomonidan ijtimoiy muammolarning vujudga kelishi va kambagʻallik xavfini aniqlash boʻyicha “AROE” deya nomlangan integral koʻrsatkichlar tizimi ishlab chiqilgan. Ushbu koʻrsatkichni hisoblash uchun har yili Yevropa Komissiyasi va Yevrostat hamkorligida mintaqa boʻylab kambagʻallik xavfi, mehnat samaradorligi past boʻlgan, kam daromadli, ijtimoiy muammolari mavjud boʻlgan uy xoʻjaliklarining bandligi, taʼlim, tibbiyot, uy-joy kommunal xizmatlardan foydalanish darajasi, moddiy holatini oʻrganish boʻyicha “EU-SILC” tadqiqoti amalga oshiriladi. EU-SILC tadqiqot natijalari umumlantirilgan holda AROE integral koʻrsatkichlarini ifodalaydi. Ushbu koʻrsatkich quyidagi uch komponentdan tashkil topadi:

• nisbiy komponent: daromad yetishmasligi, kambagʻallik xavfi;

• mutlaq komponent: moddiy muhtojlik;

• mehnat bozorida ishtirokining cheklanganligi boʻyicha: mehnat intensivligining keskin pastligi.

Nisbiy komponent – bu mintaqa belgilangan o‘rtacha oylik ish haqining 60 foizidan kam daromadga ega bo‘lgan fuqarolarga tegishlidir. Ushbu aholi qatlami kambag‘allik xavfi holatidagi kishilar hisoblanadi. Ya‘ni, turmush farovonligi ko‘rsatkichi mumtazam ortishi bilan bir qatorda, iste‘mol tovarlari va xizmatlarining narxlarini o‘sib borish tendensiyasiga ega ekanligi keyinchalik ularni ijtimoiy muhtoj aholi qatlamlari qatoriga qo‘shilib qolishi xavfini tug‘diradi.

2016 yilda amalga oshirilgan EU-SILC tadqiqoti natijalariga ko‘ra, mintaqada kambag‘allik xavfi holatida bo‘lgan aholi soni YEI aholisining qariyb 18 foizini tashkil etdi. Tadqiqot natijalariga tayangan holda, Yevropa komissiyasi ekspertlari tomonidan berilgan ilmiy bashoratlarga ko‘ra, 2021 yilga kelib Norvegiya (10,2 foizdan 18,1 foizga), Luksemburg (13,8 foizdan 20,0 foizga), Islandiya (8,9 foizdan 12,9 foizga), Avstriya (12,4 foizdan 15 foizga), Niderlandiya (11,1 foizdan 14,2 foizga), Shveysariya (15,0 foizdan 17,4 foizga) mamlakatlarida kambag‘allik xavfi holatida yashovchi aholining soni demografik muammolar hisobiga ortishi mumkin bo‘ladi<sup>53</sup>.

2018 yilda Yevrostat tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, YEI (28) mamlakatlarida o‘rta hisobda aholini ijtimoiy himoya qilishga yo‘naltirilgan xarajatlarni YAIMdagi ulushi 27,6 foizni tashkil etib, jumladan, Fransiya (32,2 foiz), Finlandiya (31,9) va Daniya (31,8) mamlakatlarida aholini ijtimoiy himoya qilishga yo‘naltirilayotgan davlat budjeti xarajatlarining YAIMdagi ulushi 30 foizdan yuqori bo‘lib, mintaqa bo‘yicha yetakchilik qilmoqdalar<sup>54</sup>.

YEI mintaqasida amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosatning o‘ziga xos jihati shundan iboratki, bozor iqtisodiyotining aholi turmush farovonligiga salbiy ta‘sirini yumshatish maqsadida universal ijtimoiy nafaqalar joriy etilgan bo‘lib, Yevropa fuqarosi hisoblangan har bir shaxs universal ijtimoiy nafaqa olish huquqiga ega bo‘ladi. Ijtimoiy muhtojlik bo‘yicha nafaqa esa faqatgina ijtimoiy jihatdan muhtoj bo‘lgan aholi qatlamlariga beriladi. Bu esa o‘z navbatida, mamlakat iste‘mol bozorida ichki talabni rag‘batlantirish mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, mintaqada global aholining qarishi muammosi avj olib borayotganini inobatga olgan holda, 2011 yildan

<sup>53</sup> Евростат маълумотлари асосида. [https://ec.europa.eu/eurostat/statistics-explained/index.php?title=Social\\_protection\\_statistics-social\\_benefits#Publications](https://ec.europa.eu/eurostat/statistics-explained/index.php?title=Social_protection_statistics-social_benefits#Publications)

<sup>54</sup> Евростат маълумотлари асосида. [https://ec.europa.eu/eurostat/statistics-explained/index.php?title=Social\\_protection\\_statistics-social\\_benefits#Publications](https://ec.europa.eu/eurostat/statistics-explained/index.php?title=Social_protection_statistics-social_benefits#Publications)

boshlab har bir hukumatda farzand ko‘rishni rag‘batlantirish maqsadida, yosh bolali oilalar uchun uch yillik universal nafaqalar joriy etiladi. Global aholining qarish muammosi o‘z navbatida ayrim uy xo‘jaliklarida mehnat intensivligining pasayishiga olib keldi. Uch yillik universal nafaqalarni tayinlanishi ushbu muammoni bartaraf etishga qaratilgan hisoblanadi. Ijtimoiy jihatdan muhtoj aholi qatlamlariga ushbu turdagi nafaqalarni olish muddati 3 yildan 14 yilgacha davom etadi. Mintaqada universal ijtimoiy nafaqalar ijtimoiy ta‘minot xarajatlarining asosiy qismini tashkil etadi.

AROPE integral ko‘rsatkichining mutlaq komponenti hisoblangan moddiy muhtojlikning holati 2018 yil 1 yanvar holatiga ko‘ra, quyidagi ko‘rsatkichlar asosida hisoblanadi<sup>55</sup>:

- yetarli darajada jihozlangan, issiqlik, elektr va gaz ta‘minoti mavjud bo‘lgan uyda istiqomat qilish;
- qisqa muddatli qarz olishi va uni qaytarish qobilliyatining mavjudligi (20 kalendar kuni);
- avtomobilga egalik qilishi;
- yotoqxon va mehmonxona mebellariga egalik qilishi;
- kompyuter;
- Internet tarmog‘iga ulanganlik va undan foydalanishi;
- har bir mavsum uchun yangi ust-bosh kiyimlar sotib olish (kamida 4 ta);
- ikki juft yaroqli oyoq kiyimi bo‘lishi (har bir mavsum uchun);
- har kuni meva va sabzavotlar iste‘mol qilishi;
- bir kunda kamida bir marta go‘sh t mahsulotlari bo‘lgan taom iste‘mol qilishi;
- uyida mutolaa qilishi uchun tegishli kitob javoni va kitoblari bo‘lishi;
- ochiq havoda dam olish uchun zarur bo‘lgan jihozlarga ega bo‘lishi;
- haftada kamida bir sutkalik to‘liq dam olish kuniga ega bo‘lishi;
- har bir bayramni munosib nishonlashi (mehmon kutishi, sovg‘a olish va boshqa bayram xarajatlari);
- uyiga mehmonlarni chaqirishi (har ikki oyda kamida 1 marta);

---

<sup>55</sup> Евростат маълумотлари асосида. [https://ec.europa.eu/eurostat/statistics-explained/index.php?title=Social\\_protection\\_statistics\\_-\\_social\\_benefits#Publications](https://ec.europa.eu/eurostat/statistics-explained/index.php?title=Social_protection_statistics_-_social_benefits#Publications)

• bir yilda kamida bir marta uydan tashqari (kurort zona)da dam olishi;

- ta'lim olish uchun munosib shart-sharoitlarga ega bo'lishi;
- mehnat qilish uchun munosib shart-sharoitlarga ega bo'lishi;
- sport mashg'ulotlari bilan shug'ullanishi.

Mamlakat fuqarosining yuqorida keltirilgan 19 ko'rsatkichdan kamida oltitasidan mahrum bo'lishi, uning mutlaq komponenti bo'yicha ijtimoiy jihatdan muhtojligini bildiradi.

Ijtimoiy siyosatning chora-tadbirlari tizimida Yevropa mamlakatlarining ko'pchiligi kambag'allikka qarshi kurashish choralarini qo'llab-quvvatlab boradilar. Ulardan Beniluks, Avstriya, Shveysariya, Fransiya kabi mamlakatlar eng yaxshi ko'rsatkichlarga ega bo'ldi<sup>56</sup>. Shu bilan birga, daromadlar taqabalanishining eng past darajasi IHTT mamlakatlarida kuzatish mumkin<sup>57</sup>.

Yevropa Ittifoqining ijtimoiy siyosati boshqa mamlakatlardan farqli o'laroq, davlat xarajatlarining yuqori darajasida ekanligi, fuqarolikning ijtimoiy huquqlarini kafolatlanishini keng qamrovli ekanligi, nafaqa va pensiyalar miqdorining kattaligi bilan ajralib turadi. Yevropa Ittifoqining qator mamlakatlarida kambag'allik chegarasidan ancha yiroqlashib ketdilar.

Ijtimoiy siyosatni moliyalashtirish manbalari ijtimoiy sug'urta badallari, egri va to'g'ri soliqlarning tushumidan shakllanadi. Yevropa mamlakatlari ijtimoiy sug'urta badallari stavkasiga katta e'tibor beradilar. 2017 yilda Yevropa mamlakatlarida ijtimoiy sug'urta fondi xarajatlarining YAIMdagi ulushi 10-16 foizini tashkil etmoqda, Yevropa mamlakatlarining aksariyat kasaba uyushmalari va ish beruvchi tashkilotlarining ijtimoiy siyosat dasturlarida pensiyalar, ishsizlik va kasallik nafaqalari, kasallik sug'urtasi markaziy o'rinni egallaydi. Shu bois, ijtimoiy sug'urta ijtimoiy siyosatning asosiy bo'g'ini sifatida shakllanib bormoqda. Markaziy va Shimoliy Yevropa mamlakatlarida imzolangan kelishuvlar asosida ijtimoiy siyosat ijtimoiy ta'minotni tartibga soluvchi omil bo'lib kelmoqda<sup>58</sup>.

Yevropa mamlakatlarida ijtimoiy siyosatni eng rivojlangan tizimi mavjud bo'lib, Yevropaliklar boshqa mintaqadagilardan farqli o'laroq, faol ijtimoiy siyosatni amalga oshiradilar. Yevropa Ittifoqi mamlakatlari

---

<sup>56</sup> "Social Policy P 427

<sup>57</sup> "Social Policy P 428

<sup>58</sup> "Social Policy P 429

kambag'allikka qarshi kelishilgan yagona ijtimoiy siyosat olib bormaydilar. Birlashgan Qirollikda ta'lim va sog'liqni saqlash tizimida yuqori ko'rsatkichlarga erishilgan holda, mehnat munosabatlari va mehnat muhofazasi borasida olib boriladigan ijtimoiy siyosat ko'p jihatdan Yevropa Ittifoqi ijtimoiy siyosatidan birmuncha farq qiladi.

Bozor munosabatlariga asoslangan ijtimoiy siyosatning qator turlari mavjud.

Yevropa Ittifoqi iqtisodiyotining "Yangi Marshall Rejasi" deya nomlanuvchi rivojlantirish rejasi 2008 yil 26 noyabrda tasdiqlangan<sup>59</sup>. Bu reja inqiroz davrida iqtisodiyotni modernizatsiyalash yo'nalishlarini quyidagicha belgilangan: aholini xarid qobiliyatini yaxshilash, yalpi talabni qo'llab-quvvatlash, ishonchni rag'batlantirish, "aqli" investitsiyalarni kiritgan holda, resurslarni tejaydigan yuqori texnologiyali atrof-muxitni ifloslantirmaydigan raqobatbardosh texnologiyalarni kiritish, infratuzilmaga investitsiyalar kiritish. Ijtimoiy ta'minot ning muhim tamoyillari ijtimoiy mas'uliyat va birdamlikdan iborat. Yevropa Ittifoqining iqtisodiyotini qo'llab-quvvatlash uchun 200 mlrd. yevro ajratilish ko'zda tutilgan. Yevropa Markaziy banki foiz stavkasini 0,5 foizga tushirdi, Yevropa Investitsiya Banki va Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot bankining resurslari ko'paytirildi, 3 foiz dan katta budget taqchilligi bo'lgan mamlakatlarga jarima sanksiyalari belgilanadi, QQS kamaytirish yo'llari belgilandi va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash uchun davlat kafolatlari ostida qarzlilar berildi.

Bandlik muammosi ijtimoiy davlatning muhim muammolardan biridir. To'la bandlik muammosi Yevropa Ittifoqining Rim shartnomasida ham tasdiqlangan edi. Yevropa Ittifoqining ijtimoiy sohadagi islohotlarining birinchi bosqichi iqtisodiy o'sishning rag'batlantirish edi. Hozirda yangi sifatli ish o'rinlarini tashkil etish iqtisodiy o'sishni ta'minlashning omillaridan biri hisoblanadi. Yevropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlar o'rtasida ish o'rinlarini kengaytirish, bandlikni oshirish bo'yicha analitik tahlillar olib borish rejalashtirildi. Bandlik siyosati Yevropa Ittifoqining ijtimoiy siyosatini isloh etishni ustuvor yo'nalishi deb belgilangan.

Yevropa mamlakatlari ijtimoiy siyosatini muhim muammolaridan biri ijtimoiy sohada globalizatsiya oqibatlariga qarshi kurashdir. Global iqtisodiy jarayonlar davlat tomonidan milliy iqtisodiyotni tartibga

<sup>59</sup> A European Economic Recovery Plan. –Brussels, 26.11.2008\ http://ec.europa.eu/economy\_finance/publications/publication\_13504\_en.pdf

solishni susaytirishi tufayli ko'pgina mamlakatlar ijtimoiy tengsizlikka qarshi kurashda ojiz qolmoqdalar. Odatda, ishchi kuchi ko'proq aholi ijtimoiy himoyasiga katta e'tibor beriladigan mamlakatlarga qarab intiladi, chunki ish haqi, ishsizlik bo'yicha nafaqalar, ijtimoiy sug'urta ushbu mamlakatlarda yaxshi ta'minlangan. Shu bilan birganlikda globalizatsiyaning ijobiy tomonlari ham mavjud bo'lib, u demokratiya, erkinlik va bozor bir-biri bilan uzviy bog'liq va ijtimoiy sohalar rivojiga o'z hissasini qo'shadi. Globalashuvning salbiy va ijobiy jihatlaridan kelib chiqqan holda, shuni aytish joizki, bugungi kunda Yevropada, globallashuv va migrantlarning ko'payishi sababli yevroskeptitsizm g'oyalari kuchayib bormoqda. Yevropa davlatlarida istiqomat qiluvchi muayyan guruhlar, o'z davlatlarini Yevropa Ittifoqidan chiqib ketishini va milliy suverenitetga asoslangan ijtimoiy siyosatni olib borish kerakligini aytishadi.

Ushbu dolzarb muammolarni hal etishda Xalqaro mehnat tashkiloti globalizatsiyaning ijtimoiy jihatlarini bilan shug'ullanuvchi Butunjahon komissiyasini tashkil etdi. Ushbu komissiya mehnat bozorini tartibga solish, aniq talab va taklif asosida ish yuritish, ish bilan ta'minlash borasida ijtimoiy huquqlar, ayollarni ish bilan ta'minlanishidagi huquqlarini amalga oshirish bilan shug'ullanadi.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarining ijtimoiy siyosatini amalga oshirishning maqsadi-maksimal to'la bandlikka erishish, kambag'allik va ishsizlikka qarshi kurash, sog'liqni saqlash va ta'lim tizimini rivojlantirish, aholini turmush darajasini oshirishga qaratilgan. Ijtimoiy sohani modernizatsiyalashga qaratilgan chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqishga qaratilgandir<sup>60</sup>.

Yevropa davlatlari yetakchilari 14 dekabrda 2019 yil o'rtasigacha – Yevroparlamentga yangi saylovlar o'tishi kerak bo'lgan sanagacha 2018-2019 yillarda Yevropa Ittifoqini rivojlantirishning ustuvor vazifalari haqidagi qo'shma deklaratsiyani imzoladilar. Bu haqda Yevrokomissiya saytida ma'lum qilingan.

Deklaratsiyada rivojlanishning asosiy yo'nalishlari belgilab olingan: fuqarolarning xavfsizligini yaxshiroq ta'minlash, migratsiya siyosatini javobgarlik va hamjihatlik ruhida isloh qilish va rivojlantirish, ishcizlik darajasini pasaytirish, iqtisodiyot va investitsiyalashning o'sishi,

---

<sup>60</sup> Доренко К.С. Социальная политика США, стран ЕС и России на современном этапе: приоритеты, принципы, правовое обеспечение\К. С. Доренко \ Правое и управление. XXI век.-2012.

Yevropa Ittifoqining ijtimoiy siyosati, yagona raqamli bozorni joriy qilish, energetik ittifoqni shakllantirish va iqlim o'zgarishiga qarshi kurash bo'yicha uzoqni ko'zlovchi siyosat, Yevropa Ittifoqi hududida qonuniy demokratiyani rivojlantirish, shuningdek, Yevropa qadriyatlarini saqlanib qolishi, moliyaviy firibgarliklar va kiber tahdidlarga qarshi kurashish ham muhimligi ta'kidlab o'tilgan.

Qo'shma deklaratsiya – bu bizning quruq va'dalar bermasligimizga va'damizdir. Bu bizning Yevropa oldida turgan muammolarning aniq yechimlarini izlash bo'yicha yaqin 18 oyda jadal ishlashga sodiqligimiz belgisidir”, deb aytgan Yevrokomissiya raisi Jan-Klod Yunker<sup>61</sup>.

COVID-2019 tarqalishi tufayli vujudga kelgan pandemiya sharoitida, Yevropa Ittifoqi davlatlarida ijtimoiy siyosatga doir bo'lgan strategiyani qayta ko'rib chiqish jarayoni kuzatilmoqda. Bunga sabab, Yevropa Ittifoqi davlatlarida bandlikka doir muammolar, sog'liqni saqlash tizimiga doir muammolarni vujudga kelishidir. Shuni ta'kidlash joizki, pandemiya Yevropa davlatlarining integratsiyasi va milliy suverenitet mutanosibligining fundamental masalasini qo'ymoqda. Ayrim ekspertlarning fikriga ko'ra, yaqin istiqbolda Yevropa Ittifoqi davlatlarida milliy suverenitetni ta'minlashga e'tibor kuchayadi.

### **6.3. AQSH liberal ijtimoiy siyosatining mazmuni va amalga oshirish yo'nalishlari**

Bozor munosabatlarining Liberal modeli quyidagi tamoyillarni o'z ichiga oladi: bozor mexanizmlarning ustunligi, iqtisodiy o'sishning muhimligi, ish joyining ahamiyati kabilar. Liberal modelning muhim afzalligi raqobotbardoshlikka jiddiy ta'sir ko'rsatishdir. Esping-Andersenning ta'kidlashicha, jamiyatdagi iqtisodiy faoliyat ijtimoiy siyosat va iqtisodiy o'sish o'rtasida muhim omil bo'la olishini tasdiqladi. Ijtimoiy siyosatni amalga oshirish iqtisodiy o'sishning ta'minlashda alohida o'rin tutadi.

AQSH ijtimoiy ta'minot tizimi birmuncha murakkab tuzilgan bo'lib, turli ijtimoiy nafaqa, to'lov va dotatsiyalarni o'z ichiga oladi. Uzoq yillar mobaynida AQSHda davlat va xususiy sektor tomonidan ko'rsatiladigan ijtimoiy ta'minot xizmatlari shakllangan. Davlat tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarda faqatgina minimal ijtimoiy

<sup>61</sup> <https://kun.uz/46359988?a=%2F46359988>

kafolatlar ta'minlansa, xususiy sektor aholi turmush farovonligini oshirishga ixtisoslashtirilgan ijtimoiy ta'minot xizmatlarini ko'rsatadi. Xususiy sektor tomonidan to'lanadigan pensiya, ijtimoiy nafaqa va sug'urta to'lovlari davlat tomonidan to'lanadigan ushbu to'lovlardan birmuncha ko'proq hisoblanadi. AQSH amaliyotida davlat tomonidan ko'rsatiladigan ijtimoiy ta'minot xizmatlari quyidagilarga ajratiladi:

- davlat ijtimoiy sug'urta dasturi - qarilik pensiyasi, ishsizlik nafaqasi, keksalarga tibbiy xizmat ko'rsatish va boshqa turdagi minimal ijtimoiy nafaqalarni o'z ichiga oladi.

- ijtimoiy yordam – bunda ijtimoiy jihatdan muhtoj aholi qatlamlariga ularning yoshidan qat'iy nazar, ijtimoiy nafaqalar bilan ta'minlash amaliyoti tushuniladi.

Amerika Qo'shma Shtatlari erkin bozor jamiyatining arxipik ko'rinishidir. Ijtimoiy siyosatni ishlab chiqishda xarajatlar miqdori va kambag'allik darajasi nuqtayi-nazaridan kelib chiqqan holda yondashiladi.

AQSHda 1930 yillarda ijtimoiy siyosatning amalga oshirish shakllari ishlab chiqildi, pensiya ta'minoti, nogironlik nafaqalari, ishsizlik bo'yicha nafaqalar tayinlandi. Shu bilan birga aytib o'tish joizki, AQSHda sog'liqni saqlash tizimida kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqilmagan edi<sup>62</sup>.

Aholini ijtimoiy himoya qilishda AQSH amaliyoti bozor iqtisodiyoti mexanizmlariga moslashgan liberal ijtimoiy siyosat dasturlaridan hisoblanadi. AQSHda ijtimoiy siyosat chora-tadbirlari quyidagilardan iborat bo'ladi:

- pensiya ta'minoti, jumladan, xususiy pensiya ta'minoti;
- AQSHda o'rnatilgan kambag'allik chegarasidan kam daromadga ega bo'lgan aholi guruhlarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash;
- aholining ta'lim, sog'liqni saqlash va axborot xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish;
- mamlakatdagi aholining ijtimoiy jihatdan muhtoj guruhlari, jumladan, urush qatnashchilari, harbiy xizmatchilar, bolali oilalar, ijtimoiy muhtoj bo'lgan pensionerlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash dasturlari.

AQSHda amalga oshirilayotgan faol ijtimoiy siyosat chora tadbirlari mehnat bozorida yuqori darajadagi malakali ishchi kuchini

---

<sup>62</sup> "Social Policy". P. 435.

shakllantirish uchun zamin yaratdi. AQSHda 1960 yillarda keksalar uchun davlat tibbiy yordami (Medicare) va aholining kambag'al qatlami uchun (Medicaid) davlat tibbiy yordami chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilgan.

2010 yilda AQSH sobiq Prezidenti Barak Obama tomonidan AQSH Kongressida tibbiy sug'urta bo'yicha islohatlar qabul qilindi<sup>63</sup>.

Ushbu qabul qilingan islohatlar zamirida 100 foiz aholini tibbiy sug'urta bilan ta'minlash ko'zda tutilgan edi. Bu esa o'z navbatida asosiy ish beruvchi bo'lgan yirik korparatsiyalarning manfaatlariga to'g'ri kelmas edi. 2016-yilda bo'lib o'tgan saylovlar natijasida Prezidentlikka saylangan Donald Tramp sobiq Prezident Barak Obama tomonidan taklif etilgan va yuqorida qayd etilganidek, 2010 yilda qabul qilingan islohatlarni bekor qildi.

Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi AQSH ijtimoiy siyosati, aholini ijtimoiy himoyalash tizimiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Oxirgi o'n yilliklarda mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy sohani rivojlantirishda davlatning mavqeyi borgan sari ortib bormoqda. Shu o'rinda ommaviy ta'limni rivojlantirish, uning aholini turmush darajasi va iqtisodiy o'sishga ta'sirini oshirish, ITT rivojlanishida salmoqli o'rin egallash, davlatning pensiya ta'minoti va tibbiy sug'urta ijtimoiy dasturlarida ijtimoiy vazifalarini belgilash kabi strategik maqsadlar qo'yilgan edi<sup>64</sup>.

Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi bank tizimining barcha bo'g'inlariga ta'sir etib, tushumlari hisobiga amalga oshiriladigan davlat xarajatlarining pasayishiga va ijtimoiy ta'minot xarajatlarining ortishiga olib keldi. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida hukumat ijtimoiy siyosat xarajatlarining qisqartirish yo'llarini izlab, bandlikni oshirish orqali ijtimoiy xarajatlarni qisqartirishga harakat qildilar.

AQSHda aholi ijtimoiy himoya qilish ap jamiyatning ijtimoiy rivojlanishi borasidagi tadqiqotlar ish haqi darajasi bilan bog'langan. AQSHda minimal ish haqi soatiga 5-8 AQSH dollarini tashkil etadi. Ushbu miqdordagi ish haqi past darajadagi malakaga ega yollanma ishchilar uchun belgilanib, yuk tashuvchilar, sotuvchilar, idish-tovoq yuvuvchilar, farroshlar shular jumlasidandir. 2011 yilda AQSHda o'rtacha ish haqi soatiga 25 AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2015

<sup>63</sup> "Social Policy". P. 436.

<sup>64</sup> Супян В. Роль государства в реализации приоритетов социально-экономического развития США. / <http://www.r-reforms.ru/indexpub26.htm>.

yilga kelib malakatdagi o'rtacha oylik ish haqi 3 906 AQSH dollariga teng bo'ldi.

AQSH iqtisodchi olimlari tomonidan amalga oshiriladigan jamiyatning ijtimoiy rivojlanishini baholashga qaratilgan ayrim tadqiqotlarda mamlakatdagi soliqqa tortish tizimi ko'rsatkichlari tahlil qilindi. AQSH aholisining 90 foiz qismi daromadlarining 25 foizi soliqqa tortilsa, qolgan 10 foiz aholi daromadlarining soliqqa tortiladigan qismi ayrim holatlarda 50 foizgacha yetishi mumkin.

2000 yilda AQSH demokratlar partiyasi ijtimoiy ta'minot tizimini qo'llab-quvvatlash maqsadida islohatlar dasturini ishlab chiqdilar. Ushbu dasturda to'rt muhim makroiqtisodiy muammoni hal etishga e'tibor qaratildi:

- 2012 yilga kelib federal hukumat qarzini qoplash;
- Ijtimoiy ta'minot tizimini sog'lomlashtirish, "Mediker" dasturini himoya qilish, jumladan, davlat qarzlarini davlat ijrosi profitsit orqali qoplash va ijtimoiy ta'minot tizimini saqlab qolish;
- Sog'liqni saqlash, atrof-muhit himoyasi, ta'lim tizimi kabi asosiy ijtimoiy sohalarga mablag'larni investitsiya qilishni ko'paytirish;
- O'rta mulkdorlar daromadlariga solinadigan soliqlarni 500 mlrd. doll.ga pasaytirish<sup>65</sup>.

Ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan federal budjet xarajatlarining o'rni o'zgardi. AQSH federal budjeti ijtimoiy yo'naltirilgan budjetga aylanib bormoqda. Rasmiy AQSH budjet statistikasi ikki xil yo'nalishda ijtimoiy maqsadlar uchun xarajatlar moliyalashtirilmoqda, jumladan, "inson resurslariga yo'naltirilgan xarajatlar" va "jismoniy shaxslarga transfert to'lovlari" besh yo'nalish bo'yicha amalga oshiriladi:

- 1) Ta'lim, ishchi kuchini mehnatga tayyorlash va bandlik;
- 2) Sog'liqni saqlash;
- 3) Daromadlar bo'yicha kafolatlar;
- 4) Ijtimoiy ta'minot;
- 5) Veteranlarga to'lovlar va xizmatlar<sup>66</sup>.

Ijtimoiy sohadagi islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri – Oliy ta'lim tizimini rivojlantirish hisoblanadi. Oliy ta'lim tizimini

<sup>65</sup> Prosperity for America's Families. The Gore-Lieberman Economic Plan. September 2000. Nashville, 2000. – P.172.

<sup>66</sup> Травкина Н.М. США: партии, бюджет, политика. Ин-т США и Канада РАН.М.:Наука, 2008.-с.126,127.

rivojlantirish iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash va mehnat unumdorligini oshirishga qaratilgan omillardan biri hisoblanadi.

Sog‘liqni saqlash tizimi xizmatlarini kengaytirish maqsadida maqsadli davlat dasturlari qabul qilindi. 55-61 yoshdagi kishilar o‘rtasidagi ishini yo‘qotgan aholi, yosh bolalar va 62-65 yoshlardagi aholi guruhlarini qamrab olgan. Ularni tibbiy sug‘urtalashga qaratilgan yanada takomillashtirilgan dasturlar qabul qilindi.

AQSHda ijtimoiy siyosatning huquqiy asoslari ijtimoiy davlatning talablariga to‘liq javob bera oladi. AQSHda ta‘lim tizimini ijtimoiy siyosatning ustuvor yo‘nalishi sifatida isloh etish, uni iqtisodiy va demografik muammolarga nisbatan takomillashtirish zamon talabidir.

AQSH amaliyotida kambag‘allikni aniqlashning oila tarkibi va uning a‘zolari sonidan kelib chiqqan holda 48 xil kambag‘allik chegaralari mavjud. Aksariyat hollarda kambag‘allikni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda mamlakatda aholining soliqqa tortilmagan holdagi daromad darajasi inobatga olinadi. 2016 yilda mamlakatda o‘rnatilgan ijtimoiy me‘yorlarga ko‘ra, quyidagi kambag‘allik chegaralari o‘rnatildi:

- to‘rt kishilik oilalarning umumiy daromadi yiliga 24 563 doll.;
- uch kishilik oilalarning umumiy daromadi yiliga 19 105 doll.;
- ikki kishilik oilalarning umumiy daromadi yiliga 15 569 doll.;
- oila a‘zolari bo‘lmagan yolg‘iz kishilar uchun umumiy yillik daromadi 12 228 doll.dan kam bo‘lsa kambag‘al hisoblanadi<sup>67</sup>.

2017 yilda AQSH statistik byurosi tomonidan berilgan ma‘lumotlarga ko‘ra, 2016 yilda 40,6 mln. aholi yoki mamlakat aholisining 12,7 foizi yuqorida keltirilgan kambag‘allik chegarasidan past daromadga ega bo‘lgan va ijtimoiy jihatdan muhtoj hisoblangan. AQSH statistik byurosi tomonidan kambag‘allikni o‘rganishda aholi yoshi bo‘yicha qo‘yidagi guruhlariga ajratiladi va ularning daromadlari hisoblanadi:

- 18 yoshgacha;
- 18-64 yoshgacha;
- 65 va undan katta yoshdagilar.

AQSH statistik byurosi ma‘lumotlariga ko‘ra, 2016-yilda 13,3 mln. bolalar va 18 yoshgacha bo‘lgan yoshlar kambag‘al oilalarda katta bo‘layotganligi aniqlandi. Mehnat layoqatiga ega bo‘lgan 18-65

<sup>67</sup> “Ijtimoiy siyosat”. O‘quv qo‘llanma i.f.d. prof. A.V.Vaxabovning umumiy tahriri ostida. – Toshkent: “MUMTOZ SO‘Z”, 2019. – B. 283.

yoshdagi aholining 11,6 foizi va pensiya yoshidagi aholining 9,3 foizi kambag'allik chegarasidan past darajada yashayotganligi aniqlandi. Shu bilan bir qatorda, AQSHda istiqomat qilayotgan qora tanli aholining 22,0 foizi, lotinamerikaliklarning 19,4 foizi, osiyoliklarning 10,1 foizi va oq tanlilarning 8,8 foizi kambag'alligi aniqlangan.

Tadqiq etilayotgan davrda AQSHda kambag'al hisoblangan uy xo'jaliklarining to'rt dan uch qismi shaxsiy avtomobil va yuk tashish mashinasiga, 80 foizida konditsionerga, 92 foizida mikroto'lqinli pechga, 70 foizi videomagnitafonga, 65 foizdan ortig'i kabelli yoki sputnikli dasturlarga ulangan televideniya xizmatlariga ulanganligi. 60 foizdan ko'prog'i DVD- rleyrga, 31 foizi esa ikki yoki undan ortiq shaxsiy avtomobil yoki yuk mashinasiga ega ekanligi aniqlangan. AQSHda kambag'al hisoblangan oilalarning 70 foizidan ko'prog'i oila a'zolari jon boshiga ikki yoki undan ortiq xonadan tashkil topgan uy-joyga egalik qiladi. Faqatgina mamlakatdagi 6 foiz kambag'al oilalarda uy-joy muammosi mavjud hisoblanadi. Amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, AQSHdagi kambag'al aholining uy-joy bilan ta'minlanganlik holati Shveysariya, Fransiya va Buyuk Britaniyadagi o'rta qatlamning uy-joy bilan ta'minlanganligi holatidan sezilarli darajada yaxshiroqdir.

AQSHda kambag'allarga ijtimoiy yordam ko'rsatish quyidagi dasturlarni o'z ichiga oladi:

- Ijtimoiy ta'minot nafaqasi;
- Medikeyd;
- Oziq-ovqat mahsulotlari sotib olish uchun mo'ljallangan kuponlar;
- Maktab o'quvchilari uchun bepul nonushta va tushlik;
- Oziq-ovqat mahsulotlari xarajatlarini taqsimlash ijtimoiy jihatdan muhtoj va kambag'al aholi guruhlarini o'rtasida birlamchi iste'mol mahsulotlari qatoriga kiradigan oziq-ovqat tovarlarini bepul tarqatish.

AQSHda ijtimoiy sug'urta xizmatlari quyidagilarni qamrab oladi:

- yoshga doir va boquvchisini yo'qotganlik bo'yicha sug'urta;
- mehnatga layoqatsizlik sug'urtasi;
- "Mediker" tibbiy sug'urtasi;
- kasallik sug'urtasi (kasalxona to'lovlarini to'lash, malakali parvarish to'lovlari, uyda tibbiy xizmat ko'rsatish uchun to'lovlar).

AQSHda pensiya yoshidagi aholi daromadlari quyidagi manbalar hisobidan shakllanadi:

- 40 foiz pensiya fondi mablag'lari;

- 13 foiz davlat yoki xususiy pensiya to'lovlari;
- 18 foiz ish haqi;
- 25 foiz mol-mulkdan olinadigan daromad;
- 1 foiz davlat yordami;
- 3 foiz boshqa manbalar hisobidan.

AQSHda pensiya tizimining zamonaviy ko'rinishi quyidagilardan tashkil topadi:

- davlat pensiya ta'minoti;
- an'anaviy xususiy pensiya ta'minoti;
- ish joyidan jamg'ariladigan pensiya ta'minoti;
- individual pensiya;
- davlat nafaqasi (ijtimoiy pensiya).

Bugungi kunda AQSH aholisining savodxonligi darajasi 99 foizni tashkil etadi va 30 foiz aholi vakalavr darajasidagi ma'lumotga ega hisoblanadi.

AQSH ijtimoiy siyosatining strategik yo'nalishlari quyidagilarda aks etadi:

- federal darajada davlatning ijtimoiy majburiyatlarini kengaytirish;
- davlat ijtimoiy siyosatini isloh etish;
- ijtimoiy sohada tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish;
- mamlakat ijtimoiy siyosatini neoliberal tamoyillar asosida amalga oshirish<sup>68</sup>.

COVID-2019 tarqalishi tufayli vujudga kelgan pandemiya sharoitida, AQSHning ijtimoiy siyosatga doir bo'lgan strategiyani qayta ko'rib chiqish jarayoni kuzatilmoqda. Ishsizlikni bartaraf etish uchun bugungi kunda AQSHda davlat yirik korporatsiyalarning aksiyalarini sotib olmoqda. Shu bilan ekspertlarning fikriga ko'ra inqirozlar tufayli AQSHda migrantlar borasidagi siyosatning o'zgarishi kutilmoqda. Mazkur siyosat ilk marotaba AQSHga mirrantlarning kirib kelishi va ularni ish bilan ta'minlanishi holatini cheklashini nazarda tutishi mumkin. O'z navbatida bu holat AQSH ijtimoiy siyosatining xususiyatini tubdan o'zgartiradi. Chungi AQSH migrantlar mamlakatidir. Mamlakatda kechayotgan mazkur jarayonlarga pandemiya tufayli vujudga kelgan inqiroz sabab bo'lmoqda. Mazkur inqirozni hal

<sup>68</sup> "Ijtimoiy siyosat". O'quv qo'llanma i.f.d. prof. A.V.Vaxabovning umumiy tahriri ostida. – Toshkent: "MUMTOZ SO'Z", 2019. – B. 284-285.

etishda AQSH va Yevropa Ittifoqi davlatlarining siyosiy tizimning chegaralari kengayishi kuzatilmoqda.

#### **6.4. Sharqiy Osiyo mamlakatlari ijtimoiy siyosatining xususiyatlari**

XX asrning 70-yillarigacha Sharqiy Osiyodagi ijtimoiy siyosatga yetarlicha e'tibor qaratilmagan edi. Faqat Yaponiyadagina ijtimoiy ta'minot tizimi ishlab chiqilgan edi.

Sharqiy Osiyo mamlakatlari o'rtasida Yaponiyada ijtimoiy siyosatning rivojlangan tizimini ko'rish mumkin. Aholini ijtimoiy himoya qilish amaliyotining jahon tajribasi tahliliga ko'ra, AQSH modelida ushbu dasturlar individual yondashuvlar asosida jamiyat a'zosining, Shved modelida esa jamiyatning barcha a'zolarini yoppasiga ijtimoiy himoya qilishga e'tibor qaratilsa, Yaponiyada aholini ijtimoiy himoyalash chora-tadbirlari faoliyat yuritayotgan korxonalar ma'muriyati tomonidan jamoa turmush farovonligini yaxshilashga yo'naltirilgan hisoblanadi. Yaponiyada ijtimoiy siyosatda har bir insonning farovonligini oshirish yoki uni mustahkamlanishi uchun emas, balki yaxlit bir jamoa haqida qayg'uriladi. Iqtisodiy adabiyotlarda ijtimoiy siyosatning "Yapon" modeli korporativ model sifatida e'tirof etiladi.

1960 yildan keyingi davrda Yaponiyada "YAIMni ikki barobarga oshirish" siyosati amaliyotga tatbiq etila boshlandi. Mazkur davrda mamlakatda mehnatkashlarni munosib ijtimoiy himoyalash masalasi e'tibor markazida bo'ldi.

Ushbu vaziyatni inobatga olgan holda, hukumat xususiy sektordagi ish beruvchilar, xususiy sektordagi ish beruvchilar va yollanma ishchilar o'rtasidagi qat'iy kelishuvga asoslangan xususiy sektorni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan davlat siyosatiga ustuvorlik qaratildi.

Xalqaro ekspertlarning jahon mamlakatlarida aholini ijtimoiy himoya qilish amaliyotini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarida bu turdagi o'zaro iqtisodiy kelishuvga asoslangan bandlik uch yoqlama ijtimoiy sheriklik asosidagi ijtimoiy himoya dasturining poydevori deb baholangan. Shu bilan bir qatorda Yaponiyada bu turdagi o'zaro kelishuvning mavjudligi yollanma ishchilarning ijtimoiy holati to'g'risida ish beruvchining ko'rsatgan ijtimoiy himoya tadbirlari hisobiga ularning o'z kompaniyalari uchun bor imkoniyatlari bilan mehnat qiladilar.

Davlat, ish beruvchi va yollanma ishsi o'rtasidagi ijtimoiy kelishuvga asoslangan mehnat bozorining tashkil etilishi mamlakatda fuqarolarni ijtimoiy himoya qilishning o'ziga xos bo'lgan mexanizmini yaratishga imkon berdi. Ikki karra YAIM siyosatida davlat milliy ijtimoiy himoya tizimini oz qo'liga olib, ishchilardan ishga bo'lgan munosabat, mas'uliyat bilan yondashuv ishchining samaradorligi va sifati uchun javobgarlik talab qilinardi.

Ushbu jarayonda davlat ijtimoiy hamkorlik bo'yicha kafil sifatida ishtirok etib, ijtimoiy himoyaga muhtoj insonlarni o'z himoyasiga olgan edi, bu esa o'z navbatida ish samaradorligini oshirib, kutilgan natijalarni bera boshladi. Bandlik siyosati bo'yicha birqancha ishlar amalga oshirildi, bunda bo'sh ish o'rinlari yaratildi, daromadlar o'rtasidagi keskinlik kamaytirildi, tengsizlikka barham berila boshlandi. Ijtimoiy sohaga katta miqyosdagi investitsiyalar kiritildi. Bu esa o'z navbatida inson kapitalining rivojlanishida jahonda yetakchi o'rinlardan biriga chiqib olish imkonini berdi.

Yaponiya aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- iste'mol tavarlari ijtimoiy xizmatlar sifatni takomillashtirish va ularning tannarxini optimallashtirish yevaziga aholini iste'molini rag'batlantirish;

- tabaqalashgan ijtimoiy sug'urta xizmatlarini ko'rsatish, jumladan, tabaqalashgan tibbiy sug'urta xizmatlari. Bunda yollanma ishchining bandlik maqomi, ishlayotgan tashkilotining nufuzi, sug'urtalanuvchining moddiy holatidan kelib chiqqan holda sug'urta xizmatlari ko'rsatiladi;

- davlat ish beruvchilar nomidan ijtimoiy himoya xizmatlariga kafolatlarining mavjudligi;

- yirik ish beruvchi tashkilotlarning o'z yollanma ishchilarining ijtimoiy ta'minoti uchun kafolatining mavjudligi;

- ish beruvchi tomonidan umrbod yollangan ishchilarga ta'lim va tibbiy xizmatlarning bepul yoki tegishli imtiyozlar asosida ko'rsatilishi;

- xususiy sektordagi ish beruvchilar tomonidan aholiga ko'rsatiladigan ijtimoiy xizmatlarning moliyalashtirilishida davlatning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash dasturining mavjudligi<sup>69</sup>.

<sup>69</sup> "Ijtimoiy siyosat". O'quv qo'llanma i.f.d. prof. A.V.Vaxabovning umumiy tahriri ostida. – Toshkent: "MUMTOZ SO'Z", 2019. – B. 286.

Yaponiya aholisini ijtimoiy himoya qilish tizimining uch yoqlama ijtimoiy sheriklikka asoslanganligi mamlakat mehnat bozorida fuqarolarni ishsizlikdan maksimal darajada himoyalash, yangi ish o‘rinlarni yaratishni rag‘batlantirish bilan bir qatorda, aholi daromadlari tabaqalanish darajasini kamaytirish imkonini beradi. Mamlakat soliq siyosati esa daromadlarni emas, balki boyliklarni qayta taqsimlashga asoslangan bo‘lib, jamiyatda ijtimoiy tengsizlik, ijtimoiy jihatdan muhtojlikni qisqartirish uchun zamin yaratadi. Yaponiya ijtimoiy himoya tizimi aholining yoshi ulg‘aygan sari fuqaroning turmush farovonligini yaxshilab borishga yo‘naltirilgan bo‘lib, bandlik muddatlari va ish haqi to‘lash tartibi ham shunga yarasha o‘zgarib boradi. Jumladan, Yaponiya mehnat bozorida bandlik quyidagi davrlarga bo‘linib, ish haqi ortish tartibi qat’iy o‘rnatilgan:

- yollanma ishchining 30 yoshgacha bo‘lgan mehnat faoliyati – bunda ishchi ish haqining bazis stavkasining o‘zini oladi. Mazkur davr oila qurishga tayyorgalik davri deb ataladi;

- yollanma ishchining 30-40 yosh oralig‘idagi mehnat faoliyati – bunda ishchi ish haqining bazis stavkasi bilan bir qatorda 70-80 foizgacha ustama haqi olish huquqiga ega bo‘ladi. Ushbu davr oila qurish va farzandli bo‘lish davri deb ataladi;

- 40-45 yosh oralig‘idagi yollanma ishchining mehnat faoliyati – bunda ishchi ish haqining bazis stavkasi, ustama haq va turli bonuslar olish huquqiga ega bo‘ladi. Bonuslar miqdori ish berivchining daromadi bilan bog‘liq bo‘ladi. Bu davrda yollanma ishchi mehnat faoliyatining yetuklik davri sifatida e’tirof etiladi;

- yollanma ishchining 46 yoshdan keyingi davrdagi mehnat faoliyati – bu mehnat faoliyatidagi pensiyaga chiqishga tayyorgarlik muddati bo‘lib, mazkur davrda yollanma ishchining bazis ish haqi miqdori o‘zgarmay qoladi.

Yaponiya davlat budjeti tomonidan faqatgina aholini minimal darajadagi turmush farovonligini ta‘minlash kafolatlanadi va u quyidagilardan iborat bo‘ladi:

- kunlik minimal iste‘mol;
- ta‘lim va tibbiy xizmat ko‘rsatish;
- uy-joy bilan ta‘minlash va kommunal xizmatlar ko‘rsatish;
- onalikni himoyalash;
- ishsizlikdan himoyalash;
- dafn marosimi uchun beriladigan nafaqa.

Yuqorida e'tirof etilgan chora-tadbirlarni moliyalashtirish uchun sarflangan xarajatlarning 75 foizi davlat budjetidan, qolgan 25 foizi mahalliy budjetdan moliyalashtiriladi.

Yaponiyaning ijtimoiy siyosatida keksalar hayotini farovonlashtirishga alohida e'tibor qaratilgan. Fuqarolarga pensiya ta'minotini davlat bor-yo'g'i 1/3 qismini to'laydi, qolgan qismi nodavlat yoki ixtiyoriy pensiya ta'minoti hisobidan moliyalashtiriladi.

Yaponiya eng uzoq umr ko'radigan aholisiga ega davlat. Mamlakatda o'rtacha umr ko'rish 83,5 yoshni va o'lim darajasi bo'yicha eng past ko'rsatkichni tashkil etadi. Hozirgi kunda Yaponiyaning 25,8 foiz aholisi 65 yoshdan katta yoshdagi kishilar bo'lib, tug'ilish jarayoning kamligi, insonlarni kech turmush qurishi demografik muammolarni keltirib chiqarmoqda. Shu maqsadda, Yaponiya davlati aholining global qarish muammosini hal qilishda immigratsiyani cheklash va tug'ilishni rag'batlantirish choralari qo'llamoqdalar.

Yaponiyada ta'lim tizimi yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lib, mamlakatda 1947 yildan boshlab boshlang'ich maktab va o'rta maktab majburiydir. Yaponiyaning ta'lim tizimi o'ta raqobatbardosh bo'lib, aholining aksariyat qismi ta'limni, o'rta-maxsus va oliy ta'limni davom ettiradilar, davlat ham bu tizimni muntazam rag'batlantirib boradi.

Yaponiyada sog'liqni saqlash tizimida ham katta islohotlar olib borilmoqda. Tibbiy xizmat tibbiy sug'urtalar orqali amalga oshiriladi, barcha o'z ish joyiga ega aholi o'z tibbiy sug'urtasiga ega, sug'urtasi yo'q insonlar davlat tomonidan kafolatlanadi. 1973 yildan buyon sug'urta davlat tomonidan moliyalashtirilib boriladi. 2025 yilga kelib ijtimoiy ta'minot xarajatlarini moliyalashtirilishni oshirish va kam ta'minlanganlarni ijtimoiy himoya darajasining ham oshirilishi kutilmoqda.

Yaponiyada aholining turmush farovonligi darajasi muntazam ravishda ortib bormoqda. Mamlakat aholisining 80 foizdan ortig'i shahar hududlarida istiqomat qilishi ushbu fikrimizning yaqqol dalilidir. 2025 yilga borib hukumat aholini ijtimoiy himoya qilish qamrovini yanada oshirish rejasini o'z oldiga qo'ymoqda.

Gonkong va Singapur mamlakatlarining ham ijtimoiy siyosati o'ziga xos xususiyatlarga ega. Singapurda ijtimoiy siyosat davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi, Gonkong esa ijtimoiy xarajatlardan davlat budjetidan oz miqdorda mablag' ajratar edi. Qiyosiy tahlillarning ko'rsatishicha, Fransiya, Germaniya, Avstriya va Shveysariya

davlatlarida amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosat va Yaponiyadagi ijtimoiy siyosat bir-biridan keskin farq qiladi, Yaponiyadagi ijtimoiy siyosat oila barqarorligini ta'minlashga qaratilgan.

Sharqiy Osiyodagi demografik o'zgarishlar, aholining qarishi, aholi tug'ilish darajasining pasayishi va o'limning ortishi achinarli holatdir. Yaponiya va Janubiy Koreyadagi aholining qarishi va aholi sonining kamayishi shundan dalolatdir.

Yaponiya, Janubiy Koreya va Tayvanda ayollar o'rni asosan faqat farzand tug'ish va keksalarga qarash bilan belgilanar edi. Hozirda mehnat resurslarining yetishmovchiligi tufayli turmush qurgan ayollar ham mehnat bozoriga jalb qilinmoqda. Lekin ayollar ko'proq bola parvarishi bilan shug'ullanishi, keksalar parvarishi bilan shug'ullanib, oilada o'z o'rnini topishi kerak. Bu o'rinda ijtimoiy siyosatning ahamiyati kattadir<sup>70</sup>.

Shuni ham aytib o'tish joizki, Yaponiya davlatida ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda texnologiyalardan foydalanishga katta e'tibor qaratilgan. Yaponiyaning yirik korparatsiyalari bugungi kunda nogironligi bor shaxslar va keksa yoshdagi kishilargai qaraydigan robotlarni yaratishga katta buyurtma olganlar.

### **Nazorat savollari:**

1. Ijtimoiy siyosatning "Farovonlik modeli"ning turlarini yoring.
2. Daniyalik tahlilchi Esping-Andersen davlatning farovonligini qanday darajalarini taklif etgan?
3. Rivojlangan davlatlarning ijtimoiy ta'minot modellari qanday turlarga bo'linadi?
4. Yevropa Ittifoqi davlatlari ijtimoiy siyosatining xususiyatlarini tushuntirib bering.
5. Buyuk Britaniya ijtimoiy siyosatining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
6. AQSHning ijtimoiy siyosati yo'nalishlari haqida ma'lumot bering.
7. Yaponiya ijtimoiy siyosati tizimini tushuntirib bering.
8. Gonkong va Singapur mamlakatlari ijtimoiy siyosatini o'ziga xos xususiyatlari haqida nimalarni bilasiz?
9. Yevropa Ittifoqi davlatlarining ijtimoiy siyosatidagi o'zgarish dinamikasini yoriting.

---

<sup>70</sup>. "Social Policy". P. 446.

10. O'zbekistonda ilg'or xalqaro tajribani qollashning qanday imkoniyatlari mavjud deb o'ylaysiz?

### Testlar:

#### 1. Ijtimoiy siyosatning Farovonlik modeli qanday tavsifga ega?

- a) sinflararo ittifoqlarning bo'lmashligiga qaramasdan, davlat umumfarovonlikka, kambag'al qatlamni o'z himoyasiga oladi;
- b) ijtimoiy ta'minotga davlatning qo'shimcha iqtisodiy vazifalaridan biri sifatida qaraladi;
- c) keng qamrovli nodavlat, ijtimoiy bozor, jamiyat ehtiyojlari va xizmatlar ta'minotiga asoslangan;
- d) universal huquqlar asosida davlat tomonidan berilayotgan imtiyozlar industrial jamiyatning normal funksiyalari sifatida qaraladi.

#### 2. Ijtimoiy siyosatning Institutsional qayta taqsimlash modeli qanday tavsiflanadi?

- a) sinflararo ittifoqlarning bo'lmashligiga qaramasdan, davlat umumfarovonlikka, kambag'al qatlamni o'z himoyasiga oladi;
- b) ijtimoiy ta'minotga davlatning qo'shimcha iqtisodiy vazifalaridan biri sifatida qaraladi;
- c) keng qamrovli nodavlat, ijtimoiy bozor, jamiyat ehtiyojlari va xizmatlar ta'minotiga asoslangan;
- d) universal huquqlar asosida davlat tomonidan berilayotgan imtiyozlarga industrial jamiyatning normal funksiyalari sifatida qaraladi.

#### 3. Ijtimoiy siyosatning Sanoat modeli qanday tasniflanadi?

- a) sinflararo ittifoqlarning bo'lmashligiga qaramasdan, davlat umumfarovonlikka erishishga intiladi, kambag'al qatlamni o'z himoyasiga oladi;
- b) ijtimoiy ta'minotga davlatning qo'shimcha iqtisodiy vazifalaridan biri sifatida qaraladi;
- c) keng qamrovli nodavlat, ijtimoiy bozor, jamiyat ehtiyojlari va xizmatlar ta'minotiga asoslangan;
- d) universal huquqlar asosida davlat tomonidan berilayotgan imtiyozlar industrial jamiyatning normal funksiyalari sifatida qaraladi.

#### 4. Davlatning farovonligini bir-biriga bog'liq uch darajada ko'rib chiqishni kim taklif etdi?

- a) K.Bart;
- b) Esping-Andersen;

- c) D.Merrik;
- d) Jan-Klod Yunker.

**5. Qaysi modelga ko'ra, har bir fuqaroning minimal darajadagi ijtimoiy ta'minot va himoya qilinishi huquqlari kafolatlanadi?**

- a) Beveridj modeli;
- b) Bismark modeli;
- c) Ijtimoiy himoya modeli;
- d) Korporativ model.

**6. Aholining ijtimoiy himoyasi bevosita uning professional faoliyati bilan bog'liqligini qaysi model nazarda tutadi?**

- a) Beveridj modeli;
- b) Bismark modeli;
- c) Ijtimoiy himoya modeli;
- d) Korporativ model.

**7. Korporativ modelga ko'ra, ... ?**

a) aholining sug'urtalanishi, ularning o'zlari tomonidan jamg'arib borilgan mablag' asosida moliyalashtiriladi;

b) yirik korporatsiyalar o'z xodimlarini yaxshi mehnat qilishlarini rag'batlantiradilar;

c) kasallikka bo'lgan minimal sug'urtalash kafolatlari mavjud, nafaqa esa mehnat stajidan qat'iy nazar, har bir fuqaroga minimal darajada tayinlanadi;

d) kambag'al inson uchun boylar to'laydi, kasal inson uchun sog'lom inson to'lashi ko'zda tutiladi.

**8. Ijtimoiy himoya modelida ijtimoiy ta'minotni kim amalga oshiradi?**

- a) bevosita shaxsning o'zi sanaladi;
- b) ijtimoiy ta'minot muassasalari sanaladi;
- c) ijtimoiy himoya institutlari hisoblanadi;
- d) asosiy institut davlat hisoblanadi.

**9. Patrenalistik modelda asosiy e'tibor nimaga qaratiladi?**

- a) oshkoralik tamoyiliga;
- b) taqsimlovchi tamoyiliga;
- c) tenglik tamoyiliga;
- d) konfidentsiallik tamoyiliga.

**10. Konservativ modelda asosiy e'tibor nimaga qaratiladi?**

a) doimiy ravishda beriladigan moddiy yordam puli to'lanib borilayotganligiga qaratadilar;

- b) aholining sug'urtalanishi, ularning o'zlari tomonidan jamg'arib borilgan mablag' asosida moliyalashtirishga qaratadilar;
- c) universallikka e'tibor qaratadilar;
- d) sug'urta siyosati va bozor iqtisodiyotini rivojlantirishga qaratiladi.

**11. Sotsial-demokratik modelning ikkinchi nomi nima?**

- a) Skandinav modeli;
- b) Beveridj modeli;
- c) Bismark modeli;
- d) Ijtimoiy himoya modeli;

**12. Ijtimoiy siyosatni moliyalashtirish manbalari qanday shakllantiriladi?**

- a) jarima, soliqlardan shakllantiriladi.
- b) ijtimoiy sug'urta badallari, egri va to'g'ri soliqlarning tushumidan shakllanadi;
- c) soliqlar, ijro yig'implari tushumidan shakllanadi;
- d) pensiya jamg'armasiga o'tkaziladigan tushumlar asosida shakllantiriladi;

**13. Yaponiyada qaysi yildan boshlab ta'lim tizimida ta'lim olish majburiylik tamoyili mavjud?**

- a) 1946 yil;
- b) 1952 yil;
- c) 1947 yil;
- d) 1958 yil.

**14. Yevropa Ittifoqi iqtisodiyotining "Yangi Marshall Rejasi" nomli rivojlantirish rejasi nechanchi yil ishlab chiqilgan?**

- a) 2007 yil 16 mayda;
- b) 2008 yil 26 noyabrda;
- c) 2009 yil 16 aprelda;
- d) 2010 yil 12 oktabrda.

**15. Yaponiyadagi ijtimoiy siyosat asosan kimga qaratilgan?**

- a) harbiylarga;
- b) homilador ayollarga;
- c) oilaga;
- d) nogironligi bor kishilarga.

## VII-bob. IJTIMOYIY SHERIKLIK TIZIMI: HOKIMIYAT TUZILMALARI BILAN ALOQALARNI O‘RNATISH

**7.1. “Ijtimoiy sheriklik” tushunchasi va uning tamoyillari**

**7.2. Ijtimoiy sheriklik haqidagi g‘oyalar tadriji**

**7.3. O‘zbekistonda ijtimoiy sheriklik modelining rivojlanish xususiyatlari**

### **7.1. “Ijtimoiy sheriklik” tushunchasi va uning tamoyillari**

Ma’lumki, hayotimizda tobora ko‘proq qo‘llanilayotgan “ijtimoiy sheriklik” tushunchasini yanada chuqurroq anglash, uning mazmun-mohiyatidan boxabar bo‘lish ehtiyoji ham kuchayib bormoqda. Shu bois, mazkur tushuncha va uning mohiyati xususida to‘xtalib o‘tishni lozim topdik. Ijtimoiy sheriklikning muhim xususiyatlaridan biri – taraflarning huquq va majburiyatlarga rioya qilish haqidagi o‘zaro kelishuvigina emas, balki ular o‘rtasidagi yuksak axloqiy qoidalar majmuyi hamdir.

Darhaqiqat, ijtimoiy sheriklikka bozor iqtisodiyotiga asoslangan madaniyatli jamiyatga xos bo‘lgan ijtimoiy munosabatlarning muayyan bir turi sifatida qarash mumkin. Birinchidan, bu, umumiy manfaat va qarashlar bilan birga, mutlaqo farq qiluvchi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy manfaatlarga ega taraflar o‘rtasidagi munosabatdir. Ikkinchidan, ijtimoiy sheriklik taraflarning qarama-qarshiligiga emas, balki ijtimoiy konsensus (kelishuv)ga erishishga asoslanadi. Uchinchidan, bu munosabatlarning shunday bir turiki, zotan uni amalga oshirishdan barcha ijtimoiy guruhlar hamda davlat manfaatdor bo‘ladi.

Shuning bilan bir qatorda, ijtimoiy sheriklik mohiyatini anglash va turli subyektlar (hokimiyat tizimlari, kasaba uyushmalari, ish beruvchilar, jamoatchilik birlashmalari va h.k.) o‘zaro hamkorligining yangi shakllarini rivojlantirishga oid tadqiqotlar, ularning eng maqbul hamkorlik yo‘llari, umuman, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishi, ijtimoiy-mehnat munosabatlari va boshqa jabhalardagi dolzarb muammolarni hal etish jamiyatda ehtimolli nizolarni prognoz qilish va ularning oldini o‘lishga xizmat qiladi. Aynan shu nuqtayi nazardan, bugungi kunda ijtimoiy sheriklikni jamiyat rivoji va davlat

siyosatining ustuvor yoʻnalishi sifatida tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida qayd etilganidek, bugungi kunda “ijtimoiy sheriklik” tushunchasi borasida turli qarashlar mavjud. Ijtimoiy sheriklikning turli xil jihatlarini tadqiq etishga bagʻishlangan monografik izlanishlar tahlili shuni koʻrsatadiki, fuqarolik jamiyati institutlari faoliyati rivojlanishida ijtimoiy sheriklikning oʻrni masalalarini atroflicha oʻrganish muhim ahamiyatga ega. Bu borada quyidagi jihatni qayd etish muhim ahamiyat kasb etadi: ijtimoiy sheriklik fuqarolik jamiyatiga xos, davlat va fuqarolik jamiyati institutlarining oʻzaro hamkorligi uchun eng qulay muvozanatni taʼminlaydigan ijtimoiy munosabatlarining alohida turi hisoblanadi. Bunday munosabatlarda ijtimoiy sheriklik – davlat va fuqarolik jamiyati institutlari oʻrtasidagi oʻziga xos ijtimoiy-siyosiy munosabatlar tizimi boʻlib, unda manfaatlar qarama-qarshiligi va uni hal etish yoʻllari koʻzda tutiladi<sup>71</sup>.

Shu oʻrinda taʼkidlash joizki, ijtimoiy sheriklikning shakllari xilma-xil boʻlib, u kooperatsiyaning uyushma (alyans)lar, tarmoq tuzilmalari, transmilliy korporatsiyalar kabi boshqa shakllaridan farqli oʻlaroq, sheriklik poydevoriga kelishuv gʻoyasi qoʻyilgan boʻlganida, maqsad qoʻyish va unga erishish esa ishonch boʻlgandagina amalga oshadi. Ijtimoiy sheriklik boshqa ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bilan ham chambarchas bogʻliq boʻlib, bunda oʻzgalarning oʻziga xos imkoniyatlaridan foydalanish ehtiyoji uni mustahkamlaydi, u esa oʻz navbatida, bunday munosabatlar nizoli xarakterda emas, balki mavjud rivojlangan huquq va axloq institutlarining nazorati ostidagi murosa xarakterida boʻlishi kerak. Zero, M.Xajiyeva taʼkidlaganidek, “Murosa qilish deganda, murakkab muammoni hal qilish zaruratidan kelib chiqqan holda, manfaatdor tomonlarning oʻzaro kelishuvi, bir-birlariga yon berishlari nazarda tutiladi”<sup>72</sup>. Bularning barchasi ijtimoiy tartibning organik, yaʼni ijtimoiy subyektlarning tabiiy, ixtiyoriy birdamligini taʼminlaydi, bunda ijtimoiy hamkorlikning asosiy turlaridan biri sifatida sheriklik namoyon boʻladi. Shuning uchun ham ijtimoiy sheriklikka oid munosabatlar davlat va fuqarolik jamiyati institutlari oʻrtasidagi oʻziga xos huquqiy munosabatlarning bir tarmogʻi boʻlib hisoblanadi.

<sup>71</sup> Муминов А., Нишанбаева Э., Абдухалилов А. Ижтимоий шериклик. услубий қўлланма. –Т.: “Университет”, 2018, – Б. 12.

<sup>72</sup> Хажиева М. Ўзбекистонда толерантлик жараёни. –Т.: ABU MATBUOT-KONSALT, 2008. – Б.57.

Mahalliy va xorijiy olimlar olib borgan tadqiqotlardan kelib chiqqan holda ta'kidlash joizki, ijtimoiy sheriklik keng tushuncha bo'lib, uning mazmunini ham mehnat munosabatlari, ham davlat va fuqarolik jamiyati institutlarining manfaatli aloqalari nuqtayi nazaridan kelib chiqib talqin qilish mumkin. Tor ma'noda, ijtimoiy sheriklik mehnat yoki davlat va fuqarolik jamiyati institutlarining aniq munosabatlari shakli hisoblanadi. Keng ma'noda, ijtimoiy guruhlarining o'zaro maxsus sherikligi mavjud bo'lib, bunday munosabatlarni olib borishga qaratilgan obyektning qanday bo'lishidan qat'iy nazar, nafaqat mehnat munosabatlari, balki boshqa sohalarida, jumladan, davlat va fuqarolik jamiyati institutlarining o'zaro hamkorligini mustahkamlashga qaratilgan qonunchilikni takomillashtirish, ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarni amalga oshirish kabilar ham bo'lishi, shu bilan birga, davlat va nodavlat tashkilotlari manfaatlarining yagona bir sohadagi mushtarakligi ham tushuniladi. Yanada aniqroq qilib aytganda, ijtimoiy sheriklik deganda, davlat organlarining nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan ijtimoiy hayotning turli sohalaridagi samarali hamkorligi tushuniladi.

Boshqa ilmiy-siyosiy adabiyotlarda ham "ijtimoiy sheriklik" tushunchasiga turlicha ta'rif berish holatlari uchrab turadi. Ayrim tadqiqotchilar ijtimoiy sheriklikni ijtimoiy-mehnat ziddiyatlarini bartaraf etish usuli deb bilsa, boshqalari uni murakkab, ko'p tarmoqli ijtimoiy jarayon deb tushunadi. Bunday yondashuvlarning xilma-xilligiga qaramay, shu narsa aniqki, ijtimoiy sheriklik, avvalo, odamlar orasidagi o'zaro munosabatlar majmuasidir. Ikkinchidan, ijtimoiy-iqtisodiy nuqtayi nazardan bu munosabatlarning uch asosiy subyekti mavjud: ish beruvchi, ishchi va davlat. Uchinchidan, bunday munosabatlar obyektini mehnat sharoiti, daromadlar darajasi, subyektlarning ijtimoiy ahvoli, ularning ishlab chiqarilgan mahsulotni taqsimlashdagi o'rni, roli va huquqlari tashkil etadi. Ijtimoiy sheriklikning bosh maqsadi deya uning asosiy subyektlarining manfaatlarini hisobga olish va muvofiq-lashtirishni aytish mumkin.

Bugungi kunda "Boshqalarning xatti-harakatlariga bog'liq, tobe bo'lib, ularni yo'q qilish imkoniyati real mavjud sharoitda gumanitar qarorlar qabul qilish, yangi normalar ishlab chiqish zarur. Inson fe'l-atvorining umumiy qoida va tamoyillari aniq tarixiy shart-sharoitlarda shakllangan va rivojlangan. Ammo, tobora murakkablashib borayotgan

dunyoda madaniyatlar va mafkuralarning keng spektriga mos keladigan umuminsoniy qadriyatlarni topish talab qilinadi”<sup>73</sup>.

Shuning uchun ijtimoiy sheriklik bugungi kunda jamiyatda umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligini ta'minlaydigan ijtimoiy institutlarning o'zaro kelishuv jarayonini, unda umumiy ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy maqsadlarga erishishda taraflar manfaatlarining uyg'unligini ta'minlab turuvchi fuqarolik jamiyati institutlarining ishlash mexanizmini ham ifodalashi lozim. Ushbu tushunchaga “Ijtimoiy sheriklik to'g'risida”gi Qonunda quyidagicha ta'rif berilgan: “Ijtimoiy sheriklik davlat organlarining nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini, shu jumladan, tarmoq, hududiy dasturlarni, shuningdek, huquqiy-meyoriy hujjatlarni hamda fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo'lgan boshqa qarorlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish borasidagi hamkorligidir”<sup>74</sup>.

Ushbu ta'rif shuni anglatadiki, huquqiy davlatni ijtimoiy sheriklikning tamoyil va qadriyatlarini amalga oshirmasdan ham tasavvur qilib bo'lmaydi, chunki ular davlatga zaruriy mafkuraviy barqarorlikni ta'minlab beradi. “Ijtimoiy sheriklik” deganda, inson huquq va erkinliklari, qadr-qimmat, ijtimoiy adolat va o'zaro birdamlik tamoyillari tan olinuvchi har qanday munosabatlarga aytiladi. O'zbekiston Respublikasining “Ijtimoiy sheriklik to'g'risida”gi Qonunida ijtimoiy sheriklikning asosiy shakllari quyidagicha belgilab qo'yilgan: nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etishi; nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining huquqiy-meyoriy hujjatlar ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etishi; nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati boshqa institutlari vakillarining davlat organlari huzuridagi ishchi guruhlar, komissiyalar va jamoatchilik-maslahat organlari faoliyatida ishtirok etishi; ijtimoiy sheriklik subyektlari tomonidan birgalikda tadbirlar, maslahatlashuvlar va muzokaralar o'tkazish; ijtimoiy sheriklik subyektlari tomonidan ijtimoiy sheriklik to'g'risida bitimlar va shartnomalar tuzish,

<sup>73</sup> Сохранитли человечество человечность? Доклад Независимой комиссии по международным гуманитарным вопросам. –М: Международные отношения, 1989. – С. 21.

<sup>74</sup> Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2014 й., 39-сон, 488-модда.

birgalikdagi loyihalar va rejalarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish; ijtimoiy sheriklik subyektlari o'rtasida o'zaro qo'llab-quvvatlash, axborot almashish"<sup>75</sup>.

Ijtimoiy sheriklikning qayd etilgan mazkur shakllari bir-biri bilan uzviy aloqador va o'zaro bog'liqlikda namoyon bo'ladi. Shu bilan bir qatorda, ijtimoiy sheriklik, nafaqat jamiyatning iqtisodiy chiqimlarini kamaytiradi, balki investitsiyalarning uzoq muddatli bo'lishini, shuningdek, ijtimoiy hamkorlarning imkoniyatlari, taraqqiyot yo'nalishlari va bir-birining qiziqishlari haqidagi ma'lumotga ega bo'lishini ta'minlaydi. O'z navbatida, ijtimoiy sheriklik umumiy ma'naviy-qadriyatli jarayon bo'lib, uning vositasida fuqarolarining farovonligi uchun qayg'uradigan va ijtimoiy mas'uliyat ustuvor bo'lgan tizimni yanada rivojlantirish mumkin.

Shuning uchun ijtimoiy sheriklik institutlari ijtimoiy-iqtisodiy makonda alohida subyektlarning ta'siri va ahamiyatini oshiradi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, ijtimoiy sheriklik – jamiyatning barcha qatlamlari qiziqishlarini obyektiv hisobga olib jamiyat barqarorligi ta'minlanishida davlat tuzilmalari va notijorat tashkilotlari vakillari o'rtasidagi munosabatlar xarakteri va yo'nalishini boshqarib turuvchi an'anaviy va madaniy qadriyatlar majmui, ma'naviy va mafkuraviy asoslari.

Ta'kidlash joizki, ijtimoiy sheriklikning muhim jihatlaridan biri davlatning fuqarolar uchun munosib bo'lgan yashash sharoitini ta'minlashda yangicha faoliyat yuritishi bilan belgilanadi. Chunki, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi tufayli turmush sifatining pasayishi siyosiy tizimning samaradorligi va fundamentiga tahdid solishi mumkin. Shuning uchun ham bugungi kunda bunday muammolarning oldini olish jamiyatning turli qatlamlariga, xususan, ijtimoiy, diniy va etnik guruhlar hamda siyosiy kuchlarning barobar sheriklikdagi harakatiga bog'liq bo'lib qolmoqda. Bundan ma'lum bo'ladiki, faqatgina mazkur ijtimoiy sheriklik doirasidagina aholiga munosib yashashlari uchun sharoit yaratish mumkin.

Ijtimoiy sheriklik jamiyatda ehtimolli nizolarni maqbul yo'l bilan hal etish, jamiyatda iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy barqarorlikni shakllantirish va qo'llab-quvvatlashni ham nazarda tutadi. Shuningdek, bozor iqtisodiyotiga yo'naltirilgan jamiyatda ijtimoiy-mehnat munosabatlarini tartibga solishning uch ustuvor omili mavjud bo'lib,

<sup>75</sup> Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2014 й., 39-сон, 488-модда.

ular yollanma mehnat va kapitalning sherikligini tan olishga asoslanadi: iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy (mehnatni tashkil qilish shakllari, yollanma ishchi va ish beruvchi munosabatlarini ishlab chiqarish jarayonida o'zgartirish; jamiyatda ijtimoiy tuzilmani takomillashtirish; kasaba uyushmalari tashkil etish; davlatda kuchli ijtimoiy siyosat; jamiyat boshqaruvida demokratik tamoyillarni rivojlantirish va h.k.).

Ijtimoiy sheriklik munosabatlari mohiyatan davlat va fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligiga oid huquqiy munosabatlardan iborat bo'lib, bu munosabatlarning yuzaga kelishida qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan asoslar yetakchi o'rinni egallaydi, ya'ni ana shunday asoslar mavjud emasligi tomonlarning erki va xohishidan qat'iy nazar, ijtimoiy sheriklikka oid huquqiy munosabatlar yuzaga kelishiga monelik qiladi. Ijtimoiy sheriklikka oid huquqiy munosabatlar – davlat va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasida jamoa-shartnomaviy meyoriy aktlarni qabul qilish yuzasidan jamoa muzokaralar olib borish, tuzish, qabul qilingan jamoa-shartnomaviy aktlarning ijrosini ta'minlash yuzasidan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslar hamda tartiblarga muvofiq ravishda, tegishli yuridik faktlar mavjud bo'lganida, ijtimoiy sheriklikni amalga oshiruvchi organlar orasida vujudga keluvchi qonunlar bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlardan iborat.

Xullas, ijtimoiy sheriklikning shakllanishi va genezisi haqida ma'lumot beruvchi nazariy manbalarni, shuningdek, bu sohadagi falsafiy g'oyalar va qarashlarni o'rganib chiqish, mazkur jarayonda ham ijobiy, ham ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlarni amalga oshirishga halaqit beruvchi salbiy hodisalarni aniqlashga imkon beradi.

Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy sheriklik o'z rivojlanish va takomillashish jarayonida o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bu tajriba barcha rivojlangan mamlakatlarda turli ijtimoiy munosabatlarni nazorat qilishda qo'llanilishi mumkin. Hozirgi kunda ijtimoiy sheriklik bilan bog'liq bo'lgan va insoniyat taraqqiyoti jarayonida shakllangan g'oyalar jamiyat taraqqiyoti, undagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni saqlashda faol qo'llanilmoqda.

Ijtimoiy sheriklik xilma-xil subyektlar, turli tashkilotlar, institut va individlar yoki ijtimoiy guruhlar hamkorligi asosida yuzaga keluvchi kelishmovchiliklarni hal qilish maqsadidagi faoliyat sifatida iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy barqarorlikni qo'llab-quvvatlashning taraqqiy topgan usuli hamdir. Bunday sheriklik tizimining asosiy elementlariga quyidagilar kiradi: ijtimoiy hamkorlikni amalga oshirish usul va mexa-

nizmlari; ijtimoiy sheriklik subyektlari; ijtimoiy subyektlarning o‘zaro munosabatlari nazoratini ta‘minlovchi huquqiy-meyoriy baza; ijtimoiy sheriklik jarayoni, uning imkoniyatlari haqida aholini axborot bilan ta‘minlovchi; ijtimoiy sheriklikka nisbatan ijtimoiy fikrni shakllantiruvchi axborot maydoni va h.k. Ijtimoiy sheriklikning subyektli tuzilmasida, qoidaga ko‘ra, ish beruvchilar va ishchilar (ularning birlashmalari) ajratiladi.

Hozirgi kunda ijtimoiy sheriklik ijtimoiy mehnat chegarasidan chiqib ketgan, chunki hamkorlikda ishtirok etuvchi ijtimoiy subyektlar doirasi nihoyatda keng bo‘lib, ular sinfiy, demografik, etnik, hududiy va hokazo subyektlar bo‘lishi ham mumkin, ammo ijtimoiy sheriklik potentsiali to‘g‘risida subyektlar qiziqishlari o‘zaro kesishgandagina fikr yuritishimiz mumkin bo‘ladi.

Mamlakatimizda fuqarolik jamiyati va ijtimoiy sheriklik dialektikasi samarasini ta‘minlaydigan iqtisodiy, siyosiy va ma‘naviy munosabatlarni shakllantirish va rivojlantirish tizimiga oid masalalarni hal etish zarurati, ijtimoiy sheriklikning nazariy va amaliy xususiyatlari yetarlicha o‘rganilmagani bu sohadagi tadqiqotlarning eng muhim jihatlaridan biridir. Zero, masalaga ijtimoiy-siyosiy jihatdan yondashuv “ijtimoiy sheriklik” tushunchasining ko‘p qirrali ekanligi, unga nisbatan xilma-xil qarash va yondashuvlar mavjudligi, bugungi kunda mazkur sohadagi mavjud tajribada turli tadqiqotlarda foydalanish imkoniyatlari haqida muayyan taassurotni shakllantirishga yordam beradi. Bu esa har qanday ilmiy tadqiqotning eng asosiy maqsad va vazifalaridan biri hisoblanadi.

## **7.2. Ijtimoiy sheriklik haqidagi g‘oyalar tadriji**

Bashariyat paydo bo‘libdiki, adolatli va erkin jamiyat barpo etish orzusi bilan yashab kelmoqda. Eng qadimgi davrdan to hozirgi kunga qadar qanchadan-qancha alloma va mutafakkirlar bu haqda bosh qotirganlar, ko‘plab davlat arboblari, olimu fuzalolar, odamlar ahil va inoq, baxtli va farovon yashaydigan ana shunday hayot sharoitiga erishish uchun harakat qilganlar. Veda va upanishadlar, “Avesto” va “O‘zgarishlar kitobi” kabi manbalardan boshlangan ilk Sharq an‘anasiga ko‘ra, bu mavzu olam va odam, koinot va inson, adolat va ezgulik masalalari tahlilining tarkibiy qismi bo‘lgan. Xususan,

“Avesto”dagi fikr-mulohazalar bugungi kun uchun ham o‘z qadrini yo‘qotmaganligi diqqatga sazovor. Chunonchi, “Qayerda ikki tan bir-birini qo‘llasa, o‘sha yerda ish yurishadi”, “O‘zgalarni yaxshilikka yo‘llay olgan odamnigina yaxshi odam deyish mumkin”, “Tangri rostgo‘ylar va haqiqat yo‘lida hamkor bo‘lganlarning nigohbonidir” va hokazo. “Yasna”da ta’kidlanganidek, jamiyatni, davlatni boshqarib turgan rahbar hamisha jamoa manfaatini himoya qilishi, jamoa tomonida bo‘lishi shart. U o‘zi mansub bo‘lgan odamlar guruhi, toifasi bilan birga nafas olmog‘i, ularning quvonchlarini tashvishlari bilan yashamog‘i, jamoa dushmanlariga nafrat bilan qaramog‘i darkor<sup>76</sup>.

O‘rta asrlar Sharq falsafasida alohida o‘rin egallagan islom falsafasining asoschisi Abu Nasr Forobiy esa o‘zining “Madina al-Fozila”, “Fuqarolik siyosati”, “Baxt-saodatga erishuv haqida”gi asarlarida ijtimoiy sheriklik muammosini keng tahlil qilgan. Bu asarlarda ijtimoiy sheriklik, ezgu axloqiy qadriyatlarga asoslangan, kishilarni baxt-saodatga eltuvchi davlat, yetuk xislatlar sohibi va fuqaro tomonidan saylanadigan boshqaruvchilarga ega bo‘ladigan jamiyat to‘g‘risida o‘sha davr tafakkuriga ta’sir ko‘rsatgan fikrlar qayd etiladi. Allomaning ijtimoiy sheriklik mohiyatini izlashdan maqsadi – eng ezgu ma’naviy-axloqiy qadriyatlar, ilm-fan, inson qadri, ongi, tafakkurining ahamiyati baland bo‘lgan jamiyatni qaror toptirishdan iborat bo‘lgan<sup>77</sup>.

Forobiyning ta’kidlashicha, shahar, davlat va jamiyatning barcha tarkibiy qismlari bir inson vujudining turli a’zolari faoliyati kabi, o‘zaro muvofiqlashgan, uyg‘unlashgan, tartibli, tizimlashgan bo‘lishi zarur. Tabiiy mavjudotlardagi mutanosiblik shahar (davlat) jamiyatida ham mujassam bo‘lishi zarur. Jamiyatning barcha a’zolari har biri o‘z mavqeidagi ishlari, harakatlari bilan shahar birinchi boshlig‘ining (davlat, mamlakat farovonligini oshirish yo‘lida) maqsadini amalga oshirishda o‘z hissalarini qo‘shishlari kerak. Jamiyat adolatli qonunlarga amal qilganida, jamiyat va shaxs munosabatlari pozitiv, konstruktiv, ijobiy bo‘lganida, ziddiyatlar va qarama-qarshilik ming yillar davomida to‘plangan tajriba, milliy an’ana va urf-odatlariga muvofiq hal etilganida shaxs – kamolotga, jamiyat – taraqqiyotga erishadi<sup>78</sup>.

<sup>76</sup> “Avesto”. Тарихий-адабий ёдгорлик. –Т.: 2001, 15-бет.

<sup>77</sup> Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. – Т.: Мерос, 1993. – 210 б.; Фазилат, бaxт-саодат ва камолот ҳақида. –Т.: Ёзувчи, 2001. – Б.98.

<sup>78</sup> Қаранг: Абу Наср Форобий. Фазилат, бaxт-саодат ва камолот ҳақида. –Т.: Ёзувчи, 2001. – Б.

Abu Rayhon Beruniy esa o‘z asarlarida ijtimoiy sheriklik kishilarning ruhiy va moddiy ehtiyojlari – jamiyat vujudga kelishi negizida yotishini alohida ta’kidlab o‘tadi. Uning fikricha, “Ehtiyojlarining turi ham, soni ham ko‘p, uni faqat ko‘pchilik bo‘lib birlashgan kishilargina bajo keltira oladi. Shuning uchun inson to‘p-to‘p bo‘lib yashashga muhtojdir”<sup>79</sup>. Ya’ni, inson ehtiyojining ko‘pligi, uni himoya qilish quroliga ega bo‘lmaganligi, bir-birini yovvoyi hayvon va dushmanlardan himoya qilish zarurligi, o‘zi va boshqalarni moddiy ta’minlash uchun biror ishni bajarish lozim bo‘lganligi tufayli, qarindosh-urug‘lari bilan jamiyatda o‘zaro birlashishga majbur bo‘lgan. Shuningdek, davlatning paydo bo‘lishi ham kishilarning zaruriy ehtiyojlarini qondirish bilan bog‘liq. Boshqacha qilib aytganda, odamlar dushmanlardan himoya qilinish, ijtimoiy adolatli tartib va qoida o‘rnatish uchun davlatga birlashadilar, degan g‘oya’ni ilgari suradi. U o‘zining “Mineralogiya” asarida kishilarning ehtiyojlari turli-tuman bo‘lishini, faqat kishilar maqsadli hamkorligi ularni qondirishi mumkin, deb hisoblaydi.

Abu Ali ibn Sino o‘zining “Ishorat va tanbihat” asarida odamlarning o‘zaro sheriklik munosabatlari to‘g‘risida fikr yuritib, “Inson o‘z shaxsiy talablari jihatidan boshqalardan ajralgan holda yashay olmaydi, chunki u insoniyatning boshqa vakillari bilan munosabatdagina ularni qondira olishi mumkin. Jamoaning barcha a‘zolari mehnat bilan shug‘ullanmog‘i zarur”<sup>80</sup>, deydi. U jamiyatda kishilar o‘zaro bir-birlariga yordam berishlari asosida yashashlari kerak, deydi. Olim yana quyidagicha fikr bildiradi: “O‘zaro hamkorlik va yordamlashish uchun qonun va adolat kerak, qonun va adolatning amal qilishi uchun shunday shaxs zarurdirki, u qonun va adolat qoidalarini tartibga solib, bajarilishini ta’minlay olsin. Shu bilan birga, u odamlarni yumshoq, ta’sirchan so‘zlar bilan qabul qilingan, o‘rnatilgan qonunlarga rioya qilishga da’vat eta olishi kerak”<sup>81</sup>. Bundan tashqari, jamiyat a‘zolarining hammasi bu qonunlarga itoat etishlari zarur. Jamiyatda qonunlarni buzish va adolatsizlik jazolanishi lozim. Adolatli, fanni sevuvchi aqlli hukmdor insonparvarlik munosabatlarini adolat bilan tartibga solishi

<sup>79</sup> Abu Райхон Беруний. 100 хикмат. –Т.: Фан, 1999. – Б.19.

<sup>80</sup> Abu Али ибн Сино. Логика. Избранные произведения. Том 1. –Душанбе: Ирфон, 1980. – С 69-103.

<sup>81</sup> Болтаев М. Абу Али Хусайн ибн Синонинг фалсафий-ижтимоий таълимоти. –Бухоро, 2001. – Б.17.

lozim. Agar hukmdor “adolatsiz bo‘lsa, jamiyat unga qarshi kurashni maqbul hisoblaydi”<sup>82</sup>.

XVII-XVIII asrlarda shakllangan nazariyalarda “sheriklik” tushunchasi davlat va fuqarolar munosabatlarini muvofiqlashtiruvchi samarali omillardan biriga aylandi. Bu J.Lokk, T.Gobbs va I.Kant kabi faylasuflarning qarashlarida, ayniqsa yaqqol namoyon bo‘ladi. Jon Lokkning asosiy siyosiy asari hisoblangan “Davlat boshqaruvi to‘g‘risida ikki traktat”da monarxlar absolutizmini qayta qurishga yo‘naltirilgan qarashlar ilgari surilgan. Jumladan, Jon Lokk birinchi traktatida siyosiy hukmronlikning patriarxal ildizlarini rad qilgan. Uning fikricha, insonning Xudo oldidagi burchi ham, tabiat qonunlariga ko‘ra, o‘ziga xos insoniy sifatlar – aql va iroda erkinligidan foydalanishdan iborat bo‘lishi lozim.

Bu qarashlardan ma‘lum bo‘ladiki, ijtimoiy sheriklik tizimi an’anaviy jamiyatda ko‘p asrlik madaniy an‘analarga, milliy qadriyat va boy ma‘naviyatga ega xalqlarning axloqiy normalariga kirib borgan, ularning o‘zaro sherikligiga oid bahsli masalalarda murosaga erishishga yo‘naltirilgan. Bu jarayonda esa nafaqat o‘zaro sherikchilikka asoslangan ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy hodisalar bilan, balki mavjud an‘analar bilan hisoblashish kerak bo‘ladi. Shuning uchun M.Veber “Ijtimoiy munosabatlarning ratsional asoslarini belgilovchi ijtimoiy tartib dualistik xususiyatga ega. Chunki u, bir tomondan, individlar uchun obyektiv bo‘ladi, shuning uchun ular xatti-harakatlarining bosh nazoratchisi hisoblanadi. Ikkinchi tomondan esa, u “maqsadli ittifoq” ishtirokchilarining bir qator ko‘rsatkichlar bo‘yicha o‘zaro roziligi natijasidir, bunday ijtimoiy sheriklikning o‘rnatilishi va uzoq muddatli bo‘lishi tomonlarning o‘zaro maqsadli va manfaatli faoliyati bilan belgilanadi”<sup>83</sup>, deya ta’kidlaydi.

Ijtimoiy sheriklik ijtimoiy tartibning mohiyatan o‘zaro kelishuvga asoslangan shakli bo‘lib, uning yangicha mazmun-mohiyat kasb etishi keskin vaziyatlarda ham integratsiyalashgan yaxlitligini saqlab qolishni talab etadi. Chunki o‘z davrida T.Parsons ham “Ijtimoiy sheriklikni ta‘minlashda maqsadlarning institutsional-lashtirilgan shakli, mohiyatan sheriklikning barqaror modellari hisoblanadi va ijtimoiy tizim asosini

<sup>82</sup> Ибн-Сина. Даниш-намэ. Книга знания. – Сталинабад: Тадж. Гос. изд-во, 1957. – 280 с.

<sup>83</sup> Вебер М. Хозяйство и общество / пер. с нем. под научн. ред. Л.Г. Ионина. – М.: Изд-во ГУ ВШЭ, 2010. – 456 с.

tashkil etadi”<sup>84</sup>, deb yozgan edi. Shubhasiz, ijtimoiy sheriklik tamoyillarini amaliyotga tatbiq etish – murakkab vazifa. Bu jarayon zalvarli natijalarga olib keladi: jamiyatning qutblarga bo‘linishi barham topadi, jarayonning barcha ishtirokchilarida faollik oshadi, siyosiy va ijtimoiy barqarorlik kuchayadi, taraqqiyot uchun mustahkam asos yaratiladi.

Bunday fundamental maqsadlarga o‘z-o‘zidan erishilmaydi, bu borada muayyan tajriba to‘plangani yuqoridagilardan ham ko‘rinib turibdi. Tarixiy nuqtayi nazardan, dastlabki sheriklik subyektlari ikki tomonni tashkil etadi: ishchi va ish beruvchi (ishlab chiqarish vositasi egalari). Bunday ikki tomonlama sheriklik keyinchalik “bipartizm” nomini oldi. Shundan so‘ng sheriklar tarkibi sezilarli darajada o‘zgardi, chunki muzokaralar jarayonida davlat ham ishtirok eta boshladi. Natijada, yuzaga kelgan uch tomonlama sheriklik “uchpartizm” (tripartizm) deb nomlandi. Uch tomonlama kelishuv modeli Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) konvensiyasida 144-raqam bilan belgilab qo‘yilgan<sup>85</sup>.

Mazkur konvensiyaga ko‘ra, davlatlar ham o‘zaro ijtimoiy sherikka aylanadilar va ishchilar hamda ish beruvchilar uyushmalari bilan bir qatorda, umummilliy sheriklik – kelishuv shartnomalarini imzolaydilar. Nihoyat, ijtimoiy sheriklik subyektlari tarkibi yanada murakkablashdi – ko‘p darajali sheriklik joriy etildi. Bu esa uchpartizm tamoyiliga nafaqat umummilliy darajada, balki tarmoq va korxonada darajasida ham amal qilinishi lozimligini bildirardi.

Ushbu ijtimoiy sheriklik mexanizmining bosh elementi – tomonlar o‘rtasidagi muzokara jarayonidir. Bu shu qadar muhimki, qolgan elementlar o‘z mohiyatiga ko‘ra, faqat unga xizmat qilib, samaradorlikni oshiradi, xolos. Mexanizmning keyingi elementi sheriklarning pozitsiyalarini aniqlash va muvofiqlashtirish texnologiyasidir. Bunga misol qilib sheriklar manfaati va munosabatini aniqlashga xizmat qiladigan “nuqta”larni topish uchun maxsus komissiyalar tuzishni sanab o‘tish mumkin. Mexanizmning yana bir muhim elementi – sheriklarning umumiy shartnomaga kiritadigan talab-takliflarini baholash va tahlil qilish maqsadida o‘tkaziladigan ekspertiza.

<sup>84</sup> Парсонс Т. О структуре социального действия. - М.: Академ. Проект, 2002. - 880 с.

<sup>85</sup> [http://www.ilo.org/dyn/normlex/en/fp=NORMLEXPUB:12100:0::NO:12100:P12100\\_INSTRUMENT\\_ID:312289:NO](http://www.ilo.org/dyn/normlex/en/fp=NORMLEXPUB:12100:0::NO:12100:P12100_INSTRUMENT_ID:312289:NO)

Nihoyat, bu mexanizmدا uning samaradorligini ta'minlab turish uchun arbitraj vazifasini bajaradigan element ham o'z o'rnini topishi kerak. Yuqorida sanab o'tilgan elementlar bir tizimga birlashgan holdagina sheriklikning bosh maqsadi bo'lgan ijtimoiy barqarorlik va tinchlikni ta'minlay oladi. Ayni shu ma'noda, ijtimoiy sheriklik mehnat munosabatlari nuqtayi nazaridan jamoa shartnomalari ish beruvchilar va xodimlar vakili bo'lmish kasaba uyushmasi qo'mitalari o'rtasida imzolangan muhim lokal hujjat sifatida yangicha ma'no-mazmun kasb etmoqda. Kasaba uyushmalari faoliyatining asosini ham aynan ijtimoiy sheriklik tamoyillari tashkil etadi.

Ijtimoiy sheriklik tizimining bugungi bosqichidagi asosiy elementlardan biri – unga erishishning strategiyasi va taktikasidir. Bu esa ijtimoiy-iqtisodiy maqsadga erishishning uzoq muddatga mo'ljallangan yo'nalishi, ya'ni strategiyani ko'zda tutishni hamda unga erishishning taktikasini anglatadi. Ijtimoiy sheriklik tizimining to'rtinchi elementi ularning mexanizmidan iborat. Bu tarkibiy qism shunchalar muhim va o'ziga xoski, alohida ko'rib chiqishni taqozo etadi. Nihoyat, zamonaviy ijtimoiy sheriklik tizimining beshinchi elementi sifatida sheriklarning madaniyati va axloqini qayd etib o'tamiz. Bu tushunchalar ortida sheriklarning bir-biriga hurmat bilan qarashi, halolligi, ishonchi, yuksak mas'uliyati yotadi va ularsiz jamiyatda haqiqiy sheriklikni amalga oshirib bo'lmaydi.

Ijtimoiy sheriklikning tarixiy taraqqiyotiga e'tibor qaratsak, u dastlab rivojlangan G'arb mamlakatlarida legitimlashtirilganligiga guvoh bo'lamiz. Chunki dastlab sheriklik kasaba uyushmalari tashabbusi bilan yuzaga kelgan, asosan, tashkilotlar hamda kasaba uyushmalari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida shakllangan. Keyinchalik sheriklikning doirasi kengayib, tashkilot doirasidan yirik subyektlar hamkorligiga nisbatan tatbiq etish amaliyoti yuzaga keldi. Ijtimoiy sheriklik natijasida nodavlat notijorat tashkilotlari yoki fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari davlat yoki uning muayyan organiga teng hamkor sifatida maydonga chiqadi. Bunday hamkorlik inson manfaatlarini har tomonlama ta'minlashga yo'naltiriladi. Shu kabi munosabatlarda davlat nodavlat notijorat tashkilotlariga yordam, ko'mak beruvchi subyekt sifatida yetakchi mavqeda turgan bo'lsa, bugun nodavlat tashkilotlar davlatning teng hamkoriga aylanmoqda. Shubhasiz, bu ularning bugungi jamiyat hayotidagi roli va o'rnini yanada mustahkamlaydi.

Hozirgi kunda bu modellar jahonda keng tarqalgan yollanma ishchilar va ish beruvchilar o'rtasida davlatning bevosita yoki bilvosita ishtiroki bilan ijtimoiy-mehnat munosabatlarining tartibga solinishi ko'rinishidagi ijtimoiy subyektlarning o'zaro ta'sir jarayoni – individlar yoki ijtimoiy guruhlarining ehtimolli nizolarini hal etishga yordam bermoqda. Bugungi kunda xorij amaliyotida ijtimoiy sheriklik turli shakllarda namoyon bo'layotganligini ko'rish mumkin. Ko'pgina ilmiy adabiyotlarda ijtimoiy sheriklikning German (Avstriya, Germaniya, Shveysariya), Skandinav (Shvetsiya, Norvegiya, Daniya) va Amerika (AQSH, Angliya) modellari haqida so'z boradi.

Mazkur Jumladani retrospektiv nuqtayi nazardan o'rganish hozirgi davrda ushbu sohaga oid adabiyotlarda ijtimoiy sheriklikning quyidagi uch modeli alohida qayd etilishidan dalolat beradi:

**1. Moslashtiriluvchi model.** Ijtimoiy va iqtisodiy hamda siyosatni shakllantirish va amalga oshirishda tadbirkorlar uyushmalari davlat bilan birga kasaba uyushmalari ham ishtirok etadi. Bu model uchun jamoaviy-shartnomaviy jarayonning yuqori darajali markazlashuvi xos.

**2. Aksilkasaba uyushmaviy model.** Ijtimoiy sohada qarorlar qabul qilish jarayonida kasaba tashkilotlari rolini boqichma-bosqich kamaytirib borish, bunda jamoaviy shartnomalar samaradorligining pastligi sabab qilib ko'rsatiladi.

**3. Pyuralistik model.** Jamoaviy muzokaralar nomarkazlashtiriladi va alohida korxonalar, ba'zan esa ularning filiallari darajasigacha tushiriladi. Birinchi model Skandinaviya, Avstraliya, Niderlandiya, qisman Germaniya va Shveysariya; ikkinchisi – Fransiya, Italiya (1950 y.); uchinchisi – Buyuk Britaniya, Kanada va Yaponiyaga xarakterli hisoblanadi<sup>86</sup>.

Shimoliy Yevropa mamlakatlari – Shvetsiya, Finlandiya, Norvegiya, Belgiyada keng tarqalgan modelga ko'ra, davlat mehnat munosabatlari va ularni boshqarishda faol qatnashadi. Bundan tashqari, mazkur modelda umummilliy, tarmoq va korxonamuassasa darajasidagi sherikchilik muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, Belgiyada umummilliy darajada mehnat bo'yicha milliy kengash faoliyat yuritadi. Unga har uchala hamkor hisobidan teng sonli ishtirokchilar kiritilgan. Davlat qonunchilik vazifasini o'z zimmasiga oladi. Tarmoq darajasida esa "paritet komissiyalar" tuziladi. Korxonalar

<sup>86</sup> Витко Ф.П. Социальное партнерство: учеб.-метод. комплекс / Ф.П.Витко. –Минск: Гийст БГУ, 2008. –184 с.

muassasa darajasida masalalar ikki tomonlama, ya'ni ish beruvchi – kasaba uyushmasi munosabatlari asosida kechadi. Ba'zi mutaxassislarning fikricha, aynan mana shu sherikchilik tufayli jamiyatda ijtimoiy barqarorlik saqlab qolinmoqda<sup>87</sup>.

AQSH, Kanada, Yaponiya va Lotin Amerikasi kabi imamlakatlarda ijtimoiy sheriklik korxonamuassasa darajasida amal qilishi bilan ajralib turadi. Bunda ish beruvchilar birlashmalari xuddi kasaba uyushmalari singari, o'z vakillari orqali qonun chiqarish jarayoniga, shu orqali ijtimoiy sheriklarga o'z ta'sirlarini o'tkazishga urinadilar<sup>88</sup>.

Germaniya, Avstriya, Gollandiya, Shveysariya kabi davlatlarga xos modelni birinchi va ikkinchi modellarni bog'lovchi xalqa sifatida tasavvur etish mumkin. Bu modelda asosiy e'tibor tarmoq darajasiga qaratiladi. Butun mamlakat miqyosida uch tomonlama kelishuvlar qabul qilinmaydi, balki majburiy bo'lmagan maslahatlar bilan kifoyalaniyadi. Asosiy muzokara jarayoni esa tarmoqlarda kechadi. Korxonalarda jamoa shartnomalari tuzilmaydi. Korxonalar tarmoq shartnomasiga amal qiladi va uning talablarini bajaradi. Bunday modelni tatbiq etishning shakllaridan biri "namunaviy" shartnomadir. Misol uchun, Germaniya sanoatidagi "JGMetal" kompaniyasining sheriklik shartnomasi uzoq vaqt butun nemis iqtisodiyoti uchun namuna vazifasini o'tab kelgan<sup>89</sup>.

Umuman olganda, Yevropa Ittifoqi (YEI) mamlakatlari darajasida ijtimoiy sheriklik faol rivojlanmoqda. YEI uch tomonlama modelni qo'llab kelyapti. Xususan, 1992 yili Maastrixt shahrida YEI ijtimoiy sheriklari tomonidan (Buyuk Britaniyadan tashqari) imzolangan hujjatda ittifoq o'zining chora-tadbirlarini muvofiqlashtirish maqsadida ish beruvchilar va ishchilar vakillarini sheriklar sifatida e'tirof etdi<sup>90</sup>.

Uch tomonlama (tripartizm) modeli 1995 yilda Kopengagen shahrida BMT shafeligida o'tkazilgan ijtimoiy taraqqiyot mavzusidagi yig'ilishda ham ma'qullangan. Mazkur anjumanda ijtimoiy taraqqiyotga yolg'iz bozor mexanizmiga tayangan holda erishib bo'lmazligi alohida qayd etilgan edi. Shundan kelib chiqqan holda, qashshoqlikka qarshi

<sup>87</sup> Каргалова М.В. От социальной идеи к социальной интеграции. Становление социальной политики Европейского Союза. –М.: Интердиалект, 1999. – С.318.

<sup>88</sup> Семигин Г. Социальное партнерство в современном мире. –М.: Мысль, 1996. – С.200.

<sup>89</sup> Социальное партнерство: социальная трансформация институтов и практик. Сборник статей и материалов Международного казанского научного форума (19-20 октября, г.Казань). Под ред. А.Г.Большакова. –Казань: КГУ 2013. – С.320.

<sup>90</sup> Каргалова М.В. От социальной идеи к социальной интеграции. Становление социальной политики Европейского Союза. –М.: Интердиалект, 1999. – С.318.

kurash va ish bilan ta'minlash asosiy vazifalar sifatida belgilab olingan<sup>91</sup>. Shu nuqtayi nazardan shaxs, jamiyat va davlat munosabatlarini mustahkamlashga xizmat qiluvchi ijtimoiy sheriklik tizimi mahalliy qonun hujjatlari va huquqning qo'llanish amaliyotini, shu jumladan, xorijiy mamlakatlar qonun hujjatlari va huquqning qo'llanish amaliyotini (Fransiya, Belgiya, Italiya, Germaniya, Janubiy Koreya, Yaponiya, Kanada, Buyuk Britaniya kabi davlatlar tajribasini), shuningdek, xalqaro huquqiy hujjatlarni atroflicha tahlil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bizga ma'lumki, Fransiya va Germaniyada joylarda ijtimoiy sheriklik loyihalarini rejalashtirish, muvofiqlashtirish, amalga oshirish va moliyalashtirish uchun mas'uliyatning katta qismi hududiy, okrug va munitsipal ta'lim (o'zini o'zi boshqarish organlari) zimmasiga yuklatilgan bo'lsa, Yaponiya va Koreya Respublikasida joylardagi davlat hokimiyati organlari NNNTlar orasida ijtimoiy ahamiyatga ega muammolarni hal etishga qaratilgan turli dastur va grantlar e'lon qilishni ko'zda tutuvchi tanlovlarni o'tkazish huquqiga egaligi belgilab qo'yilgan.

Ushbu modellarning asosiy maqsadi jamiyatda ijtimoiy kelishuv va muvozanatni qaror toptirish bo'lsa-da, samaradorlik ko'rsatkichi bo'yicha ular bir-biridan farq qiladi. E.Dyurkgeym fikricha, "Tartiblashgan fuqarolik jamiyatining bosh quroli – bu faoliyat turlari, ijtimoiy vazifalarni adolatli bo'lib berishdan iborat, natijada ijtimoiy omillarga muvaffaqiyatli va samaraliroq faoliyat olib borishga imkon beradi"<sup>92</sup>.

O'z navbatida, bu turli vazifalarni bajaradigan subyektlar murojaati uchun ijtimoiy aloqalar, fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini kuchaytirish zaruratini keltirib chiqaradi. Xususan, german modeli uchun ijtimoiy sheriklik demokratiyani mustahkamlash, mehnat munosabatlarini tinch yo'l bilan hal qilish, ijtimoiy keskinlikning oldini olish vositasi bo'lsa, skandinav modelida ijtimoiy farovonlik ko'rsatkichi hisoblanadi. Amerika modeli uchun esa iqtisodiy o'sishni ta'minlash ustuvorlik qiladi. Avstriyada ijtimoiy sheriklik maslahat kengashlari va qo'mitalari filiallari, umummilliy va tarmoqlar bo'yicha esa tenglik asosidagi komissiyalar orqali amalga oshiriladi<sup>93</sup>.

<sup>91</sup> Семигин Г. Социальное партнерство в современном мире. –М.: Мысль, 1996. – С. 200.

<sup>92</sup> Дюркгейм Э. О разделении общественного труда /Пер. с франц. Гофмана А.Б.; Примеч. Сапова В.В. / Серия: «История социологии в памятниках». –М.: Канон 1996. – С.432.

<sup>93</sup> Модель И.М., Модель Б.С. Власть и гражданское общество в России: от социального взаимодействия к социальному партнерству. –Екатеринбург: Уро РАН, 1998. – С.240.

Ushbu qayd etilganlar ijtimoiy sheriklik g'oyasining jahon tajribasiga doir uzoq yillik rivojlanish va takomillashish tarixi davomida katta tajriba to'plangani va undan turli mamlakatlarda xilma-xil yo'sinda foydalanish mumkinligidan dalolat beradi. Mazkur g'oyalar siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni saqlash uchun bugungi kundagi faol amaliyotda keng qo'llanilmoqda. Bu borada ijtimoiy sheriklik butun dunyo mamlakatlari hayoti uchun umumiy tamoyil, ya'ni tinchlik va barqarorlikni shakllantirishga xizmat qiluvchi siyosiy va iqtisodiy munosabatlar yig'indisi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Ijtimoiy sheriklik jamiyatda ehtimolli nizolarni maqbul yo'l bilan hal etish, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy barqarorlikni qo'llab-quvvatlashni ham nazarda tutadi. Keyingi paytlarda turli yo'nalishdagi ilmiy doira vakillarining unga qiziqishining ortishi mazkur fenomenidan hayotning turli jabhalarida foydalanish imkoni borligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, ijtimoiy sheriklik tizimi subyektlarining shakllanishi, umuman olganda, ijtimoiy sheriklik tizimi ham demokratlashgan fuqarolik jamiyati sharoitida amalga oshiriladi. Bu holatda subyektlarning qiziqishlari, ijtimoiy va siyosiy jarayonlarining amalda bo'lishi uchun mafkuraviy, nazariy, tashkiliy-amaliy tartibdagi qator chora-tadbirlar tizimini aniqlash talab etiladi. Ijtimoiy sheriklik tizimi shakllanish qonuniyatlariga quyidagilarni kiritish mumkin: ijtimoiy sheriklik institutlarining markazda, joylarda, subyektlar a shakllantirish; konsensus tipidagi munosabatlarning ketma-ketlikda rivojlan-tirilishi; fuqarolik jamiyatida ijtimoiy sheriklik subyektlari munosa-batlarini tartibga soluvchi qonuniy bazani yaratish; ijtimoiy sheriklik subyektlari o'rtasida kelishmovchiliklarni bartaraf etish va qiziqishlarni mos keltirish mexanizmini o'rganish hamda shakllantirish va undagi ijtimoiy-siyosiy muammolarni nazorat qilish tizimiga kiritish; ijtimoiy sheriklik tizimi subyektlari ongi va xatti-harakatida hamkorlik va kelishuv g'oyasini shakllantirish, ijtimoiy sheriklik institutini legitim-lashtirish.

Ayni ma'noda, Jumladaning muhim jihati shundaki, ijtimoiy sheriklik tizimi va subyektlarini shakllantirish barcha jabhadagi faoliyat turlarini qamrab olish, demokratiya va ijtimoiy adolat tamoyili asosida jamiyat ijtimoiy hayotini boshqarish mexanizmining mavjudligini ta'minlash sharoitida mumkin bo'ladi. Ijtimoiy sheriklik tizimini shakllantirishda muhim va hal qiluvchi rol davlatga tegishlidir. Ijtimoiy sheriklik tizimi shakllanishining mazkur bosqichida davlatning muhim

funksiyasi ham joriy vaqtga, ham jamiyat rivojining istiqboldagi maqsadlariga bog‘liq. Bu uning ijtimoiy va siyosiy tizimlari maqsadlariga tashkiliy-huquqiy hamda ijtimoiy sharoitlariga javob beruvchi huquqiy chegaralarni aniqlash, shu bilan birga sheriklik munosabatlari qoidalarini o‘rnatish ham muhim ahamiyatga ega.

Ayrim mamlakatlarda ijtimoiy sheriklik jarayonlarini tashkil qilish va boshqarish uzoq muddatli tadrijiy rivojlanish, o‘z-o‘zini rivojlantirish natijasida, boshqalarida esa ma‘muriy yo‘l bilan yoki muayyan islohotlar orqali amalga oshiriladi. Shuning uchun ham, mamlakatimiz hayotining barcha sohalarida tub islohotlar amalga oshirilayotgan bugungi kunda ijtimoiy sheriklik g‘oyasi turli ijtimoiy qatlam vakillarining diqqatini tobora ko‘proq tortayotganligi bejiz emas.

### **7.3. O‘zbekistonda ijtimoiy sheriklik modelining rivojlanish xususiyatlari**

Bugungi kunda mamlakatimizda ijtimoiy sheriklik modelini shakllantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Chunki, aynan ijtimoiy sheriklik mexanizmlarining joriy etilishi jamiyatda vujudga kelishi mumkin bo‘lgan ixtiloflarni bartaraf etilishiga xizmat qiladi. Ijtimoiy sheriklik modellari va ularning mexanizmlarini joriy etish va rivojlantirish murakkab jarayon hisoblanadi. Shuning uchun bu jarayonlarga doir ilmiy tadqiqotlarni olib borish mamlakatimiz ilmiy jamoatchiligi oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Bejiz emas, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ijtimoiy sheriklik jarayonlarini rivojlantirishga alohida e‘tibor bergani holda, Oliy Majlisga joriy yil 24 yanvardagi Murojaatnomasida “mamlakat va hududlar darajasida nodavlat notijorat tashkilotlari bilan ijtimoiy sheriklikni keng yo‘lga qo‘yib, grantlar va ijtimoiy buyurtmalarni ko‘paytirish” hamda vazirlik va idoralar ham “ijtimoiy hamkorlik ishlarini kengaytirishi lozim”ligini alohida ta‘kidlagan<sup>94</sup>.

Ma‘lumki, so‘nggi yillarda O‘zbekistonda ijtimoiy sheriklikni rivojlantirishga doir bir qator muhim me‘yoriy-huquqiy hujjatlar, jumladan, O‘zbekiston Respublikasining “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi, “Davlat hokimiyati organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligi

---

<sup>94</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисининг Сенати ва Қонунчилик палатасига Мурожаатномаси. 24 январ 2020 йил.

to'g'risida"gi va "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasining Ijtimoiy sheriklikni rivojlantirishga qaratilgan kompleks dasturi qabul qilindi.

"O'zbekistonda ijtimoiy sheriklikning bugungi kun talablariga mos keladigan modellarini ishlab chiqish" mavzusidagi PZ-2017093070 raqamli amaliy loyihasi doirasida, uning a'zolari tomonidan ekspert-so'rovnoma o'tkazildi. Ushbu so'rovnomada 30 ta ekspert ishtirok etdi. Ulardan 10 nafari NNT vakillari, 10 nafari davlat hokimiyati organlari, 10 ta akademik doira vakillaridir.

Tadqiqot natijalari yuqorida qayd etilgan qonun va me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinishiga qaramay, hozirgi kunda mamlakatimizda ijtimoiy sheriklikni rivojlantirish borasida qator muammolar mavjud ekanligini ko'rsatdi. Muammolar sifatida so'rovnomada ishtirok etgan ekspertlar davlat hokimiyat organlarining ijtimoiy sheriklik tamoyillari bilan tanish emasligi, ba'zi bir NNTlarning faoliyatiga oid hujjatlar deklarativ xarakterga ega ekanligi, ijtimoiy sheriklik qonunchiligida aniq bo'lmagan me'yorlarning mavjudligini e'tirof etdilar.

Ekspertlarning fikriga ko'ra, O'zbekistonda huquqiy demokratik davlatni barpo etish jarayonida ijtimoiy sheriklik alohida o'rin tutadi. Aynan ijtimoiy sheriklik davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasida samarali aloqani ta'minlashning eng muhim mexanizmi hisoblanadi. Ijtimoiy sheriklikni rivojlantirish uchun mamlakatda mavjud qonunchilik muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, samarali qonunchilik davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi munosabatlarni huquqiy tartibga solishga xizmat qiladi.

Ekspertlar mamlakatimizda ijtimoiy sheriklikka doir qonunchilikning ayrim me'yorlari samarali amal qilishining mexanizmlari mavjud emasligini qayd etdilar. Jumladan, mavjud qonunlarda davlat hokimiyati organlari, NNT va biznes o'rtasidagi aloqalarni ta'minlashga qaratilgan mexanizmlar to'liq ochib berilmagan. Garchi 2019 yil 10 mayda O'zbekiston Respublikasining "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi Qonuni qabul qilingan bo'lsa-da, mazkur qonunda biznes va NNTlarining sheriklik munosabatlarini huquqiy jihatdan tartibga solish mexanizmlari belgilanmagan. Shu bilan birga, ekspertlar mazkur qonun davlat va biznes o'rtasidagi munosabatlarning huquqiy asoslarini belgilab berganligini ta'kidladilar.

Davlat-xususiy sheriklikning xalqaro amaliyoti atroflicha tahlil qilinganda, rivojlangan davlatlarda mazkur hamkorlik asosan ijtimoiy

vazifalarni hal etishga qaratilgani ma'lum bo'ldi. Jumladan, Yevropa davlatlarida jami davlat-xususiy sheriklik shartnomalarining 34 foizi ta'lim, 21 foizi sog'liqni saqlash sohasiga to'g'ri keladi. Shuningdek, u mamlakatlarda yirik iqtisodiy loyihalarni amalga oshirishda ham davlat-xususiy sheriklik mexanizmidan keng foydalanilgan<sup>95</sup>.

O'zbekistonda ham Davlat-xususiy sheriklikka alohida e'tibor berilmoqda. Bunga misol qilib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi 4300-sonli Qaroriga<sup>96</sup> asosan 2019 yilda amalga oshirilishi rejalashtirilgan 15 ta loyiha davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshirilishi belgilanganligini keltirishimiz mumkin. O'zbekistonda hozirgi kunda davlat-xususiy sheriklikning ustuvor tarmoqlariga elektr energiyasini ishlab chiqarish, transport sohasi (aeroport, yo'llar va h.k.), ijtimoiy soha (sog'liqni saqlash, ta'lim va maktabgacha ta'lim, sport), telekommunikatsiya, kommunal xo'jalik (suv ta'minoti, kanalizatsiya, issiqlik, qattiq chiqindilar), qishloq va suv xo'jaligi, turizm kabi sohalarni kiritish mumkin. Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish agentligi tomonidan mazkur sohalarga investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha amaliy ishlar olib borilmoqda.

Natijada, 2019 yil ushbu agentlik tomonidan mutasaddi vazirlik va idoralar bilan birgalikda qiymati 10 mlrd AQSH dollaridan ko'p bo'lgan 17 ta davlat-xususiy sheriklik loyihalari bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish ishlari olib borilmoqda<sup>97</sup>.

Davlat-xususiy sheriklik jarayonlari samaradorligini oshirish uchun yuqorida qayd etilganidek, bu borada qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlarning ahamiyati katta. Chunki, aynan ularda davlat-xususiy sherikchilikning asosiy tamoyillari ochib beriladi. O'zbekiston Respublikasining "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi Qonunning 4-moddasida davlat-xususiy sheriklikning asosiy tamoyillari belgilangan, ular quyidagilardan iborat:

- davlat sherigining va xususiy sherikning qonun oldida tengligi;
- davlat-xususiy sheriklikni amalga oshirishdagi qoidalar va tartib-taomillarning shaffofligi;

<sup>95</sup>[http://xs.uz/uzkr/post/senat-valpi-mazhlisida-davlat-khususij-sheriklik-togrisidagi-qonun-korib-chiqiladi?utm\\_source=uznet.press&utm\\_campaign=topic](http://xs.uz/uzkr/post/senat-valpi-mazhlisida-davlat-khususij-sheriklik-togrisidagi-qonun-korib-chiqiladi?utm_source=uznet.press&utm_campaign=topic)

<sup>96</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Республика иқтисодиётига тўғридан-тўғри хорижий инвестицияларни жалб қилиш механизmlарини янада такомиллаштириш чоратadbirlари тўғрисида”ги Қарори 2019 йил 29 апрелдаги 4300-сонли.  
<https://lex.uz/docs/4312752>

<sup>97</sup> <https://www.pppda.uz>

- xususiy sherikni tanlashdagi bahslashuv va xolislik;
- kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik;
- korrupsiyaga yo‘l qo‘ymaslik<sup>98</sup>.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, ekspertlarning fikricha, davlat hokimiyati organlarining ijtimoiy sheriklik faoliyatini olib borishga qaratilgan rag‘batlantirish tizimi ham mavjud emas.

Ekspertlarning ta’kidlashicha, agarda qonunda davlat hokimiyati organlari NNT bilan ishlash borasida hisobot berish mexanizmi ko‘rsatilganda edi, davlat hokimiyati organlari o‘z faoliyatida ijtimoiy sheriklikni rivojlantirishga ko‘proq e’tibor bergan bo‘lar edi. Shuningdek, ijtimoiy sheriklikka oid qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan yana bir taklif. O‘zbekiston Respublikasining “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risi”dagi Qonunida davlat organlari jamoatchilik Kengashlari organlarni shakllantirish mumkin, deyilgan. Ekspertlar fikricha, qonundagi “mumkin” so‘zining o‘rniga “shakllantiradi” so‘zini kiritish lozim. Ya’ni, har bir davlat organi o‘z faoliyatida Jamoatchilik Kengashini shakllantirish lozimligi belgilab qo‘yiladi. Ekspertlarning fikriga ko‘ra, buning yordamida davlat organlari va NNTlar o‘rtasidagi munosabatlar qonun asosida tizimlashtirilishi mumkin.

Shuningdek, ekspertlarning fikriga ko‘ra, davlat organlariga NNTlar bilan ishlaydigan tuzilmani kiritish lozim. Ya’ni, muayyan vazirlik, agentlik, qo‘mita tarkibida NNTlar bilan ishlaydigan bo‘limni tashkil qilishni qonunda qayd etilishi maqsadga muvofiq. Shuningdek, ushbu bo‘limning asosiy vazifalarining ham qonunda aks ettirilishi ijtimoiy sheriklikning rivojlanishida turtki bo‘ladi. Shuningdek yana, ekspertlarning fikricha, ijtimoiy sheriklikka doir me’yoriy-huquqiy hujjatlarda o‘zaro javobgarlik mexanizmlari to‘liq aks ettirib berilmagan.

Ijtimoiy sheriklikni yanada rivojlantirish uchun subyektlarning bu jarayonni anglab yetishi va qabul qilishi muhim hisoblanadi. Davlat hokimiyati organlari mazkur jarayonni qanday qabul qilyapti, ijtimoiy sheriklikni rivojlantirishda ularning pozitsiyasi va manfaatlari nimadan iborat, degan masala mamlakatimizda ijtimoiy sheriklik mexanizmlarini ochib berishning muhim omili sifatida namoyon bo‘ladi. Bu borada davlat organlari faoliyatini baholaganda ekspertlar ta’kidlashicha, davlat organlari ijtimoiy sherikchilik mohiyatiga kirib bormoqda. Turli xil davlat idoralaridan NNTlariga buyurtmalar, subsidiyalar ajratilmoqda,

<sup>98</sup> Ўзбекистон Республикасининг “Давлат-хусусий шериклик тўғрисида”ги Қонуни. 2019 йил 10 май.

turli xil grantlar e'lon qilinmoqda, lekin shunga qaramay, biz tomondan so'ralgan ekspertlarning fikriga ko'ra, davlat hokimiyati organlari va NNT o'rtasida bugungi kunda tizimli muloqot o'rnatilmagan. Bu holat bir necha omillar bilan bog'liq.

1. Resurslarni taqsimlash muammosi. Ekspertlarning qayd etishicha, davlat organlarining NNT bilan muloqot jarayonidagi birinchi savoli "Bizdan moliyaviy xarajat talab qilinadimi yoki yo'qmi?" (Agar yo'q bo'lsa, ular NNT tomonidan ilgari surilgan tashabbusda ishtirok etishi mumkin).

2. Ko'p davlat organlari NNTlarni hamkor emas, balki o'zidan vertikal jihatdan past bo'lgan, yoki quyi tuzilma sifatida ko'radi. Bunga misol, NNT tomonidan ilgari surilgan tashabbuslarning aksariyati amalga oshirilmaydi. Davlat organlari tomonidan ilgari surilgan tashabbuslar esa amalga oshiriladi.

3. Jamoat Kengashlarining mavjud emasligi yoki ularning deklarativ xarakterga egaligi.

Ekspertlarning fikriga ko'ra, yuqorida ko'rsatilgan ijtimoiy sheriklikni rivojlantirishga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni bartaraf etish uchun quyidagi mexanizmlarga e'tibor qaratish lozim:

1. Davlat hokimiyati organlari xodimlari uchun ijtimoiy sheriklikka doir qisqa o'quv kurslarini tashkil qilish.

2. Davlat hokimiyati organlari NNT bilan birga yillik ish rejasini ishlab chiqish (davlat boshqaruvining loyihaviy modeliga o'tish).

3. Ijtimoiy sheriklikni olib boruvchi davlat hokimiyati organlarini rag'batlantirish tizimini ishlab chiqish.

4. Jamoat Kengashlarining tuzilishiga e'tibor qaratish, ularda shaffof va ijodiy atmosferani shakllantirish lozim.

Yuqorida keltirilgan mexanizmlar, fikrimizcha, davlat organlarining ijtimoiy sheriklik jarayonlarida ularning faoliyatini maqbul ravishda olib borishga xizmat qiladi.

NNTlar faoliyati yuzasidan so'rovnomada ishtirok etgan ekspertlarning aksariyati ularning faoliyatiga o'rtacha baho berdilar. Ularning fikriga ko'ra, hozirgi kunda mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida NNTlarning ahamiyati oshib borayotganligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan NNTlari faoliyatiga keng imkoniyatlar yaratilayotganligi ta'kidlandi. Buni ekspertlar avvalambor, NNTlar faoliyatida byurokratik to'siqlarning yo'qolishida ko'rish mumkin, deya hisoblaydilar.

Umuman olganda, so'rovnomaga o'tkazilgan ekspertlar mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan NNTlar ishni amalga oshirishga tayyor ekanligini bildirdilar.

Shunga qaramay, NNT faoliyatini takomillashtirish jarayonida mamlakatimizda, ular fikriga ko'ra birqancha muammolar mavjud. Ekspertlar ular sirasiga quyidagilarni kiritdilar:

Birinchidan, mamlakatimizdagi ko'plab NNTlarning yetarli moliyaviy resurslarga ega emasligi, ularning faoliyatini sustlashtirishga olib kelmoqda.

Ikkinchidan, mamlakatimizda o'z faoliyatini yuritayotgan aksariyat NNTlar o'z ustavlarida davlat hokimiyati organlari bilan ijtimoiy sheriklik olib borish kerakligini aks ettirmaganlar. Bu o'z navbatida NNTlar faoliyatida ijtimoiy sheriklikni shakllantirish ikkinchi darajali masala bo'lib qolishiga sabab bo'lmoqda.

Uchinchidan, bugungi kunda aksariyat NNTlar o'zining strategiyasiga ega emaslar, ularning faoliyatida tizimlilik bo'lmaganligi sabab, ular faoliyatining samaradorligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

To'rtinchidan, mamlakatimiz NNTlarida faoliyat olib borayotgan aksariyat mutaxassislarni davlat organlari yoki biznes subyektlari tomonidan rag'batlantirilishining nihoyatda sust ekanligini ta'kidlash joiz. Bu esa ayrim hollarda professional mutaxassislarning NNTlarni tashlab ketayotganligida, yoki NNTni o'z faoliyatida ikkinchi darajali faoliyat sifatida ko'rayotganligida aks etadi.

Beshinchidan, O'zbekistonda faoliyat olib borayotgan NNTlar faoliyatining ayrimlari deklarativ xarakterga ega.

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish uchun ekspertlar quyidagi mexanizmlarni taklif qildilar:

1. NNTlarni rivojlantirishga doir davlat dasturi ishlab chiqish lozim.

2. Barcha davlat hokimiyati organlari ishtirokida har yili fuqarolik forumlari o'tkazilishi lozim.

3. NNT a'zolari uchun ijtimoiy sheriklik va O'zbekiston qonunchiligi borasida qisqa kurslar o'tkazilishi maqsadga muvofiq.

4. Bugungi kun talablariga javob beradigan ijtimoiy sheriklik modellarini shakllantirish lozim.

Fikrimizcha, O'zbekistonda shakllanayotgan ijtimoiy sheriklik modelining ikkita muhim jihati mavjud:

-jamiyatdagi barqarorlik;

-hamkorlik.

Aynan mana shu ikki asosiy jihat O‘zbekistondagi ijtimoiy sheriklik modelini shakllantirishda muhim omillar sifatida namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, so‘rovnomada ishtirok etgan ekspertlarning ta‘kidlashicha, O‘zbekistonda ijtimoiy sheriklikni rivojlantirishda rivojlangan mamlakatlarda keng tarqalgan zamonaviy ijtimoiy texnologiyalardan, jumladan, benchmarking, kraudfanding, taymbanking, kraudsorsing, autsorsing kabilardan keng foydalanish maqsadga muvofiq.

Zamonaviy menejmentda bugungi kunda keng tarqalgan texnologiyalardan biri – benchmarking texnologiyasi hisoblanadi.

Benchmarking texnologiyasi ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi bilan keng qo‘llanila boshlandi. Chunki, aynan ijtimoiy tarmoqlar tufayli fikr almashinuv jarayonlari sodir bo‘ladi. Benchmarking<sup>99</sup> texnologiyasining xususiyati shundaki, u ijtimoiy sheriklik subyektlariga tashkilotni rivojlantirish yoki muayyan muammoni yechish borasida fikr va tajriba almashish imkoniyatini beradi. O‘z faoliyatida benchmarking texnologiyasini qo‘llagan nodavlat notijorat tashkilotlar yangi bilimlarga ega bo‘ladi va orttirilgan tajribani qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa, o‘z navbatida, ushbu nodavlat notijorat tashkilotlarning rivojlanishiga, ular faoliyatining ko‘lami va samaradorligini oshishiga sabab bo‘ladi. So‘nggi yillarda benchmarking texnologiyasi O‘zbekistonga kirib kelgan va u biznes va marketing faoliyatida keng qo‘llanilmoqda<sup>100</sup>.

Amaliyotda marketing tadqiqotlari deganda iste‘molchilar, raqobatchilar, xaridorlar haqida axborot to‘plash, saqlash, qayd qilish va ularni tahlil qilish tushuniladi. Ular asosida mahsulot assortimentini o‘zgartirish, narx-navo siyosatini qayta ko‘rib chiqish, sotishni tashkil qilishni takomillashtirish kabi vazifalar hal qilinadi. Iste‘molchilar, raqobatchilar va xaridorlar bilan firmaning ijtimoiy sheriklikni yo‘lga qo‘yishi – firma saytining xizmatlar va mahsulotlar sahifasida ochiq muloqotning yo‘lga qo‘yilishi bilan ham namoyon bo‘lishiga e‘tibor qaratish muhim.

---

<sup>99</sup> Михайлова Е.А. Основы бенчмаркинга: эволюция концепций качества // Менеджмент в России и за рубежом. №2, 2002. [https://www.cfin.ru/press/management/2001-2/mihaylova.shtml#1\\_2](https://www.cfin.ru/press/management/2001-2/mihaylova.shtml#1_2)

<sup>100</sup> Қаранг: Онлайн-проект Glotr.uz станет оптимальным выбором для желающих заказать такую услугу, как Бенчмаркинг в Узбекистане. Минимальные цены, комфортные условия пользования сервисом и самый широкий ассортимент предложений от ведущих компаний - это Бенчмаркинг в Узбекистане. Original: [https://glotr.uz/benchmarking\\_1875/](https://glotr.uz/benchmarking_1875/)

Hozirgi kunda O‘zbekistonning ko‘plab yetakchi firmalari iste’molchilar bilan ochiq muloqotlarni yo‘lga qo‘ygan, bunga misol tariqasida korzinka.uz, glotr.uz faoliyatini keltirish mumkin. Bir so‘z bilan aytganda, respublikamizda jamiyatning barcha jabhalariga benchmarking texnologiyasini tatbiq etish va bu texnologiya orqali ijtimoiy sheriklikning milliy modelini yaratish elementlaridan biri sifatida foydalanish mumkin. Bizning sharotida benchmarking texnologiyasi ijtimoiy sheriklik tizimini joriy etishda rivojlangan davlatlar tajribasini oqilona o‘zlashtirish usuli sifatida namoyon bo‘ladi.

Hozirgi paytda yana bir keng qo‘llanilayotgan texnologiyalardan biriga misol stariqaida kraudsorsingni keltirishimiz mumkin.

Kraudsorsing texnologiyasi ham benchmarking kabi ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi bilan fuqarolik jamiyati subyektlari tomonidan keng qo‘llanilib kelinmoqda. Kraudsorsing fuqarolik jamiyati subyektlariga, shuningdek, davlat hokimiyati organlariga muayyan vaziyatni hal etishda, g‘oyalarni yig‘ishda yordam beradi, u tufayli muammolarni yechish imkoni oshadi. Aksariyat holatlarda mazkur g‘oyalarning yig‘indisi innovatsion g‘oyalarning vujudga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin. O‘zbekistonning ijtimoiy hayotiga mazkur texnologiya endi kirib kelmoqda. Shunga qaramay, shu kungacha qo‘llanilgan ayrim misollarni keltirish mumkin: 2018 yilda Toshkent shahar hokimligi tomonidan birinchi marta keng miqyosda “Toshkent seni sevadi” shiori bilan shahar infratuzilmasini takomillashtirish bo‘yicha onlayn-platforma ishga tushirildi<sup>101</sup>. Kraudsorsingning maqsadi – shaharni obodonlashtirish uchun fuqarolarning g‘oyalarni yig‘ishdan iborat bo‘lib, belgilangan muddatgacha 2906 ta g‘oya kelib tushgan. Ta’kidlash joizki, bu ham jamiyatning ijtimoiy hayotini yaxshilashga, hayot tarzini farovonlashtirishga yo‘naltirilgan ijtimoiy sheriklik jarayonining namoyon bo‘lishidir.

Kraudsorsing maqsadi va mazmuniga ko‘ra forsayt texnologiyasiga juda yaqin turishini ham ta’kidlash lozim.

Fikrimizcha, O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy-ma’rifiy tizimlardagi tashkilotlar o‘z faoliyatlari samaradorligini oshirishda va takomillashtirishda kraudsorsing imkoniyatlaridan keng foydalanishi ularning faoliyati samaradorligini oshiradi. Kelajakda ushbu texnologiyadan foydalanish katta natijalarni beradi. Shuningdek, ushbu texnologiyadan foydalanish fuqarolik jamiyati subyektlariga

---

<sup>101</sup> <https://idea.tashkent.uz/>

davlat hokimiyati organlariga muayyan vaziyat va muammolarni hal etishda yangi kreativ g'oyalarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Yana bir keng tarqalgan texnologiyalardan biri kraudsorsing bilan bir vaqtda rivojlangan, hozirgi kunda keng tarqalgan kraudfanding<sup>102</sup> texnologiyasi hisoblanadi. Agar kraudsorsing g'oyalarni yig'ishga o'z e'tiborini qaratsa, kraudfanding esa asosan muayyan g'oyani amalga oshirishda moliya bilan ta'minlashga o'z e'tiborini qaratadi.

Bugungi kunga kelib, deyarli ko'plab insonlar kraudfanding bilan to'qnash kelgan. O'zbekistonda ham mazkur texnologiyadan hozirgi kunda NNTdan muayyan shaxslar keng foydalanmoqda. Mazkur texnologiya aksariyat hollarda insonlar va tashkilotlarda vujudga kelgan muammolarni yechishda hamda moliyalashtirishda yordam beradi. Mazkur texnologiyadan samarali foydalanish uchun jamiyatda ishonch krediti yuqori bo'lishi lozim. Afsuski, MDH davlatlari doirasida mazkur texnologiyadan foydalanish orqali ayrim guruhlar o'zlarining ehtiyojlari uchun odamlardan pul ishlab olganligi ma'lum. Shu sababli ushbu mamlakatlarda kraudfanding texnologiyasidan foydalanish muayyan murakkabliklarga olib kelmoqda.

O'zbekistonda birinchi marta kraudfanding maydonchasi 2013 yil dekabrda ishga tushirilgan [www.factor.uz](http://www.factor.uz) loyihasi bilan bog'liq. Afsuski, loyiha kutilgan natijani bermadi va vaqt o'tib, u o'z faoliyatini to'xtatdi. Keyinchalik, 2018 yilda <http://www.crowdfunders.uz/> platshakli ishga tushirildi. Biroq ushbu loyiha faoliyatini o'rganish doirasida ma'lum bo'ldiki, bu platforma ham samarali faoliyatni yo'lga qo'ya olmagan. Bu o'rinda shunday savol paydo bo'ladi – nima uchun xorijiy davlatlar, xususan rivojlangan mamlakatlarda o'zini oqlagan texnologiyalarning yurtimizga kirib kelishi va ommalashishida qiyinchiliklar mavjud? Bizning fikrimizcha, buning bir qator sabablari bor. Jumladan,

-moddiy-texnik (yoki iqtisodiy) sabab (internetning pulli ekanligi, barcha fuqarolarda Internet bilan aloqa qiluvchi texnik vositalarning yetarli darajada emasligi);

---

<sup>102</sup> Бородаенко А.И. Краудфандинг как перспективный способ финансирования инновационных проектов // Молодой исследователь Дона. №3(6) 2017. -С.167. <https://cyberleninka.ru/article/n/kraudfanding-kak-perspektivnyy-sposob-finansirovaniya-innovatsionnyh-proektov/viewer>

-ijtimoiy sabab (aholining internetdan foydalanadigan qismida kraudfanding texnologiyasidan foydalanish, ishtirok etish va hokazolar uchun yetarli bilim va ma'lumotga ega emasligi).

Kraudfanding texnologiyasining samarali ishlashida aholi turli qatlamlarining faolligi ham talab etiladi. Ya'ni, g'oyalarni moliyalashtiruvchilar ham, g'oya beruvchilar ham bir tizimga birlashib, bir g'oya ostida sheriklik munosabatlarini tashkil qila olsagina natijaga erishish mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, O'zbekistonda ijtimoiy sheriklikning o'ziga xos milliy modelini yaratishda kraudfanding texnologiyasining tajribadan o'tgan va samarali xususiyatlaridan foydalanishni amaliy yo'lga qo'yish lozim, deb hisoblaymiz.

Keng tarqalgan ijtimoiy sheriklik samaradorligini oshiruvchi texnologiyalardan yana biri – taymbanking hisoblanadi.

Ushbu texnologiya XX asrning 70-yillarida taniqli sotsiolog olim Edgar Kann tomonidan ishlab chiqilgan<sup>103</sup>. Ushbu texnologiyada insonlar bir-biriga o'zi qila olmaydigan xizmatlarni ko'rsatadilar va vaqtni ayirboshlaydilar. Jumladan, kimdir ingliz tilini bilsa, boshqasi hisob-kitobni yaxshi biladi. Ular bir-birlariga yordam berishi mumkin. Bu texnologiya O'zbekistonda ijtimoiy tarmoqlarda keng tarqalmagan, lekin ularning aholi munosabatlarida qo'llanilishi kuzatiladi. O'zbekistonda istiqbolda taymbanking texnologiyasidan foydalanish fuqarolik jamiyati institutlariga moliyaviy resurslarsiz muayyan muammolarni hal etish imkonini beradi.

Shuningdek, bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda keng qo'llaniladigan ijtimoiy texnologiyalardan yana biri autsorsing hisoblanadi. Ushbu texnologiya ko'proq yirik kompaniyalar va ijtimoiy xizmat ko'rsatayotgan nodavlat notijorat tashkilotlar o'rtasidagi ijtimoiy sheriklikni ta'minlashga yordam beradi. Mazkur texnologiya Yaponiyada keng qo'llaniladi. Yirik kompaniya vakillari (Toyota Motor Corporation, Panasonic, Sony va hk.) ijtimoiy xizmat ko'rsatayotgan NNTlariga aholini ehtiyojmand qatlamini ish bilan ta'minlashda yordam beradi. Yaponiyada yirik kompaniya vakillari muayyan mahsulot ishlab chiqishda buyurtma beradi va mazkur buyurtma natijasida buyurtmachi korxonalar soliq imtiyoziga ega bo'ladilar. Natijada aholining ehtiyojmand qismi ish bilan ta'minlanadi, kompaniya soliq imtiyozlariga ega

<sup>103</sup> Митусов М. Дополнительная время // Бизнес-Журнал. Октябрь №10, 2013. – С. 32.

bo'ladi. Mamlakatimizda autsorsing texnologiyasidan foydalanish kam kuzatiladi. Istiqbolda ushbu texnologiyaning qo'llanishi ehtiyojmand qatlamlarni mehnat bilan ta'minlashga yordam beradi. Shuningdek, biznes va nodavlat notijorat tashkilotlar o'rtasidagi ijtimoiy sheriklikni mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Yuqorida ekspertlar tomonidan aytib o'tilgan fikrlardan xulosa qilish mumkinki, bugungi kunda O'zbekistonda ijtimoiy sheriklikni rivojlantirish muhim strategik vazifa hisoblanadi. Chunki, aynan ijtimoiy sheriklikning rivojlanishi mamlakatimizda barqarorlikni ta'minlovchi muhim vosita hisoblanadi. Aynan ijtimoiy sheriklik mexanizmlarining rivojlanishi mamlakatimizda rivojlangan demokratik huquqiy davlatni qurish imkonini beradi.

### **Nazorat savollari:**

1. Ijtimoiy sheriklikning vujudga kelish sabablarini tavsiflang.
2. Ijtimoiy sheriklik nazariyalari qachondan shakllana boshlagan?
3. Abu Nasr Forobiyning ijtimoiy sheriklikka doir ta'limotini yoriting.
4. Nima uchun ijtimoiy sheriklik rivojlangan mamlakatlar barqarorligiga xizmat qilgan?
5. Mezoniga ko'ra, ijtimoiy sheriklikning modellari...?
6. Ijtimoiy sheriklik samaradorligini oshirishda xalqaro tashkilotlarning o'rni.
7. O'zbekistonda ijtimoiy sheriklik modelining rivojlanish xususiyatlari haqida ma'lumot bering.

### **Testlar:**

**1. Ijtimoiy-iqtisodiy nuqtayi nazardan, ijtimoiy sheriklikning asosiy subyekti qaysi?**

- a) davlat, tadbirkor, kasaba uyushmasi xodimi;
- b) ish beruvchi, ishchi va davlat;
- c) davlat birjasi, ishchi, davlat;
- d) tadbirkor, ish beruvchi, xodim.

**2. Ijtimoiy sheriklik munosabatlarining obyektini ko'rsating.**

a) mehnat sharoiti, daromadlar darajasi, subyektlarning ijtimoiy ahvoli, ularning ishlab chiqarilgan mahsulotni taqsimlashdagi o'rni, roli va huquqlari;

b) daromadlar va xarajatlar prognozi, ijtimoiy mahsulot, sotilganlik darajasi;

c) ijtimoiy bozor, jamiyat ehtiyojlari va xizmatlar ta'minot i;

d) mehnat bozori, ishchi kuchi, daromadlar, soliq stavkasi.

**3. Ijtimoiy sheriklikning bosh maqsadi nimada namoyon bo'ladi?**

a) kambag'allikni oldini olish;

b) tadbirkorlikda raqobatni shakllantirish;

c) asosiy subyektlarining manfaatlarini hisobga olish va muvofiqlashtirishda;

d) aholi ehtiyojlarini qondirish va soliq tizimini soddalashtirish.

**4. Abu Nasr Farobiyning qaysi asarida ijtimoiy sheriklik muammosi keng tahlil qilingan?**

a) "Ishorat va tanbixat";

b) "Davlat boshqaruvi to'g'risida ikki traktat";

c) "100 hikmat";

d) "Fuqarolik siyosati".

**5. "Inson o'z shaxsiy talablari jihatidan boshqalardan ajralgan holda yashay olmaydi, chunki u insoniyatning boshqa vakillari bilan munosabatdagina ularni qondira olishi mumkin". Ushbu fikr kimning qalamiga mansub?**

a) Abu Ali ibn Sino;

b) Abu Nasr Farobiy;

c) Jon Lokk;

d) Maks Veber.

**6. Ijtimoiy sheriklikni o'z asarlarida "maqsadli ittifoq" deb kim ta'kidlagan?**

a) Abu Ali ibn Sino;

b) Abu Nasr Farobiy;

c) Jon Lokk;

d) Maks Veber.

**7. T.Parsons ijtimoiy sheriklikni qanday izohlaydi?**

a) sheriklik maqsadlarning institutsionallashtirilgan shakli, mohiyatan sheriklikning barqaror modellari hisoblanadi va ijtimoiy tizim asosini tashkil etadi;

b) ijtimoiy tartibning mohiyatan o'zaro kelishuvga asoslangan shakli bo'lib, uning yangicha ma'no-mazmunga ega bo'lishi keskin

vaziyatlarda ham integratsiyalashgan yaxlitligini saqlab qolishni talab etadi;

c) ijtimoiy sheriklik ijtimoiy munosabatlarning ratsional asoslarini belgilovchi ijtimoiy tartib dualistik xususiyatga ega;

d) ijtimoiy sheriklik mexanizmining bosh elementi tomonlar o'rtasidagi muzokara jarayonidir.

**8. Ijtimoiy sheriklik tizimining bugungi bosqichdagi elementlari qaysilar hisoblanadi?**

a) sheriklik, kelishuv, mexanizmi, madaniyati, axloqi;

b) hamkorlik va raqobat, mexanizmi, madaniyati, axloqi;

c) strategiya, taktika, mexanizmi, madaniyati, axloqi;

d) ishonch va qaror, mexanizmi, madaniyati, axloqi.

**9. Dastlab ijtimoiy sheriklik qaysi tashkilotning tashabbusi bilan yuzaga kelgan?**

a) ijtimoiy ta'minot bo'limi;

b) kasaba uyushmalari;

c) ijtimoiy rehabilitatsiya markazi;

d) mehribonlik uyi.

**10. Retrospektiv nuqtayi nazardan ijtimoiy sheriklikning qanday modellari mavjud?**

a) moslashtiriluvchi, aksilkasaba, pluralistik;

b) markazlashtiruvchi, o'rnatuvchi, aylanma;

c) birlashtiruvchi, belgilovchi, umummilliy;

d) umumlashtiruvchi, qo'llab-quvvatlovchi, patrenalistik.

## VIII-bob. O‘ZBEKISTON IJTIMOIIY SIYOSATINING STRATEGIYASI VA USTUVOR YO‘NALISHLARI

**8.1. Strategiyasi tushunchasi va uning nazariy asoslari**

**8.2. Davlat strategiyasining tizimli boshqaruv omillari**

**8.3. O‘zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichi**

### **8.1. Strategiyasi tushunchasi va uning nazariy asoslari**

Davlatchilik rivoji va uning taraqqiyot mezonlari millatning ma’naviy darajasi bilan belgilanadi. Zero, faqat o‘zligini anglagan, mushtarak maqsadlarda yakdil, muddaolari uyg‘un, yuksak oriyatga, yagona maslakdagi madaniyatga ega xalqlarning rivojlanish tarixi barqaror va istiqbolli bo‘lishi kishilik jamiyati tajribalarida o‘z isbotini topgan. Binobarin, bugungi kunda mamlakatning strategik siyosati milliy davlatchiligimizning ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-madaniy merosini yangicha tafakkur asosida anglash va uni bevosita jamiyat boshqaruviga tatbiq qilish bilan jahon hamjamiyati integratsiyasiga kirishish imkoniyatlari kengayib bormoqda.

Taraqqiyot va yuksak rivojlanishga erishgan davlatlar tajribasiga ko‘ra har bir xalq o‘z oldiga ulug‘ va istiqbol maqsadlarni qo‘yishi hamda uni amalga oshirish salohiyatlari bilan jahon hamjamiyatiga kirib keladi. Strategik tafakkurga ega, uzoqni ko‘ruvchi siyosatchilar, tom ma’nodagi xalqning haqiqiy xizmatkorlari jamiyatda sodir bo‘ladigan muommolarni oldindan ilg‘ab, ularning samarali va istiqbolli yechimlarini topa bilganlar. Ayniqsa, millat uchun murakkab va mas’uliyatli sharoitlarda jamiyat rivojini belgilab berishga qodir “arxitektor”larning vujudga kelishi ham davrning taqozo bilan bog‘lanadi. Trumen, Cherchil, Yaponiyada Makartur, Singapurda Li Kuan Yu, Hindistonda M.Gandi, Xitoyda Mao sze-Dunlarning uzoqni ko‘ra bilishi millatning farovon kelajagini ta’minlashga erishish salohiyatlari bilan baholanadi. Ayniqsa, Fransiya, Germaniya, Malayziya, Janubiy Koreya davlatlari ikkinchi jahon urushlari talato‘plaridan so‘ng xalqning orzu-umidlarini ro‘yobga chiqarishda misli ko‘rilmagan ommaviy safarbarlik va jasorat namunalari namoyon qilishi bilan barcha xalqlarga ibrat bo‘ldilar.

Tarixiy rivojlanish qonuniyatlari aniq va to'g'ri mo'ljalli strategiya jamiyat orzularini real hayotiy natijalarga aylantirish mumkin ekanligini isbotladi. Bugun O'zbekiston ham o'z tarixining ana shunday mas'uliyatli chorrahasida turibdi. Prezident Sh.Mirziyoyev tomonidan ishlab chiqilgan harakatlar strategiyasi istiqbolimiz taqdirini hal etuvchi muhim va yangi davr bosqichini ifodalovchi milliy g'oyaga aylanmoqda. Shu ma'noda, xalqlar va milliy davlatchilik tarixining murakkab evrilishlar asosida kechgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarini o'rganish bugungi kun istiqbol maqsadlarimizni oydinlashtirish, asoslash, yangi marralar va vazifalarni belgilash kabi imkoniyatlarni yaratadi.

Shunday ekan, o'z-o'zidan sovol tug'iladi? Rivojlanish nima va u qanday ta'minlanadi? Uning barcha jamiyatlar uchun umumiy yoxud qandaydir alohida qonuniyatlari mavjudmi? Rivojlanishni ta'minlovchi qanday ijtimoiy omillar va talablar hukmronlik qiladi? Ta'limotlarga ko'ra, rivojlanish – bu bir sifatdan ikkinchi bir sifatga yoki bir holatdan boshqa bir holatga o'tishda tabiat va jamiyatda sodir bo'ladigan o'zgarishlar hamda harakatlar turi. Falsafaning hukmron tasavvurlariga ko'ra materiya va ongning yaxlit holatda rivojlanishi spiralsimon cheksizdir. Zero, uning orqaga qaytishi va turg'unligi e'tirof etilsa-da, uning tamoyillari oddiylikdan murakkab shakllar tomon o'sib boradi. Ya'ni u rivojlanish obyektning o'zida mavjud bo'lgan harakatlarga asoslanadi<sup>104</sup>. Biz buni jamiyat rivojiga daxldor bo'lgan “innovatsiya”lar, “tamoyil”lar kabi g'oyalar orqali ta'minlaymiz.

Bundan tashqari, har qanday rivojlanish jarayoni ijtimoiy o'zgarishdan boshlanadi. O'zgarishlar ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy, madaniy, siyosiy sohalar orqali amalga oshiriladi. Ya'ni, har bir sohaning miqdoriy, mazmuniy, tuzilmaviy holatining almashinuvi natijasida sifat ko'rsatgichlar vujudga keladi. Lekin, har qanday o'zgarishlar rivojlanishni ta'minlamaydi. O'zgarishlar ijtimoiy-ommaviy yaxlitlikda rivojlanishga olib keladi. Shunday qilib, rivojlanish jamiyat tizimining murakkablashib, takomillashuvi jarayonida tashqi sharoitlarga samarali moslashuvchanligida, voqelik ko'lamining kengayishida, biron bir sohadagi son o'sishida va uni amalda ta'minlashning tuzilmaviy qurilmalarning vujudga kelishida namoyon bo'ladi.

---

<sup>104</sup> Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. Тошкент “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”  
Давлат илмий нашриёти 187-бет

Taraqqiyot va yuksak rivojlanishga erishgan davlatlar tajribasiga ko‘ra, har bir xalq o‘z oldiga ulug‘ va istiqbol maqsadlarni qo‘yishi hamda uni amalga oshirish salohiyatlari bilan jahon hamjamiyatiga kirib keladi. Shuning uchun tabiiy rivojlanish jarayonlarini bosib o‘tish barcha xalqlarga xos, ammo o‘tish yo‘llarini tanlash, amalga oshirish va ta‘minlash jamiyatning milliy-madaniy xususiyatlari bilan belgilanadi. Ya‘ni bu maqsadlar davlatning strategik yo‘nalishlarida o‘z ifodasini topadi. Xo‘sh shunday ekan, strategiya nima? U avlatning qanday jabhalarini qamrab oladi? Strategiya davlat va xalq manfaatlarini uyg‘unlashtirishning qanday istiqbollarini belgilab beradi?

“Strategiya” tushunchasi yunoncha so‘zdan olingan bo‘lib, aslida “jang san‘ati” ma‘nosini bildiradi. Bugungi kunga kelib “strategiya” keng tushuncha bo‘lib, turli siyosiy-ijtimoiy sohalarida qo‘llanilmoqda. Jumladan, “Davlat strategiyasi” siyosiy ibora sifatida bugungi kunda fan nazariyasi va amaliyoti darajasida o‘zining alohida tushuncha va kategoriyalariga ega bo‘lib:

- 1.) Uzoqqa mo‘ljallangan rejalashtirish san‘ati.
- 2.) Boshqaruv va rahbarlik mahorat san‘ati.
- 3.) Siyosiy va ijtimoiy jarayonlarni idora qilish san‘ati.
- 4.) Aholini ma‘lum maqsadlar sari safarbar etish san‘ati.
- 5.) Mavjud resurslardan oqilona foydalanish san‘ati.
- 6.) Taqsimlash va samaradorlikni ta‘minlash san‘ati kabi tushunchalarni qamrab oladi<sup>105</sup>.

Strategiya – bu ta‘limotni izlash, ifodalash va rivojlantirish tizimi bo‘lib, u izchillik bilan va to‘liq amalga oshirilganda uzoq muddatli muvaffaqiyatni ta‘minlaydi. Strategiya bu – strategik fikrlash, chuqur bilim va intuitsiya asosida muhitni, kelgusi shartlarning mavjud prognozlarini tizimli tahlil qilish natijasidir. Ushbu tahlilning yakuniy mahsuli – bu o‘zidan avvalgi prognoz, vazifa, nuqtayi nazar, ustuvorliklar va uzoq muddatli maqsadli vazifalarni rejalashtirish orqali bajarilishini talab qiladi. Strategiya bu – kelajak va no‘malumlik parokandaligi orqali sinovdan o‘tgan ustuvorliklar va maqsadlar sari yo‘naltiruvchi g‘oyalar majmuidir. Bu resurs cheklanganligini baholash

---

<sup>105</sup> Буланова Е.А. Политика и стратегия в механизме государственного регулирования социально-экономических процессов. Вестник Чувашского университета. 2006 г. №3, – С. 148.

orqali harakatlarning to'g'ri tanlangan yo'nalishi bilan boyitilgan donishmandlik<sup>106</sup>.

XXI asrga kelib strategiya tushunchasi ancha kengaydi. Strategiya deb, dunyo miqiyosida va davlat ichki hayotidagi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hamda boshqa sohalarida vujudga kelgan inqiroziy vaziyatlarni prognozlashtirish va bartaraf etishga qaratilgan boshqaruvni tashkil etish masalalariga doir tushunchalarni qamrab oladi<sup>107</sup>. Shundan kelib chiqib, davlat strategiyasi bir-biri bilan o'zaro bog'liq, lekin alohida xususiyat kasb etuvchi ko'plab tushunchalarda ifodalanadi. Ya'ni, "siyosat", "doktrina", "milliy manfaatlar", "milliy xavfsizlik", "modernizatsiya", "innovatsiya"lar davlat strategiyasining mohiyatini belgilaydi. Shunday qilib, davlatning strategiyasi aniq maqsadlarni belgilash imkoniyatini yaratuvchi vositalarni tanlash asosida samarali boshqaruv ta'minlash orqali jamiyatning ijtimoiy asoslarini rivojlantirishga, mamlakat suvereniteti hamda xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan kompleks harakatlar majmui bo'lib hisoblanadi.

Strategiyaning mohiyati taktik vazifalarni belgilashdan iborat. Siyosat, strategiya va taktika – strategik rahbarlik va boshqaruv jihatlari bilan bog'liq uchta mustaqil kategoriyadir. Ularning farqi shundan iborat: strategiya tasdiqlangan va amalga oshirish uchun qabul qilingan bo'lsa, uning joriy qilinishi strategiyalashtirilayotgan obyektning yo'l ko'rsatuvchisiga, mayog'iga aylanadi. Taktika esa, strategik vazifalarni amalga oshirish bo'yicha kundalik, oylik va yillik (joriy) rejalarni va ularning yechimi bo'yicha tadbirlarni taqozo etadi. Siyosat – bu strategiya va taktikani yagona samarali amal qiluvchi tizimga agregatsiya va integratsiya qilinishidir. Boshqachasiga aytganda: **Strategiya + Taktika= Siyosatga teng**<sup>108</sup>.

Davlatning strategik boshqaruvi boshqa davlat va xalqlarning tarixiy tajribasidan o'zlashtirib yoxud nusxa olib bo'lmaydi. Zero har bir xalqning o'ziga xos tarixi, siyosiy-ijtimoiy, demografik, iqtisodiy, madaniy jabhalari mavjud. Aynan shu ijtimoiy omillar ma'lum ijtimoiy sharoitlarni vujudga keltiradi. Shunga ko'ra, davlat strategiyasining universal formulasini shakllantiradigan muassasalar mavjud emas. Barcha davlatlar uchun xos bo'lgan umumiy tajribalar ham yo'q. Ular uchun maxsus strategik komandalar, komissiyalar, tezkor guruhlar

<sup>106</sup> Квинт В. Стратегиялаш назарияси ва амалиёти. Т.; "TASVIR", 2018. – Б. 18.

<sup>107</sup> Юрина А. О стратегии государственного управления. [www.odn2ru](http://www.odn2ru).

<sup>108</sup> Квинт В. Стратегиялаш назарияси ва амалиёти. Т.; "TASVIR", 2018. – Б. 44.

tuziladi. Strategiya siyosiy partiyalarning dasturiy g'oyalari yoki davlat apparati tomonidan shakllantiriladi. Strategiya jamiyat tafakkuri mahsuli sifatida ochiq va ommaviy yoki qattiq nazorat ostiga olingan tartiblarda amalga oshirilishi mumkin. Barcha uchun muvaffaqiyatli tartibot jamiyatda turli qarashlarning shakllanishiga imkoniyat va tanqid qilishga sharoit yaratgan muhitning mavjud bo'lishi bilan belgilanadi.

Ma'lumki, har qanday davlat mazkur vazifalarni hal etishning tuzilmaviy mexanizmlariga muhtoj bo'ladi. Davlat strategiyasi – bu davlat idoralari o'z vakolatlari doirasida ijtimoiy ahamiyatga molik bo'lgan maqsadlarga erishish yo'lida mavjud resurlardan tizimli ravishda foydalanishi demakdir.

## **8.2. Davlat strategiyasining tizimli boshqaruv omillari**

Davlat strategiyasi o'z mazmuniga ko'ra, nazariy va usulologik asoslariga ega bo'lgan va rivojlanib kelayotgan fanlardan biridir. Bugungi kunda davlat strategiyasini amalga oshirishning tamoyillari, tuzilmaviy funksional asoslari rivojlangan mamlakatlar ta'limotida nazariy jihatdan muqim shakllanganligiga guvohmiz. Mazkur nazariy usulologik asoslar islohotlarning izchil yo'nalishlarini kafolatlashga xizmat qiladi.

Strategik maqsadlarga qanday omillar orqali erishiladi? Bu vazifa umumiy va xususiy, birlamchi va ikkinlamchi omillarni o'zaro bog'liq harakat qonuniyatlarini idrok etish va uyg'un faoliyatini ta'minlashga erishishdan boshlanadi. Hukumatlar aksariyat hollarda milliy strategik muvaffaqiyatlarning YAIMning o'sishida, fuqarolarining farovonlik darajasining yuksalishida deb qaraydi. Yaqin o'tmishda davlatning birlamchi vazifalari hududlarini kengaytirish, hosildorlikni o'stirish, oltin-neftni ko'paytirish, armiyani mustahkamlash bilan izohlangan. Bugun milliy qadriyatlar bilan qurollangan davlatning strategik maqsadi fuqarolarning g'oyaviy e'tiqodi, bilim-salohiyati, jamiyatdagi mukammal qonunlar va barqaror ijtimoiy institutlarning mavjudligi birlamchi omil sifatida qaraladi. G'oyaviy iroda jamiyatni harakatga keltiradi. Harakatsiz xarajat nolga teng. Bu nomoddiy resurlarning kengayishi bilan moddiy imkoniyatlarning rivojiga xizmat qiladi. Ya'ni, ilm yangi bilimlarni vujudga keltiradi. Barqaror institutlar iqtisodning rivojiga, jamiyat institutlarining takomillashuviga, provard natijada ijtimoiy

farovonlikka olib keladi. Strategik xatoga yo‘l qo‘ygan davlatlar islohotlarni iqtisodiy omillardan boshlaydi.

Davlat strategiyasining usulologik asoslari amaliy faoliyatni rejalashtirishda ma‘lum nazariy me‘yorlarga amal qilishni taqozo etadi.

**Birinchi**dan, ijtimoiy voqelik va vaziyatni anglash. Davlat strategik vazifalarni qabul qilgunicha jamiyatda turg‘unlik, mavhumlik yoxud inqiroziy holatlar mavjud bo‘ladi. Strategik rejalarning qabul qilinishi bilan mazkur vaziyatning murakkab jihatlari aniqlanadi va maqsadga erishish yo‘lidagi mavjud resurslar imkoniyati baholanadi. Shunday qilib, sog‘lom pragmatik qarashlar ijtimoiy vaziyatni tan olish orqali strategik maqsadlarga olib keladi.

**Ikkinchi**dan, vorisiylik an‘anasiga amal qilish. Hukumat amaldorlarining o‘zgarishi vorisiylik kafolatlarini ta‘minlansa, unda jarayonlar rivojlanmaydi. Davlat organlari amaldorlarining tez-tez o‘zgarishi strategik maqsadlarining shakllan-maganligidan dalolat beradi. Zero davlat strategiyasi shu maqsadlarga muvofiq yetakchilarni tanlashni taqozo etadi. Modomiki shunday ekan, dastavval kadrlar tizimini shakllantirish strategik maqsadning keyingi amaliy bosqichga o‘tib o‘tish imkoniyatini ta‘minlaydi. Binobarin boshqaruvni samarali maqsadga xos tashkil etish strategiyaning garovi bo‘lib xizmat qiladi.

**Uchinchi**dan, agar davlat e‘lon qilgan strategiyasiga sobit bo‘lsa, u fuqarolar ongida hukumatga nisbatan ishonchni uyg‘otadi, mutlaqo yangi ijtimoiy qadriyatlarni taklif qiladi, jamiyatda ijtimoiy hamjihatlikning asoslarini belgilab beradi. Ya‘ni, barcha uchun birdek maqbul bo‘lgan g‘oya kerak. Bu o‘z navbatida fuqaroviy safarbarlikni ta‘minlashga xizmat qiladi. Aslida strategiya davlat va jamiyat o‘rtasidagi o‘tish davri uchun kelishuv shakli sifatida namoyon bo‘ladi.

**To‘rtinchi**dan, davlat strategiyasi siyosiy kuchlarning faoliyatini strategik vazifalar asnosida birlashtirishni taqozo etadi. Rasmiy va oshkora yakdillik jamiyatda kuchlar muvozanatini yagona maqsad yo‘lida uyg‘unlashtiradi. Bundan tashqari, jamiyatda guruhlar, toifalar, qatlamlar ham mushtarak maqsadlarga intilishlarini ta‘minlab beradi. Muvaffaqiyatsizliklarga duch kelgan tajribalardan ma‘lumki, ijtimoiy o‘zgarishlar yuqorida hokimiyat va mulk taqsimoti doirasidan tashqariga chiqqan bo‘lib ketadi.

**Beshinchi**dan, jamiyatda e‘lon qilingan strategiya albatta tanqidga olinishi tabiiy. Faqat tanqid konstruktiv, sog‘lom va asosli muammolarga qaratilishi lozim. Strategiya mavjud ekan, tanqid taktik

masalalarning mohiyatiga qaratiladi va bunday holatni to'xtatish yoki unga to'siq qo'yish boshqa illatlarning kelib chiqishiga olib keladi<sup>109</sup>. G'oyalar xilma-xilligi, konstruktiv muxolifat, sog'lom raqobat strategik harakatlar jarayonini muolaja qilib turadi.

Zamonaviy strategiyalarning aksariyati aynan, investitsiyalar orqali inson kapitaliga va u orqali adolatli qonunlarning, ijtimoiy institutlar qoidalarini tashkil etilishiga qaratiladi. Muammo shundan iborat bo'ladiki, davlatning strategik vazifasini jamiyat a'zolari tomonidan idrok eta olmasligi yoxud aksincha jamiyat talablariga da'vatan davlat boshqaruvi tayyor bo'lmasligi natijasida millatning rivojlanish istiqbollari ro'yoga aylanadi. Shuning uchun har qanday islohotlar inson kapitalini rivojlantirish bilan amalda uning ta'mal toshi mustahkamlanadi. Prezident Sh.Mirziyoyev - "Binobarin, inson kapitaliga e'tiborni kuchaytirishimiz, buning uchun barcha imkoniyatlarni safarbar etishimiz shart. Chunki jamiyatimizda oliy ma'lumotga ega, yuksak malakali mutaxassislar qancha ko'p bo'lsa, rivojlanish shuncha tez va samarali bo'ladi"<sup>110</sup>, deya davlat strategiyasining ustuvor vazifalarini ochib beradi.

Davlat strategiyasini boshqarish tizimlarining nazariy va usulologik asoslari belgilangan uzoq va yaqin muddatli dasturlarning puxta va mukammal rejalar bilan ta'minlashda izohlanadi. Tanlangan maqsadlarning strategik rejasi, tamoyili, izchil va o'zaro bog'liq ijrosi, tuzilmaviy integratsiyalashuvini talab qiladi. Mazkur jarayonlar strategik boshqaruv rejasi va tamoyillari asosida ta'minlanadi. Strategik vazifalarni rejalashtirish qanday me'zonlarga asoslanadi? Ular:

- tashkilot missiyasini aniqlash; tashkilotning mavjudlik mazmunini belgilash, mo'ljallangan, yuklangan mas'uliyatlarni ifodalaydi.

- tashkilot maqsadi va vazifasini shakllantirish; xizmat ko'rsatish turining soni va sifat darajasi rag'batlantirish tizimiga asoslanib faoliyat samaradorligini belgilaydi.

- tashqi muhit ta'sirini baholash va tahlil qilish; ichki xulq-atvorning tashqi munosabatlarga kirish darajasi va natijalari, kommunakativ holat ifodasi. U obyektning holati, resurlarning mavjudligi, huquqiy-me'yoriy asoslarning ta'minlanganligi, ilmiy-texnikaviy baza, ijtimoiy-madaniy muhit va infratuzilmaning layoqatlilikini tahlil etadi.

<sup>109</sup> Сергей Дацюк. Государственная стратегия. <https://gtmarket.ru/laboratory/expertize/>

<sup>110</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. Мирзиёевнинг Олий мажлисиغا Мурожаатномаси. Халқ сўзи. 2018й, 29 декабрь.

• ichki tuzilmani baholash va tahlil qilish; belgilangan maqsadlarga erishish yoʻlida ichki imkoniyat va salohiyatlarni oʻrganish, hisobga olish orqali tashkilot missiyasini aniq belgilash mumkin boʻladi. Ular kadrlar salohiyati, boshqaruvni samarali tashkil etish, rejani toʻgʻri moliyalashtirish va marketing bilan bogʻliq boʻladi.

• muqobil strategik tavsiyalarni ishlab chiqish va qiyoslash; mazkur yoʻnalish strategik rejalashtirishning yuragi hisoblanadi. Zero, unda muqobil tavsiyalardan eng samaralisi tanlanib, maqsadga erishishning maqbul variantlari joriy etiladi.

• strategiyani amalga oshirish; bu yoʻnalish eng masʼuliyatli hamda tahlikali jarayon. Agar u real vaziyatni toʻliq qamrab olgan yaxlit va bir butun reja boʻlsa, uning muvaffaqiyati taʼminlanadi. Mabodo boshqacha boʻlsa, unda turgʻunlik yuzaga keladi. Bunga sabab, notoʻgʻri tahliliy maʼlumotlar, xulosalar, kutilmagan sharoitlar, resurslardan oqilona foydalana olmaslikdir.

•strategiyani baholash va nazorat qilish: bu jarayon strategik rejalashtirishni mantiqiy yakunlovchi omil hisoblanadi. U hodisalarning qayta aloqalanish siklini taʼminlash jarayonida tuzilmaviy boʻgʻinlardagi bogʻlanish imkoniyatlarini kuzatadi, tahlil qiladi, baholaydi, aniqlaydi, xulosalar chiqaradi. Zarur hollarda strategik rejalarni korrektirovka qiladi<sup>111</sup>.

Davlat strategik rejalari aniq va oʻzgarmas tamoyillarga boʻysindirilishi muhim. Ular islohotlarning bir maromda, izchil yoʻnalishini taʼminlashga xizmat qiladi. Jumladan;

1. Ilmiylik.
2. Maqsadlilik.
3. Oʻzgaruvchanlik.
4. Birlik.
5. Sharoit yaratish.

**Ilmiylik.** Rahbar oʻz vazifalarini amalga oshirishida turli ilmiy sohalaridagi maʼlumotlar va xulosalar bilan qurollanmogʻi, bundan tashqari, improvizatsiya qilmogʻi, qoʻyilgan vazifalar yechimini topishda individual va kreativ yondashuvlarni tashkil etmogʻi lozim.

**Maqsadlilik.** Strategiyani shakllantirish va strategiyaviy tahlillar maqsadli boʻlishi lozim. Yaʼni davlatning ustuvor maqsadlarini bajarishga yoʻnaltirilishi lozim.

---

<sup>111</sup> Шамгун Р.Н. Стратегическое планирование или управление - что выбрать?.  
www.cfin.ru.

**O'zgaruvchanlik.** Mazkur tamoyil oldin qabul qilingan qarorni o'zgartirish ehtimoli yoki o'zgaruvchan vaziyatdan kelib chiqqan holda, istalgan paytda qayta ko'rib chiqish mumkin demakdir.

**Birlik.** Strategik dastur va rejaning uyg'unligi. Turli darajadagi qarorlarning mustahkam bog'liqligi va hamjihatligi muvaffaqiyatning shartli kafolatidir. Mazkur birlik davlat organlarning tuzilmaviy bug'inlarida strategik harakatlarni birlashtirish, barcha funksional bo'lim rejalarining kelishuvi bilan ta'minlanadi.

**Sharoit yaratish.** Strategiyani amalga oshirish imkoniyatini tug'diradi. Strategik rejaning mavjudligi hali muvaffaqiyatli amalga oshirishini kafolatlamaydi. Strategik boshqaruv jarayonida dastur va rejani amalga oshirish uchun tashkiliy sharoit yaratilishi lozim. Ular mustahkam tashkiliy tuzilma, rag'batlantirish tizimi va boshqaruv tizim samaradorligini oshirishga qaratiladi<sup>112</sup>.

Mazkur tamoyillar hokimiyat organlari faoliyatidagi ijro intizomining past sur'atlariga, shaxsiy mas'uliyatsizligiga barham beradi, kadrlar layoqati darajdasini oshirishni talab qiladi, murakkab va chigal ish tartiblarini sodda hamda tezkor yondashuvlar bilan ta'minlashga xizmat qiladi. Eng muhimi, strategik yo'nalishlarni belgilashning mavhum va noma'lum jihatlarini oydinlashtirish orqali tartiblashtirishga xizmat qiladi. Bu masalalar quyidagi tamoyillar bilan aniqlashtiriladi:

- **Maqsad** – nega u yoki bu harakatlar birlamchi bo'lib hisoblanadi. Ya'ni nima uchun dolzarb va real vaziyatda, turli ijtimoiy ehtiyojlar talabida, qo'rquv va ikkilanish sharoitida muhim vazifalarni ajratib olish kerak?

- **Tashqi sharoit** – qaysi nuqtada maqsadga erishish ko'zda tutilmoqda. Zarur resurslar mavjudligini aniqlash va amalga oshishi lozim bo'lgan hozirgi va kelgusidagi sharoitlar taqozo qiladimi? Hukumat ana shu ikki nisbat o'rtasidagi omillarni qanday me'zonlar bilan tanlashi lozim?

- **Yo'nalish** – nimaga erishishni xohlaymiz, belgilangan, istalgan maqsad va natijalar qanday? Bu o'z navbatida keyingi harakatni belgilaydi:

- **Harakat** – hukumat va idoralar belgilangan maqsadga erishishning qanday rejasiga ega: strategiyada ifodasini topgan tamoyillar qanday qonunlar va dasturlarda kafolatlanmoqda, jamiyatni qanday

<sup>112</sup> Государственное стратегическое управление. Общ.ред. проф. Ю Кузнецова. Питер, 2014. – С. 134.

omillar yetaklaydi, rag‘batlantiruvchi kuch nimada? Mazkur harakatlar kutilmagan oqibatlariga olib kelishi mumkin bo‘lganligi uchun strategiya ta’limga bog‘liq bo‘ladi:

• **Ta’lim** – jamiyat tasavvurlarini shakllantirish tizimi sifatida tanlangan yo‘nalishni va shuningdek, maqsadni qayta ko‘rib chiqish, imkoniyatlarni belgilash asosida qanchalik amaliy natijalarga erishilayotganligi hamda qaysi sohalarida imkoniyatlar boy berilayotganligini aniqlash, taqqoslash, qiyoslash indi katorlarini (ilmiy uslublarni)joriy etish talab etiladi<sup>113</sup>.

Davlatning strategik boshqaruvi tizimi belgilangan maqsaddan kelib chiqilgan yangi yo‘nalishlarni tanlashdan, shunga muvofiq, hokimiyat organlarining qayta tashkillashtirilishidan hamda umumijtimoiy-madaniy ahamiyatga molik maqsad yo‘lida jamiyat kuchlarini safarbar etish bilan belgilanadi. Davlat strategik boshqaruvi tizimi indikatorlari mazmuni quyidagi savollarga javob topishga qaratiladi.

1. Qachon, qayerda va nega?

2. Ijtimoiy va madaniy ahamiyatga molik maqsadlarni aniqlash (**nimaga?**).

3. Insoniy, tabiiy, texnik-texnologik, moliyaviy, ishlab chiqarish resurslarini aniqlash (**nima uchun, qanday qilib, nima bilan?**).

4. Aholining bunyodkorligi va tashabbuskorligini oshirishda tegishli moddiy ta’minot asoslarini yaratish (**qancha va qanday sifatda?**).

5. Malakali mutaxassislarni tayyorlash (**qancha, qanday xarajat va qiymatda?**).

6. Ijtimoiy institutlar va davlat hokimiyati organlarini o‘z vaqtida isloh etish (**qanday qilib va qanday vositalar bilan?**)<sup>114</sup>.

Davlat strategiyasining funksional vazifalari turli bo‘lishiga qaramasdan, ularning mazmun-mohiyati uchta asosiy funksiyaning elementlari hisoblanadi. Ularsiz boshqaruv tizimlari, ayniqsa, strategik rahbarlik va boshqaruv tizimlari to‘liq samarali ishlay olmaydi. Bular strategik rejalashtirish, strategik rag‘batlantirish hamda strategik monitoring va nazorat.

**Birinchi element** aniq istiqbolli siyosatni shakllantirish jarayonini qamrab oladi. Uning dastlabki ustuni sifatida mazkur siyosatni omma e’tiboriga havola etish, ongiga singidirish, tatbiq etish vazifalarini

<sup>113</sup> Джефф Малган. Искусство государственной стратегии. М.: изд. институт Гайдара. 2011. –С. 14.

<sup>114</sup> Юрина А. О стратегии государственного управление. www.odn2ru.

belgilashga, imkoniyatlarni hisobga olishga qaratiladi. Ya'ni rejalashtirish.

**Ikkinchi element** maqsadga erishish yo'lida moddiy va ma'naviy resurslarni to'g'ri taqsimlash, ketma-ket bog'liq vazifalarni aniqlash orqali erishiladi. Bunda asosiy e'tibor rejalarni amalga oshirish faoliyatini to'g'ri rag'batlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

**Uchinchi element** faoliyat natijalarining monitoringini tashkil qilish, samarali omillarni takomillashtirib borish, nazoratni kuchaytirish lozim, deya hisoblaydi. Mazkur unsurlar yaxlit jarayon sifatida biri ikkinchisini mustahkamlashga xizmat qiladi<sup>115</sup>.

Agar birinchi vazifalar ta'minlanmasa, qolgan bosqichlar ham amalga oshmaydi. Yoki rasmiyatchilik holati vujudga keladi. Shu sababdan ushbu qonuniyatlar bir-biri bilan ziddiyatlarga ham kirishishi mumkin. Bunday vaziyatlar strategiya jamiyat sohalarini to'liq qamrab olishga erishmaganligidan dalolat beradi. Jumladan, fan-ta'limni rivojlantirmay turib, yuqori texnologiyaga erishib bo'lmaydi. Yoki tadbirkorlik va xususiy mulk vakolatlarini kafolatlamasdan turib, iqtisodiyot, investitsiya sohalarini rivojlantirib bo'lmaydi.

Xulosa qilib aytganda, strategiya, bu – fundamental fan hisoblanadi. Uning asosiy tamoyillari va ilmiy kategoriyalari har bir millatning o'ziga xos xususiyatlari asosida takomillashtiriladi hamda muvofiq-lashtiriladi. Ammo, har qanday strategiya – strategiyalash obyektidan qat'iy nazar, umumiy tabiatga ega, va demak, umumiy nazariy asoslarga ega bo'lishi lozim. Shu sababli strategiyaning yaxlit tizimi milliy, mintaqaviy, sohaviy va korporativ strategiyalarni integratsiyalashuvi jarayonlaridan hosil bo'lib boradi<sup>116</sup>.

### 8.3.O'zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichi

Har bir davr o'ziga xos siyosiy vaziyati bilan ijtimoiy hayot rivojiga ta'sir ko'rsatadi. Har bir davrning o'z ta'limoti va yondashuvi tamoyillari yuzaga keladi. Ushbu vaziyatni anglash, shunga mos yo'l-yo'riq tanlash strategik tamoyillarning talablaridan hisoblanadi. Rivojlanishning o'z qonuniyatlari mavjud bo'lgani kabi, favqulodda

<sup>115</sup> Джефф Малган. Искусство государственной стратегии. М.: изд. институт Гайдара. 2011. – С. 232.

<sup>116</sup> Квинт В. Стратегиялаш назарияси ва амалиёти. Т.; “TASVIR”, 2018. – Б. 42.

ijtimoiy o'zgarishlar ham rivojlanishning mohiyatiga zid keladi. Boshqachasiga aytganda, inqilobiy ta'sirni jamiyatning o'zi inkor qiladi. Tadrijiy ta'limot ijtimoiy qonuniyatlarning jamiyat imkoniyatlariga muvofiqlashtirilgani, uyg'un siyosiy islohotlar belgilangani bilan samarali natijalar beradi. Iqtisodiy islohotlarning bozor munosabatlariga yo'naltirilishi, infratuzulmalarning joriy etilishi, ishlab chiqarish munosabatlarining tashkil etilishi, mulkdorlar qatlamining o'sib borishi bilan jamiyatda inson manfaatlari, qonun ustuvorligi, ijtimoiy himoya kabi demokratik qadriyatlar ta'minlanadi. Shu tariqa yangi jamiyat asoslariga daxldor ijtimoiy omillar biri ikkinchisini to'ldirishga xizmat qiladi.

Ko'rib turganimizdek, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar strategik ta'limotlarga to'liq mos keladi. Ular respublikamiz bosib o'tgan taraqqiyot yo'lining chuqur tahlili, bugungi kunda jahon bozori konyunkturasi keskin o'zgarib, globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgan davrda davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro'yobga chiqarishda namoyon bo'lmoqda.

Darhaqiqat, olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakat taraqqiyotining kompleks dasturini ilgari surdi. Ushbu hujjat "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"<sup>117</sup> deya nomlandi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26 yillik tantanalariga bag'ishlangan ma'ruzalarida muhtaram Prezidentimiz – "Asosiy qomusimiz negizida yaratilgan Harakatlar strategiyasi bugungi kunda jonajon Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tarishda, innovatsion va industrial rivojlanish sari odimlashida beqiyos o'rin

---

<sup>117</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги Фармони. "2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида"// Веб-сайт Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси – [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

egallamoqda<sup>118</sup> deya ulkan o'zgarishlarga daxldor yangi g'oyalarni ilgari suradi.

Mazkur dastur nafaqat ichki va tashqi siyosatdagi islohotlar sari tashlangan qadamda, balki, eng avvalo, davlatning xalqqa bo'lgan munosabatini o'zgarganligida namoyon bo'lmoqda. Davlatimiz rahbarining 2018 yil 28 dekabr kuni Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida ham mavjud o'tkir muammolarga e'tibor qaratilib, ularni hal etishning aniq yo'llari ko'rsatib berildi. 2017 yil "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili" deb e'lon qilinishi, 2018 yil "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash" yillarida amalga oshirilgan islohotlar asosida "Inson manfaatlari hamma narsadan ustun" degan insonparvar g'oya izchillik bilan hayotga tatbiq etishning dasturiy chora-tadbirlari belgilandi. Bu borada davlat organlari hamda fuqarolarning o'zaro munosabatiga bo'lgan yondashuvni tubdan qayta ko'rib chiqishni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida qayd etildi. Mazkur erishilgan natijalar Ona zaminimizda 2019 yil "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili" sifatida davlatning strategik yo'nalishlari yanada samarali, mustahkam va izchil qarorlar bilan boyitildi.

Ushbu vazifalar avvalo demokratik islohotlarni chuqurlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda parlament va siyosiy partiyalarning rolini yanada oshirish, davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlat xizmatining ma'muriy-huquqiy asoslarini rivojlantirish, "Elektron hukumat" tizimini takomillashtirish, davlat xizmatlari sifati va samarasini oshirish, jamoatchilik nazorati mexanizmlarini amalda tatbiq etish, fuqarolik jamiyati institutlari hamda ommaviy axborot vositalari rolini oshirishga yo'naltirilgan davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishga qaratiladi. Bu yo'nalishlar quyidagi strategik tamoyillarda o'z ifodasini topdi:

## **O'ZBEKISTON HARAKATLAR STRATEGIYASI**

### **I. Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari;**

1.1. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlisning va siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish:

1.2. Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish:

<sup>118</sup> Халк сўзи. 2018 йил 8 декабрь.

1.3. Jamoatchilik boshqaruvi tizimini takomillashtirish:

## **II. Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari;**

2.1. Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash, sudning nufuzini oshirish, sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirish:

2.2. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlash:

2.3. Ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik qonunchiligini takomillashtirish:

2.4. Jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini takomillashtirish:

2.5. Sud-huquq tizimida qonuniylikni yanada mustahkamlash:

2.6. Yuridik yordam va xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish:

## **III. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari;**

3.1. Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish:

3.2. Tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish:

3.3. Qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish:

3.4. Iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeyini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish:

3.5. Viloyat, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning mavjud salohiyatidan samarali va optimal foydalanish:

## **IV. Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari:**

4.1. Aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirish;

4.2. Aholini ijtimoiy himoya qilish va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish;

4.3. Arzon uy-joylar barpo etish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, aholining hayot sharoitlari yaxshilanishini ta'minlovchi yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish;

4.4. Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish;

4.5. Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish;

5. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlar.

**V. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlar:**

5.1. Xavfsizlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni ta'minlash sohasidagi ustuvor yo'nalishlar:

O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligini muhofaza qilish;

axborot xavfsizligini ta'minlash va axborotni himoya qilish tizimini takomillashtirish, axborot sohasidagi tahdidlarga o'z vaqtida va munosib qarshilik ko'rsatish;

fuqarolik, millatlararo va konfessiyalararo tinchlik hamda totuvlikni mustahkamlash;

davlatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining jangovar qudrati va salohiyatini oshirish.

Davlat va jamiyat qurilishi shunday bir murakkab tuzilmaki, uning tarkibidagi bir-biriga bog'liq bo'lgan va bir-birini to'ldiradigan soha va jabhalarni bir vaqtning o'zida jadal rivojlantirishni talab qiladi. Ularning har biri ikkinchisiga zamin yaratadi. Qaysidir asosiy soha avval rivojlanib, boshqa soha va tarmoqlar uchun lokamativ vazifasini ham bajarishi mumkin. Albatta, bu jarayonda har bir sohaning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish, obyektiv tahlil qilish, o'z vaqtida tegishli chora-tadbirlar qabul qilish, ularni rivojlantirishning huquqiy asoslarini yaratish, samarali ishlash mexanizmlarni yangi texnologiyalar asosida tashkil etib berish kabi vazifalarni hal qilish talab etiladi.

Harakatlar strategiyasining yetaklovchi lakomativ kuch - bu davlat va uning organlari. Undan chiqdi, islohotlarning garovi va kafolati layoqatli hokimiyatning faoliyati bilan bog'liq hodisa. Shunday ekan, davlat va jamiyat boshqaruvi tizimlarini takomillashtirmasdan turib mamlakat hayotini modernizatsiya qilib bo'lmaydi. Modernizatsiya o'z umrini poyoniga yetkazgan boshqaruv usullarini yangi sifat va talablar darajasiga ko'tarish bilan mamlakatni rivojlantirishga olib keladi. Bu jarayonlar bevosita mahalliy hokimiyatlarning hududlarni rivojlantirishga oid masalalarni hal etishda mustaqil qarorlar qabul

qilishning huquqiy asoslarini shakllantirishni taqozo qiladi. Shu nuqtayi-nazardan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev “Murojaat”ida parlamentning muhim qarorlar qabul qilish va qonunlar ijrosini nazorat etish faoliyatini kuchaytirish, ijro hokimiyati tizimini optimallashtirish, ma‘muriy islohotlarni davom ettirish va davlat boshqaruvida zamonaviy menejment usullarini keng qo‘llash, davlat boshqaruvida samaradorlikni oshirish maqsadida davlat xizmatiga malakali mutaxassislarni jalb etishga qaratilgan yagona kadrlar siyosatini shakllantirish, mahalliy hokimiyat organlarining vakolat va mas‘uliyatini qayta ko‘rib chiqishimiz, ularning mustaqilligini yanada oshirish vazifalari belgilanadi<sup>119</sup>.

Boshqaruvda adolatli davlat boshqaruvi tizimlari shakllanmas ekan, qonun ustuvorligini ta‘minlash va sud-huquq tizimini isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlari – ikkinchi uzviy bog‘lanuvchi muhim tamoyil ta‘minlanmaydi. Ular sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta‘minlash, sudning nufuzini oshirish, sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirish orqali amalga oshiriladi. Bunday tizimning samarali faoliyati fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta‘minlashning real imkoniyatlarini vujudga keltiradi. Oliy sud – oliy hakam sifatida jamiyatning yaxshi - yomoni, foyda – ziyonini belgilab beruvchi ma‘naviy barometrga aylanadiki, bunday ijtimoiy muhitda jinoyat qilishdan kura bunyodkorlik qilish avfzalligi ustuvorlik kasb qiladi. Shu ma‘noda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta‘minlash maqsadida sudyalikka nomzodlarni tanlash va tayinlash tizimini yanada takomillashtirish lozimligiga ahamiyat berishi strategik maqsadlarning mushtarakligini ta‘minlashga qaratiladi.<sup>120</sup>

Jamiyatda adolatli boshqaruvning vujudga kelishi shubhasiz iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlarini takomillashtirish imkoniyatini yaratadi. Ular makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o‘sish sur‘atlarini saqlash, tarkibiy o‘zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, uning raqobatbardoshligini oshirish, ayniqsa, qishloq xo‘jaligini

<sup>119</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. Мирзиёевнинг Олий мажлисга Мурожаатномаси. Халқ сўзи. 2018й, 29 декабрь.

<sup>120</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. Мирзиёевнинг Олий мажлисга Мурожаатномаси. Халқ сўзи. 2018й, 29 декабрь.

modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirishning yangi innovatsion texnologiyalarining tatbiq etilishi imkoniyatlarini yaratadi. Ya'ni rivojlanishning ichki qonuniyatlariga ko'ra, yangi sifat bosqichga ko'tarilishning murakkab, ammo takomillashgan shakllari paydo bo'ladi. Bu o'z navbatida iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni tatbiq etishni talab qiladi. Natijada mavjud salohiyatidan samarali foydalanish orqali joylarda mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish o'sish sur'atlari vujudga keladi.

Jamiyatda ijtimoiy ongning o'zgarishi bilan ijtimoiy munosabatlar ham rivojlanib boradi. Jamiyat va uning holati aslida inson ongining in'ikosi. Fuqaro qanday ezgu amallar ma'rifati bilan qurollangan (tarbiyalangan) bo'lsa, ana shu ruhiy qudrat istaklarining hosilasini oladi. Bu jarayon ulkan to'liq sifatida millatning mushtarak maqsadlarida namoyon bo'ladi. Bu o'z navbatida ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida yangi tarmoqlarning, ishchi o'rinlarning paydo bo'lishiga xizmat qiladiki, tabiiy ravishda aholining real daromadi va shunga muvoffiq ijtimoiy himoyasi, turmush darajasi ham oshib boradi.

Harakatlar strategiyasining samarali natijasi bevosita mamlakatda xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat samaradorligi bilan bog'liq hodisa. Bunday deyishimizga sabab, tashqi siyosat ichki siyosatga, ichki siyosat tashqi siyosatning natijalariga bog'liq bo'ladi. Binobarin, millat ulug' maqsadlari yo'lida sobitqadam va mushtarak bo'lsalar, faoliyat amallari yuksak bo'lsa, bunday xalq jahon hamjamiyatning munosib a'zosiga aylanib borishi bilan o'z qudratini ham mustahkamlab boradi.

Dasturlarda belgilangan harakatlar strategiyasi barcha yo'nalishlari tahlili bir-biriga bog'liq uzviy qonuniyatlar bilan bog'langanligini ko'rsatib turibdi. Ular davlat boshqaruvi tizimlarining murakkablashuvi asnosida fuqarolarning ijtimoiy hayotga ishtirokini soddalashtirilishida, talab va ehtiyojlarga mos ishlab chiqarish vositalarining takomillashuvida, son ko'rsatgichlarning o'sishida, jamiyatning tuzilmaviy o'zgarishlarida, ijtimoiy sohalarining rivojlanishida namoyon bo'lmoqda. Albatta, startegiyaning muvaffaqiyatli joriy etilishi faqatgina undagi iqtisodiy va texnologik omillar bilan belgilanmaydi, bunda

yetakchilar va qaror qabul qiluvchi rahbarlarning obro'si, insoniy fazilatlari, strategiyaga doir shijoati ham muhim rol o'ynaydi<sup>121</sup>. Eng katta va hal etuvchi kuch – bu xalqning irodasi bo'lib qoladi.

### Nazorat savollari:

1. Strategiya tushunchasining mohiyati.
2. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947-son Farmoni qabul qilinishining bosh maqsadi va ahamiyati.
3. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda davlat boshqaruvi va jamiyat tizimi.
4. O‘zbekistonda davlat boshqaruvi hokimiyatining ustuvor tamoyillari.
5. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi hamda jamoatchilik nazoratining ahamiyati.
6. O‘zbekiston Respublikasi sud tizimining ixtisoslashuvi va uni yanada takomillashtirish zarurati.
7. Fuqarolar murojaatlarini hal etishda virtual qabulxonalarning o‘rni va ahamiyati.
8. Mamlakatimizda diniy ekstremizm, terrorizm va uyushgan jinoyatchilikning boshqa shakllariga qarshi kurashishga qaratilgan qonun hujjatlari va ularning ahamiyati.

### Testlar:

1. **“Strategiya” tushunchasi qanday ma’noni anglatadi?**
  - a) yunoncha so‘zdan olingan bo‘lib, “maqsad” ma’nosini anglatadi;
  - b) yunoncha so‘zdan olingan bo‘lib, “jang san’ati” ma’nosini anglatadi;
  - c) arabcha so‘zdan olingan bo‘lib, “yo‘nalish” ma’nosini anglatadi;
  - d) inglizcha so‘zdan olingan bo‘lib, “maqsad” ma’nosini anglatadi;
2. **Davlat strategiyasi tushunchasi izohlangan qatorni belgilang.**
  - a) idoralari o‘z vakolatlari doirasida ijtimoiy ahamiyatga molik bo‘lgan maqsadlarga erishish yo‘lida mavjud resurlardan tizimli ravishda foydalanishi demakdir;
  - b) kelajak va mavhumlik parokandaligi orqali sinovdan o‘tgan ustuvorliklar va maqsadlar sari yo‘naltiruvchi g‘oyalar majmuasi;

<sup>121</sup> Квинт В. Стратегиялаш назарияси ва амалиёти. Т.; “TASVIR”. 2018. –Б. 41.

c) strategik fikrlash, chuqur bilim va intuitsiya asosida muhitni, kelgusi shartlarning mavjud prognozlarini tizimli tahlil qilish natijasidir;

d) ta'limotni izlash, ifodalash va rivojlantirish tizimi bo'lib, u izchillik bilan va to'liq amalga oshirilganda uzoq muddatli muvaffaqiyatni ta'minlaydi.

**3. Strategik maqsadga qanday omillar orqali erishiladi?**

a) umumiy va maxsus, vaqtinchalik va doimiy;

b) qisqa va uzoq muddatli, bir darajali va ko'p darajali;

c) umumiy va xususiy, birlamchi va ikkilamchi;

d) umumiy va sof.

**4. Strategiyaning mohiyati nimadan iborat?**

a) davlat bilan aholi o'rtasida aloqa o'rnatish;

b) taktik vazifalarni belgilash;

c) davlat iqtisodiyotini barqarorlashtirish;

d) davlatning ijtimoiy siyosati yo'lidagi maqsadlarini belgilash.

**5. Strategik rahbarlik va boshqaruv jihatlari bilan bog'liq bo'lgan uchta mustaqil kategoriyalarni ko'rsating.**

a) davlat, taktika, iqtisod;

b) maqsad, yo'nalish, tamoyil;

c) siyosat, strategiya va taktika;

d) asosiy maqsad, davlat, stimuly.

**6. Davlat strategiyasining usulologik asoslari nimani taqozo qiladi?**

a) ijtimoiy voqelik va vaziyatni anglashni;

b) davlat strategik vazifalarini ishlab chiqishni;

c) davlatning iqtisodiyotini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishni;

d) amaliy faoliyatni rejalashtirishda ma'lum nazariy me'yorlarga amal qilishni.

**7. Strategiyaning baholash va nazorat qilish bu...?**

a) tashkilotning mavjudlik mazmunini belgilash, mo'ljallangan, yuklangan mas'uliyatlarni ifodalaydi;

b) xizmat ko'rsatish turining soni va sifat darajasi rag'batlantirish tizimiga asoslanib faoliyat samaradorligini belgilaydi;

c) ichki xulq-atvorning tashqi munosabatlarga kirish darajasi va natijalari, kommunikativ holatni ifodalaydi;

d) ushbu jarayon strategik rejalashtirishni mantiqiy yakunlovchi omil bo'lib hisoblanadi.

**8. Strategiyani amalga oshirishda qaysi holatga e'tibor beriladi?**

a) real vaziyatni to'liq qamrab olgan yaxlit va bir butun reja bo'lishi lozim;

b) davlatning kelajak uchun tuzilgan rejasi bo'lmog'i lozim;

c) millatning o'ziga xos xususiyatlariga;

d) davlatning geografik joylashuviga.

**9. Davlat strategiyasining asosiy funksiya elementlari nechta?**

a) 2 ta;

b) 3 ta;

c) 4 ta;

d) 5 ta.

**10. Strategiyaning tamoyillari va ilmiy kategoriyalari nimaga asosan takomillashtiriladi?**

a) davlat rahbarining tashabbusiga;

b) davlatning kelajak uchun tuzilgan rejasiga;

c) millatning o'ziga xos xususiyatlariga;

d) davlatning geografik joylashuviga.

**11. Strategiyaning yaxlit tizimi qanday tarkibiy tuzilishdan iborat?**

a) milliy, mintaqaviy, sohaviy va korporativ strategiyalarning integratsiyalashuvidan;

b) qisqa, uzoq muddatli, bir darajali, ko'p darajali strategiyalarning birlashuvidan;

c) umumiy, xususiy, birlamchi, ikkilamchi strategiyalarning integratsiyalashuvidan;

d) umumiy, sof, birlamchi, ikkilamchi strategiyalarning birlashuvidan.

**12. Harakatlar strategiyasining yetaklovchi lokomotiv kuch bu...?**

a) sud hokimiyati;

b) qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat;

c) davlat va uning organlari;

d) kasaba uyushmalari.

**13. Boshqaruvda adolatli davlat boshqaruviga qanday erishish mumkin?**

a) sud hokimiyati mustaqilligini ta'minlash, sud tizimini demokratlashtirish orqali;

b) kasaba uyushmalari faoliyatini yanada takomillashtirish orqali;

- c) qonun chiqaruvchi hokimiyatning faoliyatini taribga solish orqali;
- d) ijro etuvchi hokimiyatning faoliyatini takomillashtirish orqali.

**14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi nechanchi sonli Farmonni imzoladi?**

- a) PF-4944-son Farmonni;
- b) PF-4945-son Farmonni;
- c) PF-4946-son Farmonni;
- d) PF-4947-son Farmonni.

**15. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi qaysi yillar uchun mo‘ljallangan?**

- a) 2016-2021;
- b) 2017-2022;
- c) 2017-2021;
- d) 2016-2021.

## **IX-bob. IJTIMOIIY SUG'URTA: HUQUQ, MOLIYA VA IQTISODIYOT**

### **9.1. Ijtimoiy sug'urta: tushunchasi, mohiyati va shakllari**

### **9.2. Ijtimoiy sug'urtaning modellari va turlari**

### **9.3. Ijtimoiy sug'urta tizimini isloh qilishning asosiy yo'nalishlari**

#### **9.1. Ijtimoiy sug'urta: tushunchasi, mohiyati va shakllari**

Ijtimoiy sug'urta aholini mehnatga layoqatlilik va daromadlarni yo'qotish bilan bog'liq turli xatarlardan ijtimoiy muhofaza qilish shaklidir. Ijtimoiy sug'urtaga xos xususiyat uning davlat ko'magida ish beruvchilar va xodimlarning maqsadli badallari, maxsus budjetdan tashqari jamg'armalar hisobidan moliyalanishi hisoblanadi.

Aytish joizki, ijtimoiy sug'urta aholini ijtimoiy muhofaza qilishning zamonaviy tizimi hisoblanib, unga davlat ijtimoiy sug'urtalarining yaxlitligi, ijtimoiy yordamning turli shakllari kiradi.

Ijtimoiy sug'urta ikkita asosiy vazifani hal qilishga, birinchidan, xodimlarning mehnatga layoqatlilikini tiklash va saqlash, shu jumladan, mehnatni muhofaza qilish va uning xavfsiz shart-sharoitlarini ta'minlash bo'yicha profilaktika va reabilitatsiya choralarini amalga oshirishga, ikkinchidan, mehnatga layoqatlilikini yo'qotgan yoki unga ega bo'lmagan shaxslarning moddiy ta'minlanganligini kafolatlovchi chora-tadbirlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy sug'urta tizimi bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy himoyaning asosiy institutlaridan biridir. Shu munosabat bilan xodimlarni ijtimoiy sug'urta qilish bo'yicha xarajatlarni ishchi kuchini tiklash va ularni mahsulot tannarxiga kiritish uchun huquqiy tan olinishi (ya'ni, xarajatlarning ushbu turining soliq xarakterini tan olish) muhim ahamiyat kasb etadi.

Har qanday sug'urta turining mohiyati ijtimoiy xatarning muayyan shakliga ta'sir ko'rsatuvchi, imkon qadar ko'p sonli subyektlar (yuridik va jismoniy shaxslar) orasida uning salbiy oqibatlarini taqsimlash yordamida moddiy yo'qotishlar xatarini kamaytirishi va o'rni qoplashdan iborat. Shu maqsadda mazkur shaxslar moddiy

yo'qotishlarga olib keluvchi sug'urta holatlari sodir bo'lganda maqsadli foydalanish uchun pul (moddiy) resurslarini shakllantiradi.

Ijtimoiy sug'urta shakllari sug'urtaning himoyalash obyektlariga ishlaydigan aholining ish haqi (daromadlari) yo'qotilishi va davolanish bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlarning yuzaga kelishi xatarga kiradi. Yollanma mehnat bilan shug'ullanadigan shaxslarning kelib chiqishi, moddiy ta'minlanmaganligining vujudga kelish sabablari o'xshash bo'lgan ijtimoiy munosabat turlari, subyektiv tarkibi va doirasi "ijtimoiy xatar" deya ataluvchi universal ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy kategoriyaga birlashadi. Ijtimoiy xatar holati quyidagilar oqibatida yuzaga keladi:

– mehnatga layoqatning yo'qolishi (kasallik, baxtsiz hodisa, farzand tug'ilishi va uni parvarishlash, keksalik oqibatida);

– mehnatga talabning yo'qligi (ishsizlik).

Shu tarzda, ijtimoiy xatar deyilganda, obyektiv, ijtimoiy ahamiyat kasb etuvchi sabablarga ko'ra ish haqining yoki mehnat daromadining yo'qotilishi, shuningdek davolanish va ijtimoiy xizmatlarga qo'shimcha xarajatlar qilish zarurati paydo bo'lishi tushuniladi.

Kasallik, nogironlik, ishsizlik tufayli ta'minlanmaganlik, ishlab chiqarish jarayonida qatnasha olmaslik va natijada ish haqidan mahrum bo'lish hollari individ uchun tasodifiy bo'lib tuyulsa-da, umuman iqtisodiyot uchun doimiy va ommaviy holatdir.

Ushbu holatlar tufayli ijtimoiy xatarli vaziyatlarning vujudga kelish ehtimoli (bemorlar, nogironlar, halok bo'lganlar, pensionerlar) miqdor jihatidan va ularning qiymat ko'rsatkichlari (kasallikning davomiyligi, nogironlik kelib chiqqan o'rtacha yosh, qonun bilan belgilangan pensiya yoshi) jihatidan ham baholanishi va taxmin qilinishi mumkin.

Ijtimoiy xatarli holatlar deganda, ijtimoiy tavsifi tufayli vujudga keladigan va ulardan yuqori darajada ishonchli individual himoyalash imkoniyati bo'lmagan holatlar tushuniladi. Chunki, ular obyektiv ijtimoiy-iqtisodiy tavsifga ega bo'lgan shart-sharoitlarning murakkab majmuasi bilan izohlanib, amalda deyarli alohida shaxs ixtiyoriga bog'liq bo'lmaydi. Odamlarning ularning jamiyat va davlatdagi faoliyati uchun o'zaro javobgarligiga oid ushbu nuqtayi nazar u yoki bu turdagi ijtimoiy xatarlar yuzaga kelganida ularning normal, maqbul ijtimoiy holati mezonlarini belgilash zaruratini keltirib chiqaradi. Aksincha, xatarlardan biri tufayli vujudga kelgan normal holatdan jiddiy og'ish g'ayri-oddiy deb hisoblanadi, biroq u himoyalashni, ijtimoiy

kafolatlarni talab etadi. Shu munosabat bilan ijtimoiy xatarlar va ijtimoiy kafolatlar dixotomik juftlik deb hisoblanadi, bunda ijtimoiy xatarlar – manfiy, ijtimoiy kafolatlar esa – ijobiy kattalikdir.

Shu tarzda ijtimoiy xatarlar – odamlarning salomatligiga jiddiy zarar yetganida, mehnatga layoqati yo‘qolganida yoki mehnatga talab yo‘q bo‘lgan hollarda (ishsizlik) normal ijtimoiy holatining buzilishi omillari bo‘lib, ular ish bilan band bo‘lgan aholining ish haqi yo‘qolishi, davolash bilan bog‘liq qo‘shimcha xarajatlar bilan bog‘liq bo‘lgan moddiy ta‘minlanmaganligi bilan birga kechadi. Oilalar uchun esa boquvchisi yo‘qolgan hollarda daromad manbayidan mahrum bo‘lishini anglatadi.

Ijtimoiy xatarlar obyektiv tavsifga ega bo‘lgani bois ularni himoyalash mexanizmi ham shunday tavsifga ega bo‘lishi kerak, ya‘ni ulardan sug‘urtalanish majburiy bo‘lishi (qonunga ko‘ra), barcha ishlovchilarni qamrab olishi, moliyaviy yuklama uchun esa asosiy ijtimoiy subyektlar – ish beruvchi va ishlovchilar birgalikda javobgar bo‘lishi lozim.

Bunda ijtimoiy sheriklarning moliyaviy ishtiroki ulushi turlicha bo‘lishi mumkin, ammo har bir taraf muayyan iqtisodiy, ijtimoiy shart-sharoitlar, madaniy va psixologik an‘analarni hisobga olgan holda moliyaviy javobgarlikning mutanosib nisbatini topishga intiladi.

Ijtimoiy xatarlar har qanday jamiyatda uchraydi. Shunga qaramay, sotsialistik jamiyatda ular tan olinmas edi. Buning sababi shunda ediki, faoliyatning barcha sohalariga oid iqtisodiy va ijtimoiy ko‘rsatkichlar oldindan topshirilgan va belgilangan. Markazlashtirilgan rejali xo‘jalik yuritish usulida xatarlar ma‘muriy-rejali boshqaruv usuliga zid kategoriya sifatida amal qilar edi. Shu sababli, sug‘urta xatarlariga odatda tabiat bilan bog‘liq voqealar kirar edi: tabiiy ofatlar, yong‘inlar va h.k. Shu bilan birga, ijtimoiy xatarlar ham mohiyatiga ko‘ra o‘zgacha, umuman olganda, kichikroq bo‘lar edi. Markazlashtirilgan rejali tizim ijtimoiy turmush faoliyati sharoitlarini standartlashtirar, ya‘ni minimallashtirar edi. Ayni paytda barqarorligini saqlar edi. Sotsialistik davlat asosiy ish beruvchi va ishlab chiqarish vositalarining egasi bo‘lgani holda iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlik kafolatlarini ta‘minlar edi, ya‘ni iqtisodiy va ijtimoiy xatarlar uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olar edi. Mulkchilik va xo‘jalik yuritishning xususiy shakllari rivojlanishi barobarida davlat ijtimoiy ta‘minot sohasi va uning imkoniyatlari muqarrar ravishda qisqarib

boradi. Iqtisodiy va ijtimoiy sohada xatarlar darajasi o'sishini bizning shart-sharoitimizdagi tabiiy, qonuniy jarayon deb, iqtisodiy erkinlikning "teskari tarafi" deb ta'riflash mumkin. Bunday sharoitda davlatning ijtimoiy himoya borasidagi roli va imkoniyatlari boshqacha xarakterga ega bo'ladi.

Davlatning xatti-harakati aholining kam himoyalangan qatlamlari – nogironlar, bolalar va keksalarga yo'naltiriladi. Mehnat bilan band aholiga kelsak, ularni ijtimoiy himoyalash ularning o'zlariga va ish beruvchilarga bog'liq bo'lib qoladi. Bunga ishlovchilar va ish beruvchilarning moliyaviy resurslarini shakllantirishda ishtirok etishi, ushbu resurslarni tasarruf etish bo'yicha vazifalarni ishchilar va ish beruvchilarning vakolatli vakillariga o'tkazish, shuningdek, sug'urta to'lovlari miqdorining sug'urta badallari miqdori va to'lash davri (hajmi)ga bog'liqlini belgilash orqali erishiladi.

Bunday yondashuv bozor iqtisodiyoti rivojlangan ijtimoiy tizimga, ijtimoiy siyosat tabiatiga xos bo'lib, u quyidagi tamoyillar asosida shakllanadi:

– yollanma ishchilar, ularning ish beruvchilari, ish bilan band bo'lgan aholi boshqa toifalarining ijtimoiy himoyaning maqbul darajasini moliyaviy ta'minlash uchun javobgarligi;

– ish bilan band aholi va ish beruvchilarning kamroq darajada ijtimoiy himoyalangan ishchilar va ularning oilalarini birgalikda qo'llab-quvvatlashi (sog'lom odam kasal odam uchun haq to'laydi, yuqori daromadli xodimlar kam daromadli xodimlarga birgalikda yordam ko'rsatadi);

– optimal qo'llab-quvvatlash, ya'ni u solidar qo'llab-quvvatlash darajasini belgilaydi va uning miqdorini qat'iy lashtirib qo'yadi<sup>122</sup>.

Bu borada yuz yildan ortiq davrni qoralagan jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy xatarning aniq turlarini himoyalash ijtimoiy sug'urtaning alohida yo'nalishlari (sektorlari) doirasida samarali tashkil etilishi mumkin:

– pensiyaga oid (keksalikka ko'ra, nogironlik, boquvchisini yo'qotish);

– tibbiy (tibbiy yordam haqini to'lash), shu jumladan, vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik;

<sup>122</sup> Abdurahmonov Q.X., Abduramonov X.X. "Aholini ijtimoiy muhofaza qilish" O'quv qo'llanma. – T.: Tafakkur bo'stoni, 2010. – B. 187.

– ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa (ishlab chiqarishda jarohatlanish), kasb kasalliklari, ishlab chiqarishda halok bo‘lganlar qaramog‘idagilarga pensiyalar;

– ishsizlik holati (ishsizlik bo‘yicha nafaqa, qayta o‘qitish va ishga joylashtirish).

Ijtimoiy sug‘urtaning bu tarzda taqsimlanishining maqsadga muvofiqligi ijtimoiy xatarlarning himoyalaniishi lozim bo‘lgan turli tabiatiga, sug‘urtalanuvchilarning qondiriladigan ehtiyojlariga, shu bilan birga, sug‘urta qilish turlarining huquqiy tartibga solinishiga bog‘liq.

Yuqoridagilardan quyidagicha xulosa chiqarish mumkin: ijtimoiy sug‘urta predmeti deganda subyektlarning ish bilan band bo‘lgan aholini ijtimoiy xatarlardan himoyalashga mo‘ljallangan moliyaviy mablag‘larni shakllantirish va tassarruf etish, shuningdek, tibbiy va reabilitatsiya hamda tibbiy yordamni tashkil etish bo‘yicha iqtisodiy va huquqiy munosabatlar tushuniladi.

Ijtimoiy xatar mazmuni (tabiati) va uning yuzaga kelish ehtimoli darajasi uni kamaytirish (minimallashtirish) bo‘yicha profilaktika chora-tadbirlari tizimini ishlab chiqish, kompensatsiya tadbirlari turlari va ko‘lamini baholash (tibbiy xizmatlar, yo‘qotilgan ish haqi o‘rnini qoplovchi kompensatsiya to‘lovlari) imkonini beradi.

Ijtimoiy xatarni quyidagi ko‘rsatkichlar yordamida o‘lchash mumkin:

– xatar holatlarining kelib chiqishi davriyligi;

– xatar holati yuzaga kelganda ijtimoiy kafolatlar darajasi;

– sug‘urta tashkilotlari uchun kompensatsiya to‘lovlari moddiy xarajatlarining

hajmi, shuningdek, barcha sug‘urtalanuvchilar ish haqi kattaligiga nisbati bo‘yicha ulushi;

– xatar holatining o‘rtacha davomiyligi, ya‘ni uning kelib chiqishi bilan faoliyatning normal sharoitiga o‘tishgacha bo‘lgan davr.

Ijtimoiy xatar alohida ijtimoiy guruhlar va xodimlar uchun xavfliligi darajasiga ko‘ra tasniflanishi mumkin. Agarda xavf darajasi past bo‘lsa – tashkiliy- huquqiy shakli ixtiyoriy tavsifga ega bo‘ladi. Agarda yuqori bo‘lsa, odatda majburiy (qonuniy) tavsifga ega bo‘ladi. Ixtiyoriy va majburiy sug‘urtalash orasida bir necha o‘tish shakllari mavjud bo‘lib, odatda ular fakultativ-majburiy yoki shartli-majburiy deb ataladi.

Xatar tabiatini aniqlashda mehnatga layoqatlilik yo‘qolishi darajasini, miqdor va sifat tavsiflarini baholas h, ya‘ni salomatlikka

yetkazilgan zarar turlari va ehtimolini, oqibatlarini jiddiyligini aniqlash muhimdir. Jumladan, agarda ishlab chiqarish muhitining zararli omili kasb kasalliklarini keltirib chiqarsa, turli yoshdagi va jinsdagi kishilarning kasallanish ehtimolini, ish staji davomiyligini, kasallik muddati va uning og'irligiga oid obyektiv ko'rsatkichlarni aniqlash kerak. Agarda xavfli omil odamlarning halok bo'lishiga olib kelsa, halok bo'lganlarning miqdorini vaqt va aholi toifalari bo'yicha taqsimlanishini bilish, vafot etganlarning miqdoriga nisbatan ularning qaramog'idagi kishilarning standartlashtirilgan sonini (har ming kishiga) bilish kerak.

Xatarning aynan bir turi ta'sir ko'rsatayotgan obyektlar sonini uzoq vaqt oralig'ida kuzatish paytida tasodifiy voqealar (kasallanish, nogironlik va h.k.) qonuniyatlari aniqlanadi. Shu maqsadda ehtimollik nazariyasi, demografik statistika va uzoq muddatli moliyaviy taxminlash nazariyalari qo'llanilib, ular birgalikda aktuar hisob-kitoblar usulologiyasi yordamida birlashtiriladi.

Ijtimoiy xatar ko'rsatkichlarini quyidagi ikki guruhga ajratish mumkin:

- ijtimoiy-salomatlikka zarar yetishi, mehnatga layoqatlikning yo'qotilishi (vaqtinchalik yoki doimiy), o'lim holatlari, vafot etganlarning qaramog'idagilar soni;

- iqtisodiy, ya'ni mehnatga layoqatlikning yo'qotilishi natijasida daromadlar yo'qolishini kompensatsiyalash xarajatlari va davolanish, reabilitatsiyaga qo'shimcha xarajatlar miqdori.

Xatarning ijtimoiy ko'rsatkichlari odamlarning ijtimoiy himoyasizligini va ular uchun sug'urta holatlarining muqarrar kelib chiqishini baholash uchun xizmat qiladi. Iqtisodiy ko'rsatkichlar esa talab qilinadigan pul mablag'larini aniqlash va hisob-kitob qilish imkonini beradi.

Ijtimoiy sug'urtada himoyaning iqtisodiy va ijtimoiy elementlari tabiiy ravishda birikib ketgan bo'lib, ular sug'urtalangan shaxsga tegishli moliyaviy, tashkiliy va huquqiy mexanizmlar yordamida yo'qotilgan ish haqini yoki davolanish (reabilitatsiya yoki kasbiy qayta tayyorgarlikdan o'tish) bilan bog'liq kutilmagan xarajatlarni qoplashga yo'naltirilgan bo'ladi. Majburiy ijtimoiy sug'urta institutining yo'nalishi sug'urtalanuvchilarning mavjud (erishilgan) turmush darajasini saqlashda ifodalanadi, ayni paytda sug'urtalanuvchi uchunishchi kuchni qayta tiklash funksiyasini ko'zda tutadi.

“Daromadni ta’minlash to’g’risida”gi tavsiyalarda ta’kidlanadiki: “Majburiy ijtimoiy sug’urta bilan qamrab olinadigan holatlar sohasi sug’urtalangan shaxsga mehnatga layoqatsizlik yoki ish haqi to’lanadigan ish topa olmaslik natijasida mablag’ ishlab topishga xalal beruvchi barcha holatlar yoki muayyan shaxs vafot etishi natijasida qaramog’idagi oila daromadsiz qolishi holatlarini qamrab olishi kerak”. Mazkur hujjatga muvofiq asosiy tamoyil deb “mehnatga layoqatsizlik (shu jumladan, keksalik) sababli yo’qotilgan daromadni maqbul darajagacha tiklash” tushuniladi.

Sug’urtalanuvchilarning huquqlari, ularning himoyalaniish darajasi ish haqi miqdoriga asoslangan bo’lib, ayni paytda ularning sug’urta badallarini hisoblashga ham asos bo’lib xizmat qiladi. Sug’urta to’lovi miqdori boshqa sug’urtalanuvchilar bilan birga hamkorlik darajasini ifodalaydi va alohida sug’urtalanuvchining shaxsiy ulushini hisobga oladi (sug’urta badallarining alohida hisobini yuritish).

Ijtimoiy sug’urta tizimida to’lovlarning berilish shartlari (nafaqa, pensiyalar), ularning miqdori va muddati sug’urta badallari tizimi bilan o’zaro bog’liq, bu esa sug’urtalanuvchilarning sug’urta badallarini to’lashdan manfaatdorligi mexanizmini yaratadi va ayni paytda sug’urtalanuvchilarning individual ulushi hisobini yuritish muammosini hal qiladi.

Ijtimoiy sug’urta shu tarzda ijtimoiy himoyani ng boshqa shakllaridan jiddiy ravishda farq qiladi (ijtimoiy himoya va shaxsiy sug’urta):

– sug’urtalanganlar ish haqi yo’qolishidan himoyalaniadi, ya’ni sug’urta badallari va kompensatsiya to’lovlari miqdori aynan ish haqiga bog’liq;

– sug’urta to’lovlari faqat sug’urtalanuvchilarga beriladi (bunda to’lovlar miqdori ular qaramog’idagilarni – oila a’zolarini hisobga oladi), ular o’zlarining shaxsiy sug’urta badallari va ish beruvchilar foydasiga to’langan badallari bilan ijtimoiy himoyani ng ushbu turidan foydalanish huquqiga ega bo’lgan, bunda boshqa shartlar ilgari surilmaydi.

Xatar ehtimoli va kattaligini baholash maqsadida kasbiy guruhlar va ish bilan band butun aholi uchun ish haqini yo’qotishning “umumiy xavfi”ning hisobini yuritish vositalaridan foydalaniladi.

Alohida sug’urtalanuvchi uchun hodisa sodir bo’lishi ehtimoli mavjud bo’lsa, ikki tipik vaziyat kuzatiladi.

Hodisa noaniq tavsifga ega va alohida sug'urtalanuvchi uchun u sodir bo'lishi va sodir bo'lmasligi mumkin: ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar, ishsizlikdan sug'urtalash, tibbiy sug'urtalash. Agar sug'urta holati vujudga kelsa, sug'urtalangan shaxs sug'urta to'lovi huquqiga ega bo'ladi va bunda alohida sug'urtalanuvchilarning umumiy summasi to'langan (ularga va ish beruvchi tomonidan uning uchun) sug'urta badallari summasidan jiddiy ravishda (bir necha baravar) ortiq bo'lishi mumkin. Agarda sug'urta hodisasi sug'urta davri mobaynida sodir bo'lmasa, u holda sug'urtalanuvchilarning uning foydasiga to'langan sug'urta badallariga huquqlari yo'qoladi. Shu tarzda, o'z sug'urta huquqlarini amalga oshirmagan shaxslar (sug'urta hodisasi sodir bo'lmagani tufayli) bunday sug'urta hodisasiga uchragan kishilarga hamjihatlik yordami ko'rsatadi. Aynan shunda sug'urtalanuvchilar o'rtasida daromadlarni qayta taqsimlash funksiyasi namoyon bo'ladi.

Sug'urtaning sodir bo'lishi muqarrar (pensiya sug'urtasi), ammo bu hol faqat muayyan davrgacha yashagan kishilarga, jumladan qonun tomonidan belgilangan pensiya yoshiga yetgan kishilargagina taalluqli. Ular orasidan o'rtacha statistik davrdan uzoq yashovchilargina sug'urta to'lovlarning (pensiylarning) ko'proq hajmiga ega bo'ladilar.

Sug'urta to'lovlari va to'lovlarning ekvivalentligi birinchi holatda ham, ikkinchi holatda ham asosan sug'urta tashkiloti bo'yicha qo'llab-quvvatlanadi, ammo ayrim sug'urtalanuvchilar bo'yicha unga rioya qilinmaydi.

Ijtimoiy sug'urtaning asosiy vazifalari quyidagilar: qayta tiklash, hamjihatlikda qayta taqsimlash va ijtimoiy himoya. Aytib o'tilgan vazifalardan birinchisi ishchi ish haqidan mahrum bo'lgan holatlarda amalga oshiriladi.

Hamjihatlikda qayta taqsimlash vazifasining iqtisodiy mexanizmi moddiy zararni birdamlikda hal qilish (sug'urta hamjamiyati doirasida cheklangan) hisoblanadi. Bu esa sug'urta holatlariga uchramagan sug'urta subyektlariga bunga uchraganlarni qo'llab-quvvatlash imkonini beradi. Bunda qayta taqsimlash "bo'ylamasiga" ham, "yonlamasiga" ham davom etishi mumkin.

"Yonlamasiga" qayta taqsimlash – daromadlariga ko'ra yagona guruhga mansub bo'lgan yoki avval unga mansub bo'lgan va yagona ijtimoiy tuzilma tomonidan qo'llab-quvvatlanuvchi xodimlar orasida qo'llaniladi. Jumladan, xodimlardan pensionerlarga yoki xodimlardan

kasalligi, homiladorligi yoki tugʻruq tufayli ishlamaydiganlarga oʻtkaziladi.

“Boʻylamasiga” taqsimlash paytida esa daromadlarni qayta taqsimlash, daromadlarni yuqori haq oluvchilardan kamroq haq oluvchilarga oʻtkazilishini anglatadi. Jumladan, ijtimoiy pensiya sugʻurtasi mexanizmlarida kuzatiladi, bunda ilgari kam ish haqi oluvchi xodimlar yuqori ish haqi oluvchi xodimlarga nisbatan qiymati ularning ish haqiga nisbatan koʻproq boʻlgan pensiya olishi mumkin. Bunda xodimlarning har ukkala guruhiga mansublari ham aynan bir xil foiz stavkasi boʻyicha sugʻurta badallarini toʻlagan. Sugʻurta tibbiyoti tizimlarida daromadlarni vertikal taqsimlash shunga oʻxshash tarzda amalga oshiriladi.

Daromadlarni vertikal qayta taqsimlash mexanizmlari yordamida moliyaviy resurslarni kasblar, hududlar, shahar va qishloq oʻrtasida qayta taqsimlashga erishiladi. Bunda muammo qayta taqsimlash nisbatlariga bogʻliq boʻlib, u sugʻurtalanuvchilar va sugʻurtalovchilarning bu kabi choralarning adolatli ekanligiga ishonchini soʻn-dirmasligi kerak.

Ijtimoiy himoya vazifasi qolgan ikkita vazifani: qayta taqsimlash va qayta tiklash uchun umumlashtiruvchi hisoblanadi. Ijtimoiy sugʻurtalashda ijtimoiy himoya sugʻurtalanuvchilarning erishilgan turmush darajasini, davolanish yoki rehabilitatsiya (tibbiy, kasbiy yoki ijtimoiy rehabilitatsiya) tufayli yoʻqotilgan ish haqini yoki kutilmagan qoʻshimcha xarajatlarni kompensatsiyalash mexanizmlari yordamida saqlab qolishda ifodalanadi.

Ijtimoiy sugʻurta tizimida, uning tabiatidan kelib chiqqan holda iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarning har bir subyekti oʻz manfaatini koʻzlaydi:

– ishchilar (va ularning oila aʼzolari) daromadlarni yoʻqotish holatlari roʻy berganda (keksalik, kasallik, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa yoki ishsizlik) solidar sugʻurtalanishdan umid qilishlari mumkin;

– ish beruvchilar sugʻurta badallarini toʻlar ekan (ish haqining shakli va bir qismi sifatida) oʻzlarini ishchi kuchi faoliyatidagi uzilishlardan himoyalaydi hamda ijtimoiy dunyoning shakllanishi uchun javobgar deb biladi;

– davlat ijtimoiy obyektlar zimmasiga oʻzaro sugʻurtalash jamiyatlarini yaratish huquqini berar ekan (qonunlar orqali), oʻz zimmasidan ijtimoiy himoya tashkilotchisi vaziflarini soqit qiladi va

ijtimoiy dunyo uchun javobgarligini nazoratchi va hakam roli bilan cheklaydi.

Sug'urta badallarining ish haqi bilan bog'liqligi mohiyatan ijtimoiy- iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan masaladir, demak, ishchi kuchi qiymati alohida e'tiborni talab qiladi. Yollanma ishchilarning ko'pchiligi uchun ish haqi uni bevosita iste'mol qilishga mo'ljallangan, ya'ni ishchi va uning oilasining kundalik xarajatlarini qoplashga yo'naltiriladi. Demak, yollanma ishchilar aksariyatining mehnatga layoqatliligi yo'qotilganda (keksalik, kasallik, baxtsiz hodisa) o'z jamg'armalari hisobidan moddiy ahvolini saqlashga qodir bo'lmaydi.

Bunday oqibatlar nafaqat ishchilarga, balki tadbirkorlarga, davlat va jamiyatga salbiy ta'sir ko'rsatadi, chunki ular ishlab chiqarish jarayonida uzilishlarni, kambag'allik va qashshoqlikni, hamda shuningdek ikki ijtimoiy hodisa o'rtasidagi ziddiyatni keltirib chiqaradi. Binobarin ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonida ishchi kuchining uzluksiz ishlab turishi (bu o'z navbatida uning qayta tiklanishini ta'minlaydi) bilan bog'liq bo'lgan obyektiv zarurat tufayli odamlarning turmush jarayonlari (keksayish, kasalliklar, baxtsiz hodisalar, o'lim) davomida obyektiv ravishda kelib chiqadigan ijtimoiy xatarlar o'rtasida ziddiyat paydo bo'ladi. Bu esa, moddiy ta'minlanmaganlik, davolanish va reabilitatsiyaga muhtojlikda namoyon bo'ladi.

## 9.2. Ijtimoiy sug'urtaning modellari va turlari

Ijtimoiy sug'urta nazariyasining asoschisi Klaver hisoblanadi. Uning "Umrbod sug'urtalashni yuritish bo'yicha prospekti" (1788 y.) nomli kitobi ijtimoiy sug'urta jamiyatlarini yaratishda asos bo'ldi. "Umrbod sug'urtalash, – deydi u, individni boshqa individlar bilan bog'lab turuvchi va unga yashash imkonini beruvchi qimmatbaho tuyg'uga yordam beradi. Bu kabi sug'urta baxtsiz hodisalarga nisbatan xavfsizlikni anglatadi, ayni paytda u sanoatga ham, individual faollikka ham zarar yetkaza olmaydi"<sup>123</sup>. Klaverning fikriga ko'ra, sug'urta odamlarni bir-birlariga yaqinlashtiradi.

Klaver o'z asarida umrbod sug'urtalash mexanizmlarining amal qilishi baxtsizliklarni keltirib chiqaruvchi inson mavjudligining beqarorligini bartaraf etish orqali kambag'allik muammosiga mutlaqo

<sup>123</sup> Павлюченко В.Г. Социальное страхование. – М.: Дашков и К, 2007. – С.38.

boshqacha munosabatda bo‘lishga xizmat qiluvchi ijtimoiy sug‘urtaning ijtimoiy-iqtisodiy tabiatini va uning boshqa himoyalash institutlaridan farqini aniq belgilab bergan. U shunday deya ta’kidlaydi: “Mmazkur ijtimoiy darajaga erishish qashshoqlik darajasining muqarrar qisqarishiga olib keladi. Shu sababli u qashshoqlikni tamaddunning eng achinarli oqibati deb biluvchilarni qiziqтира olishi kerak. Aynan umrbod sug‘urtalash ta’limoti yetarli resurslarni ishga solish imkonini beradi va ushbu ofat ko‘lamini kamaytirishga yordam berib, kelgusida avj olib ketishiga yo‘l qo‘ymaydi”<sup>124</sup>.

Biroq, bunday yondashuvlar faqat 100 yildan so‘ng qiziqish uyg‘otdi va Germaniyada XIX asrning boshida O.Bismark nomi ostida qabul qilingan qonunlarda o‘z ifodasini topdi. XIX asr oxiri va XX asr boshida majburiy sug‘urtalash to‘g‘risidagi bu kabi qonunlar Yevropaning ko‘pchilik davlatlarida, XX asrning 30-yillarida esa AQSH va Kanadada qabul qilindi. Ikkinchi jahon urushidan so‘ng turli davrlarda ijtimoiy sug‘urta Afrika, Osiyo va Karib havzasining ko‘plab davlatlarida joriy etildi.

Ijtimoiy muhofaza qilishning milliy tizimlari orasida u yoki bu farqlar bo‘lishi mumkin, ammo ularning ko‘pchiligiga quyidagi xususiyatlar xos:

– ijtimoiy sug‘urta ish beruvchi va ishchi tomonidan birgalikda to‘lanadigan sug‘urta badallari hisobidan moliyalanadi, bunda davlat qo‘shimcha badallar yoki umumiy soliqlar shaklida ishtirok etishi mumkin;

– ishchilar va ish beruvchilarning majburiy (qonunga ko‘ra) ishtiroki (ayrim istisnolar bilan);

– sug‘urta badallari maxsus maqsadli jamg‘armalarda jamlanadi, ularning hisobidan nafaqa va pensiyalar, davolash va rehabilitatsiya xizmatlari haqi to‘lanadi;– sug‘urtalanuvchilarning nafaqalarga bo‘lgan shaxsiy huquqlari daromadlarni yoki muhtojlikni tekshirmasdan kafolatlanadi;

– sug‘urta badallari hajmi, odatda, sug‘uratalanuvchi ish haqi hajmi bilan bog‘liq, ya’ni sug‘urta badallari stavkalari butun ish haqi fondidan foizlar shaklida ish haqining nihoyaviy chegarasini hisobga olgan holda belgilanadi;

– mehnatda jarohatlanish odatda ish beruvchi badallari hisobidan moliyalanadi;

<sup>124</sup> Павлюченко В.Г. Социальное страхование. – М.: Дашков и К, 2007. – С.39.

ijtimoiy sug'urta badallari barcha davlatlarda ishlab chiqarish xarajatlariga kiritiladi.

Sug'urta tamoyillariga rioya qilinishi va ularga mos moliyalash manbalarini ta'minlashda ijtimoiy sug'urtani tashkillashtirishning uchta modelini ko'rish mumkin.

Birinchi model. Sug'urta ibtidolari rivojlanmagan, to'lanadigan ijtimoiy nafaqalar va pensiyalar miqdori bir qator ikkinchi darajali omillarga bog'liq: u yoki bu sohada bandlik, xizmat mavqeyi (shaxsiy pensiyalar) va h.k. Pul mablag'larining yetishmasligi muassasalar tomonidan qoplanadi, moliyaviy layoqatsizlik muassasalar o'z zimmasiga olgan majburiyatlardan kechmagunga qadar tahdid solmaydi. Mustaqil alohida ajratilgan ijtimoiy sug'urta turlari mavjud emas. Tashkiliy shakllar xilma-xilligi yetishmaydi. Markazlashtirishga intilish kuchli. Mamlakatimizdagi ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy ta'minot tizimi ham yaqin paytlargacha (1991 y.) xuddi shunday edi.

Bunday tizim rivojlanish istiqbollariga ega emas, ular himoyaning past darajasini ta'minlashga qodir va faqat davlat budjeti taqchilligisiz mavjud bo'lishi mumkin.

Ikkinchi model. Sug'urtalanuvchilar va sug'urtalovchilar badal to'laydilar, ammo ular bilan qilinadigan hisob-kitoblarda u yoki bu sug'urta hodisasi sodir bo'lishi ehtimoli e'tiborga olinmaydi. Sug'urtalash amalda uchinchi shaxslar foydasiga amalga oshiriladi va moliyaviy mablag'larning jamlanishi majburiyatlar o'sishi bilan bog'liq emas. Bugungi kunda mamlakatimizda fuqarolarning pensiya ta'minoti ana shu tarzda tashkil etilgan. U sug'urta badallarini undirishga asoslangan bo'lsa-da, pensiya ta'minoti bo'yicha joriy xarajatlarni qondirishgagina yo'naltirilgan, bunda uzoq kelajakdagi xarajatlar e'tiborga olinmaydi. Bu shunga olib keladiki, zarur pul mablag'larini izlab topish, odatda, pensiya oshirilishi arafasida yoki undan so'ng amalga oshiriladi. Ijtimoiy sug'uratalash bo'yicha chakana nafaqalar ham shu tarzda tashkil etilgan.

Uchinchi model. U ijtimoiy xatarlarni sug'urta qilishga asoslangan. Har bir muayyan davrda to'plangan mablag' hajmi sug'urtalovchilar olgan majburiyatlarga mos keladi. To'lovlar beriladigan nafaqa bilan tushumlar nisbatidan oshib ketishi mumkin emas. Ijtimoiy xatarlarni sug'urtalash nazariyasi va uning asosida o'rnatiladigan qonun-qoidalar yetarli darajada aniqlik bilan qanday bir martalik to'lovlar yoki davriy to'lovlar amalga oshirilishi mumkinligini aniqlash imkonini beradi.

Ijtimoiy sug'urtaning ushbu modeli taqchillikning ehtiyot fondlarini shakllantirish orqali qoplash, xatarlarni qayta sug'urtalashlarni ko'zda tutadi. Ijtimoiy sug'urtaning ushbu shakli yetarli darajada moslashuvchan: sug'urtalarning bir necha turini birlashtirishda ham, ajratishda ham, sug'urtalash fondidan ishtirokchilar guruhi chiqib ketishi yoki yangilarni jalb etishda ham texnik qiyinchiliklar tug'ilmaydi.

Shu bilan birga, sug'urta tamoyilining izchillik bilan qo'llanilishi sug'urtalanganlarni davlat tomonidan turli ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish borasidagi cheksiz imkoniyatlari haqidagi tasavvurlaridan xalos etadi. Jamiyat shuni anglashi kerakki, "bepul" ijtimoiy yordam va ijtimoiy xizmatlar mavjud emas, ularni bajarish uchun moliyaviy mablag'lar oldindan jamlab borilishi kerak. Afsuski, "mablag' ishlab topish" tamoyilidan og'ish shunga olib keladiki, moliyaviy hisob-kitoblar bilan mustahkamlanmagan ijtimoiy dasturlar qabul qilinadi.

Ijtimoiy sug'urtaning mavjud tizimining haddan ziyod markazlashtirilishi, sug'urtaning alohida turlarini ajratishni istisno qiluvchi fondlarni shakllantirishning umumiy xarakteri va avtonom tizimlarga ajratilishi taqsimlash munosabatlarining markazdan qochishiga olib keladi. Sug'urtaning alohida turlari maqsad va vazifalarini belgilashda noaniqlik, ijtimoiy himoyaning asosiy institutlari vazifalarining o'zgarishi shunga olib keladiki, ijtimoiy sug'urtaga boshidan boshlab (30-yillardayoq) unga xos bo'lmagan, boshqa ijtimoiy-huquqiy institutlarga taalluqli bo'lgan vazifalar yuklatildi.

90-yillarning boshida boshlangan islohotlar budjetdan tashqari jamg'armalarning yaratilishiga olib keldi: pensiya, tibbiy sug'urta va bandlikka ko'maklashuvchi jamg'arma. Bunda bir qator salbiy xususiyatlar ko'zga tashlana boshlandi: tegishli moliyaviy manbalarni shakllantirishda nomutanosiblik va sug'urta to'lovlari umumiy hajmining muvozanatlanmaganligi, bu esa oxir-oqibatda xodimlarning sezilarli darajada ijtimoiy himoyalaniishini ta'minlamaydi, ularning himoyalashga doir minimal ehtiyojlarini qondirmaydi, bundan tashqari, mehnat jamoalari zimmasiga sug'urta bo'yicha to'lovlar og'irligini yuklaydi.

Buning sababi, birinchi galda shunga bog'liqlik, hozirgi islohotlar aholini ijtimoiy himoya qilishning muhim jihatlariga ta'sir ko'rsatgan bo'lsa-da, ularni amalga oshirish mexanizmi avvalgidek eskirgan taqsimlash munosabatlariga va ijtimoiy adolat borasidagi tenglashtirish tasavvuriga asoslanadi. Bozor iqtisodiyotiga ega mamlakatlardan farqli

ravishda, mamlakatimizda amal qiluvchi ijtimoiy sug'urtalash mexanizmidagi to'lovchilar zimmasidagi ijtimoiy yuklarni baholashda, sug'urtalovchilar fondlarni boshqarishda ishtirok etishdan chetlashtirilgan, sug'urta to'lovlari hajmi kasbiy va ijtimoiy xatar darajasi, shuningdek, sug'urtalovchilar va sug'urtalanuvchilar huquq va kafolatlari hajmi bilan bog'lanmagan.

Ijtimoiy sug'urta tizimi doirasida ijtimoiy himoyaning turli standartlari amal qilmoqda, bu esa xodimlarning ayrim qatlamlarining kamsitilishiga olib kelmoqda. Bundan tashqari, ijtimoiy himoyaning ayrim me'yorlari tegishli fondalarga to'lovlar bilan bog'lanmagan. Bu kasbiy (imtiyozli) pensiyalar, sanatoriy-kurort xizmatlarga vaqtinchalik ishga layoqatsizlik to'lovlariga ham taalluqlidir. Natijada, ijtimoiy sug'urtalashga to'lanadigan badallar miqdori teng bo'lgani holda, xodimlar ayrim toifasining ijtimoiy himoyalash darajasi nihoyatda ajralib turadi.

Bundan tashqari, korxonalar tomonidan barcha xarajatlardan sug'urta badallarini to'lash bo'yicha amal qiladigan tartibga nisbatan ish haqi yuqori bo'lgan korxonalar tomonidan jiddiy e'tirozlar bildirilmoqda. Ularning rahbarlari va xodimlari, adolatli ravishda o'zlari ijtimoiy sug'urta tizimiga to'laydigan badallarni yuqori deb hisoblar ekan, umumiy tizimdan chiqish va mustaqil ijtimoiy himoyalash tizimini tuzishni yoqlab chiqmoqda. Bu tibbiy xizmat ko'rsatishga, ishsizlarga yordam ko'rsatish xizmatlariga va ishlab chiqarishda jabrlanganlarni ijtimoiy himoyalashga nisbatan qo'llaniladi.

Ijtimoiy sug'urtaning boshqaruv-tashkiliy jihatlariga doir muam-molar ham yo'q emas. Ayni paytda shunisi ham ma'lumki, agar ijtimoiy sug'urta davlat tuzilmalari tomonidan tashkil etilsa, u davlatning ko'p sonli boshqa vazifalar va maqsadlari bilan raqobatga kirishadi. Bundan rejalashtirilayotgan choralarning mo'ljallangan maqsadga emas, bir lahzalik siyosiy maqsadga muvofiqlikka yo'naltirilishiga sabab bo'ladi. Amalda davlatning yetakchilik roliga qaytish kuzatilmoqda, bu esa davlat budjeti taqchilligi va aksariyat fuqarolarning ijtimoiy ahvoli yomonlashayotgan bir sharoitda ijtimoiy kutishlarni davlatga yo'naltirilishiga sabab bo'ladi. Asosiy sabab shundaki, ijtimoiy sug'urtani boshqarishning mavjud tizimi mulkchilikning xilma xil shakli mavjud bo'lgan hozirgi sharoitga moslanmagan, unga vakolatlarni boshqaruvning quyi darajalariga o'tkazish imkonini beruvchi moslashuvchanlik yetishmaydi, ish beruvchilar va

sug'urtalanuvchilar sug'urta tashkilotini boshqarish uchun ma'lum javobgarlikni o'z zimmasiga olish imkonini beradigan o'z-o'zini boshqarish mexanizmlari rivojlanmagan. Ayni paytda rivojlangan mamlakatlarning ijtimoiy sug'urtani o'z-o'zini boshqarish mexanizmini yaratish borasidagi amaliyoti ko'pchilikka ma'lum. Bunda sug'urtalanuvchilar, birinchi navbatda, yollanma ishchilar va pensionerlar, shu bilan birga, ish beruvchilar sug'urta tashkilotlarini boshqarishga jalb qilinadi, bu esa, mazkur murakkab va nozik sohada ijtimoiy to'qnashuvlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, hozirgi paytgacha ijtimoiy sug'urta sohasida markaz va hududlar o'rtasidagi vakolatlarni taqsimlash mafkurasi ishlab chiqilmagan va qonunchilik yo'li bilan rasmiylashtirilmagan. Ayrim hududlar tegishli tajriba va ijtimoiy infratuzilmaga (tibbiy, reabilitatsiya, ilmiy markazlar) ega emas, holbuki bularsiz fuqarolarning yuqori darajada ijtimoiy himoyalaniishini ta'minlab bo'lmaydi. Vaqtinchalik shartnomalar asosida ishlovchi xodimlar ko'pincha kasb kasalliklarining yashirin shakllariga, ishga layoqatning yo'qolishiga duchor bo'ladi. Mahalliy hokimiyatlar esa buning uchun moliyaviy javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.

Ijtimoiy himoya masalalarini tartibga soluvchi qonunchilikda ko'plab jiddiy muammolar, ya'ni eskirgan, ba'zan bir-biriga zid bo'lgan huquqiy-me'yoriy hujjatlar mavjud. Jumladan, mehnatga layoqatlilik yo'qotilgani uchun kompensatsiya miqdorini belgilashda ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisadan jabrlanganing aybini aniqlash yoki ishga layoqatlik doimiy yo'qotilganda individual tarzda zararni qoplash kabi amaliyotlar ma'naviy jihatdan eskirgan.

Mamlakatda bozor munosabatlarining qaror topishi ko'pchilik xodimlar tomonidan ijtimoiy sug'urtaning o'z mablag'lari hisobidan amalga oshirilishini hamda ayrim toifalarga u yoki bu turdagi imtiyozlarning berilishi boshqalarning ijtimoiy himoyalaniishi darajasini kamaytirishga olib kelishini tushunishga olib keladi. Bu esa muqarrar ravishda nafaqat ijtimoiy sug'urtalash, balki umuman uni tashkillashtirish muammosini keskinlashtiradi. Ushbu tizimni tubdan o'zgartirish, uni yangi iqtisodiy munosabatlarga moslashtirish talab etiladi. Ayni paytda mamlakat ijtimoiy hayotidagi o'zgarishlar aholi uchun mutlaqo o'zgacha vaziyatni keltirib chiqardi, unga ijtimoiy xatarlarning yuqori darajasi (kasallik, keksalik, ishsizlik holatlarida moddiy ta'minlanmaganlik) xos.

Ijtimoiy sug'urtaning zamonaviy shakllari orasida majburiy, ixtiyoriy va korporativ turlari mavjud. Shu o'rinda aytish joizki, majburiy ijtimoiy sug'urta – mehnatga layoqatlilikni (kasallik, baxtsiz hodisa, qarilik) yoki ish joyini yo'qotish tufayli daromaddan (ish haqi) mahrum bo'lish hollarida qo'llaniladigan amaldagi qonunchilikda belgilangan ijtimoiy kafolatdir. Ularni beruvchi moliyaviy manbalar ish beruvchilar va xodimlarning sug'urta badallari, shuningdek, budget mablag'laridir. Sug'urtaning ushbu turiga xos huquqiy jihat – bu yo'qotilgan ish haqi va boshqa mehnat daromadlarining o'rnini qoplashdir.

Ixtiyoriy ijtimoiy sug'urta davlatning sug'urta yordami mavjud bo'lmagan hollarda jamoaviy javobgarlik va o'z-o'ziga yordam tamoyiliga asoslangan. U shaxsiy va jamoaviy bo'lishi mumkin hamda baxtsiz hodisalar oqibatlaridan tibbiy va pensiya ta'minotini ko'zda tutadi. Bu turdagi sug'urtalashning moliyaviy manbalarini xodimlar va ish beruvchilarning badallari tashkil qiladi. Ixtiyoriy ijtimoiy sug'urtani majburiy sug'urtaga muqobil deb emas, balki qo'shimcha deb tushunish kerak. Ushbu jamg'armalarning bir-birini to'ldirishi bir turdagi sug'urta kamchiliklarini boshqa turdagisining afzalliklari bilan to'ldirish imkonini beradi.

Korporativ sug'urta – o'z navbatida muayyan korxonaning ichida tashkil etilgan sug'urta hisoblanadi. Unda asosan korxonalar o'z ishchilarini ijtimoiy himoya qilish uchun tizimini ishlab chiqib joriy qilishadi. Maskur sug'urta g'arb davlatlarida yirik korparasiyalarda faoliyat olib boradigan xodimlarda bo'lishi mumkin. Ish beruvchilarning daromadlari hisobidan shakllantiriladigan ijtimoiy muhofaza tizimi bo'lib, u xodimlarning ijtimoiy ehtiyojlarini (tibbiy yordam, sog'lomlashtirish, turar-joy, transport va o'quv xarajatlarini, madaniyat sohasidagi xizmatlar, pensiya to'lovlari) qondirishga yo'naltiriladi<sup>125</sup>.

Endi ijtimoiy sug'urtaning turlariga to'xtalib o'tsak. Tibbiy sug'urta. Fuqarolar sog'ligini saqlash – bu siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy, madaniy, ilmiy, tibbiy, sanitar-gigiyenik va epidemiyaga qarshi tavsifdagi chora-tadbirlarning majmuasi bo'lib, ular har bir insonning ruhiy va jismoniy salomatligini saqlash va mustahkamlashga qaratilgan, uning uzoq muddatli faol hayotini ushlab turishga, sog'ligini

---

<sup>125</sup> Abdurahmonov Q.X., Abduramonov X.X. "Aholini ijtimoiy muhofaza qilish" O'quv qo'llanma. – T.: Tafakkur bo'stoni, 2010. – B. 197.

yo'qotgan vaziyatda unga tibbiy yordam ko'rsatishni ta'minlashga qaratilgandir.

Bizning mamlakatda fuqarolar sog'ligini saqlashning asosiy tamoyillari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- insonlarning sog'liqni saqlash sohasidagi huquqlariga rioya qilish va ushbu huquqlar bilan bog'liq bo'lgan davlat kafolatini ta'minlash;

- fuqarolar sog'ligini saqlash sohasidagi profilaktika tadbirlarining ustuvorligi;

- tibbiy-ijtimoiy yordamning barchaga barobarligi;

- fuqarolarni sog'ligini yo'qotgan vaziyatda ijtimoiy himoyalanganligi;

- davlat boshqaruv organlari va mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlarining, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar korxonalar, tashkilot va muassasalarning, mansabdor shaxslarning sog'liqni saqlash sohasidagi fuqarolik huquqlarini ta'minlashi bo'yicha javobgarligi.

Sog'liqni, mehnat layoqatini yo'qotganda va boshqa hollarda fuqarolar tibbiy-ijtimoiy yordam olish huquqiga egadir, u profilaktika, davolanish-diagnostika, reabilitatsiya, protez-ortopedik va tish protezlash yordamini, shu jumladan, kasalliklar, mehnatga layoqatsizlar va nogironlarni parvarishlash bo'yicha ijtimoiy tavsifdagi chora-tadbirlarni, vaqtinchalik mehnat layoqatini yo'qotganlik bo'yicha to'lovlarni berilishini ham o'z ichiga oladi.

Sug'urta badallari tibbiy yordamni moliyalashtirishning manbayi sifatida tibbiy sug'urta doirasida amalga oshiriladi, u sog'liqni saqlash sohasida aholi manfaatlarini ijtimoiy himoya qilishning shakli bo'lib, fuqarolarni tibbiy yordamga muhtoj bo'lgan vaqtda yig'ilib qolgan mablag'lar hisobiga va profilaktika chora-tadbirlarini moliyalashtirishning kafolatini ta'minlash maqsadida amalga oshiriladi.

Tibbiy sug'urta ikki yo'l bilan amalga oshiriladi: majburiy va ixtiyoriy.

Majburiy tibbiy sug'urta davlat ijtimoiy sug'urtasining tarkibiy qismi hisoblanadi va barcha fuqarolarga majburiy sug'urta dasturlaridagi shartlarda va miqdorlarda majburiy tibbiy sug'urta mablag'lari hisobiga beriladigan tibbiy va dori-darmon yordamini olishdagi teng imkoniyatlarini ta'minlaydi.

Ixtiyoriy tibbiy sug'urta ixtiyoriy tibbiy sug'urta dasturlari asosida amalga oshiriladi va fuqarolarga majburiy tibbiy sug'urta dasturlarida belgilanidan ortiqroq qo'shimcha tibbiy va boshqa xizmatlarni

berilishini ta'minlaydi. Ixtiyoriy tibbiy sug'urta jamoaviy va individual bo'lishi mumkin.

Tibbiy sug'urta subyektlari sifatida quyidagilar yuzaga chiqishi mumkin: fuqaro, sug'urtachi, tibbiy sug'urta tashkiloti, tibbiyot muassasasi.

Majburiy tibbiy sug'urtada sug'urtachilar bo'lib quyidagilar hisoblanadi: ishlamaydigan aholi uchun - hukumat organlari va mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari; ishlaydigan aholi uchun - tashkilotlar, individual tadbirkorlar sifatida ro'yxatdan o'tgan jismoniy shaxslar, xususi notariuslar, advokatlar, ishchilar bilan mehnat shartnomalarini tuzgan jismoniy shaxslar, shuningdek, fuqarolik- huquqiy tavsifdagi mukofot shartnomalari bo'yicha bitimlar tuzgan shaxslar, ular qonunchilikka mos ravishda majburiy tibbiy sug'urta fondlariga tegishli bo'lgan soliq qismidan mablag'lar o'tkazadi.

Ixtiyoriy tibbiy sug'urtada sug'urtachilar bo'lib fuqarolar manfaatlarini ifoda etuvchi fuqarolik layoqatligiga ega bo'lgan ayrim fuqarolar yoki (va) tashkilotlar yuzaga chiqishi mumkin.

Tibbiy sug'urta tashkilotlari sifatida tibbiy sug'urtani amalga oshiruvchi va tibbiy sug'urta bilan shug'ullanish huquqiga ega davlat ruxsatnomasi bo'lgan yuridik shaxslar yuzaga chiqishi mumkin.

Tibbiy sug'urta tizimida tibbiyot muassasalari bo'lib litsenziyaga ega davolash-profilaktika muassasalari, ilmiy-tadqiqot va tibbiyot institutlari, tibbiy yordam ko'rsatadigan boshqa muassasalar, shu jumladan, nafaqat individual, balki jamoaviy tibbiy faoliyatni amalga oshiruvchi shaxslar hisoblanadi.

Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasbiy kasalliklardan sug'urta. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasbiy kasalliklar bilan bog'liq ta'minot ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasbiy kasalliklardan majburiy ijtimoiy sug'urta qilish tizimi doirasida amalga oshirilib, uning huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy asoslari "Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalardan va kasbiy kasalliklardan majburiy ijtimoiy sug'urta qilish to'g'risida"gi qonun doirasida belgilanadi. Ushbu qonunda mehnat shartnomasi bo'yicha ishchi tomonidan majburiyatlarini bajarayotgan vaqtida yoki qonunda belgilangan boshqa holatlardagi ishchining sog'ligi va hayotiga keltirilgan zararni qoplashning tartibi keltirilgan.

Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalardan va kasbiy kasalliklardan majburiy ijtimoiy sug'urta qilish ijtimoiy sug'urtalashning turlaridan

biri hisoblanadi va sug'urta qilingan shaxslarning ijtimoiy himoyasini va iqtisodiy manfaatdor subyektlarni kasbiy xatarlarning kamaytirilishini ta'minlaydi; mehnat shartnomasi bo'yicha ishchi tomonidan majburiyatlarini bajarayotgan vaqtida yoki qonunda belgilangan boshqa holatlardagi ishchining sog'ligi va hayotiga keltirilgan zararni sug'urta qilingan shaxsga sug'urta bo'yicha kerakli bo'lgan barcha turdagi ta'minotni to'liq qoplanishini ta'minlash yo'li bilan qoplaydi, shu jumladan, tibbiy, ijtimoiy va kasbiy rehabilitatsiya bo'yicha xarajatlar to'lanishini; ishlab chiqarishdagi jarohatlar va kasbiy kasalliklarni qisqartirishning qo'shimcha chora-tadbirlarini ta'minlaydi.

Qonun ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasbiy kasalliklardan majburiy ijtimoiy sug'urta qilishning obyekti bo'lib ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasbiy kasalliklar oqibatida jismoniy shaxslar tomonidan sog'ligi, kasbiy mehnatga layoqatligi yoki vafot etishi bilan bog'liq bo'lgan jismoniy shaxslarning moddiy manfaatlari hisoblanishini nazarda tutadi.

Davlat majburiy ijtimoiy sug'urtasining ushbu turi bo'yicha huquqiy munosabatlarning subyektlari bo'lib sug'urtalangan shaxs, sug'urta qiluvchi va sug'urtachi hisoblanadi.

Sug'urtalangan shaxs - bu ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasbiy kasalliklardan majburiy ijtimoiy sug'urta qilinishga tortiladigan jismoniy shaxs, shuningdek, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasbiy kasalliklar oqibatida, belgilangan tartibda va kasbiy mehnatga layoqatligini yo'qotilishi keltirilib chiqarilganligi tasdiqlangan, sog'ligiga zarar yetgan jismoniy shaxs.

Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasbiy kasalliklardan majburiy ijtimoiy sug'urta qilinishga quyidagilar tortiladi:

– sug'urta qiluvchi bilan tuzilgan mehnat shartnomasi asosida ishlarni bajaruvchi jismoniy shaxslar;

– ozodlikdan mahrum etilgan va sug'urtachi tomonidan mehnatga yollangan jismoniy shaxslar;

– fuqarolik-huquqiy shartnoma asosida ishlarni bajaruvchi jismoniy shaxslar, agar mos ravishda ko'rsatilgan shartnoma bo'yicha sug'urta qiluvchi sug'urtachiga sug'urta badallarini to'lash majburiyatini olgan bo'lsa.

Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasbiy kasalliklardan davlatning majburiy ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha sug'urta qiluvchi bo'lib istalgan tashkiliy- huquqiy shakldagi yuridik shaxs, ishlab

chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasbiy kasalliklardan majburiy ijtimoiy sug'urtaga tortiluvchi shaxslarni yollab ishlatayotgan jismoniy shaxs hisoblanadi.

Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa – bu sug'urta qilingan shaxsning mehnat shartnomasi bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotgan vaqtida sog'lig'iga zarar yetgani yoki boshqa turdagi zarar ko'rishi oqibatida va qonunda belgilangan boshqa holatlar bo'yicha nafaqat sug'urta qiluvchining hududida, balki undan tashqarida sug'urta qiluvchi bergan transportda ish joyiga kelayotgan vaqtida yoki ish joyini tark etayotgan vaqtida va buning oqibatida sug'urta qilingan shaxsni boshqa ishga o'tkazish zaruratini tug'ilishi, uning tomonidan vaqtinchalik yoki doimiy tarzda mehnatga layoqatini yo'qotilishini keltirib chiqargan yoki uning vafot etishiga olib keluvchi hodisadir.

Kasbiy kasallik – bu sug'urta qilingan shaxsning ishlab chiqarish omilining zararli ta'siri oqibatidagi va uning tomonidan kasbiy mehnatga layoqatlilikning qisman yoki doimiy tarzda yo'qotilishiga olib kelgan o'tkir yoki surunkali kasallikdir.

Kasbiy mehnatga layoqatlilik – bu insonning ma'lum bir malakadagi, hajm va sifatidagi ishlarni bajara olish qobiliyatidir. Kasbiy mehnatga layoqatlilikning yo'qotilishi darajasi deganda, sug'urta qilingan shaxs tomonidan sug'urta holati yuzaga kelgunga qadar kasbiy foliyatini amalga oshirish qobiliyatini doimiy tarzda pasayishining foizlardagi ifodasi tushuniladi.

Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasbiy kasalliklardan majburiy ijtimoiy sug'urtaning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- sug'urta bo'yicha sug'urta qilingan shaxslarni ta'minotining kafolatlanganligi;

- mehnat sharoitlarining yaxshilanishi va mehnat xavfsizligining yuksalishida, ishlab chiqarishdagi jarohatlar va kasbiy kasalliklarni pasayishida sug'urtalash subyektlarining iqtisodiy manfaatdorligi;

- ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasbiy kasalliklardan majburiy ijtimoiy sug'urtalashga tortiluvchi ishchilarni ishga yollovchi barcha shaxslarni sug'urta qiluvchilar sifatida ro'yxatdan o'tkazilishining majburiyiligi;

- sug'urta qiluvchilar tomonidan sug'urta badallari to'lanishining majburiyiligi;

- kasbiy xatar turiga bog'liq holda sug'urta tariflarining differentsiatsiyasi.

Sug'urta qilinganlarning sug'urtalash bo'yicha ta'minot huquqi sug'urta holati yuzaga kelgan kundan boshlab vujudga keladi.

Sug'urta holati yuzaga kelganligi natijasida, sug'urta qilingan shaxsning vafot etishi holatida sug'urta to'lovlarini olish huquqiga quyidagilar ega bo'ladilar:

– vafot etgan shaxsning qaramog'ida bo'lgan yoki uning o'lishi kunigacha undan tirikchilik o'tkazish uchun mablag'lar olishga huquqi bo'lgan mehnatga layoqatsiz shaxslar;

– o'lgan shaxsning uning o'limidan keyin tug'ilgan farzandi;

– ota-onalardan biri, turmush o'rtog'i yoki mehnatga layoqatliligidan qat'iy nazar, 14 yoshga yetmagan shaxslar yoki ushbu yoshga yetgan, lekin davlatning tibbiy-ijtimoiy ekspertiza xizmati xulosasiga ko'ra, yoki davlatning sog'liqni saqlash tizimining davolash-profilaktika muassasasi tomonidan sog'ligi holati bo'yicha boshqa shaxslar parvarishiga muhtoj deb tan olinadigan o'lgan shaxsning qaramog'ida bo'lgan bolalari, nevaralari, aka-ukalari va opa-singillarini parvarishlash bilan band bo'lgan va ishlamaydigan oilaning boshqa a'zolari;

– o'lgan shaxsning qaramog'ida bo'lgan, uning o'lgan kundan boshlab besh yil davomida mehnatga layoqatsiz bo'lib qolgan shaxslar.

Sug'urta qilingan shaxsning vafot etishi holatida ota-onalardan biri, turmush o'rtog'i yoki o'lgan shaxsning qaramog'ida blgan bolalari, nevaralari, aka-ukalari va opa-singillarini parvarishlash bilan band bo'lgan va ishlamaydigan hamda ularni parvarishlash vaqtida mehnatga layoqatsiz bo'lib qolgan oilaning boshqa a'zolari, ushbu shaxslarni parvarishlash ishlari tugaganidan so'ng sugurta to'lovlarini olish huquqini saqlab qoladi. Balog'atga yetmagan bolalarni birovning qaramog'ida ekanligi hech qanday dalil-isbotni talab qilmaydi.

Sug'urta holati yuzaga kelishi natijasida sug'urta qilingan shaxsning vafot etishi holatida sug'urta qilingan shaxsning tiriklik vaqtida daromadga ega bo'lgan, agarda sug'urta qilingan shaxsni daromadining bir qismi ularning tirikchilik qilishi uchun kerak mablag'larining asosiy va doimiy manbayi bo'ladigan bo'lsa, sudning qarori bo'yicha mehnatga layoqatsiz shaxslar sug'urta to'lovlarini olish huquqiga ega bo'ladi.

Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasbiy kasalliklar bo'yicha sug'urta qilgan shaxs yoki uning qaramog'ida bo'lgan shaxslarning (sug'urta qilinuvchi vafot etgan holatda) sug'urta bo'yicha ta'minoti

sug'urta hodisasi yuzaga kelganidan so'ng vujudga keladi va quyidagi ko'rinishlarda amalga oshiriladi:

- vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik bo'yicha nafaqalar;
- sug'urta qilingan shaxslarga yoki sug'urta qilingan shaxsning vafot etishi holatida bunday turdagi to'lovlarni olishga huquqi bo'lgan shaxslarga bir vaqtning o'zida va oylik sug'urta to'lovlarini amalga oshirilishi;

- sug'urta qilingan shaxsning tibbiy, ijtimoiy va kasbiy rehabilitatsiya qilinishi bo'yicha qo'shimcha mablag'larni qoplanishi.

Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasbiy kasalliklar bilan bog'liq bo'lgan vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik bo'yicha nafaqalar sug'urta qilingan shaxsning uning sog'ayishigacha vaqtinchalik mehnatga layoqatsizligining barcha muddati uchun yoki doimiy tarzda kasbiy mehnatga layoqatini yo'qotilishi o'rnatilishigacha qadar to'lanadi. Nafaqalar ijtimoiy sug'urtalash fondi mablag'lari hisobidan jabr ko'rganing vaqtinchalik mehnat layoqatini yo'qotilishining birinchi kunidan qonunda ko'rsatilgan miqdorda to'lanadi.

Bir vaqtning o'zidagi va oylik sug'urta to'lovlari quyidagicha belgilanadi va to'lanadi:

- sug'urta qilingan shaxsga - agar tibbiy-ijtimoiy ekspertiza qarori bo'yicha ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa yoki kasbiy kasallik natijasida uning tomonidan kasbiy mehnatga layoqatliligining yo'qotilishi sabab bo'lgan holda;

- ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa yoki kasbiy kasallik natijasida sug'urta qilingan shaxsning qaramog'ida bo'lgan shaxslarga.

Kasbiy mehnatga layoqatlilikni yo'qotish darajasi jabr ko'rganing avvalgi mutaxassisligi bo'yicha ishlarni bajarilishiga imkon beruvchi mavjud kasbiy imkoniyatlari va kasbiy ahamiyatga molik sifatlarini baholashdan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Qoidalar 10 foiz dan 100 foizgacha kasbiy mehnatga layoqatlilikning yo'qotilishini belgilash imkoniyatlarini nazarda tutadi. Bir vaqtning o'zidagi sug'urta to'lovlari sug'urtalanganlarga, agar sug'urtalangan shaxs vafot etgan hollarda uning qaramog'ida bo'lgan shaxslarga bir vaqtning o'zida birinchi oylik sug'urta to'lovlarini belgilash va to'lash bilan amalga oshiriladi.

Oylik sug'urta to'lovlari sug'urta qilingan shaxslarga doimiy tarzda kasbiy mehnatga layoqatlilikning barcha davri uchun to'lanadi, sug'urta qilingan shaxsning vafot etishi holatida esa:

- balog'atga yetmaganlarga – ularning 18 yoshga yetguniga qadar;

– 18 yoshdan katta o‘quvchilarga – o‘quv muassasalarida kunduzgi shaklda ta‘lim oluvchilarga o‘qishning tugashiga qadar, lekin 23 yoshdan katta bo‘lmaganlarga;

– 55 yoshga yetgan ayollarga va 60 yoshga chiqqan erkaklarga – umrbod;

– nogironlarga – nogironlik davri davomida;

– ota-onalardan biriga, umr yo‘ldoshiga yoki ishlamaydigan va vafot etgan shaxsning qaramog‘ida bo‘lgan bolalarni, nevaralarni, aka-ukalarni, opa-singillarni parvarishlash bilan band bo‘lgan oilaning boshqa a‘zosiga – ularning yoshi 14 yoshga kirgunigacha yoki ularning sog‘ligi holatining o‘zgarishiga qarab.

Oylik sug‘urta to‘lovining miqdori sug‘urta qilinuvchi shaxsning o‘rtacha oylik ish haqining hissasi sifatida, uning kasbiy mehnatga layoqatlilikini yo‘qotilishining darajasiga muvofiq tarzda hisoblanib belgilanadi. Agar oylik sug‘urta to‘lovlari sug‘urtalangan shaxsning qaramog‘ida bo‘lganlarga kelib tushadigan bo‘lsa, bunday to‘lovning umumiy miqdori sug‘urta qilingan shaxsni o‘zining hissasiga kamayadi, qolgan miqdor esa qaramoqdagilarning barchasiga bo‘linadi va teng miqdorlarda to‘lanadi. Jabrlanuvchining tibbiy, ijtimoiy va kasbiy reabilitatsiyasi bo‘yicha xarajatlar agar tibbiy-ijtimoiy ekspertiza muassasasi jabr ko‘ruvchini mos ravishdagi yordam, ta‘minot va parvarishlash turlariga muhtoj deb topsa to‘lanadi. Bu holat jabrlanuvchini reabilitatsiya qilish dasturi tomonidan tasdiqlanadi, uning tarkibiga reabilitatsiyaning quyidagi turlari kiritiladi:

– sug‘urtalangan shaxsning bevosita ishlab chiqarishdagi og‘ir baxsiz hodisadan so‘ng uning sohayishiga qadar yoki kasbiy mehnatga layoqatlilikni yo‘qotish darajasi o‘rgatilgunga qadar davolash;

– individual parvarishlash, tibbiy maqsadlar uchun buyumlar va dori-darmon bilan ta‘minlash;

– jabr ko‘rganning boshqa shaxslar (maxsus tibbiy va maishiy) tomonidan parvarishlanishini ta‘minlash;

– sug‘urta qilingan shaxsni tibbiy va ijtimoiy reabilitatsiyaning ma‘lum bir turlaridan bahramand bo‘lishi uchun harakatlanishini (kerak bo‘lgan hollarda kuzatuvchi shaxs bilan birgalikda) ta‘minlash, shuningdek, sug‘urta qiluvchining yo‘llanmasi bo‘yicha tibbiy-ijtimoiy ekspertiza muassasasida qaytadan ko‘zdan kechirilishi uchun va kasbiy patologiya markaziga harakatlanishini ta‘minlash;

– sanatoriya-kurorlarda davolanish;

- protez va protez-ortopedik buyumlarni tayyorlash va ta'mirlash;
- reabilitatsiyaning texnik vositalari, transport vositalari bilan ta'minlash, shuningdek, ularni ta'mirlash va yonilg'i-moylash materiallari haqini to'lash;

- kasbiy ta'lim (qayta o'qitish).

Shunday qilib, sanab o'tilgan sug'urta turlari orasida moliyaviy mablag'lar hajmiga, qamrovining ommaviyligiga va xizmatlarining rang-barangligiga ko'ra asosiysi majburiy ijtimoiy sug'urta hisoblanadi (eng avvalo, pensiya, tibbiy sug'urta, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalardan, ishsizlik va boshqa ijtimoiy xatarlardan sug'urtalashdir). Rivojlangan mamlakatlarda ijtimoiy sug'urtaning bu turi odatda ijtimoiy himoya maqsadlaridagi xarajatlarining 60-70 foizini, YAIMning taxminan 15-20 foizini tashkil etadi.

### **9.3. Ijtimoiy sug'urta tizimini isloh qilishning asosiy yo'nalishlari**

Milliy ijtimoiy sug'urta tizimini shakllantirish murakkab jarayon bo'lib, u tabiiy ravishda ish haqi, soliq tizimi, siyosat va mehnat bozori holati, hozirgi demografik vaziyat va uning istiqboli bilan bog'liq bo'ladi. Ijtimoiy sug'urta tizimining shakllanishi qator omillar, ya'ni pensiya va boshqa sug'urta to'lovlari darajasi, xodimlarni davolash va sog'lomlashtirish bo'yicha xizmatlar sifati va hajmi bilan bog'lanmas ekan, mamlakatda samarali ijtimoiy himoya tizimini qaror toptirib bo'lmaydi.

Yangi iqtisodiy tizimga o'tish ijtimoiy sug'urta sohasidagi asosiy huquqiy subyektlar: davlat, korxonalar (ish beruvchilar), ishchilar va sug'urta tashkilotlarining rolini tubdan o'zgartiradi.

Ijtimoiy sug'urta tizimini tashkillashtirishda davlat alohida rol o'ynaydi. Agar ilgari davlat ishlab chiqarish vositalari egasi bo'lib, ayni paytda ishchilarning manfaatlarini himoya qilishi lozim deb hisoblangan bo'lsa, endi uning roli mutlaqo o'zgacha bo'lishi lozim:

- ishchilarning ham, ish beruvchilarning ham manfaatlarini hisobga oluvchi qonunlarni o'rnatish orqali mehnat munosabatlarida vositachi sifatida ish yuritish, ijtimoiy sug'urtalash va ta'minot tizimi mexanizmlarini shakllantirish;

- qonunlarning bajarilishini va ishchilarning ijtimoiy himoyalinishini nazorat qilishga yo'naltirilgan ijroiya hokimiyati yordamida

ishchilar ijtimoiy himoya qilishning kafili bo'lish, aholining ijtimoiy nochor qatlamlariga maqsadli yordam ko'rsatish;

– mehnatni muhofaza qilish, sog'liqni saqlash sohasida, tibbiy, kasbiy va ijtimoiy rehabilitatsiya tizimlarida, kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash sohasida ijtimoiy soha va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha iqtisodiy-huquqiy asoslar yaratish.

Shu tarzda, ijtimoiy sug'urtada davlatning ishtiroki, eng avvalo, ijtimoiy sug'urtaning ma'lum qonuniy bazasini, huquqiy muhitini yaratish, qonuniy tarzda sug'urtaning u yoki bu turining, sug'urta badallari va nafaqalar miqdorining majburiy tavsifini belgilab qo'yishda namoyon bo'ladi.

Shu bilan birga davlat, odatda sug'urtalashning ayrim turlarini, ayniqsa, inqiroz sharoitida qo'llab-quvvatlaydi. Davlat mablag'lari dastlabki ikki sug'urtalash subyektlarining sug'urta badallari hajmi yetarli bo'lmagan taqdirda umumiy tavsifdagi to'lovlarni to'lash va sug'urta nafaqalarning minimal darajasini ta'minlash uchun qo'llaniladi.

Korxonalar (ish beruvchi) ijtimoiy sug'urtaning haqiqiy subyektlariga aylanishi va quyidagilarni ta'minlashi lozim:

– qayta tiklash jarayonining butun sikli mobaynida: ishga qabul qilish, ish jarayoni, mehnatga layoqatning yo'qotilishi va ishchi o'rinlar qisqarishi jarayonida yollanma ishchilarning ijtimoiy himoyalaniishi;

– inson hayotining ishlash jarayoni va undan keyingi davrni qamrab oluvchi sug'urta himoyasiga doir moliyaviy xarajatlarning asosiy qismini qoplash.

Ijtimoiy himoya subyekti sifatida ishchilar uchun, ayniqsa ularning moddiy farvonligi uchun shaxsiy mas'uliyat muammosi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu muammoni ijtimoiy sug'urtalash tizimi yordamida hal qilish mumkin. Ishchilarning sug'urta badallarini to'lashda, shuningdek, ijtimoiy sug'urtani boshqarish organlarining barcha darajalarida faol ishtirok etishi ularga ijtimoiy sug'urta tizimida zarur o'rinni egallash imkonini berdi.

Bundan kelib chiqqan holda, sug'urta tashkilotini boshqarish uning barcha ishtirokchilari – ishchilar, korxonalar (ish beruvchilar) va davlat manfaatlari vakilligida amalga oshirilishi lozim. Sug'urta tashkilotlari ish beruvchi bilan ishchilar o'rtasida asosiy vositachiga aylanishi va ijtimoiy sug'urta sohasida barcha masalalar majumasini hal qilishi kerak, bularga: ishchilarning mehnatga layoqati yo'qolishi, tibbiy xizmatni tashkillashtirish, shu jumladan, ishlab chiqarishda

jabrlanganlarga tibbiy xizmat ko'rsatish, ularning tibbiy, ijtimoiy va kasbiy reabilitatsiyasi, munosib ijtimoiy himoyani ta'minlovchi ijtimoiy infratuzilmani shakllantirish kiradi.

Ijtimoiy sug'urtalashni takshillashtirishga xos xususiyat o'zini o'zi boshqarish bo'lib, bu bir tomondan, ijtimoiy sug'urtani davlat sug'urtasidan, ikkinchi tomondan, xususiy sug'urtalashdan ajratib turadi (u shuningdek ijtimoiy xatarlardan himoyalash funksiyasini ham bajarishi mumkin). O'z-o'zini boshqarish sug'urta hamjamiyatlarining birdamligini kuchaytiradi, ijtimoiy sug'urtalash tizimining jamoatchilik uchun oshkora bo'lishini ta'minlaydi va ijtimoiy barqarorlikka ko'maklashadi, hokimiyat va nazorat funksiyalari taqsimlanishini ta'minlaydi, boshqarishni markazlashtirishdan uzoqlashishiga va qarorlar qabul qilish jarayoniga ishchilar va ish beruvchilarning keng qatlamlarini jalb etish imkonini beradi, aholining demokratik ongini mustahkamlaydi, ijtimoiy tinchlikni saqlashga xizmat qiladi.

Mehnat va tabiiy-iqlim sharoitlarining turli-tumanligi ijtimoiy sug'urtaning uchta majburiy shakli – umumiy, kasbiy va hududiy turlarini shakllantirishni taqozo qiladi.

Majburiy kasbiy va hududiy sug'urta salomatligiga xavf soluvchi yuqori darajali xatar mavjud yollanma ishchilar guruhlarini (jarohatlanish darajasi, kasb kasalliklari darajasi yuqori va og'ir bo'lgan), shuningdek, muddatidan oldin kasbiy pensiyalar berilishi ko'zda tutilgan shaxslar doirasini qamrab oladi.

Xo'jalik yuritishning yangi sharoitlarida ishlovchilar daromadlarining yuqori darajada farqlanishi majburiy sug'urta bilan birgalikda ixtiyoriy sug'urtani ham ko'zda tutishi kerak, bunda ish beruvchilar ham, xodimlar ham sug'urtalovchi bo'lishi mumkin.

Sug'urtalanuvchilar manfaatlarining bir xilligi va umumiyligi – umumiy qayta taqsimlashga erishishning asosiy shartidir. Shu sababli, keng tarqalgan tizim aholining ko'magi va roziligiga tayanadi, ijtimoiy boqimandalikning vujudga kelishiga yo'l qo'ymaydi, bu esa, jamiyatda iqtisodiy barqarorlik va hamjihatlikka erishishga asoslanadi.

Ijtimoiy sug'urta tizimini isloh qilishning yo'nalishlaridan biri – boshqaruvning tashkiliy tuzilmalarini takomillashtirish bilan bog'liq. Ijtimoiy sug'urta sohasida xo'jalik yuritishning yangi sharoitlarida me'yoriy, muvofiqlashtirish, usulologik va qayta sug'urtalash funksiyalarini mustahkamlash, shuningdek, noyob diagnostik va tibbiy-reabilitatsiya xizmatlarini ko'rsatish maqsadga muvofiq.

Hududiy boshqaruv organlari vazifalari – bu ijtimoiy sugʻurta faoliyatining tezkor faoliyati uchun shart-sharoit yaratishdir, bunga sugʻurta badallarini toʻplash, sugʻurtalanuvchilarga toʻlov va kompensatsiyalar berish, ijtimoiy va kasbiy xatar darajasini baholash, sugʻuralash tariflariga qoʻshimcha va chegirmalar belgilash, tibbiy va rehabilitatsiya xizmatlari koʻrsatilishini taʼminlash kabilar kiradi.

Moliya sohasida markaz va hududlar vazifalarini muvofiqlashtirish quyidagi mexanizmlar yordamida taʼminlanishi mumkin: sugʻurta tariflari va qayta sugʻurtalashning bazaviy darajalarini belgilash, soliq chegirmalari nisbatlarini aniqlashtirish.

Ishchilar va ish beruvchilarning sugʻurta badallari (ish haqidan mahsulot tannarxiga kiritilgan ishchi kuchi haqining bir qismini toʻlash) zaruriy mahsulotning bir qismini tashkil etadi. Yaʼni, sugʻurta badallari soliq boʻlmagan toʻlov turi boʻlib, davlat budjeti hisobidan moliyalanmaydi, muayyan ijtimoiy xatarlardan himoyalash maqsadlarigagina yoʻnaltiriladi (ishsizlik, kasallik, keksalik, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa) va amalda bunday xatarlar kelib chiqqanda xodimlar uchun oʻzgargan ish haqi vazifasini oʻtaydi.

Ijtimoiy sugʻurtaning bunday maʼnosini qonunchilik orqali belgilab qoʻyilishi asosiy ijtimoiy subyektlar (ish beruvchilar va ishchilar)ning ijtimoiy sugʻurtalashning tegishli fondlarini shakllantirishdan manfaatdorligini keskin oshirish imkonini beradi. Va, aksincha, ijtimoiy sugʻurtalash fondlari moliyaviy manbalarining oʻz xususiyatlarga ega emasligi, davlat budjeti hisobidan shakllantirilishi (fondlarni shakllantirishga soliq yondashuvi) ijtimoiy sugʻurtaning tabiatiga zarar yetkazadi, mehnatga layoqatli aholini boqimandalarga aylantiradi, davlat esa “homiy”ga aylandi. Bundan tashqari, davlat ijtimoiy maqsadlarga moʻljallangan mablagʻlarni boshqa maqsadlarga yoʻnaltirish imkoniga ega boʻladi. Bozor munosabatlariga oʻtish bilan ishlovchilarning ijtimoiy sugʻurta fondlarini moliyalashda bevosita ishtirok etishi zarurligi ayon boʻlib bormoqda. Bunda ishlovchilar va ish beruvchilarning ulushbay haq toʻlash tajribasi diqqatga loyiq. Mamlakatimiz va xorijiy mutaxassislar fikriga koʻra, bu chora jamoatchilik ongidagi ijtimoiy himoyaga “bepul” tizim degan qarashlarni jiddiy ravishda oʻzgartirish imkonini beradi. Bozor iqtisodiyotida ijtimoiy himoya mexanizmlarida faol shaxsiy ishtirok etish psixologiyasini shakllantirish va ijtimoiy sugʻurtalash fondlari

mablag'laridan foydalanish samaradorligini nazorat qilish zarurligi nuqtayi nazaridan ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizning demografik va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining o'ziga xos jihatlari pensiya sug'urtasining aralash turidan foydalanish, bunda mablag'larni qayta taqsimlash va kapitalizatsiya qilish usullaridan, shuningdek aralash – imtiyozli pensiya ta'minoti (ish beruvchilar va davlat mablag'lari hisobidan) foydalanish zaruratini keltirib chiqaradi<sup>126</sup>.

Ijtimoiy sug'urtaning muhim elementi ijtimoiy sug'urtaning asosiy obyektlari mas'uliyatini qayta taqsimlash hisoblanadi. Shuni e'tiborga olish kerakki, 70 yil davomida biz to'plagan davlatning ijtimoiy sug'urtalash sohasidagi barqaror an'analar, aholining aksariyat qismi ish haqining past darajasi va odamlarning ijtimoiy adolat haqidagi tushunchasi moliyaviy taqsimlashning yangi nisbatlari qo'llaniladigan ijtimoiy sug'urtaning yangi modeliga o'tishni taqozo qiladi.

### **Nazorat savollar:**

1. Ijtimoiy sug'urta deganda nimani tushunasiz?
2. Ijtimoiy sug'urtaning asosiy vazifalarini tushuntirib bering.
3. Ijtimoiy sug'urtani tashkillashtirishning qanday modellarini bilasiz?
4. Ijtimoiy sug'urtaning qanday turlari mavjud?
5. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa deganda nimani tushunasiz?
6. Sug'urta tizimini isloh qilishning asosiy yo'nalishlarini yoriting.
7. Ihtiyoriy sug'urta xususiyatlarini ochib bering.
8. O'zbekistonda ijtimoiy sug'urtaning rivojlanish jarayonlarini tahlil qiling.

### **Testlar:**

#### **1. Ijtimoiy sug'urta deganda nimani tushunasiz?**

- a) davlatning aholiga teng taqsimlangan bir martalik to'lov puli shaklidir;
- b) ijtimoiy ta'minot muassasalari tomonidan kam ta'minlangan oilalarga ko'rsatiladigan pullik xizmat turidir;
- c) kishilarga ish joyini yo'qotganda, yangi ish joyini topishdagi xarajatlarni qoplash shaklidir;

<sup>126</sup> Abdurahmonov Q.X., Abduramonov X.X. "Aholini ijtimoiy muhofaza qilish" O'quv qo'llanma. –T.: Tafakkur bo'stoni, 2010. – B. 207.

d) aholini mehnatga layoqatlilik va daromadlarni yo'qotish bilan bog'liq turli xatarlardan ijtimoiy muhofaza qilish shaklidir.

**2. Ijtimoiy sug'urtani moliyashtirilishi manbalarini ko'rsating.**

a) Pensiya jamg'armasi hisobidan;

b) tadbirkorlarning sug'urta badallaridan;

c) kasaba uyushmalarining o'tkazmalari hisobidan;

d) davlat ko'magida ish beruvchilar va xodimlarning maqsadli badallari, maxsus byudjetdan tashqari jamg'armalar hisobidan.

**3. Ijtimoiy sug'urtaning asosiy vazifasi nechta?**

a) 2 ta;

b) 3 ta;

c) 4 ta;

d) 5 ta.

**4. Ijtimoiy xatar bu...?**

a) jinoiy huquqbuzarlikning sodir etilishi;

b) mehnatga layoqatning yo'qolishi, mehnatga talabning yo'qligi;

c) ma'muriy huquqbuzarlikning sodir etilishi;

d) depressiyaga tushib qolish holatining ta'siri.

**5. Ijtimoiy xatarda ijtimoiy xavf darajasi past bo'lganda qanday tavsiflanadi?**

a) tashkiliy - huquqiy shakli ixtiyoriy;

b) tashkiliy - huquqiy shakli majburiy (qonuniy);

c) rasmlashtirilmaydi;

d) tashkiliy - huquqiy shakli belgilanmaydi.

**6. Ijtimoiy xatarda ijtimoiy xavf darajasi past bo'lganda qanday tavsiflanadi?**

a) tashkiliy - huquqiy shakli ixtiyoriy;

b) tashkiliy - huquqiy shakli majburiy (qonuniy);

c) rasmlashtirilmaydi;

d) tashkiliy - huquqiy shakli belgilanmaydi.

**7. Xatar tabiatini aniqlashdagi qanday muhim jihat mavjud?**

a) tashkiliy - huquqiy shaklini belgilash va baholash;

b) mehnatga layoqatlilik yo'qolishi darajasini, miqdor va sifat, sabab tavsiflarini baholash;

c) ijtimoiy munosabatlarning ratsional asoslarini belgilovchi ijtimoiy tartibni buzilishi sabablarini aniqlash;

d) xatarni oldini olish choralarini ishlab chiqish.

**8. Majburiy ijtimoiy sug'urta nimada ifodalanadi?**

a) reabilitatsiya yoki kasbiy qayta tayyorgarlikdan o'tish bilan bog'liq kutilmagan harajatlarni qoplashda;

b) sug'urtalanuvchilarning mavjud (erishilgan) turmush darajasini saqlashda;

c) sug'urtaning iqtisodiy va ijtimoiy elementlari tabiiy ravishda birikib ketishi holatini aniqlashda;

d) sug'urtalanuvchining ish joyini saqlab qolishda.

### **9. "Yonlamasiga" qayta taqsimlash qanday amalga oshiriladi?**

a) daromadlariga ko'ra, bitta guruhga kiruvchi yoki avval unga kirgan va bitta ijtimoiy tuzilma tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan xodimlar orasida qo'llaniladi;

b) daromadlarni yuqori haq oluvchilardan kamroq haq oluvchilarga o'tkazilishini nazarda tutadi;

c) daromadlaridan qat'iy nazar, sug'urtalanuvchilar orasida teng taqsimlanishi;

d) og'ir sharoitga (vaziyatga) tushib qolganda, sug'urtalanuvchilarga kutilmagan xarajatlarni qoplashni amalga oshirish orqali.

### **10. "Bo'ylamasiga" taqsimlash bu...?**

a) daromadlariga ko'ra, bitta guruhga kiruvchi yoki avval unga kirgan va bitta ijtimoiy tuzilma tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan xodimlar orasida qo'llaniladi;

b) daromadlarni yuqori haq oluvchilardan kamroq haq oluvchilarga o'tkazilishini nazarda tutadi;

c) daromadlaridan qat'iy nazar, sug'urtalanuvchilar orasida teng taqsimlanishi;

d) og'ir sharoitga (vaziyatga) tushib qolganda, sug'urtalanuvchilarga kutilmagan xarajatlarni qoplashni amalga oshirish orqali.

### **11. Ijtimoiy sug'urta nazariyasining asoschisi kim?**

a) T.Parsons;

b) J. Lokk;

c) Klaver;

d) O.Bismark;

### **12. Majburiy sug'urtalash to'g'risidagi kabi qonunlar AQSH va Kanadada nechanchi yillarda qabul qilindi?**

a) XX asrning 50 yillarida;

b) XX asrning 40 yillarida;

c) XX asrning 30 yillarida;

d) XX asrning 20 yillarida.

**13. Sug'urtani tashkillashtirishning nechta modeli mavjud?**

a) 2 ta;

b) 3 ta;

c) 4 ta;

d) 5 ta.

**14. Ijtimoiy sug'urtaning shakliga ko'ra turlarini ko'rsating.**

a) ixtiyoriy, majburiy, korporativ;

b) umumiy, maxsus, korporativ;

c) ixtiyoriy va umumiy;

d) ixtiyoriy va majburiy.

**15. Ijtimoiy sug'urta tizimini tashkillashtirishda asosiy rolni kim o'ynaydi?**

a) ijtimoiy ta'minot bo'limlari;

b) kasaba uyushmalari;

c) tibbiyot birlashmalari;

d) davlat.

## X-bob. DEMOGRAFIK SIYOSAT

### 10.1. Demografiya fanining paydo bo'lishi va vujudga kelishi

### 10.2. Demografik siyosatning xususiyatlari

### 10.3. Aholi migratsiyasi

### 10.1. Demografiya fanining paydo bo'lishi va vujudga kelishi

Demografiyaning paydo bo'lishi boshqa fanlardan farqli ravishda, aniq sanaga ega. 1662 yilning yanvarida ingliz savdogari, kapitani Jon Graunt (1620-1674) ning "O'lim byulleteni asosidagi tabiiy va siyosiy kuzatishlar (shaharlardagi e'tiqod, savdo, aholining o'sishi, kasalliklar va boshqa o'zgarishlarni boshqarish) muqaddimasi" nomli kitobi Londonda chop etilgan. Bu kitob bir davrning o'zida statistika, sotsiologiya va demografiya kabi fanlarning rivojlanishiga hissa qo'shdi. "Demografiya" - yunoncha "demos" - xalq, aholi va "grafo" - yozaman so'zlaridan olingan<sup>127</sup>. Aholi hayoti davomida ro'y berayotgan jarayonlar qanday qonuniyatlarga bo'ysunishi va qay tarzda ro'y berayotganligini aniqlash uchun demografik tahlillar talab qilinadi. Dunyoda bir vaqtning o'zida tug'ilish, o'lim, nikohga kirish, ajralish, migratsiya kabi hodisalar ro'y beradi. Bunday jarayonlarning hisob-kitobini olib borish nihoyatda murakkab ish. Bunday jarayonlar ma'lum bir hududga nisbatan aniq uslublar bilan nisbiy ravishda tahlil qilinadi. Demografik tahlillar o'zining tarixiga ko'ra, qadimiy davrlardan beri olib boriladi. Lekin ularning aniq bir usuli ishlab chiqilmagan va stixiyali ravishda olib borilgan edi.

XVII asrda Yevropada tarqalgan epidemiyalar va aholining keskin ravishda kamayib borishi ayrim kishilarni ushbu muammo ustida ish olib borishiga majbur qildi. Aholining demografik tahlil qilishning birinchi usuli o'lim jadvallari bo'lib, o'limni hisob-kitob qilish va jadvallar tuzish usuli ingliz statisti Jon Graunt tomonidan 1663 yilda ishlab chiqilgan. 1665 yilda Uilyam Petti bilan hamkorlikda "O'limning tabiiy va siyosiy ahamiyati" degan risola chop ettirib, aholi o'rtasida ro'y berayotgan o'limlarning har tomonlama tahlil qilinishi va hisobga olinishini tushuntirib berdi. Keyingi davrlarda matematiklar Laplas, Eyler tomonidan kashf qilingan matematik usullar aholi o'rtasidagi

<sup>127</sup> Xidiraliev K.E. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari.- Guliston.-2019, – B. 3.

o'limdan tashqari boshqa hodisalarni ham hisoblash imkonini yaratdi va shu tarzda demografik tahlil usullari bunyodga keldi. Bu tahlillar demografik koeffitsiyentlar deb yuritildi.

“Demografiya” soʻzini birinchi boʻlib fransuz olimi Jan Klod Ashil Giyar 1855 yilda Parijda chop etilgan “Inson statistikasi elementlari yoki qiyosiy demografiya” kitobida ishlatdi. Jan Klod Ashil Giyar 1799 yilda tugʻilgan. Statist, pedagog, tabiiyotshunos boʻlgan bu inson, Parij Statistika va Botanika jamiyatlari asoschisi hamda aholi statistikasi boʻyicha birqancha ishlarning muallifidir. Xususan, A. Giyar birinchi boʻlib (1853 yilda Bryusselda boʻlib oʻtgan Xalqaro statistika kongressining birinchi sessiyasida) barcha mamlakatlar uchun kasalliklar va oʻlim sabablarining yagona nomenklaturasini ishlab chiqishni taklif qildi. Bugungi kunda bu gʻoya dunyoning barcha mamlakatlarida amalda qoʻllanmoqda. Giyar tomonidan qoʻllanilgan “demografiya” soʻzi asta-sekinlik bilan avvalo Fransiyada tarqaldi. 1874 yilda Giyarning kuyovi boʻlgan Lui Adolf Bertiloning “Fransiyaning koʻrgazmali demografiyasi” asari nashr etildi. 1882 yilda bu soʻz Xalqaro gigiyena va demografiya kongressida atama sifatida rasmiy tan olindi. 20 asr boshiga kelib esa Yevropada aholi statistikasi sinonimi sifatida keng tarqaldi. 1872 yilda Peterburgda boʻlgan Xalqaro Statistika kongressi munosabati bilan rus tiliga kirib keldi. Hozirgi kunda bu atama barcha mamlakatlarda keng qoʻllanilmoqda. Xususan Oʻzbekistonda demografiya fani 20-asrning 60-yillaridan boshlab oliy oʻquv yurtlarida oʻqitila boshlandi. Biroq demografiya fani faqat sharhlash bilan chegaralanib qolmay, balki uning oʻrganish doirasi birmuncha keng va chuqurdir. Demografiyada asosiy kuzatuv birligi - inson hisoblanadi. Inson hayoti davomida uning fiziologik va psixologik xususiyatlari, maʼlumotlilik darajasi, oilaviy holati, kasbi-kori, malakasi ijtimoiy guruhi, yashash joyi, til bilish kabi imkoniyatlari oʻzgarib boradi. Ana shu alohida inson hayotida roʻy bergan oʻzgarishlar yigʻindisi umuman aholi hayotidagi ijtimoiy-iqtisodiy va demografik oʻzgarishlarga olib keladi. Nikohga kirish natijasida, oilalar soni oshib boradi, yolgʻizlar, boʻydoqlar soni esa kamayadi. Nikohning bekor etilishi, yaʼni, ajralish jarayoni esa aholi tarkibida toʻkis boʻlmagan oilalarning va bevalar salmogʻining koʻpayishiga sabab boʻladi. Inson dunyoga kelar ekan, maʼlum davr yashaydi. Ana shu davr mobaynida u ulgʻayib boradi. Goʻdaklik davridan bolalikka, oʻsmirlik, yoshlik oʻrta yoshlik va yetuklik davrlariga oʻtadi. Har bir oʻquv yili tugashi bilan

aholi tarkibida ma'lumotlilar soni oshib boradi. Ana shu tarzda shaxs hayotidagi o'zgarishlar aholi guruhidagi o'zgarishlarga olib keladi. Insonlarning bir hududdan ikkinchi bir hududga ko'chib o'tishi migratsiya, ushbu hududlar aholi soniga va tarkibiga ta'sir etadi. Aholi soni tug'ilish va o'lim hisobiga doimo o'zgarib boradi. Tug'ilishning 17 jarayoni aholi sonini ko'payishiga olib kelsa, o'lim uning kamayib ketishiga sabab bo'ladi. Tug'ilish va o'lim jarayonlari asosida aholi tabiiy o'sishi sodir bo'ladi. Agar tug'ilganlar soni o'lganlar sonidan yuqori bo'lsa, aholi ko'payib boradi, aksincha, o'lganlar soni tug'ilganlar sonidan ko'p bo'lsa, aholi kamayib boradi.

Ma'lumki, jamiyatda har doim muayyan sabablarga ko'ra aholining bir qismi hayotdan ko'z yumadi, ya'ni vafot etadi. Yana bir qism aholi esa, dunyoga keladi. Jamiyatdagi o'lgan aholi o'rni, yangi tug'ilganlar hisobiga to'lib boradi, avlodlar almashadi. Ana shu jarayon aholi takror barpo bo'lishining asosini tashkil etadi. Biror bir hududda, muayyan bir davrdagi aholi tarkibi, o'tgan davrdagi aholi takror barpo bo'lishining natijasi, keyingi davrdagi aholi takror barpo bo'lishining zamini hisoblanadi. Demak, aholi takror barpo bo'lishi jamiyat taraqqiyoti davomidagi doimiy, murakkab jarayondir. Aholining takror barpo bo'lishi natijasida aholi soni va uning yosh-jinsiy tarkibi muntazam o'zgarib turadi. Yangi tug'ilgan bolalar jinsi aholi jinsiy tarkibida ma'lum o'zgarishlarga olib keladi. O'lganlar soni esa aholi yosh tarkibiga ta'sir etadi. Aholi yosh va jinsiy tarkibidagi o'zgarishlar jamiyatda ma'lum ijtimoiy muammolarni kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Aholining takror barpo bo'lish jarayoni esa, o'z navbatida qator ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta'sirida sodir bo'ladi. Shu bois aholining takror barpo bo'lish jarayoni jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichida o'ziga xos xususiyatlarga, qonuniyatlariga egadir. Demografiyani ng asosiy predmeti aholining takror barpo bo'lish qonuniyatlarining tahlili hisoblanadi. Aholini o'rganar ekan, demografiya alohida fan sifatida, uning miqdoriy va sifatiy xususiyatlarining mukammal tahlil etadi. Aholining miqdoriy xususiyatlari ma'lum millat, hudud aholisi sonining o'zgarib (o'sishi yoki kamayishi) borishida ifodalanadi. Aholining sifatiy xususiyatlari esa, asosan ma'lum millat yoki hudud aholisining salomatlik va ma'lumotlilik darajasida, o'rtacha umr ko'rish maqsadida ifodalanadi. Har ikkala jarayon, ya'ni, aholining miqdoriy va sifatiy rivojlanishi bir-biriga chambarchas bog'liq holda sodir bo'ladi. Jumladan, aholi salomatligini yuqori darajada bo'lishi, aholi o'rtasida

o'limning kamayishi, o'rtacha umr ko'rish muddatining esa uzayishiga olib keladi. Natijada aholi soni o'sib boradi. Shuningdek tug'ilishning juda yuqori darajada bo'lishi, ko'p hollarda ona va bola organizmining zaiflashib borishiga va o'lim hollarining ko'payishiga olib keladi. Jamiyat taraqqiyotining eng dastlabki bosqichidan to hozirgi davrga qadar har bir hudud aholisi ham miqdor, ham sifat jihatidan muntazam o'zgarib kelgandir. Demografiya aholining miqdoriy va sifatiy o'zgarishlarini aholining takror barpo bo'lishining asosiy omillari sifatida o'rganadi. Aholining takror barpo bo'lishi, keng ma'noda tabiiy o'sish, o'lim, migratsiya aholining hududlar bo'ylab harakati, bir ijtimoiy guruhdan ikkinchi bir ijtimoiy guruhga o'tishi, ma'lumot olishi, mehnat faoliyatining boshlanishi va h.k. natijasida aholi tarkibini yangilanib turishini bildiradi. Demografiya asosiy e'tiborni tabiiy avlodlar almashuv – ya'ni, tug'ilish va o'lim asosida aholining takror barpo bo'lish jarayoniga qaratadi. Ushbu jarayonni jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlaridagi qonuniyatlarini, turli millat, hudud va davlatlardagi xususiyatlari, omillarini o'rganadi, muammolarini aniqlaydi va 18 istiqbolini belgilab beradi. Bu vazifalarni bajarish uchun demografiya jamiyat taraqqiyoti bosqichlari, tarixiy shart-sharoitlarini atroflicha o'rganishi lozim. Demak, demografiya, aholining takror barpo bo'lishi qonuniyatlari haqidagi fan bo'lib, bu jarayonni ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlarga bog'liq holda o'rganadi, omillarini, muammolarini aniqlab, istiqbolini belgilab beradi. Har bir fanning asosiy vazifasi tabiat va jamiyatning ma'lum qismidagi rivojlanish qonunlarini o'rganishdir. Lekin shu bilan bir qatorda har bir fanning o'ziga xos amaliy ahamiyatga ega bo'lgan vazifalari ham mavjud. Demografiya ham alohida fan sifatida o'z vazifalariga egadir. Ushbu vazifalarni uch guruhga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiqdir: 1. Demografik jarayonlar va ularning omillarini o'rganish. 2. Demografik bashoratlarni ishlab chiqish. 3. Demografik siyosat chora tadbirlarini ishlab chiqish. Demografik jarayonlar – tug'ilish, o'lim, nikohga kirish, ajralish kabilar tahlil qilinarkan, ularni quruq statistik ma'lumotlar orqali aniqlab bo'lmaydi. Shuning uchun har bir jarayonning o'z koeffitsienti hisoblab chiqiladi. Bu koeffitsientlar har bir demografik jarayonning ming kishiga nisbatan miqdori hisoblanadi. Shuning uchun koeffitsientlar promilleda o'lchanadi. Demografik jarayonlarga tug'ilish, o'lim, nikoh, ajralish va oila kiradi. Demografik jarayonlar tarkibida tug'ilish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, o'rganilayotgan mavjud aholi avvalo

tug‘ilish jarayoni natijasida dunyoga kelgan. Demografiya tug‘ilishni alohida, aholi takror barpo bo‘lishining demografik zamini sifatida o‘rganadi, unga ta‘sir etuvchi barcha ijtimoiy - iqtisodiy va tabiiy omillarni tahlil etadi. Shuningdek, o‘lim jarayoni ham aholi takror barpo bo‘lishining asosiy elementi sifatida demografiya fanining e‘tiborida turadi. Aholining takror barpo bo‘lishida birinchi navbatda oila tashkil topishi ya‘ni shakllanishi ahamiyatlidir. Chunki dunyoda tug‘ilayotgan insonlarning aksariyati oilada, oila muhitida dunyoga keladi, shaxs sifatida shakllanib o‘zining demografik faoliyatini (oilalarni qurish, farzandlar ko‘rish) boshlaydi. Oila shakllanishi esa, o‘z o‘rnida nikoh va ajralish jarayonlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Demografiya nikoh evolyutsiyasi va uning aholining takror barpo bo‘lishidagi o‘rnini alohida o‘rganadi. Ajralish ya‘ni nikohning bekor etilishi ham aholi takror bo‘lishiga ta‘sir etuvchi demografik jarayon hisoblanadi. Demografiya ushbu jarayonni o‘rganar ekan, uning mavjudlik darajasiga ta‘sir etuvchi qator sabab va oqibatlarini atroflicha tahlil etadi. Demografiya aholining bir joydan ikkinchi joyga ko‘chishi – migratsiyasini ham o‘rganadi. Lekin bu jarayonni o‘rganishda, aholi geografiyasidan farqli ravishda, asosiy e‘tiborni migratsiya jarayonining hududiy xususiyatlariga emas, balki ushbu jarayon natijasida ro‘y beradigan - hududning demografik holatidagi o‘zgarishlariga qaratadi. Demografiyada oila asosiy ijtimoiy-demografik guruh sifatida o‘rganiladi. Oilani jamiyat taraqqiyoti davomidagi o‘rni, evolyutsiyasi, aholining takror barpo bo‘lishidagi asosiy faoliyati va uning o‘zgarib borish omillari, oqibatlari o‘rganilib, kelajak rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari aniqlanadi. 19 Ma‘lumki, aholi, tug‘ilish va o‘lim jarayoni natijasida mavjud bo‘lgan avlodlar almashinuvi yig‘indisidir. Inson mavjudligini ta‘minlovchi barcha demografik jarayonlar-tug‘ilish, o‘lim, nikoh va ajralish uning hayotidagi ma‘lum davrida, ya‘ni ma‘lum yoshida ro‘y beradi. Shuning uchun, yosh demografik jarayonlarni o‘rganishda asosiy mezon hisoblanadi. Insonning demografik va ijtimoiy holatida, o‘z hayoti davomida yosh va jins asosiy ko‘rsatgichdir. Aholining jinsiy tarkibi ham demografik holatga ta‘sir etuvchi asosiy, demografik tahlili lozim bo‘lgan mezonlardandir. Demografik bashoratlar ishlab chiqishda demografiya fani, birinchi navbatda o‘rganilayotgan hudud yoki ijtimoiy guruh aholisining demografik maylini (demografik jarayonlariga bo‘lgan munosabati) atroflicha tahlil etadi va ayni shu asosda demografik jarayonlarda

kelajakda kutilayotgan o'zgarishlarni ko'rsatib beradi. Demografik siyosat mazmuni va tadbirlarini ishlab chiqish juda mas'uliyatli va murakkab jarayondir. Ushbu yumushni bajarishda demografiya o'rganilayotgan davlat yoki alohida hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini, etnik xususiyatlari, urf-odatlarini va qadriyatlarini, demografik holatini mukammal o'rganishi lozim. Demografiya mustaqil fan sifatida o'z tadqiqot usullariga egadir. Ular jumlasiga tarixiy, taqqoslash, statistika, matematika, kartografik, mantiqiy fikrlash va sotsiologik uslublar kiradi. Demografiyaning tahlil uslubi statistikadan farq qiladi. Unda mavhum fikrlash uslubidan keng foydalanish asosida aholi tarkibida kelgusida ro'y beradigan miqdor va sifat o'zgarishlari ham o'rganiladi. Aholi muayyan ijtimoiy hayot tarziga bo'ysunishi tufayli, demografik jarayonlar ham muayyan ishlab chiqarish usuli va munosabatiga bog'liq bo'ladi. Aholi murakkab ijtimoiy va tabiiy rivojlanish maxsulidir, shu sababli aholi turli omillar zaminida ko'payadi. Bu jihatdan demografiya tahlil mavzui iqtisodiyot nazariyasi, sotsiologiya, psixologiya, matematika, statistika, ijtimoiy gigiena, geografiya, tibbiyot, tarix, etnografiya va boshqa fanlar tahlil mavzuiga yaqin bo'lib, shu fanlarning yutuqlaridan foydalanadi. Ayni vaqtda ularga qimmatli ma'lumotlar beradi. Demografiya har bir ijtimoiy-iqtisodiy tuzum aholisining ko'payish va rivojlanish qonunlarini alohida-alohida o'rganadi. Chunki har bir ijtimoiy-iqtisodiy format-siyaga xos aholi o'sish qonuni, demografik vaziyatga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Aholining takror barpo bo'lishi qonuniyatlarini o'rganar ekan, demografiya bir qator ilmiy yo'nalishlarga bo'linadi va bu yo'nalishlar demografiya fanlari tizimini tashkil etadi. Ularga nazariy demografiya, demografik statistika, tarixiy demografiya, etnik demografiya, iqtisodiy demografiya, hududiy demografiya, tahliliy demografiya va amaliy demografik tadqiqotlar kiradi. Demografiya aholini o'rganishda turli usullardan foydalanadi. Jumladan: tarixiy, taqqoslash, statistik, eksperimental, sotsiologik so'roq va aholi ro'yxatlarini tuzish. Demografiya fanining asosiy vazifalari: - Demografik jarayonlar va ularning omillarini o'rganish. - Demografik bashoratlarni ishlab chiqish. - Demografik siyosat chora tadbirlarini ishlab chiqish.

Demografiyaning ilmiy yo'nalishlari:

1. Nazariy demografiya.
2. Statistik demografiya.

3. Tarixiy demografiya.
4. Etnik demografiya.
5. Iqtisodiy demografiya.
6. Hududiy demografiya.
7. Tahliliy demografiya.
8. Amaliy demografik tadqiqotlar.

Demografik tarkiblar aholining, yosh, jins, professional (kasbiy) va boshqa har xil ijtimoiy qatlamlarining o'ziga xos xususiyatlarini qamrab olib, demografik statistika uchun asosiy manbalar hisoblanadi. Demografik tarkiblarning hisob-kitobi vaqtga bog'liq bo'lib, doimiy ravishda o'zgarib turishi tabiiydir. Shuning uchun har bir davr yoki hududlar aholisi tahlil qilinar ekan. Ularning o'ziga xosligini doimo yodda tutish lozim. Bunday o'ziga xosliklar esa tabiiy sharoit, siyosiy ijtimoiy voqealar, aholining oila va nikohga bo'lgan munosabati va davlatlarning demografik siyosati kabilardir. Demografik tarkiblar ichida avlodlar tushunchasi alohida ajratiladi.

Avlodlar tushunchasi juda ham nisbiy ma'noda bo'lib, bu tushunchani yoshga nisbatan, turli guruhlar va bu guruhlarning tutgan o'rniga qarab qo'llaniladi. Bir so'z bilan aytganda avlod tushunchasi ma'lum bir davr mobaynida turli hodisa va ijtimoiy voqelikka o'z ta'sirini ko'rsatuvchi guruhdir. 20 asrga kelib, demografiya fan sifatida ikkita asosiy yo'nalishda rivojlandi. Ulardan biri, demografiya'ni ng tadqiqot maydonini aniqlashtirish bo'lsa, ikkinchisi demografik jarayonlarga ta'sir ko'rsatuvchi omillar doirasining kengayishi bo'ldi. 1960 yillar o'rtalarida ko'pchilik mutaxassislar demografiyani ng predmetini aholining tabiiy harakati masalalari bilan shug'ullanuvchi fan sifatida chegaralab qo'ydi. Aholining tabiiy harakati – bu tug'ilish, o'lim, nikohga kirish va nikohdan ajralish natijasida aholi soni va tarkibining uzluksiz o'zgarib turishidir. Shuningdek, aholining tabiiy harakatiga aholining jins va yosh tarkibidagi o'zgarishlar kabi o'zaro bog'liq barcha demografik jarayonlar kiradi. Jumladan, 90-yillar boshida Evrosiyoda ko'plab mustaqil davlatlarning paydo bo'lishi oqibatida migratsiya jarayonlar sezilarli ravishda faollashdi. Bu, o'z navbatida, mintaqadagi barcha hududlar aholisining tabiiy harakatida o'zgarishlar sodir etdi. Yuqorida aytganimizdek, demografiya-aholining takror barpo bo'lish qonuniyatlarini o'rganuvchi fan hisoblanadi. Demografiya fan sifatida 17 asrning yarmidan so'ng shakllana boshladi. Aholining takror barpo bo'lishi-aholining miqdori va tarkibini doimo

tabiiy tarzda yangi avlodlar tomonidan keksa avlodlar o'zni to'ldirilishi orqali yangilanishidir. Har qanday fan obyekt doirasidagi voqelikning qonun va qonuniyatlarini ochib berish, uning tadqiqot maqsadi hisoblanadi. Shunga ko'ra, demografiya'ni ng predmeti aholi tabiiy takror barpo bo'lishining qonun va qonuniyatlarini o'rganishdan iborat. O'z navbatida, demografiya quyidagi fan tarmoqlariga bo'linadi. Demografik statistika – demografiya'ni ng tarixiy tarmog'i bo'lib, aholi takror barpo bo'lishining tarixiy qonuniyatlarini o'rganadi. Statistika demografiya'ni ng vazifalari aholining takror barpo bo'lishiga oid materiallarni to'plash va dastlabki qayta ishlash, demografik jarayonlarni statistik tahlil etish va kuzatish usullarini ishlab chiqishdan iborat. Matematik demografiya – demografik jarayonlarni modellashtirish va bashoratlash hamda ular o'rtasidagi aloqadorlikni o'rganishning matematik usullarini ishlab chiqish va tatbiq etish bilan shug'ullanadi. Demografik modellarga tug'ilish, o'lim, nikoh, ajralish jadvallarining aniqligi, stasionar va barqaror aholi modeli kabilar kiradi. Tarixiy demografiya – mamlakatlar va xalqlar tarixidagi demografik jarayonlar holati va dinamikasini o'rganadi. Demografiya fani tarmoqlari: Etnik demografiya – aholi takror barpo bo'lishining etnik xususiyatlarini tadqiq etadi. Xalqlar turmush tarzining etnik xususiyatlari, urf-odatlar, an'analari, oilaviy munosabatlar va tarkibi kabilar, aholining tug'ilish darajasi, o'rtacha umr ko'rishi va salomatligi holatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiy demografiya – aholi takror barpo bo'lishining iqtisodiy omillarini tadqiq etadi. Iqtisodiy omillar deganda, jamiyat hayotining barcha iqtisodiy shartsharoitlari hamda ularning tug'ilish, o'lim, nikohlanish darajasiga, aholining o'sish darajasiga ta'siri tushuniladi.

Demografiya fani tarmoqlari:

Demografiya statistikasi;

Matematik demografiya;

Tarixiy demografiya;

Etnik demografiya;

Iqtisodiy demografiya;

Ijtimoiy demografiya.

Ma'lumki, mamlakatimiz o'z mustaqilligi yo'lidan barqaror rivojlanishida davom etayotgan bugungi kunda etishtirilayotgan va ishlab chiqarilayotgan moddiy ne'matlar birinchi navbatda inson manfaati uchun, ya'ni uni himoya qilish, muhofaza etish, ijtimoiy-

iqtisodiy turmush darajasini yuksaltirishga yo'naltirilgan. Jumladan, demografik jarayonlar ham mamlakatimiz aholisining hayotiga bevosita o'zining ta'sirini ko'rsatadi. Shuningdek, mamlakatimizdagi demografik jarayonlar tarixi ham uzoq davrlar davomida Markaziy Osiyodagi qolaversa, butun Yevrosiyodagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy jarayonlar bilan bog'liq bo'ldi. Umuman, demografik jarayonlar tadqiqoti bilan 19 asrdan Oktabr to'ntarishiga qadar rus olimlari V.S.Poroshin (1840), Yu.E.Yanson (1880), P.Okeppen (1890), B.P.Kodomsev, A.Kotelnikov, G.S. Pollyak, birinchi va ikkinchi jahon urushlari oralig'ida (1917-1945) D.Bozin, A.Ya.Boyarskiy, V.K.Vobley, N.Ya.Vorobev, A.I.Gozulov, E.O.Slutskiy, Dj.Uippl kabi olimlar shug'ullanishgan. Demografik jarayonlar tarixi ham insoniyat tarixi bilan chambarchas bog'liqdir. 20 asr boshlariga qadar bo'lgan dunyoning turli mintaqalaridagi kichik urushlar davrida ham aholi qisman aralashgan. Bu jarayonlarni turli tadqiqot namoyondalari turlicha, ya'ni tilshunoslar til oilalarining shakllanishi, tarixchilar davlatlarning paydo bo'lishi, madaniyat rivojlanish bosqichlarini tadqiq etuvchilar turli davr madaniyatining rivojlanish davri bilan bog'lab o'rganadilar. Demografik jarayonlar taraqqiyoti bevosita hududlarning kashf etilishi, ya'ni Buyuk geografik kashfiyotlar bilan bog'liq bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Albatta, hamma tarixiy davrlarda bir qit'aga mansub aholining ikkinchisiga ko'chishiga ma'lum sabablar o'z ta'sirini ko'rsatgan. Jumladan, XVIII asr oxiriga qadar Avstraliya ma'lum bo'lmagan davrda yevropaliklar dastlab Amerikaga, keyinchalik rudali konlarga yoki qimmatbaho metallarga boy mintaqalarga, Afrikaga borishga boylik orttirishga intilishgan. Umuman, XVIII asr oxiriga qadar butun dunyo xalqlarining yangi yerlarni o'zlashtirishga intilishi yuqori bo'ldi. Shuningdek, XVII-XVIII asrlarda ruslar ham Shimoli-sharqiy Osiyo bo'ylab yurishda davom etdi. Bu davrda ispanlar va portugallar asosan, Markaziy va Janubiy Afrikani egallashga harakat qilishdi. Albatta, bu davrdagi koloniyalarni tashkil etish bilan bog'liq yurishlarga tabiiy va iqlimiy omillar ham o'z ta'sirini ko'rsatgan, ya'ni iqlimi yashash uchun qulay bo'lgan serunum, hosildor erlarga ega bo'lishga intilishgan. Asta-sekin bu jarayonlar bevosita davlatchilikning aralashuvi, ba'zi diplomatik munosabatlarning shakllanishiga sabab ham bo'lgan. Jumladan, A.Gumboldt (1799- 1804) ekvatorial davlatlar bo'ylab sayohatga chiqish uchun Ispaniya hukumatidan maxsus ruxsat olgan. Keyinchalik, Germaniyada emigrantlarni ro'yxatga olish

an'anaviy tus olgan (1832 yilda Berlinda, 1846 yilda Gamburgda v.b.). Demografik vaziyatlarni obyektiv baholash uchun 1970-1980 yillardagi demografik inqilob jarayoniga e'tibor qaratish lozim. Demografik inqilob nazariyasini dastlab (1934 yil) A.Landri ilgari surdi va keyinchalik bu borada tadqiqotlarining rivojlanishiga asos soldi. So'ngra uning taraqqiyotiga uzoq xorij olimlaridan F.V.Notsteyn (1953); Z.Pavlik (1964, 1979); V.S.Tompson (1942), rus olimlaridan A.G.Vishnevskiy 1973, 1976, 1982, A.Ya.Kvasha (1974), V.Ts.Urlanis (1974), demografik taraqqiyotning zamonaviy konsepsiyasining shakllanishiga o'zlarining ilmiy ulushini qo'shdilar. Bu konsepsiyaga muvofiq, aholining qayta barpo bo'lishi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy sotsiopsixologik rivojlanishi kabi murakkab omillar majmuasi bilan bog'liq bo'lishini va tizimli bosqichlar asosida rivojlanishini asosladilar. Bugungi kunda bu olimlarga yana ikkita asosiy geosiyosiy va ijtimoiy ekologik omillar dolzarbligi ahamiyat kasb etmoqda. BMT ekspertlarining qarashlariga ko'ra, demografik o'tish davrini 4 ta fazaga ajratishi mumkin. Avvalo o'lim koeffitsienti tug'ilish koeffitsientiga nisbatan tez tushib ketadi. Natijada, tabiiy o'sish koeffitsienti toki maksimal darajaga etguncha o'sadi. Keyin tug'ilish koeffitsienti o'lim koeffitsientiga nisbatan tezroq pasayadi. Bu jarayon o'lim koeffitsienti minimal darajaga etguncha davom etadi. Keyin tug'ilish koeffitsienti sekin tempda pasaya boradi. Bunda o'lim koeffitsienti aksincha ko'tariladi va nihoyat tug'ilish qayta barpo bo'lish darajasigacha pasayadi. Bunda tug'ilish koeffitsienti oxirgi turg'un darajaga yaqinlashib qoladi. Shunda o'lim koeffitsienti bir necha martaga oshishi bilan tasniflanadi. Bu konsepsiya AQSH va Yevropa davlatlari ilg'or demografik munosabatlari umumiy qonuniyatlari asosida paydo bo'ldi. Ayniqsa, 2-jahon urushidan keyingi demografik jarayonlardagi o'zgarishlar mazkur konsepsiyani tasdiqladi. Uning tasdiqlanishi rivojlanayotgan davlatlardagi demografik jarayonlarni boshqarishda qo'l keldi. M.S.Betniy (1972) ning ta'kidlashicha, bunda aholining o'rtacha umr ko'rishi muhim o'rin tutgani holda, tug'ilish shu darajada kamayadiki, natijada aholining umumiy o'lim koeffitsienti aholi tug'ilish koeffitsientining o'sishiga sabab bo'ladi. Umumiy holatda aholi soni kamayadi. Agar ko'rsatilgan demografik vaziyatda o'zgarish yuzaga kelsa, aholining ko'payishiga boshqa omillar o'z ta'sirini ko'rsatadi. Jumladan, 1990 yillarda keyingi Rossiya aholisining qayta barpo bo'lishida shunday o'zgarish sodir bo'ldi. Shunday qilib,

A.Landri (1934) tomonidan kiritilgan “demografik inqilob” tushunchasi hozirgi paytda aholi qayta barpo bo‘lishining samarali harakati sifatida izohlanadi. Bu yondashuv A.G.Vishnevskiyning 1976 hamda 1982 yillardagi monografiyalarida keng yoritilgan bo‘lib, unda aholi qayta barpo bo‘lishi 3 ta asosiy tarixiy tipga ajratiladi: arxeotip, an’anaviy va zamonaviy tiplar. Unga ko‘ra, bir tipdan ikkinchisiga o‘tish inqilobiy bosqich sifatida izohlanadi. Aholining qayta barpo bo‘lishi haqidagi prognozlar o‘tgan asrning 80-yillarida ko‘p variantli tus oldi. Shulardan bevosita hozirgi Markaziy Osiyo mamlakatlari haqidagi tadqiqotlar D.Veresev ishlaridan o‘rin egallagan.

## 10.2. Demografik siyosat xususiyatlari

Demografik siyosat-aholi siyosatining asosiy qismi bo‘lib, jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlari va turli davlatlarda o‘ziga xos xususiyatlarga, yo‘nalishlarga egadir. Aholi siyosati demografik siyosatga nisbatan birmuncha keng qamrovli bo‘lib, aholini rivojlantirish maqsadida olib botiladigan ijtimoiy-iqtisodiy siyosat yo‘nalishi hisoblanadi. Aholining rivojlanishi esa, o‘z maqsadida uning ham miqdoriy ham sifatijihatlarining o‘zgarib borishida namoyon bo‘ladi. Aholining miqdoriy rivojlanishi deganda muayyan davrda, muayyan hudud aholisining yoki millatining son jihatidan o‘zgarib borishi tushiniladi. Aholining sifatijivojlanishi esa, asosan uning salomatligi, o‘rtacha umr ko‘rishi, bilim darajasi va muayyan tarbiya olishi komilligida o‘z ifodasini topadi. Aholi rivojlanishi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining uzviy qismi bo‘lib, u o‘z ichiga asosan oilani va oila muhitini qamrab oladi. Keyinchlik sanoat asta-sekin rivojlanib borishi natijasida mehnatga tayyorlashda maxsus bilimlar, maxsus faoliyat zarur bo‘lib qoldi. Bu zarurat davlatda ta‘lim tizimini yanda rivojlantirishda, yoshlarga maxsus bilim berib, kasb-hunar o‘rgatishga extiyojni yaratdi. Natijada, o‘lkamizda ta‘lim tizimi tashkil topdi va rivojlandi. Hozirgi davrda O‘zbekistonda aholi siyosatining asosiy maqsadi uning sifatijivojlanishini tashkil etishdan iboratdir.

Aholining sifatijivojlanishi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- aholi salomatligining holati, bolalar va onalar o‘limi, o‘rtacha umr ko‘rish davri;
- aholining ta‘lim darajasi va uning tarkibi;

- aholining kasb-hunarga tayyorlik darajasi;
- aholining sotsial tarkibi va sotsial mobilligi;
- aholining urbanizatsiyalshganligi;
- aholining hududiy harakati;
- aholining ma'naviy madaniy qadriyatlari va ularni saqlash, e'zozlash.

Respublikada aholi siyosati o'zaro chambarchas bog'langan bo'g'inlardan tashkil topgan. Ushbu bo'g'inlarga demografik siyosat, aholi migratsiyasi, urbanizatsiya va bandlik siyosatlarini kiritish mumkin.

Demografik siyosat aholi siyosatining uzviy qismi bo'lib, uning asosiy maqsadi – aholini miqdoriy rivojlanishi bosqichlaridan iboratdir. Demografik siyosatning asosiy obyekti aholining takror barpo bo'lish jarayoni hisoblanadi.

Demografik siyosat orqali kutilgan, istalgan aholi takror barno turiga erishiladi. Ma'lumki aholi takror barno bo'lishi tug'ilish, o'lim, nikoh, ajralish kabi demografik jarayonlar bilan bevosita bog'liqdir. Shu bois ushbu jarayonlarni siyosat yo'li bilan jamiyat tomonidan boshqarilishi ham demografik siyosat vaziyatlari-dandir. Jamiyat taraqqiyotiga nazar tashlasak, demografik jarayonlarni, ayniqsa tug'ilish, nikohni jamiyat tomonidan boshqarilganligining guvohi bo'lamiz. Hatto bu haqida eng qadimgi olimlar Aflotun va Aratsu asarlarida ham uchraydi.

Qadimgi Rimda ozod insonlar o'rtasidagi tug'ilish va nikohni qo'llab-quvvatlovchi qonunlar qabul qilingan. Feodal jamiyatda esa din tomonidan shunday qattiq qonunlar yaratilganki, ularda nikoh, cheklanmagan tug'ilish va katta oilalar aholini muntazam ko'payib borishining omili sifatida himoya qilingan, qo'llab-quvvatlangan Yevropadagi kapitalistik ishlab chiqarish usulining rivojlanishi esa demografik jarayonlarda yangi muammolarini, yo'nalishlarni kelib chiqishiga sabab bo'ldi. Sanoatni rivojlanishini shahar turmushi tarzini kengayishi, ayollarni ijtimoiy ishlab chiqarishda ishtirok etishi tufayli, oilada farzandga bo'lgan talab kamaydi. Ko'p bolali ayollarda, kapitalistik ishlab chiqarish sharoitida qator iqtisodiy muammolar vujudga keldi, natijada, tug'ilish o'z-o'zidan kamaya boshladi. Kapitalistik ishlab chiqarish usuli rivojlangan Fransiya va boshqa Yevropa davlatlarida tug'ilish XIX asrning birinchi o'n yilligidan

boshlab kamaya bordi. Ushbu davlatlarda XX asirga kelib aholini tabiiy o'sish sur'ati nihoyatda kamayib ketdi.

Aholining takror barpo bo'lishi kengaygan turga qisqargan turdan o'tdi. Natijada, bu davlatlarda aholi qarishining "Demografik qarish" jarayoni sodir bo'ldi. Bu ham davlat tomonidan maxsus demografik siyosat olib borishni taqozo etdi. 1946 yilda Fransiyada tug'ilishni ko'tarish orqali aholi miqdori ko'payishiga erishishi maqsadida oilalarga birinchi, ikkinchi, va ayniqsa, uchinchi farzandlarining tug'ilishida alohida nafaqa ajratildi. 1960-1970 yillarda tug'ilishni ko'tarish maqsadida demografik siyosat boshqa rivojlangan davlatlarga ham olib berildi. Lekin ushbu davlatlardagi siyosiy mulkchilik shakli tug'ilishni ko'paytirish uchun barcha chora-tadbirlarni qo'llashda ayrim muammolarni keltirib chiqarar edi. Shu bois Yevropadagi rivojlangan davlatlarda tug'ilish darajasini ko'tarib, maqbul va normal holatga keltirish g'oyat mushkul bo'lmoqda. Rivojlanayotgan davlatlarda esa aksincha, 1960-1990 yillarda tug'ilishning yuqori darajada turganligini va o'lim hollarining keskin kamayganligi natijasida aholining tibbiy o'sishi g'oyat yuqori darajada bo'ldi. Natijada Osiyo, Afrika va janubiy Amerikada joylashgan qator rivojlanayotgan davlatlarda aholi soni birdan ortib ketdi. Bu holatni demografiya bo'yicha mutaxassislar "Demografik portlash" deya atadilar. Ushbu davlatlarda iqtisodiy imkoniyatlar cheklangan bo'lib, aholisining bunday tez ko'payishi tug'ilish sonini cheklashga majbur etdi. Natijada, rivojlanayotgan davlatlarga davlat tomonidan "oilani rejalashtirish", ya'ni "tug'ilishini nazorat etish" borasida demografik siyosat olib boriladi. Jumladan, Xitoyda bir oilaga bir bola siyosati olib boriladi<sup>128</sup>.

Demografik siyosat o'tkazish uslublarini shartli ravishda uch yo'nalishga ajratish mumkin:

- *Iqtisodiy*
- *Ma'muriy-huquqiy*
- *Ijtimoiy-psixologik*

Iqtisodiy uslub asosan tug'ilish darajasi pasayib ketgan aholining takror barpo bo'lishi aholi ko'payishini ta'minlay olmagan hollarda qo'llaniladi. Bu uslubda davlat tomonidan homilador ayollarga (ma'lum davrda) u farzand ko'rganidan keyin va farzandi 2-9 yoshga yetgunga qadar maxsus nafaqalar ajratiladi, birinchi, ikkinchi, uchunchi

<sup>128</sup> Xidiraliyev K.E. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari. –Guliston.–2019, – B.132.

farzandlarga iqtisodiy yordam beriladi. Ko'p bolali oilalarga ham iqtisodiy yordamlar berib boriladi.

Ijtimoiy ishlab chiqarishda ishtirok etuvchi yosh bolali ayollarga ish joylaridan muayyan imtiyozlar beriladi, ularga ham farzandlarini tarbiyalab, ham ijtimoiy faoliyatlarini davom ettirish uchun sharoit yaratiladi. Shuningdek ayrim davlatlarda kam ta'minlangan oilalarga ham iqtisodiy yordam ajratiladi. Tug'ilishni ko'tarish borasida olib boriladigan iqtisodiy uslubni yana biri yangi nikohdan o'tgan yosh oilalarni turar-joy bilan ta'minlash borasida davlat tomonidan beriladigan imtiyozlar. Shuningdek, bolalar kiyimlari oziq-ovqatlarini arzon narxda sotish maktabgacha tarbiya muassasalari faoliyatining sifatini yaxshilash bolalar va onalar salomatligini davlat tomonidan muhofaza etilishi aholiga maishiy xizmat ko'rsatish qabilalarning ham aholi takror barpo bo'lishiga ijobiy ta'sir etuvchi iqtisodiy omillar hisoblanadi.

Ma'muriy-huquqiy uslubga aholi takror barpo bo'lishi, oilalar tashkil topishiga turli qonunlar orqali ta'sir ko'rsatish kiradi. Jumladan, abort (homilani suniy yo'l bilan yo'q qilish) larni qonun bilan man etilishi, nikoh yoshining ko'tarilishi, aholi migratsion harakatini cheklash, yoki rivojlantirish oila buzilganda, er va xotin ajralishganda ona va bola huquqlarining qonuniy himoyasi, bolani ota-ona oldidagi burchini qonuniy belgilash, homilador ayolni ishga qabul qilishda, yoki ishdan bo'shatishda ular huquqlarini qonuniy himoyasi, nafaqa ajratishda bolalar sonini hisobga olish kabi jarayonlardir.

Ijtimoiy-psixologik uslub, yoki aholini "demografik tarbiyalash". Aholini demografik tarbiyalashda avvalo yosh avlodda oilaga, oilada kutilayotgan farzandlar soniga bo'lgan munosabatini davlat ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotiga, aholi salomatligiga mos ravishda shakllantirish lozim. Bunda oila asosiy tarbiya o'chog'i hisoblanadi. Shuning uchun ham ota-onalarning "demografik savodliligi" ga jiddiy etibor berilmog'i iozim. Demografik tarbiyaning yana bir muhim o'chog'i –ommaviy axborot vositalari orqali demografik mayliga ta'sir etish mumkin. Demografik siyosat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning ajralmas qismi bo'lmog'i lozim. Shundagina aholini ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarini aks ettirgan holda rivojlanib boradi.

O'zbekistonda demografik siyosatning barcha usullaridan foydalaniladi. Ayniqsa, ijtimoiya-psixologik usullaridan keng foydalanilmoqda. Respublikamizda yuritilayotgan demografik siyosat natijasida aholining o'sish sur'ati so'nggi 20 yil ichida 3 foizdan 1,5

foizgacha pasaydi. Bunda aholi o'rtasida tushintirish, targ'ibot ishlari olib borilmoqda. Demografik siyosat yuritishda ommaviy axborot vositalaridan keng foydalaniladi. Bunda respublikamiz aholisiga farzand ko'rishni rag'batlantirish hamda muhofaza qilish bilan birga "Normal oila", "so'glom farzand" tushunchalari tushuntirib boriladi. O'zbekiston Respublikasi "oila kodeksi" da belgilangan qonunlar asosida oilalar barpo qilinmoqda va davlatimizning ijtimoiy-iqtisodiy muhofazasi ta'minlanmoqda.

### 10.3. Aholi migratsiyasi

Migratsiya so'zi lotincha so'zdan olingan bo'lib, ko'chish degan ma'noni anglatadi. Kishilarning yashash ishlash, o'qish maqsadida, ma'muriy chegaralardan o'tgan holda, bir manzilgohdan ikkinchi manzilgohga doimiy yoki muayyan muddatga ko'chishi migratsiya deyiladi. Demak, aholining hududlar bo'ylab harakati aholi migratsiyasini ifodalaydi. Migratsiyada ishtirok etgan kishilar esa "migrantlar" deb ataladi. Migratsiya yo'nalishiga binoan tashqi va ichki migratsiyaga bo'linadi. Tashqi migratsiya – aholining bir davlatdan ikkinchi davlatga, bir qit'adan ikkinchi qit'aga ko'chishidir. Bu jarayonda davlatlar aholisi qayta taqsimlanadi va ularda aholining kamayishi va ko'payishi kuzatiladi. Ichki migratsiya bir davlatning ichida aholining hududlar bo'ylab ko'chishidir. Bunday migratsiyada muayyan davlat ichida shahar va qishloq, tumanlar bo'ylab aholining qayta taqsimlanishi sodir bo'ladi. Lekin shu davlat aholisining umumiy soni o'zgarmaydi. Aholi migratsiyasi o'z mohiyatiga ko'ra uch turga, ya'ni doimiy, vaqtincha (mavsumiy) va tebranma (mayatniksimon) migratsiyaga bo'linadi. Doimiy migratsiya BMT ta'rifiga binoan aholining bir joydan ikkinchi joyga ko'chib, bir yildan ko'p yashab qolishidir. Vaqtincha migratsiya esa aholining bir joydan ikkinchi bir joyga ko'chib, ma'lum muddat yashab qaytishidir. Vaqtincha migratsiyaga aholinng o'qish, armiya xizmati, shartnoma asosida ishlash uchun vaqtincha yashash joyini o'zgartirishini kiritish mumkin. Tebranma migratsiyada kishilar bir manzilgohdan boshqa bir manzilgohga ishlash yoki o'qish maqsadida har kuni yoki bir haftada qatnashidir. Ushbu migratsiya aksariyat hollarda urbanizatsiya sharoitida rivojlanib boradi. Tebranma migratsiyani asosiy yo'nalishi qishloqdan shaharga, kichik shaharlardan

katta shaharlarga tomon bo‘ladi. Ilmiy manbalarda aholining bir joydan ikkinchi joyga bo‘lgan harakatini, ya’ni ko‘chishini ifodalashda “Aholining migratsion harakati”, “Aholining mexanik harakati”, “Emigratsiya”, “Imigratsiya”, “Remigratsiya” tushunchalaridan foydalaniladi. “Aholining migratsion harakati”, “Aholining mexanik harakati”, tushunchalari asosan bir jarayonni - aholini ko‘chishini ifodalaydi. Emigratsiya aholining ma’lum davlatdan ko‘chib ketish jarayoni bo‘lib, ularni, ya’ni ko‘chib ketganlarni emigrantlar deyiladi<sup>129</sup>. Imigratsiya ma’lum davlatga aholining ko‘chib kelish jarayoni bo‘lib, ko‘chib kelganlarni immigrantlar deyiladi. Aholining ko‘chib ketgan davlatiga yana qaytib ko‘chib kelishi remigratsiya jarayoni hisoblanadi. Shuni alohida qayd etish lozimki, “Emigrant” va “Immigrant” tushunchalari uchun xalqaro yagona ta’rif mavjud emas. Bu tushunchalar bo‘yicha har bir davlatning o‘z mezonlari bordir. Jumladan, Bolgariyada “immigrant” shu davlatga joylashish maqsadida boshqa davlatdan kelganlar, “emigrant” esa-Bolgariyani butunlay tashlab boshqa davlatga yashash uchun ketganlar. Polshada - oldin xorijda, ya’ni boshqa davlatda yashab, keyinchalik shu davlatga doimiy grajdanlik uchun kelganlar “immigrantlar” deb, Polshani butunlay tashlab ketganlar esa “emigrantlar” deb ataladi. Rosiyada ishlash yoki o‘qish maqsadida 1,5 yildan ko‘p muhlatga kelganlar va ularning kuzatuvchilari «immigrantlar deb, o‘qish yoki ishlash uchun 1,5 oydan ko‘p muhlatga boshqa davlatga ketganlar «emigrantlar» deb ataladi.

AQSHda qonuniy asosda boshqa davlatlardan doimiy yashash maqsadida AQSHga kelganlar “immigrant”lar deb “ataladi”, “emigrant”larga esa ta’rif yo‘q. Aholining migratsion harakatiga ko‘plab omillar ta’sir etishi mumkin. Ularga ijtimoiy, siyosiy, milliy, diniy, ekologik, harbiy va demografik omillarni kiritish mumkin. Umuman xalqaro migratsiya olti guruhga ajratiladi: 1.Oilaviy va boshqa sabablarga ko‘ra, doimiy yashash maqsadida bir davlatdan ikkinchi davlatga ketgan emigrantlar; 2.Migrant mehnatkashlar; 3.Nolegal imigrantlar; 4.Qochoqlar; 5.Studentlar, stajer-tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar va o‘qituvchilar; 6.Turli maqsadda ko‘chib yuruvchi turistlar, dam oluvchilar, anjumanlarga qatnashuvchilar va h.k. Hozirgi xalqaro migratsiyada asosiy o‘rinni mehnat migratsiyasi egallaydi. Chunki hozirgi davrda insonning yashashi uchun iqtisodiy omilning ahamiyati kuchaydi. Dunyoda va uning alohida hududlarida jamiyat

<sup>129</sup> Xidiraliyev K.E. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari.- Guliston.-2019, – B. 138.

taraqqiyotining ma'lum bir tarixiy davrlarida turli ijtimoiy guruhlaridagi migratsion harakatni o'rganishda migratsiya ko'rsatkichlaridan foydalaniladi. Ayniqsa migratsiya jarayonini demografik nuqtayi nazardan o'rganilganda uning ko'rsatkichlari atroflicha tahlil etiladi.

Migratsiya ko'rsatkichlari:

1.Migratsiyaning absolut va nisbiy son ma'lumotlari;

2.Migratsion harakatning intensivligi yoki koeffitsienti (ma'lum hududda yashovchi aholida har 100 kishiga to'g'ri keluvchi migrantlar soni);

3.Migratsiya saldosi (bir yil davomida ko'chib kelgan aholi bilan, ko'chib ketgan ahotlining ayirmasiga) teng.

Migratsiya saldosi manfiy yoki musbat bo'ladi va u absolut (Jumladan yiliga 3000 kishi) hamda nisbiy ko'rsatkichlarda (100 va 1000 kishi hisobiga) ifodalanadi.

Ma'lumki migratsiya aholi ko'chib kelgan hududning ham, ko'chib ketgan hududning ham demografik holatiga ta'sir qiladi. 1980 yillarda aholi o'sishida tashqi migratsiyaning roli AQSH, Kanada, Fransiya, Avstraliya kabi davlatlarda o'rtacha 25 foizni tashkil etgan. Boshqacha so'z bilan aytilsa, yuqorida qayd etilgan davlatlarda aholi o'sishining 1/4 qismini imigrantlar tashkil etgan. Migrantlar oqimi yo'nalgan hududlarda, migratsiya saldosi ijobiy, ya'ni ko'chib kelganlar soni, ko'chib ketganlar sonidan ortiq bo'ladi. Natijada bunday hududlarda aholi soni o'sib boradi. Bu hol o'z navbatida nikoh holatiga, oilalar miqdorining oshib borishiga, tug'ilish jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Aholi ko'chib ketayotgan hududlarda esa yoshlar salmog'i, jami aholi tarkibida kamayib boradi, mehnat yoshidan katta bo'lgan aholi salmog'i esa ortib borib, hududning demografik holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Aholining bir ijtimoiy-iqtisodiy muhitdan ikkinchi muhitga o'tishi uning demografik mayliga (nikohga kirish va oila qurishiga, oiladagi farzandlar soniga, oila mustahkamligiga munosabati va h.k.) bevosita ta'sir etadi. Shuningdek, aholi migratsiyasi mehnat resurslari shakllanishida ham muhim omillardan hisoblanadi. Migrantlar oqimi aholining yosh jinsiy tarkibida o'z aksini topadi. Mehnat resurslari ortib boradi. Natijada qator muammolar yuzaga keladi yoki aksincha mehnat resurslarining kamayib ketish hollari ham yuzaga kelishi mumkinki, bu ham muayyan muammolarga sabab bo'ladi.

O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimiga qo'shilishi uni jahon mehnat bozorida ham faol

qatnashishini taqozo etadi. Iqtisodiyotni isloh qilishning dastlabki yillaridagi o'zgarishlar, demografik vaziyatning murakkabligi O'zbekistonni ishchi kuchini eksport qiluvchi davlatga aylantirishi mumkin. Shu bilan birga boshqa xorijiy mamlakatlardan yuqori malakali ishchi kuchini jalb qilish imkoniyatlari ham mavjud. Sobiq Ittifoqning boshqa respublikalari kabi O'zbekistonda ham aholining tashqi migratsiyasi ikki oqimda ro'y bermoqda:

– mehnat migratsiyasi, ya'ni qaytib kelish va fuqarolikni qayta saqlash sharti bilan;

– etnik migratsiya, ya'ni qaytib kelmaslik va fuqarolikni saqlamaslik sharti bilan.

Hozirda O'zbekistonda jahon mehnat bozorida faol qatnashishni ta'minlovchi tashkiliy-huquqiy asoslar shakllanmoqda va bu sohadagi davlat siyosati amalga oshirilmogda.

Hozirgi paytda xalqaro mehnat tashkilotiga 180 dan ortiq davlat, jumladan O'zbekiston Respublikasi ham a'zo bo'lib, tashqi mehnat migratsiyasi sohasida davlat siyosatini ishlab chiqishda ushbu tashkilot qabul qilgan hujjatlarga amal qilmoqda. Xususan, Respublikamizda "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Mazkur qonunda O'zbekiston fuqarolarini chet ellarda o'z kasbi bo'yicha shug'ullanish huquqi, mamlakat tashqarisida ularni huquq va manfaatlarini himoya qilish, ishga joylashtirishni tartibga solish va bu jarayonni muvofiqlashtirish borasida davlatning javobgarligi mustahkamlab qo'yilgan. Hozirda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari xorijiy davlatlarda o'z kasblari bo'yicha mehnat faoliyatlarini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 14 iyuldagi "Ishchi kuchlarini olib kelish va tashqariga olib chiqish masalalarini tartibga solish to'g'risida" gi qaroriga va shu bilan tasdiqlangan Nizomga asosan amalga oshirmogdalar. O'z navbatida mamlakatga kelish va mamlakatdan chiqib ketish to'g'risidagi, xorijda ishlayotgan O'zbekiston fuqarolarini huquq va manfaatlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun loyihalari tayyorlanmogda.

Shuningdek, O'zbekistonda tashqi migratsiya sohasidagi siyosatni tashkiliy jihatdan ta'minlash ishlari ham amalga oshirilmogda. Shu maqsadda Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi qoshida muhojir-mehnatkashlar ishlari bo'yicha respublika agentligi tuzilgan. Bu tashkilot vazirlikning qaroriga binoan, ishchi kuchini eksport qilish uchun xorijiy sheriklar bilan bitimlar va shartnomalar tuzadi, chet

ellarda ishlash uchun mutaxassislarni tanlaydi, ularni jo‘nab ketishlarini tashkil qiladi, shartnoma shartlarini bajarilishini nazorat qilib boradi va h.k. Respublikada fuqarolarning tashqi mehnat faoliyati litsenziyalar yordamida boshqarilib boriladi. Fuqarolarni ishga yollash va xorijda ishga joylashtirish bilan shug‘ullanuvchi barcha jismoniy va yuridik shaxslar yoki xorijiy ish beruvchilar bilan xususiy ravishda shartnoma tuzilgan fuqarolar hamda ishlash uchun O‘zbekistonga kelayotgan chet el fuqarolari tegishli davlat idoralaridan ruxsatnoma (litsenziya) olishlari lozim. Xulosa qilib aytganda, yuqorida qabul qilingan huquqiy, tashkiliy-iqtisodiy xususiyatga ega bo‘lgan hujjatlar, tashqi mehnat migratsiyasi sohasida davlat siyosatining asosiy vazifalarini hal etishga yo‘naltirilgan, ya’ni milliy mehnat bozorida ishchi kuchi kasb-malaka tarkibini muvozanatga keltirishga, xorijda ishlayotgan, yashirin tashqi mehnat migratsiyasining oldini olishga va boshqalarga qaratilgan.

Ayni vaqtda O‘zbekistonda mehnat bozorini axborot usulik bazasi shakllanishiga qarab, davlat migratsiya xizmatini yanada kengaytirish bilan bir qatorda shunday vazifani bajaruvchi muqobil xizmatni ham rivojlantirish choralari izlashmoqda. Respublika ko‘lamida urbanizatsiya yuqori bo‘lgan Namangan viloyatida shaharda ish bilan band bo‘lganlar ulushi ancha yuqori. Agar qishloq aholisini ish bilan bandligi viloyatlar bo‘yicha o‘rganib chiqiladigan bo‘lsa, bu sust urbanizatsiyalashgan Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida yuqori ekanligi ayon bo‘ldi. Umuman olganda, mamlakat hududi bo‘yicha ish bilan band bo‘lganlarning taqsimlanishi ishlab chiqarish kuchlarining hududiy tuzilmasini aks ettiradi. Respublika bozor munosabatlariga kirishi davomida ishlab chiqarishda mehnatni tashkil etishning yangi shakllari tobora ko‘proq rol o‘ynaydi. Bu aholini ish bilan ta‘minlashni o‘shishiga olib keladi. Bozor munosabatlarining rivojlanishi ijtimoiy ishlab chiqarish sohalari o‘rtasida va ularning ichidagi emas, balki mulkchilik shakllari va mehnatni tashkil etish turlari hamda mamlakat hududlari o‘rtasida ish bilan bandlarini qayta taqsimlanishiga ko‘maklashadi. Ta’kidlash joizki, faoliyat shakllari va mulkchilik shakllari bo‘yicha ish bilan bandlikni taqsimlanishi o‘rganib chiqilayotgan davrda bir qancha omillar, shu jumladan, iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlar, davlat tasarrufidan chiqarish, xususiylashtirish, ishlab chiqarish kuchlarining hududiy joylashishining o‘zgarishi, demografik vaziyat va boshqalar ta’sirida o‘zgaradi.

Noishlab chiqarish sohasida ish bilan bandlikni eng umumiy tendentsiyalari quyidagilardan iboratdir:

-moliyaviy resurslar etishmasligi (ilm-fan va ilmiy xizmat ko'rsatish, madaniyat va san'at, boshqaruv) tufayli kelib chiqqan ish bilan bandlik darajasi oshishining unchalik yuqori emasligi;

-byudjetdan moliyalashtirishdagi qiyinchiliklarga qaramay, ish bilan bandlik darajasini asosan saqlanib qolishi (sog'liqni saqlash, ta'lim);

-jamiyat uchun nihoyatda zarur sohalarda (uy-joy kommunal xo'jaligi, aholiga maishiy xizmat ko'rsatish va boshqalar) ish bilan bandlikning kengayishi sababli xodimlar sonining ko'payishi. Ma'lumki, O'zbekiston tub aholisining migratsiyasiga moyilligi juda kam. Mahalliy aholi ayniqsa, xorijiy mamlakatlarga ko'chishga intilmaydi. Aholining migratsiyasiga kam moyillik xususiyatlari Sobiq Ittifoq davrida aniq maqsad sari yo'naltirilgan. Bu davlatning "temir parda" hamda "yopiq eshiklar" o'z aksini topib, yanada mustahkamlandi. Sovet davridagi milliy respublikalardagi migratsiya jarayonlarini ko'chadagi bir tomonlama harakatga o'xshatsa bo'lardi. Markaziy Osiyo respublikalari, jumladan, O'zbekiston, Sobiq Ittifoqning boshqa respublikalariga nisbatan, sovetlar mustamlakasi davrida kuchli migratsiya bosqinchiligiga muhtalo etildi. Markaziy Osiyo davlatlariga, shu jumladan, O'zbekistonga muntazam ravishda turli yillar va davrlarda ruslar, ukrainlar, yahudiylar, tatarlarning katta oqimi jo'natilib turildi. Respublikaga zo'rlab turli xil xalq vakillari koreyslar, nemislar, qrim tatarlari, mesxetiya turklari, chechenlar ko'chirilib keltirildi. O'zbekistonda 1970 yilning ikkinchi yarmidan boshlab, yangi yo'nalish, ya'ni aholining respublikadan ko'chib ketishi kuzatila boshlandi. Ushbu jarayon yildan yilga ko'paya borib, 1990 yilda o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqdi. O'sha yili davlat organlari tomonidan rasmiy ravishda qayd qilingan migratsiyaning manfiy qoldig'i – 140 ming kishini tashkil qildi. Keyingi yillarda esa u asta-sekin kamayib bordi. 1999 yil bundan mustasno bo'lib, migratsiyaning manfiy qoldig'i keskin ko'tarilib ketdi. O'zbekistonda o'tgan asr 80-yillari oxirigacha Sobiq Ittifoq respublikalari o'rtasida migratsiya aloqalari normal holatda edi. Chet mamlakatlar bilan migratsiya aloqalari juda oz edi. Ushbu yillarda respublikadan o'rtacha yiliga 100-150 ming odam ko'chib ketardi va shuncha odam ko'chib kelardi. Migratsiya jarayonidagi katta o'zgarish 1989-1990 yillarda ro'y berdi. Ushbu ikki yil ichida O'zbekistonga rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 400

ming. ga yaqin odam ko'chib keldi, migratsiyaning manfiy qoldig'i esa -233,7 ming kishini, shu jumladan, xorijiy mamlakatlar bilan-34,1 ming kishini tashkil qildi. Sobiq Ittifoq parchalangandan keyin, O'zbekistonda migratsiya jarayoni butunlay o'zgardi. O'zbekistondan rusiyazon va boshqa millatlarning ko'chib ketishi, aksincha O'zbekistonga qo'shni respublikadan o'zbeklarning ko'chib kelish tendentsiyasi kuchaya boshladi. Hozirgi kundagi tashqi migratsiyaning manfiy qoldig'ini asosan Yevropa millatlariga xos bo'lgan aholi tashkil qilmoqda. Jumladan, 1991-1999 yillarda O'zbekiston shahar aholi manzilgohlaridan 356,8 ming ruslar, 32,3 ming ukrainlar, 55,5 ming yahudiylar, 22,6 ming nemislar 108,0 ming tatarlar ko'chib ketishdi. Respublikamizdan 1990-2008 yillarda jami 1,5 mln. kishi ko'chib ketdi, 500 ming kishi ko'chib keldi. Shunday qilib, migratsiyaning manfiy qoldig'i 10 mln. Kishini tashkil etdi. O'zbekistonning ushbu yillardagi tashqi aloqalari asosan Rossiya, Ukraina va qo'shni Markaziy Osiyo respublikalari bilan bo'ldi. Migratsiyada qatnashganlarning jami Rossiya hissasiga 50,9 foiz, Ukrainaga 12,9 foiz, Qozog'istonga 10,9foiz boshqa Markaziy Osiyo respublikalariga 13,2 foiz to'g'ri keldi. MDH davlatlaridan 60 tashqaridagi xorij mamlakatlari hissasiga 8,4 foiz to'g'ri keldi. O'zbekiston aholisi tashqi migratsiyasining manfiy qoldig'i ko'rsatkichlaridan Rossiya hissasiga 62,0foiz, Ukrainaga 20,4foiz, boshqa xorijiy mamlakatlarga 15,8 foiz to'g'ri keldi. Tashqi migrantlarning asosiy ko'pchiligini ruslar, tatarlar, qrim tatarlari va yahudiylar tashkil qiladi. Bulardan tashqari mamlakatdan mesxetiya turklari, yunonlar, nemislar ham ko'chib ketishmoqda. Yahudiylar Isroil va AQSHga, nemislar Germaniyaga, yunonlar Gretsiyaga, ruslar Rossiyaga ko'chmoqdalar. Keyingi yillarda O'zbekistonda rusiyazon aholining ko'chib ketishi keskin kamaymoqda. Bundan tashqari mamlakatimizda ko'chib ketganlarning yana qaytib kelishi (remigratsiya) sharoitlari kuzatilmoqda. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda ichki migratsiya harakatlarining pasayishi kuzatilmoqda, uning asosiy sabablaridan biri, bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitidagi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar jarayonidir. O'zbekistonda hozirgi paytda yashash joyini o'zgartirish bilan bog'liq bo'lgan qishloq-shahar yo'nalishidagi doimiy migratsiya va o'qishga, ishlashga (vaqtinchalik) keladigan vaqtinchalik migratsiya oqimlari ham sezilarli darajada kamaydi. Ma'lumki, shaharlardan rusiyazon aholining ko'chib ketishi yildan-yilga ko'payib bormoqda. Ushbu vaziyat respublikada azaldan

past bo'lgan urbanizatsiya darajasining yanada kamayishiga olib kelmoqda. O'zbekiston aholisining ish bilan ta'minlanganlik darajasiga respublikadagi ichki migratsiya oqimlari ham bevosita ta'sir ko'rsatadi, chunki migratsiyaning ushbu turi bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ldi. Mustaqillik yillaridagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar ta'sirida respublikalararo migratsiya aloqalarida ham pasayish ro'y bermoqda. Ushbu holat viloyatlararo hamda viloyat ichidagi migratsiya harakatlariga ham xosdir. Jumladan, 1980-2008 yillarda Respublika ichki migratsiya hajmi 461,8 ming kishidan 250 minggacha ya'ni 250 ming kishiga kamaydi. Viloyatlar ichidagi migratsiya ham ushbu davr ichida 283,6 ming kishidan, 138,0 mingga, ya'ni 118,6 ming odamga kamaydi. Respublika ichki migratsiyaning harakatlari va jami hajmi uning hamma asosiy yo'nalishlari bo'yicha (ayniqsa qishloq-shahar) kishi kamaydi. Mustaqillik yillarida mahalliy tadbirkorlarning chet mamlakatlarga mehnat safarlari kengaymoqda. Ayniqsa, O'zbekistonda qo'shma firmalari va korxonalari bo'lgan xorijiy mamlakatlarga bunday safarlar ko'proq uyushtirilmoqda. O'zbekistondagi yirik qo'shma korxonalarining yosh ishchilari malakalarini oshirish, zarur mutaxassislikni egallab olish uchun Janubiy Koreya, Germaniyaga o'qishga va ishlashga yuborilmoqda. Keyingi yillarda O'zbekiston aholisining barqarorlashgan migratsiya turi – bu jahonning rivojlangan mamlakatlari AQSH, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Germaniyalarning nufuzli oliy o'quv yurtlarida va kollejlarda bilim olish uchun o'qishga ketayotgan yoshlardir. Ushbu migratsiya hukumatimiz tomonidan kadrlar tayyorlashning maxsus ishlangan milliy dasturi asosida amalga oshirilmoqda. Iqtidorli yoshlarni xorijdagi rivojlangan mamlakatlarda o'qitish uchun O'zbekistonda maxsus "Umid" jamg'armasi tuzilgan. Ushbu jamg'arma orqali har yili iqtidorli yoshlar tanlab olinib, chet mamlakatlarga o'qishga yuboriladi. Ularning ko'pchiligini o'zbek millatiga mansub o'g'il va qizlar tashkil qiladi. Aholining xorijiy mamlakatlarga qisqa muddatli safari Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tomonidan amalga oshirilmoqda.

Keyingi 9 yilda (1995-2004 yillar) respublika Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tomonidan ishlab kelish uchun xorijiy mamlakatlarga 89 ming kishi jo'natildi. Janubiy Koreyaga 5 yilda 9,5 ming odam jo'nab ketdi. Unchalik ko'p bo'lmagan ishchi migrantlar vaqtinchalik ishlab kelish uchun AQSHga, Malayziyaga, Birlashgan Arab Amirligiga (BAA) jo'natildi. Mehnat vazirligi tomonidan xorijda

ishlab kelishga jo'natilganlarning ko'pchiligini o'zbeklar (82 foiz), koreyslar (15 foiz) tashkil etadi. Chet mamlakatlarga shaxsiy bilim asosida jo'natilganlarning yarmidan ko'pi o'zbeklar qolgan qismi boshqa millatlar – ruslar, ukrainlar, yahudiylar va tatarlar hissasiga to'g'ri keladi. O'zbekistonliklarning chet mamlakatlarda ish bilan bandligining ancha rivojlangan shakli, bu mokisimon (chelnok) biznes bo'lib, u asosan shaxsiy mehnat faoliyati asosida amalga oshirilmoqda. Lekin, keyingi yillarda mahalliy aholi o'rtasida mokisimon savdo biznesining turi biroz kamayganligi kuzatilmoqda. Lekin shunga qaramasdan, keyingi o'n yillikda tadbirkorlikning ushbu turi respublika aholisining chet eldagi bandligida aholi o'rtasida eng ko'p tarqalgan turi bo'lib qolmoqda. Keyingi yillarda mamlakatdagi 165 ta nodavlat va notijorat tashkiloti taxminan 117,2 ming kishini ish bilan ta'minladi. Ularning 41,2 mingtasi (35,2 foiz) bevosita nodavlat notijorat tashkilotlari orqali, 76,0 ming (64,8 foiz) esa ushbu tashkilotlarning vositachiligi orqali ishga joylashtirildi. Demak, bitta nodavlat va notijorat tashkiloti 710 ta odamni ish bilan ta'minlagan. Shunday qilib, O'zbekistondagi aholi bandligining yangi turi respublika mehnat bozorida va xorijiy mamlakatlarda o'z o'rnini topmoqda. Jumladan, 2009 yilning birinchi yarmida O'zbekiston respublikasiga 67,2 ming kishi kelgan, 83,6 ming kishi esa chiqib ketgan. Migratsiya saldosi minus 16,4 ming kishiga to'g'ri kelgan. Aholini migratsion harakati ko'proq quyidagi hududlarda kuartilgan (Toshkent viloyatiga-kelganlar-9,1 ming kishi, ketganlar-13,0 ming kishi, Qoraqalpog'istonga kelganlar-7,4 ming kishi, ketganlar-13,0 ming kishi, Toshkent shahrining o'ziga-kelganlar-6,1 ming kishi, ketganlar-7,8 ming kishi).

### **Nazorat savollari:**

1. Demografiya fanining paydo bo'lishi va vujudga kelishi haqida ma'lumot bering.
2. Demografiya fani vazifalarini ajrating.
3. Demografiyaning asosiy predmeti tushuntirib bering.
4. Demografiya fani tarmoqlarini yoritib bering.
5. Demografiyaning ilmiy yo'nalishlari haqida ma'lumot bering.
6. Demografik siyosatning xususiyatlari nimalardan iborat?
7. Aholi sifatini rivojlantirishning xususiyatlarini ko'rsating.
8. Demografik qarish tushunchasini izohlab bering.
9. Demografik siyosat o'tkazish uslublarini yoritib bering.

## 10. Aholi migratsiyasi deganda nimalarni tushunasiz?

### Testlar:

**1. Kim tomonidan va nechanchi yilda chop etilgan kitob demografiya tushunchasini kirib kelishiga asos bo'ldi?**

- a) Otto Fon Bismark, 1889 yil;
- b) Jan Klod Ashil Giyar, 1855 yil;
- c) Jon Graunt, 1662 yil;
- d) Uilyam Petti, 1670 yil.

**2. "Demografiya" so'zi nimani anglatadi?**

- a) yunoncha "demos"- xalq, aholi va "grafo"- "yozaman" degan ma'noni anglatadi;
- b) inglizcha "demos"- xalq, aholi va "grafo"- "yozaman" degan ma'noni anglatadi;
- c) italyanacha "demos"- xalq, aholi va "grafo"- "yozaman" degan ma'noni anglatadi;
- d) forschacha "demos"- xalq, aholi va "grafo"- "yozaman" degan ma'noni anglatadi.

**3. Demografik tahlil yuritishga nima turtki bo'ldi?**

- a) XXVI asrda Yevropada tarqalgan epidemiya;
- b) aholi sonining ortib ketishi;
- c) kataklizm oqibatida yaralanganlar sonining keskin oshib ketishi;
- d) Ikkinchi Jahon urushidan so'ng qurbonlar sonining ortishi.

**4. Aholini demografik tahlil qilishning birinchi usuli qanday ko'rinishda bo'lgan?**

- a) nogironligi bo'lgan kishilarning soni jadval ko'rinishida;
- b) tug'ilganlik darajasi ro'yxati ko'rinishida;
- c) o'lim jadvallari ko'rinishida;
- d) jinsiga nisbatan shakllantirilgan jadval ko'rinishida.

**5. "O'limning tabiiy va siyosiy ahamiyati" risolasining muallifi kim?**

- a) Laplas;
- b) Eyler;
- c) Jon Graunt, Uilyam Petti;
- d) Jan Klod Ashil Giyar.

**6. "Inson statistikasi elementlari yoki qiyosiy demografiya" asarining muallifini ko'rsating.**

- a) Otto Fon Bismark;

- b) Jan Klod Ashil Giyar;
- c) Jon Graunt;
- d) Uilyam Petti.

7. **Ilk marta “demografiya” so‘zini o‘z asarida kim ishlatdi?**

- a) Otto Fon Bismark;
- b) Jan Klod Ashil Giyar;
- c) Jon Graunt;
- d) Uilyam Petti.

8. **Barcha mamlakatlar uchun kasalliklar va o‘lim sabablarining yagona nomenklaturasini ishlab chiqishni ilk marta kim taklif etgan?**

- a) Uilyam Petti;
- b) Jon Graunt;
- c) Jan Klod Ashil Giyar;
- d) Laplas.

9. **“Demografiya” so‘zi nechanchi yilda atama sifatida rasmiy tan olindi?**

- a) 1889 yilda;
- b) 1884 yilda;
- c) 1882 yilda;
- d) 1888 yilda.

10. **O‘zbekistonda demografiya fani nechanchi yillardan oliy o‘quv yurtlarida o‘qitila boshlandi?**

- a) XX asrning 50-yillaridan;
- b) XX asrning 60-yillaridan;
- c) XX asrning 70-yillaridan;
- d) XX asrning 80-yillaridan.

11. **Demografiyaning asosiy predmeti nima?**

- a) tug‘ilish va o‘lim jarayonlari;
- b) insonning fiziologik va psixologik xususiyatlari;
- c) ma’lumotlilik darajasi, oilaviy holati;
- d) aholining takror barpo bo‘lish qonuniyatlarining tahlili.

12. **Demografik inqilob nazariyasini dastlab kim ilgari surdi?**

- a) A.Landri;
- b) Z.Pavlik;
- c) V.S.Tompson
- d) A.G.Vishnevskiy.

**13. BMT ekspertlarining qarashlariga ko'ra, demografik o'tish davrini nechta fazaga ajratishi mumkin?**

- a) 2 ta;
- b) 3 ta;
- c) 4 ta;
- d) 5 ta.

**14. Demografik siyosat o'tkazish uslublari qanday?**

- a) iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy;
- b) iqtisodiy, ma'muriy-huquqiy, ijtimoiy-psixologik
- c) iqtisodiy, tibbiy-ijtimoiy, psixologik;
- d) siyosiy, ijtimoiy, psixologik.

**15. Migratsiya so'zining ma'nosi nima?**

- a) inglizcha so'zdan olingan bo'lib, ketish degan ma'noni bildiradi;
- b) lotincha so'zdan olingan bo'lib, chiqish degan ma'noni bildiradi;
- c) lotincha so'zdan olingan bo'lib, ko'chish degan ma'noni bildiradi;
- d) frantsuzcha so'zdan olingan bo'lib, ko'chish degan ma'noni bildiradi.

## **XI-bob. PENSIYA TIZIMI MOHIYATI VA UNI ISLOH QILISH**

**11.1. Pensiya ta'minoti tizimining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va aholini ijtimoiy himoya qilish tizimida tutgan o'rni**

**11.2. Jahon mamlakatlarida pensiya ta'minoti tizimlarini turlari va ularning o'zgarish tendensiyalari**

**11.3. O'zbekistonda pensiya tizimining shakllanishi, rivojlanishi va zamonaviy tendensiyalari**

### **11.1. Pensiya ta'minoti tizimining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va aholini ijtimoiy himoya qilish tizimida tutgan o'rni**

“Yoshi ulug' insonlar, katta avlod vakillariga e'tibor va amaliy g'amxo'rlikni kuchaytirish, ularning pensiyalarini oshirish, tibbiy xizmat va ijtimoiy-maishiy ta'minot ni yaxshilash bundan buyon ham Prezident uchun, Hukumatimiz va barcha hokimliklar uchun eng muhim ustuvor vazifalardan biri bo'lib qoladi. Shu maqsadda pensionerlar, yolg'iz keksa va nogironlarga davlat ko'magini kuchaytirish bo'yicha ayni paytda keng qamrovli chora-tadbirlar kompleksi ishlab chiqildi va ular so'zsiz amalga oshiriladi”<sup>130</sup>. Albatta, Yurtboshimizning ushbu fikrlari mamlakatimizda keksa yoshdagi aholining munosib turmush farovonligini ta'minlash, ularning ijtimoiy ta'minot ini yanada yaxshilash masalalariga bevosita daxldordir. Bunday e'tiborning iqtisodiy jihati mamlakatda shakllangan pensiya ta'minot i tizimida o'z ifodasini topmoqda. Bugungi kunda davlat pensiya ta'minoti tizimining davlatning ijtimoiy siyosatini amalga oshirishdagi o'rni va ahamiyati tobora ortib bormoqda. Pensiya ta'minoti mexanizmlari orqali keksaygan va mehnat qobiliyatini yo'qotgan jamiyat a'zolarining munosib turmush kechirishi uchun moddiy asos yaratilmoqda.

“Bugungi kunda mamlakatimizda 60 yoshdan oshganlar soni 2 million 873 mingdan ko'proq kishini tashkil etadi. Mustaqillik yillarida xalqimizning o'rtacha yoshi 1990-yildagi 67 yoshdan 73,5 yoshga, ayollar o'rtasida esa 75,8 yoshga yetdi. Ayni paytda yurtimizda

<sup>130</sup> Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq. - Toshkent: “O'zbekiston”, 2016. – B.12.

225 ming nafar 80 yoshdan, 44 ming nafar 90 yoshdan, 8 ming 700 nafar - 100 yoshdan oshgan tabarruk keksalar yashamoqda. Ular orasida 3 ming 109 nafar Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi, 69 ming 994 nafar front ortida mehnat qilgan insonlar bor”<sup>131</sup>. Shu munosabat bilan “keksalarga g’amxo’rlik ko’rsatish va e’tiborni kuchaytirish, ularning hayot darajasi va sifatini oshirish uchun qulay tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan qonunchilik va me’yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, pensiya ta’minoti va ijtimoiy qo’llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, yoshi ulug’ insonlarga davlat xizmatlari ko’rsatishning eng qulay tizimini shakllantirish”<sup>132</sup> bilan bog’liq “Keksalarni e’zozlash yili” Davlat dasturida belgilangan vazifalar mamlakatimiz pensiya ta’minoti tizimi zimmasiga ham ulkan mas’uliyat yuklamoqda.

“Pensiya” so’zi lotincha “pension” so’zidan olingan bo’lib, mehnat qobiliyatini va demak, ish haqi ko’rinishidagi daromad manbayini yo’qotganda, qarilikda, nogironlikda yoki boquvchisini yo’qotganda moddiy ta’minlash uchun muntazam to’lanishi mo’ljallangan pullik to’lov ma’nosini anglatadi. O’zbekistonning qonun hujjatlarida<sup>133</sup> “pensiya - uni olish huquqi Qonunda belgilangan shartlarga va me’yorlarga muvofiq aniqlanadigan hamda shaxslarga pensiya yoshiga to’lish, nogironlik yoki boquvchisini yo’qotganlik munosabati bilan beriladigan oylik pul to’lovi” sifatida tavsiflangan.

Ko’pgina iqtisodiy adabiyotlarda pensiya atamasiga turlicha ta’riflar berilgan. Jumladan:

Iqtisodchi olimlardan A.V. Vahobov va T.S. Malikovlar shunday ta’rif berganlar:

“Pensiya - qarilik, nogironlik, xizmat qilgan yillari uchun va boquvchisini yo’qotganda fuqarolarni moddiy jihatdan ta’minlash uchun pul summalarining kafolatlangan har oylik to’lovi”<sup>134</sup>.

Sh.Allayarov, D.Toshmuxeamedovalar esa pensiyaga quyidagicha ta’rif berganlar:

<sup>131</sup> O’zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I. Karimovning O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 22 yilligiga bag’ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. Xalq so’zi.// 06.12.2014.

<sup>132</sup> O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 18-fevraldagi “Keksalarni e’zozlash yili” Davlat dasturi to’g’risida”gi PQ-2302-sonli Qarori. O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami, 2015 y., 8-son, 91-modda.

<sup>133</sup> O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 8 sentyabrdagi “Davlat pensiyalarini tayinlash va to’lash tartibini yanada takomillashtirishga yo’naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to’g’risida”gi 252- sonli Qarori.

<sup>134</sup> Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik. - T.: “Noshir”, 2012. – B. 676.

“Ishlovchilarning pensiya jamg‘armasiga to‘lovlari, iqtisodiy nuqtayi nazardan ular ish haqining bir qismidir. U ishchi kuchining qiymatiga kiradi, ammo institutsional muayyan kechiktirilgan muhlatda amalga oshiriladi, bu ishlovchilarning Pensiya jamg‘armasiga qo‘ygan va qaytarilishi lozim bo‘lgan o‘ziga xos maqsadli ulushi, omonatidir”<sup>135</sup>.

B.X.Umurzakovning ta‘riflari bo‘yicha “Pensiya - sug‘urtalangan shaxsga uning yo‘qotilgan muayyan daromad miqdorini belgilab turuvchi darajasining kompensatsiyasidir”<sup>136</sup>.

B.S.Mamatov esa shunday ta‘rif berganlar “fuqarolarning qonunchilikda belgilangan keksalik yoshiga yetganida, nogironlik tufayli mehnat faoliyatini yo‘qotganida, shuningdek, boquvchisidan mahrum bo‘lganida va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda qonunchilikda belgilangan shartlar va me‘yorlar asosida beriladigan har oylik to‘lovlar”<sup>137</sup>.

AQSHlik iqtisodchi olim Jun Peng ta‘rifi bo‘yicha “Pensiya fuqarolarning qarilidagi moliyaviy barqarorligini ta‘minlovchi eng muhim daromad manbai”<sup>138</sup>.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, pensiyaga quyidagicha ta‘rif berish mumkin: fuqarolarga pensiya yoshiga to‘lishi, nogironligi va boquvchisidan mahrum bo‘lganligi tufayli qonunchilikda belgilangan shartlar va me‘yorlar asosida beriladigan har oylik to‘lovlarga pensiya deyiladi.

Shundan kelib chiqqan holda, pensiya tizimi deganda mamlakat fuqarolarini ma‘lum yoshga yetganda, nogironlikda, boquvchisini yo‘qotganda moddiy jihatdan ta‘minlash bilan bog‘liq bo‘lgan huquqiy, moliyaviy, tashkiliy munosabatlar, shuningdek, maxsus ixtisoslashgan tashkiliy tuzilmalar yig‘indisi tushuniladi.

Turli mamlakatlar milliy pensiya tizimlarining shakllanishida quyidagi ikki yondashuv asos bo‘lib xizmat qilgan: birinchi yondashuvga ko‘ra, pensiya tizimiga jalb qilingan barcha fuqarolar uchun pensiya daromadining minimal hajmi kafolatlanasa, ikkinchi yondashuv bo‘yicha pensiya - ish haqining zaxiralanuvchi qismi bulib,

<sup>135</sup> Allayarov Sh., Toshmuxeimedova D. Davlat pensiya ta‘minoti. O‘quv qo‘llanma. - T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2015. – B. 232.

<sup>136</sup> Umurzakov B.X. Pensiya badali soliq to‘lovlaridan nima bilan farqlanadi? - T.: “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. 1-son, 2011. – B. 5.

<sup>137</sup> Mamatov B.S. Pensiya jamg‘armasi faoliyati. - T.: “Barkamol fayz media”, 2017. – B.

<sup>138</sup> Jun Peng. State and Local Pension Fund Management. (Public Administration and Public Policy) 0th Edition. USA: Publisher: Auerbach Publications (August 21, 2008). – P. 2-5.

sug'urtalangan xodimga uning pensiyaga chiqish oldidagi daromadiga monand moddiy ta'minot ga ega bo'lishni kafolatlaydi.

Pensiya ta'minot ining rivojlanishi jarayonida har ikkala maqsad uyg'unlashib ketdi, universal pensiya tizimlari sug'urtaviy tizimlar bilan to'ldirildi, sug'urtaviy tizimlar esa minimal kafolatlarni o'z ichiga ola boshladi. Shunday qilib, pensiyalarning ikkiyoqlama tabiati, nafaqat, umumqabul qilindi, balki deyarli barcha rivojlangan pensiya tizimlarining shakllanishiga asos bo'lib xizmat qildi.

Pensiyalarning ikkiyoqlama xarakteri shunda namoyon bo'ladiki, birinchidan, pensiya kambag'allikdan himoyalab, pensiya daromadining minimal darajasini kafolatlasa, ikkinchi tomondan, ma'lum belgilangan sug'urta holatlari yuzaga kelganda, ish haqining o'rnini bosadi, ya'ni yo'qotilgan daromadni yoki uning ko'p qismini kompensatsiyalaydi.

Aksariyat pensiya tizimlarining asosini, ularning institutsional tuzilishi yoki qo'llaniladigan moliyaviy mexanizmlaridan qat'iy nazar, ijtimoiy pensiya sug'urtasi tamoyillariga qurilgan pensiya dasturlari tashkil qiladi.

O'zining ijtimoiy mazmun-mohiyatiga ko'ra, *pensiya sug'urtasi* mehnatkashlar tomonidan yakka va jamoaviy tarzda o'z joriy daromadlarining bir qismini boshqarish va nazoratning sug'urtaviy va davlat mexanizmlari (qonuniy, tashkiliy va moliyaviy) yordamida zaxiralashdan iborat.

Kelgusidagi sug'urtaviy pensiyaning miqdori qator omillarga bog'liq ekanligini alohida ta'kidlash lozim, bular:

- sug'urta stajining davomiyligi;
- sug'urtalanadigan ish haqining miqdori;
- sug'urta tarifining katta-kichikligi;
- kelgusidagi to'lovlar davrining davomiyligi.

Shuning uchun pensiya sug'urtasining moliyaviy mexanizmini ishlab chiqishda shunday hisob-kitoblar tizimi qo'llaniladiki, ular sug'urtalangan va pensiyaga chiqayotgan fuqaro guruhleri oldida yuzaga kelgan majburiyatlarni kelgusidagi to'lovlar davri mobaynida muntazam ravishda bajarish (pensiyalarni to'lab borish) uchun yetarli bo'lishini ta'minlashi kerak. Bu vazifani bajarish ancha qiyin ekanligini e'tirof etish lozim, chunki u oldindan aniqlash qiyin bo'lgan qator omillarga boqliq: sug'urta badallarini to'lab borish (30-50 yil) va pensiya olish (20-30 yil) davrlarining davomiyligi, bu davrda mehnat xdkd va inflatsiya darajasida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'lishi,

pensionerlar va ishlovchilarning ham absolut miqdori, ham bir-biriga nisbatlari sezilarli o'zgarishi mumkin.

Pensiya to'lovlarini taqdim etish shartlari va me'yorlarining, mamlakatdagi demografik va iqtisodiy ahvolning pensiya tizimlarining moliyaviy holatiga ta'sirini o'lchash va baholash maqsadida bir qator ko'rsatkichlardan foydalaniladi, ular, o'z navbatida, pensiya tizimi moliyaviy mexanizmlarini tushunish va tizimning kelgusidagi daromad va harajatlarini baholashga yordam beradi.

Har bir mamlakatda u yoki bu *pensiya modeli* asosida milliy pensiya tizimlari shakllangan bo'ladi. *Pensiya tizimining modeli* uning moliyaviy jihatdan tashkil etilishini hamda mamlakat fuqarolarini qarilikda moddiy jihatdan ta'minlash bilan bog'lik bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni ifodalaydi.

Pensiya ta'minoti tizimi ijtimoiy himoyaning bir butuni sifatida yuzaga keldi. Dastlab pensiya ta'minoti davlat tomonidan to'liq kafolatlangan bo'lsa-da, keyinchalik iqtisodiyotning transformatsiyalashuvi natijasida ushbu soha avlodlar o'rtasida daromadlarni qayta taqsimlash vazifasini bajardi. Ayni paytda "daromadlarni vaqtlararo taqsimlash" ni yanada takomillashtirish muhim vazifaga aylandi. Umuman olganda, mamlakatda axolining pensiya ta'minoti darajasi ustuvor ravishda ikkita omilga bog'liq: ijtimoiy himoya tizimining qay darajada rivojlanganligi va mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi. Har ikkala omil, shuningdek, pensiya ta'minoti darajasi mamlakatdagi tarixiy, madaniy, iqtisodiy va ijtimoiy shart-sharoitlar bilan belgilanadi.

## **11.2. Jaxon mamlakatlarida pensiya ta'minoti tizimlarini turlari va ularning o'zgarish tendensiyalari**

Ma'lumki, butun dunyoda pensiya tizimi demografik omillar bilan bog'liq. Taraqqiy etgan mamlakatlarning aksariyatida hozirgi kunda demografik holat quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi: mehnatga layoqatli aholi soni o'sishi bir muncha sustlashmokda yoki qisqarmoqda, shu bilan birga 60 yoshdan, hattoki 80 yoshdan oshgan aholi soni o'sib borish tendensiyasiga ega bo'lmokda<sup>139</sup>. Bunday holat jamiyatda mehnatga layokatsizlar sonining, ya'ni pensionerlar soning

<sup>139</sup> Романченко В.С. Сравнительный анализ международного опыта развития пенсионной системы. Вестник МИЕП. 2015. № 3 (20). С. 58-73.

ortishiga olib kelmoqda. Asosiy muammo shundaki, “aholining qarishi” muammosiga duch kelayotgan G‘arb mamlakatlari o‘zining keksa fuqarolariga pensiya to‘lash va zarur bo‘lgan tibbiy va ijtimoiy yordam ko‘rsatishda moliyaviy qiyichiliklarga duch kelishi mumkin. Jumladan, Yaponiya va G‘arbiy Yevropa mamlakatlari hozirda stagnatsiya (iqtisodiyotni turg‘unlik holiga tushib qolishi) holatidadir. Ushbu mamlakatlarda ishlovchilar, ya’ni mehnatga layoqatli aholi sonining kisqarishi kuzatilmoqda. Yaqin istiqbolda ushbu jarayon yanada faollashishi va keyinchalik hozirgi yosh avlod o‘zining keksaligini munosib ta‘minlash imkoniga ega bo‘lmasligi ham mumkin. 2050-yillarga borib, keksalarni pensiya bilan ta‘minlashdagi muammolar o‘tkirlashib, global moliyaviy inqirozga olib kelishi ham mumkin. Taraqqiy etgan mamlakatlar aholisining yashash davomiyligi ortmoqda va bunga proporsional ravishda ularni pensiya bilan ta‘minlash davri ham uzayib bormoqda. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti<sup>140</sup>ning (IHTT) ogohlantirishicha, agar rivojlangan mamlakatlar aholisining keksa qatlami 70 yoshgacha ishlashni va ish beruvchilar ularni ish bilan ta‘minlab turishni xohlamasalar, unda bunday holat ushbu mamlakatlarning iqtisodiy ushiga juda katta salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Ushbu omillarning barchasi iqtisodiyotda “pensiya yuki”ning oshib borishiga olib keladi va Hukumat oldiga taqsimlovchi pensiya tizimi ulushini qisqartirish hamda jamg‘arib boriladigan pensiya tizimining ulushini oshirish masalasini qo‘ymokda, buning uchun zarur shart-sharoitlar yaratilishi zarur. Biroq, rivojlangan mamlakatlar tajribasi ko‘rsatishicha, pensiya tizimini isloh qilish ijtimoiy noroziliklarni keltirib chiqaradi, chunki bu islohotlar pensiya yoshini oshirish yoki pensiya bo‘yicha imtiyozlarni bekor qilish yoxud pensiya fondlariga to‘lanadigan badallar miqdorini oshirish bilan bog‘lik bo‘ladi.

Aksariyat mamlakatlarda pensiyani isloh qilishning zarurligi, birinchi navbatda, demografik va qisman iqtisodiy omillar bilan xususiyatlanadi: aholining qarish jarayoni; davlat budjeti zimmasidagi pensiya yukining oshib borishi va h.k.

Yuqoridagilarni inobatga olib, aksariyat mamlakatlar XXI asr boshlarida taqsimlovchi pensiya tizimini isloh qilishning zarurligini anglab yetdilar. Buning asosiy sabablarini demografik, iqtisodiy,

<sup>140</sup> Erkin bozor iqtisodiyoti va demokratik printsiplarga asoslangan rivojlangan mamlakatlarning xalqaro iqtisodiy tashkiloti bo‘lib, 1948 yilda tashkil etilgan. Shtab-kvartirasi Parijda joylashgan.

ijtimoiy va ahloqiy-psixologik omillar tashkil qiladi. Eng asosiy muammo - bu aholining karish jarayoni, ya'ni tug'ilishning kamayishi va fuqarolarning o'rtacha umr davomiyligining oshib borishi natijasidir. IHTTning prognozlariga ko'ra, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga a'zo mamlakatlarda (35 ta mamlakat) fuqarolarning o'rtacha umr davomiyligi 1950-yilda 63,8 yilni, 2000-yilda 77 yilni va 2050-yilga borib, 83,4 yilni tashkil etadi.<sup>141</sup>

Fuqarolar yashash davomiyligining ortib borishi va tug'ilishning kamayishi natijasida IHTTga a'zo mamlakatlarda 65 yoshdan oshgan aholi soni 2000-yilda 13 foizga oshgan, bu ko'rsatkich 2050-yilga borib 25 foizni tashkil qiladi. Taqsimlovchi pensiya tizimining samarasi shunda namoyon bo'ladiki, bunda 1 nafar pensionerga 3-4 nafar ish bilan band fuqarolar tug'ri kelishi kerak. Taraqqiy etgan mamlakatlarning aksariyatida hozirgi kunda 65 yoshdan oshgan har bir pensioernga 4-5 nafar mehnatga layoqatli yoshdagilar to'g'ri keladi. Biroq, 2020-2025-yillarga borib, Yevropa mamlakatlarida ushbu nisbat 1:2,5, AQShda 1:3,5 birlikni tashkil qiladi.<sup>142</sup>

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yildan-yilga pensionerlar soni ortmoqda va aksincha, ishlayotganlar ulushi qisqarib bormoqda. Ushbu muammo turli davlatlarda turlicha hal etiladi. Ayrim davlatlar pensiya yoshini oshirish (masalan, Germaniyada ayollar va erkaklarning pensiyaga chiqish yoshi 65 yoshni tashkil qilsa, hozirda bu ko'rsatkich 67 ni tashkil etadi) bilan ushbu muammoga ijobiy yechim topsa, ayrimlari ishchilarning ish haqi hisobidan pensiya fondiga to'lanadigan majburiy ajratmalar miqdorini oshiradilar. Yakuniy xulosa shundan iboratki, agar keksalikdgi davr ijtimoiy jihatdan munosib ta'minlanmokchi bo'lsa, hech kimdan najot kutmasdan, balki keksalik davrining javobgarligini zimmaga olib, jamg'arib borish bir muncha samarali hisoblanadi.

IHTT ekspertlarining tadqiqot natijalariga ko'ra, XXI asrning birinchi o'n yilligida Yaponiya va Yevropa mamlakatlarida pensiya harajatlari YaIMning 14-20 foizigachani tashkil qiladi. Lotin Amerikasi va Osiyo mamlakatlarining aksariyatida 2030 yilga borib, 60 yoshdan oshgan aholi soni jami aholining 16 foizini tashkil qiladi.

<sup>141</sup> Старение и политика занятости / Секретариат ОЕСР. [www.forum-tvs.ru/index.php?showtopic=14395](http://www.forum-tvs.ru/index.php?showtopic=14395).

<sup>142</sup> Бровчак С.В. Пенсионное обеспечение. Российский и зарубежный опыт. - М., 2009. - С. 12.

Yuqoridagi holatlar dunyoning turli mamlakatlarida amal qilayotgan pensiya modellari bo'yicha pensiya tizimining samaradorligi va moliyaviy holati bilan bog'lik bo'lgan jiddiy masalalarni o'rta ko'ydi.

XXI asrga kelib aholini ijtimoiy himoya qilish har qanday sivilizatsiyalashgan mamlakat ijtimoiy siyosatining asosiy xususiyatlardan biri bo'ldi. Ijtimoiy himoya tizimining asosiy vazifasi fuqarolar daromadlari barqarorligini qo'llab-quvvatlash, tibbiyot xizmatlaridan foydalanishda boshqa barcha fuqarolari bilan teng imkoniyatlarni ta'minlash va zarur ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish hisoblanadi. Iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlarda ijtimoiy himoya milliy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi va bu sohaga qilingan harajatlar mamlakat YaIMning salmoqli ulushini tashkil qiladi. Yevropa Ittifoqi mamlakatlari ijtimoiy himoyaning bir muncha rivojlangan tizimiga ega. Aynan ushbu mamlakatlarda birinchi bo'lib ijtimoiy dasturlar shakllantirilgan va rivojlantirilgan hamda ijtimoiy himoyaning ana shunday tizimi sabab zamonaviy Yevropa iqtisodiyoti ijtimoiy yo'naltirilganlik nomini olgan. G'arbiy Yevropa mamlakatlari tajribalari ko'rsatishicha, barcha fuqarolarni qamrab olgan ijtimoiy himoya tizimining amal kilishi, nafaqat, ularning turmush farovonligini yaxshilashga, balki mamlakat mehnat resurslarining kengayishi va mustahkamlanishiga hamda mamlakatdagi siyosiy va ijtimoiy jarayonlarni barqarorlashtirishga va iqtisodiy o'sish imkonini beradi.

### **11.3. O'zbekistonda pensiya tizimining shakllanishi, rivojlanishi va zamonaviy tendensiyalari**

Tadqiqotchilarning fikricha O'zbekistonda hozirgi pensiya tizimining shakllanishi va rivojlanishini olti bosqichga bo'lish mumkin:

*Birinchi bosqich* 1918-1956-yillar) davrida mehnatda mayiblanish yoki kasb kasalligi tufayli nogiron bo'lganlarga, qariyalarga va ko'p yillik xizmatlari uchun kabi pensiya turlari joriy etildi. Ayollar va erkaklarga yoshiga qarab pensiya belgilash ham o'sha davrda qaror topdi. Sho'ro hokimiyati davrida, asosan fuqarolar urushida nogiron bo'lganlar va boquvchisini yo'qotgan oilalar uchun pensiya tayinlangan. 1928 yildan keksalik va ko'p yillik xizmatlari uchun pensiyalar, dastlab sanoatning alohida ishchilari, keyinchalik esa barcha ishchilarga berila boshladi. 1937 yilga kelib bu pensiya xizmatchilar uchun xam joriy

etildi. Pensiya ta'minotida yagona tartib yo'q bulib, pensiya tarmoqlar tamoyili bo'yicha tayinlangan.

*Ikkinchi bosqich* (1956-1990-yillar) davrida davlat pensiya ta'minoti to'g'risida ilk bor yagona qonun ("Davlat pensiyalari tug'risida") qabul qilindi (1956-yil). Bu qonunga asosan barcha tarmoq ishchi-xizmatchilari uchun (kolxozchilardan tashqari) yagona pensiya tartibi belgilandi. 1964 yilda "Kolxoz a'zolariga pensiya tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizom qabul qilingach, barcha kolxozchilar uchun yagona pensiya ta'minoti joriy etildi. Mehnatga vaqtincha qobiliyatsizligi uchun nafaqalar, ayollarga homiladorlik va tug'ish uchun beriladigan nafaqalarning miqdori ko'paytirildi. 1965-yilga kelib, aholining barcha qatlamlari pensiya ta'minot i bilan qamrab olindi.

*Uchinchi bosqich* (1990-1994-yillar) mamlakat iqtisodiyoti bozor munosabatlari tartibiga o'ta boshlagach, pensiya ta'minot ida ham islohotlar o'tkazilishi bilan boshlandi. Bu bosqichda ilk bor pensiya jamg'armasi, ijtimoiy pensiya, daromadlarni indeksatsiyalash tushunchalari paydo buldi. 1990 yilda o'sha davrdagi pensiya ta'minot ining huquqiy asosini sobiq "Ittifoq fuqarolarining pensiya ta'minot i tug'risida"gi Qonun tashkil qildi. Qonunga ko'ra, yoshga doir pensiyalarning tayanch qismi o'rtacha ish haqining 50foiz dan 55foiz ga ko'tarildi; yoshga doir pensiya tayinlash uchun talab qilinadigan mehnat stajidan ortiq bo'lgan har bir to'liq ish yili uchun pensiyaning o'rtacha miqdorini 1foiz ga oshirish; ish stajiga oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida o'qish muddatlari, sug'urta badallari to'langanda yakka tartibdagi mehnat faoliyati, onalarning bolalarni go'daklik yoshida parvarishlash davrlari (har bir bola 3 yoshga to'lguncha - jami 6 yil doirasida) va boshqa ish stajiga ko'shiladigan bo'ldi.

O'zbekistan Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining 1991-yil 14-yanvardagi 9-son qaroriga asosan Pensiya fondining O'zbekiston jumhuriyat bo'limi tashkil etilga<sup>143</sup>. Ijtimoiy ta'minot tizimida davlat kafolatlarini amalga oshirish hamda ijtimoiy sug'urta mablag'larining tug'ri va samarali sarflanishi ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va O'zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi Kengashining 1993 yil 4 avgustdagi 391-son

<sup>143</sup> Davronov Sh.Z. Формирование пенсионной системы Республики Узбекистон и возможные угрозы дисбаланса доходов и расходов. "Pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash va samaradorligini oshirish" mavzusida O'zbekiston milliy universitetining 100 yilligiga bag'ishlangan respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari to'plami. 2017-yil 15-noyabr. - Toshkent: "Universitet", 2017. - B. 19.

qaroriga muvofiq, sobiq Ittifoq Pensiya fondining O‘zbekiston Respublika bo‘limi negizida Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ijtimoiy sug‘urta jamg‘armasi tashkil etilgan<sup>144</sup>. Unga O‘zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi Kengashi tizimidan vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik, homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha, farzand tug‘ilganda, dafn etishga beriladigan nafaqalarni to‘lashga yo‘naltiriladigan davlat ijtimoiy sug‘urta mablag‘lari berilgan.

O‘zbekiston Respublikasining 1993 yil 3 sentabrdagi “Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti tug‘risida”gi Qonuni O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining qariganda, mehnat qobiliyatini to‘liq yoki qisman yo‘qotganda, boquvchisiz qolganda ijtimoiy ta‘minlanishdan iborat konstitutsiyaviy huquqlarini ruyobga chiqarish, davlat pensiyalarining yagona tizimini, ularni tayinlash, hisoblab chiqarish, qayta hisoblash va to‘lash tartibini belgilaydi. Respublika hududidan tashqarida yashab turgan O‘zbekiston Respublikasining fuqarolarini pensiya bilan ta‘minlash davlatlararo bitimlar (shartnomalar) asosida amalga oshiriladi. Ish stajiga ega bo‘lmagan fuqarolar va ularning oilalari ushbu Qonunga binoan davlat pensiyalari olish huquqiga ega yemaslar. Ularning ijtimoiy ta‘minlanish tartibini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilab ko‘yadi.

*To‘rtinchi bosqich* (1994-2004 yillar) - O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilinib, 1994-yildan amalda joriy etilishi bilan boshlandi. Ushbu qonunga ko‘ra, pensiyalar miqdori mehnat staji va o‘rtacha ish haqiga yanada uzviy bog‘landi. Pensiya miqdori: pensiyaning tanyach miqdori; mehnat staji uchun pensiyaning oshirilgan qismi; pensiyaga qo‘shiladigan ustama haqlardan tashkil topadi. Pensiyalarning 3 turi mavjud: *yoshga doir pensiya* (agar pensiya olish huquqi paydo bo‘lgan kundan boshlab uch oy ichida uni so‘rab murojaat etilgan bulsa, pensiya yoshiga to‘lgan kundan e‘tiboran tayinlanadi. Ushbu pensiya umrbod tayinlanadi); *nogironlik pensiyasi* (agar nogironlik belgilangan kundan boshlab uch oy ichida pensiya so‘rab murojaat etilgan bo‘lsa, tibbiy mehnat ekspert komissiyasi (TMEK) nogironlikni belgilagan kundan e‘tiboran tayinlanadi. Ushbu pensiya butun nogironlik davri uchun tayinlanadi. 60 yoshdan oshgan erkak va 55 yoshdan oshgan ayol nogironlarga - nogironlik pensiyalari umrbod tayinlanadi. Ana shu

<sup>144</sup> Mamatov B.S. Pensiya jamg‘armasi faoliyati. - T.: “Barkamol fayz media”, 2017. – B. 13.

nogironlarni qayta tibbiy ko'rikdan o'tkazish faqat ularning arizasiga binoan amalga oshiriladi); *boquvchisini yuqotganlik pensiyasi* (pensiya olish huquqi paydo bo'lgan kundan boshlab, lekin pensiya tayinlanishi uchun murojaat etishdan oldingi 6 oydan oshmagan muddatdan e'tiboran tayinlanadi<sup>145</sup>. Vafot etgan bokuvchining qaramogida bo'lgan mehnatga qobiliyatsiz oila a'zolari boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi olish huquqiga ega bo'ladi).

5. *Beshinchi bosqich* (2005-2016-yillar) - fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti amal qila boshladi. 2004 yil 2 dekabrda O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonuni qabul qilinishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi<sup>146</sup>. Jamg'arib boriladigan ixtiyoriy pensiya badallari, majburiy pensiya badallari, pensiya badallarini kirituvchi (badal kirituvchi), jamg'arib boriladigan pensiya ta'minot i hamda shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'i kabi tushunchalar qo'llanila boshlandi. 2005 yil 1 yanvardan ishlayotgan fuqarolar to'laydigan daromad solig'ining 1foiz miqdoridagi ajratmalardan iborat fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya badallari O'zbekiston Respublikasi Xalq banki muassasalarida egasi yozilgan shaxsiy pensiya hisobvaraqlariga o'tkazilishi tartibi belgilandi. Fuqarolar o'zlarining bu pensiya jamg'armasidan davlat pensiyasini olish huquqi yuzaga kelgan muddatda foydalana boshlaydilar.

6. *Oltinchi bosqich* (2017 yildan hozirgi davrga qadar) - 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi qabul qilindi. Ijtimoiy sohani rivojlantirish yo'nalishida aholini ijtimoiy himoyasini kuchaytirish chora-tadbirlari belgilandi. Ichki ishlar organlari xodimlariga pensiya va nafaqalar tayinlash va to'lashga oid yuriqnoma qabul qilindi. "Davlat pensiya ta'minoti tizimini isloh etish tamoyili" loyihasi ishlab chiqildi.

Ma'lumki, bugungi kunda fuqarolarning ijtimoiy sug'urtalash tizimidagi uzluksiz ishtirokini rag'batlantirishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish, pensionerlarning moddiy ta'minlanganlik darajasini oshirish, mehnatga hak to'lash jamg'armasiga fiskal yukning

<sup>145</sup> O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 3-sentyabrdagi "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonuni, 2-modda.

<sup>146</sup> Raxmatova N.A. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti mablag'larini samaradorligini oshirish yo'llari. "Pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash va samaradorligini oshirish" mavzusida O'zbekiston milliy universitetining 100 yilligiga bag'ishlangan respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari to'plami. 2017-yil 15-noyabr. - Toshkent: "Universitet", 2017. - B. 185.

mo'tadilligini qo'llab-quvvatlash, shuningdek, barqaror pensiya tizimiga erishish maqsadida budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tomonidan "Davlat pensiya ta'minoti tizimini isloh etish tamoyili" loyihasi ishlab chiqildi.

Ushbu tamoyil quyidagilarni nazarda tutadi:

– xodimning pensiyasi va mehnat stajidagi tafovut rag'batlantiriladi - 35 yildan ortiq staj bo'lsa, o'rtacha oylikdan 2 foiz ko'proq pensiya olinadi;

– 54 yoshida pensiyaga chiqish huquqiga ega bo'lgan, lekin umumiy o'rnatilgan yoshdan keyin pensiyani rasmiylashtirgan ayollar uchun pensiyaga ustama to'lash;

– qonun hujjatlari bilan belgilangan eng kam ish xakining 8 baravaridan 12 baravarigacha miqdordagi pensiyani hisoblab chiqarish uchun qabul qilinadigan o'rtacha oylik ish haqi miqdorini oshirish;

– pensiya yoshiga to'lgan, biroq zarur mehnat stajiga ega bo'lmagan fuqarolarga davlat pensiyalarini hisoblashda stajning har bir yetishmayotgan oyi uchun Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari summasini bir martalik tartibda to'lash huquqini berish;

– ishlayotgan er (xotin)ga o'z xotini (eri) uchun ixtiyoriy ravishda Pensiya jamg'armasiga sug'urta badalini o'tkazish huquqini berish;

– yoshga doir pensiya tayinlash uchun talab etiladigan eng kam stajni oshirish, hozirda bu 7 yil;

– pensiya yoshini dunyodagi o'rtacha darajaga va boshqa o'lchovlarga yetkazish uchun bosqichma-bosqich oshirish.

Albatta, bunday chora-tadbirlarning belgilanishi va amalga oshirilishi O'zbekiston Respublikasidagi pensiya ta'minot i tizimining joriy holatini tahlil qilish, pensiya tizimiga ta'sir etuvchi omillarni tadqiq etish va shu asosda tegishli xulosalarni shakllantirish zarurligini ko'rsatadi.

Ta'sir etuvchi omillar esa quyidagilardn iborat:

1. *Ish bilan band aholi (sug'urta badali to'lovchilar) sonining pensionerlarga nisbati.* Xalqaro mehnat tashkiloti tavsiyasiga muvofiq, pensiya ta'minot ining normal holatini ta'minlash uchun bir pensionerga 3 ta sug'urta badali to'lovchi, ya'ni ishlovchi tug'ri kelishi kerak. Bu nisbatning buzilishi pensionerlarni uzluksiz ravishda pensiya bilan ta'minlashda ishlovchilar zimmasidagi pensiya yukining og'irlashib ketishiga olib keladi. Aholining karib borish tendensiyalari yaqqol namoyon bo'layotgan mamlakatlarda keksalar sonining ortib borishi

sharoitida ularni pensiya bilan ta'minlash moliyaviy jihatdan qiyinlashadi. Ushbu mamlakatlarda pensiya oluvchilar bilan ishchilar soni hamda sug'urta badalini real to'layotgan fuqarolar sonining nomutanosibligi yuzaga kelayotganligini kuzatish mumkin.

2. *Pensiya tizimining majburiyatlariga nisbatan manbalar bo'yicha tushumlar miqdorining, fuqarolarni pensiya tizimiga qamrab olinganlik ko'rsatkichlarining nomutanosibligi.* Bu shuni anglatadiki, turli manbalardan shakllanadigan daromadlar bilan pensiya tizimi majburiyatlari hajmlari bir-biriga mutanosib emas. Asosiy muammo shundaki, pensiya sug'urtasi tizimi ish bilan band barcha aholini qamrab olishi zarur. Qishlok xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchi-larining pensiya ta'minoti i muammolidir (mavsumiyliigi, o'ziga xos xususiyatlarga egaligi va boshq.). Shuningdek, aholi migratsiyasini hamda yashirin ishsizlikni ham hisobga olish kerak.

Mamlakatda pensiya ta'minoti darajasini, uning samaradorligini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri qoplash koeffitsienti<sup>41</sup> (wage replasement rate) hisoblanadi. Bu ko'rsatkich o'rtacha pensiya miqdorining (Db) o'rtacha ish haqiga (Da) nisbatini ( $K = Db / Da * 100$ ) ifodalaydi. Xalqaro mehnat tashkilotining tavsiyasiga ko'ra, bu ko'rsatkich 40 foizdan kam bo'lmasligi zarur. Yevropa mamlakatlarida bu ko'rsatkich 60 foiz atrofida tebranadi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga (IHTT) a'zo davlatlarda bu ko'rsatkich 54,5 foizni tashkil qiladi. Rossiyada 2016 yilda qoplash koeffitsienti 35,5 foizni tashkil qilgan. O'zbekistonda bu ko'rsatkich 41 foizni tashkil qiladi va bunday ko'rsatkichga ega davlatlar soni juda oz<sup>42</sup>. Shuni alohida ta'kidlash joizki, bu ko'rsatkichning holatiga mehnat stajining davomiyligi, ish haqining miqdori, Pensiya fondiga ajratilgan sug'urta badallari miqdori, pensiyaga chiqish yoshi kabi omillar ta'sir qiladi.

### **Nazorat savollari:**

1. Pensiya so'zi ma'nosini tushuntiring.
2. Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimida pensiya ta'minotining o'rmini qayday baholaysiz?
3. Pensiya atamasi ta'riflarini bilasizmi?
4. Sug'urtaviy pensiyaning miqdoriga bog'liq omillarni tushuntiring.
5. Milliy pensiya tizimlarini tashkil etishning asosiy tamoyillarini tushuntirib bering.

6. Jahon mamlakatlarida pensiya ta'minoti tizimlarining turlari va ularning o'zgarish tendensiyalari haqida ma'lumot bering.

7. "Davlat pensiya ta'minoti tizimini isloh etish Tamoyili" loyihasida nimalar nazarda tutilgan?

8. Pensiya va uning turlarini yoriting.

### Testlar:

#### 1. "Pensiya" so'zining ma'nosi nima?

a) forscha "pension" so'zidan olingan bo'lib, qarilikda, nogironlikda yoki boquvchisini yo'qotganda moddiy ta'minlash uchun muntazam to'lanishi mo'ljallangan pullik to'lov ma'nosini anglatadi;

b) lotincha "pension" so'zidan olingan bo'lib, mehnat qobiliyatini, ish haqi ko'rinishidagi daromad manbayini yo'qotganda, qarilikda, nogironlikda yoki boquvchisini yo'qotganda moddiy ta'minlash uchun muntazam to'lanishi mo'ljallangan pullik to'lov ma'nosini anglatadi;

c) lotincha "pension" so'zidan olingan bo'lib, qarilikda moddiy ta'minlash uchun muntazam to'lanishi mo'ljallangan pullik to'lov ma'nosini anglatadi;

d) inglizcha "pension" so'zidan olingan bo'lib, qarilikda, nogironlikda moddiy ahvolini yaxshilash uchun muntazam to'lanishi mo'ljallangan pullik to'lov ma'nosini anglatadi;

#### 2. Aholining pensiya ta'minoti darajasi ustuvor ravishda qanday omillarga bog'liq?

a) aholining yashash davomiyligi va sug'urta badallarining o'tkazilganlik darajasiga;

b) ijtimoiy siyosat va ijtimoiy muhofazaga;

c) ijtimoiy himoya tizimining qay darajada rivojlanganligi va mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasiga;

d) ijtimoiy tenglik va iqtisodiy barqarorlik darajasiga;

#### 3. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, O'zbekistonda hozirgi pensiya tizimining shakllanishi va rivojlanishini nechta bosqichga bo'lish mumkin?

a) 6 ta;

b) 5 ta;

c) 4 ta;

d) 3 ta.

#### 4. O'zbekistonda hozirgi pensiya tizimining shakllanishi va rivojlanishining 1 bosqichi qaysi yillarni o'z ichiga oladi?

- a) 1918-1950 yillarni;
- b) 1918-1956 yillarni;
- c) 1902-1918 yillarni;
- d) 1918-1951 yillarni.

**5. O‘zbekiston davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risida ilk bor yagona qonun nechanchi yilda qabul qilindi?**

- a) 1956 yilda;
- b) 1951 yilda;
- c) 1950 yilda;
- d) 1952 yilda.

**6. O‘zbekistonda “Kolxoz a‘zolariga pensiya tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom nechanchi yilda qabul qilindi?**

- a) 1956 yilda;
- b) 1964 yilda;
- c) 1958 yilda;
- d) 1966 yilda.

**7. O‘zbekistonda nechanchi yilda aholining barcha qatlamlari pensiya ta‘minoti bilan qamrab olindi?**

- a) 1963 yilda;
- b) 1964 yilda;
- c) 1965 yilda;
- d) 1966 yilda.

**8. 1990 yilda o‘sha davrdagi pensiya ta‘minotining huquqiy asosini qaysi sobiq Qonun tashkil qilgan?**

- a) “Kolxoz a‘zolariga pensiya tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom;
- b) “Davlat pensiyalari to‘g‘risida”gi Qonun;
- c) “Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minot i to‘g‘risida”gi Qonun;
- d) “Ittifoq fuqarolarining pensiya ta‘minot i to‘g‘risida”gi Qonun.

**9. O‘zbekiston jumhuriyat bo‘limi tashkil etilgan sanani belgilang.**

- a) 1991 yil, 14 yanvar;
- b) 1991 yil, 3 iyul;
- c) 1991 yil, 1 iyul;
- d) 1991 yil, 4 dekabr.

**10. O‘zbekiston Respublikasi “Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risida”gi Qonuni nechanchi yilda qabul qilingan?**

- a) 1993 yil 1 iyul;

- b) 1993 yil, 3 sentyabr;
- c) 1994 yil, 3 sentyabr;
- d) 1994 yil, 1 iyul.

**11. O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga ko‘ra, respublika hududidan tashqarida yashab turgan fuqarolarga pensiya to‘lash tartibi qanday?**

- a) belgilangan eng kam pensiya miqdorida;
- b) davlatlararo bitimlar (shartnomalar) asosida;
- c) bazaviy hisoblashning ikki baravari hisobida;
- d) belgilangan eng kam nafaqa miqdorida.

**12. O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga ko‘ra, ish stajiga ega bo‘lmagan fuqarolar va ularning oilalariga pensiya qanday tartibda tayinlanadi?**

- a) pensiyalari olish huquqiga ega emaslar;
- b) bazaviy hisoblashning ikki baravari miqdorida;
- c) bazaviy hisoblashning uch baravari miqdorida;
- d) bazaviy hisoblashning to‘rt baravari miqdorida.

**13. Pensiya miqdori nechta qismdan tashkil topadi?**

- a) 2 ta;
- b) 3 ta;
- c) 4 ta;
- d) 5 ta.

**14. Pensiya turlarini ko‘rsating.**

- a) yoshga doir, nogironlik, boquvchisini yo‘qotganlik;
- b) umumiy, maxsus, korporativ;
- c) ixtiyoriy va sug‘urtalangan;
- d) yoshga doir, boquvchisini yo‘qotganlik.

**15. Ishlayotgan fuqarolar to‘laydigan daromad solig‘ining 1foiz miqdoridagi ajratmalardan iborat fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya badallari qachondan joriy qilindi?**

- a) 2005 yil 1 yanvardan;
- b) 2001 yil 1 yanvardan;
- c) 2002 yil 1 yanvardan;
- d) 2004 yil 1 yanvardan.

## XII-bob. AHOLI BANDLIGI. ISHSIZLIK: IJTIMOYIY-IQTISODIY OQIBATLARI, ASOSIY KO'RINISHLARI, QISQARTIRISH YO'LLARI

### 12.1. Bandlik, uning mohiyati va shakllari

### 12.2. Ishsizlik va uning asosiy turlari

### 12.3. Mehnat bozorining modellari

#### 12.1. Bandlik, uning mohiyati va shakllari

Aholining mehnatda bandligi va uning darajasi xar qanday davlat iqtisodiyotining rivojlanganligini ifodalovchi ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlarda mehnatda bandlik va ishsizlikning ko'p yillik o'rganish tajribasi shuni ko'rsatadiki, mehnatga yaroqli aholining 94-95 foizi mehnatda band bo'lsa iqtisodiyot me'yorida rivojlanayotgan hisoblanadi. Rasmiy ma'lumotlarga nisbatan, O'zbekistonning mehnatga layoqatli aholisining 73,8 foizigina mehnatda band bo'lib, iqtisodiy faoliyat yuritadi. Shuning uchun ham O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida mehnatga layoqatli aholining mehnatda bandlik darajasini oshirish, uning tarkibiy tizimini yaxshilash, yangi ish joylarini yaratish muammolari nihoyatda dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Aholining bandligi uning qayta ko'payishi uchun zarur shartdir, chunki kishilarning turmush darajasi, jamiyatning kadrlar tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish ishga joylashtirish, ishsizlarni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash uchun sarf qiladigan chiqimlar aholi bandligiga bog'liqdir. Bandlik inson ijtimoiy kamolatining eng muhim tomonlaridan birini ochib beradi, zotan bu uning mehnat sohasidagi va mehnat bilan bog'liq bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga aloqadordir.

**Bandlik - bu fuqarolarning shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan, qonunlarga zid kelmaydigan va ularga ish haqi (mehnat daromadi) keltiradigan faoliyatdir.**

O'zbekistonda "Aholini bandligi to'g'risida" Qonun (7 may 1993 y.) qabul qilingan bo'lib, unga keyinchalik bir qator qo'shimcha va o'zgarishlar kiritilgan. Mazkur Qonunda bandlikning asosiy tamoyillari

belgilab berilgan va bandlik munosabatlariga bozor xususiyati singdirilgan.

**Birinchi tamoyil** - mehnat va bandlikda erkinlikni ta'minlash, zo'rovchi, majburiy mehnatni ta'qiqlashdir. Insonga ijtimoiy mehnatda qatnashish yoki qatnashmaslikni tanlash ustuvor huquqi berilgan.

**Ikkinchi tamoyil** - O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq mehnat qilish huquqini ta'minlash, ishsizlikdan himoya qilish, ishsiz bo'lib qolganda ishga joylashtirish va moddiy jihatdan quvvatlashda davlatning shart-sharoitlar yaratib berishidir.

Qonun bandlikka ko'maklashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillarini mustahkamlaydi:

- barcha fuqarolar millati, jinsi, yoshi, ijtimoiy ahvoli, siyosiy e'tiqodi, dinga munosabatidan qat'iy nazar, erkin mehnat qilish va bandlikni erkin tanlash, fuqarolarning mehnat va tadbirkorlik tashabbusini qo'llab-quvvatlash, ularning unumli, ijodiy mehnat qilishga bo'lgan qobiliyatini rivojlantirishga ko'maklashish;

- bandlik sohasida ijtimoiy himoyani ta'minlash, ish topishda qiynalayotgan fuqarolar uchun maxsus chora-tadbirlar belgilash;

- yangi ish o'rinlari yaratayotgan ish beruvchilarni rag'batlantirish va boshqa tamoyillardir<sup>147</sup>.

Bandlik holati ishchi kuchidan samarali foydalanish darajasiga ko'ra uch guruhga ajratiladi (1-rasm). Bular: 1) to'la bandlik; 2) samarali bandlik; 3) erkin tanlangan bandlik.

Aholining hisobga olishning amaliy ehtiyoji bandlik turlarini ajratib ko'rsatish zarurligini nazarda tutadi. Jumladan, to'liq, samarali va erkin tanlangan bandlik bo'ladi.

**To'liq bandlik** - bu kasbga oid mehnat bilan ta'minlanish bo'lib, u shaxsga daromad keltiradi va o'zi hamda oilasining munosib turmush kechirishiga sharoit yaratadi.

**Samarali bandlikning** asosiy mohiyati quyidagilardan iborat:

Har qanday ish emas, balki faqat ikkita muhim talabga javob bera oladigan ishgina ijtimoiy jihatdan maqbul deb hisoblanishi mumkin. Birinchidan, bandlik mehnat qiluvchiga daromad keltirishi, insonga mos turmush kechirishni ta'minlashi kerak. Bundan bandlik siyosatining daromadlar siyosati bilan, pulning qadrsizlanishiga qarshi harakatlar va

---

<sup>147</sup> Зияев Т.М. Ишчи кучи ва бандлик назарияси: Ўқув қўлланма. –Т.: ТДИУ, 2009. – Б. 93.

shu kabilar bilan bog‘liqligi kelib chiqadi. Ikkinchidan, samarali bandlik rasmiy bandlikka qarama-qarshi qo‘yiladi.

Rasmiy bandlikning xususiy ko‘rinishi - ortiqcha xodimlarni ushlab turish yoki ishsizlikdan qutilish uchun rasman ish o‘rinlari tashkil etishdir. Binobarin davlatning bu siyosati har bir kishining mehnati iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo‘lishiga, jamiyat uchun eng ko‘p foyda keltirishga yordam berishga qaratilgan.

Erkin tanlangan bandlik shuni nazarda tutadiki, bunda o‘zining mehnat qilishga bo‘lgan qobiliyatiga (ish kuchiga) egalik qilish huquqi faqat uning egasiga, ya‘ni xodimning o‘ziga tegishli bo‘ladi. Mazkur tamoyil har bir xodimning bandlikni tanlashda to‘g‘ri yo‘l tutishi har qanday ma‘muriy tarzda ishga jalb qilishni ta‘qiqlashni kafolatlaydi.

Bandlikning yuqorida keltirib o‘tilgan turlari aholini ishga bo‘lgan ehtiyoji bilan ish o‘rinlari o‘rtasidagi muvozanatni miqdor va sifat jihatidan ta‘minlash holatini aks ettiradi. Bunda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti uchun qulay shart-sharoitlar yaratiladi. Bozor munosabatlariga o‘tish davri sharoitida mehnat samaradorligini ortib borishiga qarab, kasbiy mehnat bandlik darajasi mamlakat bo‘ylab yoppasiga qisqarib boradi. Bunga sabab shuki, yuqori samarali iqtisodiyot nisbatan kamroq miqdordagi xodimlarga muxtoj bo‘ladi, shuningdek aholining ijtimoiy foydali mehnatning boshqa turlariga qiziqish ortishi bilan uning ish o‘rinlariga bo‘lgan ehtiyoji ham kamayib boradi.

### 12.1-rasm. Aholi bandligining turlari.



#### **Qonunga ko‘ra quyidagilar ish bilan bandlar hisoblanadi:**

- mehnat shartnomasi asosida ishlayotganlar, haq to‘lanadigan boshqa ishga, shu jumladan vaqtincha, mavsumiy ishga ega bo‘lganlar;

• o‘zini mustaqil ravishda ish bilan ta‘minlayotganlar, xususan yakka tartibdagi mehnat faoliyati bilan shug‘ullanayotganlar (shu jumladan fermerlar, yozuvchilar va shu kabilar), tadbirkorlar, shuningdek, ishlab chiqarish jamoalarining a‘zolari;

• haq to‘lanadigan lavozimga saylanganlar, tasdiqlanganlar yoki tayinlanganlar;

• har qanday qo‘shin turlarining harbiy xizmatchilari, ichki ishlar organlarida xizmat qilayotganlar;

• kunduzgi o‘quv yurtlarining mehnatga qobiliyatli o‘quvchilari, shu jumladan bandlik xizmati yo‘llanmasi bilan o‘qishga kelganlar;

• vaqtincha ishda bo‘lmaganlar (ta‘til, kasallik, qayta tayyorlanish va shu kabilar);

• fuqarolik-huquqiy shartnomalar bo‘yicha (pudrat shartnomalari bo‘yicha) ish bajarayotganlar.

Bandlik munosabatlari iqtisodiy, demografik va ijtimoiy jarayonlar mazmunining o‘zaro aloqadorligi orqali shakllanadi. Bandlikning iqtisodiy mazmunini xodim uchun o‘z mehnati bilan o‘ziga munosib tarzda yashashni ta‘minlash, ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligining o‘sishiga yordam berish imkoniyatida o‘z ifodasini topadi. Ijtimoiy mazmun shaxsning tarkib topish va rivojlanishida ifodalanadi. Bandlikning demografik mazmuni band aholining yoshi va jinsiy xususiyatlari, uning tarkibi va boshqalar bilan bog‘liqligini aks ettiradi.

Bandlikka ta‘sir ko‘rsatish usullari sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- bilvosita (iqtisodiy) usullari: davlatning moliya siyosati (assignovanie va subsidiyalar), monetar siyosati (pul xajmini tartibga solish), fiskal siyosati (soliq stavkalarining o‘zgarishi);

Bandlikka davlatning ta‘sir ko‘rsatish turlari:

- passiv ta‘sir ko‘rsatish – band bo‘lmagan aholiga ijtimoiy yordam;  
- aktiv (faol) ta‘sir ko‘rsatish - talab va taklifni muvofiqlashtirish chora-tadbirlari.

Iqtisodiy jihatdan faol bo‘lgan aholi uchun, shu jumladan ishsizlar uchun bandlik maqomini belgilab olish muhimdir. Odatda besh maqom bor.

1.Yollanma xodimlar - bular korxonalar rahbariyati bilan mehnat faoliyati shartlari to‘g‘risida tuzilgan yozma kontrakt (shartnoma) yoki og‘zaki bitim bo‘yicha ishlaydigan shaxslar bo‘lib, ular ana shu faoliyat uchun yollanish vaqtida kelishib olingan ish haqini oladilar.

2. Yakka tartib asosida ishlaydiganlar - mustaqil ravishda faoliyat olib boradigan, o'zlariga daromad keltiruvchi ish bilan shug'ullanadigan, faqat qisqa muddatga yollanma xodimlardan foydalanadigan yoki foydalanmaydigan shaxslar;

3. Ish beruvchilar - o'zining xissadorlik jamiyatini xo'jalik shirkati va h.k.ni boshqaradigan, yoki buning uchun davlat tomonidan vakil qilingan shaxslar. Ish beruvchi o'z vazifalarini yollanma boshqaruvchiga to'liq yoki qisman topshirib qo'yishi, korxonaning muvaffaqiyatli ishlashi uchun javobgarlikni o'zida olib qolishi mumkin.

4. Oilaviy korxonalarining haq to'lanmaydigan xodimlari qarindoshiga tegishli bo'lgan oilaviy korxonada haq olmasdan ishlaydigan xodimlar.

5. Bandlik maqomi bo'yicha taqsimlashga to'g'ri kelmaydigan shaxslar – ilgari o'zlariga daromad keltiradigan mehnat faoliyati bilan shug'ullanmaydigan kishilar. Ular sirasiga bandlikning biron-bir maqomiga mos kelmaydigan shaxslar ham kiritiladi.

Bandlik munosabatlarini iqtisodiy, demografik va ijtimoiy jarayonlar taqazo qiladi. Bandlikning iqtisodiy mazmunini xodim uchun o'z mehnati bilan o'ziga munosib tarzda yashashni ta'minlash, ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini o'sishiga yordam berish imkoniyatida o'z ifodasini topadi. Ijtimoiy mazmun shaxsning tarkib topishi va rivojlanishda ifodalanadi. Bandlikning demografik mazmuni bandlik aholining yoshi va jinsiy xususiyatlari, uning tarkibi va boshqalar bilan bog'liqligini aks ettiradi.

Iqtisodiy nazariya va amaliyotda bandlik samaradorligini aks ettiradigan ko'rsatkichlar tizimi ishlab chiqilgan. Odatda ko'rsatkichlarning to'rtta guruhi qo'llaniladi. Birinchi guruh - bu jamiyatning mehnat resurslarini ularning ijtimoiy foydali faoliyatda ishtirok etish xususiyati bo'yicha taqsimlash proporsiyasidir. Ikkinchi guruh - mehnatga qobiliyatli aholining ijtimoiy xo'jalikdagi bandlik darajasidir. Iqtisodiy jihatdan bu ko'rsatkich, bir tomondan ijtimoiy xo'jalikning xodimlarga bo'lgan ehtiyojini, ikkinchidan, aholining ish o'rinlariga bo'lgan ehtiyojini aks ettiradi. Bandlikning samaradorligiga ana shu xususiyatiga qarab baho berish mehnat resurslari balansi asosida amalga oshirilishi mumkin. Uchinchi guruh - ishlovchilarning xalq xo'jaligining tarmoqlari bo'yicha taqsimlashning tuzilishidir. O'zbekistonda mavjud bo'lgan bandlarning tarmoq tuzilishi jamiyatning mehnat (ishchi kuchi) potensial idan foydalanish darajasi unchalik baland emasligini

ko'rsatadi. To'rtinchi guruh -bu ishlovchilarning kasbiy - malaka tuzilishidir. U ishlovchi aholini kasb - malaka tuzilishidir. U ishlovchi aholini kasb-malaka guruhlarini bo'yicha taqsimlashni ko'rsatadi va iqtisodiyotning malakali xodimlarga bo'lgan ehtiyojlari bilan kadrlar tayyorlash tizimining muvozanat darajasini aks ettiradi.

Bandlikni mohiyatiga xos xususiyatlari, shu jumladan bandlik turlari, xalq xo'jalik tarmoqlari, kasb-malaka guruhlarini bo'yicha taqsimlanishi kishilarda yoshi jinsiga qarab turlicha bo'ladi.

Aholining jins va yosh guruhlarini ularning ijtimoiy foydali faoliyatida ishtirok etish xususiyatiga ko'ra birlashuvini aholining ijtimoiy (sotsial) demografik guruhlarini deb atash qabul qilingan.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, aholining jinsi va yoshiga qarab band bo'lishi xususiyatlarini hisobga olish maqsadida, quyidagi ijtimoiy-demografik guruhlarini ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiqdir: erkaklar va ayollar, yoshlar (16-29 yoshgacha bo'lgan mehnatga faol aholi), o'rta yoshdagi shaxslar (30-49 yosh), pensiya yoshi arafasidagi shaxslar (50 yoshdan katta bo'lgan mehnatga qobiliyatli aholi), pensiya yoshidagi shaxslar.

Ayollarning ijtimoiy-mehnat faolligi mezonlari yoshga kasbiy tayyorgarlik, mansabga intilish, hayotda ro'y beradigan demografik voqealarga oilaviy - maishiy bandlik va boshqa ko'pgina omillarga bog'liq bo'lib, ular ayollarning iqtisodiy roliga, ularning raqobatbardoshligiga ta'sir ko'rsatadi. Avvalo, quyidagi omillarni yutuqlarini birga qo'shib olib borar ekanlar, an'anaviy jihatdan olib nisbatan, erkaklarga nisbatan vaqtlari kamroq xodimlar hisoblanadilar.

Erkaklarning vazifasi hamisha ayollarning mehnat mansabiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi: ayollar ishida qonunlarga ko'ra maxsus mehnat muhofazasiga xarajatlar, ijtimoiy imtiyozlar va shu kabilar ko'proq talab etiladi. Ayollardan iborat ish kuchining raqobatbardoshligi iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik jihatlaridan iborat bo'ladi. Iqtisodiy jihatlar umumdorlik, ishchanlik, qobiliyati, sifat, qulaylik yoki jozibalilik kabilarni o'z ichiga qamrab oladi. Ijtimoiy-psixologik jihatlar ma'lumot darajasini, malakani, kasb mahoratini, ko'nikishga qobiliyatni, mehnatdagi harakatchanlikni o'z ichiga oladi. Demografik jihatlar yosh, oilaviy ahvol bolalarni o'z ichiga oladi.

## 12.2. Ishsizlik va uning asosiy turlari

Ishsizlik hozirgi vaqtda jamiyatning eng markaziy muammolaridan biri hisoblanadi. Zero yuqori darajadagi ishsizlik mavjud resurslardan to'liq foydalanilmayotganligini va natijada aholi daromadlarining pastligini ko'rsatadi. Bu esa ijtimoiy sohada, oilaviy munosabatlarda vaziyatning keskinlashuvi va jamiyat miqyosida norozilikning ko'payishiga olib kelishi mumkin. Ish joyidan ayrilish ko'p kishilar uchun oilaviy turmush darajasining yomonlashishini, shaxsiy hayotining notinchligini bildirib, insonga jiddiy ruhiy ta'sir ko'rsatadi.

Ishsizlik shunday hodisaki, unda ishchi kuchi iqtisodiy faol aholining bir qismi sifatida tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishda band bo'lmaydi. Ishsizlar esa ish bilan band bo'lganlar bilan bir qatorda mamlakat ishchi kuchini tashkil qiladi.

Amaliyotdagi iqtisodiy hayotda ishsizlik ishchi kuchi taklifining unga bo'lgan talabdan oshib ketishi tarzida namoyon bo'ladi.

Iqtisodiy nuqtayi nazardan ishsizlik deyilganda, ishchi kuchining ish joyi bilan ta'minlanmaganligi va natijada uning biron-bir qonuniy daromad manbayiga ega bo'lmaslikning muayyan holatiga aytiladi.

Ijtimoiy siyosat fani uchun ishsizlik muammosini o'rganishdan asosiy maqsad, aholini ish bilan bandligini ta'minlash orqali mamlakat ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga aloqador tadbirlar ishlab chiqishdan iboratdir.

Xalqaro mehnat tashkiloti bergan ta'rifiga binoan «Ishsiz shaxslar» deganda – ishga ega bo'lmagan, ishlashga tayyor va ish izlayotgan fuqarolar tushuniladi. Mana shu asosiy shartlarga rioya qilgan holda turli mamlakatlarda fuqaroni ishsiz shaxs deb e'tirof etish uchun qo'shimcha shartlar talab qilinadi.

Jumladan, AQSHda so'nggi bir hafta mobaynida ish bilan band bo'lmagan, so'ngi to'rt hafta davomida ishga joylashishga (be'vosita ish beruvchiga yoki ish bilan ta'minlash davlat xizmatiga murojaat etish orqali) harakat qilgan, mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan fuqarolar ishsiz shaxs deb e'tirof etiladilar.

Yaponiyada ishsiz shaxs deb so'nggi bir hafta davomida bir soat ham ishlamagan, Buyuk Britaniyada esa - so'nggi bir hafta mobaynida ishlamagan, shu davr mobaynida ish izlagan yoki kasalligi tufayli ish izlash imkoniyatiga ega bo'lmagan fuqarolar tushuniladi.

O‘zbekiston Respublikasi “Aholini ish bilan ta’minlash to‘g‘ri-sida”gi qonuniga binoan ishsiz shaxs deb, mehnatga qobiliyatli (o‘n olti yoshdan boshlab to‘pensiya bilan ta’minlanish huquqini olgunga qadar), ishga va ish haqiga (mehnat daromadiga) ega bo‘lmagan, ish izlovchi shaxs sifatida mahalliy mehnat organida ro‘yxatga olingan, mehnat qilishga, kasbga tayyorlash va qayta tayyorlashdan o‘tishga, malakasini oshirishga tayyor mehnatga qobiliyatli shaxslar e’tirof etiladi. Shunday qilib, fuqaroni ishsiz shaxs deb e’tirof etish uchun bir vaqtning o‘zida quyidagi to‘rtta shart mavjud bo‘lishi lozim:

- fuqaro mehnatga qobiliyatli bo‘lishi;
- fuqaro ishga va ish haqiga (mehnat daromadiga) ega bo‘masligi lozim;
- fuqaro ishlashga tayyor bo‘lishi lozim;
- fuqaro barcha tegishli hujjatlarni taqdim qilgan holda mahalliy mehnat organida ish izlovchi shaxs sifatida ro‘yxatdan o‘tishi lozim.

Ishsizlikni yaqindan o‘rganish, iqtisodiy tabiatini bilish uchun uning sinflanishuvini bilish maqsadida, ishsizlikni quyidagi asosiy turlarga ajratish mumkin:

1. Tabiiy ishsizlik.
2. Majburiy ishsizlik.

**Tabiiy ishsizlik** - deganida ishchi kuchi harakati va uning ma’lum bir jamiyat a’zosi sifatidagi mehnat hulqiga aloqador bo‘lgan ish bilan band bo‘lmaganlik holatiga aytiladi. Aniqroq qilib aytganda, tabiiy ishsizlik guruhlarini sirasiga kiruvchi ishchi kuchi uning egasi - fuqaroning istak-xohishlariga muayyan ma’noda bog‘liq holda, ishsizlik holatida bo‘lishga tabiiy ishsizlik deyiladi.

**Majburiy ishsizlik** - turlari esa ishsizlikning ishchi kuchiga aloqador bo‘lmagan holda kelib chiqishini tavsiflaydi.

**Friksion ishsizlik** - vaqtincha ishsizlik bo‘lib, ish joyini almash-tirish paytida yuz beradi, eski ishdan ketib, yangi ishga o‘tguncha ishsizlik yuz beradi. Ya’ni ular ish qidirayotgan ishchi kuchlaridir. Ishsizlarning ushbu toifasiga o‘z kasbini o‘zgartirayotgan, ko‘chib ketayotgan kishilar, birinchi marotaba ishga kirayotgan yoshlar, vaqtinchalik ishdan bo‘shatilganlar kiradi. Ishsizlikning bunday shakli istalgan ijtimoiy tizimda, iqtisodiy rivojlanishning istalgan darajasida mavjud, u ijtimoiy havfli ishsizlik deb hisoblanmaydi.

**Tarkibiy ishsizlik** - ishchi kuchiga bo‘lgan taklif umumiy tarkibining o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘lib, uning tarmoqlar bo‘yicha

taqsimlanishining o'zgarishiga olib keladi. Bu odatda ba'zi kasblar va tarmoqlarning paydo bo'lishi, ba'zilarining yo'qolishi, gohida esa tarmoqlardagi iqtisodiy inqirozlar tufayli mehnat zaxiralarining qayta taqsimlanishi bilan bog'liq.

**Davriy ishsizlik** - deyilganda iqtisodiy tushkunlikning muayyan davrida (ishlab chiqarishni pasayishi) yuzaga keladigan ishsizlik turi tushuniladi<sup>148</sup>.

**Tuzilmaviy ishsizlik** - iqtisodiyot, fan-texnika taraqqiyoti jadal rivojlangan sari yangi ishlab chiqarishlar, korxonalar sifat jihatidan yangi tarmoqlar paydo bo'lishi va ayni vaqtda boshqa korxonalar, tarmoqlar, texnologiyalarning eskirishi bilan bog'liq. Bunda doimiy ravishda yangi kasblar paydo bo'ladi va ilgari keng tarqalgan ayrim kasblar keraksizga aylanadi, yangi kasblarga talab kuchayadi va eskilariga bo'lgan ehtiyoj kamayadi. Bular natijasida, keraksiz bo'lib qolgan ishchi kuchi tuzilmaviy ishsizlikni hosil qiladi.

Friksion va tuzilmali ishsizlikda muayyan o'xshashliklar va farqli jihatlar mavjud. Asosiy farqi shundaki, friksion ishsizlikda ma'lum malaka va tajriba mavjud bo'ladi va undan foydalanib, qisqa vaqtda ishchi kuchini sotish yoki ish topish mumkin. Tuzilmali ishsizlikda ishchi kuchi darhol yoki qisqa muddatda ish topa olmaydi.

U malakasini o'zgartirishi, qayta malaka oshirishi, ma'lumot olishi, kasb egallashi lozim. Hatto ba'zi hollarda yashash joyini o'zgartirishga ham to'g'ri keladi.

**Mavsumiy ishsizlik** - deganda Mavsumiy ishda band bo'lganlarning mavsum tugagach ishsiz qolishiga aytiladi. Bu ishsizlik qishloq xo'jaligi, qurilish va kurort sohalariga xos.

**Siklik ishsizlik** - ishlab chiqarishning pasayishi natijasida ishchi kuchiga bo'lgan talabning kamayishi va ishsizlarning paydo bo'lishidir. O'zbekistonda (1992 yilda) ishlab chiqarishning pasayishi siklik ishsizlikka olib kelgan edi. Ishlab chiqarishning pasayishi, mavjud iqtisodiy aloqalarning keskin darajada buzilishi, respublikada shu davrda bozor tuzilmasining yaratilmaganligi ham ayni qayta ishlash sanoatining past rivojlanganligi va shu kabi sabablar bilan bog'liq holda ishsizlar soni ko'paydi.

Siklik ishsizlik bozorning eng jiddiy iqtisodiy va ijtimoiy muam-molaridan biridir. U barcha tarmoqlar, sohalar, mintaqalarda ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyojning pasayishi bilan birga boradigan umumiy

<sup>148</sup> Зияев Т.М. Ишчи кучи ва бандлик назарияси: Ўқув қўлланма. –Т.: ТДИУ, 2009. –Б. 98.

iqtisodiy tanazullar va inqirozlar bilan bog‘langan. Bunday davrlarda ishlashni xohlaydigan va bunga salohiyatli kishilar ishsiz bo‘lishga majburdirlar, chunki ishlab chiqarishning umumiy tanazzuli tufayli ishchi kuchi iqtisodiyotga kerak bo‘lmaydi.

Siklik ishsizlikda ishsizlar soni keskin ko‘payadi. Jumladan, AQSHda “Buyuk depressiya” yillari (30-yillar) ishsizlik taxminan 25foizga teng bo‘lgan, oxirgi ishlab chiqarish pasaygan yillari (1922y) ishsizlik darajasi 9,7 foizga teng bo‘lgan.

**Institutsional ishsizlik** - mehnat bozorining institutlari vujudga keltiradi, uning asosiy sababi - ishsiz kishining nafaqa hisobiga yashash imkoniyatiga ega bo‘lishi va shu sababli ish izlashga rag‘batning yo‘qolishidir. Institutsional ishsizlik insonning asosiy ehtiyojlarini ta‘minlash uchun ishsizlik bo‘yicha nafaqa miqdori yetarli bo‘lganda ommaviy hodisa sifatida vujudga keladi, nafaqa to‘lash muddati davomli bo‘ladi.

Institutsional ishsizlikning oqibatlari bir xilda bo‘lmaydi. Albatta, ishsiz kishining munosib turmush darajasini saqlab turish, qashshoqlik va uning jinoiy oqibatlarini bartaraf etish ijobiy holdir, salbiy hol esa jamiyatdagi ishchi kuchi potensialidan samarali foydalanmaslik, fuqarolarda boqimandalik ruhiyatini shakllantirish, mehnatga bo‘lgan sabab va rag‘batlantirishning yo‘qolishidir.

Soliq tizimining mukammal emasligi ham institutsional ishsizlikka sabab bo‘lishi mumkin. Daromad solig‘ining haddan tashqari yuqori stavkalari xodimlar ixtiyorida qoladigan daromadlar hajmini qisqartirib yuboradi. Daromadlar bilan ijtimoiy dasturlar bo‘yicha to‘lanadigan to‘lovlar o‘rtasida farq qanchalik kam bo‘lsa, ishchi kuchi taklifini cheklaydigan va ishsizlik muddatlarini uzaytiradigan mehnat bozorining sust ishlashi bilan bog‘liq bo‘lgan ishsizlikni ham institutsional ishsizlik toifasiga kiritish kerak. Kasblarning tuzilishi, malaka darajalari va mehnat bozorining boshqa xususiyatlari nisbatan asta-sekinlik bilan o‘zgaradi, ishlab chiqarish ehtiyojlaridan orqada qoladi, buning natijasida ishsizlikning alohida ko‘rinishi paydo bo‘ladi. Bo‘sh ish o‘rinlari to‘g‘risidagi axborotning mukammal emasligi tufayli vujudga keladigan ishsizlikni ham institutsional ishsizlik sirasiga kiritish mumkin.

Iqtisod ilmidagi ishsizlikning boshqa turlari to‘g‘risida ham so‘z yurtitladi. Chunonchi, iqtisodiy ishsizlik, yashirin ishsizlik va h.k.

Ijtimoiy statistikaga ko'ra, aksariyat rivojlangan mamlakatlarda ishsizliklarga ularning bandlik maqomi to'g'risida maxsus so'rov o'tkazilayotgan paytda band bo'lmagan, o'tgan to'rt hafta davomida ish topishga harakat qilgan va mehnat birjasida hisobga olingan shaxslar kiradi (Jumladan AQSHda).

Hozircha respublikamizda xalqaro me'yorlarga mos keladigan holda ishsizlikni hisoblash va kuzatish tajribasi mavjud emas, biroq, bu sohadagi (ishsizlikni aniqlash bo'yicha) ilmiy izlanishlar hozirgi kunga kelib davlat ahamiyatiga ega bo'lib bormoqda. Ishsizliklar safiga odatda nafaqat turli sabablarga ko'ra ishdan bo'shatilganlar, balki o'z ixtiyoriga ko'ra ishdan ketganlar va yangi ish topishga harakat qilayotgan shaxslar ham kiritilishini qayd etish lozim.

Ishsizlik tarkibi uning sabablariga ko'ra ishchi kuchining to'rt asosiy toifasini o'z ichiga oladi: Ishdan bo'shatilishi natijasida o'z joyini yo'qotganlar; ishdan ixtiyoriy ravishda bo'shatilganlar; tanaffusdan so'ng mehnat bozoriga kelganlar. Mehnat bozoriga birinchi bor kelganlar. Bu toifalarning o'zaro nisbatlari avvalom bor iqtisodiy sikllar fazalariga (bosqichlariga) bog'liq.

Ishsizlik darajasini tabiiy darajasi qancha bo'lishi mumkin, degan savol ustida iqtisodchilar juda ko'p bosh qotirdilar, lekin hech bir mamlakatda uning aniq miqdori belgilangan emasligi ma'lum. Jumladan, AQSHda ishsizlar sonining tabiiy darajasi 1960 yillarda 4 foizni tashkil etgan bo'lsa, 1990 yillarda esa bu ko'rsatkich 4-6 foizga ko'tarildi. Inflatsiya darajasi yuqori bo'lgan davrdagi ishsizlik darajasi tabiiy meyoriy holat deb ifodalaniib, ishlab chiqarishning potensial imkoniyati bilan bog'liqlikda bo'ladi. Agar bandlik yuqori bo'lib, ishlab chiqarish ham ko'p bo'lsa, spiralsimon inflatsiya yuzaga keladi. Ishsizlik darajasi doimo noldan yuqori bo'ladi, chunki ixtiyoriy va tarkibiy ishsizlik u yoki bu kurinishda mavjud bo'ladi. Lekin ishsizlikning tabiiy darajasi inflatsiyaning kuchayishini to'xtatib turadi. Hozirgi vaqtda rivojlangan mamlakatlarda tabiiy ishsizlik darajasi quyidagi sabablarga ko'ra ortishi mumkin.

1. Mehnatga o'smirlar va ayollarning jalb etilishi.

2. Davlatning iqtisodiy siyosati, jumladan ishsizlarga nafaqalarni joriy qilish, ishsizlarga kam maosh to'laydigan ishlarga yollanmasdan uzoq muddat yuqori ish haqi to'laydigan ishni izlash imkonini beradi. Hozirgi vaqtda ko'pchilik mamlakatlarda ishsizlarga 16 dan 26 haftagacha olayotgan eng so'nggi ish haqining 50 foizi miqdorida

ishsizlik nafaqasi to'lanadi va soliqlardan ozod etiladi, natijada ular ish haqining 60-70 foiz miqdorida pul ola boshlaydilar.

3. Tarkibiy ishsizlikning ko'payishi ishsizlik tabiiy darajasining o'sishiga olib keladi. Jumladan, avtomobilsozlik sanoati inqirozi.

Amalda ishsizlik tabiiy darajasining eng maqbul miqdori mavjud emas. Hali hech kim iqtisodiyot uchun muayyan bir shaxsning ishlab chiqarish bilan shug'ullanganidan ko'ra ishsiz bo'lgani afzal ekanligini isbotlashga erishgani yo'q. Aksincha, ayrim hisoblardan ko'rinadiki, yalpi milliy mahsulotni yuqori darajada ishlab chiqarish natijasida ishsizlikning tabiiy darajasi pasayadi.

Ammo u maqbul miqdordan yuqori bo'lib qolaveradi. Chunki, YAMM ishlab chiqarish o'z imkoniyat darajasiga yetmagan bo'ladi. YAMMni potensial darajasiga yetkazish esa haddan tashqari iqtisodiy farovonlikka olib keladi va oqibatda inflatsiya kuchayishi mumkin.

Quyidagi tadbirlar ishsizlik tabiiy darajalarining pasayishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin:

1. Aholini mavjud ish o'rinlari haqida xabardor etishni yaxshilash.

2. Mutaxassislar tayyorlashni takomillashtirish.

3. Ishsizlarni davlat tomonidan himoyalash darajasini pasaytirish.

Xalqaro Mehnat tashkiloti (XMT) standarti bo'yicha tabiiy ishsizlik darajasi 1,5-2,5foiz ni tashkil etadi.

Ishsizlikning ko'payishi iqtisodiyotning o'sish sur'atlarini pasaytiradi.

Yuqoridagilardan quyidagi xulosalar qilish mumkin bo'ladi.

Aholining bandligi uning qayta ko'payishi uchun zarur shart hisoblanadi. Bandlik - bu fuqarolarning ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan, qonunlarga zid bo'lmagan va ularga ish haqi (mehnat daromadi) keltiradigan faoliyatdir. Bandlikning ahvoli, uning eng muhim xususiyatlari Milliy farovonlik haqida, iqtisodiy rivojlanish sohasida tanlangan yo'lning samarali ekanligi to'g'risida xulosa chiqarish imkonini beradi.

Ishsizlik darajasi mamlakat iqtisodiyotining qay darajada taraqqiy etganligini hamda iqtisodiyotda sodir bo'layotgan o'zgarishlarni muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Ishsizlik darajasi deganda ishsizlar sonini iqtisodiy faol aholi tarkibidagi salmog'i tushiniladi.

Respublikada ishsizlik darajasini, bandlik xizmatlarida ro'yxatdan o'tgan ishsizlar sonining mehnatga layoqatli aholi umumiy soniga

nisbatan olib hisoblash mumkin. Bunday usulda hisoblangan ishsizlik darajasi O'zbekistonda 0,5 foizga teng (bu real emas).

Ishsizlik darajasiga birqancha omillar ta'sir ko'rsatadi: mehnat haqining pastligi, mehnat sharoitlarining yaxshi emasligi, ish haqining vaqtida berilmasligi, qisqartirishlar va boshqa sabablar.

Bozor iqtisodiyoti munosabatlari barqarorlashayotgan davrda ishsizlikning bo'lishi tabiiy bir holatdir. Chunki ish kuchiga bo'lgan talabning taklifiga mos kelishi oqilona bandlikni shakllantirib, jamiyat uchun tabiiy bo'lgan ishsizlik darajasini tarkib toptiradi.

Ish bilan band bo'lmagan shaxslarni yangi kasblarga o'rgatish, malakasini oshirish, moddiy yordam berish va ish joylarini tavsiya etish, mehnat birjasi xodimlari tomonidan amalga oshiriladigan ijtimoiy tadbirlarning eng muhimi hisoblanadi. Bu esa ishchi kuchi bozorida teng raqobat qiladigan mahalliy xodimlarni tayyorlash uchun yetarli emas. Ushbu dolzarb muammoni to'g'ri yechish uchun avvalambor, qishloq o'quv maskanlarining moddiy-texnikaviy va moliyaviy ta'minot ini ijtimoiy himoyasini va professional malaka darajasini tubdan yaxshilash lozim. Bu borada respublikamizda qator tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ishsizlikning tabiiy yoki me'yordagi darajasi – bu aholining ish bilan to'liq bandlik sharoitidagi ishsizlik darajasidir. Qachonki ishchi kuchi bozori muvozanatlashgan bo'lsa, u sodir bo'lishi mumkin, ya'ni ish izlovchilar soni bo'sh ish joylari soniga muvofiq kelsa. Bunday holatda mavjud bo'lgan barcha ishlab chiqarish quvvatlari to'liq harakatga keladi.

Iqtisodiyotda ishchi kuchining tabiiy darajasi ijobiy hodisa sifatida qabul qilingan, chunki friksion va tuzilmali ishsizlikda ishdan mahrum bo'lgan shaxslarga maqbul bo'ladigan yangi ish joyini topish uchun ma'lum vaqt kerak bo'ladi. Bu davrda ular mehnat bozoriga tazyiq o'tkazmaydi. Faqat, ishchi kuchi taklifidagi bozor talabini yanada to'liqroq hisobga olishga qaratilgan tarkibiy o'zgarishlar bo'ladi.

Ishsizlikning tabiiy darajasi yoki to'liq bandlik sharoitidagi ishsizlik darajasi friksion va tuzilmali ishsizlik darajalarining yig'indisi sifatida aniqlanadi, uning tabiiy darajasidan yuqori va ishlab chiqarish quvvatlari to'liq ishlatilmaydi. Qariyb barcha mamlakatlarda iqtisodiy resurslardan to'liq foydalanmaslik holatlari mavjud. Ammo, kamdankam holatlarda, jumladan, urush harakatlari ketayotgan davrda, iqtisodiy resurslar, shu jumladan, ishchi kuchiga talab keskin o'sib ketishi

natijasida ular ishlab chiqarishga to'liq safarbar qilinadilar va natijada, ishsizlikning tabiiy darajasidan past bo'lgan ishsizlik holati paydo bo'ladi.

Ishsizlikning tabiiy darajasi doimiy miqdor deb hisoblanmaydi. Har bir mamlakatda friksion va tuzilmaviy ishsizlik ko'lami iqtisodiy vaziyatning, meyoriy-huquqiy asoslarining aholi turmush tarzining o'zgarishiga bog'liq holda o'zgarib turadi. Hozirgi vaqtda ishsizlikning tabiiy darajasi 6-7 foiz atrofida qabul qilingan bo'lsa-da, biroq bu foizlar turli mamlakatlar bo'yicha tebranib turishi mumkin.

### 12.3. Mehnat bozorining modellari

Mehnat bozori modellari ularning ushbu hodisani tavsiflash andozasi sifatidagi maqsadiga qarab, turlicha bo'lishi mumkin.

Mehnat bozoridagi raqobatchilik darajasiga qarab, sof raqobat bozori modeli, monopsoniya modeli, kasaba uyushmalari harakati hisobga olinadigan model, ikki tomonlama monopoliya modeli<sup>149</sup> ajratiladi.

Sof raqobat bozori modeli quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

- aniq ishchi kuchi turini yollashda ko'p sonli firmalar bir-biri bilan raqobat xizmatlaridan qat'iy nazar, mazkur malaka turini taklif etadilar;
- na firmalar, na ishchilar ish haqining bozor stavkasi ustidan nazorat qilmaydilar, demak ularning hech biri ish haqi qanday bo'lishini buyura olmaydilar.

Monopsoniya modeli (ya'ni, bitta xaridor monopoliyasi) yollovchining sotib olish (yollash) monopoliyasiga ega bo'lishi vaziyatini aks ettiradi.

Firma ishchi kuchi bozorida birdan-bir yirik yollovchi bo'lgan taqdirda, u aslida to'liq monopsoniya hukmronligiga ega bo'ladi. Biron-bir korxonaga ba'zan ish bilan bandlikning birdan-bir manbayi bo'lib qoladigan ba'zi kichik shahar va olis mintaqalarning iqtisodiyoti bunga misol bo'la oladi.

Ba'zan oz miqdordagi firmalar (uchta yoki to'rtta) ishchi kuchi bozorida monopologiyaga ega bo'lib turgan bo'lsa yoki taklif qilingan mehnatning aksariyat qismini yollay oladigan bo'lsa, oligopsoniya ro'y bergan bo'ladi. Buning ustiga, oligopsoniyachilarda xodimlarni

<sup>149</sup> Макконелл К.Р. Брю С. Л. Экономика, М.: 1992. – С. 2.

yollashda qandaydir monopsoniyachi sifatida birgalikda harakat qilish tendensiyasi kuzatiladi.

Ko'plab bozorlarda kasaba uyushmalari xodimlarining manfaatlarini yoqlab chiqadilar va ularning nomidan yollovchilar bilan muzokaralar olib boradilar. Mazkur holatda kasaba uyushmalarining hisobga olinadigan ishchi kuchi bozori modeli namoyon bo'ladi. Bunda kasaba uyushmalarining boshqa iqtisodiy vazifasi ish haqini oshirishga erishishdan iborat bo'ladi. Ular ushbu maqsadni quyidagicha yo'llar bilan amalga oshirishlari mumkin:

1) reklama yordamida mahsulotga va mehnat xizmatlariga talabni oshirish, ishlarning xilma-xil turlariga shartnomalar olish uchun siyosiy lobbingning aralashuvi yoki ishchi kuchining ehtiyoji qandayligidan qat'iy nazar, ularni saqlab qolish amaliyotini qo'llash yo'li bilan;

2) mehnat unumdorligini oshirish orqali;

3) ish haqi stavkalarini o'zgartirish orqali<sup>150</sup>. Kasaba uyushmalari xodimlarini birlashtirib va mehnat taklifini nazorat qilib, firmaga raqobatdagidan yuqoriroq ish haqi stavkalari tayinlashni tiqishtiradilar.

Ikki tomonlama monopoliya modeli kuchli tarmoq kasaba uyushmalari harakat qiladigan monopsonik bozor sharoitlariga xosdir. Boshqacha qilib aytganda, monopsonik model bilan kasaba uyushmalari harakati hisobga olinadigan model birlashtirilgan taqdirda ikki tomonlama monopoliya o'rin tutadi. Kasaba uyushmalari shu ma'noda mehnatni monopolistik sotuvchisi bo'lib, u mehnat taklifini nazorat qiladi va ish haqi stavkalariga ta'sir eta oladi. U ish bilan bandlikni o'zgartirish yo'li bilan, ish haqiga ta'sir eta oladigan monopsonistik ishga yollovchiga qarama-qarshi turadi.

Turli mamlakatlarda ish bilan bandlik va ishchi kuchi bozori modellari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi, biz ana shularga qisqacha to'z talib o'tamiz.

Fransiya modeli. Fransiyada oxirgi 10 yil ichida ishsizlik darajasi 12,0 foiz atrofida saqlanmoqda. Ishsizlikka qarshi kurashish uchun ham faol, ham sust chora-tadbirlar qo'llaniladi, lekin ishchi kuchi bozorida passiv (sust) siyosat ma'qulroq ko'riladi.

Ishsizlarga uzoq vaqt nafaqa to'lanadi. Bunday nafaqa to'lanishining eng uzoq davom etishi 5 yilni tashkil etadi. Shu bilan birga Fransiya budjetidan ishchi kuchi bozorida passiv siyosatga

<sup>150</sup> Зияев Т.М. Ишчи кучи ва бандлик назарияси: Ўқув қўлланма. –Т.: ТДИУ, 2009. – Б. 64.

xarajatlar ulushi faol ijtimoiy siyosat o'tkazishga qilinadigan xarajatlar ulushidan deyarli ikki baravar yuqoridir<sup>151</sup>.

Hozirgi vaqtda Fransiya korxonalarida mehnat resurslarini boshqarish sohasida ishsizlikka qarshi kurashning global vositasi deb qaralayotgan ish bilan to'liqsiz bandlik siyosati amalga oshirilmoqda. Lekin Fransiyada ishsizlik bundan buyon ham 10-12 foiz darajasida qolaveradi, ya'ni G'arbdagi ko'pchilik mamlakatlardagidan yuqoriroq darajada bo'ladi deb taxmin qilinmoqda. Ana shularning barchasi ishchi kuchi bozoridagi passiv siyosatning faol siyosatga nisbatan, samarasi ancha past ekanligini ko'rsatmoqda.

Shvetsiya modeli. Shvetsiyada ishchi kuchi bozoridagi siyosat bo'sh ish o'rinlarini ishsizlar bilan to'ldirishga ko'maklashish va ishsizlarga faqat nafaqalar berib borishdan iborat bo'lib qolmasligi lozim, deb hisoblanadi. Ish bilan to'liq bandlikni yuzaga keltirish an'anaviy strategiyasi muqarrar ravishda inflatsiya ning yuqori darajasiga chiqishga va ish haqi borasida siljishlar ro'y berishiga olib kelishi e'tirof etilgan edi. Shu bois Shvetsiya ishchi kuchi bozorida faol siyosat yuritilib, u quyidagi to'rt elementni o'z ichiga oladi:

1. Cheklovchi fiskal siyosat. Uning maqsadi tovarlar va xizmatlarga kam daromadli korxonalarining faoliyatini to'xtatishga majbur qiladigan sur'atda talab va inflatsiyaning oshishiga yo'l qo'ymaydigan egri soliqlar belgilanishidan iborat. Juda yuqori foyda oladigan firmalar o'rtasida ish haqini oshirish borasida inflatsiyaga olib keluvchi raqobatga yo'l qo'ymaslik uchun foydani jilovlab turish lozim.

2. Ish haqi borasida olib boradigan hamjihatlik siyosati. Buning ma'nosi shuki, barcha ishchi va xizmatchilar tadbirkorlarning moliyaviy ahvolidan yoki firmaning qaysi tarmoqqa qarashli ekanidan qat'iy nazar, teng mehnatga teng haq olishlari kerak.

3. Yangi ish o'rinlarini, shuningdek xodimlarni tayyorlash va qayta o'qitish markazlarini yaratishni rag'batlantirish.

4. Selektiv (tanlama) tarzda iqtisodiy yuksalish. Iqtisodiy ko'rsatkichlari past bo'lsa-da, ijtimoiy zarur xizmatlarni ta'minlaydigan sektorlarda ish bilan bandlikning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi to'g'risida gap bormoqda.

Shvetsiya faol siyosat olib borish bo'yicha bir qator Yevropa davlatlari va Amerika Qo'shma Shtatlaridan ancha oldinda bormoqda.

---

<sup>151</sup> Чернов Ю.И. Производительность труда и безработная экономика. –М.: 1992, – С. 24.

Amerika modeli. Amerika Qo'shma Shtatlarida konyuktura o'zgargan va qo'llanilayotgan ishchi kuchi hajmini kamaytirish zarurati paydo bo'lgan yoki korxonalar norentabel bo'lib qolgan taqdirda xodimlarni ishdan bo'shatish chorasi ishga solinadi. Buning ustiga, xodimlar toki ishdan bo'shatish va korxonaning yopilish vaqti kelgunigacha ishdan bo'shatilganliklari to'g'risida axborot olmaydilar. Yirik sanoat kompaniyalari odatda xodimlarning kasb-malaka tayyorgarliklariga kam e'tibor beradilar, maxsus ishlarga tayyorgarlik bundan mustasno. Ish haqi ishlarning murakkabligiga qarab tasniflanishga bog'liq bo'ladi. Xodimning ishda ko'tarilishi odatda kasb-malaka yo'nalishini kengaytirish bilan emas, balki boshqa ishga o'tishi bilan bog'liq bo'ladi. Ish haqi uzoq vaqtga tuziladigan shartnomalar bilan belgilanadi. Korxonalar ma'muriyatlari va kasaba uyushmalari o'zaro sust bog'langanlar va deyarli axborot almashinib turmaydilar. Ushbu modelga ishchi kuchining kasbiy jihatdan ham, jug'rofiy jihatdan ham yuqori darajada harakatchanlik xosdir.

Amerika Qo'shma Shtatlarida ishsizlikka qarshi kurashning ancha qat'iy usuli qo'llaniladi. Ishsizlik bo'yicha nafaqa atigi yarim yil davomida to'laniladi, ishsizlarga yordam berishning faol chora-tadbirlarini ko'rish odat tusiga kirmagan. Chunonchi, ishchi kuchi bozorida faol davlat siyosatini olib borish xarajatlari, Yalpi Ichki Mahsulotning atigi 0,19 foizini tashkil etadi<sup>152</sup>. Ana shunday yondashish sharoitida odamlarning o'zlari faollik va sobitqadamlik bilan o'zlariga ish qidiradilar. Bunday siyosat natijasida ishsizlik darajasi nisbatan past bo'lmoqda (5,4foiz). Shu bilan birga ko'pdan-ko'p amerikaliklar o'zlarining ish beruvchiga qaram ekanliklari va tez-tez ishni o'zgartirish, yangi jamoaga, yangi ish sharoitlariga moslashish zarurligidan o'zlarini ruhan noxush sezadilar.

**Yaponiya modeli.** Bu mamlakatda mehnat munosabatlari tizimi umrbod yollanish xodimlarning korxonada ishlaydigan eng yuqori (55-65 yoshga) yetgunlariga qadar ish bilan bandlik kafolatlanishini ko'zda tutadi. Umrbod yollanish tizimi ish haqi, mukofotlar hamda ijtimoiy to'lovlar tarzidagi moddiy taqdirlash miqdorlarining oshirib borishni kafolatlaydi. Umrbod ishga yollash yo'li bilan korxonalarda xodimlarni mustahkamlash, ichki firma darajasida malaka oshirish, tezkor ravishda kasb-malaka tarkibini ish o'rinlarining tuzilmasi bilan, texnika va

<sup>152</sup> Абдурахмонов Қ.Х. Меҳнат иқтисодиёти. Дарслик. Тошкент.:2004. – Б. 165.

texnologiyalarni rivojlantirish, ishlab chiqariladigan mahsulotni modifikatsiyalash bilan muvofiqlashtirib borish imkonini beradi.

Yaponiya firmalari yollanma xodimlardan uzoq vaqt mobaynida foydalanishni ko'zlaydilar. Bu esa xodimlardan mehnatga ijodiy munosabatda bo'lish va nihoyat darajada sifatli ishlashga intilishni tarbiyalashga qaratilgan siyosatga asos bo'lib xizmat qildi. Bu ma'lum darajada tadbirkorlarning ishlab chiqarishni va qo'llanilayotgan ishchi kuchini xodimlarni qisqartirish hisobiga emas, balki ish vaqtini qisqartirish yoki xodimlarni sho'ba korxonalariga yoki o'zaro kelishuv bo'yicha boshqa firma korxonalariga o'tkazish hisobiga hal qilishga intilishlarini ham belgiladi.

Doimiy xodimlar va vaqtincha xodimlarni bir-biridan aniq farqlash mavjud, vaqtincha xodimlar iqtisodiy tanazzul davrlarida birinchi bo'lib ishdan bo'shatiladi va ko'pincha iqtisodiy faol aholining tarkibidan hamishalikka chiqadi. Buning ustiga, firmaning ko'lami qanchalik kichik bo'lsa, unda vaqtincha xodimlar salmog'i shunchalik ko'p, ularning ishsiz bo'lib qolishlari xavfi darajasi shunchalik yuqori bo'ladi.

Yaponiyada ishsizlik darajasi 2000 yilda atigi 3,3foiz ni tashkil etdi. Ishchi kuchi bozorida davlat siyosatini olib borish xarajatlari yuqori emas: ular yalpi ichki mahsulotning (YAIM) 0,52foizini tashkil etadi, shu jumladan, faol siyosat yuritishga 0,3foiz, passiv siyosat o'tkazishga 0,39 foiz sarf-xarajat qilinadi<sup>153</sup>.

Umuman, ishchi kuchi bozorida Yaponiya modeli ishlab chiqarish ehtiyojlarini, ish beruvchilarning ham, yollanma xodimlarning ham manfaatlarini nihoyat darajada to'liq hisobga olgan holda oqilona ravishda ish bilan bandlikni shakllantirishga xizmat qiladi, bu esa, o'z navbatida, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga ko'maklashadi, ana shular jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi, chunki amalda har bir kishi ertangi kunga va o'z ijodiy salohiyatini namoyon etish imkoniyatiga ega ekanligiga ishonchi komil.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi ko'rsatishicha, ishchi kuchi bozori modellaridan birontasi ham o'zgar olmaydi, u hamisha ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. Chunonchi, umrbod yollanish siyosati yosh va istiqbolli xodimlarning manfaatlariga muayyan ma'nolarda zid keldi va shu tufayli uning qo'llanish sohasi torayishi mumkin. Shvetsiyada mehnat katta sarf-xarajatlarni moliyalash uchun yuqori miqdordagi soliqlar siyosati chet el

<sup>153</sup> Абдурахмонов Қ.Х. Меҳнат иқтисодиёти. Дарслик. Тошкент. 2004 – Б. 166.

investitsiyalari oshishini keltirib chiqardi. Ushbu tendensiya Shvetsiyaning o'zida kompaniyalarning ravnaq topishiga yo'naltirilgan tanlama iqtisodiy yuksaltirish siyosatiga putur yetkazmoqda. Ijtimoiy nafaqalar miqdori yuqoriligi ishchi kuchi taklifi kamayishiga olib keldi va ish haqini oshirish zaruratini kuchaytirdi. Korxonalar ish haqi borasidagi cheklanishlarni chetlab o'tishi uchun xodimlarga foydada qatnashish tizimlari bo'yicha ko'proq mablag' to'laydigan bo'lib qoldilar.

Shunday qilib, ishchi kuchi bozori modelining samaradorligi ish bilan bandlik borasida amalga oshirilayotgan siyosatga, uning o'zgaruvchanligi va umuman iqtisodiyotda yuz berayotgan o'zgarishlarga moslashuvchanligiga bog'liq bo'ladi. Bizning mamlakatimiz ishchi kuchi bozoridagi qanday modelga mos kelishini hozircha faqat taxmin qilsa bo'ladi.

#### **Nazorat savollari:**

1. Bandlik tushunchasini ochib bering.
2. Bandlikning asosiy turlari va shakllariga ta'rif bering.
3. Band aholiga qanday toifalar kiradi?
4. Band bo'lmagan aholiga kimlar kiradi?
5. Ishsizlik darajasi qanday aniqlanadi?
6. Ishsizlik deganda nima tushuniladi?
7. Ishsizlikning qanday turlari bor?
8. Ishsizlikning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari.
9. Institutsional ishsizlik va uning mohiyati.
10. Mehnat bozorining qanday modellarini bilasiz?

#### **Testlar:**

**1. Rivojlangan mamlakatlarda mehnatga yaroqli aholining qancha foizi band bo'lsa, iqtisodiyot me'yorida rivojlanayotgan hisoblanadi?**

- a) 94-95foiz;
- b) 80foiz;
- c) 75-80foiz;
- d) 80-90foiz;

**2. O'zbekistonning mehnatga layoqatli aholisining necha foizi mehnatda band bo'lib faoliyat yuritadi?**

- a) 75,2foiz;

- b) 73,8foiz;
- c) 80foiz;
- d) 65foiz.

### **3. Bandlik bu...?**

a) mehnat va bandlikda erkinlikni ta'minlash, zo'rovchi, majburiy mehnatni ta'qiqlashdir;

b) barcha fuqarolar millati, jinsi, yoshi, ijtimoiy ahvoli, siyosiy e'tiqodi, dinga munosabatidan qat'iy nazar erkin mehnat qilish va bandlikni erkin tanlash, fuqarolarning mehnat va tadbirkorlik tashabbusini qo'llab-quvvatlash, ularning unumli, ijodiy mehnat qilishga bo'lgan qobiliyatini rivojlantirishga ko'maklashish;

c) ijtimoiy himoyani ta'minlash, ish topishda qiynalayotgan fuqarolar uchun maxsus chora-tadbirlar belgilash;

d) fuqarolarning shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan, qonunlarga zid kelmaydigan va ularga ish haqi (mehnat daromadi) keltiradigan faoliyatdir.

### **4. O'zbekistonda "Aholini bandligi to'g'risida" Qonun qachon qabul qilingan?**

- a) 1993 yil, 7 may;
- b) 1994 yil, 7 may;
- c) 1995 yil, 7 may;
- d) 1996 yil, 7 may.

### **5. Bandlik holati ishchi kuchidan samarali foydalanish darajasiga ko'ra necha guruhga ajratiladi?**

- a) 3 ta;
- b) 4 ta;
- c) 5 ta;
- d) 6 ta.

### **6. To'liq bandlik bu...?**

a) belgilangan vaqt bo'yicha jadvalda ko'rsatilgan ish bilan band bo'lish va daromadga ega bo'lish holati;

b) haftasiga mehnat shartnomasidan tashqari ishlarda band bo'lish bilan bog'liq holat;

c) kasbga oid mehnat bilan ta'minlanish bo'lib, u shaxsga daromad keltiradi va o'zi hamda oilasining munosib turmush kechirishiga sharoit yaratadi;

d) kishining mehnat qilishga bo'lgan qobiliyatiga (ish kuchiga) egalik qilish huquqi faqat uning egasiga, ya'ni xodimning o'ziga tegishli bo'ladi.

### **7. Erkin tanlangan bandlik deganda nimani tushunasiz?**

a) belgilangan vaqt bo'yicha jadvalda ko'rsatilgan ish bilan band bo'lish va daromadga ega bo'lish holati;

b) haftasiga mehnat shartnomasidan tashqari ishlarda band bo'lish bilan bog'liq holat;

c) kasbga oid mehnat bilan ta'minlanish bo'lib, u shaxsga daromad keltiradi va o'zi hamda oilasining munosib turmush kechirishiga sharoit yaratadi;

d) kishining mehnat qilishga bo'lgan qobiliyatiga (ish kuchiga) egalik qilish huquqi faqat uning egasiga, ya'ni xodimning o'ziga tegishli bo'ladi.

### **8. Bandlikka ta'sir ko'rsatish usullarini ko'rsating.**

a) to'liq, qisman, aralash;

b) bilvosita, passiv, aktiv;

c) monetar, fiskal, aralash;

d) birlamchi, ikkilamchi, aralash.

### **9. Fiskal siyosati nima?**

a) pul hajmini tartibga solish;

b) assignovaniye va subsidiyalar;

c) inflatsiyaga qarshi kurash;

d) soliq stavkalarining o'zgarishi.

### **10. Ishsizlikning qanday asosiy turlari mavjud?**

a) mavsumiy va majburiy;

b) tabiiy va majburiy;

c) ochiq va yopiq;

d) oddiy va murakkab.

### **11. Davriy ishsizlik bu...?**

a) vaqtincha ishsizlik bo'lib, ish joyini almashtirish paytida yuz beradi, eski ishdan ketib, yangi ishga o'tguncha ishsizlik yuzaga keladi;

b) ishchi kuchiga bo'lgan taklif umumiy tarkibining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lib, uning tarmoqlar bo'yicha taqsimlanishining o'zgarishiga olib keladi;

c) iqtisodiyot, fan-texnika taraqqiyoti jadal rivojlangan sari yangi ishlab chiqarishlar, korxonalar sifat jihatidan yangi tarmoqlar paydo

bo'lishi va ayni vaqtda boshqa korxonalar, tarmoqlar, texnologiyaning eskirishi bilan bog'liq;

d) iqtisodiy tushkunlikning muayyan davrda (ishlab chiqarishni pasayishi) yuzaga keladigan ishsizlik turi tushuniladi.

## **12. Friksion ishsizlik deganda qanday ishsizlik tushuniladi?**

a) ishsizlik bo'lib, ish joyini almashtirish paytida yuz beradi, eski ishdan ketib, yangi ishga o'tguncha ishsizlik yuzaga keladi;

b) ishchi kuchiga bo'lgan taklif umumiy tarkibining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lib, uning tarmoqlar bo'yicha taqsimlanishining o'zgarishiga olib keladi;

c) iqtisodiyot, fan-texnika taraqqiyoti jadal rivojlangan sari yangi ishlab chiqarishlar, korxonalar sifat jihatidan yangi tarmoqlar paydo bo'lishi va ayni vaqtda boshqa korxonalar, tarmoqlar, texnologiyaning eskirishi bilan bog'liq;

d) iqtisodiy tushkunlikning muayyan davrda (ishlab chiqarishni pasayishi) yuzaga keladigan ishsizlik turi tushuniladi.

## **13. Shvetsiya modelidagi cheklovchi fiskal siyosat qanday bo'ladi?**

a) barcha ishchi va xizmatchilar tadbirkorlarning moliyaviy ahvolidan yoki firmaning qaysi tarmoqqa qarashli ekanidan qat'iy nazar, teng mehnatga teng haq olishlari kerak;

b) yangi ish o'rinlarini, shuningdek xodimlarni tayyorlash va qayta o'qitish markazlarini yaratishni rag'batlantirish;

c) tovarlar va xizmatlarga kam daromadli korxonalarning faoliyatni to'xtatishga majbur qiladigan sur'atda talab va inflatsiyaning oshishiga yo'l qo'ymaydigan egri soliqlar belgilanishidan iborat.

d) mamlakatda mehnat munosabatlari tizimi umrbod yollanish xodimlarning korxonada ishlaydigan eng yuqori (55-65 yoshga) yetgunlariga qadar ish bilan bandlik kafolatlanishini ko'zda tutadi.

## **14. Ish bilan bandlikning Yaponiya modeli nimani nazarda tutadi?**

a) barcha ishchi va xizmatchilar tadbirkorlarning moliyaviy ahvolidan yoki firmaning qaysi tarmoqqa qarashli ekanidan qat'iy nazar, teng mehnatga teng haq olishlari kerak;

b) yangi ish o'rinlarini, shuningdek xodimlarni tayyorlash va qayta o'qitish markazlarini yaratishni rag'batlantirish;

c) mamlakatda mehnat munosabatlari tizimi umrbod yollanish xodimlarning korxonada ishlaydigan eng yuqori (55-65 yoshga) yetgunlariga qadar ish bilan bandlik kafolatlanishini ko'zda tutadi;

d) tovarlar va xizmatlarga kam daromadli korxonalarining faoliyatni to'xtatishga majbur qiladigan sur'atda talab va inflatsiyaning oshishiga yo'l qo'ymaydigan egri soliqlar belgilanishidan iborat.

**15. Ishchi kuchi bozori modelining samaradorligi qanday omillarga bog'liq?**

a) ish bilan bandlik borasida amalga oshirilayotgan siyosatga, uning o'zgaruvchanligi va umuman iqtisodiyotda yuz berayotgan o'zgarishlarga moslashuvchanligiga;

b) ishchi kuchi va mehnat samaradorligiga;

c) davlat siyosatiga va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga;

d) iqtisodiyot va ijtimoiy chora-tadbirlarga.

## **XIII-bob. KAMBAG‘ALLIK MUAMMOLARI VA ULARNI HAL QILISH YO‘LLARI**

**13.1. Kambag‘allik tushunchasi, uning ko‘rinishlari va turlari**

**13.2. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida kambag‘allikka qarshi kurashishning zamonaviy tajribalari**

**13.3. Dunyo mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanish jihatdan guruhlanishi**

**13.4. O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirishning yo‘llari va uning asosiy yo‘nalishlari.**

### **13.1. Kambag‘allik tushunchasi uning ko‘rinishlari va turlari**

Kambag‘allik ko‘rinishlari barcha sobiq ittifoq mamlakatlarida bozor iqtisodiyotiga o‘tish ishlab chiqarishning pasayishi, ishsizlikning o‘sishi, turmush darajasining pasayishi kabi qiyinchiliklar bilan birgalikda mavjud bo‘ldi. Shuning uchun O‘zbekiston hukumati tomonidan o‘tish davrining salbiy oqibatlarini yumshatish bo‘yicha qator tadbirlar ishlab chiqildi va amalga oshirildi. Biroq, ko‘rilgan chora - tadbirlarga qaramasdan, o‘tish davrida qator jiddiy jiddiy muammolar ham paydo bo‘ldi. Ular orasida kambag‘allik muammosi alohida o‘rin tutadi. BMTning ma‘lumotiga kora, kambag‘allik umumbashariy muammo hisoblanadi, chunki u dunyoning barcha mamlakatlarida uchraydi. Binobarin, bugungi kunda 54 mamlakat 1990 yilga nisbatan kambag‘al holda yashaydi, 21 mamlakatda aholining ko‘pchilik qismi ochlikdan azoblanadi, 12 mamlakatda bolalarni boshlang‘ich ta‘lim bilan qamrab olish pasayib bormoqda, 34 mamlakatda umr davomiyligi qisqardi, 800 mln.dan ortik kishi oziq-ovqat yetishmasligidan qiynaladi<sup>1</sup>.

Ayrim hukumatlarning kambag‘allikni bartaraf etish bo‘yicha qilayotgan harakatlariga qaramasdan, afsuski, hozirgi kunda ko‘pchilik mamlakatlarda ochlik va qashshoqlik, ishsizlik va savodsizlik mavjuddir, yuqumli kasalliklar, ayniqsa, OITS tobora tarqalmoqda, azon qatlamining qisqarishi, haroratning ko‘tarilishi va boshqa shu kabi

---

<sup>1</sup> “Глобальные цели тысячелетия” Доклад. Узбекистан. Экономическое обозрение, 2004 г., №10

tahdidlar kuchaymoqda. Hayot sharoitlariga tahdidlar umumbashariy, umumjahon tavsifiga ega bo'lib bormoqda.

Ularni bartaraf etish dunyodagi barcha mamlakatlarning birgalikdagi harakatini talab etadi. Ushbu vaziyatlar sababli 2000 yilda BMTning "Ming yillik Deklaratsiyasi" qabul qilindi. "Ming yillik Deklaratsiya"da ilgari surilgan vazifalar orasida kambag'allik muammosi alohida o'rin tutadi.

Kambag'allik toifasi - odamlarning moddiy ta'minlanmaganligining o'ziga xos holati bo'lib, bunda bir kishi yoki oilaning daromadi hayot faoliyati uchun sotsial - zaruriy iste'mol darajasini ta'minlashga imkon bermaydi. Kambag'allikning mutlaq va nisbiy ko'rinishlari farqlanadi.

Mutlaq kambag'allik - bu fiziologik ehtiyojlar: ovqat, kiyim, turar joyga bo'lgan ehtiyojlarni ( ular "iste'mol savati" deb ataladi) qondirishdagi to'g'ridan-to'g'ri yetishmovchilikdir.

Nisbiy kambag'allik - insonning mamlakatdagi daromadlarning umumiy darajasiga nisbatan yomon holatini belgilaydi.

Kundalik, ma'lum bir vaqtdagi va doimiy, ya'ni uzoq vaqt davom etuvchi kambag'allik ko'rinishlari ham mavjud.

Uni o'lchash uchun quyidagi ko'rsatkichlardan foydalaniladi:

- aholining umumiy sonida kambag'allar ulushi;
- kambag'allikni tavsiflovchi daromad miqdori;
- kambag'allikning chuqurlashuv darajasi
- u yoki bu guruhdagi kambag'allar uchun yetishmayotgan daromadning hajmi va boshqalar<sup>154</sup>.

Kambag'allik har qanday iqtisodiy tizimga xosdir. Ammo uning keskinlashib borishi ishlab chiqarilgan mahsulot va jamg'arilgan boyluk hajmiga, mamlakatning ishlab chiqarish salohiyatiga, xalqning farovonligiga, taqsimot usullariga bog'liq ravishda jiddiy farqlanadi. Shuning uchun har bir davlatda o'z milliy iste'mol me'yori, ya'ni yashash minimumi mavjud bo'lib, u ishlab chiqarish imkoniyatlari, millatning boyligi, an'analar, mentalitet (o'ziga xoslik) va boshqalarga bog'liqdir. Ushbu me'yorlarga ega bo'lmagan kishilarni kambag'allar sirasiga qo'shadilar.

Kambag'allik muammosi sho'rolar davrida ham mavjud edi. Ammo hukmron mafkura ushbu hodisani to'liq tan olishga imkon bermasdi. Kambag'allik borasidagi ma'lumotlar maxfiy hisoblanardi. Faqat 80-

<sup>154</sup> Абдурахманов К.Х., Шарифуллина Т.А. Экономика и социология труда. Учеб. пособие. – М.: Рос. экон. акад., 2002. – С.125.

yillarning oxiridagina kambag'allikning mavjudligi tan olindi va uning ta'rifi paydo bo'ldi: minimal ish haqidan kam daromadga ega bo'lgan shaxslar kambag'allar sifatida turkumlashtirildi. Ushbu ta'rifga ko'ra, O'zbekiston aholisining 45foizi qishloq joylardagi aholi, shuningdek nafaqaxo'rlar, bevalar, yolg'iz onalar, nogironlar aholining kambag'al qismi hisoblanadi. Aholining ushbu guruhlarini qo'llab-quvvatlash uchun nafaqa va har xil yordam to'lovlarni nazarda tutuvchi maxsus dasturlar ishlab chiqildi.

Jahon amaliyotida kambag'allikni baholashning quyidagi usullari ma'lum:

- statistik: bunda aholi daromadlarini jon boshiga taqsimlaganda, eng quyida turuvchi 10-20 foiz aholi kambag'allar sirasiga kiritiladi;

- me'yoriy (minimal iste'mol savatining oziq-ovqat va boshqa andozalari me'yorlari bo'yicha), ya'ni minimal iste'mol savati asosida;

-mahrum bo'lganlik usuli - eng muhim mahsulot va tovarlarni to'yib iste'mol qilmaslik;

-evristik - jamoatchilik fikri yoki so'raluvchining nuqtayi-nazaridan kelib chiqqan holda, turmush darajasining yetarli yoki yetarli emasligini baholash;

-stratifikatsion -- bunda kambag'allarga, ilgaridanoq o'zini-o'zi ta'minlash imkoniyatlari cheklangan kishilar kiritiladi (keksalar, nogironlar, to'liq bo'lmagan va ko'p bolali oilalar, ota-onasiz bolalar, ishsizlar, muhtojlar va b.)

- iqtisodiy - bu kambag'allar toifasini, davlat ularning moddiy ta'minotiga yordam yo'naltirilgan imkoniyat resurslari orqali aniqlaydi.<sup>155</sup>

Kambag'allikni aniqlagach, har bir davlat faqat o'ziga xos bo'lgan vazifalarni hal etishga intiladi. Agarda iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar sotsial larzalarni bartaraf etish uchun aholining o'rta va kambag'al qatlamlari o'rtasidagi chuqur tabaqalashga yo'l qo'ymaslikka intilsalar, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa kambag'allikning aniqlanishi aholining minimal turmush darajasini ta'minlab turish siyosati bilan bog'langan.

Kambag'allikni bartaraf etish muammosi yashash minimumini ta'minlash bilan chambarchas bog'liqdir. Bir mamlakatda andoza uchun

<sup>155</sup> Холмуродов С.Э., Шююсупова Н.Т. Иқтисодий социология. Ўқув қўлланма. – Тошкент: ТДИУ, 2006. – Б. 89.

qabul qilingan yashash minimumi, boshqa mamlakatda qabul qilina olmaydi.

Jumladan, AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniyada yashash minimumi oylik daromadining 40foiz ga to'g'ri keladi; Finlandiya, Italiya, Gretsiya, Ispaniyada 50 foiz, Irlandiya va Portugaliyada 60foiz; Ruminiya, Chexiya, Slavakiyada "yetarlicha" emaslik belgisi o'rtacha jon boshi daromadining 50-60 foiz, kambag'allik chizig'i esa yetarlicha emaslikning 60-70 foiz darajasida o'rnatilgan. Bolgariyada minimal ish haqi iste'mol savati asosida hisoblangan sotsial minimumning 60-70 foizini, kambag'allik chegarasi esa minimal ish haqining 65 foizini tashkil etadi.

Kambag'allik darajasiga ko'ra oilalarni quyidagi toifalarga ajratish mumkin: o'ta muhtojlar, muhtojlar, nochorlar, kam ta'minlanganlar.

### **Jahon banki kambag'allik darajasini qanday hisoblaydi?**

Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, 736 million kishi o'ta kambag'allik sharoitida kun kechirmoqda.

Quyida Jahon banki turli mamlakatlardagi kambag'allik darajasini qanday o'lchashi haqida ma'lumot beriladi.

Kambag'allik chegarasi nima?

BMT kambag'allik chegarasini asosiy tovar va xizmatlar (oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechak, turar-joy haqini to'lash, suv bilan ta'minlash, elektr energiyasi, maktab ta'limi, tibbiy xizmat) uchun zarur bo'lgan daromadlar sifatida belgilaydi<sup>156</sup>.

Hukumat mahalliy organlari aholining kam ta'minlangan qatlamlarini aniqlash, ijtimoiy himoya sohasidagi vazifalarni aniqlash maqsadida kambag'allik chegarasini belgilaydi. Bunda turli mezonlardan foydalaniladi, boy mamlakatlarda qashshoqlik chegarasi, kambag'al mamlakatlarga nisbatan yuqoriroq.

1990 yilda Jahon banki ekspertlari kambag'al davlatlarda qo'llanadigan standartlardan foydalanib, dunyodagi kambag'al aholi sonini o'lchashni taklif qilgan edi. 15ta davlatdagi kambag'allikning milliy darajasini o'rganib, xarid qobiliyati asosida valuta kurslarini qo'llagan holda (xarid qobiliyati; butun dunyodagi ana shu narxlar asosida hisoblanadi) qayta hisoblashdi. Tovar va xizmatlar to'plami narxini barcha mamlakatlarda to'g'ri taqqoslash uchun ana shunday qilingan.

<sup>156</sup> <https://kun.uz/news/2020/03/03/jahon-banki-kambag'allik-darajasini-qanday-hisoblaydi>

Natijada ekspertlar o'rganilayotgan qashshoq mamlakatlarning oltitasida kambag'allik darajasi kuniga bir kishi uchun 1 dollarga yaqin ko'rsatkichni tashkil qiladi. Bu ko'rsatkich ilk xalqaro qashshoqlik chegarasi sifatida qabul qilinadi.

Dunyo mamlakatlaridagi hayot qiymatidagi tafovutlar ortib borgani sababli Jahon banki global kambag'allik ko'rsatkichini vaqti-vaqti bilan qayta ko'rib chiqish zaruratiga duch keldi. 2005 yilda bank dunyoning eng qashshoq mamlakatlarida qabul qilingan kambag'allik darajasi asosida ana shu ko'rsatkichni qayta hisobladi. Natijada, global qashshoqlik chegarasi 1,25 dollargacha ko'tarildi. 2015 yilda chegara qayta ko'rib chiqildi va 1,9 dollargacha ortdi.

Bundan tashqari, Jahon bankida o'rtadan past, o'rta va yuqori– 3,2 dollar, 5,5 dollar va 21,7 dollar daromadlarga ega mamlakatlar uchun kambag'allikning yuqori darajalari qabul qilingan. Bank mutaxassislari bu ko'rsatkichlar pul mezonlariga asoslangani va ular ta'lim olish, sog'liqni saqlash xizmatlari va suv hamda elektr energiyasi bilan ta'minlanganlik kabi jihatlarni hisobga olmasligini ta'kidlashadi<sup>157</sup>.

1990 yildan boshlab har yili Jahon bankining "Kambag'allik va yalpi farovonlik" ma'ruzalari e'lon qilinadi. 2018 yilning oktabr oyida chiqarilgan. Undagi asosiy ko'rsatkich qashshoqlikning xalqaro chegarasi bir kishi uchun kuniga 1,9 dollar miqdorida ekanidir. Biroq, qashshoqlik bo'yicha yangi ta'rif va o'lchamlar kiritilmoqda. Jumladan, ijtimoiy kambag'allik. Bu ko'rsatkich mutlaq va nisbiy kambag'allik tamoyilini birlashtiradi.

Bundan tashqari, kambag'allik daromadlar darajasi bo'yicha kommunal xizmatlar (suv, elektr energiyasi), sog'liqni saqlash yoki ta'lim olish imkoniyatini aks ettirmagani uchun ko'p o'lchamli kambag'allik ko'rsatkichi kiritildi. Ana shu tushunchaga mos ravishda, global darajadagi kambag'allar ulushi monetar kambag'allik bilan taqqoslaganda taxminan 50 foizga yuqoriroq.

Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, 736 million kishi (aholining 10 foizi) o'ta qashshoqlik sharoitida (kuniga 1,9 dollardan kam kiringa ega), dunyo aholisining deyarli yarmi – 3,4 mlrd kishi – kuniga 5,5 dollardan kam tushumga ega. Qashshoqlik darajasi eng yuqori qit'a Afrika, sayyoradagi eng qashshoq mamlakatlar – Kongo demokratik

---

<sup>157</sup> <https://kun.uz/news/2020/03/03/jahon-banki-kambag'allik-darajasini-qanday-hisoblaydi>

respublikasi (o'ta qashshoqlik darajasi – 77,1 foiz) va Madagaskar (77,6 foiz).

O'zbekiston kambag'allikni qisqartirish bo'yicha Jahon banki va BMT Taraqqiyot dasturi bilan birgalikda dastur ishlab chiqishni rejalashtirmoqda. Uni amalga oshirish uchun 700 million dollar mablag' yo'naltiriladi.

2020 yil 27 fevral kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida tadbirkorlikni rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlar bo'yicha videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda O'zbekistondagi kambag'allik darajasiga oid statistika keltirildi.

“Dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, 12-15 foiz yoki 4-5 million aholimiz kambag'al. Bu ularning bir kunlik daromadi 10-13 ming so'mdan oshmayapti, degani. Yoki bir oilada mashina ham, chorva ham bo'lishi mumkin, lekin bir kishi og'ir kasal bo'lsa, oila daromadining kamida 70 foizi uni davolatishga ketadi. Xo'sh bunday oilani o'ziga to'q deyish mumkinmi? Prezident sifatida meni odamlarimizning ovqatlanishi, davolanishi, bolalarini o'qitishi, kiyintirishi kabi hayotiy ehtiyojlari nima bo'layapti, degan savol har kuni qiynaydi”, – degandi Shavkat Mirziyoyev.

### **13.2. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida kambag'allikka qarshi kurashishning zamonaviy tajribalari**

Yuqori turmush darajasi va sotsial kafolatlarga ega bo'lgan rivojlangan mamlakatlarda kambag'allikka qarshi kurash, jamiyatda amal qilayotgan iste'mol andozalari uchun yetarlicha bo'ladigan asosiy minimal daromadlarni (ish haqi va nafaqa) ta'minlash orqali amalga oshiriladi. Bundan tashqari, bu mamlakatlarda, boshqalarga nisbatan yomonroq ahvolda bo'lganlarga aniq maqsadli sotsial yordam amalga oshiriladi. Bu o'ta og'ir hayotiy vaziyatga tushib qolganlar uchun qo'llaniladi. Aholi asosiy qismining daromadlari o'ta past darajada rivojlanayotgan mamlakatlarda esa millionlab kambag'allarni quvvatlashning asosiy usuli sotsial yordamni, jumladan oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal-maishiy, ta'lim va boshqa sohadagi yordamni taqsimlab berish hisoblanadi.

Fransiyadagi kambag'allikning oldini olish tizimi namuna sifatida xizmat qilishi mumkin. Uning asosida barcha ish beruvchilar uchun ishlayotganlarning asosiy ehtiyojlarini qondirishga yetarlicha bo'lgan minimal ish haqi normasini to'lash majburiyati belgilangan. Boz ustiga, ish haqining eng kam darajasi doimo indeksatsiyalanib borildi. Bundan tashqari, Fransiyada yetarli mehnat nafaqasi, sifatli tibbiy xizmat, ishsizlik bo'yicha nafaqani o'z ichiga oluvchi majburiy sotsial sug'urtalash amal qiladi. Bolalar uchun nafaqalar va imtiyozlar tizimi ham katta rol o'ynaydi.

Sug'urta stajiga ega bo'lmaganlar (yoshlar, bolali ayollar), shuningdek, u yoki bu turmush sharoitlariga ko'ra o'zining zaruriy ehtiyojlarini qondira olmaydiganlar maxsus sotsial xizmat ko'rsatish idoralariga murojaat qiladilar.

AQSHda kambag'allika qarshi kurash dasturi 15-20 foiz aholini qamrab oladi. Kambag'al hisoblangan va yordam beriluvchi toifalardan biriga tegishli bo'lgan kishilarga yordam ko'rsatiladi. Ular qatorida: yosh bolali oilalar, ayniqsa yolg'iz ota - onalar yoki boquvchisi ishsiz bo'lganlar; 65 yoshdan katta bo'lgan muhtoj kishilar, nogironlar, ojizlar, urush faxriylari va ularning oilalariga, ishlovchi kambag'allarga (soliq imtiyozlari orqali) va daromadi belgilangan talablardan past bo'lganlarga yordam ko'rsatiladi. Bu yordam pul yoki buyum shaklida ko'rsatiladi. Natura-buyum shaklidagi yordam - ovqatlanish uchun talon berish, keksalarga tibbiy xizmat ko'rsatish, arzon uy-joy, yosh bolalarga qarash va boshqa sotsial xizmatlar bo'lishi mumkin. Chexiyada eng kam nafaqa darjasidagi kafolatlangan yashash minumi o'rnatilgan (agarda bu daraja bo'lmasa nafaqa to'lanadi). Bolgariyada daromadi sotsial va fiziologik minimumdan kam bo'lgan kishilar sotsial yordam olishlari mumkin. Bundan tashqari, 70 yoshdan katta bo'lgan yolg'iz kishilarga va I-guruh nogironlariga, agarda daromadlari belgilangan minimumdan kam bo'lsa, ovqatlanish uchun bepul kuponlar beriladi hamda kommunal xizmatlarning 50 foizi to'lanadi. Nogironlar va bolalar, avtomobilga ega bo'lmagan og'ir kasallar shahar yo'lovchi va shahar atrofi transportida bepul yurish huquqidan foydalanadilar; bunda boshqa ko'rinishdagi xizmatlar ham nazarda tutilgan. Sotsial himoyalangan guruhlariga yil davomida birnecha marta mavsumiy kiyim-kechaklar, o'quv qo'llanmalari, qimmatbaho dori-darmonlar sotib olishlariga moddiy yordam ko'rsatiladi.

Turli mamalakatlarda kambag'allikka qarshi kurash tajribasining tahlili ushbu toifa bo'yicha ikkita turli tushunchani ajratib ko'rsatishga imkon beradi.

"Kambag'allarga yordam" - shu lahzada hayotiy vositalarga muhtoj bo'lganlarni kundalik qo'llab-quvvatlash bo'lib, sof taqsimot muammosini o'z ichiga oladi: muhtojlarga yordamning samaraliroq dasturlarini ishlab chiqish bilan milliy daromadning bir qismini tegishli maqsadlarga ajratish. Bunda bosh vazifa - barcha imkoni bor manbalar (davlat, nodavlat, xalqaro) bo'yicha zarur mablag'ni topish va yordam ko'rsatishning eng arzon maqsadli yo'llarini tashkil etish. Bunda ochlar va nochorlar sonini minimal darajada kamaytirishga erishish mumkin. Biroq bu yerda jiddiy muammo mavjud bo'lib, u resurslarning cheklanganligida o'z ifodasini topadi.

"Kambag'allikka qarshi kurashish" degan ikkinchi tushuncha - bu kambag'al aholi sonini kamaytirish va uni ko'payishining oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilishidir. Bu tadbirlar iqtisodiy siyosatning sotsial asosini tashkil etib - ular aholi asosiy qismining daromadini oshirishga, milliy ishlab chiqarishning jonlanishi asosida kam ta'minlanganlar foydasiga, ular kambag'allar safini yanada to'ldirmasliklari uchun qayta taqsimlash mexanizmini yaratishga yo'naltirilgandir.

Faoliyatning bunday strategiyasini tanlashda hukumat YAIMda real ish haqining ulushini ko'paytirishga mo'ljallangan dasturlar qabul qilishi (bu ko'rsatkich rivojlangan mamlakatlarda 50-60 foizni tashkil etadi); mehnat qilish uchun zaruriy strategik makon yaratishi (yollanma, tadbirkorlik, kooperativ, fermer, hunarmandchilik, oilaviy va barcha boshqa shakllarda ham); har bir kishiga o'zi uchun hamda davlat va jamiyatni ta'minlash uchun ishlab topish imkoniyatini yaratishi lozim. Aynan mehnat o'zini-o'zi himoyalashning eng yaxshi usulidir. Faqatgina mehnatni adolatli baholashni, tegishli rag'batlantirishni, o'rtacha soliqlar va maqbul iste'mol narxlarini shakllantirish zarur.

Hukumatning ijtimoiy siyosati taqsimlash va qayta taqsimlashning shunday mexanizmlarini o'z ichiga olishi kerakki, ular mehnatning muvaffaqiyatli natijalarini o'rtacha ta'minlangan va kam ta'minlangan aholi foydasiga yo'naltira olsin, chunki boylar o'zi haqida o'zlari qayg'ura oladi. Bu sohadagi asosiy masala, keng ko'lamdagi: issiqlik, non, dori-darmondan tortib, ta'lim tibbiy xizmat, uy-joy va aloqa

vositalarigacha iste'molning minimal sotsial andozalariga bo'lgan inson huquqlarini tiklash hisoblanadi.

Bunday andozalar sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- eng kam ish haqi va mehnat nafaqasining yashash minimumi darajasiga mos kelishi;

- ish haqini bolalarni ta'minlash xarajatlarini hisobga olgan holda belgilash;

- malakali mehnatga haq to'lashdagi adolatsizlikni tugatish uchun budjet sahosi xodimlarining ish haqini qayta ko'rib chiqish;

-xodimning yashash minumi darajasida bo'lgan soliq chegirmalarini o'rnatish;

-aholi uchun keng iste'mol tovarlari va sotsial ahamiyatli xizmatlarga ega bo'lishni ta'minlash<sup>158</sup>.

Rivojlangan malakatlarning sotsial-iqtisodiy siyosatida davlat himoyasi usulidan ko'ra, ko'proq o'zini-o'zi himoyalash usuliga zo'r bermokda. Bu mamlakatlarda soliqlar bo'yicha imtiyozlar berish yo'li bilan daromadlarning ishlashi, majburiy sotsial sug'urtalashning rivojlanishi, firma ichidagi sotsial siyosat; uchinchi, notijorat sektorining, jamoatchilik tashabbuslarining kengayishi; fuqarolar va biznesning xayriya tadbirlaridagi ishtiroki; jamiyat barcha a'zolarining investitsiyalar manbayi sifatidagi jamg'arma va omonatlardan manfaatdorligi rag'batlantiriladi. Bularning barchasi o'rta sinfning gullab-yashnashiga hamda kambag'allikka qarshi kurashda yordam beradi.

Davlat xayriya tadbirlari, jamoat tashkilotlari faoliyati, mahalliy uyushmalar sotsial muammolarni hal etishda korxonalarining ishtirokini kengaytirish haqida g'amxo'rlik qiladi. Kambag'allikka qarshi kurashda sotsial sug'urtalash tizimi muhim rol o'ynaydi (Shvetsiya, Fransiya GFR tajribasida).

Shu munosabat bilan ta'kidlash lozimki, aholini aniq maqsadli sotsial himoyalash bo'yicha tadbirkorlarni ham kambag'allikka qarshi kurashishning samarali vositalari sirasiga kiritish mumkin.

---

<sup>158</sup> Бакиева И.А., Холмуродов С.Э. Инсон ресурслари иқтисодиёти. Ўқув қўлланма. – Тошкент: ТДИУ, 2006. – Б. 114.

### 13.3. Dunyo mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanish jihatdan guruhlanishi

Jahonda 193 ta mustaqil davlat, 61 ta qaram hudud va 6 ta nizoli hudud mavjud. Xalqaro statistikada “davlat” tushunchasi emas, balki “mamlakat” tushunchasi qo‘llaniladi. Chunki mamlakat albatta siyosiy mustaqillikka ega bo‘lishi majburiy emas. Siyosiy-geografik ma’noda mamlakat – bu muayyan chegaralarga ega, davlat suverenitetidan foydalanuvchi hududdir. Jahon iqtisodiyotidagi o‘zgarishlarni miqdoriy jihatdan aks ettiruvchi xalqaro statistika nuqtayi nazaridan esa “mamlakat” tushunchasi iqtisodiy ma’noda qo‘llaniladi va “iqtisodiyot” tushunchasi bilan mos keladi. Ushbu tushuncha davlatning muayyan hududini, jumladan, Xitoy tarkibiga kiruvchi Tayvan va Gonkongni alohida iqtisodiy hudud sifatida ifoda etishi mumkin.

Tayvan Xitoyning boshqa subyektlari singari uning ma’muriy okrugi hisoblanadi. Gonkong Syangan hududining inglizcha nomi bo‘lib, Buyuk Britaniya tomonidan 1898 yilda Xitoydan ijaraga olingan. 1984 yil sentabr oyidagi Xitoy-ingliz deklaratsiyasidan so‘ng 1997 yilning iyul oyida Gonkong ustidan Xitoy suvereniteti o‘rnatildi. Hozirgi kunda Gonkong Xitoy hududlaridan biri hisoblanadi va yarim avtonom subyekt sanaladi. Gonkong xalqaro kelishuvga muvofiq Xitoy Xalq Respublikasidan alohida o‘z mustaqil hukumatiga ega. Tayvan va Gonkong Xitoyning siyosiy-ma’muriy hududlari hisoblanishiga qaramasdan, xalqaro statistikada ular alohida mamlakatlar sifatida hisobga olinadi<sup>159</sup>.

Dunyo mamlakatlari, bir tomondan, biri-biridan iqtisodiyotining hajmi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, institutsional va madaniy xususiyatlari bilan farq qilsa, ikkinchi tomondan, ular muayyan o‘xshashliklarga ham ega. Ushbu holat dunyo mamlakatlarini tahliliy va statistik maqsadlarda guruhlarga ajratish, jahon iqtisodiyotining tarkibi va rivojlanish tendensiyalarini o‘rganish maqsadida muayyan mezonlar bo‘yicha tasniflash imkonini beradi.

Mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi kompleks va umumlashtiruvchi ko‘rsatkich hisoblanadi va quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

<sup>159</sup> А.В.Вахабов, Д.А.Таджибаева, Ш.Х.Хажибакиев. Жахон Иқтисодиёти ва халқаро иқтисодий муносабатлар. – Бактқия пресс, 2015. – Б. 56.

- aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi YAIM/YAMM;
- iqtisodiyotning tarmoq tarkibi;
- aholi jon boshiga mahsulotlarning asosiy turlarini ishlab chiqarish (alohida tarmoqlarning rivojlanish darajasi);
- aholi turmush darajasi va sifati;
- iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichi.

Ijtimoiy-iqtisodiy adabiyotlarda, ommaviy axborot vositalarida mamlakatlarni guruhlashning “standart tasnifi” nomini olgan yondashuv keng tarqalgan. Yaqin vaqtlarga qadar ushbu yondashuv Xalqaro valuta fondi (XVF) tomonidan “Jahon iqtisodiyotining rivojlanish istiqbollari” (world Economic Outlook) deb nomlanuvchi yillik hisobotlarida qo‘llanilgan.

Standart klassifikatsiyada mamlakatlar uch guruhga ajratiladi: rivojlangan, rivojlanayotgan va o‘tish iqtisodiyoti mamlakatlari. Ular jahon iqtisodiyotining tarkibini tashkil etadi va jahon aholisi, yalpi ichki mahsuloti va jahon savdosidagi ulushini tavsiflaydi.

Standart tasnifi biror-bir qat‘iy miqdoriy mezonga ega emas. U mamlakat iqtisodiyotining tarkibiy jihatlari, xo‘jalik faoliyatining tashkiliy tamoyillari, institutsional va madaniy xususiyatlari hamda joriy iqtisodiy muammolarini hisobga oladi.

Ushbu tasnifda rivojlangan mamlakatlarga 29 ta xususiy mulkchilikka va rivojlangan industrial sektorga asoslangan bozor iqtisodiyotiga ega mamlakatlar kiradi. Jumladan, 2002 yilda rivojlangan mamlakatlarda dunyo aholisining 15,4 foizi, ya‘ni “oltin milliard” deya ataluvchi 1 mlrd kishi yashagan va ular hissasiga jahon yalpi mahsulotining 55.7 foiz hamda jahon tovarlar va xizmatlar eksportining 74.8 foizi to‘g‘ri kelgan.

O‘tish iqtisodiyoti mamlakatlari 28 ta davlatni o‘z ichiga oladi. Ushbu mamlakatlar rivojlangan industrial bazaga ega va rejali ma‘muriy iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o‘tish bilan bog‘liq holda iqtisodiy islohotlarni boshidan kechirayotgan mamlakatlardir. O‘tish iqtisodiyoti mamlakatlari quyidagi ikki guruhga ajratiladi:

- Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari (15);
- Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) va Mongoliya (13).

Rivojlanayotgan mamlakatlar guruhi eng ko‘p sonli hisoblanadi va ushbu guruhga 125 ta mamlakat kiradi<sup>160</sup>. Ushbu guruhga kiruvchi

<sup>160</sup> A.В.Вахабов, Д.А.Таджибаева, Ш.Х.Хажибакиев. Жахон Иқтисодиёти ва халқаро иқтисодий муносабатлар. – Бактия пресс, 2015. –Б. 58.

mamlakatlarni iqtisodiyoti qishloq xo‘jalik va qazib chiqarish sanoatiga asoslanganligi birlashtiradi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda qayta ishlash sanoati sust rivojlangan va og‘ir mashinasozlikka asoslangan mustaqil industrial baza aksariyat mamlakatlarda mavjud emas.

Ushbu mamlakatlarda fond bilan qurollanganlik darajasining pastligi oqibatida mehnat unumdorligi ham birmuncha past. Bu borada shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, rivojlanayotgan mamlakatlar guruhida Vyetnam, Kambodja va qator Afrika davlatlari o‘tish iqtisodiyoti mamlakatlari singari bozor islohotlarini amalga oshirmoqdalar. Ammo ular hozirgacha o‘z mustaqil industrial bazasini shakllantirganlaricha yo‘q. Aksariyat rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti chuqur diversifikatsiyalashmagan va tor sohaga ixtisoslashgan. Ushbu ixtisoslashuv biror-bir mahsulotni ishlab chiqarishga va uni eksport qilishga bog‘liq.

Jahon xalqaro valuta fondi (JXVF) usulikasi. JXVF 2004yildan boshlab dunyo mamlakatlarini tasniflashdagi yondashuviga o‘zgartirish kiritdi. Endilikda dunyo mamlakatlari ikki guruhga – “Sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlar” (advanced economics) va “Boshqa bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan mamlakatlar va rivojlanayotgan mamlakatlar”ga (other emerging market and developing countries) bo‘linadi.

Ushbu tasnif biron-bir qat’iy iqtisodiy mezonlarni talab etmaydi va JXVF yordamida tarixiy shakllangan yondashuvlar asosida tahlillarni yengillashtirishni ko‘zda tutadi.

JXVF tasnifiga faqat ushbu tashkilotga a‘zo mamlakatlargina kiritiladi. Misol uchun, Kuba va Koreya Xalq Demokratik Respublikasi ushbu tasnifga kiritilmaydi va ushbu mamlakatlar iqtisodiyoti JXVF tomonidan monitoring qilinmaydi. San-Marino bo‘yicha ma’lumotlar bazasi to‘liq ishlab chiqilmaganligi bois ushbu mamlakat rivojlangan mamlakatlar guruhi sirasiga kiritilmaydi. Xuddi shu sabablarga ko‘ra Marshall Orollari, Mikroneziya Federativ Shtatlari, Palau, Somali va Tuvalu bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan mamlakatlar va rivojlanayotgan mamlakatlar guruhi tarkibiga kiritilmaydi.

JXVF tasnifiga muvofiq 2013 yilda rivojlangan mamlakatlar guruhiga 36 ta mamlakat kiritilgan. Ushbu mamlakatlarda dunyo aholisining 14,7 foiz yashaydi, jahon yalpi ichki mahsulotining 43,6 foizi ishlab chiqariladi, jahon tovarlar va xizmatlar eksportining 61,2

foizi ular hissasiga to‘g‘ri keladi. AQSH, Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Italiya, Buyuk Britaniya va Kanada “Katta yettilik” – asosiy rivojlangan mamlakatlar guruhini tashkil etadi va ushbu guruh hissasiga jahon yalpi ichki mahsulotining 32,7 foiz Jahon tovarlar va xizmatlar eksportining 32,9 foiz to‘g‘ri keladi,

Shuningdek, rivojlangan mamlakatlar guruhi ichida Yevro zonasi va Osiyoning yangi industrial mamlakatlari, boshqa rivojlangan mamlakatlar guruhlari ham ajratiladi. 2013 yildan boshlab ushbu guruhga Latviya ham qo‘shilgan.

“Boshqa bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan mamlakatlar va rivojlanayotgan mamlakatlar”ga rivojlangan mamlakatlardan tashqari barcha mamlakatlar kiradi. Bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan mamlakatlar va rivojlanayotgan mamlakatlar geografik jihatdan Markaziy va Sharqiy Yevropa, MDH, Osiyoning rivojlanayotgan mamlakatlari, Lotin Amerikasi va Karib havzasi mamlakatlari, Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika mamlakatlari va Afrikaning Sahroyi Kabirdan janubda joylashgan mamlakatlariga bo‘linadi. Ushbu guruh hissasiga dunyo aholisining 85,3 foiz, jahon yalpi ichki mahsulotining 56,4 foiz, jahon tovarlar va xizmatlar eksportining 38,8 foiz to‘g‘ri keladi.

Bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan va rivojlanayotgan mamlakatlar tahliliy mezonlar bo‘yicha ham guruhlarga ajratiladi. Tahliliy mezonlar – mamlakatning eksport daromadlari tarkibi va boshqa tashqi daromadlarni ifoda etadi. Mamlakatlar o‘rtasidagi farq sof kreditor va sof debitor mamlakatlar sifatida ham tahlil etiladi. Bundan tashqari, sof debitor mamlakatlar tashqi moliyalashtirish manbayi va qarzlarga xizmat ko‘rsatish holati kabi moliyaviy mezonlar bilan ham o‘rganiladi.

Eksport daromadlarining manbalari bo‘yicha mezoni “Yoqilgi” (Xalqaro standart savdo tasnifi (XSSI 3) va “Tovarlar” (yoqilg‘idan tashqari) kategoriyalariga bo‘linadi. “Tovarlar” (yoqilg‘idan tashqari) kategoriyasida “Birlamchi mahsulotlar” (yoqilg‘idan tashqari) guruhi ham ajratiladi (XSST 0,1, 2,4 va 68). Ushbu guruhga eksport daromadlarining asosiy manbayi hisoblangan tovarlar 2009-2013 yillarda jami eksportining 50 foizdan oshgan mamlakatlar kiradi.

Ushbu tasnifda moliyaviy mezonlar bo‘yicha sof kreditor, sof debitor va yuqori darajada qarzdorlikka ega kambag‘al mamlakatlar ajratiladi. Sof debitor mamlakatlarga 1972 yildan 2013 yilgacha joriy operatsiyalar bo‘yicha salbiy qoldiqqa ega mamlakatlar kiradi. Sof debitor mamlakatlar “rasmiiy tashqi moliyalashtirish” va “qarzlarga

xizmat ko'rsatish holati" mezonlari bo'yicha guruhlarga ajratiladi. Tashqi moliyalashtirish kategoriyasiga 2009-2013 yillarda umumiy qarzlarning 65 foizi va undan ortiq qismi rasmiy kreditorlar tomonidan moliyalashtirilayotgan mamlakatlar kiradi. 2009-2013 yillarda 29 ta mamlakat tashqi majburiyatlar bo'yicha muddati o'tib ketgan qarzdorlikka ega bo'lgan rasmiy kreditorlar yoki tijorat banklari bilan qayta rasmiylashtirilgan. Ushbu mamlakatlar muddati o'tib ketgan qarzdorlikka ega yoki qarzlari 2009 yildan 2013 yilgacha qayta rasmiylashtirilgan mamlakatlar guruhiga kiradi.

JXVF va Jahon banki baholariga ko'ra yuqori darajada qarzdorlikka ega kambag'al mamlakatlar guruhiga tashqi qarz hajmini qisqa muddat ichida "iqtisodiy maqbul" darajaga yetkazish majburiyatini olgan mamlakatlar kiradi. Ko'pchilik mamlakatlar qarz yukini yengillashtirish imkoniyatidan foydalandi va ushbu qarzdorlar ro'yxatidan chiqib ketdi.

Jahon banki usulikasi. Jahon banki operatsion va tahliliy maqsadlar uchun dunyo mamlakatlarini iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko'ra turli guruhlarga ajratadi. Ushbu tasnif asosida aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi daromad ko'rsatkichi yotadi va mamlakatlar quyidagi uch guruhga ajratiladi:

- past daromadli mamlakatlar (low-income countries);
- o'rta daromadli mamlakatlar (middle-income countries);
- yuqori daromadli mamlakatlar (high-income countries).

Bundan tashqari, o'rta daromadli mamlakatlar guruhida yana o'rta quyi (lower-middle-income countries) va o'rta yuqori daromadli (upper-middle-income countries) mamlakatlar guruhlari kiritiladi.

Jahon banki tasnifida asosiy tahliliy kategoriyalarga past, o'rta va yuqori daromadlar taalluqlidir. Ular Jahon bankining kredit operatsiyalari uchun mezon sifatida qo'llaniladi. Ushbu operatsion mezonlar bundan 30-yil oldin kambag'al mamlakatlarga nisbatan manfaatli kreditlash shartlarini belgilash uchun ishlab chiqilgan. Bunda asosiy mezon – aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi yalpi milliy daromad hajmi xizmat qiladi. Chunki ushbu ko'rsatkich mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini boshqa ko'rsatkichlarga nisbatan yaxshiroq tavsiflaydi. Shu bilan birga ushbu ko'rsatkichning minimal darajasini belgilashda aholi turmush farovonligining kambag'allik darajasi, bolalar o'limi kabi ko'rsatkichlari bilan Atlas usuliga ko'ra hisoblangan iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi o'zaro barqaror bog'liqlik ham e'tiborga olinadi. Jahon banki qayd etib o'tilgan o'zaro

bog'liqlikni va bank resurslarini hisobga olgan holda aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi daromadning chegara ko'rsatkichlarini belgilaydi. Har yili ushbu ko'rsatkichlar xalqaro inflatsiyaning ta'sirini hisobga olgan holda qayta ko'rib chiqiladi, ammo chegaraviy ko'rsatkichlarning real ahamiyati o'zgarimasdan qoladi. Tahlillar ko'rsatishicha, 2004-2012 yillarda past daromadli mamlakatlar guruhiga kiruvchi mamlakatlar soni 59 tadan 32 tagacha qisqargani holda, yuqori daromadli mamlakatlar soni esa 56 tadan 70 tagacha oshgan.

Jahon banki tasnifi 214 mamlakatni qamrab oladi. Ularning 186 tasi Jahon bankiga a'zo mamlakatlar va boshqalari 30 mingdan ortiq aholiga ega mamlakatlardir. Daromadlar darajasiga ko'ra guruhlash mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko'ra o'xshash jihatlarni taqozo etmaydi. Past va o'rta daromadli mamlakatlar ba'zan rivojlanayotgan mamlakatlar sifatida, yuqori daromadli mamlakatlar esa rivojlangan mamlakatlar sifatida qaraladi. Jahon banki tasnifida yuqori daromadli mamlakatlar guruhida neft eksport qiluvchi – Qatar, Birlashgan Arab Amirliklari (BAA), Bruney, Quvayt kabi XVF tasnifi bo'yicha rivojlanayotgan mamlakatlar guruhiga kiruvchi mamlakatlar ham uchraydi.

Jahon banki mamlakatlarni tashqi qarz holati bo'yicha ham guruhlarga ajratadi:

- tashqi qarzi yuqori kambag'al mamlakatlar;
- tashqi qarzi normal darajadagi mamlakatlar;
- tashqi qarzi katta bo'lmagan mamlakatlar;
- tashqi qarzi bo'yicha guruhlanmagan mamlakatlar.

Tashqi qarz darajasini aniqlash uchun Jahon banki hisobot tizimi bo'yicha muntazam makroiqtisodiy ko'rsatkichlar to'g'risidagi ma'lumotlarni berib boruvchi mamlakatlarga nisbatan turli usullar qo'llaniladi. Ushbu tizimga muvofiq tashqi qarzi yuqori mamlakatlarga tashqi qarzga xizmat ko'rsatishning joriy qiymati yalpi milliy daromadning 89 foiz yoki eksportning 220 foizdan oshadigan mamlakatlar kiradi. Tashqi qarzi normal darajadagi mamlakatlarga esa ushbu ko'rsatkich 60 foizdan oshmaydigan, ammo kritik darajaga yetmagan mamlakatlar kiritiladi.

Jahon bankiga hisobot bermaydigan mamlakatlarga nisbatan quyidagi chegaraviy mezonlar belgilangan:

- tashqi qarzning yalpi milliy daromadga nisbati – 50 foiz ;
- tashqi qarzning eksportga nisbati – 275 foiz ;

- tashqi qarzga xizmat ko'rsatishning eksportga nisbati – 30 foiz ;
- qarz bo'yicha foizning eksportga nisbati – 20 foiz.

Bundan tashqari, Jahon banki ham boshqa xalqaro tashkilotlar singari rivojlanayotgan mamlakatlarni geografik mezon bo'yicha guruhlashtiradi va ushbu guruhga past, o'rtadan quyi va o'rtadan yuqori daromadli mamlakatlar kiradi<sup>1</sup>:

- Sharqiy Osiyo va Tinch okeani hududi mamlakatlari – 24;
- Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlari – 22;
- Lotin Amerikasi va Karib havzasi mamlakatlari – 30;
- Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika mamlakatlari – 13;
- Janubiy Afrika mamlakatlari – 8;
- Afrikaning Sahroyi Kabirdan janubda joylashgan mamlakatlari –

47.

Yuqori daromadli mamlakatlar esa IHTTga a'zo (30 ta mamlakat) va IHTTga a'zo bo'lmagan (40 ta mamlakat) mamlakatlarga bo'linadi.

BMT ga 193 ta mamlakat a'zo. BMT o'z hujjatlari va nashrlarida Jahon banki hamda boshqa turli mezonlarga asoslanadigan tasniflardan keng foydalanadi.

BMT dunyo mamlakatlarini uch guruhga – rivojlangan (more developed regions), rivojlanayotgan (less developed regions) va qoloq (least developed countries) mamlakatlarga ajratadi. Birinchi guruhga Yevropaning barcha mamlakatlari, Shimoliy Amerika, Avstraliya, Yangi Zelandiya va Yaponiya kiradi, ikkinchi guruhga Afrika, Osiyoning (Yaponiyadan tashqari) barcha mamlakatlari, Lotin Amerikasi va Karib havzasi hududi mamlakatlari hamda Melaneziya, Mikroneziya va Polineziya kabi mamlakatlar kiradi. BMT Bosh Assambleyasi tomonidan rivojlanayotgan mamlakatlar guruhi ichida qoloq mamlakatlar guruhi alohida ajratib ko'rsatiladi.

Dunyo mamlakatlarining inson taraqqiyoti darajasi bo'yicha guruhlanishi. BMT Taraqqiyot Dasturi har yili Inson taraqqiyoti to'g'risida ma'ruza nashr etadi va unda dunyo mamlakatlari YuNESKOning Statistika instituti tomonidan maxsus ishlab chiqilgan Inson taraqqiyoti indeksi asosida guruhlarga ajratiladi. Ushbu tasnifga muvofiq mamlakatlar inson salohiyatining rivojlanish darajasiga ko'ra juda yuqori (49 ta mamlakat), yuqori (53 ta mamlakat), o'rta (42 ta

<sup>1</sup> World Development Report 2011. World Bank. P.305.

mamlakat) va past (33 ta mamlakat) ko'rsatkichga ega mamlakatlarga bo'linadi<sup>1</sup>.

XXI asrda jahon iqtisodiyotida rivojlanayotgan mamlakatlar mavqeyining ortib borishi sog'liqni saqlash, ta'lim, transport, aloqa sohalaridagi taraqqiyot va fuqarolarning davlat boshqaruvidagi faolligi bilan kuzatilmoqda.

BMT ning Inson taraqqiyoti to'g'risidagi ma'ruzasida mamlakatlar asosiy agregat ko'rsatkichlar va geografik joylashuvi bo'yicha quyidagi uch guruhga ajratiladi<sup>2</sup>:

- rivojlangan mamlakatlar, shu jumladan Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga a'zo mamlakatlar (IHTT) (28) va IHTTga a'zo bo'lmagan mamlakatlar (16);

- rivojlanayotgan mamlakatlar, shu jumladan Arab davlatlari (16), Sharqiy Osiyo va Tinch Okeani hududi mamlakatlari (24), Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlari (23). Lotin Amerikasi va Karib havzasi (32), Janubiy Osiyo mamlakatlari (8), Afrikaning Sahroyi Kabirdan janubda joylashgan mamlakatlari (45);

- qoloq mamlakatlar (23).

IHTT 1961-yilda AQSH va Kanadadan Marshall rejasi (1947) doirasida Yevropa iqtisodiyotini tiklash uchun ajratilayotgan boshqarish va tiklash dasturlarini muvofiqlashtirish maqsadida tashkil etilgan Yevropa iqtisodiy kooperatsiyasi tashkiloti asosida shakllantirilgan. Hozirgi vaqtda IHTTga a'zo mamlakatlarda iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni muhokama etish, rivojlantirish ichki va tashqi siyosatni muvofiqlashtirish forumi hisoblanadi. Natijada a'zo mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda bajarilishi majburiy bo'lgan huquqiy hujjatlar va bajarilishi ixtiyoriy bo'lgan "yumshoq qonunlar" yuzaga keladi.

Qoloq mamlakatlar. BMT 1971-yildan boshlab rasmiy jihatdan qoloq mamlakatlar guruhini ajratadi. Ushbu guruhga dastlab 24 ta mamlakat kirgan bo'lsa, hozirda ularning soni 39 tani tashkil etadi va mamlakatlar ro'yxati har uch yilda BMT ning Iqtisodiy va ijtimoiy Kengashi EKOSOS tomonidan qayta ko'rib chiqiladi<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Human Development Report 2014. Sustaining Human Progress: Reducing Vulnerabilities and Building Resilience UNDP. New York, 2014. P. 163.

<sup>2</sup> доклад о развитии человека 2013. Возвышение Юга: человеческий прогресс в многообразном мире/Пер. с Англию; ПРООН.- М., Издательство <<Весь Мир>>, 2013. – С. 227-228.

<sup>1</sup> UNCTAD Handbook of Statistics 2014. – P. 10.

Qoloq mamlakatlarni aniqlashda quyidagi uchta mezondan foydalaniladi:

- daromadlarning darajasi past – aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi yalpi ichki mahsulot hajmining uch yildagi o‘rtacha darajasi sifatida baholanadi (750 dollargacha ro‘yxatga kiritish uchun, 900 dollardan yuqori ro‘yxatdan chiqarish uchun);

- inson resurslarining holati – ovqatlanish, sog‘liq, ta‘lim va katta yoshdagi aholining savodxonligini hisobga oluvchi inson aktivlari indeksi (composite human index – HAI) asosida aniqlanadi;

- iqtisodiy bog‘liqlik – (composite economic vulnerability index – EVI) asosida hisoblanadi va quyidagi ko‘rsatkichlardan tashkil topadi:

- a) qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishining beqarorligi;
- b) tovarlar va xizmatlar eksportining beqarorligi;
- s) noan‘anaviy faoliyat turlarining iqtisodiy ahamiyati (yalpi ichki mahsulotda qayta ishlash va zamonaviy xizmatlar ulushi);
- d) tovarlar eksportining konsentratsiyalashuvi;
- e) tabiiy ofatlar natijasida ko‘chirilgan iqtisodiy bazaning torligi va aholi ulushining salbiy ta‘siri.

Qoloq mamlakatlar guruhi ro‘yhatiga kiritilgan mamlakatlar yuqori kambag‘allik darajasiga, iqtisodiy rivojlanishda katta to‘siqlarga ega ekanligi, kambag‘allik va iqtisodiy rivojlanish muammosini hal etishda jahon hamjamiyati yordamiga muhtojligi bilan ajralib turadi. BMT majlislarida muntazam ravishda qoloq mamlakatlarning muammolarini muhokama qilish uchun olib chiqadi va ularga iqtisodiy yordam ko‘rsatish zarurligini ta‘kidlab boradi. Qoloq mamlakat maqomi ushbu mamlakatlar guruhiga muayyan afzalliklar beradi:

- ikki tomonlama, hududiy va ko‘p tomonlama kelishuvlar hamda xalqaro moliya institutlaridan rivojlanish uchun imtiyozli moliyaviy mablag‘lar olish imkoniyati;

- JSTning muayyan kelishuvlariga muvofiq maxsus tamoyillar shaklida xalqaro savdo tizimida imtiyozlarga ega bo‘lish va ba‘zi savdo hamkorlar bo‘yicha bozorlarga imtiyozli kirish huquqi;

- BMTning maqsadli dasturlari, ikki va ko‘p tomonlama hamkorlikdagi rivojlanish dasturlari bo‘yicha texnik ko‘mak olish imkoniyati.

Dengizga chiqish yo‘liga ega bo‘lmagan rivojlanayotgan mamlakatlar. Hozirgi vaqtda jahon iqtisodiyotida 32 ta rivojlanayotgan mamlakat dengizga chiqish yo‘liga ega emas.

BMTning Dengiz huquqi to'g'risidagi konvensiyasiga muvofiq ushbu mamlakatlar dengiz qirg'og'iga ega bo'lmagan mamlakatlar sanaladi. Ularning 15 tasi Afrikada, 12 tasi Osiyoda, 2 tasi Lotin Amerikasida, 2 tasi Yevropada joylashgan va 16 tasi kam taraqqiy etgan mamlakatlar guruhiga kiradi. Osiyodagi 4 ta mamlakat eng yaqin dengiz portidan 3,5 ming km. uzoqlikda joylashgan. Ushbu mamlakatlarning 7 tasidan dengiz portlarigacha 1,5 ming km. 11 tasida esa 1 ming km. masofa mavjud.

Ushbu omil qayd etib o'tilgan mamlakatlarning tovar tarkibida ham o'z ifodasini topgan. Ularning eksportida og'ir va arzon tovarlar ustuvorlik qiladi. Transport va sug'urta xarajatlari ushbu mamlakatlar iqtisodiyotiga og'ir yuk bo'lib tushadi hamda eksportga yunaltirilgan iqtisodiy o'sishni ta'minlashda jiddiy to'siq bo'lmoqda. Tahlillarning ko'rsatishicha, 2002 yilda jahon xo'jaligida transport va sug'urta xarajatlari o'rtacha eksportga chiqarilayotgan tovar qiymatining 3,3 foizni tashkil etgani holda, ushbu ko'rsatkich dengizga chiqish yo'liga ega bo'lmagan rivojlanayotgan mamlakatlarda 8,6 foizga teng bo'lgan<sup>161</sup>.

Ushbu mamlakatlar iqtisodiyotiga import qiymatining yuqoriligi ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shunga qaramasdan mamlakatlarning tranzit muammolarini hal etish uchun milliy transport va samarali tranzit tizimini rivojlantirish, hududiy savdo va iqtisodiy integratsiyani kengaytirish, uzoq masofa tufayli transport xarajatlari oshib ketmaydigan mahsulotlar ishlab chiqariladigan tarmoqlarni rivojlantirish zarur.

BMTning Savdo va rivojlanish bo'yicha konferensiyasi (YuNKTAD) tasnifi. YuNKTAD dunyo mamlakatlarini BMTning Iqtisodiy va ijtimoiy masalalar departamenti mezonlariga muvofiq rivojlangan, rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari guruhlariga bo'ladi.

Rivojlangan mamlakatlar geografik joylashuviga ko'ra Amerika (5), Osiyo (2), Yevropa (36) va Okeaniya (2) hududlariga ajratiladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar esa Afrika (56), Amerika (41), Osiyo (40) va Okeaniya (21) hududlariga bo'linadi.

O'tish iqtisodiyoti mamlakatlari guruhiga Sharqiy Yevropa va MDH mamlakatlari kiritiladi.

---

<sup>161</sup> Гурова И. П. Мировая экономика. Учебник. – М.: Шмуга-Л., 2007. – С. 116

YuNKTAD rivojlanayotgan mamlakatlarni quyidagi mezonlar bo'yicha guruhlaydi: eksportning ixtisoslashuvi:

- neft eksport qiluvchi mamlakatlar – 22 ta mamlakat;
- sanoat mahsulotlarini eksport qiluvchi mamlakatlar – 12 ta mamlakat;
- rivojlanayotgan mamlakatlar – 10 ta mamlakat;
- yangi industrial mamlakatlar – 8 ta mamlakat.
- iqtisodiy rivojlanish darajasi (aholi jon boshiga nominal YAIIM ishlab chiqarish hajmi, 2004-2006)<sup>1</sup>:
- yuqori – 4500 dollardan yuqori (57 ta mamlakat);
- o'rta – 1000 dollardan 4500 dollargacha (47 ta mamlakat);
- past – 1000 dollargacha (55 ta mamlakat).

Shunday qilib xilma-xil xalqaro tashkilotlar dunyo mamlakatlarni iqtisodiy holatini baholashda turli indikatorlarni taklif qilishdi. Ularda muayyan farqlar kuzatilsa-da, o'xshash jihatlari mavjud. Shuni ham aytish joizki, ular tomonidan ishlab chiqilgan indikatorlar har yili foydalaniladi. Shuning uchun davlatlarning iqtisodiy ko'rsatkichlari dinamik xarakterga ega.

#### **13.4. O'zbekistonda kambag'alikni qisqartirishning yo'llari va uning asosiy yo'nalishlari**

34 millionlik O'zbekiston aholisining qanchasi yoki necha foizi kambag'al ekani rasman aytili. Bu haqda mamlakat Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020 yil 27 fevral kuni tadbirkorlikni rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlar bo'yicha videoselektor yig'ilishida so'z ochgan.

Prezidentning qayd etishicha, mamlakat aholisining 12-15 foizi yoki 4-5 millioni kambag'al. Bu dastlabki hisob-kitoblar natijasi, xolos. Prezident bu haqda so'z yuritar ekan, kambag'al deya ta'riflangan aholi daromadlari borasida to'xtalib o'tadi:

“Bu ularning bir kunlik daromadi 10-13 ming so'mdan oshmayapti, degani. Yoki bir oilada mashina ham, chorva ham bo'lishi mumkin, lekin bir kishi og'ir kasal bo'lsa, oila daromadining kamida 70 foizi uni davolashga ketadi. Xo'sh, bunday oilani o'ziga to'q deyish

<sup>1</sup> UNCTAD Handbook of Statistics 2014. – P. 16.

mumkinmi? Prezident sifatida meni odamlarimizning ovqatlanishi, davolanishi, bolalarini o'qitishi, kiyintirishi kabi hayotiy ehtiyojlari nima bo'layapti, degan savol har kuni qiynaydi", deydi Shavkat Mirziyoyev.

Qayd etish o'rinliki, kambag'allik O'zbekistonda ko'p yillar "yopiq mavzu" bo'lib keldi. 2020 yil 24 yanvar kuni Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida davlat rahbari bu haqda ochiq-oydin gapirdi va O'zbekiston tarixida birinchi marta kambag'allikni qisqartirish ustuvor vazifa sifatida belgilandi.

Mutaxassislar kambag'allik O'zbekiston uchun qay daraja dolzarb ekanligini va buni sabablari haqida ma'lumot berdi. Ularning bergan ma'lumotlariga ko'ra, Qashqadaryo viloyati kambag'allik muammosi bo'yicha eng og'ir hudud hisoblanadi.

Endi yashirish kerak emas, og'ir sharoitlarda yashayotgan odamlarimizning asl muammosi, vaziyatini tushunishimiz, barcha toifadagi rahbarlar dunyoqarashimizni o'zgartirishimiz lozim bo'ladi. Bizdagi ma'lumotlarga ko'ra, Qashqadaryo viloyati kambag'allik muammosi bo'yicha eng og'ir hudud hisoblanadi. 700 ming aholi kambag'al. Bu jami aholining qariyb 21 foizini tashkil etmoqda. Bu vaziyatda Qashqadaryoda rahbarlar bir joyda o'tirishi mumkin emas. Odamlarimizni bunday og'ir sharoitdan qanday chiqarib olamiz, degan savolni o'ziga berishi lozim. Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasida 500 ming, Surxondaryo viloyatida 500 ming, Namangan viloyatida 400 ming, Jizzax viloyatida 210 ming va Sirdaryo viloyatida 130 ming aholi kambag'al. Bu raqamlarni mahallalar kesimida olsak, yanada og'ir raqamlarga guvoh bo'lamiz. Jumladan, Parkent tumanining "Yangiobod" mahallasida 1039 nafar kam ta'minlagan va kambag'allar bor. Oltinsoy tumani "Mirshodi" mahallasida 906 nafar, Boysun tumani "To'da" mahallasida 504 nafar fuqarolarimiz og'ir ahvolda yashayotganini" ochiq oydin ta'kidladi.

O'zbekistondagi kambag'allik holatini o'rganish aniq chora-tadbirlarni talab etadi. Bunda AQSH, Yevropa Ittifoqi kabi davlatlari tajribasini o'rganish o'ta muhim masala. Shu bilan birga, biz uchun muhim tomoni, kambag'allik holatini to'liq tugatib bo'lmaydi, balki uni darajasi va hajmini iloji boricha kamaytirish mumkin. Bu davlat va jamiyatni siyosati va faoliyatiga mutlaqo bog'liq emas. Bu esa jamiyat va davlatga kambag'allikni negativ ta'sirini kamaytirish bo'yicha choralarni doimiy ravishda olib borishni taqazo etadi.

O'zbekiston uchun xususan absolut kambag'allik tamoyili asosida kambag'allar soni, holatini aniqlashda turli xil fikrlar, qarama-qarshi yondoshuvlar bor. Misol, rasmiy manbalarga tayanib, kambag'allar soni umumiy aholining 13-15 foizini tashkil etishi taxmin qilinadi. Lekin aholini o'zini-o'zi baholashidan bilish mumkinki, faktlar aniq va shaffof emas. Ya'ni ayrim aholi toifalari moddiy ta'minlanganlik jihatidan o'zlarini kambag'al hisoblasa, ayrimlari ayni shunday moddiy ta'minlanganlik jihatidan o'zlarini kambag'al hisoblamaydilar. Shuning uchun O'zbekistondagi kambag'allik holati ko'p qirralik holat va uni tarqalish mashtabi turlicha qabul qilingan. Bu muammoga turli qarashlar tufayli aniq siyosatni belgilash, hamda kurashish mexanizmining yo'qligidir.

Shu bilan birga, qashshoqlikka qarshi samarali kurashish uchun odamlarning kundalik hayotida duch keladigan va ularning turmush darajasining pastligi yoki qashshoqlik sabablari bo'lgan muammolarni yaxshi bilish kerak.

Odamlar farovonlik bilan bog'liq muammolarni mustaqil hal qilish uchun odamlar qanday manbalarga muhtoj? Mavjudlik aholining ahvolini yaxshilashga yordam beradigan (va yo'qligi, mos ravishda, oldini olish) resurslarning asosiy turlari quyidagilardan iborat:

1) iqtisodiy manba, ya'ni oila hayotiga alohida zarar yetkazmasdan sotilishi va naqd pulga aylantirilishi mumkin bo'lgan mulk, daromadning tabiati, oilada kamida bir yil yashashi uchun yetarli mablag'larning mavjudligi;

2) ta'lim va malaka ko'rsatkichlari to'plami sifatida hisoblangan malaka manbasi;

3) birlashtiradigan ijtimoiy manba: 1) kundalik aloqalar va qo'llab-quvvatlashning kundalik norasmiy tarmoqlariga qo'shilish (do'stlar va ular bilan doimiy aloqada bo'lish, ularning ishonchli qo'llab-quvvatlashiga ishonish), 2) ayniqsa, juda kam ma'lumotlarga kirishni ta'minlaydigan yuqori samarali ijtimoiy tarmoqlarga kirish, foyda va manbalar ("aloqalar"), 3) rasmiy tarmoqlarga qo'shilish (klublarga, partiyalarga a'zolik va boshqalar);

4) fuqarolarning butun korxonaga yoki uning birligi miqyosida qarorlarni qabul qilish, hokimiyatdan foydalanish huquqini belgilash, ularning rasmiy maqomi va ish joyidagi mavqeiga qarab ijtimoiy mavqeyini, o'z-o'zini anglash qobiliyatini hisobga oladigan vakolatli manba;

5) madaniy manba, bu bir tomondan fuqarolarning bo'sh vaqtini o'tkazish xususiyatlari va madaniy ehtiyojlarini, ikkinchi tomondan bolalik va o'smirlik davrida ularning ijtimoiylashishi sharoitlarini (maktab yoshida yashash joyi va ota-onalarning ta'limoti) ko'rsatkichlarini o'z ichiga olishi mumkin;

6) muvaffaqiyatli munosabat mavjudligini va moliyaviy ahvolning yomonlashishini, mos kelmaslik, egalitar kayfiyatning yo'qligi, tashabbuskorlik va boshqalarni oldini olish uchun ish faoliyatini kuchaytirishga tayyorligini hisobga olgan holda shaxsiy manba;

7) fuqarolarning mehnat bozorida ustun mavqega ega bo'lish imkoniyatlarini oshiradigan yoki aksincha, pasaytiradigan xususiyatlarni hisobga oladigan biologik resurs - sog'liq darajasi, jinsi va yoshi.

Bundan tashqari, kambag'allar holatining o'ziga xos xususiyati shunchaki ular "ozgina pul" borligidan iborat emas, balki ular kambag'al qatlamlardir, ular nafaqat qiyin vaziyatdan chiqishga imkon beradigan iqtisodiy yoki malaka kapitalidan mahrum, balki davlatdan tashqari birovning qo'llab-quvvatlashiga ishonish imkonini beradigan oddiy ijtimoiy kapital ham. Bundan tashqari, agar siz aholining turli qatlamlarini birlashtirilgan resurs ta'minoti ko'rsatkichlarini hisoblab chiqishga harakat qilsangiz, kambag'allarda biron bir resurs yetishmasligi manzarasi yanada ravshanroq bo'ladi va mamlakatning iqtisodiy holatida biror-bir yaxshilanish kambag'allik holatini avtomatik ravishda yaxshilamasligi aniqroq bo'ladi.

Shunday qilib, "daromadlar kambag'alligi"ni emas, balki haqiqiy kambag'allik bilan kurashish muammosi, bir tomondan, ularni sarflash xususiyatlari va boshqa tomondan mavjud resurslarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishdir. Va bu bir xillikdan uzoq bo'lgan hamda ijtimoiy siyosatning tubdan farq qiladigan oqibatlarini keltirib chiqaradigan kambag'allik sabablarini batafsil tushunish zarurligini anglatadi.

Hozirgi davrda kambag'allik chegarasi bir kishi uchun sutkasiga 3,2 AQSH dollari miqdorida belgilangan. Agar bu miqdorni bir kishi uchun bir oyda 96 AQSH dollar (MB rasmiy kursi bo'yicha 918 ming so'm) tashkil etishini hisobga olsak, O'zbekiston oilalari o'rtacha soni 4,6 kishini tashkil etishi va bu chegara bir oila uchun 441,6 AQSH (MB rasmiy kursi bo'yicha 4 mln 223 ming so'm) dollarini tashkil etishi kerak. Ayni paytda aholining pul daromadlari bilan birga natural daromadlari ham bor. Natural daromadlarni to'liq statistik hisobga olish

imkoniyati cheklangan. Agarda aholining umumiy daromadlari tarkibida natural daromadlari 15-25 foizni (asosan qishloq tumanlarida) tashkil etishini hisobga olsak, o'rtacha 4,6 kishilik oila uchun natural daromadlarni pulga chaqib hisoblasak, mos ravishda (4 223 000-633 450 (15foiz)) 3 mln 598 ming 550 so'm yoki (4 223 000-1 055 750) 3 mln 167 250 so'mni tashkil etishi kerak. Demak, O'zbekiston kambag'allik darajasini aniqlashda jahon tajribasini hisobga olgan holda o'zining milliy kambag'allik chegarasini belgilab olishi talab etiladi<sup>162</sup>.

Nima uchun davlat kambag'allikka barham berish choralari ni ko'rishi kerak?

Birinchidan, kambag'allik jinoyatchilikning o'sishiga ta'sir qiladi. Shunday qilib, jinoyatchilik aholining kam ta'minlangan qatlamlari orasida keng tarqalmoqda, ular ba'zan "daromad olish" ning jinoiy shakllariga murojaat qiladilar.

Kambag'allikning ikkinchi eng muhim salbiy oqibati - bu aholi sog'lig'ining yomonlashishi. Hayotning past darajasi va darajasi past daromadli guruhlarining sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Balanssiz va yetarli darajada ovqatlanmaslik, gigiena me'yorlari yo'qligi, kam ta'minlangan fuqarolarga tibbiy xizmatni o'z vaqtida olish yoki samarali dori-darmonlarni olishga imkon bermaydigan moliyaviy resurslarning yetishmasligi, bularning barchasi kam ta'minlanganlar orasida kasalliklarning ko'payishiga olib keladi.

Kambag'allik alkogolizm va giyohvandlikning o'sishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Umuman olganda, ish topishni orzu qilgan va yashash imkoniyati bo'lmagan odamlar axloqiy ko'rsatmalarini juda o'zgartiradilar. Bu, o'z navbatida, turli xil deviant xatti-harakatlarga olib keladi, ularning eng jiddiy shakllaridan biri mastlik va giyohvand moddalarni iste'mol qilishdir. Giyohvandlikning ko'payishi OITSning ko'payishiga yordam beradi, chunki giyohvandlar orasida OITS yuqtirish xavfi katta.

Kambag'allikning yuqori darajasi ham jamiyatdagi ijtimoiy keskinlikning kuchayishiga sababdir. Bu, eng avvalo, hukumatga ishonchning kamligi va kam daromadli guruhlarining mavjud muammolarini hal qilishga qodir emasligi bilan bog'liq.

Kambag'allikning xavfli oqibatlaridan biri bu aholining umumiy ma'lumot darajasi pasayishi. Daromadlari past bo'lgan ota-onalar

<sup>162</sup> Doctor of Science, prof. Рустам Хасанов., Ph.D. Ботир Усмоновлар мақоласи <https://www.review.uz/oz/post/ozbekistonda-kambagallik-va-uni-qisqartirish-yollari>

ko'pincha o'z farzandlarini o'qish uchun zarur bo'lgan narsalar bilan to'liq ta'minlay olmaydilar: o'quv qurollari, kiyim-kechak va oddiy ovqatlanish. Oddiy o'rta maktablarda ko'plab o'qituvchilar malakasining pastligi jiddiy muammo hisoblanadi.

O'zbek jamiyatida kambag'allarning ko'p bo'lishi bir qator ijtimoiy-demografik oqibatlariga olib kelishi mumkin. Ular orasida, birinchi navbatda, mehnatga layoqatli aholining qishloq joylardan shaharlarga o'z-o'zidan ko'chib ketishi. Hozirda ushbu tendensiya namoyon bo'lmoqda.

Bunday ichki migratsiyaning asosiy sabablaridan biri qishloq joylarida ish o'rinlarining yetishmasligi.

Umuman olganda, ko'rib chiqilayotgan kambag'allik belgilari ma'lum darajada aniqlik bilan aholining kam ta'minlangan qatlamlarini ajratib olish yoki tabaqalashtirishga imkon beradi va shu bilan savol tug'iladi:

Bugungi kunda kambag'allik muammosi o'zbek jamiyatining quyidagi qatlamlari uchun nihoyatda dolzarbdir:

qishloq aholisi, shuningdek, asosan sanoat munosabatlari sohasidan tashqarida bo'lgan aholining ayrim qatlamlari, ayniqsa, keksalar, nogironlar, ishsizlar. Bundan tashqari, kam ta'minlanganlik katta oilalarning katta qismiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Umuman olganda, qishloq joylarida kambag'allik muammosi shaharlarga nisbatan ancha keskin. Aholi jon boshiga pul daromadlari qishloq joylardagi shaharlarga nisbatan deyarli 2 baravar kam. Qishloq joylaridagi ishsizlik muammosi qisman xususiy uy sharoitida ish bilan ta'minlanadi, ammo qishloq uy xo'jaliklarining mavjudligi nisbatan past pul daromadlarini qoplay olmaydi va shu sababli qishloqda kambag'allik muammosini hal qila olmaydi.

Juda qiyin vaziyatda bo'lgan nafaqaxo'rlar va nogironligi bor shaxslar ham cheklangan ijtimoiy nafaqa: pensiya yoki nogironlik nafaqasi bo'yicha yashaydi.

O'zbekistonda kambag'allikning milliy standartlarini belgilashda 3 ta aholi toifalarining kambag'allik darajasidan kelib chiqib kompleks yondoshish talab etiladi:

**1-toifa.** Ijtimoiy maqomdan kelib chiqib, doimiy kambag'allar (ayrim pensionerlar-yakka yolg'iz, qarovchisi yo'qlar, nogironligi bo'lgan shaxslar, qarovchisini yo'qotgan yoki ko'p bolali oilalar va h.k).

**2-toifa.** Kambag'allikdan chiqib ketish imkoniyatiga ega bo'lgan toifalar (balog'at yoshidagilar, ayollar, ishsizlar va h.k.).

**3-toifa.** Kambag'allikka yuz tutish xavfi bo'lgan toifalar – kam daromadli farroshlar, qorovullar, oddiy ishchilar, kasbi zamon talablariga javob bermaydiganlar, ishdan bo'shab qolganlar, farovonlikka intilmaydiganlar va h.k.)<sup>163</sup>.

Kambag'allikning Milliy standartlarini yaratishda aytib o'tilgan aholi qatlamlarini o'rganib, ularning har biriga tabaqalashgan tarzda choralar ko'rish talab etiladi.

Jumladan, birinchi toifadagilar albatta moddiy ko'makka muhtoj, ularga davlatning moddiy yordami kerak bo'ladi. Chunki, ushbu toifadagilar o'zlarining ijtimoiy maqomidan kelib chiqib, shaxsiy daromadlarini o'stirib borish imkoniyatiga ega emas.

Ikkinchi toifadagilarda kambag'allikdan chiqib ketish imkoniyatlari mavjud. Ularni kasbga o'rgatish, yangi kasbga qayta tayyorlash, bandligini ta'minlash, biznes bilan shug'ullanishga yo'naltirish va shunga o'xshash choralarni ko'rish orqali daromad topish imkoniyatini yaratish zarur bo'ladi.

Uchinchi toifadagilar o'zlarining foliyat doirasini o'zgartirishlari, ular olayotgan ish haqini o'rtacha darajaga yetkazish, qo'shimcha daromad manbalarini izlab topishiga undash, sharoit hozirlash, shaxsiy tomorqa xo'jaligi imkoniyatlaridan foydalanishni kengaytirish va shunga o'xshash choralarni ko'rish talab etiladi.

Daromad va iste'mol tushunchalaridan kelib chiqib, kambag'allik va nochorlik muammosiga bo'lgan yondoshishni yanada chuqur o'rganish va aniq choralarni belgilash imkonini beradi. Kambag'allik nisbiy va subyektiv xususiyat kasb etadi. Moddiy ta'minoti yetarlicha bo'lishiga qaramay, shaxs sog'lom va to'laqonli yashashga imkonsiz bo'lishi mumkin. Boshqa tomondan kishining bilimi va saviyasi yetarli bo'lmasligi, to'g'ri qaror qabul qila olmasligi, noto'g'ri ishga qo'l urishi, dangasaligi, yalqovligi, uquvsizligi va shunga o'xshash subyektiv xislatlar ham insonni farovon yashashdan mahrum etadi. Bular kambag'allikka yuz tutishning subyektiv sabablaridir.

Kambag'allikni tamomila yo'qotib bo'lmagan taqdirda ham qisqartirib borish zarurati paydo bo'ladi. Bunga asosan 2 yo'l bilan erishiladi.

<sup>163</sup> Doctor of Science, prof. Рустам Хасанов., Ph.D. Ботир Усмоновлар мақоласи <https://www.review.uz/oz/post/ozbekistonda-kambagallik-va-uni-qisqartirish-vollari>

Birinchisi, kambag'allarda iqtisodiy faollikni uyg'otish. Sharqda bir dono gap bor:" Kambag'allikka yalqovlik qo'shilsa, buning davosi yo'qdir". Shu sababli kambag'allarni yalqovlikdan forig' etish talab qilinadi. Muhimi, kambag'allarga ishlab pul topib, to'q yashashiga sharoit va imkoniyat yaratish kerak.

Ikkinchisi, kambag'allarga davlatning va korxonalarining moddiy yordam berishini tashkil etish. Bu vosita zarur bo'lsa-da, boqimandalik kayfiyatini tug'dirib, faollikka undamaydi. Shu sababli bu yo'l o'zini o'zi boqishga qodir bo'lmagan kishilarga, Jumladan, nogironlarga va ko'p bolali oilalarga nisbatan saylangan holda qo'llanadi. Ijtimoiy yordam uzoq vaqt ishsiz qolganlar, kasbini yo'qotganlarga ham beriladi.

Ixtiyoriy ravishda kambag'allikni tanlab olinishi ham bor. Shundaylar ham bor-ki ular tasodifiy daromad, homiyalar yordami hisobiga yashab bekor yurishni afzal ko'radilar, Jumladan, boshpanasiz ishyoqmaslar – bomjlar.

Boylar, o'rtahollar va kambag'allar soni o'zgarib turadi. Iqtisodiyot rivojlangan sari kambag'allar o'rtahollarga, o'rtahollar boylarga aylanib boradi. Iqtisodiyot inqiroz kezlarida aksi yuz beradi. Jumladan, 2008-2012 yillar retsessiya paytida yer yuzidagi kambag'allar soni 120 mln. kishiga ko'paydi. Ayni paytda o'rtahollar soni qisqardi.

Aholining tabaqalanishi tabiiy bo'lsa-da, uning chegarasi bor. Kambag'allik ko'payib ketsa norozilik kuchayadi, to'qnashuvlar kelib chiqadi, natijada ijtimoiy muvozanat buziladi. Shu sababli, davlat tengsizlikni tartiblab turishi zarur bo'ladi<sup>164</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 26 martdagi PF-5975-sonli "Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi. Ushbu hujjat kambag'allikni qisqartirish uchun asosiy qonun hujjati bo'lib unda qisqacha shunday yozilgan:

Iqtisodiyotni erkinlashtirish va bozor mexanizmlarini keng joriy qilish tamoyillariga asoslangan islohotlarning yangi bosqichida davlatning iqtisodiyotdagi rolini kamaytirish va xususiy sektorning ishtirokini kengaytirish bo'yicha navbatdagi ishlarning natijadorligini

---

<sup>164</sup> Doctor of Science, prof. Рустам Хасанов., Ph.D. Ботир Усмоновлар мақоласи <https://www.review.uz/oz/post/ozbekistonda-kambag'allik-va-uni-qisqartirish-vollari>

oshirish bugungi kunda iqtisodiyotni boshqarishning aniq, shaffof va natijaga yo'naltirilgan mexanizmini ishlab chiqishni taqozo etmoqda<sup>165</sup>.

Ta'kidlanishicha, yangi ish o'rinlari yaratishni qo'llab-quvvatlash orqali aholi daromadini oshirish va kambag'allikni qisqartirish masalalariga alohida e'tibor qaratilib, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi sifatida qayta tashkil etildi.

Qayd etilishicha, aholining nochor qismiga ko'mak berish maqsadida kompleks va hududiy dasturlar ishlab chiqilgan, vazirlar, hokimlar va sektorlar rahbarlarining vazifalari belgilab berilgan. Lekin pandemiya ko'p sohalarda ish o'rinlarini yaratishga, kambag'allikka qarshi kurashishga katta ta'sir ko'rsatmoqda.

Pandemiyaning ta'sirini yumshatish maqsadida "Saxovat va ko'mak" umumxalq harakati yo'lga qo'yildi. Uning doirasida karantin davrida ijtimoiy himoyaga muhtoj, ko'p bolali oilalarga, yolg'iz va nogironligi bor shaxslarga hamda o'z daromadini yo'qotgan vaqtincha ishsiz bo'lgan 321 mingga yaqin oilaga 127,7 milliard so'mdan ziyod mablag' sarflangan<sup>166</sup>.

O'zbekistonda kambag'allikka qarshi kurash haqida gapirganda, turli mintaqalarda, shahar yoki qishloqlarda yashaydigan turli yoshdagi odamlar, erkaklar va ayollar uchun kambag'allikning sabablari juda farq qilishini hisobga olishimiz kerak. Shu nuqtayi nazardan, qashshoqlikka qarshi kurash juda murakkab va ko'p qirrali vazifadir. Shu munosabat bilan, muhtoj odamlarga to'g'ridan-to'g'ri moliyaviy yoki tabiiy yordam ko'rsatish orqali qashshoqlik muammosini hal qilishda jiddiy ijobiy natijaga erishish mumkin emasligi ayon bo'ladi. Albatta, aholining kam ta'minlangan qatlamlarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash zarur, ammo kambag'allikning turli xil sabablarini hisobga olgan holda, unga qarshi kurashda har qanday muhim yutuqlarga odamlar o'zlarining moddiy muammolarini mustaqil hal eta oladigan va o'zlarini zarur daromadlari bilan ta'minlaydigan sharoitlar yaratilgandagina erishish mumkin.

2020 yil 16 mart kuni AOKA huzuridagi shtabda bo'lib o'tgan brifingda Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi axborot xizmati

<sup>165</sup> "Иқтисодийотни ривожлантириш ва камбағалликни қисқартиришга оид давлат сиёсатини тубдан янгилаш чора-тадбирлари тўғрисида" Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 26 мартдаги ПФ-5975-сон Фармони

<sup>166</sup> <https://darvo.uz/k/2020/07/28/ozbekistonda-qancha-aholi-kambagal-ekanligi-malum-qilindi/>

rahbari Saodat Boymirzayevaning aytishicha, “Temir daftar” - karantin sharoitida ishsiz, daromadsiz qolgan ehtiyojmand, yordamga muhtoj oilalarning mahallada shakllantirilgan shaffof ro‘yxati hisoblanadi.

Ro‘yxat mahallalar kesimida fuqarolar yig‘ini raisi tomonidan sektor rahbari bilan hamkorlikda tuziladi.

**“Temir daftar”ga 7 toifadagi oilalar kiritiladi:**

- kam ta‘minlangan;
- nogironligi bo‘lgan;
- ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar;
- yakka-yolg‘iz keksalar;
- doimiy ishsiz fuqarolar;
- karantin tufayli ishsiz qolgan fuqarolar;
- og‘ir epidemiologik hududlardan qaytib kelgan, kambag‘allikdan chiqarishga muhtoj fuqarolar.

Mas‘ul xodimlar o‘zining kunlik amalga oshirgan ishlari yuzasidan «Temir daftar»idagi ma‘lumotlarni saxovat.argsov.uz saytiga raqamli imzo kaliti orqali elektron shaklda kiritib boradi.<sup>167</sup>

**Nazorat savollari:**

1. Kambag‘allik tushunchasiga ta‘rif bering.
2. Kambag‘allikning qanday ko‘rinishlari va turlari bor?
3. Kambag‘allikni o‘lchash uchun qaysi ko‘rsatkichlardan foydalaniladi?
4. Jahon amaliyotida kambag‘allikni baholashning qaysi usullari ma‘lum?
5. Jahon banki kambag‘allik darajasini qanday hisoblaydi?
6. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida kambag‘allikka qarshi kurashishning zamonaviy tajribalari haqida nimalarni bilasiz?
7. Dunyo mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanish jihatdan guruhlanishi haqida ma‘lumot bering?
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 27-fevral kuni tadbirkorlikni rivojlantirish orqali kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlar bo‘yicha videoselektor yig‘ilishida so‘zlagan nutqini bilasizmi?
9. Kambag‘allikni bartaraf etish manbalari?

<sup>167</sup> <https://zen.yandex.ru/media/podrobnouz/maalla-va-oilani-llabuvvatlash-vazirligi-temir-daftarga-kimlar-kiritilishi-aida-malum-ildi-5f27f3f3912fbc4db7e21328>

10. "Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 26 martdagi PF-5975-son Farmoni mazmun mohiyatini gapirib bering?

### Testlar:

#### 1. BMTning "Ming yillik Deklaratsiyasi" qachon qabul qilindi?

- a) 2005 yili;
- b) 2004 yili;
- c) 2000 yili;
- d) 2001 yili.

#### 2. Kambag'allik toifasi bu...?

a) odamlarning moddiy ta'minlanmaganligining o'ziga xos holati bo'lib, bunda bir kishi yoki oilaning daromadi hayot faoliyati uchun sotsial - zaruriy iste'mol darajasini ta'minlashga imkon bermaydi;

b) kishilarning belgilangan hayotiy ehtiyojlarini amalga oshirish uchun imkon topa olmaydilar;

c) bir oilaning yashash minimumi bo'yicha hayot kechirishlari yuz beradi;

d) nogironligi bo'lganligi uchun munosib ish topa olmasliklari sababli o'z ehtiyojlarini qondirishni imkoni bo'lmaydi.

#### 3. Kambag'allik qanday ko'rinishlari bo'yicha farqlanadi?

- a) mutlaq va nisbiy;
- b) oddiy va murakkab;
- c) birlamchi va ikkilamchi;
- d) o'rta va og'ir.

#### 4. Kambag'allikni baholashda evristik usul nimani nazarda tutadi?

a) minimal iste'mol savati asosida baholashni;

b) jamoatchilik fikri yoki so'raluvchining nuqtayi-nazaridan kelib chiqqan holda, turmush darajasining yetarli yoki yetarli emasligini baholashni;

c) kambag'allar toifasini, davlat ularning moddiy ta'minot iga yordam yo'naltirilgan imkoniyat resurslari orqali aniqlashni;

d) eng muhim mahsulot va tovarlarni to'yib iste'mol qilmaslik darajasini aniqlashni.

#### 5. Kambag'allikni baholashda iqtisodiy usuli qanday amalga oshiriladi?

- a) minimal iste'mol savati asosida baholash;
- b) jamoatchilik fikri yoki so'raluvchining nuqtayi-nazaridan kelib chiqqan holda, turmush darajasining yetarli yoki yetarli emasligini baholash;
- c) kambag'allar toifasini, davlat ularning moddiy ta'minotiga yordam yo'naltirilgan imkoniyat resurslari orqali aniqlash;
- d) eng muhim mahsulot va tovarlarni to'yib iste'mol qilmaslik darajasini aniqlash.

**6. AQSHda yashash minimal oylik daromadining qancha qismiga to'g'ri keladi?**

- a) 20 foiziga;
- b) 30 foiziga;
- c) 40 foiziga;
- d) 50 foiziga.

**7. Italiyada yashash minimumi oylik daromadining qancha qismini tashkil etadi?**

- a) 50 foiz;
- b) 60 foiz;
- c) 55 foiz;
- d) 65foiz.

**8. Kambag'allik darajasiga ko'ra oilalarni qanday toifalarga ajratish mumkin?**

- a) yengil, o'rta, og'ir;
- b) o'rta, og'ir, o'ta og'ir;
- c) o'ta muhtojlar, muhtojlar, nochorlar, kam ta'minlanganlar;
- d) yengil, og'ir, o'ta og'ir.

**9. BMT kambag'allik chegarasini qanday belgilaydi?**

a) asosiy tovar va xizmatlar (oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechak, turar-joy haqini to'lash, suv bilan ta'minlash, elektr energiyasi, maktab ta'limi, tibbiy xizmat) uchun zarur bo'lgan daromadlarni hisobga olgan holda;

- b) kishilarning birlamchi ehtiyojlarini hisobga olgan holda;
- c) kishilarning yashash sharoitini aniqlash orqali;
- d) kishilarning iste'mol savatini aniqlash orqali.

**10. Gonkong ustidan Xitoy suvereniteti nechanchi yilda o'rnatildi?**

- a) 1995 yil, sentyabr ;
- b) 1997 yil, iyul;

c) 1998 yil, sentyabr;

d) 1996 yil, iyul.

**11. Standart klassifikatsiyada mamlakatlar qanday guruhlarga ajratiladi?**

a) kambag'al, boy, o'ta boy;

b) rivojlangan, rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari;

c) rivojlangan, qoloq, boy;

d) rivojlanayotgan, kambag'al, rivojlangan.

**12. Mamlakatlar tashqi qarz holati bo'yicha qanday turlarga bo'linadi?**

a) past, yuqori, katta bo'lmagan, katta;

b) past, o'rta, yuqori, katta;

c) o'rta, yuqori, katta, guruhlanmagan ;

d) yuqori, normal, katta bo'lmagan, guruhlanmagan.

**13. Mamlakatlar inson salohiyatining rivojlanish darajasiga ko'ra, qanday tasniflanadi?**

a) juda yuqori, yuqori, o'rta, past;

b) past, yuqori, katta bo'lmagan, katta;

c) past, o'rta, yuqori, katta;

d) o'rta, yuqori, katta, guruhlanmagan.

**14. Qoloq mamlakatlarni aniqlashdagi mezonlarni ko'rsating.**

a) tovarlar eksportining konsentratsiyalashuvi, tabiiy ofatlar natijasida ko'chirilgan iqtisodiy bazaning torligi va aholi ulushining salbiy ta'siri;

b) qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining beqarorligi, tovarlar va xizmatlar eksportining beqarorligi;

c) daromadlarning darajasi past, inson resurslarining holati, iqtisodiy bog'liqlik;

d) eksport va import darajasi, kambag'allik chegarasi, daromadlar darajasi yuqori.

**15. "Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni qachon qabul qilindi?**

a) 2020 yil 26 mart;

b) 2019 yil 8 dekabr;

c) 2019 yil 1 sentyabr;

d) 2020 yil 1 fevral.

### 14.1. Oila tushunchasi uning turlari va shakllari.

### 14.2. Xorij davlatlarda, qon-qarindoshlik munosabatlari tarixi.

### 14.3. Davlatning oila institutiga qaratilgan ijtimoiy siyosati.

#### 14.1. Oila tushunchasi, uning turlari va shakllari

O‘zbekistonda davlat oilaning himoyachisi vazifasini bajaradi va O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasida, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksida qonunda mustahkamlab qo‘yilgan qator huquqiy aralashuvlar orqali uning himoyasini ta‘minlaydi<sup>168</sup>. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev oila muqaddas ekanligini ta‘kidlaydi. Qayerda ishlashingizdan qat‘iy nazar, agar oilada biror-bir natija bo‘lmasa, bu maqsadsiz yashash demakdir. Shuning uchun men farzandlarimni tarbiyalashga katta e‘tibor beraman. Mening har bir farzandim, nevaralarim bilan alohida aloqam bor. Men har bir nabiraning tabiati, orzulari, istaklarini bilaman<sup>169</sup>. Taniqli yondashuv: “sog‘lom oila - sog‘lom jamiyat”. Biroq, Hegel aytganidek, ma‘lum bo‘lgan narsa ma‘lum emas.

Oila – nafaqat bir yurtning, balki umuminsoniyatning ulkan siyosati demakdir. Ta‘bir joiz bo‘lsa, bu – davlat siyosati darajasidagi masala. Nega deganda, bashariyatning tirikligi, uzluksizligi – oiladan! Bordiyu, oila tuzuk bo‘lmasa, tarbiyaga ham e‘tibor berilmasa, qancha buyuk bo‘lsa ham, bunday millat dunyoda uzoq yashay olmaydi.

Biz oilaga berilgan turli xil ta‘riflarni ko‘rib chiqish bilan birga, uning turlari haqida ham ma‘lumot berishni joiz deb topdik. Chunki oila va uning turlari va shakllarini bilish kelajakda soha mutaxassislarni ular bilan ishlash ko‘nikmasiga ordam beradi. Oila bu ota-ona, er-xotin, farzandlar va qarindosh-urug‘lardan tuzilgan uyushmadir.

Shunday qilib biz quyida oila va uning turlari va shakllarini ko‘rib chiqamiz.

#### **Oila nikoh shakliga ko‘ra ikkiga bo‘linadi:**

- **monogamiya-** bir erkak va bir ayolning nikohini ifodalaydi;

<sup>168</sup>O‘zbekiston Respublikasining Oila Kodeksi( 30.04.1998): O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Joriy tahrir: 2017 yil 7 aprel

<sup>169</sup> O‘zbekiston Respublikasining ikkinchi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev haqidagi hujjatli filmdan “Janob Prezident”.

• **poligamiya**- erkak yoki ayol bir paytning o‘zida bittadan ortiq er yoki xotinga ega bo‘lishiga yo‘l qo‘yadigan nikoh shaklini bildiradi. “**Poligamiya**”ning ikki turi mavjud, bo‘lib, ayrim adabiyotlarda uchunchi turi ham keltirilib o‘tiladi.

Ular quyidagilar:

• **poliginiya** - erkak bir paytning o‘zida ikki yoki undan ortiq xotin bilan nikohda bo‘lishiga yo‘l berilishi;

• **poliandriya** - kamroq tarqalgan nikoh shakli bo‘lib, unda ayol bir paytning o‘zida ikki yoki undan ortiq erga ega bo‘lishi mumkin.

• **guruhiy** - bir nechta erkak va bir nechta ayolning o‘zaro nikohi.

**Oilaning va qarindoshlar bilan yashashi, tuzilishi va xo‘jalik yuritishiga ko‘ra bo‘linishi:**

• **nuklear** - (oddiy) ya‘ni oila xo‘jaligini birga yurituvchi, o‘zlarining bolasi yoki asrab olgan bolalari bilan birga yashovchi er va xotindan iborat oilani barcha jamiyatlarda ham ko‘rishimiz mumkin;

• **kengaygan** - (murakkab) oilani uch yoki undan ko‘proq avloddan tashqil topuvchi, bir xonadonda, yoki bir-biriga yaqin bo‘lgan xonadonlarda yashovchi kishilarning guruhi, deb tushunishimiz mumkin. Bu oilaning a‘zolari momo, bobo, akalar va ularning xotinlari, singillar va ularning erlari, xolalar, tog‘alar, ammakivachchalar, xolavachchalar bo‘lishi mumkin;

• **matrilokal oila** - kuyov va kelin kelinning ota-onalarinikiga ko‘chib kelib yashasa;

• **patrilokal oila** - kuyov va kelin kuyovning ota-onasinikiga ko‘chib kelib yashasa;

• **neolokal oila** - kuyov va kelin oila a‘zolarida alohida yashashiga aytiladi;

• **endogam oila** - qarindosh urug‘lar o‘rtasida nikoh.(bir urug‘ doirasida tuzilgan oila, nikoh);

• **ekzogam oila** – urug‘ doirasidan tashkari, qo‘shni urug‘ vakillari bilan tuzilgan nikoh, oila;

• **levirat oila** - beva xotinning o‘z qaynag‘asiga, ya‘ni vafot etgan erining akasi yoki ukasiga va aksincha, o‘lgan xotinining opasi yoki singlisiga uylanishi, boshqa bir holda esa, bir ayolga barcha akakalarning erlik qilish ko‘p erlik negizidagi oiladir.

• **insest oila** - otaning o‘z qizi va aksincha, onaning o‘z o‘g‘li bilan g‘ayriinsoniy juftlashishi;

• **sarorat oila** - akaning o‘z singlisi va ukasining o‘z opasi bilan qurgan g‘ayrisha’riy oila.

**Oilada hukmronligiga ko‘ra bo‘linishi:**

• **matriarxat** - oilada ayol kishining hukmronligi;

• **patriarxat** - oilada erkak kishining hukmronligi;

• **egalitar, yoki demokratik** - oilada barcha a‘zolar teng imkoniyatlarga ega hisoblanadi.

Bulardan tashqari muqobil nikoh shakllar ham mavjud bo‘lib jamiyatimizda uning belgilari ham uchrab turadi. Ulardan bazilari ko‘rsatib o‘tish mumkin:

• **godvin-nikoh** - (tashrifli, mehmon nikoh)- bunda ikki jins vakillari bir-birlari bilan yashamaydi (tarqalishi ko‘proq taniqli va boy insonlarda uchraydi.);

• **konkubinat** – oilali erkakning oilasiz ayol yoki qiz bilan birga yashashi va uning farzandlarni tan olishi va moddiy ta‘minlab turishi;

• **sinovli nikoh** (tajribaviy)- bunda ikki jins vakillari vaqtincha birga yashab ko‘radilar agar ular bir-birlariga to‘g‘ri kelsa, keyin oila qurib farzandli bo‘lishadi.

Bugungi kunda davlatimizning dolzarb siyosatlaridan biri - o‘sib kelayotgan yosh avlodni har jihatdan barkamol inson qilib tarbiyalash masalasidir. Zero, fuqarolik demokratik davlat qurish va jamiyatimiz taraqqiyotining rivoji yoshlarning ta‘lim tarbiyasi, intellektual salohiyati qay darajada ekanligiga bog‘liq. Ma‘naviy qadriyatlar, fuqorolik burchini bajarishga ongli munosabatda bo‘lish o‘z mohiyati bilan ijtimoiy hayotning barcha sohalarini qamrab oluvchi serqirra jarayon hisoblanadi. Yoshlarni sog‘lom, barkamol bo‘lib voyaga yetishlariga sharoit yaratish maqsadida hukumatimiz tomonidan qator huquqiy hujjatlar qabul qilingan.

Oila – jamiyat va davlat bilan o‘zaro bog‘liq bo‘ladi va bir zamonda rivojlanadi. Oila demografik, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa muhim vazifalarni bajaradi. Shuning uchun jamiyat va davlat oilani farovon bo‘lishidan manfaatdor bo‘ladi.

Oila shunchaki odamlarning o‘zaro er-xotin yoki qarindoshlik rishtalari bilan mustahkamlangan guruh emas, balki oila yuridik tushuncha bo‘lib, qonunda belgilangan huquq va majburiyatlarga ega bo‘lgan shaxslar guruhidir.

Oilaviy munosabatlarni tartibga soluvchi alohida qonunlar ishlab chiqilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi,

Fuqarolik kodeksi, Oila kodeksi va oilaviy munosabatlarni tartibga soluvchi, bir qator meyoriy huquqiy hujjatlar mavjud. Mazkur qonun - hujjatlarining barchasida er-xotinning o'zaro munosabatlari, ularning oiladagi, farzandlar tarbiyasi borasidagi, farzandlarning ota-ona oldidagi burch va vazifalari mustahkamlab qo'yilgan. Davlatimizning hozirgi kundagi siyosati fuqarolik demokratik huquqiy davlatni shakllantirishdir. Jamiyatimizda xukukiy davlatni shakllantirish uchun Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda avvalo fuqarolarning xukukiy ongi va madaniyatini rivojlantirish zarur buladi.

Bu jarayonni amalga oshirishda oila zimmasiga ham juda katta masala yuklanadi. Chunki, bolalarning dastlabki tarbiyasi oiladan boshlanadi. Mustaqil Respublikamizning kelajagiga hissa qo'shadigan shaxs eng avvalo oilada tarbiyalanadi. Har bir milliy va shaxsiy qadriyatlar nimadan iborat ekanligini bolalar ongiga singdirib borish kerak. Jumladan: bir buyum kim uchundir keraksiz bo'lib ko'rinadi va shu buyumni tashlab yuborish ham mumkin. Lekin, mazkur buyum ayni vaqtda kimgadir qadrli hisoblanadi. Chunki, bu buyum kimgadir aziz bo'lgan insondan esdalik bo'lishi mumkin. Mana bu holat shaxsiy qadriyat hisoblanadi. Yoki bo'lmasa Navro'z bayramini o'zbek xalqidan tashqari bir necha xalqlar nishonlashadi, bu esa umumbashariy qadriyatlar hisoblanadi. Bolalar ongiga shu qadriyatlarni singdirib borish, ularni hurmatlash kabi hissiyotlarni, avvalo, oilada shakllantirish lozim. Oila, nikohdagilarning o'rtasida ahillik bo'lgandagina mustahkam bo'la oladi. Shuning uchun, nikoh nima, oila nima, jamiyatimizda uning o'rnini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Oila a'zolari o'rtasida mulkiy va shaxsiy huquq majburiyatlarni keltirib chiqaradi. Oilaning davlatimiz kelajagidagi o'rniga keng baho berilgan. Jumladan, Konstitutsiyaning "Jamiyat va shaxs" deb nomlangan bobida va Oila Kodeksining 4-moddasida oila jamiyatimizning asosiy bo'g'ini, u davlat himoyasida bo'lish huquqiga ega ekanligi mustahkamlab qo'yilgan.

Oila qonunchiligi bilan voyaga yetmagan bolalarning huquqlari mustahkamlab qo'yilgan. Jumladan: oilada yashash va tarbiyalanish, ota-onasi va boshqa qarindoshlari bilan ko'rishish, o'z huquqiy va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, o'z fikrini ifoda etish va boshqa huquqlar. O'zbekiston Respublikasi qonunlari bola tarbiyasiga juda katta ahamiyat beradi. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 65-moddasida bolaning oilada yashash va tarbiyalanish huquqlari

belgilanganligidan ko‘rinib turibdiki, bola avvalambor tarbiya’ni oilada oladi<sup>170</sup>.

Yosh avlod jamiyatga oila orqali kirib keladi, har qanday jamiyatning taraqqiyoti undagi oilalar mustahkamligiga bog‘liqdir, shuning uchun oila va oilaviy munosabatlar masalasi hamma asrlarda ham davrning dolzarb muammosi bo‘lib kelgan. Oiladagi sog‘lom axloqiy muhit ota-onaning yurish turishi, muomalasi, odobi, kamtarligi, hayo va andishasi, aql-idroki, mehr-oqibatli bo‘lishi kabi insoniy fazilatlarini egallashni talab etadi. Agar oilada ota-ona o‘rtasida bunday umuminsoniy axloqiy qadriyatlar hukm surmasa, unda jamiyatning boshlang‘ich asosi hisoblangan oila muhitida voyaga yetayotgan yoshlar jamiyatdan o‘z o‘rnini topa olmay, boshi berk ko‘chaga kirib qolishi mumkin.

Keyingi paytlarda mamlakatimizda nazoratsiz qolgan voyaga yetmaganlar soni va ular tomonidan sodir etilgan huquqbuzarlik holatlari ko‘payib bormoqda. Shu ma’noda “Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining “fuqarolar yig‘ini raisining vakolatlari” deb nomlangan 13-moddasiga o‘zgartirishlar kiritildi<sup>171</sup>. Unga ko‘ra fuqarolar yigini raisi zimmasiga voyaga yetmagan bolalarning huquqlarini himoya qilish bo‘yicha jamoatchilik ishlarini tashkil qilish, ota-ona qaramog‘idan maxrum bo‘lgan bolalar haqidagi ma’lumotlarni vasiylik va xomiylik organlariga taqdim qilish, shuningdek, bunday bolalarni tegishli davlat muassasalariga joylashtirishga ko‘maklashish vazifalari yuklatildi.

Agar oilada yoshlar bolaligidan sog‘lom, baquvvat, ko‘rkam bo‘lib voyaga yetsa-yu, odobi, axloqi, tafakkur qilishi insoniylik mezoniga zid kelsa, bunday yoshlar jismonan sog‘lom bo‘lsalar ham axloqan zaif ma’nan qashshoq, aqliy-intellektual saviyasi past bo‘lib, O‘zbekistonda demokratik, fuqarolik va insonparvarlik jamiyatni ko‘rishdek sharafli ishning borishiga salbiy ta’sir qilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasida har kimning bilim olish huquqiga egaligi, bepul umumiy ta’lim olish davlat tomonidan kafolatlanishi qayd etilgan bo‘lsa, 45-moddasida voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolg‘iz keksalarning huquqlari

<sup>170</sup> Ўзбекистон Республикаси оила кодекси. – Тошкент: Адолат, 2000.

<sup>171</sup> “Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш ҳақида» Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2013 й., 17-сон, 219-модда.

Davlat himoyasida ekanligi, 64-moddasida ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburligi, davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarining vasiyligidan maxrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlashi, bolalarga bag'ishlangan xayriya faoliyatlarini rag'batlantirishi kafolatlab qo'yilgan.

Binobarin, "jamiyatning asosiy boyligi hisoblangan inson birinchi navbatda oilada shakllanadi. Oila qanday kishini shakllantirishi jamiyat uchun befarq emas<sup>172</sup>". Biroq, ba'zi ota-onalar bolalar huzurida o'zaro janjallashadilar, bo'lmag'ur so'zlarni hadm ishlatadilar. Bu bilan ular oilada salbiy muhitni shakllantiradilar. Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, bola ota-onasining har bir harakatini zimdan kuzatib boradi. Ota-ona o'rtasidagi doimiy janjal bolaning asab tizimiga qattiq ta'sir etadi. Tabiiyki, muntazam janjal bo'lib turadigan oilalarda tarbiyalangan bolalar asabiy va ruhiy zaif bo'lib o'sadilar. Oqibatda bolada oilaga nisbatan salbiy kayfiyat shakllanadi.

Oiladagi salbiy muxit natijasida bola ota-onasidan uzoqlasha boradi. Uydan ertaroq chiqib ketib, kechroq kelishga harakat qiladi. Shuningdek, oiladagi tarbiya'ning noto'g'ri va qo'polligi, bola sha'ni va qadr-qimmatining kamsitilishi, ruhiy va jismoniy kuch ishlatish shunga olib keladiki, qattiqo'llik munosabatlaridan qutulish uchun bolalar ota-onalaridan qochib ketadilar. Bunday, nazoratsiz qolgan bolada jinoiy xulq shakllanadi. O'quv muassasalari, mehribonlik uylari va maktab-internatlardagi noxush vaziyatlar ham yuqoridagi kabi oqibatlarga olib keladi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, har bir ota-ona oilada o'zaro hurmat, bir-biriga nisbatan mehr-muhabbat, okibatli bo'lish, qiyinchiliklarni birgalikda yengish kabi sifatlarni yoshlarda shakllantirish uchun mas'uldir.

Mavzuni dolzarbligidan kelib chiqqan holda, mamlakatimizda oila institutini mustahkamlashga yanada katta e'tibor berila boshlandi. Bunga 2020 yilda 18 fevral kuni Mahalla va oilani ko'llab quvvatlash vazirligi tashkil etilishini misol qilib keltirishimiz mumkin.

Shuni alohida takidlash joizki, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tashabbuslari bilan "Oila" ilmiy-amaliy markazi, "Mahalla" jamg'armasi, "Xotin-kizlar qo'mitasi, O'zbekiston faxriylarining ijtimoiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash "Nuroniyy" jamg'armalari yagona

<sup>172</sup> Усмоналиев М., Каракетов Й. Криминология. – Тошкент, 2001. – Б.338.

vazirlikka, ya'ni "Mahalla va oilani qo'llab quvatlash vazirligi"ni tashkil etish to'g'risidagi Farmonini qabul qildilar<sup>173</sup>.

Quyidagilar Vazirlikning asosiy vazifalari hisoblanadi:

- jamiyatda "Obod va xavfsiz mahalla" tamoyilining to'laqonli va samarali joriy etilishida har tomonlama ko'maklashish, oilalar va mahallalardagi ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirishda fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari bilan yaqin hamkorlik o'rnatish;

- oila institutini mustahkamlash bo'yicha, eng avvalo, "Sog'lom oila - sog'lom jamiyat" g'oyasini hayotga tatbiq etishga yo'naltirilgan yagona davlat siyosatini yuritish, notinch va muammoli oilalarga manzilli ko'maklashishni tashkil etish;

- xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashga oid davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta'minlash, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi roli va faolligini oshirish, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta'minlash;

- xotin-qizlarning muammolarini o'z vaqtida aniqlash, yordamga muhtoj bo'lgan va og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarga, shu jumladan nogironligi bo'lgan ayollarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik va moddiy yordam ko'rsatish;

- xotin-qizlarning bandligini ta'minlash, mehnat sharoitlarini yaxshilash, xotin-qizlarni, ayniqsa, qishloq joylardagi yosh qizlarni oilaviy va xususiy tadbirkorlikka, hunarmandchilikka keng jalb etish masalalarida har tomonlama manzilli qo'llab-quvvatlash;

- fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, mahalla tizimini rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

- fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining jamiyatdagi o'rni va rolini kuchaytirish, aholining kundalik muammolari bilan ishlash va ta'sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishdagi mavqeini yuksaltirish;

- mahallalarda qonun ustuvorligini ta'minlash va huquqbuzarliklarning oldini olish masalalarida ichki ishlar organlari,

---

<sup>173</sup>Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёев "Жамиятни ижтимоий-маънавий мухитини соғламлиштириш, маҳалла институтини янада қўллаб-қувватлаш ҳамда оила ва хотин-қизлар билан ишлаш тизимини янги даражага олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Фармони ПФ-5938. 2020 йил 18 февраль.

boshqa davlat idoralari va jamoat tashkilotlarining o‘zaro hamkorligini mustahkamlash;

- yolg‘iz keksalar, ijtimoiy himoyaga muhtoj va kam ta‘minlangan oilalarga moddiy ko‘maklashish, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni ta‘minlashda huquqiy, uslubiy va amaliy yordam ko‘rsatish, nuroniylarning bilim va boy hayotiy tajribasidan yoshlar ma‘naviyatini yuksaltirish, ularda vatanparvarlik ruhini mustahkamlash masalalarida samarali foydalanish;

- fuqarolar yig‘inlarining moddiy-texnika ta‘minot ini yaxshilash hamda sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish<sup>174</sup>.

Bulardan kelib chiqib oilaga e‘tibor yanada kuchayganligini ko‘rishimiz mumkin.

Ta‘kidlash joizki, ko‘p hollarda inson ulg‘ayib, faol turmushga kirishib, jinoyat qilganda yoki qonunni buza boshlagandagina u sodir etgan huquqbuzarliklarning oqibatlari bilan kurasha boshlaymiz. Holbuki, bunday salbiy holatlarga qarshi kurashgandan ko‘ra, avval boshdan bunday qonun buzilishlarining oldini olish maqsadga muvofiq.

Shu bois oilaviy hayotga qaratilgan tarbiyaviy ishlar kuchaytirilishi lozim. Mamlakatimizda oxirgi yillarda oila institutini mustahkamlash, uning davlat va jamiyat hayotidagi rolini tobora kuchaytirish, shuningdek oilaning jamiyatning ma‘naviy-axloqiy komillikka erishishdagi ahamiyatini yuksaltirish maqsadida oilaning ham huquqiy, ham iqtisodiy asoslarini rivojlantirishga katta e‘tibor qaratilmoqda.

## **14.2. Xorijiy davlatlardagi oilaviy qon-qarindoshlik munosabatlari tarixi**

Oila va nikohni o‘rganish sotsiologiya va ijtimoiy ish fanining oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Odatda istalgan tipdagi jamiyatning har bir a‘zosi oilada tarbiyalanadi va balog‘atga yetganlarning ko‘pchiligi esa nikohda yoki nikohda bo‘lganlar hisoblanadi. Biz yuqorida qo‘yilgan masalalarga javob berishgan oldin oila, qarindoshlik va nikoh kabi asosiy tushunchalarning mazmunini aniqlab olmog‘imiz kerak.

Oila kishilarning shunday guruhiki, uning a‘zolari bir-biri bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri qon-qarindoshlik munosabatida bo‘lib, guruhning

<sup>174</sup> Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 16.04.2020 й., 09/20/228/0444-сон.

yoshi katta a'zolari bolalarga qarashish va yordam berish majburiyatlarini o'z zimmalariga oladi. Qarindoshlik (qon-qarindoshlik aloqalari) – nikohdan o'tish natijasida yoki yaqin aloqalar jarayonidagi (ota, ona, bola, bobo, momo va hokazolar o'rtasidagi) munosabatlarning natijasidir. Nikoh, ikki balog'atga yetganlar o'rtasidagi jamiyat tomonidan tan olingan va ma'qullangan seksual ittifoqdir, deya ta'riflash mumkin. Nikohga kirgan individlar bir-birlari bilan qarindosh ham hisoblanadi. Ayni vaqtda nikoh majburiyati ularni juda keng doiradagi ishlarining qon-qarindoshlik munosabatlari bilan bog'laydi. Nikohdan keyin kuyov tomonning otasi, onasi, akalari, singillari va ularning boshqa qarindosh-urug'lari kelin tomonning qarindosh-urug'lari bilan qarindoshchilik munosabatlariga kiradi.

Ko'pchilik G'arb mamlakatlarida hayotiy maqsadlarga ko'ra qarindoshlik munosabatlari eng yaqin qarindoshlar bilangina cheklanadi. Jumladan, ko'pchilik odamlar o'zlarining amakilari, amakivachchalari, xola va xolavachchalaridan tashqari, uzoq qarindoshlari haqida mavhum tasavvurga egalar. Ammo, ko'pchilik madaniyatlarda, xususan kichik tor doiradagi madaniyatlarda ijtimoiy hayotning barcha sohalarida qarindoshlik munosabatlari muhim ahamiyatga egadir. Shunday madaniyatlarning ayrimlarida jamoaning har bir a'zosi uning barcha a'zolariga qarindosh hisoblanadi, ko'pchilik hollarda bu munosabatlar muqaddaslashtiriladi<sup>175</sup>. G'arbdagi qarindoshlik munosabatlarini ifodalovchi terminlarni boshqa madaniyatlardagi qarindoshlik munosabatlarini ifodalovchi terminlarga ko'chirish qiyin. Jumladan, biz ota va ona yo'li bilan qarindoshlarni amma, xola, bo'la termini bilan ataymiz. Ammo boshqa madaniyatda otaning yoki onaning akalari maxsus atamalar bilan ataladi.

Klanlar an'anaviy tipdagi ko'pchilik jamiyatlarda yirik qarindoshlar guruhlar mavjud. Uning a'zolari o'rtasidagi aloqalar odatdagi oilaviy qarindoshlik munosabatlari doirasiga sig'maydi. Bunday guruhlar orasida muhim o'rinni klanlar egallaydi. Klan bu shunday guruhki, uning barcha a'zolarining fikriga ko'ra, ular bir bobo va momodan ko'payganlar. Jumladan, bir bobo va momo bir necha avloddan oldin mazkur klanga asos solgan hisoblanadi. Ular o'zlarini-o'zlari hamda boshqalar tomonidan ham o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan jamoa sifatida baholaydilar va baholanadi. Jumladan shotland klanlari shunday

---

<sup>175</sup> Beattie J. Other cultures. London, 1964.

guruhlarga kiradi. Bunga o'xshash urug'chilik tashkilotlari Afrika, Tinch okeandagi ayrim jamiyatlarda o'zining ahamiyatini bugungi kunda ham saqlab qolganlar.

Odatda, bir klanning a'zolari umumiy diniy e'tiqodga ega bo'ladilar va bir-birlariga yordam ko'rsatish uchun iqtisodiy javobgardirlar va ayni vaqtda ular bir joyda yashaydilar ham. Ular ko'pchilik hollarda oz sonli bo'ladilar. Ammo goho ular yuz, mingdan ham ortiq odamlarni o'zida birlashtirishlari mumkin. Klanga a'zolik inson hayotining barcha tomonlariga o'z ta'sirini o'tkazadi. Bunday guruhlarda kishilar uzoq qarindoshlariga ham juda yaqin qarindoshlik munosabatida bo'ladilar. Shunga mos ravishda ular o'rtasidagi munosabat xarakteri ham muntazam o'zgarib boraveradi. Bunda kishi otaga ko'ra turtinchi avlodning farzandini o'g'lim deb atashi mumkin va uni o'zining bir qorindan talashib chiqan aka-ukalari bilan teppa-teng ko'radi va xar qanday sharoitda yordam berishga tayyor turadi.

Klan a'zolari foydalanadigan qarindosh tushunchasining mazmuni biz hamisha ishlatadigan qarindosh atamasining mazmuniga mos kelmasligi mumkin. Jumladan, shotland ammasiga ayol mohiyatini berib, "ota" deb murojaat qilishi mumkin, xuddi shunga o'xshash tog'asiga "ona" deb ham murojaat qilishi mumkin. Klanlarda bitta erkak boshqa o'zidan ko'ra yosh bo'lgan erkakni "ona" deb chaqirishi mumkin. Bu narsa biz uchun tushunarsiz holdir, lekin klan kabi uyushgan jamoa uchun bu oddiy mantiqiy hodisadir. Bunda bir kishi o'zining tuqgan onasi kimligini yaxshi biladi. Lekin u yuqoridagidek so'zlarni ishlatishi bilan u muomala qilgan odamni ona avlodiga, qarindoshlari shajarasiga molik hisoblab, u bilan yaqin qarindosh ekanligini tan oladi.

G'arbdagi jamiyatlarda oila monogamiya bilan birlikda tasavvur qilinadi. Bir paytning o'zida, bittadan ortiq ayol yoki erkak bilan nikohda bo'lish g'ayri qonuniy hisoblanadi. Jahon hodisada monogamiya, umuman olganda, nikohning eng ko'p tarqalgan shakli emas. 565 ta turli jamiyatlarni qiyosiy tatbiq etgan Jorj Merdok ulardan 80 foizida poligamiyaga yo'l berilishini aniqladi<sup>176</sup>. Poliandriya Merdok tahlil qilgan 565 jamoaning faqat to'rttasida (1 foizdan kamrog'ida) poliandriya kuzatilgan. Poliandriya poliginiyada uchramaydigan holatni tug'diradi, ya'ni bunda bolaning biologik nuqtayi-nazardan otasi aniq

---

176 *Beat tie J. Other cultures.* London, 1964.

bo'lmaydi. Jumladan, Janubiy Hindiston madaniyatida tud erkaklari biologik nuqtayi nazardan otalikni o'rnatish bilan qiziqmaganlar. Ularda bolaga otalik rasmini amalga oshirish chog'ida o'qli kamonni homilador ayolga tantanali suratda bergan erkak bolaning otasi hisoblangan. Agar keyinchalik boshqa bir erkak bolaga otalik qilishni xohlab qolsa, bu rasm ayolning navbatdagi homiladorligida takrorlangan. Bizning nazdimizga, poliandriya turmush darajasi nihoyatda past va qiz bolalarni tug'ilishi bilan o'ldirish qo'llanilgan jamiyatlardagina mavjud bo'lgan.

Bo'lajak er xotinni yoki xotin erni tanlashda muhabbat yoki romantik hayajonlardan emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlar, oilaviy ishlab chiqarishning tinimsizligini ta'minlash zaruratidan va boqimandalar to'g'risida tashvish qilmaslik choralaridan kelib chiqanlar. Lendlordlar o'z arendatorlarining qaylik tanlashi ishiga to'g'ridan-to'g'ri aralashar edilar. Chunki ular o'zlarining yer-mulklarida ishning samarali ketishidan manfaatdor edilar. Markaziy Yevropa uchun nikohda kirmokchi bo'lganlarining lendlordlardan ruxsat olishligi kundalik hodisa hisoblangan. Uy yoki ferma tashkil qilishga imkoniyati kam bo'lgan yersiz kambag'allarning ayrim hollarda nikohlanishi man etilgan.

Yevropada o'rta asrlarda nikohga qadar va nikohdan tashqari ham jinsiy munosabatda bo'lish kambag'allar va jamiyatning o'ziga to'q aholisi orasida keng tarqalgan hodisa hisoblangan. Ayrim hududlarda erning bo'lajak xotini bola to'g'ishga layoqatli yoki layoqatsiz ekanini sinab ko'rishi odatiy hol bo'lgan. Agar ayol homilador bo'lib qolsa, nikohga hech narsa to'sqinlik qila olmagan. Aks holda, qaylig'iga turmushga chiqmasligi ham mumkin bo'lgan. Yevropaning ko'pchilik joylarida (xususan Markaziy qismida) g'ayri qonuniy tug'ilgan bolalar soni hozirgi davr normalariga nisbatan nioyatda yuqori bo'lgan. Bolaning qonuniy tug'ilishi masalasiga ham alohida ahamiyat berilgan va noqonuniy ittifoqdan tug'ilgan bolalar oilalarga qabul qilinib, qonuniy tug'ilgan bolalar bilan teppa-teng tarbiyalangan. Zodagonlar va qishloq zodagonlari orasida ishqiy munosabatlarning bo'lishligi odat hisoblangan. Ammo bu kabi o'ldi-qo'yidilar aksariyat hollarda nikohdan tashqari sodir bo'lgan.

Ko'pchilik sotsiologlarning taxminlariga ko'ra, O'rta Yevropada oilaning kengaygan shakli ko'p uchragan. Ammo, keyingi yillardagi tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, mazkur hududda nuklear oila

kundalik oila shakli hisoblangan. Xususan kontinentning g'arbiy qismida oila xo'jaligi Hozirgi kundagiga nisbatan nihoyatda yirik bo'lgan. Ammo, bu tafovut qarindoshchilikka ko'ra emas, balki xizmat turining mavjudligiga ko'ra katta bo'lgan. XVII—XIX asrlarda Angliyada oila a'zolarining o'rtacha soni 4,75 kishini tashkil qilgan<sup>177</sup>. Bugungi kunda esa bu uning o'zi uylanib, so'ngra ajrashgan. Yoki, boshqasi esa yo otasi, yo onasining tarbiyasida o'sgan, bir necha bor nikohda bo'lgan va xar bir nikohdan bolalari bor bo'lgan.

Biz bu yerda avlod tushunchasini oila a'zolari ichidagi munosabatlarni ifodalash bilan bohlaymiz. Jumladan, ota-onalar va katta avlod o'rtasidagi munosabatlar avvalgi paytlarga nisbatan ancha zaiflashdi. Ammo Hozirgi paytda kishilar uzoq umr ko'rayotganligi tufayli, uylangan nabiralari, ularning ota-onalari (3 avlod) bir davrda bir-biri bilan mahkam bog'langan holda yashamokdalar.

Xilma-xil bo'lgan Britan oilalari orasida o'ziga xos bo'lgan yakkayu yagona oila – Janubiy Osiyodan ko'chib kelganlar va ularning avlodlari oilasi majmuidir. Birlashgan Qirollik aholisining Janubiy Osiyoliklar jami bir million kishidan ortiqroq. Migratsiya 50-yillarda Hindiston yarim orolining Panjob, Gudjarat va Bengaliya regionidan boshlandi. Migrantlar diniga, kelib chiqishiga, kastasiga, eng muhimi, shaxsiy ypyg'-aymog'iga ko'ra jamoalarga birlashdilar. Ular shuni yaxshi angladilarki, mamlakatning asosiy aholisi ularning oilaviy turmush tarzi haqidagi tasavvurlarini va qarindoshchilik hissiyotlarini yaxshi bilmaydilar. Bir butun oilani saqlashning Buyuk Britaniyada iloji tobora kamayib bordi. Chunki migrantlar murakkab uy-joy muammosiga duch keldilar. Bir butun Janubiy Osiyoliklar oilasi katta eski uylarga joylashar edilar. Odatda bunday uylar shaharlarning tashlandiq hududlaridagina mavjud bo'ladi. Ular orasida turmush darajasi yaxshilanganlari kichikqulayliklarga ega bo'lgan uylarga ko'chib o'tishlari bilan katta oilalar parokanda bo'la bordi.

Birlashgan Qirollikda tug'ilgan Janubiy Osiyoliklar oilasida tarbiyalangan bolalar, asosan, ikki madaniyat ta'sirini o'zlarida his etadilar. Uyda ota-onalar ulardan jamoa tartiblariga bo'ysunishni, itoatkorlikni, befarqlikni, sadoqatni kutadi yoki talab qiladi. Maktabda esa ular raqobat, xudbin ijtimoiy muhit sharoitida tarbiyalanadi. Bunday bolalarning ko'pchiligi o'zlarining oilaviy va shaxsiy hayotlarini etnik submadaniyatga mos holda tashkil qilishni ma'qul ko'radilar, chunki

<sup>177</sup>Anderson M. Family structures in nineteenth century Lancashire. Cambridge, 1981.

ular an'anaviy oilaviy hayot bilan bog'liq shaxsiy munosabatlarni yuqori baholaydilar. Ammo ular Britaniya madaniyati bilan to'qnashganlarida ko'pgina o'zgarishlarni boshdan kechiradilar. Nikohlanayotgan yoshlarning har biri o'z qarashlari va fikrlariga ko'ra oila qurish huquqini talab qilmoqdalar<sup>178</sup>.

Bugungi kunda oila holatiga ta'sir kursatayotgan eng muhim omillardan biri yollanib ishlaydigan erli ayollar sonining ko'pligidir. Yuqorida ta'kidlanganidek sanoat davrining boshlaridayoq unchalik ko'p sonli bo'lmagan erli ayollar uylaridan tashqarida ishlaganlar. Biroq ikkinchi jahon urushi tugaganidan so'ng, haq to'lanadigan ishlarda band bo'lgan ayollar soni favqulodda oshib ketdi. Bu o'sish oila tiplarida ham ba'zi bir o'zgarishlarni keltirib chiqardi.

Garchi ishlaydigan erli ayollar, qoidaga ko'ra, sheriklariga nisbatan kam ahamiyatli ishda ishlasalar-da, ular uy bekalariga nisbatan katta iqtisodiy mustaqillikka egadirlar. Aksariyat ayollar ilgarigidek, o'z ish haqlarini erlarining ish haqlariga "qo'shimcha" deb hisoblashadi, bu ish haqli ular tomonidan asosiy daromad manbayi hisoblanadi. Shunga qaramay, tobora ko'p ayollar "uy bekasi" roli bilan cheklanish o'rniga, xizmat vazifasiga hayotlarining asosiy harakatlantiruvchisi sifatida qaraydilar.

Bu o'zgarishlar oila ichida erkak va ayol rollarining taqsimlanishiga qay darajada ta'sir qiladi? Ilgarigiga nisbatan erkaklar bola tarbiyasida va ro'zgor ishlari uchun o'zlariga katta mas'uliyatni olyaptilarmi? Dalillar shuni ko'rsatadiki, bu borada oxirgi 3-4 on yillikda ba'zi o'zgarishlar yuz bergan bo'lsa-da, ular juda cheklangandir. Xeydi Xartmann 1960-1970 yillarda Qo'shma Shtatlarda o'tkazgan tadqiqotlari natijalarini umumlashtirdi<sup>179</sup>. U shuni aniqladiki, faqat uy xo'jaligida band bo'lgan ayollar bunga haftada 60 soat sarflar ekan. Erkaklarning esa bunga o'rtacha 11 soat vaqti ketadi, yosh bolali oilalarda ayollar bola tarbiyasiga haftada 5 soat sarflasalar, ro'zgorning boshqa ishlariga ketadigan vaqtni tegishli tarzda qisqartiradilar.

Buyuk Britaniyada AQSHdagiga nisbatan muntazam tadqiqotlar ancha kam o'tkazilgan. Ammo ular manzara bir xil ekanini ko'rsatadi.

---

<sup>178</sup> Ballard R. South Asian families. In: Rapoport R. Families in Britain. London, 1982.

<sup>179</sup> Hartmann H. The family as a focus of class, gender and political struggle: the example of housework // Sings, 6. 1981.

Elston vrachlarning oilaviy juftligini tekshirgan<sup>180</sup>. Natijalarning ko'rsatishicha, erkak shifokorlar ayollariga nisbatan ro'zgor yumushlari bilan ancha oz band bo'lganlar. Jumladan, erkak shifokorlarning faqat bir foizi muntazam ravishda do'konlarga qatnaydilar, ovqat tayyorlaydilar, xonadonni yig'ishtiradilar, ayol vrachlarning 80 foizdan ortig'i do'konga qatnab, ovqat tayyorlaydilar. Ularning 50 foizi xonadonni yig'ishtirish bilan shug'ullanadilar. Faqat kamdan-kam hollardagina ikkala sherik farrosh yoki enaga yollab, o'zlari ro'zgor tashvishlaridan holi bo'lganlar. Shunday qilib, ayollar hatto yuqori maqomga va yaxshi haq to'lanadigan ishga ega bo'lgan hollarda ham namunali ona va uy bekasi bo'lishga harakat qilaverganlar.

So'nggi 30 yilda ajralishlar soni birmuncha ko'paydi, ayni vaqtda ajralishlarni qoralash kamaymoqda. Ko'p asrlar davomida G'arbda nikoh amalda buzilmas edi. Ajralishlar faqat alohida, Jumladan, me'yorli nikoh, munosabatlariga noqobillik hollarida yo'l qo'yilardi. Ba'zi mamlakatlarda, Jumladan, Ispaniyada ajralish huquqini tan olmaydilar. Irlandiyada 1986 yilgi referendumda ko'pchilik ajralishga qarshi ovoz berdi. Shunga qaramay, ajralishning ta'qiqlanishi juda kam uchraydigan hodisa. Bu tizimga ko'ra, tomonlardan biri ajralish uchun boshqa tomonga qarshi aybnomani ilgari surishi (Jumladan, shafqatsizligi, yetarlicha e'tibor berilmasligi, va hokazo) mumkin. Qator mamlakatlarda 60-yillar o'rtalarida ajralishlar haqida dastlabki "aybdan mustaqil" qonunlar qabul qilingan edi. O'sha vaqtdan beri ko'pgina G'arb davlatlari ba'zi ikir-chikirlarda farq qilgan holda, shu yo'ldan bordilar. Birlashgan Qirollikda "Nikoh-ajralish ishlari islohoti to'g'risidagi Akt" (qonun) 1969 yilda qabul qilinib, 1971 yilda kuchga kirdi. Bu qonun ajralishni osonlashtirdi, chunki "aybdan mustaqillik" qoidasini o'z ichiga olgan edi.

1960 yillarda Britaniyada ajralishlar soni har yili 9 foiz ga oshib, 10 yillik oxirida ikki baravar ko'paydi. 1972 yilga kelib ajralish yana ikki marta oshdi. Bu qisman allaqachon "o'lgan" ko'plab nikohlarning rasman to'xtatilishi imkoniyatini bergan 1969 yilgi Aktning natijasi bo'ldi. 1980 yillar boshidan ajralishlar soni garchi avvaldagidek favqulodda yuqori bo'lsa-da, qaysidir darajada mo'tadillashdi. Ajralish bolalar hayotiga katta salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Hisob-kitoblarga ko'ra, Birlashgan Qirollikda 1970 yilda tug'ilgan bolalarning 40 foizga

---

*180Elston M. Medicine: half our future doctors? In: Silverstone R. and Ward A. Careers of professional women. London, 1980.*

yaqini o'z hayotining muayyan bir davrida oilada faqat otasi yoki onasi bilan yashagan. Ammo 70 foiz ayollar va 83 foiz erkaklar ajralishdan so'ng 3 yil davomida qaytadan nikohlanganlar. Bolalar yana oilada tarbiyalana boshlaganlar. Britaniyada 14 yoshdan kichik bolalarning faqat 2 foizi hozirgi kunda otasi yoki onasi bilan yashaydi. Ajralishlar miqdorining ko'rsatkichi nikohdagi muvaffaqiyatsizlikning to'g'ridan-to'g'ri indikatori hisoblanmaydi. Bir tomondan rasman ajralmagan, ammo alohida yashaydiganlarni "ajralganlar" deb bo'lmaydi. Buning ustiga, nikohdagi baxtsiz kishilar ko'pincha birga bo'lishni lozim topadilar, chunki oilaning muqaddasligiga ishonadilar, yoki ajralishning moliyaviy oqibatlaridan tashvishlanadilar, yoki bolalari uchun sog'lom oilaviy muhit yaratish uchun birga qoladilar.

Nega ajralish yana keng tarqalmoqda? Buning birqancha sabablarini sanash mumkin. Badavlat kishilarning bir qismini hisobga olmaganda, bugungi kunda nikoh, odamlarning o'z mulki va mavqeini keyingi avlodga o'tkazish maqsadidagi sa'y-harakatlari majmuyi bo'lmay qoldi. Ayollar iqtisodiy mustaqilligining ta'minlanishi bilan nikoh qachonlardir bo'lganidek iqtisodiy sheriklik zaruratining natijasi hisoblanmay qoldi. Farovonlikning umumiy o'sishi shunga olib keldiki, agar nikoh, insonni qoniqtirmasa, u o'z hayotini osongina boshqacha yo'lga qo'yishi mumkin bo'lib qoldi. Bundan tashqari, ajralishganlar endilikda o'zlarida "isnod" amg'asini ko'tarib yurmaydi va qandaydir darajada bu ularni rag'batlantiradi ham. Yana bir muhim omil – nikoh, beradigan shaxsiy qoniqish darajalarini baholash atamalarining kuchayishi tendensiyasidir. Aftidan, ajralishlar sonining o'sishi nikohdan chuqur umidsizlanish bilan emas, balki uni qoniqish keltiradigan to'laqonli ittifoqqa aylantirishga urinishning kuchayishi bilan bog'liqdir.

Ajralishlar darajasi yuqoriligining ijtimoiy ustunligi va ijtimoiy zarari o'rtasidagi nisbatni belgilash haddan tashqari qiyin. Ajralishlarga nisbatan beparvo qarash shuni anglatadiki, juftlar ijtimoiy quvg'inlikka duchor qilinganidan o'zlarini qoniqtirmaydigan munosabatlarni uzishlari mumkin. Oila va jamiyat munosabatlari bir-biri bilan uzviy bog'liq, oiladagi munosabatlar jamiyatda qabul qilingan axloqiy normalar, huquqiy munosabatlar, oilagan xos bo'lgan qadriyatlar va ularga amal qilish kabi bir qator talablar asosida shakllanadi. Bu esa oila

mustahkamligining muhim zamini hisoblanadi<sup>181</sup>. Agar oila sog‘lom va mustahkam bo‘lsa, mahallada tinchlik va hamjihatlikka erishiladi. Binobarin, mahalla, yurt mustahkam bo‘lsagina davlatda osoyishtalik va barqarorlik hukm suradi. Zero, oila farovonligi milliy farovonlik asosidir. Inson ma‘naviyatini shakllantirishning eng maqbul maskani oiladir. Oila mustahkam, tinch, farovon, sog‘lom bo‘lsagina jamiyatda barqarorlik vujudga keladi<sup>182</sup>.

Shu nuqtayi nazardan o‘quvchi-yoshlarda tabiiy ravishda yangilanib, takomillashib borayotgan, milliy xususiyatlarni o‘zida mujassam qilgan zamonaviy sharq oilasi haqida ilmiy asoslangan tasavvurni shakllantirish, Sharq oilalari to‘g‘risida obyektiv tasavvur paydo qilish, ularda kelajakdagi oilaviy hayotlari davomida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan sinovlarni muvaffaqiyat bilan bartaraf etish ko‘nikmalarini shakllantirish respublikamizda dolzarb masaladir. Quyidagi vazifalarni amalga oshirish orqali maqsadga erishish mumkin.

1. Sharq oilalarini G‘arb oilalariga qarshi qo‘ymaslik, birini ideallashtirib, ikkinchisini tanqid qilmaslik, muayyan millat, xalq oilasining o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berib, uning tarix, hudud, mentalitet, iqlim, milliy madaniyat bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatish.

2. Zamon o‘zgarishi, xalq ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan bog‘liq ravishda hayot tarzi yuksalib borishining, urbanizatsiya (shaharlarning ko‘payishi va aholi hayot tarziga shaharga xos unsurlarning singib borishi), siyosat va boshqa omillarning oilaviy hayotga ta‘sirini ko‘rsatish.

3. Sharq oilalariga xos ijobiy milliy-psixologik (etnopsixologik) xususiyatlarni saqlab qolish, zamon talabi bilan millat, xalq, oila manfaatiga xizmat qilmaydigan jihatlar (qarindoshlar orasidagi nikoh, qizlarning erta oila qurishi, ko‘p bolalilik va boshqalar)dan xalos bo‘lishni ahamiyatini ochib berish.

4. Oila qurish yoshi va uni er-xotin munosabatlariga ta‘siri haqida yoshlarda obyektiv tasavvur shakllantirish.

5. Oilaviy hayotga yetuklik mezonlari haqida yoshlarni tegishli bilimlar bilan qurollantirish. Shu sababli ham o‘zbeklarda shaxsning xulq atvori ijtimoiy nazorat ostiga olinadi.

---

<sup>181</sup>Абурахмонов Ф.Р. Абурахмонова З.Э. Оила ва жамият// Оила маънавияти – жамият тараққиётининг таянчи. Республика илмий-назарий, услубий-амалий конференция материаллари. Тошкент, 2012. – Б.147.

<sup>182</sup>Фалсафа қомусий лугат. Т.: Шарқ, 2004. – Б. 11.

Yaxshi xulq mahallada, qo'ni-qo'shnilar tomonidan rag'batlantirilib, "Otasiga rahmat", yomon xulq esa tanqidiy muhokama qilinishi mumkin. Shuning uchun "Odamlar nima deydi?" qabilidagi savol shaxsni ko'p hollarda nojo'ya xatti- harakatlar, yomon xulq-atvordan saqlaydi. G'arb oilalarida ham ijtimoiy nazorat mavjud, biroq uning ta'sir kuchi o'ta zaifdir.

Xalqimiz "Bolaga yetti qo'shni ota-ona" naqlida bola tarbiyasi uchun barcha mas'ulligini chuqur ifodalab bergan. G'arb oilalarida esa bola tarbiyasi uchun faqat ota-ona javob beradi. Ya'ni, qo'ni-qo'shnilar bolaga aql o'rgatish, to'g'ri yo'lga solish, zarur bo'lganda koyishdan o'zini saqlaydi, uning tarbiyasiga aralashmaydi.

Xullas, shaxsning shakllanishida, shaxs ma'naviyatining tarkib topishi va rivojlanishida oilaning o'rni, ahamiyatini hech narsaga tenglashtirib bo'lmaydi. Oila bilan bog'liq masalalar oilaviy hayot psixologiyasining asosiy muammolaridandir. Jamiyatning alohida mustaqil guruhi, muayyan institut hisoblangan oila, ayni zamonda jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq holda rivojlanib boradi. Boshqachasiga aytganda, oilaning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, mazmuni, oilaviy munosabatlarning o'ziga xosligi mavjud ijtimoiy tuzumdagi mafkuraviy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy-tarixiy, madaniy shart-sharoitlar bilan ham belgilanadi. Demak, oila masalasiga innovatsion yondashuv jamiyatimiz uchun salbiy bo'lgan ajralish, fohishabozlik, befarzandlik, tarbiya kabi muammolarni bartaraf etishga yordam beradi.

### **14.3. Davlatning oila institutiga qaratilgan ijtimoiy siyosati**

Ma'lumki, har bir davlatning o'z ijtimoiy siyosati bo'ladi. Bu tizim siyosatning o'ziga xos shaklini va xususiyatini belgilaydi. XXI asr boshlarida jahon davlatchilik nazariyasida va amaliyotida qonun ustuvorligiga qat'iy rioya qilishga intilish kuzatilmoqda. Bunday tendensiya siyosatdagi yangi qirralarning, avvalo undagi ijtimoiy funksiyalarning kuchayishiga olib kelmoqda. Shu ma'noda jamiyatning ijtimoiy siyosati bugungi dunyo davlatchiligidagi muhim belgilaridan biridir.

O'zbekistonda bozor munosabatlarining o'tish joriy etilishi oila institutiga bo'lgan munosabatga ham muayyan o'zgarishlar kiritdi. Oilaning reproduktiv, ekzestensial va sotsial vazifalariga muayyan

o'zgarishlar kiritdi. Oila jamiyatning bevosita diqqat markazida bo'lib bormoqda.

Oila masalasi davlat siyosatining markazida turibdi, chunki jamiyatdagi o'zgarishlar bevosita oilaga ham ta'sir etadi. Ijtimoiy siyosatda bu holat doimo hisobga olinmoqda. 1998 yil "Oila yili" deb e'lon qilinganligi ma'lum. Oilaga munosabat bizda butunlay bo'lakcha – biz oilaparvar xalqmiz. Davlat dasturida ana shu holatlar hisobga olindi. Oila bilan bog'liq merosimizni, an'analarimizni, jamiyatimizning yangi bosqichidagi istiqbollarga nazar tashlandi. Oila jami ijtimoiy sa'y-harakatlar markazida bo'lib qolishi haqida tadbirlar belgilandi. Shu bilan birga, oila mustahkamligiga tahdidlar ham paydo bo'layotganligi ijtimoiy siyosatga muayyan o'zgarishlar kiritishni ham taqozo etmoqda.

Bu muammolar, jumladan, oiladagi ajralishlar, nikohgacha bo'lgan jinsiy aloqalar, nikohsiz tug'ilganlar, tug'ilish jarayonining tartibsizligi kiradi. Ota-onalarning farzand tarbiyasidagi mas'uliyatsizligi bolalar o'rtasida jinoyatchilikning o'sishiga olib kelyapti. Bu to'la bo'lmagan yo otasiz, yo onasiz oilalarda va yolg'iz oilalarda tarbiyalangan bolalardan ko'pincha jinoyatchilar chiqayotganligi kuzatilmoqda. Kvazi oilalar, lesbiyankalar, nikohsiz tug'ilganlar aslida ota-onalardagi mas'uliyatsizlik natijasida paydo bo'lmoqda. Bu oila deviatsiyasining o'sishi, ya'ni alkogol va narkotik moddalar iste'mol qilish, oiladagi zo'ravonlik hatto inestuzoz zo'ravonlikning mavjudligi tufaylidir.

Aksariyat hollarda bunga ijtimoiy-iqtisodiy muammolar sabab qilib ko'rsatiladi. Bu unchalik to'g'ri emas, chunki uning ildizlari ancha uzoqqa borib taqaladi. Bu muammolarning ildizi XVII-XX asrlarda dunyoda boshlangan industrilashtirishning boshlanishi bilan bog'liq. Industrilashtirish demografik siyosatga ham ta'sir ko'rsatdi va tug'ilish keskin kamayib bordi. Ko'p bolali oila yemirilishi uzoq davom etgan jarayon hisoblanadi.

Hozirgi kunda ijtimoiy-iqtisodiy muammolar oila inqirozini yuzaga chiqardi, xolos. Oiladagi salbiy jarayonlar global xarakterga ega, ya'ni mehnat taqsimoti va yollanma mehnatga asoslangan yirik mashinalar ishlab chiqarishni industrial davridan o'tgan hamma xalqlarda yoki mamlakatlarda oila inqirozi namoyon bo'lmoqda.

Oiladagi noma'qul tendensiyalarning sababi hayot moddiy sharoitining o'zgarishida emas, balki hozirgi zamon industrial jamiyatlardagi hayot tarzini o'zgarishi bilan bog'liqdir. Chunki oila

inqirozi nafaqat qoloq mamlakatlarda, balki rivojlangan Yevropa va AQSH kabi ulkan davlatlarda ham namoyon bo'lmog'da.

Sobiq mustabid tuzum makonidagi mamlakatlarning tarixiy rivojlanish yo'lidagi o'ziga xoslik shundaki, bu hudud sotsialistik g'oyani tez va zo'ravonlik yo'li bilan amalga oshirish maydoniga aylangan edi. Bu g'oyani totalitar ruhda ekanligi umuman sotsial muammolarni, jumladan, oila va demografik muammolarning xarakterini belgilab berdi.

Oiladagi inqirozli tendensiyalar tasodif emas yoki to'g'ri yo'ldan og'ish emas, balki fundamental jarayonlarning yaqqol ko'zga tashlanadigan keskinlashuvidan iborat. Shuning uchun sotsial-iqtisodiy tushkunlik tugaganidan so'ng oila hayotining normal rivojlanishiga yo'l ochiladi. Buning uchun oilaga jamiyat tomonidan maqsadli ta'sir o'tkazish kerak.

Davlatning boshqaruvchilik roli saqlanib qolgan holda ham mulkchilik makonida raqobat jarayoni va bozor munosabatlariga asoslangan sotsial-iqtisodiy rivojlanish davom etaveradi. Mul-kchilikdagi tabaqalanish oila institutida muayyan keskinliklarga sabab bo'ladi. Oila institutlarida ijtimoiy yo'naltirilgan siyosatni izchil olib borishni muhim vazifalardan biri qilib qo'yadi. Shuning uchun oila munosabatlarini ikki guruhga bo'lish mumkin, ya'ni oila muammosini o'rganuvchi va uni amaliy hal qilishni ishlab chiquvchi guruhlariga. Demak, oilaga yondashuvda ikkita paradigmaga amal qilinadi, ya'ni modernizatsiya paradigmasi va ikkinchisi oila inqirozi paradigmasi.

Birinchi paradigma doirasidan oiladagi pozitiv va negativ o'zgarishlar an'anaviy oila turi o'rniga zamonaviy oila turi kelishi sifatida, oila va aholi ishlab chiqarishini modernizatsiyalash jarayoni sifatida tushuniladi va talqin qilinadi.

Oilani modernizatsiyalashga jamiyatni modernizatsiyalashning bir qismi sifatida qaraladi. Bu paradigma doirasida faqat vaqtinchalik va lokal nomutanosibliklar, hamda muammoli vaziyatlar to'g'risida borishi mumkin. Bunday muammoli vaziyatlar o'tkinchi va yuzaki omillarning ta'siri natijasi, deb qaralgan. Ma'lumki, modernizatsiya jarayoni har joyda har xil bo'lgan va u ijtimoiy siyosatning me'yorlarini bildirgan.

Mustabid tuzum davrida oilaga ham sinfiy yondashuv mavjud edi. Mustaqillik mamlakatda amal qilib kelinayotgan ijtimoiy siyosatning oilaga maqsadli yo'naltirilganligi ushbu institut nufuzini oshiryapti. Shu bilan birga dunyo miqyosida oilaga bo'layotgan tahdidlar ko'lami

albatta, mamlakatimizdagi oilalarga ham ta'sir ko'satyapti. Sho'ro davrida oila jamiyat taraqqiyotidan ortda qolgan edi.

Chunki ijtimoiy siyosat oilani hisobga olmas edi. Globallashuv davridagi oila inqirozi esa undagi oilalarimizning ancha ortda qolganligida deya talqin qilinmoqda. Uni hisobga olmaslik muayyan noqulayliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Sho'rolar mafkurasi ko'p narsalarni jamiyatning o'zi tekislab, to'g'rilab oladi, davlat va jamiyat boshqaruvi markazlashgan hokimiyat qo'lidaku, degan aqidaga rioya qilgan edi. Jahonda, jumladan sho'rolar davrida bu kabi holatlar yuz bergan. Jamiyat oila jarayonlariga o'ziga xoslik bilan aralashib, mamlakatni yuksaltirish kafolati bo'lgan sotsial siyosatni oilaga yetkazayotgan maqbul demografik siyosat olib borish oila inqirozini pasaytirish imkonini bermoqda.

Oilani ijtimoiy institut sifatida barbod bo'lishi to'g'risidagi paradigma esa, oiladagi o'zgarishlarni vaqtinchalik, tasodifiy, deb emas, balki industrial-bozor tamaddunsiga xos xususiyatlar keltirib chiqargan global inqirozning ifodalanishi, deya qaralishi kerak.

#### **Nazorat savollari:**

1. Oila va nikoh tushunchasiga ta'rif bering.
2. Oilaning nikoh shakliga ko'ra bo'linishini tushuntirib bering.
3. Poligamiya va uning turlarini izohlang.
4. Oilaning va qarindoshlar bilan yashashi, tuzilishi va xo'jalik yuritishiga ko'ra turlarini ajrating.
5. Oila hukmronligiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
6. Muqobil nikoh shakllarini ko'rsating.
7. Klan tushunchasiga ta'rif bering.
8. Xorij davlatlarida oilaviy qon-qarindoshlik munosabatlarini rivojlanish tarixi haqida ma'lumot bering.
9. Davlatning oila institutiga qaratilgan siyosati deganda nimani tushunasiz?
10. O'zbekistonda oila institutini mustahkamlashga qaratilgan davlat siyosatini tahlil qiling.

## Testlar:

### 1. Oila nikoh shakliga ko‘ra, qanday turga bo‘linadi?

- a) monogamiya, poligamiya;
- b) poliginiya, poliandriya;
- c) nuklear, kengaygan;
- d) matrilokal, patrilokal.

### 2. Oilada hukmronligiga ko‘ra bo‘linishi qanday tasniflanadi?

- a) monogamiya, poligamiya;
- b) nuklear, murakkab;
- c) matrilokal, patriarxal;
- d) matriarxat, patriarxat, egalitar.

### 3. Konkubinat nikoh bu...?

- a) oilali erkakning oilasiz ayol yoki qiz bilan birga yashashi va uning farzandlarni tan olishi va moddiy ta‘minlab turishi;
- b) bunda ikki jins vakillari vaqtincha birga yashab ko‘radilar agar ular bir-birlariga to‘g‘ri kelsa keyin oila qurib farzandli bo‘lishadi;
- c) ikki jins vakillari bir-birlari bilan yashamaydi;
- d) urug‘ doirasidan tashqari, qo‘shni urug‘ vakillari bilan tuzilgan nikoh, oila.

### 4. Godvin-nikoh qanday ko‘rinishda bo‘ladi?

- a) oilali erkakning oilasiz ayol yoki qiz bilan birga yashashi va uning farzandlarni tan olishi va moddiy ta‘minlab turishi;
- b) bunda ikki jins vakillari vaqtincha birga yashab ko‘radilar agar ular bir-birlariga to‘g‘ri kelsa keyin oila qurib farzandli bo‘lishadi;
- c) ikki jins vakillari bir-birlari bilan yashamaydi;
- d) urug‘ doirasidan tashqari, qo‘shni urug‘ vakillari bilan tuzilgan nikoh, oila.

### 5. Sinovli nikoh nimani nazarda tutadi?

- a) ikki jins vakillari bir-birlari bilan yashamaydi;
- b) urug‘ doirasidan tashqari, qo‘shni urug‘ vakillari bilan tuzilgan nikoh, oila;
- c) oilali erkakning oilasiz ayol yoki qiz bilan birga yashashi va uning farzandlarni tan olishi va moddiy ta‘minlab turishi;
- d) bunda ikki jins vakillari vaqtincha birga yashab ko‘radilar agar ular bir-birlariga to‘g‘ri kelsa keyin oila qurib farzandli bo‘lishadi;

6. Oila jamiyatimizning asosiy bo‘g‘ini, u davlat himoyasida bo‘lish huquqiga ega ekanligi O‘zbekiston Respublikasi Oila K odeksining nechanchi moddasida mustahkamlab qo‘yilgan?

- a) 4-moddasida;
- b) 5-moddasida;
- c) 6-moddasida;
- d) 7-moddasida.

**7. Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburligi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining nechanchi moddasida ko'rsatilgan?**

- a) 41-moddasida;
- b) 65-moddasida;
- c) 64-moddasida;
- d) 63-moddasida.

**8. Mahalla va oilani qo'llab- quvvatlash vazirligi qachon tashkil etildi?**

- a) 2020 yil 1 fevral;
- b) 2020 yil 2 fevral;
- c) 2020 yil 18 fevral;
- d) 2020 yil 16 fevral.

**9. Nikoh bu...?**

- a) ikki kishi o'rtasidagi qarindoshlikka asoslangan birlashuv;
- b) ikki balog'atga yetganlar o'rtasidagi jamiyat tomonidan tan olingan va ma'qullangan seksual ittifoqdir;
- c) ikki kishining birga yashashi, ro'zg'or yuritishi natijasidagi ittifoqi;
- d) ikki balog'atga yetgan kishining birgalikda xo'jalik yuritishi.

**10. Klan bu qanday guruh?**

- a) uning barcha a'zolari fikriga ko'ra, ular bir oila bo'lib yashashlari lozim;
- b) uning barcha a'zolari fikriga ko'ra, ular bir bobo va momodan ko'payganlar;
- c) uning barcha a'zolari fikriga ko'ra, ular bir-birlariga qarindosh hisoblanadilar;
- d) uning barcha a'zolari fikriga ko'ra, ular bir-birlariga qarindosh hisoblanmaydilar.

**11. Oilaga yondashuvda qanday paradigmalarni amal qiladi?**

- a) globalizatsiya, markazlashtirilgan;
- b) modernizatsiya, oila inqirozi;
- c) tahdid, oilani saqlash ;
- d) o'zaro kelishuv, ajralish.

**12. Superetatizatsiya bu...?**

- a) sotsial hayotni davlatlashtirish;
- b) iqtisodiy farovonlikka erishish;
- c) ijtimoiy adolatni o'rnatish;
- d) ijtimoiy sohani rivojlantirish.

**13. Oilaga qaratilgan davlat siyosatining maqsadi qanday?**

- a) markaziy, mustaqil;
- b) asosiy, birlamchi;
- c) strategik, uzoq muddatli;
- d) siyosiy nazorat, ijtimoiy himoya.

**14. Oilaga qaratilgan davlat siyosatining maqsadi qanday namoyon bo'ladi?**

- a) oilani nazorat qilishda;
- b) oila hayot tarzini mustahkamlashda;
- d) oilaga mustaqil jamoa sifatida qarashda;
- d) oilaning xo'jalik ishlariga aralashuvida.

## XV-bob. IJTIMOIIY SIYOSATDA IJTIMOIIY XAVFSIZLIK

**15.1. Ijtimoiy xavfsizlik tushunchasiga doir turli xil yondashuvlar**

**15.2. Ijtimoiy xavfsizlik mezonlari**

**15.3. Ijtimoiy xavfsizlikka doir tahdidlar**

**15.4. Ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashda konfliktlarni boshqarishning o'rni**

### **15.1. Ijtimoiy xavfsizlik tushunchasiga doir turli xil yondashuvlar**

Ijtimoiy xavfsizlik tushunchasining fan va siyosatga kirib kelganiga ko'p bo'lgani yo'q, shunga qaramay, ushbu tushuncha tez sur'atlarda zamonaviy iboralar qatoriga kirdi.

Qayd etish joizki, mazkur tushunchaning kirib kelganiga hali unchalik ko'p bo'lmasa-da, u ayrim xalqaro hujjatlarda o'z aksini topishga ulgurdi. Mazkur tushuncha asosan, 1995 yilda ijtimoiy rivojlanishga bag'ishlangan Xalqaro konferensiya Deklaratsiyasida o'z aksini topdi. Unda aytilishicha, "Biz shunday jamiyat qurmoqchimizki, unda oziq-ovqatga bo'lgan insonlarning huquqi ovoz berish huquqi kabi muqaddasdir. Unda ta'lim olish huquqi axborot olish huquqi singari hurmatga ega bo'lishi lozim. Ushbu jamiyatda rivojlanish huquqi insonning asosiy va fundamental huquqlaridan sanalishi zarur"<sup>183</sup>.

Mazkur Deklaratsiyada ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashga doir minimal vazifalar qayd etilgan.

O'g'il va qiz bolalar uchun ta'lim olish huquqini ta'minlash, katta yoshdagilar orasidagi savodsizlikni qisqartirish, aholiga zaruriy tibbiy yordam ko'rsatish, kambag'allikka barham berish, har bir oila qurishni istagan kishilarga xizmat ko'rsatish, xavfsiz ichimlik suvi bilan ta'minlash, bandlikni ta'minlashda barcha uchun kreditlar ajratish kabi vazifalar shular jumlasidandir.

Ijtimoiy xavfsizlik tushunchasining tarqalishi, uni tushunishda xilma-xil yondashuvlarni vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Ijtimoiy xavfsizlikka tegishli bo'lgan manbalarning tahlili shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda ijtimoiy xavfsizlikni tushunishda birqancha

<sup>183</sup> Проблемы социальной безопасности человека в современном мире: учебное пособие / сост. Л.З. Гостева. – Благовещенск: Амурский гос. ун-т, 2018. – С.4.

yondashuvlarning shakllanganligini ko‘rishimiz mumkin.

Dashtabki yondashuv. Ushbu yondashuv G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida keng tarqalgan bo‘lib, unda ijtimoiy xavfsizlik ijtimoiy ta‘minot asosida tushunildi. Ijtimoiy xavfsizlik muammosi jamiyatdagi turli xil guruhlarga moddiy yordam ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘lib, ushbu yondashuvga ko‘ra, ijtimoiy xarakterdagi muammolarni hal qilishga asosiy e‘tibor qaratiladi. Jumladan, AQSHda ijtimoiy xavfsizlik bilan maxsus yaratilgan ijtimoiy xavfsizlik bo‘yicha organ shug‘ullanadi.

Mazkur organ 1935 yilda qabul qilingan “Ijtimoiy xavfsizlik to‘g‘risida”gi Qonun asosida o‘z faoliyatini olib boradi. Ushbu qonun 1929-1933 yillarda bo‘lib o‘tgan Depressiyaning salbiy oqibatlarini minimallashtirish uchun qabul qilingan.

Shuni aytib o‘tish joizki, mazkur yondashuvda ijtimoiy xavfsizlik milliy xavfsizlikning asosiy elementi sifatida ko‘riladi.

Ikkinchi yondashuv. Mazkur yondashuvga ko‘ra, ijtimoiy xavfsizlik kompleks tushuncha hisoblanadi. U asosan, mamlakat fuqarolari xavfsizligini birqancha ijtimoiy-iqtisodiy tahdidlardan himoya qilish uchun xizmat qiladi. Mazkur yondashuv tarafdorlari quyidagi tahdidlarni ajratib ko‘rsatadilar: ishsizlik tahdidi, kambag‘allik, jinoyatchilik, ekologiya, texnologiya talafotlar va hokozalar.

Rossiyalik olim V.Volokovskiy ijtimoiy xavfsizlikka quyidagicha ta‘rif beradi: “Ijtimoiy xavfsizlik bu – insonlarning ijtimoiylashuviga, ijtimoiy munosabatlarni ta‘minlashga, ijtimoiy tuzilmani rivojlantirishga, shuningdek, ijtimoiy sohadagi fuqarolarning manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan tadbirlar majmuasidir”.

Mazkur yondashuv xalqaro tashkilotlarga ham tegishli. Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkilotiga ko‘ra, inson xavfsizligining ikkita asosiy komponenti mavjud. Qo‘rquvdan erkinlik va muhtojlikdan, qashshoqlikdan erkinlik. Birlashgan Millatlar Tashkilotiga ko‘ra, agar insonlar o‘z uyida o‘zlarini xavfsiz deb bilmasalar, xalqaro xavfsizlikni ta‘minlash mumkin emas.

BMTda ijtimoiy xavfsizlik Tamoyili ishlab chiqildi. Ushbu Tamoyil quyidagi 8 ta kategoriyadan iborat:

1. Iqtisodiy xavfsizlik;
2. Oziq-ovqat xavfsizligi;
3. Sog‘liqni saqlash borasidagi xavfsizlik;
4. Ekologik xavfsizlik;

5. Shaxsiy xavfsizlik;
6. Ijtimoiy xavfsizlik;
7. Jamoa xavfsizligi;
8. Siyosiy xavfsizlik<sup>184</sup>.

Shuni ta'kidlash joizki, real hayotdagi ushbu kategoriyalar bevosita bog'liqdir. Yuqorida keltirilgan barcha kategoriyalar ijtimoiy xavfsizlik tushunchasiga birlashtiriladi.

Mazkur yondashuvning tahlili shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy xavfsizlik tushunchasi bugungi kunda yaqqol ajralib turgan chegaralarga ega emas. Chunki jamiyat va davlatga nisbatan bo'lgan tahdidlar har doim o'zgarib boradi.

Shuningdek, muayyan holatlarda aholining tahdidlarga nisbatan munosabati o'zgaradi. Jumladan, hozirgi kunda butun jahon uzra virus tahdidi eng muhim tahdidga aylanib qolganligini ko'rishimiz mumkin. Ijtimoiy xavfsizlik kompleks xarakterga ega bo'lganligi sababli, ayrim olimlar uning ta'riflarini berishdan cheklanishga chaqiradilar. Jumladan, ushbu olimlar shuni qayd etib o'tadiki, ijtimoiy xavfsizlik tushunchasi jumladan uning mohiyatiga kirib bormaydi. Ba'zi bir olimlar ijtimoiy xavfsizlik tushunchasining o'rniga, hokimiyatning ijtimoiy javobgarligi tushunchasini qo'llashni taklif qiladilar. Lekin boshqa bir toifa olimlar guruhi esa ijtimoiy xavfsizlik tushunchasidan voz kechishni xohlamaydilar.

Jumladan rus olimasi A.Chirovaning fikriga ko'ra, ijtimoiy xavfsizlik strategiyasi davlatning ijtimoiy xavfsizlik strategiyasini ishlab chiqishda markaziy o'rin tutishi kerak.

Uning fikricha, bugungi kunda moliyaviy kapitaldan ko'ra inson kapitali tushunchasi muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, milliy va ijtimoiy xavfsizlik tushunchalari bir xil tushuncha bo'lib, ular jamiyatdagi xavfsizlik tizimini ifodalashga xizmat qiladi.

Shunday qilib, ta'kidlash joizki, ijtimoiy xavfsizlik tushunchasi majmuaviy va tizimli tushuncha bo'lib, u tor ma'noda ijtimoiy ta'minot tushunchasi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Keng ma'noda esa ijtimoiy xavfsizlik tushunchasi shaxs, jamiyat va davlat o'rtasida mavjud bo'lgan murakkab munosabatlar tizimi bo'lib, u davlatning ijtimoiy mustaqilligini, shuningdek, ijtimoiy himoya tizimini barqarorligini

---

<sup>184</sup> Проблемы социальной безопасности человека в современном мире: учебное пособие / сост. Л.З. Гостева. – Благовещенск: Амурский гос. ун-т, 2018. – С.7.

ta'minlaydi.

Shu bilan bir qatorda, ijtimoiy xavfsizlik tushunchasi aholining turmush tarzi darajasi va sifatini, bandlik darajasini, mehnat ish haqi barqarorligi va uning yashash minimumiga muvofiqligi, mehnat xavfsizligi, ijtimoiy sheriklik, ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy sug'urtalash, ijtimoiy sohaning rivojlanganligini va hokazolarni belgilaydi.

Shuningdek, ijtimoiy xavfsizlik ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy tahdidlardan shaxs, jamiyat va davlatning himoyalanganlik holati sifatida tushuniladi.

## 15.2. Ijtimoiy xavfsizlikning mezonlari

Ijtimoiy xavfsizlikka bag'ishlangan zamonaviy tadqiqotlarda ijtimoiy xavfsizlikning quyidagi 4 ta mezoni ajratib ko'rsatiladi:

1. Ijtimoiy portlash vaziyatini bartaraf etish;
2. Jamiyatning ijtimoiy tuzilmasining yemirilishini bartaraf etish (ijtimoiy tizimni polerizatsiya, marginallik holatlaridan himoya qilish);
3. Ijtimoiy tuzilmaning barqarorligini ta'minlash;
4. Ijtimoiy qadriyatlarini saqlab qolish<sup>185</sup>.

Ijtimoiy portlash potensial vaziyati asosan qator ijtimoiy noroziliklarga sabab bo'luvchi parametrlari paydo bo'lishi bilan vujudga keladi hamda ular bilan bog'liqdir. Shuningdek, bu borada xilma-xil siyosiy kuchlarning balansi ta'minlanganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy tuzilmaning yemirilishi uzoq muddatli jarayon bo'lib, u asosan 2 ta asosiy yo'nalishda bo'lib o'tishi mumkin.

1. Jamiyatning barcha a'zolarini tenglashtirish. Mazkur jarayon yirik inqiloblardan so'ng bo'lib o'tishi mumkin. Ushbu inqiloblar ijtimoiy stratifikatsiya piramidasini qulatadi va mavjud eski elitani yo'qotishga harakat qiladi. Eskirgan elitada vorislik jihatlari yo'qolib boradi, shaxsiy aloqalar ham bartaraf etiladi. Mehnat qilish xohishi yo'qolib boradi.

2. Jamiyatning ichida yangi ijtimoiy tuzilma va ijtimoiy stratalar shakllanib boradi. Buning xavfliligi shundaki, ijtimoiy mobillikning normal jarayoni buzilishi mumkin. Bunda elitaning ijobiy qatlami kurashlar davomida yo'q bo'ladi yoki iste'foga chiqadi va quyi

<sup>185</sup> Проблемы социальной безопасности человека в современном мире: учебное пособие / сост. Л.З. Гостева. – Благовещенск: Амурский гос. ун-т, 2018. – С.11.

stratalarning salbiy vakillari ko‘tarilib, yuqori elita darajasiga yetadi. Jamiyatdagi polerizatsiya jarayonlari undan ham salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Polerizatsiya jarayonlari yuqori va quyi qatlamlar o‘rtasida katta jarlikning paydo bo‘lishi bilan vujudga keladi. Polyarizatsiya jarayoni o‘z navbatida ijtimoiy tuzilmada mavjud bo‘lgan o‘rta qatlamni deyarli yo‘q qiladi. Ushbu holatda jamiyatda biopolyar tuzilma vujudga keladi. O‘rta qatlamning yo‘qotilib borilishi jamiyatda talab va taklif muvozanatini yo‘qolishiga sabab bo‘ladi. Bozor muayyan sigmentlar asosida bo‘linadi: yuqori qatlam va boylar bozori, boshqa sigmentda esa arzon tovarlar mavjud bo‘lgan kambag‘allar bozori hisoblanadi. Ushbu holat investitsion faoliyatning inqiroziga sabab bo‘ladi, ish o‘rinlari kamayib boradi, aholining asosiy qismining daromadlari qisqartiriladi, mazkur holatda jamiyatda marginallashuv va lyunpinglashuv jarayonlari kuzatiladi.

Marginallashuv insonlarning o‘z ijtimoiy mavqeidan ajralib, pastga stratalarga tushib qolishi bilan bog‘liq va ular o‘z barqarorligini yo‘qotishadi.

Marginallarning ortishi professionalizm, mehnat motivatsiyasini yo‘qolishiga sabab bo‘ladi.

Lyunpinglar bu – aholining fiziologik yashash uchun bazo‘r kun ko‘radigan qatlamlariga aytiladi. Ular o‘zining submadaniyatiga ega bo‘ladi.

Marginallashuvning eng salbiy jihati shundaki, u jamiyatning istiqbolda barcha a‘zolariga ta‘sir etishi mumkin. Unda jamiyatning a‘zolari o‘zlarining barqarorligini sezmaydi, ijtimoiy mobillik hadik xarakterga ega bo‘la boshlaydi, jamiyatdagi meritokratiya tendensiyalari yo‘qolib boradi, total marginallashuv vaziyatida jamiyatning kriminallashuvi sodir bo‘ladi, ya‘ni normal tuzilmalar o‘rniga kriminal tuzilmalar vujudga keladi, davlat o‘ziga kerakli soliqlarni yig‘a olmaydi, zaiflashgan davlat jamiyatda huquqlarni ta‘minlab bera olmaydi. Bunda jamiyat a‘zolari xilma-xil jinoyiy guruhlarga murojaat qiladi, mulkchilik tamoyili buziladi.

Shuni ham aytib o‘tish joizki, ijtimoiy mobillik ijtimoiy tuzilmani saqlab qolishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy mobillik qadriyatlarni saqlab qolishga xizmat qiladi. Aynan shuning uchun ham davlat boshqaruvi jarayonida ijtimoiy mobillikni ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratishi lozim hisoblanadi.

Ijtimoiy portlash jarayonida normal ijtimoiy mobillik sharoitlari yo‘qolib boradi, bu holatda kriminal elementlar kuchayib boradi. Aynan shu holat ijtimoiy tuzilmaning degeradatsiyasiga sabab bo‘ladi. Jamiyatdagi ta‘lim, madaniyat darajasi tushadi, kambag‘allik submadaniyati rivojlanadi.

Normal jamiyatlarda barqaror bo‘lgan qadriyatlar mavjud. Ushbu holat jamiyatdagi tuzilmalarning o‘z rollarini bajarishi bilan bevosita bog‘liq.

Shunday qilib, ushbu mezonlar shuni ko‘rsatmoqdaki, ular bevosita bir-biri bilan bog‘liq. Ularni bartaraf etishda jamiyatning qadriyatlarini, uning ma‘naviy, axloqiy holatini saqlab qolish, shuningdek, normal ijtimoiy mobillik tizimini yaratish lozim.

### **15.3. Ijtimoiy xavfsizlikka doir tahdidlar**

Ijtimoiy xavfsizlik jamiyatning ijobiy maqsadlariga erishishga, insonlarning zarur ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim.

Ijtimoiy xavfsizlik subyektlari sirasiga davlatning fuqarolari, davlat hokimiyati organlari (qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati) o‘z-o‘zini boshqarish organlari, siyosiy partiyalar va boshqa jamoat harakatlari kiradi.

Ijtimoiy xavfsizlikning obyektlari sirasiga esa davlat va jamiyatning asosiy institutlari, ular tomonidan olib borilayotgan siyosat, ijtimoiy tuzilmalar, guruhlar, stratalar kiradi.

Shuningdek, ijtimoiy xavfsizlik obyektlari sirasiga inson huquqlari, uning erkinligi, ijtimoiy manfaatlari kiradi. Ijtimoiy xavfsizlikka tahdid deb, jamiyat, ijtimoiy institutlar, davlat muayyan shaxs uchun salbiy oqibatlar keltiruvchi intensiv o‘zgarishlar hisoblanadi. Ijtimoiy xavfsizlikka tahdidlarni aniqlash borasida quyidagi birqancha yondashuvlar mavjud:

1. Obyektiv va subyektiv tahdidlar. Obyektiv tahdidlar sirasiga obyektiv holda vujudga keladigan vaziyatlar kiradi. Subyektiv tahdidlar sirasiga esa muayyan subyektlarning aloqalari yoki ma‘lum bir holatni subyektiv idrok etishning kirishini qayd etishimiz mumkin.

1. Ijtimoiy xavfsizlikka bo‘lgan tashqi va ichki tahdidlar.

2. Ijtimoiy xavfsizlikning potensial va dolzarb tahdidlarga

bo'lishimiz mumkin<sup>186</sup>.

Potensial tahdidlar sirasiga uzoq muddat mavjud bo'lgan tahdidlarni kiritishimiz mumkin. Ushbu tahdidlar aksariyat hollarda mamlakatning geosiyosiy joylashuvidan kelib chiqqan holda sodir bo'ladi. (Jumladan, Afg'oniston muammosi, terrorizm).

Muayyan vaqt o'tganidan so'ng, potensial tahdidlar dolzarb tahdidlarga aylanib borishi ehtimoli mavjud. Jumladan, terroristik aktning sodir etilishi ehtimoli balandligi va hokazo.

Ijtimoiy xavfsizlikka tahdidlar borasida boshqa tasniflar ham mavjud.

Shuni ham qayd etish joizki, ijtimoiy xavfsizlikka doir real tahdidlar kompleks xarakterga ega, ya'ni deyarli barcha tahdidlar bir vaqtning o'zida subyektiv va obyektiv, potensial va dolzarb, tashqi va ichki bo'ladi. Jumladan, geosiyosiy beqarorlik davlat iqtisodiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida paydo bo'ladi. O'z navbatida davlat mavjud geosiyosiy beqarorlikni bartarf etish uchun asosiy iqtisodiy resurslarni harbiy sohaga yo'naltiradi. Bu holat ijtimoiy muammolarni kuchaytiradi va tashqi tahdidlar ichki tahdidlarga aylanib borishi ehtimoli oshib boradi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, ijtimoiy xavfsizlik tahdidlarini xilma-xil tasniflash mumkin. Jumladan,

1. Siyosiy xatolar tufayli vujudga keladigan tahdidlar;
2. Milliy ziddiyatlar va ixtiloflar bilan bog'liq bo'lgan tahdidlar. Mazkur tahdidlar, muayyan millatning manfaatlarini inobatga olmaslikdan, xilma-xil etnoslar va konfessiyalararo konfliktlar;
3. Davlat faoliyati tufayli vujudga kelgan tahdidlar. Bu davlatning shunday faoliyatiki, u muayyan ijtimoiy ziddiyatlarga sabab bo'ladi;
4. Siyosiy ekstrimizm va terrorizm tufayli vujudga keladigan tahdidlar;
5. Shaxsning huquqlari va erkinliklarini poymol qilish tufayli vujudga keladigan tahdidlar;
6. Kriminogen vaziyatning kuchayishi yuzasidan vujudga kelgan tahdidlar;
7. Xilma-xil kasalliklar, epidemiyalar tufayli vujudga kelgan tahdidlar. Bunga misol tariqasida, asrimiz vabosi bo'lgan hozirgi

<sup>186</sup> Проблемы социальной безопасности человека в современном мире: учебное пособие / сост. Л.З. Гостева. – Благовещенск: Амурский гос. ун-т, 2018. – С.17.

COVID-19 ning tarqalishini keltirishimiz mumkin.

8. Jamiyatdagi tez sur'atda bo'lgan o'zgarishlar tufayli vujudga kelgan tahdidlar va hokazo.

Ijtimoiy xavfsizlikka tahdidlarni bartaraf etish borasida bugungi kunda O'zbekistonda bir qator muhim ijtimoiy-siyosiy qarorlar qabul qilinmoqda. Avvalambor, ularga biz, 2017-2021 yillarga mo'ljallangan O'zbekistonni yanada rivojlantirish harakatlar strategiyasini misol qilishimiz mumkin.

Shu bilan birga, aholi bandligini ta'minlashga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari va Vazirlar Mahkamasining buyruq va qarorlari bunga misol bo'la oladi.

Ma'lumki, bugungi kunda mamlakatimizda kambag'allikka qarshi kurash doirasida katta ishlar olib borilmoqda. Yuqorida qayd etilgan chora-tadbirlar nafaqat aholining turmush sifatini, balki ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

#### **15.4. Ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashda konfliktlarni boshqarishning o'rni**

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, ijtimoiy tahdidlar asosan ijtimoiy institutlar, guruhlar, individlar orasida vujudga kelgan konfliktlar bilan bog'liq. Ularni to'g'ri boshqarish ijtimoiy tahdidlarni kamaytiradi va jamiyat xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Taniqli ingliz faylasufi Frensis Bekon (1561-1626 yy.) qarashlarida davlat va jamiyatdagi ijtimoiy tartibsizliklarning yuzaga kelishiga sabab sifatida, asosan moddiy sabablar tushunchasining ustuvorligi xarakterlidir. Jumladan, uning fikricha, bunday ustuvor jihatlardan biri davlatdagi xalq moddiy ahvolidning tangligida namoyon bo'ladi. "...Davlatda qancha nochor bo'lsa, - deydi u - shuncha tayyor qo'zg'olonchidir. Mabodo nochorlar qatoriga oddiy xalqning kambag'allashuvi sabab bo'lsa, xavf ortib boradi va aniqroq namoyon bo'ladi, biroq unutmazlik kerakki, qorin uchun bo'ladigan qo'zg'olonlar xavflarning eng xavflisidir".

F.Bekon konfliktlarning siyosiy sabablarini o'rganar ekan, davlat rahbarlarining davlat turmush tarzidagi o'rni katta ekanligini alohida ta'kidlaydi. Shu bilan birgalikda, ularning davlatdagi ijtimoiy qatlamlar va vakillik organi fikrini inobatga olmasdan, subyektiv mulohazasiga

ko'ra qat'iy ravishda ish tutishi nomaqbulligini uqtiradi. Agarda shunday holat yuz bersa, "xalq bunday boshboshdoqlikni qiyin hazm qiladi va o'zlaricha mustaqil ravishda qandaydir yangi boshqaruv tizimini joriy etishga va uni o'rnatishga harakat qiladilar. Aslida bunday harakatlar hukmdordan norozi a'yonlar va amaldorlarning yashirin buzg'unchiliklaridan boshlanadi. Qachonki "o'rtaliq" ziyolilardan xalqqa yo'nalish berib qo'yilsa, xalqning ko'tarilishi tabiiy". Shuningdek F.Bekon boshqaruv tizimidagi siyosiy xatolar bilan birga, ijtimoiy tartibsizliklarni keltirib chiqaruvchi bir qator ruhiy omillarni ham aniq va ravshan ko'rsatib bergan. Jumladan, "davlat rahbarining tilidan chiqqan keskin va achchiq so'z", "jamiyat hayotidagi ko'rol-maslik illati", "hukumat sha'nini bulgaydigan, tez-tez ko'tariladigan va oson tarqaladigan mish-mishlar, yolg'on yoki bo'hton tashviqotlar" shular jumlasidandir.

Ijtimoiy mojarolarning oldini oladigan yo'llardan biri sifatida F.Bekon siyosiy nayrang (manyovr) san'atini ko'rsatadi. "Odamlarni bir umiddan ikkinchisiga ishonirish norozilikning oldini oladigan eng yaxshi vosita. Insonlarning ehtiyojlarini qondira olmasalarda ularni kelajakka faqat umidlar bilan ishonтира oladigan, har qanday adovatni o'z vaqtida orzu va umid uchqunlari bilan yumshata oladigan hukumat oqildir; bu narsa aytarli mushkul emas, zero shaxslar va ba'zan butun boshli partiyalar o'z istiqbollariga ishonmasalar-da, baribir orzu va umidlari to'grisida ochiq gapirib, o'zlarini ana shular bilan ovutadilar". Shu o'rinda F.Bekonning "davlatga qarshi bo'lgan ittifoqlar va partiyalar orasiga qutqu solib, o'zaro qarama-qarshi qilib qo'yish, ularda kelajakka nisbatan ishonchsizlik paydo qilish"da siyosatning roli va ahamiyati katta ekanligi to'grisidagi fikrini eslatib o'tish joiz.

Qanday darajada ekanligidan qat'iy nazar, konfliktning oldini olish, F.Bekon ta'rifi bo'yicha, norozilar orasida ularni birlashtira oladigan bosh bo'lmasligiga erishish eng "go'zal me'yordir". Ikkinchi tomondan esa, xalq qo'zgonlari va tartibsizliklarini bosa oladigan bitta, yaxshirog'i bir nschta bunday shaxslarning bo'lishlari vaqti kelib olomon xalqqa aylanganda ular qanday asosiy sifatga ega bo'lajagidan dastlabki ehtimollarni beradi. Shuning uchun "... harbiy boshliqlar va xalq fidoyilari ishonarli va obro'li kishilar bo'lishi, ajralishlar tarafdori va shuxratparast bo'lmasliklari, shuningdek, davlatdagi asosiy amaldorlar bilan har qanday lahzada til topisha oladigan shaxs bo'lishi

zarur<sup>187</sup>. Aks holda lahzalik malham og‘ir kasallikdan xam xavfliroq bo‘lishi mumkin”,- deb yozadi.

Ijtimoiy xavfsizlikni taminlashda konflikt yechimini topish passiv holatdagi munosabatni emas, balki aktiv, ya‘ni faol munosabatni talab etadi. Konflikt vaziyatda ko‘pchilik *impulsiv*, ya‘ni anglanmagan harakat olib boradi. Ularga konflikt vaziyatida o‘zini tutish bo‘yicha bilim va malakalar yetishmaydi. Vaziyat esa o‘z ustidan nazorat o‘rnatilishini talab etadi. Demak, konflikt vaziyat o‘ylangan qadamlarni so‘raydi. Bu – konfliktga bo‘lgan *ongli munosabat* belgisi bo‘ladi. Ziddiyatga nisbatan ongli munosabat jarayonida inson nizoni nazorat ostida ushlab tura oladi, ziddiyatga o‘z ta’siri o‘tkaza oladi, tomonlar his-tuyg‘ularining “ko‘pirib” ketmasligi oldini oladi, tomonlarni konstruktiv munosabatlarga chorlaydi, ularni muzokaralar stoliga olib kela oladi, nizoni keltirib chiqargan muammo haqida o‘ylash, fikr va mushohada qilish muhitini yarata oladi.

#### Nazorat savollari:

1. Ijtimoiy xavfsizlik tushunchasi xususiyatlarini ochib bering.
2. Ijtimoiy xavfsizlikni ta‘minlash omillari nimalardan iborat?
3. Ijtimoiy tahdidlarining turlarini ajrating.
4. Potensial tahdid xususiyatlarini yoritib bering.
5. Real tahdidlarning xususiyatlari nimalardan iborat?
6. Ijtimoiy xavfsizlikni ta‘minlashda ijtimoiy mobillikni o‘rmini ochib bering.
7. Ijtimoiy portlash fenomenini misollarda ko‘rsating.
8. Ijtimoiy xavfsizlikni ta‘minlashda konfliktlarni boshqarishning asosiy jihatlarini yoritib bering.
9. Ijtimoiy konfliktlarni o‘ziga xos jihatlarini nimalardan iborat?
10. F.Bekoning ijtimoiy konfliktlar borasidagi qarashlarini yoritib bering.

<sup>187</sup> Жумасев Р.З. Конфликтология асослари. Ўқув қўлланма –Тошкент, 2000. – Б.15.

## Testlar:

**1. Ijtimoiy xavfsizlik tushunchasi ilk marta qayerda qo‘llanilgan?**

- a) AQSH Konstitutsiyasida;
- b) BMTda ijtimoiy xavfsizlik Konsepsiyasida;
- c) Xalqaro konferensiya Deklaratsiyasida;
- d) “Ijtimoiy xavfsizlik to‘g‘risida”gi Qonunda.

**2. AQSHda ijtimoiy xavfsizlik bilan kim shug‘ullanadi?**

- a) maxsus organ;
- b) davlat;
- c) jamoat birlashmalari;
- d) ijtimoiy ta‘minot tashkiloti.

**3. “Ijtimoiy xavfsizlik to‘g‘risida”gi Qonun qachon qabul qilingan?**

- a) 1938 yilda;
- b) 1937 yilda;
- c) 1935 yilda;
- d) 1934 yilda.

**4. “Ijtimoiy xavfsizlik bu – insonlarning ijtimoiylashuviga, ijtimoiy munosabatlarni ta‘minlashga, ijtimoiy tuzilmani rivojlantirishga, shuningdek, ijtimoiy sohadagi fuqarolarning manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan tadbirlar majmuasidir”. Ushbu fikrning muallifi kim?**

- a) M.Veber;
- b) A.Chirova;
- c) F.Bekon;
- d) V.Volokovskiy.

**5. Zamonaviy tadqiqotlarda ijtimoiy xavfsizlikning nechta mezoni ajratib ko‘rsatiladi?**

- a) 4 ta;
- b) 5 ta;
- c) 2 ta;
- d) 3 ta.

**6. Lyunpinglar bu...?**

- a) mamlakatdagi qoidalarga bo‘ysunmaydigan kishilar toifasiga aytiladi;
- b) jamiyat tomonidan o‘rnatilgan normalarni tan olmaydigan kishilar jamoasiga aytiladi;

c) fiziologik yashash uchun bazo‘r kun ko‘ruvchi qatlamlarga aytiladi;

d) sog‘lig‘i yomonlashuvi oqibatida jamiyatdan alohida yordamga muhtoj kishilarga aytiladi.

### **7. Ijtimoiy xavfsizlik obyektlarini ko‘rsating.**

a) davlat va jamiyatning asosiy institutlari, ular tomonidan olib borilayotgan siyosat, ijtimoiy tuzilmalar, guruhlar, stratalar;

b) jamoat birlashmalari, kasaba uyushmalari, hayriya fondlari;

c) ijtimoiy ta‘minot bo‘limlari, sog‘liqni saqlash birlashmalari;

d) nodavlat tashkilotlar, ta‘lim-tarbiya maskanlari.

### **8. Ijtimoiy xavfsizlik subyektlarini belgilang.**

a) davlat va jamiyatning asosiy institutlari, ular tomonidan olib borilayotgan siyosat, ijtimoiy tuzilmalar, guruhlar, stratalar;

b) fuqarolar, davlat hokimiyat organlari (qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati) o‘z-o‘zini boshqarish organlari, siyosiy partiyalar va boshqa jamoat harakatlari;

c) ijtimoiy ta‘minot bo‘limlari, sog‘liqni saqlash birlashmalari;

d) nodavlat tashkilotlar, ta‘lim - tarbiya maskanlari.

### **9. Jamiyat, ijtimoiy institutlar, davlat muayyan shaxs uchun salbiy oqibatlar keltiruvchi intensiv o‘zgarishlar nima deb ataladi?**

a) ijtimoiy chekinish;

b) ijtimoiy tanazzul;

c) ijtimoiy xavfsizlikka tahdid;

d) ijtimoiy beqarorlik.

### **10. Ijtimoiy xavfsizlikka tahdidlarni aniqlashda qanday yondashuvlar mavjud?**

a) umumiy va maxsus, katta va kichik, tashqi va ichki;

b) birlamchi va ikkilamchi, og‘ir va yengil, katta va kichik;

c) davriy va cheksiz, muddatli va muddatsiz, umumiy va maxsus;

d) obyektiv va subyektiv, tashqi va ichki, potensial va dolzarb.

### **11. Potensial tahdidlar qanday bo‘ladi?**

a) qisqa muddat mavjud bo‘lgan;

b) uzoq muddat mavjud bo‘lgan;

c) ma‘lum muddat mavjud bo‘lgan;

d) tanaffuslar bilan mavjud bo‘lgan.

### **12. Kimning qarashlarida davlat va jamiyatdagi ijtimoiy tartibsizliklarning yuzaga kelishiga sabab sifatida, asosan moddiy sabablar tushunchasi ustuvorligi xarakterlidir?**

- a) M.Veber;
- b) A.Chirova;
- c) F.Bekon;
- d) V.Volokovskiy.

**13. "...qorin uchun bo'ladigan qo'zg'olonlar xavflarning eng xavflisidir". Ushbu fikrning muallifi kim?**

- a) E.Dyurkgeym;
- b) M.Veber;
- c) V.Volokovskiy;
- d) F.Bekon.

**14. Ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashda konflikt yechimini topish qanday harakatni talab etadi?**

- a) passiv;
- b) aktiv;
- c) harakatsizlik;
- d) impulsiv.

## GLOSSARIY

№	O'zbek tilidagi atamalar	Ingliz tilidagi atamalar
1.	<p><b>Ayollar daftari</b> – ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, psixologik qo'llab-quvvatlashga, bilim va kasb o'rganishga ehtiyoji va ishtiyoqi bo'lgan, ishsiz xotin-qizlarning muammolarini aniqlash, bartaraf etish va nazoratini olib borish bo'yicha ma'lumotlar bazasi.</p>	<p><b>Women's notebook</b> – is a database for identifying, eliminating and controlling the problems of unemployed women who need and are passionate about social, economic, legal, psychological support, knowledge and professional learning.</p>
2.	<p><b>Aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatish</b> – bu ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy-maishiy, ijtimoiy-tibbiy yordam ko'rsatish, ijtimoiy moslashtirishni o'tkazish, og'ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan fuqarolarni tiklash va qayta tiklash bo'yicha ijtimoiy xizmat faoliyatidir.</p>	<p><b>Social services to the population</b> - social services for social support, social, social and medical assistance, social adaptation, rehabilitation and rehabilitation of citizens in difficult situations activity.</p>
3.	<p><b>Aholi daromadlari indeksatsiyasi</b> – bu olingan mehnat va boshqa daromadlarning harid qobiliyatini saqlash va tiklashga qaratilgan davlat mexanizmi.</p>	<p><b>Population income index</b> - is a government mechanism aimed at maintaining and restoring the purchasing power of labor and other income.</p>
4.	<p><b>Aholining turmush darajasi</b> – bu aholi farovonligi, ne'matlar va xizmatlar iste'molining darajasi, insonlarning asosiy hayotiy ehtiyojlarini qondirish me'yorini tavsiflovchi sharoitlar va ko'rsatkichlar majmuidir.</p>	<p><b>Living standards of the population</b> - it is a set of conditions and indicators that characterize the well-being of the population, the level of consumption of goods and services, the level of satisfaction of basic human needs.</p>
5.	<p><b>Bepul ijtimoiy xizmat</b> – keksa yoshdaligi, kasalligi, nogironligi, qarindoshlari yo'qligi tufayli o'ziga-o'zi xizmat ko'rsatishga noqobil fuqarolarga, agar shunday fuqarolarning daromadi yashash minimumidan past bo'lsa; qiyin hayot vaziyatiga tushgan shaxslarga; ishsizlik, tabiiy ofat, halokatdan jabr ko'rganlarga; qiyin hayot vaziyatiga tushib qolgan</p>	<p><b>Free social service</b> – is provided to citizens who are not able to provide self-service due to old age, illness, disability, lack of relatives, if the income of such citizens is lower than the subsistence minimum; to persons who have fallen into a difficult life situation; to those who have suffered from unemployment, natural disasters, destruction; to children who have not reached adulthood</p>

	balogʻatga yetmagan bolalarga koʻrsatiladi.	
6.	<b>Birdamlik tamoyiliga asoslangan pensiya tizimi</b> – joriy pensiya majburiyatlarini qoplash uchun zarur badal turlarini yigʻish orqali amalga oshiriladigan pensiya tizimi.	<b>Pension system based on the principle of Birdamlik</b> – is a pension system, which is carried out by collecting the necessary types of contributions to cover the current pension obligations.
7.	<b>Bola tugʻilganda beriladigan nafaqa</b> – nafaqaning bu turi bola tugʻilgan paytida eng kam oylik ish haqining ikki baravari miqdorida bir yoʻla beriladi.	<b>Pension given when a child is born</b> – this type of pension is given one lump sum in the amount of two times the minimum monthly wage at the time of birth of the child.
8.	<b>Bolalar uyi</b> – ota-onasidan ajralgan, yolgʻiz ota-onalar bolasini, shuningdek, davlat yordamiga muhtoj (ota-onasi kasal, ota-onalik huquqidan muhrum etilganlar bolasi) bolalar uchun moʻljallangan davlat tarbiya muassasi.	<b>The children's home</b> – is a state educational institution designed for children who are separated from their parents, who need the child of single parents, as well as state assistance (parents are sick, the child of those who are deprived of parental rights).
9.	<b>Davlat ijtimoiy kafolatlari</b> – bu qonun bilan tasdiqlangan va fuqarolarning konstitutsiyaviy majburiyatlarini amalga oshirishga yoʻnaltirilgan davlat majburiyatlaridir.	State social guarantees – are state obligations, approved by law and aimed at the implementation of the constitutional obligations of citizens.
10.	<b>Daromad</b> – bu ishlab chiqarilgan mahsulot narxining mahsulotni ishlab chiqarish sarf-harajatlaridan oshishi, shuningdek, har bir sinf, ijtimoiy guruh yoki alohida shaxsning yangi yaratilgan qiymatda mavjud boʻlgan va uning tomonidan oʻzlashtirilgan ulushi.	<b>Income</b> – is the increase in the cost of producing a product, as well as the share of each class, social group or individual that exists and is assimilated by it in the newly created value of the product.
11.	<b>Ijtimoiy muhofaza</b> – davlatning inson hayoti va faoliyati uchun zarur shart-sharoit yaratishga qaratilgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, maʼnaviy-maʼrifiy va huquqiy kafolatlar yigʻindisi.	<b>Social protection</b> – is the sum of socio-political, economic, spiritual-educational and legal guarantees aimed at creating the necessary conditions for human life and activity of the state.
12.	<b>Ijtimoiy institut</b> – bu odamlarning birgalikdagi faoliyatini tashkiliy	A social institution – is a stable form of Organization of joint activities of

	tuzilma tarzida tashkil etishning barqaror shakli yoki me'yoriy jihatdan tartibga solinadigan qoidalar tizimi.	people in the form of an organizational structure or a system of normative regulations.
13.	<b>Ijtimoiy yordam</b> – davlat va notijorat tashkilotlari tomonidan aholining kam ta'minlangan qatlamlariga ularning muhtojligini tekshirish asosida ne'matlar va xizmatlarning berilishi.	<b>Social assistance</b> – is the provision of blessings and services on the basis of verification of their need for low-income strata of the population by state and non-profit organizations.
14.	<b>Ijtimoiy yordamga muhtoj shaxslar</b> – o'zining salomatligi, yoshi, daromad olish imkoniyatining cheklanganligi tufayli o'zgalarning ko'magiga muhtoj shaxslar hamda oilalar.	<b>Persons in need of social assistance</b> – individuals and families in need of assistance from others due to their health, age, limited access to income.
15.	<b>Ijtimoiy siyosat</b> – bu jamiyatning faqat barcha ne'matlardan mahrum qilingan qismininggina emas, balki uning hamma fuqarolarining daromadlari va turmush darajasini tartibga solishga, tuzatishga qaratilgan siyosatdir.	<b>Social policy</b> – is a policy aimed at regulating, ameliorating the income and standard of living of all its citizens, and not only the destiny of society deprived of all blessings.
16.	<b>Ijtimoiy siyosat subyektlari</b> – bu ijtimoiy guruhlarining jamiyatdagi o'rni borasidagi o'zaro birgalikdagi harakatlarining haqiqiy ishtirokchilari, ya'ni ijtimoiy siyosat ishtirokchilaridir.	<b>Social policy actors</b> – are real participants of the mutual joint actions of social groups in relation to their role in society, that is, they are participants in social policy.
17.	<b>Ijtimoiy sug'urta</b> – aholini mehnatga layoqatlilik va daromadlarni yo'qotishi bilan bog'liq turli xatarlardan ijtimoiy muhofaza qilish shaklidir.	<b>Social insurance</b> – is a form of social protection of the population from various risks associated with the loss of their ability to work and income.
18.	<b>Ijtimoiy ta'minot</b> – bu aholiga ijtimoiy, iqtisodiy, tibbiy yordam ko'rsatish, bepul ta'lim olish kabilarni o'z ichiga olib, insonlarning farovon hayot kechirishiga xizmat qiladi hamda aholining muhtoj qatlamlariga asosan ijtimoiy transfertlar orqali yetib boradi.	<b>Social Security</b> – this includes the provision of social, economic, medical assistance to the population, free education, etc., serves the comfortable life of people and reaches the needy strata of the population mainly through social transfers.

19.	<b>Ijtimoiy transfertlar</b> – aholiga davlat va nodavlat tashkilotlari tomonidan beg‘araz tarzda pul va natural shakldagi resurslarning berilishidir.	<b>Social transfers</b> – are the transfer of resources to the population by state and non-governmental organizations in an indiscriminate form of money and in a natural form.
20.	<b>Ijtimoiy xatar</b> – kasallik, baxtsiz hodisa, farzand tug‘ilishi va uni parvarishlash, keksalik oqibatida mehnatga layoqatning yo‘qolishi, shuningdek, mehnatga talabning yo‘qligi tufayli moddiy jihatdan ta‘minlanmaganlikning yuz berish holati.	<b>Social danger</b> – is a disease, an unhappy phenomenon, the birth and care of a child, the loss of the ability to work as a result of old age, as such, the occurrence of material well-being due to the lack of demand for Labor.
21.	<b>Internat uyi</b> – bu parvarishga, maishiy va tibbiy xizmatga muhtoj qariya va nogironlarning doimiy yashashi uchun mo‘ljallangan muassasadir.	<b>Boarding house</b> – is an institution designed for permanent residence of elderly and disabled people in need of care, household and medical services.
22.	<b>Ishsizlik bo‘yicha nafaqa</b> – qonunda belgilangan tartibda ishsiz deb tan olingan fuqarolarga beriladigan nafaqa.	<b>Unemployment benefit</b> – a pension granted to citizens who are recognized as unemployed in the manner prescribed by law.
23.	<b>Keksalar</b> – 75 yoshdan 90 yoshgacha bo‘lgan aholi qatlami keksalar guruhiga kiritiladi.	<b>Elderly</b> – the population layer from the age of 75 to 90 years is included in the group of elderly people.
24.	<b>Kompensatsiya</b> – bu aniq shaxs yoki shaxslar guruhiga qonunchilikda qayd etilgan maqsadlarga sarflagan harajatlarni to‘liq yoki qisman qoplashdir. bo‘ladi.	<b>Compensation</b> – is the total or partial compensation of expenses incurred to a particular person or group of persons for the purposes stated in the legislation. will be.
25.	<b>Mehnat staji</b> – xodimning mehnat shartnomasi asosida korxonada, muassasa, tashkilotlarda yollanib ishlagan, ish haqi olgan davri (boshqa ish vaqti, dam olish vaqtlarini ham uzluksiz o‘z ichiga qamrab olgan holda) nazarda tutiladi va u yuridik fakt sifatida ijtimoiy ta‘minot masalalarida muayyan huquqlar hamda majburiyatlarni keltirib chiqaradi.	<b>Work experience</b> – on the basis of an employee's employment contract, the period of hiring and receiving wages in enterprises, institutions, organizations (including other working hours, rest periods without interruption) is stipulated, and it, as a legal fact, provides for certain rights and obligations in matters of Social Security.
26.	<b>Milliy boylik</b> – jamiyat tasarrufida	<b>National wealth</b> – is the sum of

	bo'lgan moddiy zahiralalar, to'plangan mahsulotlar, iqtisodiy oborotga kirgan yoki jalb etilgan tabiiy zahiralarning yig'indisidir.	material resources, accumulated products, natural resources that have entered or are involved in economic growth.
27.	<b>Minimal ijtimoiy standartlar</b> – bu davlat qonunlari va hukumat qarorlari asosida muayyan davrga nisbatan ijtimoiy kafolatlarning minimal darajasidir.	<b>Minimum social standards</b> – this is the minimum level of social guarantees in relation to a certain period, based on state laws and government decisions.
28.	<b>Minimal iste'mol budjeti</b> – shaxsning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan ma'naviy ehtiyojlar iste'molining ijtimoiy asoslangan minimal darajasini ta'minlaydigan iste'mol tovarlari va xizmatlari turlarining qiymati.	<b>The minimum consumer budget</b> – is the value of the types of consumer goods and services that provide the minimum socially based level of consumption of spiritual needs necessary for the development of the individual.
29.	<b>Mutlaq qashshoqlik</b> – bu daromadlarning umuman yo'qligi yoki shaxsning (oilaning) minimal turmush ehtiyojlarini qondirish uchun zarur daromadning yo'qligidir. Qashshoqlikning bu turi ko'pincha daydilar, boshpanasizlar orasida uchraydi.	<b>Absolute poverty</b> – is the total absence of income or the absence of the necessary income to meet the minimum living needs of an individual (family). This type of poverty is often called, among the homeless are threeraydi.
30.	<b>Reabilitatsiya</b> – kasallanish davrida nogironlikning oldini olish va nogironlarga jismoniy, ruhiy, kasbiy mukammallikka erishishga yordamlashishga yo'naltirilgan tiklash terapiyasi.	<b>Rehabilitation</b> – is a rehabilitation therapy aimed at preventing disability during the period of illness and helping disabled people achieve physical, mental, professional excellence.
31.	<b>Temir daftar</b> – karantin sharoitida ishsiz, daromadsiz qolgan ehtiyojmand, yordamga muhtoj oilalarning mahallada shakllantirilgan shaffof ro'yxati.	<b>Iron book</b> – a transparent list formed in the neighborhood of families in need of assistance, left without work, income in the conditions of quarantine.
32.	<b>Yoshlar daftari</b> – ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, psixologik qo'llab-quvvatlashga, bilim va kasb o'rganishga ehtiyoji va ishtiyoqi bo'lgan, ishsiz yoshlarning muammolarini aniqlash, bartaraf etish va nazoratini olib borish bo'yicha ma'lumotlar bazasi.	<b>The youth book</b> – is a database for identifying, eliminating and controlling the problems of unemployed young people who need and are passionate about social, economic, legal, psychological support, knowledge and professional study.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

### Asosiy adabiyotlar:

1. The Student's Companion to Social Policy. Fourth Edition. Edited by Pete Alcock, Margaret May, and Sharon Wright. / UK 2012. John Wiley & Sons Ltd. 496 p.

2. "Ijtimoiy siyosat". O'quv qo'llanma i.f.d. prof. A.V.Vaxabovning umumiy tahriri ostida. – Toshkent: "MUMTOZ SO'Z", 2019. 312 bet.

3. Социальная политика : учебник для бакалавров / под ред. Е. И. Холостовой, Г. И. Климантовой. – М. : Издательство Юрайт, 2013. – Серия : Бакалавр. Базовый курс.

4. Социальная политика государства и бизнеса: учебник для бакалавриата и магистратуры / под ред. О. А. Канаевой. – М. : Издательство Юрайт, 2017. – 343 с. – Серия : Бакалавр и магистр. Академический курс.

5. Abdurahmonov Q.X., Abduramonov X.X. "Aholini ijtimoiy muhofaza qilish" O'quv qo'llanma. –T.: Tafakkur bo'stoni, 2010. 260 bet.

6. Сиёсат назарияси. Дарслик / Г.Х. Юсупова, Х.Ж.Жабборов, Х.Х.Қосимова.– Т.: "Университет", 2003. 253 бет.

7. Xidiraliyev K.E. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari.- Guliston.:2019, 145 bet.

8. Зияев Т.М. Ишчи кучи ва бандлик назарияси: Ўқув қўлланма. –Т.: ТДИУ, 2009. -176 б.

### Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq. - Toshkent: "O'zbekiston", 2016. 12 - b.

2. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I. Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 22 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. Xalq so'zi.// 06.12.2014.

3. "Авесто". Тарихий-адабий ёдгўрлик. –Т.: 2001, 15-бет.

4. "Глобальные цели тысячелетия" Доклад. Узбекистан.

5. A European Economic Recovery Plan. –Brussels, 26.11.2008\\ [http://ec.europa.eu/economy\\_finance/publications/publication\\_13504\\_en.pdf](http://ec.europa.eu/economy_finance/publications/publication_13504_en.pdf)
6. Alcock P., May M. and Wright Sh. “Social Policy”. 2012. John Wiley & Sons Ltd. P. 5-6.
7. Allayarov Sh., Toshmuxamedova D. Davlat pensiya ta’minot i O’quv qo’llanma. - T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2015. - B. 232.
8. Anderson M. Family structures in nineteenth century Lancashire. Cambridge, 1981.
9. Ballard R. South Asian families. In: Rapoport R. Families in Britain. London, 1982.
10. Beattie J. Other cultures. London, 1964.
11. Davronov Sh.Z. Формирование пенсионной системы Республики Ўзбекистон и возможные угрозы дисбаланса доходов и расходов. “Pensiya tizimining moliyaviy barqarorligini ta’minlash va samaradorligini oshirish” mavzusida O‘zbekiston milliy universitetining 100 yilligiga bag‘ishlangan respublika iilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami. 2017-yil 15-noyabr. - Toshkent: “Universitet”, 2017. 19-b.
12. Elston M. Medicine: half our future doctors? In: Silverstone R. and Ward A. Careers of professional women. London, 1980.
13. Hartmann H. The family as a focus of class, gender and political struggle: the example of housework // Sings, 6. 1981.
14. Human Development Report 2014. Sustaining Human Progress: Reducing Vulnerabilities and Building Resilience UNDP. New York, 2014. P. 163.
15. Jun Peng. State and Local Pension Fund Management. (Public Administration and Public Policy) 0th Edition. USA: Publisher: Auerbach Publications (August 21, 2008). - P. 2-5.
16. Mamatov B.S. Pensiya jamg‘armasi faoliyati. - T.: “Barkamol fayz media”, 2017. 13-b.
17. Mamatov B.S. Pensiya jamg‘armasi faoliyati. - T.: “Barkamol fayz media”, 2017. 13-b.
18. Prosperity for Amerika s Families. The Gore-Lieberman Economic Plan. September 2000. Nashvilli, 2000. – P.172.
19. Raxmatova N.A. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minot i mablag‘larini samaradorligini oshirish yo‘llari. “Pensiya tizimining

moliyaviy barqarorligini ta'minlash va samaradorligini oshirish" mavzusida O'zbekiston milliy universitetining 100 yilligiga bag'ishlangan respublika iilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. 2017-yil 15-noyabr. - Toshkent: "Universitet", 2017. 185-b.

20. Umurzakov B.X. Pensiya badali soliq to'lovlaridan nima bilan farqlanadi? - T.: "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. 1-son, 2011. - B. 5.

21. UNCTAD Handbook of Statistics 2014. P. 10.

22. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik. - T.: "Noshir", 2012. - B. 676.

23. World Development Report 2011. World Bank. P.305.

24. A.V.Вахабов, Д.А.Таджибаева, Ш.Х.Хажикабиев. Жaxon Иқтисодиёти ва халқаро иқтисодий муносабатлар. – Бакткиа пресс, 2015. –Б. 56.

25. Абу Али ибн Сино. Логика. Избранные произведения. Том 1. –Душанбе: Ирфон, 1980. –С 69-103.

26. Абу Наср Форобий. Фазилат, бахт-саодат ва камолот ҳақида. –Т.: Ёзувчи, 2001. –98 б.

27. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. –Т.: Мерос, 1993. –210 б.; Фазилат, бахт-саодат ва камолот ҳақида. –Т.: Ёзувчи, 2001. –Б.98.

28. Абу Райхон Беруний. 100 хикмат. –Т.: Фан, 1999. –Б.19.

29. Аверин А.Н. Государственная система социальной защиты населения. – М: РАГС, 2007. – С.14.

30. Бакиева И.А., Холмуродов С.Э. Инсон ресурслари иқтисодиёти. Ўқув қўлланма. – Тошкент: ТДИУ, 2006. – Б. 114.

31. Болтаев М. Абу Али Хусайн ибн Синонинг фалсафий-ижтимоий таълимоти. –Бухоро, 2001. –Б.17.

32. Бородаенко А.И. Краудфандинг как перспективный способ финансирования инновационных проектов // Молодой исследователь Дона. №3(6) 2017. -С.167. Митусов М. Дополнительная время // Бизнес-Журнал. Октябрь №10, 2013. –С. 32.

33. Бровчак С.В. Пенсионное обеспечение. Российский и зарубежный опыт. - М., 2009. - С. 12.

34. Буланова Е.А. Политика и стратегия в механизме государственного регулирования социально-экономических процессов. Вестник Чувашского университета. 2006 г. №3, С 148

35. Вебер М. Хозяйство и общество / пер. с нем. под научн. ред. Л.Г.Иониной. – М.: Изд-во ГУ ВШЭ, 2010. – 456 с.
36. Витко Ф.П. Социальное партнерство: учеб.-метод. комплекс / Ф.П.Витко. – Минск: Гист БГУ, 2008. – 184 с.
37. Ганиева М.Х., Латипова Н.М., Алексеева В.С. Социальное обеспечение и социальная защита детей и молодежи. Учебное пособие. Ташкент: JODPRINT, 2017. – С.155-166.
38. Государственное стратегическое управление. Общ. ред. проф. Ю Кузнецова. Питер, 2014. С134
39. Гурова И. П. Мировая экономика. Учебник. – М.: Щмуга-Л., 2007. С. 116.
40. Джефф Малган. Искусство государственной стратегии. М.: изд. институт Гайдара. 2011. –С. 14.
41. доклад о развитии человека 2013. Возвышение Юга: человеческий прогресс в многообразном мире/Пер. с Англию; ПРООН.- М., Издательство <<Весь Мир>>, 2013. С. 227-228.
42. Доренко К.С. Социальная политика США, стран ЕС и России на современном этапе: приоритеты, принципы, правовое обеспечение/К. С. Доренко \ \ Право и управление. XXI век.-2012.
43. Дулясова М.В., Ханнанова Т.Р. Социальная защита работника: жизнь, здоровья, деловая репутация. – М.: Экономика, 2008. – С. 17.
44. Дюркгейм Э. О разделении общественного труда /Пер. с франц. Гофмана А.Б.; Примеч. Сапова В.В. / Серия: «История социологии в памятниках». – М.: Канон 1996. – 432 с.
45. Жумаев Р.З. Конфликтология асослари. Ўқув қўлланма – Тошкент, 2000.- Б.15.
46. Ибн-Сина. Даниш-намэ. Книга знания. –Сталинабад: Тадж. Гос. изд-во, 1957. –280 с.
47. Каргалова М.В. От социальной идеи к социальной интеграции. Становление социальной политики Европейского Союза. –М.: Интердиалект, 1999. –318 с.
48. Квинт В. Стратегиялаш назарияси ва амалиёти. Т.; “TASVIR”. 2018й. 18 б.
49. Кргалова М.В. От социальной идеи к социальной интеграции. Становление социальной политики Европейского Союза. –М.: Интердиалект, 1999. –318 с.

50. Кукушина В.С. Социальная защита населения: опыт организационно-административной работы. – Москва, 2007. – С. 4-5.

51. Макконелл К.Р. Брю С. Л. Экономика. М.: 1992. – С.2.

52. Михайлова Е.А. Основы бенчмаркинга: эволюция концепций качества // Менеджмент в России и за рубежом. №2, 2002. Онлайн-проект Glotr.uz станет оптимальным выбором для желающих заказать такую услугу, как Бенчмаркинг в Узбекистане. Минимальные цены, комфортные условия пользования сервисом и самый широкий ассортимент предложений от ведущих компаний – это Бенчмаркинг в Узбекистане.

53. Модель И.М., Модель Б.С. Власть и гражданское общество в России: от социального взаимодействия к социальному партнерству. – Екатеринбург: Уро РАН, 1998. –240 с.

54. Муминов А., Нишанбаева Э., Абдухалилов А. Ижтимоий шериклик. услубий кўлланма. –Т.: “Университет”, 2018, –Б. 12.

55. Павлюченко В.Г. Социальное страхование. – М.: Дашков и К, 2007. – С.38.

56. Проблемы социальной безопасности человека в современном мире: учебное пособие / сост. Л.З. Гостева. – Благовещенск: Амурский гос. ун-т, 2018. – С.17.

57. Парсонс Т. О структуре социального действия. - М.: Академ. Проект, 2002. - 880 с.

58. Римашевская Н.М. Социальная защита населения. – М.: РИЦ ИСЭП РАН, 2005. – С.5.

59. Романченко В.С. Сравнительный анализ международного опыта развития пенсионной системы. Вестник МИЕП. 2015. № 3 (20). С. 58-73.

60. С.Тўйчиева А.Ш. Норбеков. Ижтимоий сиёсат – Ўқув кўлланма– Ташкент, 2010. – В. 6.

61. Семигин Г. Социальное партнерство в современном мире. – М.: Мысль, 1996. –200 с.

62. Современный экономический словарь. М., 1997г. – С. 318.

63. Сохранили ли человечество человечность? Доклад Независимой комиссии по международным гуманитарным вопросам. –М: Международные отношения, 1989. – 21 с.

64. Социальное партнерство: социальная трансформация институтов и практик. Сборник статей и материалов

Международного казанского научного форума (19-20 октября, г.Казань). Под ред. А.Г.Большакова. –Казань: КГУ 2013. –320 с.

65. Суюян В. Роль государства в реализации приоритетов социально-экономического развития США./ <http://www.r-reforms.ru/indexpub26.htm>.

66. Травкина Н.М. США: партии, бюджет, политика. \Ин-т США и Канада РАН.М.:Наука, 2008.-с.126,127.

67. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. Тошкент «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти 187-бет

68. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2014 й., 39-сон, 488-модда.

69. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони“Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар Стратегияси тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда.

70. Усмоналиев М., Каракетов Й. Криминология. – Тошкент, 2001. – Б.338.

71. Фалсафа қомусий луғат. Т.: Шарқ, 2004. – Б. 11.

72. Хажиева М. Ўзбекистонда толерантлик жараёни. –Т.: ABU MATBUOT-KONSALT, 2008. –Б.57.

73. Холмуродов С.Э., Шоюсупова Н.Т. Иқтисодий социология - (Ўқув қўлланма) – Т.: ТДИУ, 2003 – Б. 87.

74. Ҳаракатлар стратегияси асосида жадал тараққиёт ва янгилашни сари./ Нашрга тайёрловчилар: М.Бекмуродов, Қ.Қуронбоев, Л.Тангриев. – Тошкент: Ғофур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017. – 73 б.

75. Чернов Ю.И. Производительность труда и безработная экономика. –М.: 1992, -С. 24.

76. Шевелева О.Б., Михайлов В.В. Направления системного совершенствования социальной защиты населения в регионе. – Кемерово: КузГТУ, 2004.- С.19.

77. Экономика Европейского союза: учебник/коллектив авторов; под.ред. Р.К.Щенина, – М.: КНОРУС, 2012. С. 254-268.

### Me'yoriy-huquqiy hujjatlar:

78. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2018.

79. Ўзбекистон Республикаси оила кодекси. – Тошкент: Адолат, 2000.

80. Ўзбекистон Республикасининг “Давлат-хусусий шериклик тўғрисида”ги Қонуни. 2019 йил 10 май.

81. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 18-fevraldagi “Keksalarni e‘zozlash yili” Davlat dasturi to‘g‘risida”gi PQ-2302-sonli Qarori. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2015 y., 8-son, 91-modda.

82. O‘zbekiston Respublikasining 1993-yil 3-sentyabrdagi “Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minot i to‘g‘risida”gi Qonuni, 2-modda.

83. «Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига ўзгартиш ва кўшимчалар киритиш ҳақида» Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. – Тошкент:Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2013 й., 17-сон, 219-модда.

84. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 16.04.2020 й., 09/20/228/0444-сон.

85. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Республика иқтисодиётига тўғридан-тўғри хорижий инвестицияларни жалб қилиш механизмларини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Қарори 2019 йил 29 апрелдаги 4300-сонли.

86. “Иқтисодиётни ривожлантириш ва камбағалликни қисқартиришга оид давлат сиёсатини тубдан янгилаш чора-тадбирлари тўғрисида” Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 26 мартдаги ПФ-5975-сон Фармони

87. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёев “Жамиятни ижтимоий-маънавий муҳитини соғламлаштириш, маҳалла институтини янада қўллаб-қувватлаш ҳамда оила ва хотин-қизлар билан ишлаш тизимини янги даражага олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони ПФ-5938. 2020 йил 18 февраль.

88. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 8 sentyabrdagi “Davlat pensiyalarini tayinlash va to‘lash tartibini yanada

takomillashtirishga yo‘naltirilgan huquqiy-meyoriy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 252- sonli Qarori.

89. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлиснинг Сенати ва Қонунчилик палатасига Мурожаатномаси. 24 январь 2020 йил.

#### **Internet saytlari:**

1. [https://www.vodiymedia.uz/content/112/aolining\\_moddiy\\_farov\\_onligini\\_oshirishga\\_aratilgan\\_izhtimoiy\\_siyosat\\_ustuvor\\_vazifamiz.html](https://www.vodiymedia.uz/content/112/aolining_moddiy_farov_onligini_oshirishga_aratilgan_izhtimoiy_siyosat_ustuvor_vazifamiz.html)

2. <https://daryo.uz/k/2020/07/30/ozbekistonda-1-sentabrdan-pensiyalar-10-foizga-oshiriladi/>

3. <http://uza.uz/ru/documents/o-merakh-po-obespecheniyu-ispolneniya-zakona-respubliki-uzbe-31-12-2019>

4. <http://www.spravochnik.ru>

5. [https://ec.europa.eu/eurostat/statistics-explained/index.php?title=Social\\_protection\\_statistics\\_-\\_social\\_benefits#Publications](https://ec.europa.eu/eurostat/statistics-explained/index.php?title=Social_protection_statistics_-_social_benefits#Publications)

6. <https://kun.uz/46359988?q=foiz2F46359988>

7. <http://uza.uz/ru/documents/o-merakh-po-obespecheniyu-ispolneniya-zakona-respubliki-uzbe-31-12-2019>

8. <http://daryo.uz/k/2020/07/30/ozbekistonda-1-sentabrdan-pensiyalar-10-foizga-oshiriladi/>

9. [http://www.ilo.org/dyn/normlex/en/fp=NORMLEXPUB:12100:0::NO:12100:P12100\\_INSTRUMENT\\_ID:312289:NO](http://www.ilo.org/dyn/normlex/en/fp=NORMLEXPUB:12100:0::NO:12100:P12100_INSTRUMENT_ID:312289:NO)

10. [http://xs.uz/uzkr/post/senat-yalpi-mazhlisida-davlat-khususij-sheriklik-togrisidagi-qonun-korib-chiqiladi?utm\\_source=uznet.press&utm\\_campaign=topic](http://xs.uz/uzkr/post/senat-yalpi-mazhlisida-davlat-khususij-sheriklik-togrisidagi-qonun-korib-chiqiladi?utm_source=uznet.press&utm_campaign=topic)

11. <http://lex.uz/docs/4312752>

12. <http://www.pppda.uz>

13. <http://www.forum-tvs.ru/index.php?showtopic=14395>.

## MUNDARIJA

KIRISH.....	3
<b>I-bob. IJTIMOIIY SIYOSATNING OBYEKTI VA PREDMETI.....</b>	<b>6</b>
1.1. Ijtimoiy siyosatning obyektI va predmeti, rivojlanish bosqichlari ...	6
1.2. Ijtimoiy siyosatni olib borish usullari .....	12
1.3. Ijtimoiy ehtiyojlar, ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy muammolar tushunchasi .....	13
1.4. Ijtimoiy adolat. Samaradorlik va tanlov .....	14
<b>II-bob. IJTIMOIIY SIYOSATNING NAZARIY ASOSLARI.....</b>	<b>21</b>
2.1. Qadimgi dunyoning ijtimoiy siyosiy fikri .....	21
2.2. O'rta asrlar va Uyg'onish davridagi ijtimoiy siyosiy g'oyalar.....	24
2.3. Yangi va eng yangi davrlardagi ijtimoiy siyosiy ta'limotlar.....	27
<b>III-bob. AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHDA OYLIK ISH HAQINING O'RNI.....</b>	<b>39</b>
3.1. Mehnat va oylik ish haqining ijtimoiy iqtisodiy mohiyati va uning turlari .....	39
3.2. Mehnatga oylik ish haqini tayinlashning tizimlari va mezonlari ...	51
3.3. O'zbekistonda aholi daromadini oshirishga qaratilgan ijtimoiy siyosat.....	55
<b>IV-bob. IJTIMOIIY XIZMATLAR .....</b>	<b>61</b>
4.1. Aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatishning mohiyati va tamoyillari ...	61
4.2. Ijtimoiy xizmat ko'rsatish turlari va ularning tasnifi.....	38
4.3. Ijtimoiy xizmat ko'rsatuvchi xodimlar va ularning vazifalari.....	84
4.4. Aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatishni takomillashtirish yo'llari .....	88
<b>V-bob. AHOLINI IJTIMOIIY MUHOFAZA QILISH DAVLAT IJTIMOIIY SIYOSATINING ASOSIY YO'NALISHI SIFATIDA.....</b>	<b>96</b>
5.1. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tushunchasining mohiyati .....	96
5.2. Davlat tushunchasi va uning xususiyatlari .....	103
5.3. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish mexanizmi va yo'nalishlari.....	111
5.4. Aholini ijtimoiy muhofaza qilishda davlatning o'rni .....	117
<b>VI-bob. IJTIMOIIY SIYOSATNI AMALGA OSHIRISHNING JAHON TAJRIBASI .....</b>	<b>127</b>

6.1. Ijtimoiy siyosat tarkibi va rivojlanish modellarining usulologik masalalari .....	127
6.2. Yevropa Ittifoqi davlatlari ijtimoiy siyosatining xususiyatlari.....	132
6.3. AQSH liberal ijtimoiy siyosatining mazmuni va amalga oshirish yo‘nalishlari.....	140
6.4. Sharqiy Osiyo mamlakatlari ijtimoiy siyosatining xususiyatlari .	147
<b>VII-bob. IJTIMOY SHERIKLIK TIZIMI: HOKIMIYAT TUZILMALARI BILAN ALOQALARNI O‘RNATISH .....</b>	<b>155</b>
7.1. “Ijtimoiy sheriklik” tushunchasi va uning tamoyillari .....	155
7.2. Ijtimoiy sheriklik haqidagi g‘oyalar tadriji.....	161
7.3. O‘zbekistonda ijtimoiy sheriklik modelining rivojlanish xususiyatlari .....	171
<b>VIII-bob. O‘ZBEKISTON IJTIMOY SIYOSATINING STRATEGIYASI VA USTUVOR YO‘NALISHLARI.....</b>	<b>184</b>
8.1. Strategiyasi tushunchasi va uning nazariy asoslari.....	184
8.2. Davlat strategiyasining tizimli boshqaruv omillari .....	188
8.3.O‘zbekiston milliy taraqqiyotininng yangi bosqichi .....	194
<b>IX-bob. IJTIMOY SUG‘URTA: HUQUQ, MOLIYA VA IQTISODIYOT .....</b>	<b>203</b>
9.1. Ijtimoiy sug‘urta: tushunchasi, mohiyati va shakllari .....	203
9.2. Ijtimoiy sug‘urtaning modellari va turlari .....	214
9.3.Ijtimoiy sug‘urta tizimini isloh qilishning asosiy yo‘nalishlari.....	228
<b>X-bob. DEMOGRAFIK SIYOSAT.....</b>	<b>236</b>
10.1. Demografiya fanining paydo bo‘lishi va vujudga kelishi .....	236
10.2. Demografik siyosat xususiyatlari.....	246
10.3. Aholi migratsiyasi .....	250
<b>XI-bob. PENSIYA TIZIMI MOHIYATI VA UNI ISLOH QILISH.....</b>	<b>262</b>
11.1. Pensiya ta‘minoti tizimining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va aholini ijtimoiy himoya qilish tizimida tutgan o‘rni.....	262
11.2. Jaxon mamlakatlarida pensiya ta‘minoti tizimlarini turlari va ularning o‘zgarish tendensiyalari .....	266

11.3. O'zbekistonda pensiya tizimining shakllanishi, rivojlanishi va zamonaviy tendensiyalari.....	269
<b>XII-bob. AHOLI BANDLIGI. ISHSIZLIK: IJTIMOIIY-IQTISODIY OQIBATLARI, ASOSIY KO'RINISHLARI, QISQARTIRISH YO'LLARI.....</b>	<b>278</b>
12.1. Bandlik, uning mohiyati va shakllari.....	278
12.2. Ishsizlik va uning asosiy turlari .....	284
12.3. Mehnat bozorining modellari.....	291
<b>XIII-bob. KAMBAG'ALLIK MUAMMOLARI VA ULARNI HAL QILISH YO'LLARI.....</b>	<b>301</b>
13.1. Kambag'allik tushunchasi uning ko'rinishlari va turlari.....	301
13.2. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida kambag'allikka qarshi kurashishning zamonaviy tajribalari .....	306
13.3. Dunyo mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanish jihatdan guruhlanishi.....	310
13.4. O'zbekistonda kambag'alikni qisqartirishning yo'llari va uning asosiy yo'nalishlari.....	320
<b>XIV-bob. DAVLATNING OILAGA QARATILGAN SIYOSATI.....</b>	<b>333</b>
14.1. Oila tushunchasi, uning turlari va shakllari .....	333
14.2. Xorijiy davlatlardagi oilaviy qon-qarindoshlik munosabatlari tarixi.....	340
14.3. Davlatning oila institutiga qaratilgan ijtimoiy siyosati .....	349
<b>XV-bob. IJTIMOIIY SIYOSATDA IJTIMOIIY XAVFSIZLIK ....</b>	<b>356</b>
15.1. Ijtimoiy xavfsizlik tushunchasiga doir turli xil yondashuvlar ....	356
15.2. Ijtimoiy xavfsizlikning mezonlari.....	359
15.3. Ijtimoiy xavfsizlikka doir tahdidlar .....	361
15.4. Ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashda konfliktlarni boshqarishning o'rni .....	363
Glossariy.....	369
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxat .....	374

**Abdusalilov Abdullo Abdusamitovich,  
Zaitov Elyor Xolmamatovich**

# **IJTIMOIIY SIYOSAT**

*O'quv qo'llanma*

Muharrir: X. Tahirov  
Texnik muharrir: S. Meliquziyeva  
Musahhih: M. Yunusova  
Sahifalovchi: A. Muhammad

Nashr. lits № 2244. 25.08.2020 y.  
Bosishga ruxsat etildi 07.03.2022 y.  
Bichimi 60x84 1/16. Ofset qog'oz. "Times New Roman"  
garnituras. Hisob-nashr tabog'i. 24,5.  
Adadi 300 dona. Buyurtma № 30.

«ZEBO PRINT» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
Manzil: Toshkent sh., Yashnobod tumani, 22-harbiy shaharcha





ISBN 978-9943-7921-5-9



9 789943 792159